

# ONA TILI

**QOMUS**

(Maktab o`quvchilari uchun)

Toshkent – 2009

Qomusda ona tilimiz – o`zbek tili qurilishi, u bo`yicha darslik va qo`llanmalar yaratgan olimlar, shunindek, dunyo tillari haqidagi eng muhim ma`lumotlar qisqa va lo`nda berilgan, joriy ona tili dastur va darsliklariga to`la mos keladi.

Qomus o`rta va katta yoshdagi maktab o`quvchilari, shuningdek, abituriyent, talaba va qiziquvchilarga mo`ljallangan.

#### **Mualliflar:**

Baxtiyor Mengliyev (rahbar) (O`zMU), Zamira Azimboyeva (Toshkent SHXTBB), Vazira Karimjonova (O`zMU), Tursunali Jumayev (Qarshi DU), Ikrom Xudoynazarov (Qarshi DU), Bashorat Bahriddinova (Qarshi DU), Otabek Shukurov (Qarshi DU), Olima O`rinova (Qarshi DU), Nargiza Musulmonova (Qarshi DU), Ikrom Islomov (O`zMU), Xurshida Qodirova (O`zMU), Dildora Shodmonova (Qarshi DU), Kamola Rixsiyeva (O`zMU), Xosiyat Suvonova (Toshkent shahar Shayxontohur TXTB), Muhayyo Niyozmetova (Toshkent shahar Shayxontohur TXTB), Mansur Xushvaqtoev (Toshkent shahar AL va KHKB), Dildor Bozorova (Qarshi DU), Nilufar Yo`ldosheva (Qarshi DU), Ra`no Mirzayeva (Toshkent shahar AL va KHKB), Shahodat Rahmatullayeva (Qarshi DU), Umida To`rayeva (Qarshi DU), Yoqub Ibatov (Qarshi DU), O`ral Xoliyorov (Termiz DU), Sanobar Xurramova (Qashqadaryo viloyat Qarshi TXTB), Shoiri Bobomuxamedova (Termiz DU), Nilufar Mo`minova (Qarshi DU), To`ychi Valiyev (Qarshi DU), Maqsad Bahriddinov (Qarshi DU), Go`zal Himmatova (Termiz DU)

#### **Tuzuvchilar:**

**BAXTIYOR MENGLIYEV, O`RAL XOLIYOROV**

#### **Dastlabki muharrirlar**

To`ra Nafasov, Bashorat Bahriddinova

#### **Mas`ul muharrirlar:**

filologiya fanlari doktori, professorlar

**Hamid Ne`matov**

**Ra`no Sayfullayeva**

#### **Taqrizchilar:**

filologiya fanlari doktori, professor

**Nizomiddin Mahmudov**

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Muhabbat Abduraimova**

#### **Nashr uchun mas`ul:**

**XURSHIDA QODIROVA**

## SO`ZBOSHI

Respublikamizda ta'limning umumiy maqsadi – ijodiy va mustaqil fikrlovchi hamda yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash. Bu esa har bir fanning maqsad va vazifalarini belgilab olishni taqozo etadi. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida ta'lim o'quvchining ongli va faol ravishda o'z malaka va ko'nikmalarini shakllantirishiga qaratilgan. Demak, ta'lim usuli, mazmuni hamda ta'lim vositalari ana shu vazifalarning aniq va puxta bajarilishiga yo'naltiriladi.

Inson shaxsida ruh, tafakkur va til chambarchas bog'liq. Bundan ijodiy va mustaqil fikrli, ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda ona tili va uning ta'lim usuli hamda vositalarining o'rni va roli beqiyosligi ayon bo'ladi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti shakllanib, taraqqiy etmoqda. Jamiyatda mulkchilik munosabatlari qaror topib, jamiyat a'zolari ongida boqimandalik kayfiyati, fikriy tanballik hissi o'rni iqtisodiy tafakkur, tadbirkorlik, yo'qdan bor qilish, ichki imkoniyatlarni ishga solish istagi egallab, aql-idrokka qudratli yaratuvchi kuch sifatida qarash, chetdan madad kutmaslik tuyg'usi shakllanmoqda.

Bozor iqtisodiyoti ta'limda tarbiyalanuvchining mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmasi va malakasini hosil qilishni taqozo qilar ekan, shunga muvofiq, o'qitish usuli iqtisod va mafkuraning o'zi kabi keskin isloh qilishni taqozo etdi. Chunki an'anaviy reproduktiv (lot: *re* – “takrorlash”, *produco* – “yarataman”) usul mohiyatan bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera olmaydi. Prezidentimiz I.Karimov “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” nomli ma'ruzasida bu masalaga alohida e'tibor qaratdi: “Ta'lim-tarbiya islohoti haqida gapirar ekanmiz, uning mazmunini lo'nda qilib ifoda etish mumkin: bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'lim-tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak.” Bunda bitiruvchi deganda, albatta, maktab dasturida belgilangan bilimlarni egallagan shaxslar nazarda tutilmoqda. Bu Prezidentimizning quyidagi fikrida yaqqol ifodalangan: “Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'lga. Mustaqil fikrlash katta boylik.” Demak, bozor iqtisodiyoti bilimli shaxsgagina emas, balki bilim olish yo'llarini puxta o'zlashtirgan, mustaqil idrok qilish ko'nikmasiga ega bo'lgan ongli fuqaroga ehtiyoj sezadi.

O'tgan asrning birinchi yarmida adabiy til me'yorlarini belgilash va omma ongiga singdirish, savodsizlikni tugatish talabi asosida ona tili ta'lim maqsadi belgilangan. Ta'lim oluvchilarni tilning ichki qurilishi bilan tanishtirish, qonuniyatlarini o'rgatish asosida xalq ongiga adabiy til me'yorlari singdirilgan. Shuning uchun tilshunoslikda qo'yilgan, hal etilgan vazifalar va qo'lga kiritilgan yutuqlar asosida ilk ona tili darsliklari yaratilgan. Darsliklarda o'zbek tilining imlosi, fonetik va grammatik qurilishini chuqur va atroflicha o'rgatishga katta e'tibor qaratilgan. Tilshunoslikdagi ilmiy yutuqlar davr sinovidan o'tib, maktab ona tili darsliklaridan o'rin olgan. Bu darsliklar asosida kishilarning savodi chiqib, adabiy til me'yorlari ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ommalashgan. Jamiyat yaxlit va yagona adabiy til me'yorlariga ega bo'lgan.

Demak, bu davr darsliklari o'z vazifasini muvaffaqiyat bilan ado etdi.

Yangi davr masalaga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Ma'lumki, har qanday moliyalash uning qanday samara berishini mo'ljal qilgan holda amalga oshiriladi. Xo'sh, bugungi kunda ona tili ta'limining samarasi o'quvchining olgan

lingvistik bilimimi yoki ona tili imkoniyatlarini egallash va mustaqil tafakkurining o`lish darajasimi?

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, qabul qilingan davlat ta'lim hujjatlarida ona tili ta'limi maqsadi muayyanlashtirildi. Umumiy o`rta ta'lim o`quv dasturida ona tili ta'limi oldiga quyidagi bosh maqsad qo`yildi: "Ona tili mashg`ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og`zaki, yozma shakllarda to`g`ri, ravon ifodalash ko`nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratishi lozim." Chunki umumiy o`rta ta'limning 5–9 sinflarida o`quvchilarning ruhiy-fiziologik holati o`ziga xos, ularda ijodiylik, o`zlashtirilgan bilimi, egallagan ko`nikma va malakasi asosida ijod qilish, ya'ni yaratish, bunyod etishga, yangilik va g`ayrioddiylikka qiziqish kuchayadi.

Demak, ona tili ta'limi jarayonida asosiy diqqatni o`quvchining so`z boyligini oshirish, so`zlarning ma'no nozikliklari, farq va o`xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so`zlarni bog`lab gap, gaplardan esa matn tuza olish, birikmalardagi ma'noviy va grammatik, matndagi mantiqiy xatolarni topish va tuzatish, o`zganing fikrini to`g`ri anglash, bir fikrni turli shaklda ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutq vaziyatini to`g`ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko`nikmalarini shakllantirish va malakasini o`stirishga qaratish zarur. O`quvchiga mana shu amaliyot uchun kerak bo`lgan ayrim fonetik, leksik va grammatik qoidalarnigina berish, fikrni ifodalash va anglashning turli mexanizm va usullarini, ularni turli nutq sharoitiga mos ravishda qo`llash yo`llarini tavsiya etish, bunga asoslangan mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, notiqlik va madaniy nutq mashg`ulotlariga e'tiborni kuchaytirish zarur. Demak, tom ma'nodagi zamonaviy ta'limda tilshunoslikning ilmiy masalalariga doir qoidalar keskin qisqartirilib, uncha chuqurlashtirilmagan lingvistik ma'lumotlar tafakkur va nutq o`stirish amaliyoti "soyasi"da bo`lishi va unga xizmat qilishi, o`quvchining miyasi zinhor samarasiz lingvistik qoida va idroki til qurilishiga doir mashqlar bilan band qilib qo`yilmasligi maqsadga muvofiq.

Ona tilidan davlat ta'lim standartlari asosidagi o`quv dasturida zarur bilimni olish va ko`nikmalarni hosil qilish uchun o`quvchi tomonidan bajariladigan o`n xil uzviy ketma-ketlikdagi faoliyat tavsiya etilgan (kuzatish, izlanish-o`ylash, alohidalikni sharhlash, qiyoslash, umumiylikni aniqlash, farqlarni topish, tasnif qilish, aloqadorlikni aniqlash, qo`llash). Bu isloh qilingan ona tili ta'limi vositasi bo`lgan ayrim darsliklarda ma'lum darajada o`z aksini topdi. Lekin ular ham faqat til qurilishini o`rganish misolida amaliyotga tatbiq qilindi. Bu hol, albatta, amaldagi ona tili ta'limi reproduktiv darsliklardan yangi – kognitiv dastur-darsliklarga o`tish davrini boshdan kechirayotganligi bilan izohlanadi.

Xullas, davr ona tili darsliklaridan o`quvchilarga o`zbek tili qurilishi haqidagi bilimni emas, balki tom ma'noda ona tili imkoniyatini egallash mexanizm va usullarini berishini taqozo qilmoqda.

Pedagoglar mustaqil fikrlash ko`nikmasini shakllantiruvchi ta'lim sifatida, reproduktiv o`qitishga zid o`laroq, kognitiv ta'limni ustun qo`yishadi. Zarur bilim zahirasi berishga xizmat qiluvchi reproduktiv ta'limning asosiy vositasi sifatida darsliklar e'tirof etiladi. Chunki unda o`quvchi egallashi lozim bo`lgan bilimlar silsilasi, tegishli qoida va xulosalar, unga mos mashq va topshiriqlar tizimi, uni bajarish

namunasi tayyor qilib beriladi, o`quvchining shu bilan chegaralanishi kifoya qilib qo`yiladi. Kognitiv (ingl.: *cognition* – bilishga oid, idrokiy) ta`lim esa o`quvchini izlanish, qiyoslash, xulosa chiqarish va zarurini tanlashga yo`naltiradi. Demak, reproduktiv ta`lim bilim bersa, kognitiv ta`lim bilim olishga undaydi, bilim olish yo`llarini o`rgatadi, usullarini tavsiya etadi – o`quvchi qo`liga bilim kalitini tutqazadi. Chunki bilim cheksiz, uning barchasini o`quvchiga o`rgatib bo`lmaydi.

Kognitiv ta`limda darsliklar faqat sistemaviy izchillikka ega topshiriqlar tizimidan iborat, o`quvchini ana shu topshiriqlarni o`qituvchi nazoratida bajaruvchi, izlanuvchan va faol sub'yektga aylantiradi. G`arb pedagoglari A.Ozbel, P.Flagg, A.Reynolds kabilar tomonidan ko`tarilgan va ilmiy asoslangan bu ta`lim usuli bugungi kunda jahonda ilg`or ta`lim usuli sifatida e`tirof etilgan.

Kognitiv ta`limning asosiy vositasi algoritmik dasturlar, u faqat yo`naltirish va boshqarish vazifasinigina bajaradi va o`quvchilarning tajribaviy, amaliy bilim egallashini ta`minlashga qaratiladi. Algoritmik darslikni “O`zbek tilining izohli lug`ati”da *algoritm* so`ziga berilgan izoh yordamida tasavvur qilish mumkin: “ALGORITM, algorifm [lot. Algoritmi – X asrda yashagan buyuk o`zbek matematigi Al-Xorazmiyning nomidan] ma`lum bir turga oid masalalarni yechishda ishlatiladigan amallarning muayyan tartibda bajarilishi haqidagi aniq qoida (dastur). Algoritm muayyan ketma-ket bajariladigan jarayonlar majmuasi, nazariy va amaliy masalalarni yechishda ishlatiladi.” Ona tilining kognitiv ta`limi o`z maqsadiga faqat ana shunday xarakterdagi algoritmik dasturlar asosidagina erisha oladi.

Demak, davr bizning oldimizga ona tilidan algoritmik (xoh elektron, xoh qog`oz variantli) darsliklar yaratish, buning uchun ularning pedagogik-psixologik va metodik asoslarini ishlab chiqish, dasturini tuzish, mazmunini belgilash, har bir sinf uchun mundarijasini rejalashtirishdan iborat mas`uliyatli vazifani qo`ymoqda. Bu esa, avvalo, o`quvchining qo`lida tegishli ma`lumotni bera oladigan o`quv materiali – ta`lim vositalari bo`lishini taqozo qiladi.

O`zR VMning 1999- yil 16- avgustdagi Qarori asosida tasdiqlangan “Ona tili” dasturi “Uqtirish xati”da “Ta`lim usuli induktivdir” deyilgan. Induktiv ta`lim algoritmik dasturlar asosida amalga oshirilgan ekan, bunga ko`ra, hodisalarni kuzatish, ularni umumlashtirish, narsa-buyum, holatlarni o`zaro qiyoslash, ular orasidagi o`xshashlik va farqlarni aniqlashga qaratilgan, o`quvchilarni o`ylash, fikrlash, izlash, topish va umumlashtirishga undovchi ta`lim usuli muammoli vaziyat, mashq va topshiriqlarni talab qiladi. O`quvchi algoritmik darslikda berilgan izchil ketma-ketlikdagi topshiriqlarni turli o`quv vositalaridan foydalangan holda bajarish bilan dasturda mo`ljallangan xulosaga olib kelinadi. Tom ma`nodagi amaliy mashg`ulotlar shu tarzda ona tilida nutqiy malaka hosil qilish hamda mustaqil xulosa chiqarish ko`nikmasini shakllantiradi.

Umumiy o`rta ta`lim uchun ona tilidan o`quv dasturida ona tili o`qitishning asosiy vositalari sanalgan: “Ilk bosqichda: 1. Dastur asosida yaratilgan darsliklar. 2. O`zbek tili bo`yicha lug`atlar: “O`zbek tilining izohli lug`ati”, “O`zbek tilining uyadosh so`zlar lug`ati”, “O`zbek tilining ma`nodosh so`zlar lug`ati”, “O`zbek tilining shakldosh so`zlar lug`ati”, “O`zbek tilining zid ma`noli so`zlar lug`ati”. Ikkinchi bosqichda bu vositalar sirasi “O`zbek tilining ters (teskari) lug`ati”, o`zbek tilidagi ensiklopediya, ona

tili mashg'ulotlarida og'zaki va yozma tasvir uchun izohli albom, ishlatilishi lozim bo'lgan zarur so'zlar berilgan rasm-tasvirlar va hokazo. bilan to'ldirilishi lozim."

O'quvchi algoritmik dasturda berilgan topshiriqlarni bajarish uchun turli lug'at, qomus, ma'lumotnoma, so'zlik, matnlar to'plami, mashqlar to'plami bilan ish ko'radi, ulardan foydalanadi – izlanadi. Topshiriqlar tizimi ta'lim vositalaridan o'rinli foydalanish, unda berilgan birliklarni kuzatish, saralash, qiyoslash, tanlash kabi izchil ketma-ketlikdagi amaliyotlarni bajarishni taqozo etadi.

Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning tilning so'z boyligini egallashi uning leksikasi bo'yicha, til imkoniyatlarini qo'llay bilishi matniy topshiriqlarni bajarishida namoyon bo'ladi. Nutq boyligini oshirishda leksika va u bo'yicha olib boriladigan mashg'ulotlarning o'zni boshqa bo'limlarga nisbatan ustun. Shuning uchun ta'lim vositalari sirasida o'quv lug'at va qomuslarining roli katta. Ona tilining reproduktiv ta'limida o'quvchilar uchun faqat "Imlo lug'ati" mavjud, u ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining savod chiqarishi uchun mo'ljallangan. Albatta, egallanishi zarur bilimlarni o'zida jamlagan darslik uchun esa izlanish manbalari ham shart emas.

Ko'rinadiki, ona tili ta'limi yangi maqsadiga yangi tipdagi algoritmik dastur-darslik va unga hamroh rang-barang ta'lim vositalari yordamida erishishi mumkin. Bunday dastur-darslik asosida tadbirkor, axborot manbaidan to'g'ri, oqilona, unumli, samarali va tez foydalana oladigan, o'z sharoitida ularni ongli va maqsadli qo'llay biladigan barkamol shaxs voyaga yetadi.

Bugungi kunda hukumat tomonidan yo'lga qo'yilayotgan kognitiv ta'limning talablarini chin dildan his qilgan fidoyi mutaxassislar tomonidan qator o'quv lug'atlari yaratildi. O.Shukurov va B.Boymatovanning "O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati", Y.Hamrayevaning "O'zbek tilining o'zlashma so'zlar o'quv lug'ati", U.To'rayeva va D.Shodmonovanning "O'zbek tilining zid ma'noli so'zlar o'quv lug'ati", B.Mengliyev va B.Bahriddinovanning "O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati", X.Suvonova va G.Turdiyevaning "O'zbek tilining shakldosh so'zlar o'quv lug'ati", T.Nafasov va V.Nafasovanning "O'zbek tilining o'quv toponimik lug'ati", "O'zbek tilining talaffuzdosh so'zlar o'quv lug'ati", X.Norxo'jayevaning "O'zbek tilining eskirgan so'zlar o'quv lug'ati", B.Mengliyev, B.Bahriddinova, O'.Xoliyorov, M.Zaripova va M.Xushvaqto'vning "O'zbek tilining so'z yasalishi o'quv lug'ati" kabilar shular jumlasidan. Lug'atlarni jamoatchilik iliq kutib oldi. Bu haqda "Ma'rifat" gazetasida "Beshikdagi Alpomish", "Beshikdagi Alpomish – lug'atlar guldastasi", "Til va adabiyot ta'limi" jurnalida "Yangi o'quv lug'atlari", "O'quv lug'atlarini yaratish – dolzarb vazifa" kabi maqolalar e'lon qilindi. Ayniqsa, "Ona tili. Tilshunoslik atamalari lug'ati", "Ona tili. Qomus" kabi vositalarning nashr etilayotganligi quvonarli hol.

Bu ona tili kognitiv ta'limining ayrim vositalari va ilk tajriba namunalari. Algoritmik dastur ularning takomillashgan, sifat va son jihatdan yuksak, yangidan-yangi va noan'anaviy turlarini yaratishni talab qiladi.

Rivojlangan davlatlarda, xususan, Rossiyada o'quv lug'atchiligi o'tgan asrning 40–50- yillaridayoq keskin rivojlandi, ta'limning har bir bo'g'ini uchun (maktabgacha tarbiya muassasasidan oliy maktabgacha) yuzlab lug'atlarning maxsus turlari yaratilib, ular maktab darsliklarining bir qismiga aylangan. Bugungi kunda Rossiya o'rta ta'lim bo'g'ini uchun ellikdan ortiq ensiklopediyaning yaratilganligi diqqatga sazovor. Maktab darsliklari uchun ilova sifatida "Bolalar uchun qomus" seriyasida "Avanta" nashriyot

birlashmasida 73, 92 bosma toboq hajmida chop etilgan “Языкознание. Русский язык” qomusi – fikrimizning dalili. Albatta, o`quv vositalarini chop etish ularning ilmiy va pedagogik asoslarini ishlab chiqish bilan belgilanadi. Mas., sobiq tuzum davridayoq rus tili bo`yicha bu masala dolzarb vazifa sifatida qo`yilib, o`quv lug`atchiligi nazariyasi va amaliyotida katta yutuqlarga erishildi, o`quv lug`atlarining ilmiy va pedagogik asoslari, ta`lim jarayonidagi ahamiyati bo`yicha jiddiy tadqiqotlar bajarildi va natijalari leksikografik amaliyotga tatbiq etildi. Bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari samarasi sifatida o`sha davrda rus maktablari uchun 30 dan ortiq o`quv lug`ati yaratilgan edi. Biroq o`zbek fanida o`quv lug`atchiligining na nazariy, na amaliy tomoniga e`tibor qaratildi. O`rta umumiy ta`lim uchun birorta ham o`quv lug`ati yaratilmagani holda, uning nazariy masalalari muammo sifatida hatto kun tartibiga ham qo`yilmadi.

Istiqlol natijasi o`laroq, o`zbek tilshunosligi tom ma`nodagi mustaqil fan sifatida shakllandi va tilimizning o`ziga xos ichki qurilishini boshqa tillar qoliplariga solmasdan o`rganish fanning ustuvor vazifasi sifatida qo`yilib, buning natijasi o`laroq tilshunoslikda substansial yo`nalish shakllandi va jahon tilshunosligida e`tirof etildi (Bu haqda «O`zbekiston ovozi» gazetasining 2008- yil 29- yanvar sonida material berilgan). Ammo tan olib aytish kerakki, bugungi kunda o`quv lug`atchiligi amaliyoti ma`lum darajada yo`lga qo`yilayotgan bo`lsa-da, o`quv lug`atlarining lingvistik va pedagogik asoslarini ishlab chiqish, muayyan o`quv lug`atlarini tuzish tamoyillarini belgilash o`zbek tilshunosligi va lingvodidaktikasida dolzarb muammo bo`lib turibdi.

**Baxtiyor Mengliyev**  
filologiya fanlari doktori, professor

## UQTIRISH XATI

Qomus maktab o`quvchisi va o`qituvchisi, shuningdek, filologiya yo`nalishi talabalari va ona tili faniga qiziquvchlarga mo`ljallangan. U ona tiliga doir tushunchalar, tillar, shuningdek, maktab uchun darsliklar yozgan olimlar haqida ma'lumot beradi. Har bir maqola sodda va ixcham tarzda bayon qilingan, maktabning amaldagi dastur va darsliklariga mos.

Qomusda o`rta maktab ona tili darsliklaridagi barcha tushunchalarni imkon qadar qamrab olishga harakat qilindi.

Qomusdan foydalanishda uning oxirida ilova qilingan asosiy tushunchalar ko`rsatkichiga murojaat qilish qulaylik tug`diradi. Ko`rsatkichda bosh harflar bilan qomus maqolalari mavzusi, unga mas`ul shaxs, maqola sahifasi berilgan. Kichik harflar bilan berilgan tushuncha haqida ma'lumot olish uchun *qarang (q.)*, *aynan (ayn.)* ishoralari asosida yo`l tutish lozim. Mas., “**Antonimiya** (ayn. **Zid ma`nolilik**)”. Demak, antonimiya hodisasi haqida ma'lumot olish uchun “**ZID MA`NOLILIK**” maqolasiga murojaat qilish lozim. Yoki “**Birgalik nisbati (q. Nisbat shakllari)**”. Bunda birgalik nisbati haqidagi ma'lumot “**NISBAT SHAKLLARI**” maqolasidan izlanadi.

Qomus – ilk tajriba. Shuningdek, u ona tili ta`limi vositalari sirasida ushbu turdagi birinchi manba bo`lgani uchun kamchilikdan xoli emas. Shuning uchun tuzuvchi va tushunchalar tavsifi uchun mas`ullar qomusni mukammallashtirishga doir barcha taklif va mulohazalarni sidqidildan qabul qiladi.

Qomus o`rta ta`lim bo`g`inlari o`quvchilari uchun o`quv qo`llanmasi (ona tili ta`limining yordamchi vositasi) bo`lganligi sababli maqolalarni tayyorlashda o`rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari darsliklari, A.Hojiyevning “Lingvistik terminlarning izohli lug`ati” (-Toshkent, “O`qituvchi”, 1985), 12 tomli “O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi” dan keng foydalanildi.

### Shartli qisqartmalar:

*q.* – qarang

*qiyos.* – qiyoslang

*ayn.* – aynan

*va b.* – va boshqalar

*e. a.* – eradan avvalgi

*va h.* – va hokazo

*yunon.* – yunoncha

*lot.* – lotincha

*mas.* - masalan



## **ABDURAHMONOV G`ANIJON**

O`zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi G`anijon Abdurahmonov 1925- yil 3-dekabrda Farg`ona viloyatida tavallud topgan. U tilshunos olim sifatida o`zbek tili tarixi, o`zbek tili fonetikasi, morfologiyasi, sintaksisi, tilning badiiy-estetik vazifasi, shuningdek, tilshunoslikning umumiy masalalari doirasida barakali faoliyat ko`rsatib kelmoqda. Xususan, «Gapning ajratilgan ikkinchi darajali bo`laklari» (1956), «Qo`shma gap» (1957), «Qo`shma gap sintaksisi asoslari» (1958), «Qo`shma gap sintaksisi» (1964), «O`zbek adabiy tilining uslubiy normalari» (1973), akademik A.Rustamov bilan hamkorlikda yozilgan «Alisher Navoiy asarlarining grammatik xususiyatlari» asarlari alohida ahamiyatga ega.

Akademik G`.Abdurahmonov oliy va o`rta ta`lim bo`g`inlarida filologiya ta`limini yuksaltirish sohasida tinimsiz mehnat qilmoqda. Jumladan, akademik A.Rustamov bilan hamkorlikda yozilgan «Qadimgi turkiy til» (1982), Sh.Shukurov bilan hamkorlikda yozilgan «O`zbek tilining tarixiy grammatikasi» (1973) kabi qator asarlari bilan o`zbek ilmiy tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishi uchun xizmat qildi. Uning tahriri ostida o`zbek tilining ikki tomli akademik grammatikasi («O`zbek tili grammatikasi» (2 tomli, 1975–76)) yaratildi. X–XI sinflar uchun yozilgan ona tili dasturi va darsligi ko`p yillardan buyon yosh avlodga til haqida bilim berishga xizmat qilib kelmoqda.

## **ABDURAIMOVA MUHABBAT**

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Muhabbat Abduraimova 1943 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan. Olima o`zining sal kam 50 yillik pedagogik faoliyati davomida yoshlar ongi va shuuriga ona tiliga mehr va sadoqat tuyg`ularini singdirish, darsliklarning yangi avlodini yaratish, ona tili ta`limi mazmunini yangilash kabi islohotlar bilan bog`liq jarayonlarda faol ishtirok etib kelmoqda.

Olima ona tili va o`zbek tili ta`limini takomillashtirishning dolzarb masalalari bilan shug`ullanuvchi Respublika Doimiy anjumani tashabbuskori va tashkilotchilaridan biri. 8- sinf “Ona tili” darsligi mualliflaridan biri.

M.Abduraimova ayni paytda O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi Respublika Ta`lim markazi filologiya bo`limini boshqarib kelmoqda.

## **ABDURAUFI FITRAT**

Shoir va nosir, dramaturg va publitsist, tilshunos va adabiyotshunos, tarixchi va faylasuf, san`atshunos va jamoat arbobi Abdurauf Fitrat 1886- yilda Buxoroda ziyoli oilasida tavallud topgan. Buxoro va Istanbul madrasalari va dorilfununlarida o`qigan. Arab, fors va turk tillarini mukammal bilgan. Otasi savdogar bo`lib, 1918- yilgacha Qashqarda turib qolgan. Fitrat 1909- yili Turkiyaga o`qishga borib, 1913- yilgacha Istanbul dorilfununida tahsil ko`rgan. Turkiyada tashkil topgan “Buxoro ta`limi

maorifi” uyushmasida faollik ko`rsatgan. Uning ilk to`plami “Sayha” (1911) va asarlari “Sayyohi hindi”, “Munozara” shu yillari Turkiyada chop etilgan. Asarlari jadidchilik g`oyalari bilan sug`orilgan. U Turkiyada Fitrat (zukko, dono, bilimdon) deb taxallus olgan. Ijodi o`z xalqini zulm botqog`idan qutqarish, Ovro`pa fani va madaniyatini targ`ib qilish g`oyasini ilgari suradi. 1917- yilgi fevral inqilobidan keyin “Hurriyat” gazetasini tashkil etib, unda asarlari bosiladi. Uning “Qon”, “Begijon”, “Temur sag`anasi”, “ O`gizxon”, “Abo Muslim”, “Hind ixtilochilari”, “Chin sevish”, “Abulfayzxon”, “Arslon”, “Vose` qo`zg`oloni” dramalarida milliy mustaqillik uchun kurash ifodalangan. 1922- yili nashr etilgan “O`zbek yosh shoirlari” to`plamida “Mirrix yulduziga”, “Behbudiyning sag`anasini izlab”, “Sharq”, “Shoir” she`rlarida Oktabr inqilobidan keyingi voqealarning g`ayri insoniy mohiyatini fosh qilgan. “Shaytonning tangriga isyoni” dramasi, “Qiyomat” kabi hikoyalarida diniy aqidaparastlik fosh etilgan.

Adabiyotshunos sifatida “Adabiyot qoidalari”, “Eski o`zbek adabiyoti namunalari”, “Aruz haqida” kabi ishlari, Hayyom, Firdavsiy, Bedil, Navoiy, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg`oniy haqida tadqiqot yaratgan.

Fitratning o`zbek tili grammatikasiga oid darsliklari (“Sarf”, “Nahv”) 1925–1930- yillarda besh marta chop etilgan. Filologik tadqiqotlari uchun unga o`zbek olimlari orasida birinchilardan bo`lib professor unvoni berilgan.

Fitrat 1938- yil 4- oktabrda hukumat qarori bilan otib o`ldirilgan.

1991- yil 25- sentabrda adabiyotshunoslik sohasidagi xizmatlari uchun Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti berilgan.

## **ABDULLAYEV YO`LDOSH**

“O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan xalq ta`limi” xodimi, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Y.Abdullayev 1926- yilda Toshkent shahrida tug`ildi. 1940- yilda Toshkent O`qituvchilar instituti va O`rta Osiyo davlat universitetining filologiya fakultetida tahsil oldi. 1950-yildan Qori Niyoziy nomidagi Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutiga ilmiy xodim bo`lib ishladi.

Y.Abdullayev bir necha darslik, o`quv qo`llanmasi, yuzdan ortiq maqolalar muallifidir. “Sintaksis va punktuatsiya mashqlari to`plami” (Z.Ma`rufov bilan hamkorlikda) 1952-1956 yillarda besh marta nashr hilingan. 5-6- va 7-8-sinflar uchun “O`zbek tili darsligi” (A.Borovkov, Z.Ma`rufov, T.Shermuhamedov bilan hamkorlikda) 1957- yildan 2002- yilgacha amalda bo`ldi.

“Diktantlar to`plami” (Sh.Koyenov bilan hamkorlikda, 2- nashri) 1957- va 1966- yillarda, “Imlo lug`ati” (O`rta maktab o`qituvchilari uchun, M.Omilxonova va S.Zufarova bilan hamkorlikda) 1970- yilda nashr qilingan.

Y.Abdullayev bir necha marta “Faxriy yorliq”lar va “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan.

## **ABU HAYYON AL-ANDALUSIY**

Asiruddin Muhammad ibn Yusuf ibn Ali al-Gʻarnotiy (1256–1334) – tilshunos olim. 65 ta asar yozgan, ularning oʻntadan koʻprogʻi bizgacha yetib kelgan. “Kitob ul-mubayyin fi tarix il-Andalus (“Andalusiya tarixi haqida bayon qiluvchi kitob”), “Zahr ul-mulk fi taharrurit turk” (“Turk ozodligi chechagi”), “Kitob ul-idrok li lison il-atrok” (“Turkiy tillarni bilish kitobi”), “Kitob ul-afʻol fi lisonit turk” (“Turk tilidagi feʻllar kitobi”), “Mantiq ul-furs li lison il-furs” (“Fors tilini bilmaydiganlar uchun fors tili haqida soʻzlar”), “Ad-durrat ul-muziʻa fi lugʻatit turkiya” (“Turkiy til haqida nur beruvchi marvarid”) kabi asarlari mavjud. U asarlarida turkiy tillarning grammatikasi va leksikasi, oʻsha davrda mavjud boʻlgan koʻpgina turkiy lahja va shevalar haqida maʼlumot bergan. Uning asarlari turkiy tillar tarixini bilishda muhim manba.

## “ABUSHQA”

“Abushqa” – «Al-lugʻat un-navoiya va al istish xodatul chigʻatoiya» (Navoiy lugʻati va chigʻatoy tili dalillari). Ilmiy jamoatchilik orasida «Abushqa» nomi bilan mashhur boʻlgan bu lugʻat 1560- yilda Aloyi binni Muhibiy tomonidan tuzilgan, Alisher Navoiyning badiiy, ilmiy, tarixiy asarlaridan olingan soʻzlarning lugʻaviy maʼnolarini izohlashga bagʻishlangan. Lugʻat muallifi turkiy xalqlarga tushunarli boʻlmagan har xil grammatik shakldagi 2000 ta soʻzni alfavit tartibida koʻchma maʼnolari, maʼno boʻyoqlari bilan izohlaydi. Asar 1869- yilda Velyaminov-Zernov tomonidan nashr qilinib, soʻzlar semantikasini oʻrganishda qimmatli manba boʻlib kelmoqda.

## ADABIY TIL

Adabiy til umumxalq tilining olim, yozuvchi va shoirlar tomonidan qayta ishlangan, meʼyorga solingan, hamma uchun umumiy boʻlgan, yuqori darajada sayqallashgan shakli. Davlat muassasasi, matbuot, radio, televideniye va taʼlim, madaniyat va ilmda adabiy tildan foydalaniladi. Adabiy til umumxalq tilidan tashqarida boʻlmaydi. Adabiy til boʻlishi uchun umumxalq tili yozuv bilan taʼminlangan, qonun-qoidasi aniqlangan, mutaxassislar tomonidan qayta ishlangan boʻlishi lozim. Adabiy tilning **ogʻzaki** va **yozma** koʻrinishi mavjud. Ogʻzaki shakl **soʻz, tovush, gap, ohang, pauza** (toʻxtam) bilan, yozma shakli esa **harf, yozuv, tinish belgisi** bilan ish koʻradi. Adabiy tilning ogʻzaki va yozma shakli oʻz meʼyoriga ega. Uning ogʻzaki shakli kishi uchun bevosita, yozma adabiy til esa bilvosita aloqa vositasi. Chunki yozuvda qogʻoz, ruchka, yorugʻlik boʻlishi kerak. Ogʻzaki muloqotda bu shart emas.

Dunyodagi koʻpgina tilning hozir ham adabiy shakli yoʻq.

## AGGLU TINATIV TILLAR

Agglutinativ tillar – oʻzak va qoʻshimchaning erkin aloqasiga asoslangan tillar. Mas., turkiy, fin-ugor, moʻgʻul, dravid, bantu, yapon va boshqa tillar (qiyos. **Flektiv tillar**). Agglutinativ tillarda soʻz tarkibida ishtirok etayotgan har bir qoʻshimcha bir maʼnoni anglatgan holda birin-ketin yopishib kelaveradi: *maktabimizga* soʻzida [-imiz] – egalik, [-ga] – joʻnalish; tatar tilida *avel* – *ovul* (bosh kelishik), *avelda* – oʻrin-payt;

venger tilida *haz – uy, hazba – uyda, hazak – uylar, hazakba – uylarda*. Bu tizimdagi tillarda o`zak va qo`shimchalar erkin birikib, mexanik ravishda qo`shilaveradi, lekin o`zak bilan qo`shimcha birikib, singib ketmaydi, balki ajralib turadi. Agglutativ tillar tizimidagi **turkiy tillar** uchun old qo`shimcha emas (tojik tilidan o`zlashib qolgan ayrim *ba-*, *be-*, *no-* prefikslardan tashqari), so`ng (ort) qo`shimchalar xosdir; qo`shimchalar o`zakdan keyin ketma-ket qo`shilaveradi: *ko`z-lar-im-ning* kabi (q. **Tillarning morfologik tasnifi**).

## AJRATIB YOZISH

Ajratib yozish – 1995-yil 24-avgustda qabul qilingan “O`zbek tilining asosiy imlo qoidalarini”ning 57–65-paragraflarini o`z ichiga oluvchi imlo qoidasi to`plami.

Ajratib yozish quyidagi hollarda amalga oshadi: 1) qo`shma fe`lning qismlari: *sarf qil, ta'sir et, tamom bo`l, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma* kabi; 2) ko`makchi fe`l va to`liqsiz fe`l mustaqil fe`ldan ajratib yoziladi: *aytib ber, olib ko`r, so`rab qo`y, ko`ra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish* kabi. Lekin mustaqil fe`l bilan yordamchi fe`l orasida tovush o`zgarishi bo`lsa, bunday qism qo`shib yoziladi: *aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan)* kabi. 3) ko`makchi oldingi so`zdan: *shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun bo`yi* kabi. Lekin *bilan* ko`makchisining *-la* shakli, *uchun* ko`makchisining *-chun* shakli chiziqli bilan yoziladi: *sen-la, sen-chun* kabi. 4) *hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o`sha* so`zi o`zidan keyingi yoki oldingi so`zdan: *hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o`sha yoqqa* kabi. Lekin *birpas, biroz, birato`la, birvarakayiga, birmuncha, buyon* so`zi qo`shib yoziladi. Shuningdek, *qay* so`zi *yoq, yer* so`zi bilan ishlatilganda *bir y* tovushi tushsa, bu so`z qo`shib yoziladi: *qayoqqa, qayerda* kabi; 5) sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan *to`q, jiqqa, tim, liq, lang, och* kabi so`z ajratib yoziladi: *to`q qizil, jiqqa ho`l, tim qora, liq to`la, lang ochiq, och sariq* kabi; 6) murakkab son qismlari: *o`n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchi* kabi; 7) *yildan yilga, tomdan tomga* kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo`nalish kelishigida bo`lgan birikma ajratib yoziladi; 8) belgining ortiq darajasini bildiruvchi *ko`pdan ko`p, tekidan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi* kabilar; 9) izofali birikma ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so`zlarga *i* shaklida, unli bilan tugagan so`zga *yi* shaklida qo`shiladi: *dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol* kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so`z, shuningdek, qismidan biri yoki har ikkisi o`zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so`z qo`shib yoziladi: *gulbeor (guli beor), dardisar* kabi.

## ALIFBO

Alifbo – harf va belgilarning ma`lum tartibda joylashgan to`plami.

Nutq yozma ravishda ham bayon qilinadi. Bu vaqtda yozma nutq harf ketma-ketligidan tashkil topadi. Yozma nutqni shakllantiruvchi, boshqa bo`lakka bo`linmaydigan eng kichik grafik belgi – **harf**. Harf nutq tovushining yozuvdagi aksi, tasviri. Shuning uchun har bir tilda harf shu tilning tovushiga qarab olinadi. Bir tovushga bir harfni to`g`ri keltirishga harakat qilinadi. Harfni xotirada yaxshi saqlash va

lugʻat tuzishda maʼlum izchillikka amal qilish maqsadida u muayyan tartibda joylashtiriladi. Muayyan tartibda joylashtirilgan harf tizimi – alifbo. Soʻzni alifbo tartibida joylashtirish amaliy ahamiyatga ega, jumladan, lugʻat, kutubxona kartotekasi, kishi familiyasi roʻyxatini tuzishda zarur.

Lotin grafikasiga asoslangan yangi oʻzbek alifbosi quyidagi harflarni oʻz ichiga oladi: *a, b, d, e, f, g, h, i, j, k, l, m, n, o, p, q, r, s, t, u, v, x, y, z, oʻ, gʻ, sh, ch, ng*. Har bir unli tovush alohida-alohida harf orqali ifodalanadi. Undoshda bir tovushni ikki harf orqali ifodalash ham uchraydi: *sh, ch, ng* kabi. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1993- yil 2- sentabrda “Lotin alifbosiga asoslangan yangi oʻzbek alifbosini joriy etish toʻgʻrisida”gi Qonun qabul qilindi. 1995- yil 6–7- mayda mazkur qonunga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritildi. Hozirgi alifbomizda 29 harf va bir belgi (tutuq) bor. Oʻzbek tilida jami 30 tovush mavjud. Shu tovushdan *j* (sirgʻaluvchi) va *j* (qorishiq-portlovchi) tovushi bitta *j* harfiga birlashtirilgan.

## ALISHER NAVOIY

Alisher Navoiy – butun turk dunyosi tomonidan “shamsul millat” (millat quyoshi) sifatida tan olingan buyuk mutafakkir shoir. U 1441- yil 9- fevralda Xurosonning poytaxti Hirot shahrida tugʻildi. Alisher Navoiyni Nizomiddin Mir Alisher deb atashardi. “Nizomiddin” – din nizomi, “mir” esa – amir maʼnosini bildiradi. Navoiyning otasi Gʻiyosiddin Muhammad (Gʻiyosiddin Kichkina) temuriylarga yaqin amaldor, oʻz davrining obroʻli va maʼrifatli kishisi boʻlgan. Onasi Kobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi boʻlgan. Togʻalari Mir Said Kobuliy yaxshi shoir, Muhammad Ali Gʻaribiy shoir, sozanda va xattot edi. Alisher oilada uchinchi yoki toʻrtinchi farzand boʻlib, Husayn Boyqaro bilan maktabda oʻqigan. U Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostonini fors tilida oʻqib ham yod olgan. 1447- yilda Shohruh Mirzo vafot etib Hirot notinch boʻlib qoladi. Uning oilasi Iroqqa koʻchib ketadi. Yoʻlda Taft shahrida Alisher tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. Alisherlar xonadoni 1451- yilda Hirotga qaytadi. Koʻp oʻtmay, taxtga Abulqosim Bobur Mirzo oʻtiradi. Alisherning otasi Mirzo Bobur xizmatiga kiradi. Sabzavor hokimi etib tayinlanadi.

1453- yilda Gʻiyosiddin Muhammad vafot etdi. Alisher Abulqosim Bobur xizmatiga kirdi. U 7–8 yoshlaridan sheʼr yoza boshladi. U oʻzbekcha sheʼrlariga Navoiy, forsha sheʼrlariga Foniyy deya taxallus qoʻyadi. Yoshlik chogʻida oʻzbek va fors shoirlari nazmidan 50 ming bayt sheʼrni yod bilgan. Bolalik vaqtlaridayoq Amir Shoshiy, Lutfiy, Kamol Turbatiy, Said Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad, Darvesh Mansur kabilardan taʼlim oldi. 60- yillarda Samarqandda yashab, Fazlulloh Abullaysdan tahsil oldi.

1465–1466- yillarda muxislari sheʼrlarini toʻplab “Devon” tuzdilar. Bu devon “Ilk devon” nomi bilan mashhur. 1487–1488- yillarda Astrobodda hokimlik qildi. 1472–1476- yillarda “Badoye ul-bidoya” (“Badiiylilik ibtidosi”), 1476–1483- yillarda “Navodir un-nihoya” (“Tuganmas nodirliklar”) nomlari bilan ikki devon tuzdi.

1483–1485- yillarda turkiy tilda birinchi boʻlib “Xamsa” yozdi.

Navoiy fanning bir necha sohasida qalam tebratdi. Oʻtmish mavzusida “Tarixi muluki Ajam” (“Ajam podsholari tarixi”), “Tarixi anbiyo va hukamo” (“Paygʻambarlar va donishmandlar tarixi”), aruzga doir “Mezon ul-avzon” (“Vaznlar oʻlchovi”),

tazkirachilikka oid “Majolis un-nafois” (“Nafis majlislar”), lugʻatshunoslikka oid “Sab’atu abhur” (“Yeti dengiz”), “Muhokamat ul-lugʻatayn” (“Ikki til muhokamasi”) asarlari shular jumlasidan. 1490- yilda “Xazoyin ul-maoniy” (“Ma’nolar xazinasini”) majmuasini tuzdi. Forscha she’rlarini yigʻib “Devoni Foniy” ni tartib berdi.

Mashhur shayxlar haqida “Nasoyim ul-muhabbat” (“Muhabbat shabadalari”) asarini yozdi, “Lison ut-tayr” ni qogʻozga tushurdi, “Munshaot” (“Xatlar”) ni toʻpladi. “Mahbub ul-qulub” (“Koʻngillarning sevgani”) maydonga keldi.

Alisher Navoiy 1501- yilning 3- yanvarida vafot etdi.

## **ANTROPONIMIKA**

Antroponimika (yunoncha *antropos* – odam va *onuma* - nom) – onomastika (nomshunoslik)ning boʻlimi. Kishilarning ismi (*Aziz*), ota ismi (*Toʻrayevich*, *Toʻrayevna*), familiyasi (*Qayumov*), taxallusi (*Navoiy*, *Bobur*), nisbasi (*Nasafiy*, *Samarqandiy*, *Buxoriy*), laqab (*Muhammad uzun*)lari antroponimikada oʻrganiladi. Ism, ota ismi, familiya, taxallus, nisbaning asosidagi soʻz, ularning maʼnosi, qaysi tillarga mansub soʻz va qoʻshimchadan tarkib topganligi, yasalishi, tovush tarkibini, shaxsning nima sababdan shu ism bilan atalish sababini oʻrganish – antroponimikaning maqsadi, vazifasi.

## **ARAB TILI**

Arab tili – xom-som tillari oilasining somiy tillari guruhiga kiradi. Som tillari guruhining janubiy tarmogʻiga mansub. Yaqin va Oʻrta Sharq hamda Afrika shimolidagi yigirmadan ortiq mamlakatning rasmiy davlat tili. Arab tilida 200 milliondan ortiq kishi soʻzlashadi (1997). Qadimgi arab tili eramizdan oldingi V–IV asrga taalluqli. Mumtoz arab tili eramizning V-VII asrlariga xos. Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Forobiy, Margʻinoniy, Fargʻoniy va boshqalar oʻz asarlarini shu tilda yozgan. Mumtoz arab tili leksik jihatdan biroz oʻzgargan holda arab adabiy tili sifatida hozirgacha amalda. Shuning uchun arab soʻzlashuv tili adabiy tildan keskin farq qiladi.

Arab tili Birlashgan Arab Amirliklari, Iroq, Sudan, Marokash, Livan, Tunis, Iordaniya, Liviya, Jazoir, Yaman, Suriya kabi davlatlarning davlat tili.

## **ARAB YOZUVI**

Arab istilosi bilan birga kirib kelgan arab yozuvi (VIII asr) bizda 1200 yildan ortiq davr ichida (1926-yilgacha) baʼzi isloh bilan (1918–1920) qoʻllanib keldi. Bu yozuvda minglab ilmiy, badiiy, diniy asar yaratildi, rasmiy hujjat tuzildi. Birgina Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida arab alifbosida yozilgan 46 ming jild asar saqlanadi. Arab alifbosi va bu alifboda yozilgan asar Oktabr toʻntarishidan keyin, ayniqsa, 30- yillarda qattiq taʼqib ostiga olindi. Natijada koʻp qimmatbaho qoʻlyozma koʻmildi, suvga oqizildi yoki maʼmuriy idoralar tomonidan musodara qilinib, egalari qattiq jazoga mahkum etildi.

Arab yozuvining kufiy, nasta'liq va boshqa shakli (devoni, mag'rib, taliq) bo'lib, Markaziy Osiyoda asosan nasta'liq shakli qo'llandi (Qur'oni Karim kufiy yozuvida yozilgan).

Oktabr to'ntarishidan so'ng arab alifbosi ma'lum darajada isloh qilindi. Chunki arab alifbosida unli tovushni ko'rsatadigan alohida belgi yo'q edi. Zer, zabar (harfning osti va ustida qo'llanadigan belgilar) faqat Qur'on va shunga o'xshash arab tilida yozilgan diniy asardagina qo'llanar edi. 1921-yil 1–5-yanvarda Toshkentda chaqirilgan til-imlo qurultoyi, boshqa masala bilan birga, arab harfining so'z boshi, o'rtasi va oxirida qo'llanish shaklini soddalashtirdi, o'zbek tiliga xos bo'lmagan *sod*, *zod*, *itqi*, *izg'i* harfini alifbodan chiqardi, *u*, *o*, *i*, *a* tovushi uchun alohida harf belgilandi. 1922-yil aprel oyida bo'lgan maorif va madaniyat xodimlarining ikkinchi qurultoyi ham birinchi qurultoy qarorini ma'qulladi.

1926-yili Bokuda turkiyshunoslar anjumani bo'lib (O'zbekistondan A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat qatnashdi), lotin alifbosiga o'tish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bunga arab alifbosining turkiy til fonetik xususiyatini aks ettirmasligi va o'rganishning qiyinligi asos sifatida ko'rsatildi.

Arab yozuvida 28 ta harf bo'lib, unga forsiylar o'zlariga xos to'rt harf (g, p, ch, j (sirg'aluvchi)) kiritgan. Turkiy xalqlar ham shu to'rt harf bilan birgalikda arab yozuvidan foydalangan.

## ARGO

Argo (fr. *a r g o t* – «lahja») – ayrim professional yoki ijtimoiy guruhning o'ziga xos so'zdan iborat nutqi. Mas., *yopmoq* so'zining talabalar nutqida “sessiyani tugatmoq”, *flesh* so'zining *fleshka* tarzida, *vinchestr* so'zining *vint* tarzida ishlatilishi argotik nutqqa xos. Argo bir necha til unsuridan iborat qorishiq va, ko'p holda, boshqaga tushunarsiz nutq ko'rinishida namoyon bo'ladi. Argo tili o'z grammatikasiga ega emas. Unda umumxalq tili grammatikasiga tayaniladi. Argo nutqda uch maqsaddan biri uchun qo'llaniladi: 1) fikrni sir tutish; 2) so'zlovchining o'zini ajratib ko'rsatishi; 3) qulaylik uchun.

## ARXAIK SO'Z

Arxaik so'z – o'z o'rnini boshqasiga bo'shatib bergan so'z. Ijtimoiy taraqqiyot natijasida ayrim narsa-hodisa boshqa leksema bilan atalib, avvalgisi iste'moldan chiqib ketadi: *ulus* (xalq), *afandi* (o'qituvchi), *lang* (cho'loq), *tilmoch* (tarjimon).

Bundan tashqari, arxaik qo'shimcha (-g'a (-ga), -g'an (-gan), -g'i (-gi), -ur (-ar) -g'ay (-gay, -sin)), arxaik ibora (*jismini dol aylamoq* – qaddini bukmoq, *fotiha olmoq* – javob so'ramoq, *yoqasini chok etmoq* – faryod solmoq) ham mavjud. Arxaik so'zni tarixiy so'z bilan chalkashtirmaslik kerak. (q. **Tarixiy so'z**).

Tarixiy va arxaik birlikning muhim belgisi:

- 1) arxaik so'z hozir mavjud narsaning, tarixiy so'z – o'tmish narsa-hodisasi atamasi;
- 2) arxaizmning hozirgi tilda sinonimi mavjud, tarixiy so'zning sinonimi yo'q;
- 3) tarixiy so'z yakka nom, arxaik so'z birdan ortiq nomning biri.

## ASOS VA QO`SHIMCHA IMLOSI

Asos va qo`shimcha imlosi – 1995- yil 24- avgustda qabul qilingan “O`zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ning 33–37- paragraflarini o`z ichiga oluvchi imlo qoidasi to`plami.

Lotin alifbosiga asoslangan o`zbek alifbosida asos va qo`shimcha imlosida quyidagilar ahamiyatli. 1. Qo`shimcha qo`shilishi bilan so`z oxiridagi unli o`zgaradi: 1) *a* unlisi bilan tugagan fe'lga -v, -q, -qi qo`shimchasi qo`shilganda *a* unlisi *o* aytiladi va shunday yoziladi: *sayla* – *saylov*, *sina* – *sinov*, *aya* – *ayovsiz*; *so`ra* – *so`roq*, *bo`ya* – *bo`yoq*; *o`yna* – *o`ynoqi*, *sayra* – *sayroqi* kabi; 2) *i* unlisi bilan tugagan ko`pchilik fe'lga -v, -q qo`shimchasi qo`shilganda bu unli *u* aytiladi va shunday yoziladi: *o`qi* – *o`quvchi*, *qazi* – *qazuvchi*, *sovi* – *sovuq* kabi. Lekin *i* unlisi bilan tugagan ayrim fe'lga -q qo`shimchasi qo`shilganda bu unli *i* aytiladi va shunday yoziladi: *og`ri* – *og`riq*, *qavi* – *qaviq* kabi. ( Biroq: 1) undosh bilan tugagan barcha fe'llarga -uv qo`shiladi: *ol* – *oluv*, *yoz* – *yozuv* kabi; 2) undosh bilan tugab, tarkibida *u* unlisi bor fe'lga -uq qo`shiladi: *uz* – *uzuq*, *yut* – *yutuq* kabi. Lekin *uyushiq*, *burushiq*, *uchuriq* (shuningdek, *bulduriq*) kabi so`zning uchinchi bo`g`inida *i* aytiladi va shunday yoziladi.) 3) *k*, *q* undoshi bilan tugagan ko`p bo`g`inli so`zga, shuningdek, *bek*, *yo`q* kabi ayrim bir bo`g`inli so`zga egalik qo`shimchasi qo`shilganda *k* undoshi *g* undoshiga, *q* undoshi *g`* undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: *tilak* – *tilaging*, *yurak* – *yuragim*, *kubok* – *kubogi*, *bek* – *begi*; *tayoq* – *tayog`i*, *qoshiq* – *qoshig`i*, *yaxshiroq* – *yaxshirog`i*, *yo`q* – *yo`g`i* kabi. Lekin ko`p bo`g`inli o`zlashma so`zga, bir bo`g`inli ko`pchilik so`zga egalik qo`shimchasi qo`shilganda *k*, *q* tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: *ishtirok* – *ishtiroki*, *ocherk* – *ocherki*, *erk* – *erki*, *huquq* – *huquqim*, *ravnaq* – *ravnaqi*, *yuq* – *yuqi* kabi. 4) quyidagi qo`shimcha qo`shilishi bilan so`zning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi: a) *o`rin*, *qorin*, *burun*, *o`g`il*, *bo`yin*, *ko`ngil* kabi ba`zi so`zga egalik qo`shimchasi qo`shilganda, *qayir*, *ayir* kabi fe'lga nisbat shaklini yasovchi -il qo`shimchasi qo`shilganda, *ikki*, *olti*, *yetti* so`zlariga -ov, -ala qo`shimchasi qo`shilganda ikkinchi bo`g`indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: *o`rin* – *o`rnim*, *qorin* – *qorni*, *burun* – *burning*, *o`g`il* – *o`g`ling*, *ko`ngil* – *ko`ngli*, *yarim* – *yarmi*; *qayir* – *qayril*, *ulug`* – *ulg`ay*, *sariq* – *sarg`ay*, *ikki* – *ikkov*, *ikki* – *ikkala*, *yetti* – *yettov* kabi; b) *u*, *bu*, *shu*, *o`sha* olmoshiga -da, -dan, -day, -dagi, -da, -gacha, -cha qo`shimchasi qo`shilganda *n* tovushi qo`shib aytiladi va shunday yoziladi: *unda*, *bunday*, *shunda*, *o`shancha* kabi; bu olmoshlarga egalik qo`shimchalari quyidagicha qo`shiladi: *buningiz*, *o`shanisi* kabi; b) *o*, *o`*, *u*, *e* unlisi bilan tugaydigan so`zga egalik qo`shimchasi quyidagicha qo`shiladi: 1) ko`pchilik so`zga egalik qo`shimchasi -m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si (yoki -lari) shaklida tovush ortirmay qo`shiladi: *bobom*, *bobong*, *bobosi*; *bobomiz*, *bobongiz*, *bobosi* (yoki *bobolari*); *orzum*, *orzung*, *orzusi*; *orzumiz*, *orzungiz*, *orzusi* kabi; 2) *parvo*, *obro`*, *mavqe*, *mavzu*, *avzo* so`zlariga I, II shaxs egalik qo`shimchasi qo`shilganda bir y tovushi qo`shib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim*, *parvoying*; *parvoyimiz*, *parvoyingiz*; *obro`yim*, *obro`ying*; *obro`yimiz*, *obro`yingiz* kabi; 3) II shaxs egalik qo`shimchasi *parvo*, *avzo*, *obro`*, *mavqe* so`ziga -yi shaklida, *xudo*, *mavzu* so`ziga esa -si shaklida qo`shiladi: *avzoyi*, *mavzusi* kabi (*dohiy* kabi y undoshi bilan tugagan so`zga ham III shaxsda -si qo`shiladi: *dohiysi* kabi); d) *men*, *sen* olmoshiga -ni, -ning, -niki

qo`shimchasi qo`shilganda qo`shimchadagi *n* tovushi aytilmaydi va yozilmaydi: *meni, mening, meniki; seni, sening, seniki* kabi; 5) quyidagi qo`shimchaning birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham, bir xil yoziladi: a) *-bon, -boz* qo`shimchasi ba`zan *-von, -voz* aytilsa ham, hamma vaqt *-bon, -boz* yoziladi: *darvozabon, masxaraboz* kabi. Lekin *-vachcha* qo`shimchasi hamma vaqt shunday aytiladi va yoziladi: *amakivachcha, xolavachcha* kabi; b) o`rin va chiqish kelishigi qo`shimchasining, o`tgan zamon yasovchisi va III shaxs ko`rsatkichi *-di* qo`shimchasining boshidagi undosh ba`zan *t* aytilsa ham, hamma vaqt *d* yoziladi: *ishda, misdan, ketdi, kelmabdi* kabi; 6) quyidagi qo`shimchaning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va shunday yoziladi: a) taqlid so`zdan fe`l yasovchi *-illa (chirilla, taqilla)* qo`shimchasi so`z tarkibida *v* yoki *u* tovushi bo`lganda *-ulla* aytiladi va shunday yoziladi: *shovulla, lovulla, gurulla* kabi; b) nisbat shaklini yasovchi *-dir* qo`shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo`g`inli so`zga (*kel* so`zidan boshqa), shuningdek, *z* undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qo`shiladi: *quvdir, egdir, kuldir, yondir; o`tkazdir, tomizdir* kabi. Qolgan barcha holda bu qo`shimcha *-tir* aytiladi va shunday yoziladi: *tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir* kabi; d) jo`nalish kelishigi qo`shimchasi *-ga*, chegara bildiruvchi *-gacha*, ravishdosh shaklini yasovchi *-gach, -guncha, -gani, -gudek*, sifatdosh shaklini yasovchi *-gan*, buyruq maylining II shaxs ko`rsatkichi *-gin*, shuningdek, *-gina* qo`shimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi; e) *k* undoshi bilan tugagan so`zga qo`shilganda bu qo`shimchaning bosh tovushi *k* aytiladi va shunday yoziladi: *tokka, yo`lakkacha, ko`nikkach, zerikkuncha, to`kkani, kechikkudek, bukkani, ekin, kichikkina* kabi; f) *q* undoshi bilan tugagan so`zga qo`shilganda bu qo`shimchaning bosh tovushi *q* aytiladi va shunday yoziladi: *chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qo`rqqudek, achchiqqina* kabi; j) qolgan barcha holda, so`z qanday tovush bilan tugashidan va bu qo`shimchaning bosh tovushi *k* yoki *q* aytilishidan qat`iy nazar, *g* yoziladi: *bargga, pedagogga, bug`ga, sog`ga, og`gan, sig`guncha* kabi.

## ASOS VA QO`SHIMCHA TALAFFUZI

Asos va qo`shimcha talaffuzi – adabiy tilning og`zaki shakliga xos orfoepik qoida.

1. *q, k* bilan tugaydigan otlarning egalik affikslari bilan turlangan shakllari quyidagicha talaffuz etiladi: a) ko`p bo`g`inli so`zlarda *qishloq > qishlog`imiz, qishlog`ingiz, qishlog`i; telpak > telpagim, telpaging, telpagi* kabi. Bir bo`g`inli so`zlarda bunday o`zgarish bo`lmaydi: *o`q > o`qi, tok > toki* kabi (*yoq, yo`q* so`zlari bundan mustasno).
2. *Q, k, g* bilan tugagan otlarning jo`nalish kelishigidagi shakllari quyidagicha talaffuz qilinadi: *qishloq + ga > qishloqqa, chelak + ga > chelakka, tog` + ga > toqqa, pedagog + ga > pedagogka* kabi. Boshqa barcha holatlarda: a) jarangsiz undoshlardan so`ng *-ka*, jarangli undoshdan va unlidan so`ng *-ga* talaffuz etiladi: *otka, oshka, qopka, uyga, ovga, tolga, tomga, bolaga, akaga* kabi.
3. Fe`llarda: a) *ong + la > angla, son + a > sana, yosh + a > yasha* kabi; b) *ek + gan > ekan, ket + gan > ketkan, oq + gan > oqqan, tush + gan > tushkan* kabi.
4. Olmoshlarda: *u + n + da > unda, bu + n + da > bunda, shu + n + da > shunda* (bir «n» orttiriladi), *men + ning > mening, sen + ning > sening* (bir «n» tushirib qoldiriladi).
5. Bir so`zidan dona son yasalganda, o`zakdagi «r» undoshi «t»ga o`tadi: *bir + ta > bitta* kabi.

## ASQAROVA MAZLUMA

Mazluma Asqarova 1924-yil 4-noyabrda Toshkent shahrida tavallud topgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1965), filologiya fanlari doktori (1963), professor (1965), Rossiya Federatsiyasi Ta'lim akademiyasining muxbir a'zosi (1968). Toshkent pedagogika bilim yurti (1940), Toshkent pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetini (1944) tamomlagan. M.Asqarova qo'shma gap qismlarining mazmun munosabati, tuzilish va bog'lanish yo'llari xususida tadqiqot olib borib, qo'shma gapni bog'langan qo'shma gap va ergashgan qo'shma gapga ajratgan. Uning «Hozirgi zamon o'zbek tilida qo'shma gaplar» (1960), «O'zbek tilida ergashish formalari va ergash gaplar» (1966), «O'zbek tili taraqqiyoti muammolariga doir» (1995) kabi asarlari o'zbek tili sintaksisini o'rganishda muhim rol o'ynaydi.

M.Asqarova o'rta va oliy ta'limda o'zbek tili va tilshunosligini o'qitishni takomillashtirish borasida ham samarali mehnat qildi. Ayniqsa, uning A.G'ulomov bilan hamkorlikda oliy o'quv yurtlarining o'zbek filologiyasi fakultetlari uchun yozilgan «Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis» kitobi o'zbek tili sintaksisi tadqiqiga bag'ishlangan sara asarlardan. M.Asqarovaning o'rta maktablarning V–IX sinflari uchun hammualliflikda yozilgan ona tili darsliklari salkam 20 yil davomida maktablarda o'qitilib, ta'lim va tilshunoslik taraqqiyotiga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

## ATAMA

Atama (termin, istiloh) – fan-texnika, qishloq xo'jaligi, san'at va madaniyat sohasiga xos so'z. Atamaning qo'llanishi chegaralanganligi boshqa soha kishisi uchun tushunarsiz degani emas. Mas., *to'g'ri chiziq, gap, so'z turkumi, tezlik* atamasi ko'pchilik uchun tushunarli, lekin kam qo'llanadi. Atama ko'pincha umumiste'mol so'zidan ma'lum bir ma'noning maxsuslashuvi asosida hosil bo'ladi. Mas., *fojia, ega, ot, termik, qo'shish, ayirish* so'zi umumiste'mol so'z. Lekin ular fanga atama bo'lib o'tgan. Atamaning ikki xili farqlanadi: a) *Ilmiy atama*, b) *kasb-hunarga oid atama*. Ilmiy atama ma'lum bir fan-texnika, san'at, madaniyatga tegishli bo'lsa, kasb-hunarga oid atama esa turli kasb-hunar egasi nutqida qo'llanuvchi so'z. Kasb-hunar atamasi shu hunar egasi qaysi sheva vakili bo'lsa, shu sheva leksikasi tarkibiga kiradi. Mas., Shahrisabz shevasiga mansub hunarmand ishlatadigan so'z Qarshi shevasida bo'lmasligi mumkin. Kasb-hunarga oid so'z, birinchidan, ma'lum bir sheva doirasida bo'lsa, ikkinchidan, shu shevada so'zlashuvchi ayrim kishi nutqiga xos.

## ATASH MA'NOSI

So'zning borliqdagi qanday narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat yoki miqdorni bildirishi uning lug'aviy (leksik), ya'ni atash ma'nosi. Atash ma'nosi so'zning o'zak, negizida bo'ladi. Ba'zi bir so'zda atash ma'nosi bo'lmaydi: *lekin, bilan, va, ammo, uchun, sari* kabi. Faqat mustaqil so'zgina atash ma'nosiga ega. Olmosh bundan mustasno. U o'zi almashtiradigan mustaqil so'zning atash ma'nosiga ishora qiladi.

## **“AT-TUHFAT UZ-ZAKIYATU FIL-LUG`ATIT TURKIYA” (TURKIY TIL HAQIDA NOYOB TUHFA)**

“At-tuhfat uz-zakiyatu fil-lug`atit turkiya” – XV asrning birinchi yarmida noma’lum muallif tomonidan Misrda yozilgan deb taxmin qilinadi. Asarning yagona qo`lyozma nusxasi Istambulda Valiuddin afandi kutubxonasida saqlanmoqda.

«At-tuhfa» nomi bilan mashhur bu asarda qipchoq tili materiallari izohlanadi. Asar uch qism: *k i r i s h*, *l u g` a t*, *g r a m m a t i k a* dan iborat, qipchoq tili morfologiyasi va sintaksisi talqiniga keng o`rin berilgan. Muallif arab tilshunosligini mukammal o`rgangan olim, turkiy tildagi barcha grammatik kategoriya va shakllarni arab tilshunosligi atamaları vositasida izohlagan.

Bu nodir yodgorlik asrimizning 20-yillarida turk olimi Fuod Kupruluzoda tomonidan fanga ma’lum qilingan. Polyak, venger, turk olimlari mazkur asar asosida tadqiq ishlari olib borishgan. O`zbek tiliga 1966- yilda S.Mutallibov tomonidan tarjima qilingan. Asarning mukammal ruscha nashri 1978- yilda E.Fozilov va M.Ziyayevalar tomonidan amalga oshirilgan. “At-tuhfa”da bayon qilingan ko`pgina fikrlar hozirgi turkiyshunoslik uchun ham o`z qimmatini yo`qotgani yo`q. Turkiy tillarning tarixiy grammatikasini yaratishda “At-tuhfa” qimmatli manba bo`lib xizmat qiladi.

## **AVSTRALIYA TILLARI OILASI**

Avstraliya tillari oilasi – Avstraliya tub aholisi tillari. Papua, miriam va tasman tillari bundan mustasno. Tillarning umumiy soni 200 dan 600 gacha deb hisoblanadi. Avstraliya tillari quyidagicha tasniflanadi: 1) Shimoliy Kimberlin tillari (varoro, kokoyimidir va boshqalar.); 2) Janubiy-Sharqiy adabiy tillari (buandiq, kulin, kurpai va boshqalar.); 3) Markaziy Avstraliya tillari (parnkala, diyeri, aranta va boshqalar.); 4) G`arbiy Avstraliya tillari (yungar, lorigiya va boshqalar.) hamda Kvinslent va Yangi Uels tillari. Ularning lug`at tarkibi boy, ko`p ma`noli so`z ko`p. Bugungi kunda Avstraliya tillarining ko`pi yo`qolib bormoqda.



## **BARQAROR BIRIKMA**

Barqaror birikma – alohida rasmiylashgan, tarkibining barqarorligi bilan ajralib turadigan, yaxlitligicha qo`llanish xususiyatiga ega, tayyor holda mavjud, obrazli, jozibali, ma`no jihatdan shakllangan so`z bog`lanmasi. **Maqol, matal, ibora, tasviriy ifoda** barqaror birikma.

Maqol tugal fikr bildirishi, ibora bir so`zga teng tushuncha anglatishi, matal esa ergash gapli qo`shma gap tarkibidagi sodda gapdek «chala» fikr ifodalashi bilan o`zaro farqlanadi. Mazmuni obrazli va ko`chma xarakterda bo`lishi bilan o`xshash.

Nutqda fikr ifodasi uchun barqaror birikmaga ham ehtiyoj mavjud. Mas., kuchli hayron bo`lib qolganlikni ta`sirchan ifodalash uchun *hayron bo`lmoq* fe`li yetarli emas.

Shunda barqaror birikma qo'llanadi: *Og'zi ochilib qoldi* – ibora. U ikki mustaqil so'zdan iborat, nutqqacha tayyor bo'lgan. Nutqdan keyin ham ongimizda shu holicha turadi. Uning atash ma'nosi *hayron bo'lmoq* fe'li atash ma'nosiga teng bo'lsa-da, qo'shimcha, ya'ni hissiy va uslubiy ma'nosi bilan farqlanadi. O'zbek tilida barqaror birikma sifatida maqol, matal, ibora e'tirof etiladi. Tilshunoslikning barqaror birikmani o'rganuvchi bo'limi *f r a z e o l o g i y a*, *p a r e m i o l o g i y a* (lotincha *p a r e m a* – «barqaror», *logos* – ta'limot) deyiladi. Tilda ikki yoki undan ortiq so'zning bog'lanishidan hosil bo'lgan birlik ko'p. Mas., so'z birikmasi, so'z qo'shilmasi, gap, qo'shma so'z, tasviriy ifoda, maqol, matal va hokazo. Shuning uchun dastlab, turg'un bog'lanish va erkin bog'lanishni bir-biridan farqlash kerak. Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning bir grammatik butunlik, ma'noviy yaxlitlik tashkil etib, murakkab tushuncha yoki tugal fikrni ifodalaydigan bog'lanishi – erkin bog'lanish. So'z birikmasi va gap erkin bog'lanishga kiradi. Chunki so'z birikmasi va gap nutq jarayonida hosil qilinadi. Birdan ortiq so'zning qotib qolib, nutqda tayyor holda ishlatiladigan bog'lanishi barqaror, turg'un bog'lanishni tashkil qiladi. Barqaror birikma qo'shma va erkin so'z birikmasidan quyidagi xususiyati bilan farqlanadi: 1) barqaror birikmada birdan ortiq so'z birikib, ko'chma ma'no ifodalaydi; 2) barqaror birikmani tashkil etgan barcha so'z shu gap tarkibida butunligicha bir bo'lak yoki bir gap vazifasida keladi; 3) barqaror birikmaning tarkibiy qismi qat'iy bir qolipga kirgan bo'ladi.

Barqaror birikmani «buzish» – so'z kiritish, so'zini almashtirish, olib tashlash mumkin emas.

## BIR MA'NOLILIK

Bir ma'nolilik – til birliklari, ya'ni so'z, qo'shimcha, ibora, tasviriy ifodaning bir ma'noni anglatish hodisasi.

**Bir ma'noli so'z.** Bir ma'noli so'z – matn tarkibida ham, matndan tashqarida ham bir lug'aviy ma'noni bildiruvchi so'z. Mas., *kompyuter*, *sinus*, *kelishik*, *olmosh* so'zi. Bir ma'noli so'zga terminlar yaqqol misol.

Leksema bir ma'noli va ko'p ma'noli bo'lishi mumkin (qiyos. **Ko'p ma'noli so'z**). *O'n*, *Dehqonobod*, *telefon* so'zi bir ma'noni bildirganligi uchun bir ma'noli so'z deyiladi. Bir ma'noli so'z *m o n o s e m a n t i k* s o'z ham deb yuritiladi.

Bir ma'noli so'z tilda kam va ilmiy, biror soha, kasb-hunar atamasini, shuningdek, yangi paydo bo'lgan so'zni o'z ichiga oladi.

Yangi so'z (neologizm) ham davr o'tishi bilan ko'chma ma'no anglatishi mumkin. Mas., *haker* so'zi neologizm, «komputer programmasi buzuvchisi» ma'nosiga ega. U ayni paytda «umuman buzg'unchi» ma'nosini ham anglatmoqda

## BOBO TIL

Bobo til – bir tildan tarqalgan deb taxmin qilinuvchi, tuzilishi va boshqa xususiyati bir-biriga yaqin, o'xshash bo'lgan tillar yoki bir butun holda til oilasi, unga asos bo'lgan til. Mas., turkiy tillar, xususan, o'zbek tili tarixi oltoy bobo tilidan boshlangan. Manbalarda ko'rsatilishicha, oltoy bobo tili ilk bor tungus-manchjur va turk-mo'g'ul tillariga, so'ng turk-mo'gul tili o'z navbatida turk va mo'gul tiliga ajralgan.

Shuningdek, lotin tili – roman, ya'ni fransuz, italyan, ispan, rumin va boshqa tillar uchun bobo til.

## **BOLQAR TILI**

Bolqar tili – Qorachoy-Cherkasiya va Kabarda-Bolqariyada yashovchi qorachoy va bolqariya xalqlari tili. Turkiy tillarning qipchoq lahjasiga mansub. Asosiy dialektlari: a) qorachoy-boqson-chegem (“ch” lashgan); b) molqor (“ts”lashgan). Adabiy tilga birinchisi asos bo'lgan.

Bolqar tilining xususiyati quyidagilar: 1) ba'zan so'z boshidagi “y” tushib qoladi: *yaxshi – axshi*; 2) birlikning birinchi va ikkinchi shaxsi hamda qaratqich kelishigi qo'shimchalari oxiridagi undosh tushib qoladi: *men – me, sen – se, ning – ni*; 3) o'nlik sonlar quyidagicha yasaladi: *bir o'n* (o'n), *eki o'n* (yigirma), *uch o'n* (o'ttiz) yoki *bir jiyirma – yigirma, eki jiyirma – qirq, uch yiyirma – oltmish*; 4) leksikasida osetin, adigey tillaridan so'zlar o'zlashgan.

## **BOLQON TURKLARI TILI**

Bolqon turklari tili – turkiy tillarning o'g'iz guruhiga kiruvchi, Bolqonda yashovchi turklar tili. Bolqon turklari tili kelib chiqish jihatidan turli-tuman, ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga makedoniya gagauzlari, surg'uch, gajallar tili kiradi va ular gagauz tiliga yaqin. Ikkinchi guruh turklari yuruqlar, karamanliklar, qizilboshlar, turk va ozarbayjon tillariga o'xshaydi.

## **BOG`LANGAN QO`SHMA GAP**

Bog'langan qo'shma gap sodda gapning o'zaro teng bog'lovchi yordamida bog'lanishidan tuziladi: *Kechasi qalin qor yog'di, lekin havo sovimadi*. Tarkibidagi sodda gapning o'zaro mazmun munosabatiga ko'ra bog'langan qo'shma gap quyidagi turga bo'linadi: 1) biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap; 2) zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gap; 3) ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap; 4) inkor munosabatli bog'langan qo'shma gap.

**Biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap.** Bunday bog'langan qo'shma gap tarkibidagi sodda gap o'zaro va, hamda bog'lovchisi, *ham, -u(-yu), -da* yuklamasi yordamida bog'lanadi va bir paytda yoki ketma-ket ro'y bergan voqea-hodisani ifodalaydi: *1.Mashg'ulot tugadi va hamma o'z uyiga tarqaldi. 2. Bahor keldi va o'z sepini yoya boshladi. 3.Qattiq izg'irin ko'tarildi-da, hech kimni uydan chiqarmay qo'ydi. 4. Odam qo'li tegdi-yu, tashlandiq yerlarni obod qildi*. Gapni yuklama bog'lasa, undan keyin vergul qo'yiladi.

**Zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gap.** Bunday gap tarkibidagi sodda gap o'zaro *ammo, lekin, biroq* bog'lovchisi, *-u(-yu)* yuklamasi, *balki* vazifadosh bog'lovchisi (modal so'z) yordamida bog'lanadi: *Yurtimning bu kuni chiroyli, lekin ertasi, indini yana chiroyliroq, baxtliroq bo'ladi. Havo ochildi-yu, harorat sezilmadi*. Ba'zan zidlik mazmunini kuchaytirish uchun zidlov bog'lovchisi va *-u (-yu)* yuklamasi

birga ishlatiladi: *Kechasi qor yog`di-yu, lekin kunduzi darrov to`xtadi*. Bunday qo`shma gapda zidlov bog`lovchisidan oldin, yuklamadan esa keyin vergul qo`yiladi.

**Ayiruv munosabatli bog`langan qo`shma gap.** Bunday gapdagi sodda gap o`zaro *goh...goh, yo...yo, yoki...yoki, ba`zan...-ba`zan..., dam...dam, yoxud...yoxud* ayiruv bog`lovchisi yordamida bog`lanadi. Ayiruv bog`lovchili bog`langan qo`shma gap voqea-hodisaning galma-gal bo`lishini yoki undan biri bo`lishini ifodalaydi: *Goh osmonni tutib ashula yangrar, goh allaqayerdan garmon tovushi eshilib qolar edi*. Ayiruv bog`lovchisi, odatda, gapning boshida keladi. Takrorlanib qo`llangan ayiruv bog`lovchisining keyingisidan oldin vergul qo`yiladi, bunday bog`lovchi yakka qo`llansa, tinish belgisi ishlatilmaydi.

**Inkor munosabatli bog`langan qo`shma gap.** Bunday gap qismi o`zaro takror qo`llangan *na* inkor yuklamasi orqali bog`lanadi va gap orasiga vergul qo`yiladi: *Na suv bor, na biron yemish qolibdi*. Inkor bog`lovchisi ham, odatda, sodda gapning boshida keladi.

## BOG`LOVCHI

Bog`lovchi – gap bo`laklari va sodda gaplarni bir-biriga bog`lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so`z turkumining biri.

Umumiy grammatik belgilari. Gap tarkibidagi so`zlar va qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplar bir-biri bilan grammatik jihatdan teng yoki tobe bo`ladi: *onalar va bolalar xonasi, Quyosh chiqdi va kun isidi, Qunduz darsga kechikdi, chunki yo`lda ushlanib qoldi*. Bunday munosabatni ko`rsatuvchi yordamchi so`zlarga bog`lovchi deyiladi. Bog`lovchilar atash ma`nosiga ega emas, so`roq qabul qilmaydi, mustaqil gap bo`lagi vazifasida kelmaydi. Morfologik jihatdan o`zgarmaydi: turlanmaydi, tuslanmaydi. So`z yasalishi, shakl yasalishi uchun asos bo`lmaydi.

Bog`lovchining qo`llanishiga ko`ra turlari. Gapda qo`llanilishiga ko`ra bog`lovchi yakka, takror, yakka va takror qo`llanadigan bog`lovchiga bo`linadi. Yakka qo`llanadigan bog`lovchiga *a, va, hamda, ammo, lekin, biroq, balki, holbuki, vaholanki, gar, agar, agarda, basharti, chunki, garchi, garchand, go`yo, go`yoki, -ki/-kim, esa, ya`ni*; takror qo`llanadigan bog`lovchilarga *dam-dam, ba`zan-ba`zan, ham-ham, bir-bir, xoh-xoh, goh-goh*; yakka va takror qo`llanadigan bog`lovchiga *yo, yoki* bog`lovchisi kiritiladi.

Bog`lovchining vazifasiga ko`ra turlari. Bog`lovchi gap bo`laklari yoki qo`shma gap qismlarini qanday munosabatda bog`lashiga ko`ra **teng bog`lovchi** va **ergashtiruvchi bog`lovchi**ga bo`linadi.

Teng bog`lovchilar gapning uyushiq bo`laklari yoki qo`shma gap tarkibidagi teng huquqli sodda gaplarni bog`laydi: *darsliklar va qo`llanmalar. Shamol tindi va hamma uyquga ketdi. Kecha sokin va iliq edi. Quyosh chiqdi, lekin havo isimadi*.

Teng bog`lovchi ma`nosiga ko`ra quyidagi turga bo`linadi:

1) biriktiruv: *va, hamda, bilan* (ko`makchi-bog`lovchi), *ham, -u//-yu. -da* (yuklama-bog`lovchi);

2) zidlov: *ammo, lekin, biroq, esa, balki, holbuki, vaholanki, a*;

3) ayiruv: *yo//yoki//yoxud//yoinki, yo-yo, goh-goh, dam-dam, ba`zan-ba`zan, bir-bir, xoh-xoh*;

4) inkor bog'lovchisi: *na...*, *na...*

Ergashtiruvchi bog'lovchi asosan qo'shma gap tarkibidagi ergash gapni bosh gapga bog'laydi: *Endi qattiq o'qimasak bo'lmaydi, negaki test sinovlariga yaqin qolmoqda.*

Ma'nosiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1) aniqlov: *ya'ni*, *-ki//kim*;

2) sabab: *chunki*, *negaki*, *sababki*, *zeroki*;

3) shart: *agar//gar//agarda*, *basharti*, *mabodo*, *garchi//garchand*, *modomiki*.

Bog'lovchining tabiatiga ko'ra turi: 1) **sof bog'lovchi**; 2) **vazifadosh bog'lovchi**.

Faqat bog'lovchiga xos vazifa bajaruvchi yordamchi so'z sof bog'lovchi: *va*, *lekin*, *agar*.

Bir o'rinda bog'lovchi, boshqa o'rinda ko'makchi, yuklama, modal so'z yoki biror mustaqil so'z bo'lib keladigan yordamchi vazifadosh bog'lovchi hisoblanadi:

– *bilan* ko'makchisi: *olma bilan anor*;

– *na...na* yuklamasi: *na otam bor*, *na onam bor*;

– *balki* modal so'zi: *bu gaplar qulog'imga kirmas*, *balki battar g'ashimga tegar edi*.

– *bir soni*: *bir kulasan*, *bir yig'laysan*.

Shuningdek, *-u (yu)*, *-da*, *ham*, *-a* yuklamasi, *ba'zan* ravishi ham bog'lovchi vazifasida kelishi mumkin.

**Uslubiy belgilari.**

1. *bilan*, *bordi-yu*, *ham*, *-u/-yu*, *-da*, *deb*, *ba'zan*, *negaki*, *toki* kabilar sof bog'lovchi emas. Ular bog'lovchi vazifasidagi so'z hisoblanadi.

2. *ham* o'zi bog'lagan qismdan oldin kelsa, ayiruv bog'lovchisi (*ham o'qidim*, *ham yozdim*), keyin kelsa yuklama (*o'qidim ham*, *yo'zdim ham*) sanaladi.

3. *ham* ta'kid ma'nosini bildirganda yuklama (*Men ham borman*), teng munosabatni ko'rsatganda biriktiruv bog'lovchisi hisoblanadi: *Keldi Dildor ham Ruxsor*.

4. Takroriy bog'lovchining bir qismi faqat takror kelganda bog'lovchi hisoblanadi. Yakka qo'llanganda boshqa turkumga mansub bo'ladi: *ba'zan* – ravish: *Ba'zan borib turaman*; *bir* – son: *Bir ko'rdim men uni*; *dam* – ot: *Dam oldim*.

5. *bilan* ko'makchisi teng munosabatni ko'rsatganda bog'lovchi, tobe munosabatni ko'rsatganda ko'makchi hisoblanadi: *darslik bilan qo'llanma* – *qalam bilan yozmoq*.

6. *na...*, *na...* so'zlar orasidagi teng munosabatni ko'rsatib, biriktiruv bog'lovchi ga ma'nodosh bo'lsa, bog'lovchi (*Na xotin*, *na farzand ko'rmagan...* (*G'.G'ul.*)), inkor ma'nosi kuchli bo'lganda yuklama hisoblanadi: *Na so'ngiga yetoldi ishning*, *Na dunyoni anglab ulgurdi*. (*E.Voh.*)

**Imlosi:** 1. *yo*, *yoki* bog'lovchilari yakka qo'llanganda tinish belgisi ishlatilmaydi (*Kelasizmi yo o'zimiz boraylikmi?*), takror qo'llanganda vergul qo'yiladi: *Yo bir maslahatni aytib bo'ladi, yo ro'zg'or ishini* (*Cho'lp.*).

2. Takror qo'llanuvchi ayiruv bog'lovchilari oldidan vergul ishlatiladi.

3. *-u (-yu)*, *-da* o'zi qo'shilayotgan so'zdan chiziqcha bilan ajratiladi, lekin uyushiq bo'laklar o'rtasiga vergul qo'yilmaydi.

4. Yozuvda *chunki, negaki, sababki, zeroki, ya'ni, ammo, lekin, biroq* bog'lovchilaridan oldin vergul qo'yiladi.

## BOG'LOVCHISIZ QO'SHMA GAP

Bog'lovchisiz qo'shma gap – sodda gapning bog'lovchi vositasiz, ohang yordamida birikishidan tuzilgan qo'shma gap turi: *Kech kirdi, tevarak-atrofga qorong'ilik tusha boshladi*. Bu qo'shma gapdagi sodda gap o'zaro faqat ohang yordamida bog'lanadi. Bog'lovchisiz qo'shma gapning quyidagi turi mavjud: 1) bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap: *Tig' yarasi tuzaladi, til yarasi tuzalmaydi*. Bunday gapni bog'lovchi qo'yib, bog'lovchili gapga aylantirish mumkin: *Tig' yarasi bitar, **lekin** til yarasi tuzalmaydi*; 2) ergashgan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap: *Qor yog'di – don yog'di*. Bunday gapni ergashgan qo'shma gapga aylantirish mumkin: *Qor yog'di, **go'yoki** don yog'di* (o'xshatish); 3) bog'langan qo'shma gapga ham, ergash gapli qo'shma gapga ham sinonim bo'lmagan bog'lovchisiz qo'shma gap: *Xushxabar olib keldim: garnizon yanchildi*. Bunday gapni bog'lovchi vosita yordamida boshqa tur ergash gapga aylantirib bo'lmaydi.

Bog'lovchisiz qo'shma gapda tinish belgisi. Bog'lovchisiz qo'shma gapda ohang muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun tinish belgisining ahamiyati katta: 1) agar bog'lovchisiz qo'shma gap qismi bir paytda yoki ketma-ket yuz bergan voqea-hodisani ifodalasa, vergul qo'yiladi: *Arava g'ijirlab borar, aravakash esa xirgoyisini bir zum ham to'xtatmas edi*; 2) agar bog'lovchisiz qo'shma gap qismi mazmunan bir-biridan ancha uzoq bo'lsa, nuqtali vergul qo'yiladi: *Yomg'ir chelakdan quyganday sharillab yog'ardi; uning xayoli uzoq, yoshlik paytlarida kezmogda*; a) bog'lovchisiz qo'shma gapning ikkinchi qismi birinchi qismning sababini bildirsa, izohlasa, to'ldirsa, ular orasiga ikki nuqta qo'yiladi: *Gap shu: ertaga men bilan yo'lga chiqasiz*; b) agar bog'lovchisiz qo'shma gap qismi o'zaro zidlik yoki o'xshashlik munosabatiga kirishgan bo'lsa, tire qo'yiladi: *Qor yog'di – don yog'di. Yoshim yetmish ikkida – o'zim yigitman*.

## BOSH BO'LAKLAR

Bosh bo'laklar – gapning grammatik asosini tashkil etuvchi va boshqa bo'laklarni o'ziga tobelantiruvchi gap bo'lagi turi. Bosh bo'lak – **kesim** va **ega**.

**Kesim**. Kesim – tasdiq/inkor, mayl, zamon shaxs/son ma'nosi va shakliga ega bo'lgan, gapning egasi haqidagi xabarni ifodalovchi bo'lak. Nutqda kesimsiz gap bo'lishi mumkin emas. Gapda kesim bo'lmasa, u o'zbek tili uchun to'liqsiz gap. Kesim qaysi turkum so'zi bilan ifodalansa, shu turkum so'rog'iga javob bo'ladi. U qo'llanishiga ko'ra ikki xil: 1) **mustaqil kesim**; 2) **nomustaqil kesim**.

**Mustaqil kesim** sodda gap tarkibida ham, qo'shma gap tarkibida ham bir xil ma'no beradi. Mas., *Karim keldi, lekin Salim kutmadi* gapidagi har ikki kesim shu qo'shma gap tarkibida ham, ajratilgan sodda gap tarkibida ham bir xil ma'noga ega. Qiyoslang: *Karim keldi. Salim kutmadi*.

**Nomustaqil kesim.** Ayrim kesim sodda gap tarkibida boshqa, qo'shma gap tarkibida boshqa ma'no beradi: *Salim kelsa, men boraman* gapi tarkibidagi ergash gapning kesimi "shart" ma'nosini ifodalamoqda. Lekin qo'shma gap sodda gapga ajratilsa, bu kesimning ma'nosi o'zgaradi: *Salim kelsa* (istak). Bu – nomustaqil kesim. -sa shart mayli qo'shimchasi, uning -sa edi, -ganda edi o'tgan zamon ko'rinishi, -di ham, -ganicha yo'q, -ganicha yo'q edi, -gan edi, -ardi, -ar ekan o'tgan zamon qo'shimchasi kabilar nomustaqil kesimni shakllantiradi.

| Qo'shma gap tarkibida                                | Sodda gap tarkibida        |
|------------------------------------------------------|----------------------------|
| <i>Havo ochilsa, ishni boshlaymiz.</i>               | <i>Havo ochilsa.</i>       |
| <i>Kitobim bo'lsa edi, tezda bajarar edim.</i>       | <i>Kitobim bo'lsa edi.</i> |
| <i>Salim kelganda edi, bir zumda hal qilar edik.</i> | <i>Salim kelganda edi.</i> |
| <i>U aytardi (aytsa edi), men bajarardim.</i>        | <i>U aytardi.</i>          |

Boshqa shaklli kesim mustaqil kesim sanaladi.

Kesimning ifodalanishi. Kesim ifodalanishiga ko'ra ikki xil: 1) fe'l kesim; 2) ot kesim.

**Fe'l kesim.** Sof fe'l bilan ifodalangan kesim fe'l-kesim deyiladi: *Men maktabga boraman. Po'lat xatni kecha yuborgan.*

**Ot kesim.** Ot, sifat, son, olmosh, ravish, taqlid, modal va harakat nomi bilan ifodalangan kesim – ot kesim: 1) ot-kesim: *Qarg'a nima deyotganini bilmaymiz, chunki u – qarg'a, biz – odam;* 2) sifat-kesim: *E taqsir, qissamiz uzun;* 3) son-kesim: *Ikki karra ikki – to'rt;* 4) ravish-kesim: *O'zlashtirishing – yodaki.* 5) taqlid-kesim: *Hamma tomon g'ovur-g'uvur.* 6) olmosh-kesim: *Sen – mensan-u, men – senman, qissamni bayon etsam;* 7) modal-kesim: *Tinchlik yo'q.*

Kesimning tuzilishi. Kesim tuzilishiga ko'ra ikki xil: a) sodda kesim; b) murakkab kesim.

**Sodda kesim** bir so'z bilan ifodalanadi: 1. *Sen bahorni sog'inmadingmu?* 2. *Majlis shunga qaror qildi.* Qo'shma, juft, takroriy so'z, ibora bilan ifodalangan kesim ham sodda kesim deyiladi. Chunki u yaxlit holda bitta so'z yoki unga teng hodisa.

**Murakkab kesim** birdan ortiq so'z bilan ifodalanadi: 1. *Ayozli kunlar birin-ketin o'tib borayotir.* Murakkab kesim tarkibidagi ikkinchi so'z ko'makchi fe'l, bog'lama, nisbiy so'z bo'lishi ham mumkin. Murakkab kesimga misol: a) birikmali: *Bu kun biz uchun og'ir kun; O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat;* b) to'liqsiz fe'li so'z: *Anjir kulchaday yirik va holvaytarday yumshoq edi;* d) ko'makchili so'z: *Hammasi sen uchun, Dilovar uchun;* e) bog'lamali: (q. **Bog'lama**) *Bunday odamlarni nodon hisoblashadi;* f) ko'makchi fe'li: *Hamma ham xalqiga xizmat qilgisi keladi.* Murakkab ot-kesim quyidagi xususiyatga ega: a) ot/sifat/son/olmosh/ravish+"bo'lmoq" fe'li yoki to'liqsiz fe'l: *Mehnat qancha qiyin bo'lsa, noni shuncha shirin bo'ladi;* b) yo'q/bor/oz/ko'p/zarur/lozim/kerak+"bo'lmoq" fe'li yoki to'liqsiz fe'li: *Uzoqda ko'ringan sharpa bir zumda yo'q bo'ldi;* d) harakat nomi+kerak/lozim/shart/darkor: *Choyxona yangi solingan qishki binoga ko'chib kirishi va bayramda ochilishi kerak edi.*

**Ega.** Gapdagi xabarning kim yoki nima haqida ekanligini bildirib, kesimga tobe bo'lgan bo'lak – ega. Ega kim, nima, qayer so'rog'iga javob bo'ladi: **Kishilar** (kim)

*Hakimani va boshqa qizlarni maqtashdi. O'tloqda bedana (nima) ko'p. Atrof* (qayer?) *jimjit*. Ega bosh kelishikda bo'ladi va ifodalanishi, odatda, quyidagicha: 1) ot: **Shamol gul hidlarini atrofga taratdi**; 2) olmosh: **Ular to'garak mashg'ulotiga muntazam qatnashadi**; 3) harakat nomi: **O'qish tugadi**; 4) otlashgan (sifat, son, sifat-dosh, ravish, taqlid) so'z: *Yaxshilar* (sifat) *ko'paysin*, *yomon qolmasin*. **Ikkovimiz** (son) *dala aylandik*. **Bilgan** (sifat-dosh) *bilganin ishlar*, **bilmagan** (sifat-dosh) *barmog'in tishlar*. **Ko'plar** (ravish) *qatnashdi*. *Uzoqdan to'plarning gumbur-gumburi* (taqlid) *eshitilardi*; 5) ibora: *Uning yuziga oyoq qo'yish axloqimizga zid*; 6) kengaygan birikma: **Otlarning otxonaga olib o'tilmagani** *Ziyodillani taajjublantirdi*. Ba'zan teng aloqadagi bir necha so'z ham butunicha yoki bo'lak-bo'lak ravishda ega bo'lib kelishi mumkin: **Otam bilan akam bozorga ketishdi**. Ba'zan ega chiqish kelishigidagi so'z bilan ham ifodalanishi mumkin. Bunda haqiqiy ega tushirilgan, undan oldin kelayotgan chiqish kelishigidagi so'z ega vazifasini ifodalaydigan bo'lib qoladi: *Unda ham bu kitobdan bor*. Bu gapdagi haqiqiy egani tiklash mumkin: *Unda ham bu kitobdan biri bor* tarzida.

Hamma gapda ega qatnashavermaydi. Shu nuqtai nazardan gap egali va egasiz gapga bo'linadi. (q. **Gap**).

Ega bilan kesimning shaxs-sonda mosligi. Ega bilan kesimning shaxs-sonda mosligini ikkiga bo'lib o'rganish mumkin: a) shaxsda moslik; b) sonda moslik. Shaxsda moslik. Ega va kesim bir-biri bilan shaxsda hamma vaqt mos bo'ladi: **Biz maktab jamoat ishida faol qatnashamiz**. Nutqda *Hayron bo'lasan kishi* tarzidagi gap qo'llanadi. Bu gapda ega va kesim shaxsda moslashmagan: ega (*kishi*) III, kesim esa II shaxsda. Bu – kam uchraydigan hodisa. **Sonda moslik**. Bunda quyidagi holat muhim: a) fe'l-kesim I va II shaxsda ega bilan hamma vaqt sonda mos bo'ladi: *Biz yordam berdik*; b) kesim III shaxsda ega bilan hamma vaqt sonda moslashavermaydi: 1) kishini bildirgan III shaxsdagi ega bilan fe'l-kesim sonda mos bo'ladi: **Dehqonlar ishni boshlab yubordilar**; 2) ko'plikdagi kishini emas, narsa-buyumni bildirsa, fe'l-kesim, odatda, ega bilan sonda moslashmay, birlikda ishlatiladi: *Kitoblar olindi*; 3) ot-kesim ko'plikdagi ega bilan ko'pincha moslashmaydi: *Uyda akam, opam va singlim bor edi*; 4) gapda eganing aniqllovchisi miqdor son bilan ifodalansa, kesim va ega birlik shaklida bo'ladi: **Uchta qiz yordamga keldi**. Ega va kesim mosligini yuzaga keltirishda ohang muhim o'rin tutadi: *1.Yer xazina – suv oltin. 2. Qo'l - yaratuvchi. 3.Bu – maktab, do'stim*.

Ega bilan kesim orasida tirening ishlatilishi. Quyidagi holatda ega bilan kesim orasiga tire qo'yiladi: 1) gapning kesimi bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanib, bog'lama yoki kesimlik qo'shimchasi bo'lmasa: *Toshkent – go'zal shahar*; 2) gapning egasi yoki kesimi yoxud ikkisi ham harakat nomi bilan ifodalansa va bog'lama bo'lmasa: *Kulish – umrni uzaytirish vositasi*; 3) gapning egasi yoki kesimi birikma bilan ifodalanib, tenglik, o'xshatish, kabi ma'noni bildirsa va bog'lama bo'lmasa: *Yaxshi qiz – yoqadagi qunduz*; 4) ega yoki kesim ko'rsatish olmoshi yoxud miqdor son bilan ifodalanib, alohida ajratib ko'rsatilsa, bog'lama yoki kesimlik qo'shimchasi bo'lmasa: *1.Ana shu – mening uyim. 2.Uch karra uch – to'qqiz*; 5) ega bilan kesim *bu, u, mana bu* so'zi bilan ajratilganda tire shu so'zdan oldin qo'yiladi: *Istiqlol – bu o'zbek xalqining azaliy orzusi*.

Quyidagi holatda ega bilan kesim orasiga tire qo'yilishi lozimdek bo'lsa ham, qo'yilmaydi: 1) ega kishilik olmoshi bilan ifodalangan bo'lsa va bog'lama bo'lmasa

ham: *U tajribali iqtisodchi*; 2) kesim bosh kelishikdan boshqa kelishik qo`shimchasini olgan bo`lsa: *Butun umidimiz sendan*; 3) ega bilan kesim o`rtasida ham yordamchi so`zi bo`lsa: *Men ham kichik paxtakor*; 4) kesim sifat, son (miqdor sondan tashqari), ravish bilan ifodalansa: *1.Shahrimiz go`zal. 2.Kitoblar soni beshta. 3.Mening orzularim ko`p.* 5) ta`kidlash uchun yuklama qo`llanganda: *1.Men ham talaba. 2.Yer xazinami? 3.Bu kitob-ku?* Ba`zan ta`kidni kuchaytirish uchun kesimlik qo`shimchasi bo`lishiga qaramay, egadan keyin tire qo`yilishi mumkin: *Adabiyot — hayotning badiiy ifodasidir.*

## BOG`LAMA

Kesimni shakllantiruvchi va uni ega bilan bog`lovchi ko`makchi fe`l, to`liqsiz fe`l (*edi, ekan, emish*) va shuningdek, *bo`lmoq, hisoblanmoq, sanalmoq, deyilmoq* kabi vaqtincha lug`aviy ma`nosini yo`qotgan ayrim mustaqil so`z, *kerak, lozim, zarur, shart, darkor* kabi modal ma`noli so`z – bog`lama. Mustaqil so`z *-moq, -(i)sh* qo`shimchali harakat nomi bilan kelib kesim tarkibida qatnashganda *kesimlik so`zi* ham deyiladi. Ular yuqorida aytilgan ot (*shart*), modal (*kerak, zarur, lozim, darkor, mumkin, muhim*) turkumiga tegishli bo`lishi mumkin.

Kesim ot, sifat, son, olmosh va bor, yo`q so`zi bilan yoki turli modal, undov bilan ifodalansa, ega bilan moslashtirish uchun bog`lamadan foydalanamiz: a) *-dir: Tamagirlik bilan topilgan eng kichik narsa ham bebaqodir.* b) to`liqsiz fe`l: *Shu shaharning mevasi erurmiz. Deydilar: sog`liq hayot bergan ehson ekan.* d) *bo`ldi, qildi, etdi* yordamchi fe`li: *Harom mol kishini halok etadi. Kecha biz bakovul bo`ldik. O`qituvchimiz majlis qildi;* e) ayrim mustaqil fe`l: *Muallim ulug` zot sanaladi. Ozodlik buyuk ne`mat hisoblanadi.*

## BOSH HARF IMLOSI

Bosh harf imlosi – 1995- yil 24- avgustda qabul qilingan “O`zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ning 66–74- paragraflarini o`z ichiga oluvchi bosh harf bilan yozish haqidagi imlo qoidasi to`plami.

Bosh harflar quyidagi hollarda ishlatiladi: 1) kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Dilbar, O`rinova, Muhabbat Majidovna, Azamat Shuhrat o`g`li, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif So`fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat; Yelpig`ichxon, Salomjon Alikov* kabi; 2) joy nomi bosh harf bilan boshlanadi: *Andijon, Yangiyo`l* (shaharlar), *Naymancha, Buloqboshi* (qishloq), *Bodomzor, Chig`atoy* (mahallalar), *Zavraq* (dara), *Yorqoq* (yaylov), *Qoratog`, Pomir* (tog`), *Oqtepa, Uchtepa* (tepa), *Zarafshon, Sirdaryo* (daryo), *Yoyilma* (kanal); *Turkiya, Hindiston* (mamlakat) kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: *Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum* kabi; 3) yulduz va sayyora, boshqa xil osmon jismining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Hulkar, Qavs, Mirrix* (yulduz va sayyoralar nomi), *Tinchlik dengizi* (Oydagi relyef nomi) kabi. *Yer, quyosh, oy* turdosh otlari sayyora nomi bo`lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: *Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi;* 4) madaniy-maishiy va savdo korxonasiga, adabiyot va san`at asariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotiga, shuningdek, transport vositasi, sport inshootiga qo`yilgan nom bosh harf bilan boshlanadi: “*Tong*”

(mehmonxona), “*Saodat*” (firma), “*Navro`z*” (xayriya jamg`armasi), „*Kamalak*» (matbaa birlashmasi), “*G`uncha*” (bog`cha), “*Botanika*” (sanatoriy), “*Paxtakor*” (stadion), “*Qutlug`qon*” (roman), “*Dilorom*” (opera), “*Tanovar*” (kuy), “*Ozodlik*” (haykal), “*Jasorat*” (yodgorlik), “*Sino*” (sovutgich) kabi; 5) muhim tarixiy sana va bayram nomi tarkibidagi birinchi so`z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro`z bayrami* kabi; 6) davlat, davlat oliy tashkiloti va mansabining, xalqaro tashkilot nomidagi har bir so`z bosh harf bilan boshlanadi: *O`zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O`zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi* kabi. Boshqa tarkibli nomda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so`zgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning o`rinbosari, Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O`zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi* kabi. Vazirlik va idora, korxona va tashkilot nomi tarkibidagi birinchi so`z bosh harf bilan boshlanadi: *Sog`liqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo`mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti* kabi; 7) davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so`z bosh harf bilan boshlanadi: “*O`zbekiston Qahramoni*” (unvon), “*Oltin Yulduz*” (medal). Boshqa mukofot, faxriy unvon, nishon nomidagi birinchi so`zgina bosh harf bilan boshlanadi: “*Sog`lom avlod uchun*” (orden), “*O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan fan arbobi*” (faxriy unvon), “*Matbaa a`lochisi*” (nishon) kabi; 8) gapning birinchi so`zi bosh harf bilan boshlanadi: *Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim (O.Yoq.)*. (Eslatma: 1) ko`chirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi so`zi (agar u atoqli ot bo`lmasa) kichik harf bilan yoziladi: “*Bu men*”, – *qo`rqibgina javob berdi ko`laga (O.Yoq.)*; 2) xatboshiga gapning sanaluvchi qismi chiqarilganda bunday qism oldidan chiziq qo`yiladi va ular kichik harf bilan yoziladi: *Ma`muriy huquqbuzarlik to`g`risidagi ishni ko`rishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalani*:

–mazkur ishni ko`rib chiqish uning huquq doirasiga kirish-kirmasligini;

–ma`muriy huquqbuzarlik to`g`risidagi protokol va ishga oid boshqa material to`g`ri tuzilgan-tuzilmaganligini ... hal qiladi; 3) gapning qismlari qavsli raqam yoki qavsli harf qo`yib sanalsa, bunday qism ham kichik harf bilan yoziladi: *Hozirgi o`zbek adabiy tilining lug`at boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan: 1) umumturkiy so`z; 2) o`zbekcha so`z; 3) tojik tilidan kirgan so`z; 4) arab tilidan kirgan so`z; 5) rus tilidan kirgan so`z (“O`zbek tili” darsligidan); 9) tarkibli nomning bosh harfidan iborat qisqartma, atoqli ot bo`lmagan ba`zi birikmaning qisqartmasi bosh harf bilan yoziladi: AQSH (Amerika Qo`shma Shtatlari), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AES (atom elektr stansiyasi) kabi. Qisqartma tarkibida bo`g`inga teng qism bo`lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: ToshDTU (Toshkent davlat texnika universiteti) kabi.*

## **BOSHQA TILDAN O`ZLASHGAN AYRIM SO`Z TALAFFUZI**

Boshqa tildan o`zlashgan so`zning talaffuzida o`ziga xos me`yorlar bor. Ular quyidagilar: 1.Turkiy tillarda, ma`lumki, *f* undoshi bo`lmagan, shuning uchun jonli so`zlashuvda arab, fors va rus tillaridan o`zlashgan so`zlardagi «*f*»ni «*p*» deb talaffuz

qilish hollari uchraydi: *ulfat* > *ulpat*, *faner* > *paner*, *ferma* > *perma* kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ularni «f» bilan talaffuz qilish me'yor holiga kelgan. 2. So'z yoki bo'g'in boshida undosh tovushlarning qatorlashib kelishi turkiy tillarga xos bo'lmagan. Bu hodisa keyinchalik boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar talaffuziga ham ta'sir qilgan – jonli so'zlashuvda so'z yoki bo'g'in boshida yoxud bo'g'indagi ikki undosh orasida bir unlining orttirilishiga olib kelgan: *shkaf* > *ishkop*, *stakan* > *istakon*, *plan* > *pilon*, *traktor* > *tiraktir* kabi. Bunday holat so'z oxirida ham uchraydi: *aql* > *aqil*, *fikr* > *fikir*, *ilm* > *ilim*, *hukm* > *hukum* kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bunday so'zlarni asl holicha (unli orttirmay) talaffuz qilish orfoepik me'yor sanaladi. Bunday me'yor shu tipdagi so'zlarning yozuvdagi shaklini (imlosini) to'g'ri belgilashga ham yordam beradi. 3. Umumturkiy so'zlarda ikki unli yonma-yon qo'llanmaydi, bu hol arab tilidan o'zlashgan *oila*, *doir*, *rais*, *maorif*, *saodat*, *mutolaa* kabi so'zlar talaffuziga ta'sir qilgan: *oila*, *doir*, *rais* so'zlarida bitta «y» orttirilgan (*oyila*, *doyir*, *rayis* kabi), *maorif*, *saodat*, *mutolaa* so'zlari esa unlilarning diftonglashuviga – *mo:rip*, *so:dat*, *mutola:* kabi talaffuz qilinishiga olib kelgan. Keyingi bir asr ichida rus tilidan so'z o'zlashtirishning faollashganligi, ruscha o'zlashmalarning rus tilidagi talaffuz va imlo me'yorlarini o'zbek tiliga aynan singdirish an'anasining ustun bo'lganligi o'zbek tilida ikki unlining so'z tarkibida yonma-yon kelishini orfoepik va orfografik me'yorga aylantirdi: *biologiya*, *geometriya*, *geologiya*, *geodeziya* va boshqalar. Bu hol arabcha o'zlashmalarda (*oila*, *doir*, *rais*, *maorif*, *saodat*, *matbaa*, *mutolaa* kabilarda) ham ikki unlining yonma-yon talaffuz qilinishi va yozilishini me'yor darajasiga ko'tardi. 4. Arab tilidan o'zlashtirilgan *ta'na*, *da'vo*, *ma'no*, *e'lon*, *me'mor*, *mo'tabar* kabi so'zlarning birinchi bo'g'indagi unlilar cho'ziqroq talaffuz etiladi. 5. Rus tilidan o'zlashgan so'zlarda «i» unlisi o'zbek tilining «i» unlisidan torroq va cho'ziqroq talaffuz etiladi. *tish* (o'zb.) – *tip* > *ti:p* (rus.), *til* (o'zb.) – *tir* > *ti:r* (rus.) kabi. 6. Ruscha leksik o'zlashmalarning urg'usiz bo'g'indagi «e» unlisi o'zbekcha «e»dan ancha tor («i»ga yaqin) talaffuz etiladi: *telefon* > *tilifon.*, *televizor* > *tilivizir*, *adres* > *adris* kabi. 7. Rus tili orqali o'zlashgan so'zlarda «a» unlisi o'zbekcha «a»dan yo'g'onroq talaffuz etiladi: *kana* (o'zb.) – *kanal* (rus) kabi. 8. Rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlardagi o'rta keng, lablangan «o» unlisi urg'uli bo'g'inda o'zbek tilidagi o'rta keng, lablangan «o»dan kengroq talaffuz etiladi: *ton* (rus.) – *to'n* (o'zb.), *tok* (rus.) – *to`q* (o'zb.), *tort* (rus.) – *to`rt* (o'zb.) kabi. 9. Jonli tilda «r» bilan boshlangan arabcha, forsha va ruscha so'zlarning boshida bir «o» tovushining orttirilishi ancha keng tarqalgan: *ro`za* > *o`raza*, *rus* > *o`ris*, *ro`mol* > *o`ramol* kabi. Adabiy talaffuz me'yori sifatida *ro`za*, *rus*, *ro`mol* shakllari saralangan. 10. Rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlarning oxirida lab-tish «v» undoshi jarangsiz «f» tarzida talaffuz qilinadi: *aktiv* > *aktif*, *passiv* > *passif*, *ustav* > *ustaf*, *kursiv* > *kursif* kabi; «v»ning jarangsizlanishi so'z ichidagi assimilyativ holatda ham yuz beradi: *avtomat* > *aftomat*, *stavka* > *stafka* kabi. Bunday talaffuz adabiy til uchun me'yor sanaladi, ammo o'zbek tilining o'z so'zlarida qo'llanadigan lab-lab «v» undoshi so'z oxirida ham, jarangsiz undosh ta'sirida ham «f» ga o'tmaydi: *ov*, *birov*, *ovqat*, *shavkat* kabi. (Bu holat ham orfoepik me'yor sanaladi). 11. Rus tilidan o'zlashtirilgan so'zning ko'pchiligida urg'u erkin bo'ladi, bu hol o'zbek adabiy tili va talaffuziga ham singib bormoqda: *atlas*, *trolleybus*, *tramvay* kabi. 12. O'zbek tilidagi urg'u asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi, ammo ayrim o'zlashgan so'zlarda urg'u so'zning oldingi bo'g'inlarida bo'lishi ham mumkin: *hamma*, *jami*, *hamisha*,

*afsuski* kabi. Bunday holatlardan xabardor bo'lish adabiy talaffuz me'yoriga amal qilish imkonini beradi.

## BOSHQIRD TILI

Boshqird tili – boshqird xalqining tili. Turkiy tillar g'arbiy tarmog'ining qipchoq guruhiga kiradi. Boshqird tilida 1 millionga yaqin kishi so'zlashadi (1992 yildagi ma'lumot). Ikkita asosiy shevasi bor: a) janubiy (yurmata); b) sharqiy (quvaqan). Boshqird tili turkiy tillardan tatar tiliga yaqin turadi, faqat talaffuz va qisman grammatik jihatdan farqlanadi. Yozuvi arab (1929- yilgacha), lotin (1929–1939) va kirill (1940- yildan) alifbolari asosida.

## BRAXMA YOZUVI

Braxma yozuvi – qadimgi bo'g'inli hind yozuvlaridan biri. Eramizdan avvalgi Hindiston va Hindixitoydagi hozirgi ko'pgina yozuvlarga asos bo'lgan. Bu yozuvdagi yodgorliklar buddiylikka oid oliy farmonlar, shoh Ashok (eramizdan avvalgi 272–232) davriga mansub. Bularning ko'pchiligi qoyalarga va ibodatxonalaning ustun va peshtoqlariga o'yib yozilgan. Braxma yozuvining kelib chiqishi aniqlanmagan. Olimlar finikiya, oromiy, janubiy arab yozuvlari uning paydo bo'lishiga ta'sir etgan deb taxmin qilishadi. Shuningdek, u bilan hozircha o'qishga muvaffaq bo'linmagan ko'hna hind yozuvini bog'lashadi. Braxma yozuvi alifbosida 31 bo'g'in belgisi (har bir bo'g'in bir undosh va “a” unlisi dan iborat), yana 4 ta unlini bildiruvchi alohida belgi hamda “ng” tovushini bildiruvchi maxsus ishora (anus vara) mavjud.

## BO`LISHLI-BO`LISHSIZLIK SHAKLI

Bo'lishli-bo'lishsizlik shakli – harakatning tasdiq yoki inkorini ko'rsatuvchi fe'l shakli.

Fe'llar bo'lishli yoki bo'lishsiz shaklda qo'llanadi: *keldi – kelmadi*. **Bo'lishli fe'l** harakatning tasdig'ini bildiradi, maxsus ko'rsatkichga ega emas: *o`qidi, o`qib, o`qigan, o`qish*. **Bo'lishsiz fe'l** harakatning inkorini bildiradi. *-ma* shakli bilan hosil qilinadi: *o`qimadi, o`qimay, o`qimasdan, o`qimas, o`qimaslik*.

Uslubiy belgilari. Fe'llarning bo'lishli yoki bo'lishsiz ekanligi nutqda *-ma* shaklini qo'llanish-qo'llanmasligi bilan belgilanmaydi. Nutqda bo'lishsizlik kuchsizlanishi yoki bo'lishlilik yo'qolishi mumkin. Mas., *Eshitganini aytmay-qo`ymaydi* (bo'lishli); *Sizni ketkizarmidik* (bo'lishsiz); *U sho`rlik qanday kunlarni ko`rmadi?* (bo'lishli); *Olasaaan* (bo'lishsiz); *Bolani kim sevmaydi?* (bo'lishli).

## BO`G`IN

Bo'g'in – so'zning bir nafas zarbi bilan aytiladigan tovush yoki tovush birikmasidan iborat qismi. Mas., *otamiz* so'zida uch bo'g'in bor: *o-ta-miz*. Birinchi bo'g'in tovushdan, qolgan ikkitasi tovush birikmasidan iborat. O'zbek tilida bo'g'in unlisiz tuzilmaydi. So'zda qancha unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi. Bo'g'in sonini

aniqlash uchun unlini sanab chiqish kifoya. Bo`g`in dastlab ikki belgi asosida tasniflanadi:

I. Unli yoki undosh bilan tugashiga qarab: a) **ochiq bo`g`in**; b) **yopiq bo`g`in** farqlanadi. Unli bilan tugagan yoki faqat unlidan iborat bo`g`in – ochiq bo`g`in: *o-na, o-ta, o-pa*. Undosh bilan tugagan bo`g`in yopiq bo`g`in deyiladi: *mak-tab, rah-bar, shax-mat*.

II. Ikki tomonidan undosh bilan o`ralganiga ko`ra: a) **berkitilgan bo`g`in**; b) **berkitilmagan bo`g`in**. Unlining ikki tomoni undosh bilan o`ralgan bo`lsa, berkitilgan bo`g`in: *daf-tar, San-jar*; bir tomonida yoki ikki tomonida ham undosh bo`lmasa, berkitilmagan bo`g`in: *so-at, in-sho, o-i-la*.

Bir bo`g`in bittadan to`rttagacha, o`zlashma so`zda beshtagacha tovushdan iborat bo`ladi: *ona, bosh, tekst*. O`zbek tilida bo`g`in ning quyidagi tipi mavjud: 1. Bir unlidan iborat: *u* (olmosh), *e, o* (undov so`z). 2. Bir unli va bir undosh: *un, uch*. 3. Bir unli va ikki undosh: *bur, daf-tar*. 4. Bir unli va uch undosh: *do`st, mard*. 5. Bir unli va to`rt undosh: *tekst, punkt*. Sof o`zbekcha so`z o`zagida uchtagacha bo`g`in bo`lishi mumkin. Boshqa bo`g`in tipi o`zlashma so`zga xos.

O`zbek tilida bo`g`in ajratish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Undan savod o`rgatishda, she`riy vazn o`lchovini belgilashda hamda yozuvda bir satrdan ikkinchi satrga ko`chirishda foydalaniladi.

Tilshunoslikdagi bo`g`in adabiyotshunoslikdagi *hijo* tushunchasiga har doim ham to`g`ri kelmaydi. *Hijo* ham arabcha bo`g`in demakdir. She`rdagi so`zning bir nafas zarbi bilan talaffuz etiladigan qismi, ya`ni she`r o`lchovidagi dastlabgi ritmik birlik *hijo*. *Hijo* ba`zan bo`g`indan farqli o`laroq undosh tovushning o`zidan ham tuzilishi mumkin.

*Vasl bog`i ichra sendek shohi zolim ko`rmadim,*

*Ishq ko`yida o`zimdek notavone topmadim.* (Navoiy)

baytidagi *vasl, ishq* so`zidagi *l* va *q* undoshi mustaqil *hijoni* tashkil etadi.



## “DAHNOMA”

«Dahnoma» – XV asrda yashagan shoir Yusuf Amiriyning qalamiga mansub, eski o`zbek adabiy tilining nodir namunasi. Uning XVI asr boshlarida ko`chirilgan yagona nusxasi Britaniya muzeyida saqlanadi. Asar nomachilik an`analariga qat`iy rioya qilingan holda yozilgan, shoh Ulug`bekning akasi Boysung`ur Mirzoga bag`ishlangan. Asar tilining ravonligi va sujetining pishiqligi bilan ajralib turadi. Noma asosini ma`shuq va oshiqning bir-biriga yo`llagan maktublari tashkil etadi. Asardan ayrim parchalar “O`zbek adabiyoti” kitobining birinchi tomiga kiritilgan. 1987- yili G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyotida chop etilgan “Muborak maktublar” deb nomlangan majmuaga H.Muxtorova tomonidan tayyorlangan nusxasi kiritilgan.

## DARAJA SHAKLI

Daraja shakli – belgining bir-biriga qiyosiy munosabatini koʻrsatuvchi shakl. Belgi bildiradigan soʻzlarda baʼzan belgi darajalab koʻrsatiladi: *katta, kattaroq, juda katta*. Belgini darajalab koʻrsatuvchi maxsus morfologik, leksik vositalar mavjud, ular daraja kategoriyasi ostida birlashadi. Belgi bildiradigan soʻzlarga, asosan sifat (*shirin, shirinroq, juda shirin*) va ravish (*sekin, sekinroq, nihoyatda sekin*), qisman sifat-dosh (*eskirgan, biroz eskirgan, juda eskirgan*) va ravish-dosh (*kulib, kulibroq, rosa kulib*) xos. Darajaning toʻrt shakli ajratiladi.

1. **Oddiy daraja** – belgining meʼyorda ekanligini bildiradi: *qizil, shirin, nordon*.

2. **Orttirma daraja** – belgining meʼyordan ortiq ekanini bildiradi. Quyidagi yoʻllar bilan hosil qilinadi: 1) oddiy daraja shaklidagi sifat oldidan *eng, tim, jiqqa, liq, toʻq, gʻoyat, nihoyatda, juda, rosa, zap, bagʻoyat, hammadan* soʻzlarini qoʻshish bilan: *juda qiziq, eng katta*; 2) oddiy daraja shaklidagi sifatning birinchi boʻgʻinini ajratib (baʼzan tovush oʻzgarishi mumkin) juftlash yoʻli bilan: *bus-butun, kap-katta, yam-yashil, sip-silliq, toʻppa-toʻgʻri, tep-tekis*; 3) urgʻu berish bilan: *qaaari, maayda, uzuun*; 4) ayrim sifatlarni chiqish kelishigida juftlash bilan: *kattadan katta, shirindan shirin, azizdan aziz*.

3. **Qiyosiy daraja** – belgining meʼyordan biroz kam ekanligini qiyosan ifodalaydi. Maxsus shakli – *roq*: *Nomus jondan ham qimmatliroq* (F.Shiller).

4. **Ozaytirma daraja** – belgining meʼyordan kam ekanligini bildiradi. Quyidagi yoʻllar bilan hosil qilinadi: 1) oddiy daraja shaklidagi sifat oldidan *sal, biroz, xiyla, picha, uncha, u qadar, birmuncha, nim* soʻzlarini qoʻshish bilan; 2) *-(i)sh, -(i)mtir* shakllarini qoʻshish bilan: *qoramtir, koʻkish, koʻkimtir*.

Uslubiy belgilari. *-(i)sh, -(i)mtir* shakllari faqat rang-tus bildiruvchi sifatlarni darajalab koʻrsatadi. Hatto rang-tus sifatlarining ham barchasiga qoʻshila olmaydi: *qora, koʻk, yashil* va boshqalar.

Imlo si. Sifat oldidan qoʻshilib, daraja hosil qilishda ishtirok etadigan *sal, biroz, xiyla, picha, uncha, u qadar, birmuncha, eng, tim, jiqqa, liq, toʻq, gʻoyat, nihoyatda, juda, rosa, zap, bagʻoyat, hammadan* soʻzlari doimo keyingi soʻzdan ajratib yoziladi: *biroz kichik, juda uzun* bundan mustasno. Fors-tojik tilidan oʻzlashgan bu soʻz keyingi soʻzga qoʻshilib yoziladi: *nimpushti, nimyashil*.

## DAVLAT TILI

Davlat tili – maʼlum davlat hududida rasmiy aloqa-aralashuv vositasi boʻlgan til. Barcha davlat hujjati davlat tilida yoziladi, yigʻin, anjuman va qurultoy shu tilda olib boriladi. 1989-yil 21-oktabrda oʻzbek tiliga Davlat tili maqomi berildi va 1990-yil 19-fevralda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan «Davlat tili toʻgʻrisida»gi 30 moddadan iborat Qonun qabul qilindi. Bu haqda Oʻzbekiston Asosiy Qonunining 4- moddasida, «Davlat tili toʻgʻrisida»gi Qonunning 1- moddasida shunday deyilgan: «Oʻzbekiston Respublikasining davlat tili oʻzbek tilidir». Shuning uchun ham mamlakatimiz fuqarolari har yili 21- oktabrni til bayrami sifatida nishonlaydi. Qonun Oʻzbekiston xalqi sobiq Shoʻro davlati tarkibida boʻlgan vaqtda qabul qilinganligi sababli mustaqillik qoʻlga kiritilgandan keyin uni qayta koʻrib chiqish zarurati paydo boʻldi. Shuning uchun 1995-yil 21-dekabrda yangi tahrirdagi «Davlat tili toʻgʻrisida»gi

Qonun qabul qilindi. Avvalgi 30 moddadan iborat Qonunning 11 moddasi chiqarilib, 5 modda yangidan qo`shildi. Natijada u 24 moddadan iborat bo`ldi.

## **“DEVONU LUG`OTI-T-TURK”**

«Devonu lug`oti-t-turk» (“Turkiy so`zlar devoni”) – Mahmud Koshg`ariyning turkiy tillar haqidagi qomusiy asari. Bu asarda XI asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda va G`arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug` va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, jo`g`rofiyasi, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma`lumotlar yozib qoldirilgan. O`zbek tilshunosligi fani Koshg`ariyning «Devonu lug`otit turk» asari bilan boshlanadi. Asarning Namangan, Vena va Qohira nusxalari mavjud.

Asar haqida ilk ma`lumot bergan kishi fransuz sharqshunosi J.Amadi edi. Kitobning 1439-yilda Hirotda uyg`ur yozuvida ko`chirilgan bir nusxasi qator sarguzashtlar bilan Istanbulga kelib qoladi. Bu asar ilk marta 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakir shahrida topilgan. 319 sahifadan iborat bu asar hozir Istanbulda saqlanadi. Bu nusxa “Devonu lug`otit turk” yozilgandan 200 yil keyin (1266-yilda) kotib Muhammad ibn Abu Bakr ibn Fotih al-Soviy al-Damashqiy tomonidan ko`chirilgan. Yevropalik kitob jalloblari qo`liga o`tib, Vena saroy kutubxonasiga tushadi. Qohira nusxasi 1896- yilda Qohirada, Namangan nusxasi 1913- yilda Namanganda topilgan.

«Devonu lug`otit turk» uch tomдан iborat, 1915–17-yillarda Istanbul shahrida nashr etilgan. Shu nashr asosida K.Brokkelman bu asarni 1928-yilda nemischa tarjimada nashr qildi. 1939- yilda Anqarada Basim Atalay tarjimasida turk tilida bosildi. Olim S.Mutallibov devon tarjimasini ustida samarali ishlab, 1960–63-yillar davomida uch tomda o`zbek tilida nashr qildi.

Koshg`ariyning asari kirish va lug`at qismidan iborat. Kirish qismida muallif «Devon»ning yaratilish sabablari, o`z ish uslubi, asarning tuzilishi, turkcha so`zlarning tuzilishida qo`llaniladigan harflar haqida, kitobda aytilgan va aytilmagan narsalar haqida, turkiy tabaqalar va qabilalarning bayoni, turk tilining xususiyatlari, tilda va lahjalarda bo`ladigan farqlar haqida fikr yuritadi. Har bir so`zning ma`nolari (polisemiya, omonim, antonim, arxaik so`zlar) chuqur tahlil qilinadi, ayrim so`zlarning etimologiyasi beriladi. Tovushlar tahlili ancha mukammal. Unli va undosh fonemalar, cho`ziq va qisqa unlilar farqlanadi, tildagi fonetik hodisa va qonunuyatlar ochib beriladi. Morfologiya qismida so`zlar arab tilshunosligi an`analariga ko`ra uchga ajratiladi: fe`l, i s m, b o g`l o v c h i. So`zlarning yasaliş va bog`lanish xususiyatlari ko`rsatiladi.

Asarning lug`at qismida 7500 so`z sakkiz bo`limda izohlanadi. Koshg`ariy turkiy tillar qurilishini tasvirlashda qiyosiy usuldan foydalanib, tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metodning asoschilaridan biri bo`lib qoldi.

## **DIALEKTAL LUG`AT**

Dialektal lug`at o`zbek tilining dialekt va shevalariga xos bo`lgan leksik birliklarni qayd qiladi. Bunday lug`atlar umuman o`zbek tilining barcha shevalariga xos so`zlarni yoki ma`lum bir sheva so`zlarini izohlashga mo`ljallangan bo`lishi mumkin. 1971- yilda

mualliflar jamoasi tomonidan «Fan» nashriyotida chop etilgan «O`zbek xalq shevalari lug`ati»ni bunga misol qilib keltirish mumkin. Lug`atdan misol keltiramiz:

G o v a r a (Buxoro) beshik

G a v d o ` s h a (Buxoro) xurma

G a j d i m (Nayman) chayon (62- bet).

## **DIALEKTOLOGIYA (SHEVASHUNOSLIK)**

Dialektologiya – umumxalq tilini tashkil etgan sheva va lahjaning fonetik, leksik va grammatik xususiyati, tarqalish doirasini o`rganadi. Milliy tilning paydo bo`lishi va rivojlanishida shevalarning tutgan o`rni, milliy tilga asos bo`lgan shevalar aniqlanadi. Shevalararo, shuningdek, adabiy til va qardosh tillar bilan munosabati tekshiriladi. Dialektologiya shevalarning tarqalish chegaralariga ko`ra tasviriy dialektologiya va tarixiy dialektologiyaga bo`linadi. Tasviriy dialektologiya mahalliy lahja va shevalarning fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi, leksik tarkibini o`rganish bilan shug`ullanadi. Tarixiy dialektologiya tilning dialektal xususiyatlarini qayd qilish bilan birga, ularning kelib chiqishi, rivojlanishi va shakllanish tarixini o`rganadi. Dialektologiya tilning grammatik, leksik, orfografik va orfoepik me`yorlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Dialektologiya tilshunoslik, etnografiya, folklor va boshqalar bilan aloqada rivojlanadi. G`ozi Olim Yunusov, A.K.Borovkov, Sh.Shoabdurahmonov va boshqalar o`zbek dialektologiyasi taraqqiyotiga muhim hissa qo`shgan.

## **DISFEMIZM**

Narsa va hodisalarni o`z nomi bilan emas, balki boshqa bir qo`polroq so`z yoki so`z birikmasi, ibora bilan atash hollari uchraydi. Masalan, insonga nisbatan ishlatiladigan *o`lmoq* so`zi o`rnida *joyi jahannamdan bo`ldi*, *asfalosofilinga ravona bo`ldi* iboralari, *homilador* so`zi o`rnida *bo`goz* so`zlarini ishlatish hollari ham uchrab turadi. So`z yoki so`z birikmasi, ibora bunday qo`pol ma`noda qo`llanganda *disfemizm* deyiladi.

*Disfemizm* grekcha *disfemismo* so`zidan olingan bo`lib, “qo`pol ifoda” degan ma`noni bildiradi va evfemizmga zid turadi (“Evfemizm” maqolasiga qarang). Disfemizmlar so`zlashuvda madaniy saviyasi past kishilar nutqida uchraydi. Badiiy asarlarda, odatda, salbiy fe`l-atvorli kishilar nutqida ko`zga tashlanadi.

## **DRAVID TILLAR OILASI**

Dravid tillar oilasi – Hindistonning janubi-sharqi va janubi-g`arbi, shuningdek, Seylon orolining shimolida yashovchi aholining tili. Bu oilaga tamil, malayalam, kannara, telugu, broxui va boshqa bir qancha kichik tillar kiradi

## **DUNYO TILLARI**

Dunyoda taxminan 3000 dan (ba'zi adabiyotda ular 3000 dan 7000 gacha sanaladi) ortiq til bor. Bu tilning ayrimida bir necha o'n, hatto yuz millionlab kishi gaplashsa, ba'zidan bir necha ming kishigina foydalanadi, xolos. Mas., Kongoda aholi 500 tilda, Indoneziyada 250 tilda, Sudanda 117 tilda gaplashadi. Xitoy tilida hozir bir milliardga yaqin kishi so'zlashsa, chukot va vele tilida bor-yo'g'i bir necha ming kishi muloqotda bo'ladi. Kavkaz tog'ida joylashgan Dog'istonda 1 milliondan ortiq aholi bo'lib, ular 40 ga yaqin tilda so'zlashadi. Yangi Gvineyada deyarli har bir qishloq aholisi o'z tiliga ega. Dunyodagi 200 tilning har birida 1 milliondan ortiq, 70 tilning har birida 5 milliondan ziyod, faqat 13 tilning har birida 50 milliondan ortiq kishi so'zlaydi. Qolganining har birida esa 1 milliondan kam kishi gaplashadi.

Angliya, AQSH, Kanada kabi mamlakat fuqarosi, asosan, ingliz tilida, Ispaniya, Kuba, Chili, Meksika fuqarosi, asosan, ispan tilida gaplashadi. Demak, tilning tarqalish, ishlatilish doirasi va nomlanishi har xil. Jahon tili orasida nomi bir tovushdan iborat til ham mavjud. Bu I tili. I tili Xitoyning Sichuan, Yunnan, Guyjou viloyatlariga tarqalgan.

Dunyo tillari tasnifi. Olimlar tillar orasidagi o'xshashlikni ko'rsatuvchi dalilni o'rganib borishgan. O'zbek tilidagi *ona* so'zining ruscha *мать*, bulg'orcha *мояка*, polyakcha *matka*, litva tilida *mamina*, nemischa *mutter*, fransuzcha *mere*, tojik tilida *modar* kabi muqobilga o'xshashligi bunga misol bo'la oladi. Kuzatish va qiyoslash tasnifga olib kelgan. Tilni o'xshashlik va farqqa ko'ra guruhlash til tasnifi (klassifikatsiyasi) deyiladi. Tilshunoslikda tilni tasniflashda, odatda, ikki belgi qo'llanildi: *m o r f o l o g i k* va *g e n e t i k* (q. **Morfologok tasnif, Genetik tasnif**). Biz uchun genetik (geneologik) tasnif muhim. Genetik tasnif tilni o'zaro qarindoshligi asosida guruhlaydi. Morfologik tasnifda tillar grammatik xususiyatiga ko'ra tasnif qilinadi.



## EVFEMIZM

Barcha xalqlarda ayrim narsa va hodisalarning nomini aytish go'yo ta'qiqlangandek bo'ladi. Masalan, kishilarga nisbatan *o'lmoq* so'zini aytmaslikka harakat qilinadi. "Ta'qiqlangan" so'z *tabu*, ta'qiqlash esa *tabulashtirish* deyiladi. Ta'qiqlangan so'z o'rnida qo'llangan so'z, birikma va iboralar *evfemizm* deb yuritiladi. *Evfefizm* grekcha *euphemismos* — "yaxshi", *phemi* — "гапираман" demakdir. Masalan, *o'lmoq* so'zi o'rnida qo'llangan *vafot etmoq, foni dunyoni tark etmoq, o'tmoq, joni uzilmoq* kabi so'z va iboralar evfemizmdir. Evfemizmning "ta'qiqlangan" so'z o'rnida ifodalagan ma'nosi uning ko'chma ma'nosi hisoblanadi. So'zlovchining evfemizmlarni qo'llashi uning nutq madaniyati, muloqot odobi yuqoriligidan dalolat beradi.

Turli kasalliklar, jismoniy kamchiliklar, jonivorlar, voqea-hodisalar xalq orasida evfemik nom bilan yuradi. Masalan, *gepatit* so'zi o'rnida qo'llangan *sarg'ayma* so'zi, *sizamiq* so'zi o'rnida qo'llangan *gul* so'zi, *ko'r* so'zi o'rnida qo'llangan *ko'zi ojiz* birikmasi, *chayon* so'zi o'rnida qo'llangan *gajak, eshak, oti yo'q* so'z va birikmalari,

*ilon* soʻzi oʻrnida qoʻllangan *argʻamchi* soʻzi shunday evfemik vosita hisoblanadi.

Mohir soʻz sanʼatkorlari oʻz asarlarida evfemizmlarni koʻp qollashadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning roman va hikoyalarida, hajviy asarlarida evfemizmlarning juda ajoyib namunalarini koʻrish mumkin.

## EGALIK SHAKLI

Egalik shakli – tilimizda ismlarga qoʻshilib, asos qismda ifodalangan narsa, belgi, xususiyat, harakat-holatning uch shaxsdan biriga qarashlilikini bildiradigan shakllar tizimi. Egalik shakli predmet-hodisaning qaysi shaxs va songa qarashli ekanligini bildirib, oʻzi birikkan bosh soʻzni qaratqich kelishigidagi ergash soʻzga bogʻlaydi: *mening kitobim*. Ergash soʻz boʻlmaganda ham egalik shakli narsaning kimga tegishlilikini koʻrsatadi: (mening) *Ukam keldi*.

Egalik qoʻshimchasi unli yoki undosh bilan tugagan soʻzga qoʻshilishiga qarab ikkitadan fonetik variantga ega:

|                 |              |                 |            |                  |
|-----------------|--------------|-----------------|------------|------------------|
| <i>Mening</i>   | <i>kitob</i> | <i>-im</i>      | <i>uka</i> | <i>-m</i>        |
| <i>Sening</i>   |              | <i>-ing</i>     |            | <i>-ng</i>       |
| <i>Uning</i>    |              | <i>-i</i>       |            | <i>-si</i>       |
| <i>Bizning</i>  |              | <i>-imiz</i>    |            | <i>-miz</i>      |
| <i>Sizning</i>  |              | <i>-ingiz</i>   |            | <i>-ngiz</i>     |
| <i>Ularning</i> |              | <i>-i//lari</i> |            | <i>-si//lari</i> |

Uslubiy belgilari. 1. Egalik koʻshimchasi qaratqich kelishigi qoʻshimchasining mavjudligini, qaratqich kelishigi qoʻshimchasi esa egalik qoʻshimchasining mavjudligini koʻrsatib turadi: *maktab hovlisi, bizning maktab*.

2. Viloyat, shahar, tuman, korxona, muassasa nomlari tarkibidagi III shaxs egalik shakli shaxsga qarashlilik maʼnosini emas, xoslik, umundan ajratilganlik maʼnosini ifodalaydi. Shu sababli bunday birikmalarda oldingi qism qaratqich kelishigida qoʻllanmaydi: *Mustaqillik koʻchasi, Dehqonobod tumani, Qarshi davlat universiteti, oʻzbek tilshunosligi kafedrası*.

3. III shaxs birlik va koʻplikdagi egalik shakllari ayrim ravish va modal soʻzlar tarkibida yaxlitlanib qolgan: *kechasi, kunduzi, tunlari, chamasi, ochigʻi, yaxshisi*.

4. Egalik (qarashlilik) maʼnosi *-niki* qoʻshimchasi yordamida ifodalanishi ham mumkin, faqat bu qoʻshimcha shaxs-son koʻrsatmaydi: *maktabimiz – maktabniki*.

5. Qaratqichli birikmada shaxs almashib qoʻllanishi ham mumkin: *Mening uyim shu yerda – Kaminaning uyi shu yerda*.

6. Egalik shaklini koʻproq ot xususiylashtirgan, biroq egalik shakli istagan mustaqil soʻz, hatto taqlid, undov soʻzlarga qoʻshilib ularni boshqa soʻzlar bilan munosabatga kirita oladi. Shuning uchun ham u – **ismlarning munosabat shakli**.

7. Egalik qoʻshimchasi I va II shaxs koʻplikda belgisiz ishlatilishi, yaʼni tushirib qoldirilishi mumkin. Bu qaratqich kelishigidagi kishilik olmoshi boʻlishini shart qilib qoʻyadi: *bizning ayvon, sizning oila, sizlarning maktab, bizlarning shahar*.

8. Sifatdosh va harakat nomi tarkibidagi egalik shakllari harakat bajaruvchisining shaxsi va sonini bildiradi: *o`qiganim, borishim*. Shuning uchun qaratqich kelishigidagi shaxs bildiruvchi so`zning qo`llanishiga ehtiyoj bo`lmaydi.

I m l o s i . 1. *Eshik, qishloq, yutuq, kapalak* kabi ikki va ko`p bo`g`inli so`zlarga egalik qo`shimchasi qo`shilganda, o`zak oxiridagi jarangsizning jaranglilashuvi kuzatiladi: *eshigi, qishlog`im, yutug`ing, kapalagi. Nok, chok* kabi bir bo`g`inli so`zlar, *idrok, ishtirok* kabi ko`p bo`g`inli so`zlarda bu holat kuzatilmaydi.

2. *Qorin, singil, burun, shahar, zahar* kabi ikki bo`g`inli so`zlarga egalik shakli qo`shilganda ikkinchi bo`g`indagi *i, u, a* unlilarining tushib qolishi kuzatiladi: *Qorni, singlim, burning, shahri, zahri*.

3. *Haq, his* kabi o`zlashma so`zlarga egalik shakli qo`shilganda tovush ikkilanishi yuz beradi: *haqqi, hissi*.

4. *parvo, obro`, mavqe, mavzu, avzo* kabi arabiy va forsiy so`zlarga I, II shaxs egalik qo`shimchalari qo`shilganda y tovushi orttiriladi va shunday yoziladi: *parvoyim, obro`ying, mavqeyim, mavzuyi, avzoyim*. III shaxs egalik shakli *parvo, obro`, mavqe, avzo* so`zlariga -yi shaklida, *xudo, mavzu* so`zlariga -si tarzida qo`shiladi.

## ERGASH GAPLI QO`SHMA GAP

Ergash gapli qo`shma gap – birdan ortiq sodda gapning mazmun jihatdan tobehokim munosabati asosida, ya`ni birining boshqasiga ergashishidan tuzilgan qo`shma gap turi: *Ildiz oziq bersa, novda ko`karar*. Ergashgan qo`shma gapda b o s h g a p va e r g a s h g a p bo`ladi. Berilgan gapda birinchi gap – ergash gap, ikkinchi gap - bosh gap.

B o s h va e r g a s h g a p . Boshqa gapni o`ziga tobe qilib kelgan gap **bosh gap** hisoblanadi. Bosh gapga ergashib, uni izohlab kelgan gap **ergash gap** deyiladi: *Ta`til boshlansa, biz shaxmat musobaqasini o`tkazamiz*. Bu gapning *Ta`til boshlansa* qismi ergash gap, *biz shaxmat musobaqasini o`tkazamiz* qismi esa bosh gap. Ergash gap bosh gapni butunicha yoki uning biror bo`lagani izohlaydi: *Rais ko`rindiki, hamma tinchlanadi* gapida ergash gap bosh gapni butunicha izohlayapti. *Siz shuni unutmangki, kurashchilar yolg`iz emas* gapida esa ergash gap bosh gap tarkibidagi olmosh bilan ifodalangan *to`ldiruvchini (shuni)* izohlayapti. Ergash gap bosh gapdan oldin, undan keyin yoki uning ichida kela oladi: *O`qituvchi, qo`ng`iroq chalinsa, sinfga kiradi*. Bu gapda ergash gap bosh gap ichida kelgan. Ergash gap bosh gapga *chunki, shuning uchun, -ki, agar, garchi, mabodo, go`yo(ki)* (ayrim darslikda *go`yo* bog`lovchisi *bog`lovchi* vazifasidagi so`z deb atalgan) kabi ergashtiruvchi bog`lovchi, fe`lning ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakli, shuningdek, yuklama, ko`makchi, turli vazifadagi ko`rsatish olmoshi, *kim – u, qanday – shunday, qancha – shuncha, qaysi – o`sha, qayerda – u yerda* kabi bir-biriga ishora ma`nosini bildiradigan so`roq olmoshi va ko`rsatish olmoshidan iborat nisbiy so`z, *sababli, tufayli, deb* so`zi orqali bog`lanadi: 1. *Biz kitobni sevamiz, chunki u bilim manbai*. 2. *Hosil to`kin bo`lsa, to`ylar to`xtamas*. - *ki, shuning uchun* bog`lovchisi bosh gap tarkibida, boshqa bog`lovchi esa ergash gap tarkibida bo`ladi. Bunda ega tarkibidagi -ki bog`lovchisini e`tiborga olmaslik kerak. Misol: 1. *Siz shuni unutmangki* (bosh gap), *kurashchilar yolg`iz emas* (ergash gap). 2. *Kitob bilim manbai* (ergash gap), *shuning uchun* biz uni sevamiz (bosh gap). 3. *Rais*

*kirsa* (ergash gap), *hamma tinchlanadi* (bosh gap). 4. *Biz kitobni sevamiz* (bosh gap), *chunki u bilim manbai* (ergash gap). 5. *Hosil to'kin bo'lsa* (ergash gap), *to'ylar to'xtamas* (bosh gap). 6. *Kimki yomonlar suhbatidan qochsa* (ergash gap), *u yaxshilar suhbatiga erishadi* (bosh gap). Ergash gap gap bo'lagiga o'xshaydi. Uning quyidagi turi mavjud: 1) ega ergash gap; 2) kesim ergash gap; 3) to'ldiruvchi ergash gap; 4) aniqlovchi ergash gap; 5) hol ergash gap: a) payt ergash gap; b) o'rin ergash gap; d) sabab ergash gap; e) maqsad ergash gap; g) shart ergash gap; h) to'siqsiz ergash gap; i) miqdor-daraja; j) o'xshatish ergash gap; k) natija ergash gap. E'tibor qilinsa, hol ergash gapning 9 turi ikkinchi darajali bo'lak bo'lgan holning ma'no turini eslatadi. Aslida aniqlovchi ergash gap ham sifatlovchi-aniqlovchi ergash gap, qaratqich-aniqlovchi ergash gap, to'ldiruvchi ergash gap vositali to'ldiruvchi ergash gap, vositasiz to'ldiruvchi ergash gap kabi turga bo'linishi kerak edi. Lekin o'zbek tilshunosligida bunday bo'linish an'ana emas.

**1. Ega ergash gap** bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan ega ni izohlaydi. U bosh gap bilan birga ega ergash gapli qo'shma gap hisoblanadi. Ega ergash gap -ki bog'lovchisi va fe'lning shart mayli qo'shimchasi -sa hamda so'roq va ko'rsatish olmoshi (*kimki – u, kimki – o'sha, kimki – o'zi, nima – o'sha, nimaiki – hammasi*) yordamida bog'lanadi: *Kimki yomonlar suhbatidan qochsa, u yaxshilar suhbatiga erishadi*. Ba'zan bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan ega tushirilishi mumkin: *Sizga ayonki, siz o'z oilangizdasiz*. Bu gapda *shu* (ega) tushirilgan.

Sxemasi:

| Bosh gap                | Ergash gap |
|-------------------------|------------|
| <i>Shunisi .....ki,</i> | ..... .    |
| <i>..... ki,</i>        | ..... .    |

| Ergash gap              | Bosh gap            |
|-------------------------|---------------------|
| <i>Kim .....sa,</i>     | <i>u ..... .</i>    |
| <i>Kim ..... sa,</i>    | <i>o'zi ..... .</i> |
| <i>Kimki .....-sa,</i>  | <i>u ..... .</i>    |
| <i>Kimda-kim ...sa,</i> | <i>u ..... .</i>    |
| <i>Nimaiki ... .sa,</i> | <i>o'sha..... .</i> |
| <i>Nima .....sa,</i>    | <i>o'sha..... .</i> |

**2. Kesim ergash gap** bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan kesim ni izohlab, u bosh gap bilan birga kesim ergash gapli qo'shma gapni hosil qiladi: *Uch og'ayni botirlarning eng yaxshi fazilati shuki, ular xalqdan ajralib qolishni istamaydi*. Kesim ergash gap bosh gapga -ki bog'lovchisi, o'rin-payt va bosh kelishigidagi *shu, kimsan* olmoshi yordamida bog'lanadi. Ba'zan bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan kesim tushiriladi: *Yaxshisi, sen darsingni tayyorla*.

Sxemasi:

| Bosh gap | Ergash gap |
|----------|------------|
|----------|------------|

|                            |         |
|----------------------------|---------|
| ..... <i>shuki</i> ,       | ..... . |
| ..... <i>shu yerdaki</i> , | ..... . |
| ..... <i>shundaki</i> ,    | ..... . |
| ..... <i>shundayki</i> ,   | ..... . |

**3. To'ldiruvchi ergash gap** bosh gapdagi ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan to'ldiruvchini izohlaydi. To'ldiruvchi ergash gap bosh gap bilan birgalikda to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni tashkil etadi. To'ldiruvchi ergash gap, odatda, bosh gapga *-ki* bog'lovchisi, *-sa* shart mayli qo'shimchasi yordamida bog'lanadi. *Shuni bilingki, har bir yangilik bexosiyat bo'lmaydi. Kimda gumoning bo'lsa, uni ko'zdan qochirma.* Bosh gap tarkibida *shuni, shunga, shundan* kabi to'ldiruvchi qatnashadi. Ba'zan bu to'ldiruvchi tushirilishi mumkin: *Itimos qilamanki, oldin rais so'zlasin.* Bu gapda *shuni* to'ldiruvchisi tushirilgan.

Sxemasi:

| Bosh gap                           | Ergash gap |
|------------------------------------|------------|
| <i>Shuni</i> ..... <i>-ki</i> ,    | ..... .    |
| <i>Shundan</i> ,..... <i>-ki</i> , | ..... .    |
| <i>Shunga</i> ..... <i>-ki</i> ,   | ..... .    |
| ..... <i>-ki</i> ,                 | ..... .    |
| <i>Buni</i> ..... <i>-ki</i> ,     | ..... .    |

| Ergash gap                          | Bosh gap            |
|-------------------------------------|---------------------|
| <i>Nima (ni)</i> ..... <i>-sa</i> , | <i>shuni</i> .... . |
| <i>Kimda</i> ..... <i>-sa</i> ,     | <i>uni</i> ..... .  |
| <i>Nima bilan</i> .... <i>-sa</i> , | <i>o'shani</i> .. . |

**4. Aniqlovchi ergash gap** bosh gapda aniqlovchi bo'lib kelgan olmosh va ayrim sifatni izohlaydi. Aniqlovchi ergash gap bosh gap bilan birgalikda aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap deb yuritiladi. Aniqlovchi ergash gap bosh gapga *-ki* bog'lovchisi bilan (bunda bosh gap tarkibida ko'pincha aniqlovchi bo'lib kelgan *shunday, ayrim, ba'zi* so'zi qatnashadi) yoki *-sa* shart mayli qo'shimchasi bilan (bunda ergash gap tarkibida *qanday, qaysi, kimning* kabi olmosh, bosh gap tarkibida esa *shu, shunday, o'sha, uning, ba'zi, bir xil, ayrim, bir, bir qancha* kabi olmosh bo'ladi) bog'lanadi: 1. *Shunday inson haqida xabar keltirdimki, uning har bir so'zi gavhar.* 2. *Kimning ko'ngli to'g'ri bo'lsa, uning yo'li ham to'g'ri.* Ba'zan bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan aniqlovchi tushirilishi mumkin: (Shunday) *Odam borki, hayvon undan yaxshiroq.*

Sxemasi:

| Bosh gap                                                | Ergash gap         |
|---------------------------------------------------------|--------------------|
| <i>Shunday</i> ..... <i>-ki</i> ,                       | ..... .            |
| ..... <i>shunday</i> ..... <i>-ki</i> ,                 | ..... .            |
| ..... <i>shunday</i> ..... <i>-ni</i> ..., <i>-ki</i> , | <i>unday</i> ..... |

|                                         |       |
|-----------------------------------------|-------|
| .... shunday (aniql.)..... <b>-ki</b> , | ..... |
| .... shunday (hol)..... <b>-ki</b> ,    | ..... |

|                              |                    |
|------------------------------|--------------------|
| Ergash gap                   | Bosh gap           |
| .... qaysi..... <b>-sa</b> , | <i>o`sha</i> ..... |

**5. Payt ergash gap** – bosh gapdagi ish-harakatning paytini bildirgan ergash gap. Payt ergash gap bosh gap bilan payt ergash gapli qo`shma gapni tashkil etadi: *1. Sobirjon priyomnikni endi qo`ygan edi, eshik taqillab qoldi. Qushlar to`p-to`p bo`lib uchsa, havo ochiq bo`ladi.*

Sxemasi:

|                                  |          |
|----------------------------------|----------|
| Ergash gap                       | Bosh gap |
| ..... <b>-gan edi</b> ,          | ..... .  |
| ..... <b>-ganicha yo`q edi</b> , | ..... .  |
| ..... <b>-ar ekan</b> ,          | ..... .  |
| ..... <b>-sa</b> ,               | ..... .  |

**6. O`rin ergash gap** bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning bajarilish o`rnini bildirgan ergash gap. U bosh gap bilan birgalikda o`rin ergash gapli qo`shma gap deyiladi: *Qayerda intizom kuchli bo`lsa, shu yerda tartib bo`ladi. Bog`lovchi vositasi: -sa (qayerdan, qayga, qayerga, qayerda, shu yerda, o`sha yerda, shunda, shu yerga, shu yerdan, u yerda) -mang, -masin, ekan: Qaerda suv bo`lsa, o`sha yerda hayot bo`ladi.*

Sxemasi:

|                               |                             |
|-------------------------------|-----------------------------|
| Ergash gap                    | Bosh gap                    |
| .....qayerga .. <b>-sa</b> ,  | <i>o`sha yerga</i> .....    |
| .....qayerda ... <b>-sa</b> , | <i>o`sha yerda</i> ,.....   |
| .....qayga..... <b>-sa</b> ,  | <i>o`sha yerda</i> , .... . |
| ..... <b>-mang</b> ,          | <i>u yerda</i> .....        |
| ..... <b>-masin</b> ,         | <i>o`sha yerda</i> .....    |
| .....qayerda ...,             | <i>shu yerda</i> .....      |

**7. Sabab ergash gap** bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning sababini bildiradi. U bosh gap bilan birga s a b a b ergash gapli qo`shma gap deb nomlanadi: *Qayrilishlar tobora ko`payib, mashinaning tezligi susaya boshladi. Bu uylar ilgari bedaxona bo`lganidan, darchasi ham yo`q edi.*

Sxemasi:

|                                  |                                   |
|----------------------------------|-----------------------------------|
| Ergash gap                       | Bosh gap                          |
| .....,                           | <b><i>shuning uchun</i></b> ..... |
| ..... <b>shekilli</b> ,          | .....                             |
| ..... <b>-gan bo`lsa kerak</b> , | .....                             |

|           |       |
|-----------|-------|
| .....-mi, | ..... |
|-----------|-------|

| Bosh gap                             | Ergash gap           |
|--------------------------------------|----------------------|
| .....,                               | <b>chunki</b> .....  |
| ..... ,                              | <b>negaki</b> .....  |
| .....,                               | <b>sababki</b> ..... |
| ..... <b>shuning uchun</b> .....-ki, | .....                |
| .....-ki,                            | .....                |

**8. Maqsad ergash gap** bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning nima maqsadda yuzaga kelishini bildiradi. U bosh gap bilan birga maqsad ergash gapli qo'shma gap deb nomlanadi. Bog'lovchi vositasi: *deb, -sin deb, -di deb, -ar deb, -sa deb, -mi ekan (deb, deya, uchun), toki*: 1.Odamlar yaxshi yashasin deb, tinchlikka imzo chekdik. 2.G'o'za miriqib ichsin uchun, suv tekis oqizildi.

Sxemasi:

| Ergash gap                  | Bosh gap |
|-----------------------------|----------|
| ..... <b>deb</b> ,          | .....    |
| .....- <b>sin deb</b> ,     | .....    |
| .....- <b>di deb</b> ,      | .....    |
| .....- <b>ar deb</b> ,      | .....    |
| .....- <b>sa deb</b> ,      | .....    |
| .....- <b>mi ekan deb</b> , | .....    |
| .....- <b>deya</b> ,        | .....    |

| Bosh gap | Ergash gap              |
|----------|-------------------------|
| .....,   | <b>toki</b> .....       |
| .....,   | .....- <b>sin deb</b> . |

*deb* yarim bog'lovchisi buyruq va shart mayli, kelasi zamon fe'lidan keyin kelsa, maqsad ma'nosini, o'tgan zamon fe'llaridan keyin kelsa, sabab ma'nosini bildiradi.

**9. Shart ergash gap** bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning qanday shart bilan bajarilishini bildiradi. U bosh gap bilan birga shart ergash gapli qo'shma gap deyiladi. Bog'lovchi vositalar: *-sa, -sa edi, agar, mabodo, bordi-yu, -ganda(edi), -r(-ar) ekan, -gan ekan, -mi, bo'lmasa, yo'qsa, -may, bo'lay desang, -sinki*. Misol: Agar suv bo'lsa, cho'l-u sahrolar bo'stonga aylanadi.

Sxemasi:

| Ergash gap                            | Bosh gap |
|---------------------------------------|----------|
| (Agar).....- <b>sa</b> ,              | .....    |
| (Agar).....- <b>sa edi</b> ,          | .....    |
| (Agar).....- <b>ganda</b> ,           | .....    |
| (Agar).....- <b>ganda edi</b> ,       | .....    |
| (Bordi-yu).....- <b>r(-ar) ekan</b> , | .....    |

|                                    |                       |
|------------------------------------|-----------------------|
| (Mabodo).....- <b>gan ekan</b> ,   | .....                 |
| (Agar).....- <b>moqchi ekan</b> ,  | .....                 |
| .....- <b>mi</b> ,                 | .....                 |
| .....,                             | <i>bo`lmasa</i> ..... |
| .....,                             | <i>yo`qsa</i> .....   |
| ..... <i>bo`lay desang</i> , ..... | .....                 |

|                             |            |
|-----------------------------|------------|
| Bosh gap                    | Ergash gap |
| .....- <i>sinki</i> , ..... | .....      |

**10. To'siqsiz ergash gap** bosh gapning mazmuniga zid bo'lsa ham, unda ifodalangan voqea-hodisaning yuzaga kelishiga to'siq bo'la olmaydigan fikrni anglatadi. U bosh gap bilan birga to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap deyiladi. Bog'lovchi vositasi: *-sa ham(ki), qancha, qanchalik, naqadar, garchi, garchand, -ganda ham, -sa -da, -ganda -da, -gani bilan, -masin, qaramay, qaramasdan, -i(ib), -gani holda, -di hamki, xoh...xoh (-sa -masa), -sa*. Misol: *Quyosh yashiringan bo'lsa ham, kunduzning yorug'ligi hali so'nmagan edi*. Ba'zan *garchi* so'zi qo'llanishi mumkin.

Sxemasi:

| Ergash gap                            | Bosh gap |
|---------------------------------------|----------|
| <i>Qancha</i> .....- <i>sa ham</i> ,  | .....    |
| <i>Qancha</i> ....- <i>sa hamki</i> , | .....    |
| .....- <i>sa-da</i> ,                 | .....    |
| ..... - <i>gani bilan</i> ,           | .....    |
| ..... - <i>qaramay</i> ,              | .....    |
| ..... - <i>masin</i> ,                | .....    |
| ..... <i>qaramasdan</i> ,             | .....    |
| .....- <i>gani holda</i> ,            | .....    |
| ..... <i>hamki</i> ,                  | .....    |
| ..... - <i>sa...-masa</i> ,           | .....    |
| ..... - <i>sa... -diki</i> ,          | .....    |
| ..... - <i>sa</i> ,                   | .....    |

**11. Miqdor-daraja ergash gap** bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning bajarilish miqdor-darajasini bildiradi. Bu gap bosh gap bilan birga **miqdor-daraja ergash gapli qo'shma gap** deb yuritiladi: *U qancha qizishsa, men shuncha sovuqqon tus olardim*.

Sxemasi:

| Ergash gap                              | Bosh gap                    |
|-----------------------------------------|-----------------------------|
| .... <i>qancha</i> ..... - <i>sa</i> ,  | .... <i>shuncha</i> .....   |
| . ... <i>qanchalik</i> ...- <i>sa</i> , | .. <i>shunchalik</i> .. .   |
| ... <i>qancha</i> ..... - <i>sa</i> ,   | ... <i>shunchalik</i> ..... |

|                            |              |
|----------------------------|--------------|
| ...qanchalik...-gan sayin, | ..shunchalik |
|----------------------------|--------------|

**12. O`xshatish ergash gap** bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning qay tarzda bajarilishini o`xshatish yo`li bilan bildiradi. U bosh gap bilan birga **o`xshatish ergash gapli qo`shma gap** deb nomlanadi: *Chirildoqlarning mayin musiqasi hamma yoqni to`ldirgan, go`yo kechaning o`zi kuylaydi.*

Sxemasi:

|                    |                      |
|--------------------|----------------------|
| Ergash gap         | Bosh gap             |
| ....qanday....-sa, | <i>shunday</i> ..... |

|            |                    |
|------------|--------------------|
| Bosh gap   | Ergash gap         |
| .....-ki,  | <i>go`yo</i> ..... |
| ..... -ki, | <i>xuddi</i> ..... |

**13. Natija ergash gap** bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning natijasini bildiradi. U bosh gap bilan birga **natija ergash gapli qo`shma gap** deyiladi. Natija ergash gap bosh gapga -ki bog`lovchisi yordamida bog`lanadi. Bosh gap tarkibida *shunday, shu qadar, shunchalik, shu darajada, shuncha, chunon* kabi so`z, ergash gap tarkibida esa *natijada, oqibatda, hatto* kabi so`zlar qo`llanishi mumkin: *Do`l bir zumda shunday yog`diki, yer oppoq bo`lib ketdi. Azimboy shunday zulm o`tkazdiki, oqibatda xalqning sabr-kosasi to`ldi.*

Sxemasi:

|                              |                       |
|------------------------------|-----------------------|
| Bosh gap                     | Ergash gap            |
| ....shunday .... -ki,        | <i>natijada</i> ....  |
| ...shu qadar....-ki,         | <i>oqibatda</i> ... . |
| ....shunchalik ..... -ki,    | .....                 |
| . ...shu darajada ..... -ki, | .....                 |
| . ...shuncha ..... -ki,      | .....                 |
| . ...chunon ..... -ki,       | .....                 |

Ergash gapning turini aniqlashga doir. Ergash gapning turini aniqlashda qo`shma gapni sodda gapga aylantirish amaliyoti yaxshi samara beradi. Bu bir necha bosqichdan iborat. Qo`shma gapni sodda gapga aylantirganda, ergash gap bosh gapning tarkibiga kirib, bitta gap bo`lagiga aylanadi. Mas., *Qayerda intizom kuchli bo`lsa, shu yerda tartib bo`ladi* qo`shma gapni sodda gapga aylantirish uchun dastlab undagi bosh va ergash gapni aniqlab olish lozim. Ushbu gapda ikkita gapni -sa shart mayli qo`shimchasi bog`lamoqda. Bog`lovchi vosita turgan *Qayerda intizom kuchli bo`lsa* qismi ergash gap, *shu yerda tartib bo`ladi* qismi esa bosh gap. Ergash gapni bosh gap ichiga kiritamiz: *Intizom bor joyda tartib bo`ladi*. Ko`rinadiki, ergash gap bosh gap tarkibidagi izohlanishni talab qilayotgan *shu yerda* bo`lagi o`rni egalladi. U o`rin holi edi. Demak, ergash gap bosh gap tarkibidagi o`rin holi joyini egallaganligi uchun o`rin ergash gap deyiladi. Misol keltiramiz: *1. Kimki yomonlar suhbatidan qochsa, u*

yaxshilar suhbatiga erishadi – Yomonlar suhbatidan **qochgan** (ega) yaxshilar suhbatiga erishadi. Gap – ega ergash gapli qo'shma gap. 2. Chambil obod bo'ldi deb, kelayotir Avazxonday zo'ravon – Avazxonday zo'ravon Chambil obod bo'ldi deb (ravish holi) kelayotir. Demak, bu qo'shma gap ravish ergash gapli qo'shma gap. 3. Shuni bilingki, har bir yangilik bexosiyat bo'lmaydi – Har bir yangilik bexosiyat bo'lmasligini (to'ldiruvchi) biling. Bu qo'shma gap to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap. Boshqa ergash gap haqida ham shunday deyish mumkin. Faqat shart ergash gapli qo'shma gap sodda gapga aylanmaydi, xolos. Jadvalda ergash gapli qo'shma gapning sodda gapga aylantirilishiga misol beramiz:

| N  | Ergash gapli qo'shma gap                                                                              | Sodda gapga aylangan ko'rinishi                                                                              | Qo'shma gapning turi                               |
|----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------|
| 1  | <i>Kim birovga chuqur qazisa, unga o'zi yiqiladi.</i>                                                 | <i>Birovga chuqur qaziganning o'zi unga yiqiladi.</i>                                                        | Ega ergash gapli qo'shma gap                       |
| 2  | <i>Bizda odat shundayki, uyga kelgan mehmonga ham ko'sak chuvitamiz.</i>                              | <i>Uyga kelgan mehmonga ham ko'sak chuvitamiz.</i>                                                           | Kesim ergash gapli qo'shma gap                     |
| 3  | <i>Men shundan qo'rqamanki, o'ramizda ham ikkilanuvchilar bor.</i>                                    | <i>Men o'ramizda ikkilanuvchilar borligidan qo'rqaman.</i>                                                   | To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap              |
| 4  | <i>Shunday hayot tug'ildiki, u sensiz yashay olmaydi.</i>                                             | <i>Sensiz yashay olmaydigan hayot tug'ildi.</i>                                                              | Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap                |
| 5  | <i>U kuchanib qancha qattiq puflasa, pilik shuncha lovillab yonardi.</i>                              | <i>U kuchanib qattiq puflagan sari qattiq yonardi.</i>                                                       | O'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gap            |
| 6  | <i>Quyosh havoni isitsa, do'stlik qalbni isitadi.</i>                                                 | <i>Do'stlik qalbni, quyosh havoni isitadi.</i>                                                               | Chog'ishtirish-o'xshatish ergash gapli qo'shma gap |
| 7  | <i>Gapni cho'zishning hojati yo'q, sababki odamlar tayyor.</i>                                        | <i>Odamlar tayyor bo'lgani uchun gapni cho'zishning hojati yo'q.</i>                                         | Sabab ergash gapli qo'shma gap                     |
| 8  | <i>O'tni lovullating, toki batamom kuydirsin, kul qilsin dushmanimizni.</i>                           | <i>Dushmanimizni kul qilish, kuydirish maqsadida o'tni lovullating.</i>                                      | Maqsad ergash gapli qo'shma gap                    |
| 9  | <i>Xolmurod ochiq turgan maktab eshigini berkitishga borsa, ichkaridan ovozlar eshitila boshladi.</i> | <i>Xolmurod ochiq turgan maktab eshigini berkitishga borgan paytda ichkaridan ovozlar eshitila boshladi.</i> | Payt ergash gapli qo'shma gap                      |
| 10 | <i>Gulsum qayerda o'ynasa, Xolmurodning ko'zi ham o'sha yerda.</i>                                    | <i>Xolmurodning ko'zi Gulsum o'ynagan yerda.</i>                                                             | O'rin ergash gapli qo'shma gap                     |
| 1  | <i>Ko'zim ilgari ochilgan</i>                                                                         |                                                                                                              | Shart ergash                                       |

|        |                                                                 |                                                                              |                                    |
|--------|-----------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------|
| 1      | <i>bo`lsa edi, men o`z yuragimni bo`rilarga yedirar edimmi?</i> |                                                                              | gapli qo`shma gap                  |
| 1<br>2 | <i>Soqchi haydasa ham, Kurashevich qirg`oqdan nari ketmadi.</i> | <i>Soqchining haydashiga qaramasdan Kurashevich qirg`oqdan nari ketmadi.</i> | To`siqsiz ergash gapli qo`shma gap |
| 1<br>3 | <i>Yaproqlar shunday tovlanadiki, ko`zingiz qamashadi.</i>      | <i>Yaproqlarning tovlanishi oqibatida ko`zingiz qamashadi.</i>               | Natija ergash gapli qo`shma gap    |

## ESKI TURKIY TIL

Eski turkiy til XI–XIV asrlarda amalda bo`lgan. Bu tilda «Qutadg`u bilig», «Hibatul haqoyiq», «Devonu lug`otit-turk», «O`g`uznoma», «Muhabbatnoma», «Qissasi Rabg`uziy» kabi mashhur adabiy asarlar bitilgan.

## ESKI O`ZBEK ADABIY TILI

Eski o`zbek adabiy tili – XIV asrning birinchi yarmidan boshlab XIX asrlargacha amalda bo`lgan adabiy til.

Bu davrga kelib bugungi kunda amal qilayotgan turkiy tillar bir-biridan juda ko`plab belgilari asosida farqlanib, mustaqillik kasb eta bordi. Xususan, eski o`zbek adabiy tili ham vujudga keldi. Shuningdek, yozma adabiyot ommalashmaganligi tufayli adabiy til zaifroq, yozma manbalarda shevaga xos xususiyatlar ko`plab ko`zga tashlanadi. Chunonchi, Farg`ona va Movaraunnahrda yozilgan asarlar tili Xorazm vohasida yaratilgan asarlar tilidan ma`lum dialektik xossalari bilan ajralib turar edi. Shuningdek, o`g`iz lahjasi o`zbek tilini bugungi kunda ham turkiy tillarning o`g`iz guruhi bilan bog`lab turganligi sababli unda har ikki tomon xususiyatlari qaysidir darajada saqlanishi tabiiy hol. O`zbek tilining qipchoq lahjasi va turkiy tillarning qipchoq guruhi haqida ham shunday fikr aytish mumkin.

Shunday bo`lsa-da, bu davrda mavjud shevaviy xususiyatlarni o`zida mujassamlashtirgan umumiy o`zbek adabiy tilini shakllantirishga intilish kuchayadi. Pirovardida eski o`zbek adabiy tili shakllandi. Bu tilda quyidagi asosiy yozma manbalar yaratildi: Xorazmiy «Muhabbatnoma»si, Said Ahmadning «Taashshuqnoma»si, Qutbning «Xisrav va Shirin» asari, Sayfi Saroyining «Guliston»i, Durbekning «Yusuf va Zulayho» dostoni. Shuningdek, Lutfiy, Atoyi, Sakkokiy, Yaqiniy, Ahmadiy, Yusuf Amiriy, Mirhaydar, Alisher Navoiy, Bobur, Muhammad Solih asarlari shu davr tilida. Bu davr tili o`zbek tiliga birmuncha yaqin. Mas., oldingi bosqichlardagi *d* tovushi to`la y tovushiga aylandi. Shart mayli qo`shimchasi *-sa* ga aylanib bo`ldi. Kelishiklar bugungi qiyofasini topdi. Ravishdosh va sifatdosh shakllari kengaydi. Harakat nomining *-moq* shakli iste`moli kengayib, *-ish* shakli faollashdi va boshqalar.

## ETIMOLOGIK LUG`AT

Etimologik lugʻat –lugʻatning alohida koʻrinishi. Bunday lugʻatda soʻzning kelib chiqishi izohlanadi. Bunga Sh.Rahmatullayevning 2 tomli “Oʻzbek tilining etimologik lugʻati” (Toshkent, “Universitet”, 2000, 2003,) T.Nafasov tomonidan tuzilgan «Janubiy Oʻzbekiston toponimlarining izohli lugʻati» (Toshkent, “Oʻqituvchi”, 1988) ni misol qilish mumkin. «Yangi asr avlodi» nashriyotida T.Jumayevning maktab oʻquvchisi uchun moʻljallangan «Oʻzbek tilining oʻquv etimologik lugʻati»ni chop etish rejalashtirilgan.

## ETIMOLOGIYA

Etimologiya tilshunoslik sohasi, unda soʻz va qoʻshimchaning kelib chiqishi oʻrganiladi. U yunoncha *ετυμολογία* «harakat» va *λογος* «taʼlimot» soʻzidan olingan. Mas., *axborot* soʻzining lugʻaviy mohiyatini anglash uchun *xabar* va *axbor* soʻzni qiyoslash lozim. Bu soʻzning har ikkisi ham arabcha, *xabar* bu – «*maʼlumot yetkazish*», «*maʼlumot berish*»; *axbor* esa *xabar* soʻzining koʻpligi; *-ot* – arab tilida ismga qoʻshilib koʻplik hosil qiluvchi qoʻshimcha. Oʻzbek tilida *xabar* ham *axborot* ham birlikda, «*xabar*» maʼnosini anglatish uchun qoʻllanadi. Yoki *bilak* soʻzini olaylik. Oʻzbek tilining eng qadimgi davrida, bundan oʻttiz-oʻttiz besh asr burun, oltoy tillari *l* belgili til hisoblanar edi. Shuning uchun hozirgi tilimizda isteʼmolda boʻlgan ayrim oʻzak tarkibidagi *r/z/d/t/sh/s* undoshi oʻrnida *l* qoʻllangan. *Bilak* soʻzida esa bunday fonetik oʻzgarish sodir boʻlmagan, unda eng qadimgi holat saqlanib qolgan. Hozirgi oʻzbek tilida bu soʻz *bashlik* soʻzining oʻzgargan koʻrinishi sifatida qoʻllanadi. Koʻrinadiki, hozirgi tilimizda faol qoʻllanadigan soʻzning tarixi juda qadimgi zamonga borib taqaladi.

Maktab darsligiga etimologiyaga oid maxsus boʻlim yoki mavzu kiritilmagan, lekin soʻzning etimologik xususiyati ustida bosh qotirish, soʻzning lisoniy-tarixiy qiyosi bilan shugʻullanish qiziqarli.

Soʻz va iboraning etimologik tavsifini oʻzlashtirish juda murakkab. Chunki buning uchun tilimizning nafaqat hozirgi belgisini, balki uning tarixini, tarixiy fonetik va grammatik qonuniyatini, shuningdek, qardosh til bilan umumiy xususiyatini, va hatto, tilni tarixiy-qiyosiy oʻrganish usulidan xabardor boʻlishni talab etadi. Bundan tashqari, mazkur tilda soʻzlovchi xalq tarixini ham bilish zarur, chunki xalq tarixi bilan til tarixi chambarchas aloqadorlikda rivoj topadi.

Soʻz, qoʻshimcha yoki ibora etimologiyasini taxminiy hamda noilmiy dalil asosida keltirib chiqarishga yoʻl qoʻymaslik kerak. Chunki taxminiy etimologiya koʻp holda notoʻgʻri yoki yolgʻon boʻlib chiqadi. Mas., *qaychi* soʻzini soʻz tarkibi jihatidan tahlil etganda, shakl va maʼno nomutanosibligini sezish qiyin emas. Bu soʻzni zohiran *qay-* oʻzagi hamda *-chi* yasovchi qoʻshimchasiga ajratish mumkin. Biroq har ikki maʼnoli qism ham shakl va maʼno jihatdan nomutanosib: *qay-* tarixan *qiy-* feʼlining fonetik oʻzgargan shakli (bu yerda *y* tovushining *r* tovushiga almashishi natijasida *qirq* soʻzi yuzaga kelganligini ham aytib oʻtish lozim). *-chi* esa *-gʻich* yasovchi qoʻshimchasining fonetik jihatdan ham oʻzgargan, ham qisqargan shakli.

Demak, har bir soʻzning etimologiyasini ongli ravishda idrok etish zarur, aks holda mohiyat notoʻgʻri anglashilishi mumkin. Oʻquvchi bilishi lozimki, etimologik talqin barcha soʻzga ham toʻgʻri kelavermaydi. Unumli soʻz yasovchi orqali hosil boʻlgan

soʻzga bu tahlil mos tushmaydi, chunki bu yerda mohiyat soʻzning morfemik tuzilishida namoyon boʻladi. Shuning uchun ham *ishchi*, *ochqich*, *toʻplam*, *oʻrin*, *oʻsma*, *suvoq*, *qatlama* singari soʻzning hosil boʻlish imkoniyati aniq. Bu tizimdagi soʻzni oʻquvchi oʻz idroki bilan talqin qila oladi va talqin qilishi kerak. Boshqa soʻzda esa etimologik talqin umuman boshqacha. Bunday soʻzda uning tarixiy taraqqiyoti leksik maʼnosining, grammatik yoki fonetik xususiyatining oʻzgarganligida aks etgan boʻladi. Bu uning kelib chiqishini tahlil qilish, tarixi va etimologik talqini bilan bogʻliq. Soʻzning ichki shakli etimologik jihatdan bir qadar sodda. Masalan: *kiyim* – kiy soʻzidan; bu soʻzning dastabki koʻrinishi *kir*- oʻzagi bilan bogʻliq, soʻzning keyingi tarixida *r* tovushi y ga aylangan; *quduq quyi* soʻzidan oʻsgan; *oʻra oʻy* soʻzidan kelib chiqqan, *oʻyiq*, *oʻymoq* (angishvona) soʻzi bir oʻzakdan yasalgan. *toʻgʻri tuz* soʻzidan oʻsgan, *tuzuk* ham shu soʻzga oʻzakdosh.



## FAOL SOʻZ

Oʻzbek tili lugʻat tarkibining asosini faol soʻz tashkil etadi. Bunday soʻzni shu tilda soʻzlashuvchi kishilar qanday shevaga, qaysi hududga, qaysi kasb yoki sohaga mansub boʻlishidan qatʼi nazar, cheklanmagan darajada ishlatadi. Faol soʻz barcha soʻz turkumida mavjud. Masalan: 1) feʼl: *ishlamoq*, *kelmoq*, *olmoq*, *koʻrsatmoq*, *buyurmoq*, *saylamoq* va *hokazo*; 2) ot: *ota*, *ona*, *non*, *suv*, *stol*, *eshik*, *togʻ*, *yer*, *shamol*, *radio*; 3) sifat: *shirin*, *achchiq*, *qizil*, *koʻk*, *katta-kichik*, *xunuk*, *goʻzal*; 4) son: *bir*, *oʻn*, *yuz*, *ming*; 5) ravish: *hamisha*, *baʼzan*, *ataylab*, *hozir*, *ilgari*; 6) olmosh: *kim*, *nima*, *qanday*, *nima qilib*, *qancha*, *shu*, *biz*, *hamma*; 7) soʻz-gap: *xoʻp*, *mayli*, *rahmat*; 8) koʻmakchi: *uchun*, *bilan*, *singari*; 9) bogʻlovchi: *ham*, *va*, *bilan*, *ammo*; 10) yuklama: *faqat*, *xuddi*, *hatto*. Faol soʻzning aksariyati umumturkiy va oʻzbekcha. Shu bilan birgalikda, ular orasida oʻzlashmalari ham koʻp.

## FARQLASH (DIFFERENSIYALASH) YOZUVI

Farqlash (differensiyalash) yozuvi talaffuzda bir-biridan aniq farqlanmaydigan yoki oʻzaro farqi deyarli sezilmaydigan darajaga kelib qolgan soʻz yoki qoʻshimcha yozuvda maxsus qoida bilan ajratilib yozilishi *farqlash yozuvi* deyiladi. Bu yozuv kam qoʻllanadi. Ayrim misol: 1) oʻzaro yaqin, shakldosh soʻzlar yozuvda ‘ (tutuq) belgisi yordamida farqlab qoʻllanadi: *daʼvo* – *davo*, *nashʼa* – *nasha*, *sheʼr* – *sher*, *surʼat* – *surat*, *taʼqib* – *taqib*; 2) baʼzi shakldosh soʻzlar talaffuzda urgʻu yordamida farqlanadi. Imloda bunday soʻzlarga urgʻu belgisi qoʻyiladi: *aʼtlas* (*karta*) – *atlaʼs* (*mato*), *banda* (*shayka*) – *banda* (*qul*); 3) -liq/-lik qoʻshimchasi: *boʻshlik* – *yuvosh*, (*ot*) *boʻshliq* – *fazo* (*ot*), *otalik* – *otaliq*; 4) -lik/-li qoʻshimchasi: *paltoli* – *paltolik*; 5) -chang/chan qoʻshimchasi: *mahsichang* – *ishchan*.

## FAXRI KAMOLOV

Faxri Kamolov – oʻzbek tilshunosligining fan sifatida, zamonaviy lingvistik soha boʻlib shakllanishida munosib hissa qoʻshgan olim. U 1907 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan. Oʻz tadqiqotlari bilan oʻzbek adabiy tilining leksik, fonetik, orfoepik meʼyorlarini belgilash, oʻzbek alfaviti va imlosining, oʻzbek nutqi madaniyatining shakllanishi va takomillashuvida bebaho hissa qoʻshgan. Uning «Latinlashgan yangi oʻzbek alfaviti» (1929), «Maktablarda imlo oʻqitish metodikasidan qoʻllanma» (1929), «Orfografik mashqlar toʻplami» (1934), «Grammatika va orfografiya» (1934), «Sistemali diktantlar toʻplami» (1935), «Hozirgi zamon oʻzbek tili» (1953), «Oʻzbek tili leksikasi» (1953), «Qoʻshma gaplarga doir masalalar» (1955), «Hozirgi zamon oʻzbek tili» (1957), «Oʻzbek tilini oʻqitish metodikasi» (1958) kabi oʻrta va oliy taʼlim uchun yaratilgan darslik va qoʻllanmalari, ilmiy maqolalari 30-50-yillar oʻzbek tilshunosligining muhim yutugʻi boʻlib qoldi.

Faxri Kamolov oʻz hayoti davomida oʻzbek tilshunosligining dolzarb muammolariga bagʻishlab 150 dan ortiq darslik, qoʻllanma, dastur, risola va maqolalar yaratgan zabardast olim edi. U malakali ilmiy kadrlar tayyorlashda ham katta hissa qoʻshgan.

Olim 1966 yilda vafot etgan.

## FE'L

Fe'l – harakat va holat maʼnosini bildiruvchi turkum.

Maʼnoviy xususiyati. Nutqimizda harakat va holat bildiruvchi soʻzlarning katta guruhi ishlatilib, ular gapda, odatda, kesim vazifasiga kelishga xoslangan. Bunday soʻz – fe'l: *Bola yugurdi* (harakat). *It hurdi* (harakat). *Qarshi shahri viloyat markazida joylashgan* (holat). *Sitora uxladi* (holat).

Fe'l nima qilmoq?, nima boʻlmoq? soʻrogʻiga javob boʻladi. Leksik, morfologik, sintaktik jihatdan nihoyatda serqirra soʻz turkumi, u har bir jihatiga koʻra alohida tasnif qilinadi.

Fe'l grammatik jihatdan oʻtimli va oʻtimsiz boʻlishi mumkin.

**Oʻtimli fe'l** tushum kelishigidagi (*kimni, nimani* soʻrogʻiga javob boʻladigan) soʻzga bogʻlanadi: *oʻqidi, koʻrdi, yod oldi* kabi. Bu fe'l *kimni, nimani* soʻrogʻiga javob boʻladigan soʻzga bogʻlanadi: *nimani oʻqidi, kimni koʻrdi, nimani yod oldi* kabi.

**Oʻtimsiz fe'l** tushum kelishigidagi soʻzga bogʻlanmaydi: *bordi, uxladi, ranjidi, xandon urdi* kabi.

Oʻtimli fe'l oʻtimsizga, oʻtimsiz fe'l oʻtimliga aylanib turadi: *oʻqidi* (oʻtimli) – *oʻqildi* (oʻtimsiz), *yigʻladi* (oʻtimsiz) – *yigʻlatdi* (oʻtimli), *yuvdi* (oʻtimli) – *yuvindi* (oʻtimsiz) kabi.

**Morfologik belgisi.** Fe'l yasaladi, nisbat, boʻlishli-boʻlishsizlik, harakat tarzi (*-la, -kila/qila/gʻila, -i, -imsira, -inqira*) kabi lugʻaviy shakllarga, zamon, mayl, shaxs-son kabi munosat shakllariga ega. Eng muhim morfologik belgisi – *nisbatlanishi*. Fe'l nisbat paradigmasidan chiqsa, fe'lligini yoʻqotib koʻmakchi (*koʻra, qaraganda, qaramay*), bogʻlovchi (*deb*) yoki modal (*aytishicha, eshitishimcha*) soʻzga oʻtib ketadi. Fe'l, odatda tuslanadi. Fe'lning harakat nomi, sifat-dosh shakllari turlanadi. Harakat

nomi egalik, kelishik shakllari bilan erkin birikadi, sifatdosh otlashadi. Ravishdoshning ayrim shakllari turlanmaydi ham, tuslanmaydi ham: *o`qigach, o`qiguncha, o`qigani* va hokazo.

**Sintaktik belgisi.** Fe'l, odatda, gapda hokim mavqeda, o`zidan oldingi so`zni boshqarib fe'l kesim vazifasida keladi. Fe'lning sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakllari ikkiyoqlama aloqaga ega, o`zidan oldingi so`zga nisbatan hokim, keyingi so`zga nisbatan tobe bo`ladi va gapda fe'l kesimdan boshqa barcha vazifalarda keladi: *kitobni shoshilib o`qimoq, kitobni o`qigan bola.*

Fe'llarning lug`aviy ma`noga ega yoki ega emasligiga ko`ra turlari. Bu jihatdan fe'llar ikkiga bo`linadi:

Yakka holda harakat-holat bildiradigan, mustaqil so`roq qabul qilib biror gap bo`lagi vazifasida kela oladigan, fe'lga xos barcha lug`aviy va sintaktik shakllar bilan birika oladigan fe'llar **mustaqil fe'llardir**: *gapirmoq, pichirlamoq, semirmoq, shishmoq, ranjimoq*;

Mustaqil fe'lga xos belgilarga ega bo`lmay, turli grammatik ma`nolarni ifodalash uchun xizmat qiladigan fe'llar **nomustaqil fe'llardir**: *o`qib bo`lmoq, yozib tashlamoq, asos solmoq, qaror bo`lmoq.*

Nomustaqil fe'l lug`aviy ma`no ifodalamaydi va fe'l yoki boshqa so`zning ma`nosini yangilaydi, ya`ni yangi so`z yasaydi (**yordamchi fe'l**), biroz o`zgartiradi (**ko`makchi fe'l**) yoki so`zni kesim vazifasiga xoslaydi (**to`liqsiz fe'l, bog`lama vazifasidagi fe'l**):

1) yordamchi fe'l so`z yasovchi qo`shimcha xususiyatiga ega: *sotib oldi, qaror qildi, abgor etdi*;

2) ko`makchi fe'l lug`aviy shakl yasovchi qo`shimcha xususiyatiga ega: *o`qib chiqdi, aytib qo`ydi, qarab qoldi*;

3) to`liqsiz fe'l munosabat shakli yasovchi qo`shimcha xususiyatiga ega: *o`qigan ekan, qiziq emish, o`nta edi, akam bo`ladi, do`stim hisoblanadi, nodir metallardan sanaladi* va hokazo.

**Fe'l turkumi tahlili** – fe'lning har xil xususiyatini, turini, shakllini aniqlashga qaratilgan morfologik tahlil. Unda quyidagilarga e`tibor qaratiladi: 1. Mustaqil yoki yordamchi fe'lli ekanligi. 2. Qaysi lug`aviy mazmuniy guruhga mansubligi. 3. Morfologik tarkibi. 4. O`timli-o`timsizligi. 5. Lug`aviy shakli. 6. Sintaktik shakli. 7. Tuzilishiga ko`ra turi. 8. Gapdagi vazifasi.

Namuna: *Keyingi yillarda rivojlangan zamonaviy meditsina ko`pgina yurak-qon tomir kasalliklarining kelib chiqishida ovqatlanish ratsionining buzilishini sabab qilib ko`rsatmoqda.*

*rivojlangan* – mustaqil fe'l; harakat fe'li; *rivoj-lan-gan*; o`timsiz; aniq nisbat, -*gan* sifatdosh shakli; sodda; sifatlovchi aniqlovchi.

*buzilishini* - mustaqil fe'l; harakat fe'li; *buz-il-ish-i-ni*; o`timsiz; -*il* majhul nisbat, -*ish* harakat nomi; -*i* egalik shakli, -*ni* tushum kelishigi; sodda; vositasiz to`ldiruvchi.

**Fe'l yasalishi.** Fe'l tub yoki yasama bo`lishi mumkin. Yasama fe'l – yasovchi qo`shimcha qo`shib yasalgan (*ishla, afsuslan, tinchi*) va so`zga so`z qo`shib yasalgan (*olib bermoq, javob bermoq, himoya qilmoq*) fe'l. Shunga ko`ra fe'l yasashning ikki yo`li ajratiladi: *qo`shimcha qo`shish* va *so`z qo`shish usuli*.

Qo`shimcha qo`shish fe'l yasalishining keng tarqalgan usuli, bu yo`l bilan quyidagi turkumdan fe'l yasaladi:

1. Ot: *ishlamoq, ko`zikmoq, qonamoq, suvsamoq.*
2. Sifat: *pasaymoq, qisqarmoq, oqarmoq, garangsimoq.*
3. Son: *ikkilanmoq, birikmoq,.*
4. Olmosh: *sizlamoq, mensimoq, sensiramoq.*
5. Ravish: *ko`paymoq, kechikmoq, tezlashmoq.*
6. Modal: *yo`qotmoq, yo`qlamoq, yo`qolmoq.*
7. Undov: *voyvoylamoq, dodlamoq.*
8. Taqlid: *gumburlamoq, shildiramoq, yaltiramoq, miltillamoq.*

Qo`shimcha qo`shish orqali fe'l yasalishi:

| Qo`shimcha | Xususiyati           | Yasalma                                                                                                                                                                                                                                            | Asos                                            |
|------------|----------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------|
| -a:        | omonim               | <i>sana, tuna, yo`la, yasha, osha, qona, o`yna, bo`sha, qiyna, shildira, hilpira, g`ildira, guldura</i>                                                                                                                                            | ot, sifat, taqlid so`z                          |
| -an:       | unumsiz              | <i>Kuchan</i>                                                                                                                                                                                                                                      | Ot                                              |
| -i:        | omonim               | <i>ranji, changi, avji, tinchi, boyi</i>                                                                                                                                                                                                           | ot, sifat                                       |
| -illa:     |                      | <i>chirqilla, guvilla, zirilla, lovilla</i>                                                                                                                                                                                                        | Taqlid                                          |
| -ik:       | omonim               | <i>ko`zik, birik, kechik</i>                                                                                                                                                                                                                       | ot, son, ravish                                 |
| -ir//-ur:  | omonim               | <i>gapir, ko`pir, tupur (tuf+ur)</i>                                                                                                                                                                                                               | ot, ravish, taqlid                              |
| -ira:      |                      | <i>sharqira, yaltira, zirqira, yarqira, mo`ltira</i>                                                                                                                                                                                               | Taqlid                                          |
| -y//-ay:   | omonim               | <i>kuchay, toray, kengay, keksay, qoray, ulg`ay (ulug`+ay), pasay (past+ay), susay (sust+ay), kamay, ozay, ko`pay</i>                                                                                                                              | ot, sifat, ravish                               |
| -ka:       | unumsiz              | <i>Iska</i>                                                                                                                                                                                                                                        | Ot                                              |
| -la:       | ko`p ma`noli, omonim | <i>egovla, mog`orla, bolala, gulla, yog`la, ishla, arrala zangla, egalla (ega+la), ko`zla, bog`la, boshla, yo`lla, maydala, tozala, yaxshila, tikla, tekisla, yomonla, sizla, senla, tezla, sekinla, dodla, chuhla, gumburla, shivirla, yo`qla</i> | ot, sifat, olmosh, ravish, undov, taqlid, modal |
| -lan:      | murakkab             | <i>faxrlan, gavdalan, lazzatlan, zavqlan, jonlan, xavotirlan, ovqatlan, foydalan, shodlan, achchiqlan, sergaklan, ikkilan</i>                                                                                                                      | ot, sifat, son                                  |
| -lash:     | murakkab             | <i>do`stlash, suhbatlash, ahdlash, bahslash, maslahatlash, yiriklash, osonlash, asabiylash, qiyinlash, yaqinlash, og`irlash, oydinlash, uzoqlash, qo`pollash, go`zallash,</i>                                                                      | ot, sifat, son, ravish                          |

|                                |         |                                                                                                                                      |                   |
|--------------------------------|---------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------|
|                                |         | <i>birlash, birgalash, tezlash</i>                                                                                                   |                   |
| <i>-lat:</i>                   |         | <i>Qoyillat</i>                                                                                                                      | Sifat             |
| <i>-lashtir:</i>               |         | <i>sahnalashtir, kinolashtir, soxtalashtir</i>                                                                                       | ot, sifat         |
| <i>-ol:</i>                    | unumsiz | <i>yo`qol</i>                                                                                                                        | Modal             |
| <i>-r//-ar:</i>                | omonim  | <i>o`zgar, oqar, ko`kar, qisqar, eskir</i>                                                                                           | Sifat             |
| <i>-ra:</i>                    | unumsiz | <i>ho`ngra, ma`ra</i>                                                                                                                | Taqlid            |
| <i>-si:</i>                    | unumsiz | <i>mensi, garangsi</i>                                                                                                               | olmosh, sifat     |
| <i>-sin:</i>                   |         | <i>qiziqsin, yotsin</i>                                                                                                              | Sifat             |
| <i>-sit:</i>                   | unumsiz | <i>aybsit, kamsit</i>                                                                                                                | ot, ravish        |
| <i>-sira:</i>                  |         | <i>suvsira, tuzsira, xayolsira, qonsira, ersira, yog`sira, xavfsira, gumonsira, hadiksira, yotsira, begonasira, sensira, sizsira</i> | ot, sifat, olmosh |
| <i>-t//-it//-ot:</i>           | omonim  | <i>to`lat, berkit, yo`qot</i>                                                                                                        | sifat, modal      |
| <i>-chi//-shi:</i>             | unumsiz | <i>ko`pchi, g`ingshi</i>                                                                                                             | ravish, taqlid    |
| <i>-q//-iq:</i>                | omonim  | <i>orziq, yo`liq, dimiq, zoriq, namiq, zo`riq</i>                                                                                    | ot, sifat         |
| <i>-qar//-g`ar//<br/>-qir:</i> | unumsiz | <i>jamg`ar, boshqar, hayqir</i>                                                                                                      | ot, taqlid        |

Fe'l hech qachon o`zidan qo`shimcha qo`shish usuli bilan yasalmaydi.

So`z qo`shish yo`li bilan **qo`shma fe'l** yasaladi.

Qo`shma fe'l qismining qaysi so`z turkumiga mansubligiga ko`ra 2 ga bo`linadi:

1. Fe'l+fe'l qisimli qo`shma fe'l: *sotib olmoq, olib bormoq, olib kelmoq, olib chiqmoq, olib qochmoq, ishlab chiqarmoq, chiqarib olmoq*. Bunday fe'l kam uchraydi.

2. Fe'l bo`lmagan so`z+fe'l qisimli qo`shma fe'l. Buni hosil qilishda *qilmoq, etmoq, aylamoq, topmoq, yemoq, urmoq, ko`rmoq, kelmoq, keltirmoq, bo`lmoq, bermoq, olmoq* kabi yordamchi fe'l qatnashadi: *bezor bo`l/qil, bid-bid qil, bino bo`l/qil/qo`y, bong ur, bunyod qil//et, vasf et, vafot et//qil, voz kech, voyaga yet, voqe bo`l, garov bog`la/o`yna, girgitton bo`l, giriftor bo`l//qil, gum bo`l//qil, gumdon bo`l//qil, da`vat et//qil, yod et/ol, jabr ko`r/qil, javob ber/ol/qaytar, jazm et/qil, jalb et/qil, jiz et, jilva qil, jilo ber, judo bo`l/qil, zabt et/qil, zada bo`l/qil, zikr et/qil, soz bo`l/et, zomin bo`l, zor bo`l/qil, izza bo`l/qil, izn ber/so`ra, izhor et/qil, imo et/qil, inkor et/qil, intizor bo`l/et/qil, in`om et/qil, isyon ko`tar/qil, isloh et/qil, isnod keltir, iste`fo ber, abgor bo`l/et, ado bo`l/et/qil, aziyat chek/tort, azm et/qil, azob ber/tort/chek, ayb et/qil, ayyuhannos sol/tort, iqrar bo`l/qil, yo`l bos/ko`rsat/ol/qo`y, kalla ur/tashla, karomat qil/ko`rsat, kasal bo`l, kashf et/qil, ko`ngil ber/qo`y, lat ye, madh et/qil, mazax qil, mayl qil/ko`rgiz, mashq qil, mag`lub bo`l/qil/et, mahv et/qil, mahliyo bo`l/qil/et, muolaja qil, musodara qil/et, muhayyo qil, nazar sol/et, nazorat qil/et, namoyon bo`l/et/qil, namoyish qil/et, nasib bo`l/et/qil, nashr et/qil, na`ra tort/ur, nido qil*.

**Fe'ning lug'aviy shakllari.** Fe'ning lug'aviy shakllari faqat fe'lgagina xos va uning tasnifiy belgisi hisoblanadi. Lug'aviy shakllar fe'l asosga qo'shilib, uning ma'nosiga biroz ta'sir etadi, qo'shimcha ma'no yuklaydi. Fe'l lug'aviy shakliga **nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakli, harakatning kuchsiz darajasi va davomiyligini bildiruvchi shakl** kiritiladi.

**Fe'ning ma'noviy guruhlari.** Fe'llar nimani atab kelishiga ko'ra to'rt guruhga ajratiladi:

1) nutqiy faoliyat: *gapirmoq, pichirlamoq, demoq, so'zlammoq, so'rammoq, yalinmoq, o'tinmoq, yolvormoq, vaysamoq, surishtirmoq, baqirmoq, o'shqirmoq, ming'irlamoq, to'ng'illamoq, aytmoq* kabi;

2) aqliy faoliyat: *o'ylamoq, fikrlamoq, xayol qilmoq, tasavvur qilmoq, hukm chiqarmoq, o'yg'a botmoq, ko'z oldiga keltirmoq, gavdalanitirmoq, fikr qilmoq* kabi;

3) jismoniy faoliyat: *chizmoq, yozmoq, yasamoq, qurmoq, yaratmoq, bino qilmoq, asos solmoq, bo'yamoq, tozalamoq, yiqmoq, yemoq, artmoq, sayqal bermmoq, o'chirmoq, nobud qilmoq, yurmoq, yugurmoq, chiqmoq, bormoq, qimirlamoq, yelmoq, sudralmoq, sakrammoq, uchmoq, o'tmoq* kabi;

4) holat: *kulmoq, uxlamoq, yig'lamoq, tirjaymoq, dam olmoq, shoshmoq, isimoq, qizarmoq, semirmoq, shishmoq, ranjimoq, xursand bo'lmoq, xandon urmoq, dahshatlanmoq, shod bo'lmoq, og'rinmoq* kabi.

**Fe'ning munosabat shakllari.** Fe'l gapda, odatda kesim vazifasida keladi. Fe'lni kesim vazifasiga xoslovchi maxsus shakllar, ularga **tasdiq-inkor, zamon, mayl, shaxs-son shakllari** kiritiladi va ular fe'ning munosabat shakllari deb yuritiladi. Munosabat shakllarini qabul qilgan fe'l so'f fe'l, ya'ni tuslangan fe'l deb yuritiladi. Fe'l kesim bo'lib kelishga ko'proq xoslangan turkum bo'lganligi uchun bu shakllar unga erkin va cheklanmagan darajada birikadi. Barcha munosabat shakllari kabi mazkur shakllarning ham qo'llanilishi bir turkum bilan chegaralanmaydi. Har qanday kesim vazifasida kelgan so'zda zamon, shaxs-son, mayl, tasdiq-inkor ma'nosi bo'ladi:

Ot: *Men – o'qituvchiman* (hozirgi zamon, xabar mayli, tasdiq, birinchi shaxs).

Sifat: *Gul qizil* (hozirgi zamon, xabar mayli, tasdiq, uchinchi shaxs).

Son: *Kitoblar o'nta edi* (o'tgan zamon, xabar mayli, tasdiq, uchinchi shaxs).

Olmosh: *Yig'lagan menman* (hozirgi zamon, xabar mayli, tasdiq, birinchi shaxs).

Taqlid: *Atrof g'ovur-g'uvur* (hozirgi zamon, xabar mayli, tasdiq, uchinchi shaxs).

**Fe'ning nokesimlik shakllari.** Fe'l gapda ko'proq kesim bo'lib kelishga xoslangan. Biroq fe'ning shunday shakllari borki, ular gapda fe'l-kesimdan boshqa vazifadagina kela oladi. Kesim vazifasida ham ot-kesim bo'lib keladi. Bunday fe'l shakllariga **sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi** kiritiladi. Fe'ning nokesimlik shakli bo'lgan ravishdosh ravish, sifatdosh sifat, harakat nomi ot vazifasini bajaradi (q. **Fe'ning vazifa shakllari**).

**Fe'ning tuzilishiga ko'ra turlari.** Fe'llar tuzilishiga ko'ra sodd, qo'shma, juft, takroriy bo'ladi.

**Sodda fe'l** bir asosdan tashkil topadi, yasama yoki tubligiga ko'ra sodda tub fe'l (*bormoq, kelmoq, o'qimoq, yozmoq, o'tirmoq, turmoq, to'xtamoq*) va sodda yasama fe'lga (*kechikmoq, birlashmoq, ranjimoq, oqarmoq, garangsimoq*) bo'linadi.

**Qo'shma fe'l** yangi atash ma'nosiga ega bo'lgan birdan ortiq asosdan tashkil topadi. Uning tarkibi fe'l + fe'l (*sotib olmoq, olib bormoq, olib kelmoq, olib chiqmoq,*

*olib qochmoq, ishlab chiqarmoq, chiqarib olmoq, sotib yubormoq, qarab qolmoq*) yoki fe'l bo'lmagan so'z+fe'l (*vafot et/qil, voz kech, voyaga yet, voqe bo'l, garov bog'la/o'yna, girgitton bo'l, giriftor bo'l/qil, gum bo'l/qil, gumdon bo'l/qil, da'vat et/qil, yod et/ol, jabr ko'r/qil, javob ber/ol/qaytar, jazm et/qil, jalb et/qil, jiz et, jilva qil, jilo ber, judo bo'l/qil, zabt et/qil, zada bo'l/qil, zikr et/qil, soz bo'l/ket, zomin bo'l, zor bo'l/qil, izza bo'l/qil, izn ber/so'ra, izhor et/qil, imo et/qil, inkor et/qil, intizor bo'l/et/qil, in'om et/qil, isyon ko'tar/qil, isloh et/qil, isnod keltir*) bo'lishi mumkin. (q. **Fe'l yasalishi**). Qo'shma fe'llar yasama so'z bo'lib, qismlari doimo ajratib yoziladi.

**Juft fe'l** birdan ortiq fe'lning juftlashib birikuvidan tashkil topadi. Tarkibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1) biri ravishdosh, ikkinchisi boshqa shaklda: *aylanib-o'rgilmoq, yeb-ichmoq, yelib-yugurmoq, yayrab-yashnamoq, o'ynab-kulmoq, qo'llab-quvvatlamoq, gapirib yurmoq*;

2) ikkisi ham bir xil shaklda (ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasining juftlashgan shakli ham shunga kiradi): *o'tgan-ketgan, o'tgan-qaytgan, o'lib-tirilib, o'lib-qutulib, qolgan-qutgan, qizarib-bo'zarib, qisinib-qimtinib, qo'llab-quvvatlab, qo'shilib-qorilib, hormay-tolmay; aytdim-qo'ydim, yozding-olding, chiqdi-qoldi, o'qidik-tashladik* va hokazo.

**Takroriy fe'l**: *yurib-yurib, kula-kula, yig'lay-yig'lay, turib-turib, pishgan-pishgan, chiniqqan-chiniqqan*.

Ko'pgina fe'l takror yo juft qo'llanganda boshqa turkumga ko'chishi mumkin: *ur-yiqit, yurish-turish, yemoq-ichmoq, yugur-yugur, chop-chop, oldi-berdi, bordi-keldi, oldi-sotdi, dedi-dedi* (ot); *kuydi-pishdi* (sifat).

**Fe'lning vazifa shakllari**. Fe'l gapda to'rt xil shaklda qatnashadi. Shunga ko'ra, to'rt vazifa shakli ajratiladi: *sof fe'l, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi*.

**Sof fe'l**. Tuslangan, ya'ni shaxs-son, zamon, mayl, tasdiq-inkor shakliga ega fe'l – sof fe'l. Sof fe'l gapda fe'l kesim vazifasida keladi: *Men ishlayapman*.

**Ravishdosh**. Ravishdosh shakli fe'lni fe'l bilan bog'lovchi vosita, fe'lni gapda hol vazifasiga xoslaydi: *Bola pichirlab gapirdi. Kelguncha kutdim*.

Ravishdosh – fe'lning ravishga yaqinlashgan lug'aviy shakli. Ravish kabi ish-harakat va holatning belgisini bildiradi, uning so'rog'iga javob bo'lib, fe'lga bog'lanib hol vazifasida keladi, shu bilan birga, harakat-holat ma'nosini saqlaydi. Demak, unda ravishlik va fe'llik xususiyati mujassam: *U ikkilanib javob berdi. Ishning boshi boshlanguncha*. Quyidagi shakllar bilan yasaladi:

-(i)b, -a/y; -gancha/kancha/qancha; -gudek/kudek/qudek shakli bilan yasalgan ravishdosh holat ravishdoshi deb yuritiladi: *o'qib, yozib, sevinib, yura-yura, yig'lay-yig'lay, yeb qo'ygudek, bitirib yuborgudek, shoshgancha*;

-a/y ko'rsatkichli ravishdosh takror holda qo'llanadi: *bora-bora, chopa-chopa*.

Ravishdoshning bu shakli holni kesimga bog'lasa, ma'no va shakl jihatdan ravishdosh bo'ladi: *sevinib gapirdi*. U, shuningdek, boshqa vazifani ham bajaradi:

– yetakchi fe'lni ko'makchi fe'lga bog'laydi: *o'qib chiqdi, yoza boshladi*;

– fe'lga shaxs-son qo'shimchasini biriktiradi: *boribman, boraman*.

Bunda ravishdosh shakli bo'lsa-da, ravishdosh ma'nosi yo'q. Demak, bunday holda u fe'lning ravishdosh vazifa shakli bo'lmaydi.

-*gach/kach, guncha/kuncha: ko`rgach, tikkach, kelguncha* shakllari bilan yasalgan ravishdosh shakli payt ravishdoshi deb yuritiladi: *o`qigach, kelguncha, chiqquncha*. Payt ravishdoshining -*guncha/kuncha* ko`rinishi ergash gapning kesimi vazifasida kelib chog`ishtirish ma`nosini ham bildiradi: *Qoshing qaro bo`lguncha, ko`zing qaro bo`lsa-chi*.

-*gani/kani/qani* (ba`zan -*gali/kali/qali*) shakli bilan yasalgan ravishdosh maqsad ravishdoshi deyiladi: *Siz bilan maslahatlashgani keldim. Bu gulshan soz ekan, soz ustiga soz etgali keldik*.

Ravishdoshning bo`lishsiz shakli -*may* (*in*). Faqat maqsad ravishdoshi bo`lishsiz shaklga ega emas.

**Sifatdosh.** Sifatdosh shakli fe`lning ot bilan aloqasini ta`minlab, uni sifatlovchi aniqlovchi vazifasiga xoslaydi: *Sen yurgan yo`llardan men ham yuraman...* (Qo`shiqdan). Otlashganda ega, to`ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi, ot kesim, undalma vazifalarida keladi: Ega: **Birlashgan** o`zar. (Maqol). To`ldiruvchi: **Berganga** bitta ham ko`p. (Maqol). Qaratqich aniqlovchi: **Ko`rmaganning** ko`rgani qursin. (Maqol). Ot-kesim: *Yigit kishining uyalgani – o`lgani*. (Maqol). Undalma: **Kechikkanlar**, o`rningizdan turing.

Fe`lning sifatga yaqinlashgan lug`aviy shakli. Sifat kabi predmet-hodisaning belgisini bildiradi, otga bog`lanib sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi, sifatlar kabi otlashadi, shu bilan birga, harakat-holat ma`nosini ham saqlaydi. Unda sifatlik va fe`llik xususiyati mujassam: *o`qigan, o`qiyotgan, chopadigan*. Sifatdoshda nisbiy zamon mavjud bo`ladi. Quyidagi shakllar bilan yasaladi:

- *gan/kan/qan* – *kelgan odam, kechikkan o`quvchi, namiqqan gilam*. Bo`lishsizi -*magan* shakli bilan yasaladi: *bilmagan, chiqmagan*. Zamon bilan farqlanuvchi -*ayotgan, -ydigan* shakllari ajratiladi: *o`qiyotgan bola, chopayotgan olapar, boradigan, o`qiydigan*.

-(*a*)*r*, *mas*: *oqar suv, borar joyimiz, so`nmas hayot*;

-(*g*)(*u*)*vchi*: *ishlovchi, tanuvchi, xohlovchi, boruvchi, uyg`onguvchi*.

-*g`lik, -rlik, -gulik*: *yasatig`lik xontaxta, yopig`lik qozon, qorin to`ydirarlik bir kasb, arzigulik ish*.

-*mish* o`tgan zamon sifatdoshining kam uchraydigan shakli: *O`zbek adabiy tilining asoschisi bo`lmish Navoiy...*

-(*u*)*vchi, -g`lik, -rlik, -gulik* shakli uchun -*ma+gan* ko`rsatkichi bo`lishsiz shakl: *yasatig`lik – yasatilmagan, to`ydirarlik - to`ydirmaydigan*.

-(*g*)(*u*)*vchi, -g`lik, -rlik, -gulik* shakli bo`lishsiz qo`llanmaydi

Sifatdosh bog`langan ot tushib qolganda sifatdosh otlashadi: *Ko`rgan* (sifatdosh, aniqlovchi) *kishilar* (ot, bosh kelishikda, ko`plikda, ega) *gapirsin* – *Ko`rganlar* (sifatdosh, bosh kelishikda, ko`plikda, ega) *gapirsin*. *Ko`rgan* (sifatdosh, aniqlovchi) *paytda* (ot, o`rin-payt kelishigida, hol) *gapiradi* – *Ko`rganda* (sifatdosh, ot, o`rin-payt kelishigida, hol) *gapiradi*.

Sifatdosh, asosan, sifatlovchi-aniqlovchi (*Uyg`onguvchi bog`larni kezdim. Vizillagan tovush eshitildi*); otlashganda ega (*Eshitgan uyaladi. Ko`rgan gapiradi*); to`ldiruvchi (*Bilmaganni so`rab bilish kerak*); qaratqich-aniqlovchi (*Ko`rmaganning ko`rgani qursin*); undalma (*Eshitganlar, aytinglar*) vazifalarida keladi.

Sifatdoshning istakni ifodalovchi (kelasi zamonni ifodalovchi) - *g u r / k u r / - q u r / g`ur* shakli ham qayd etiladi: *bo`yning uzilgur bola, qurg`ur yigit, bo`lmag`ur gap*.

**Harakat nomi.** Harakat nomi shakli fe'lni ega, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi, ot kesim vazifalariga xoslaydi: Ega: ***Kekkayish*** sahroda yurgan norga yarashur. To'ldiruvchi: ***Kutishni*** yoqtirmayman. Qaratqich aniqlovchi: ***Chekishning*** zarari. Ot-kesim – *Yagona maqsadimiz – o`qish*.

Fe'lning otga yaqinlashgan lug`aviy shakli bo'lgan harakat nomi otning xususiyatiga ega, ish-harakatning bajarilish/bajarilmasligi, harakat-holatning nomi kabi ma'nolarni bildiradi va egalik, kelishik shakllari bilan erkin birikib, otga xos sintaktik vazifani bajaradi. Quyidagi shakllar bilan yasaladi:

- *m o q : o`qimoq, yozmoq, tanishmoq*; Harakat nomining bu shakli fe'lning b o s h s h a k l i , n o a n i q s h a k l i ham deyiladi, fe'llar lug`atda shu shaklda beriladi.

- *( i ) s h : o`qish, yozish, tanishish*;

- *( u ) v : o`quv (o`qi+v), yozuv, tanishuv*.

- *r / a r : ucharga qanot, turarga joy, ko`rarga ko`z*.

- *r / a r* qo`shimchasi sifatdoshdagi shunday qo`shimcha bilan shakldosh.

- *(u)v* qo`shimchasi bilan yasaluvchi shakl kam qo`llanadi, ya'ni arxaiklashmoqda.

U qo`shilganda fe'l oxiridagi *i* o`rnida *u*, *a* o`rnida *o* ishlatiladi: *bil – biluv, o`qi – o`quv, tashi – tashuv, qursha – qurshov*. *-(u)v* shaklidagi harakat nomining aksariyati otga ko`chgan: *o`quv, ishlov, saylov, qistov, tanlov, o`quv, chanqov*.

## FINIKIYA YOZUVI

Finikiya yozuvi – eramizdan avvalgi 2-ming yillik o`rtalarida Finikiyada paydo bo'lgan hamda finikiyaliklar va karfagenliklar, qadimgi yahudiylar va moavliklar tomonidan eramizning IV asrigacha qo`llangan undosh harfli yozuv.

Finikiya yozuvi o`ngdan chapga qarab yozilgan. Bu yozuvning paydo bo`lishi insoniyat tarixida yozuvni takomillashtirishda olg`a qo`yilgan qadam bo'lgan, chunki birinchi marta sof tovushni ifodalovchi mukammal yozuvining yuzaga kelishi savodli kishilar sonini behad ko`paytirib yuborgan. Finikiya yozuvidan X–IX asrlarda oromiy, undan esa yahudiy, nabotiy, arab, gruzin, arman, so`gd, uyg`ur, XI–VIII asrlarda yunon, lotin, kirill alifbosi, brahma yozuvi kelib chiqqan. Ma'lumotlarga ko`ra, hozirgi harf-tovush tizimli alifbolarning aksariyati finikiya yozuvi asosida. Eng qadimgi yodgorliklari eramizdan avvalgi XII–X asrlarga, ko`pchiligi eramizdan avvalgi V asrdan eramizning II–III asriga mansub. Oromiy yozuvi finikiya yozuvini siqib chiqargan.

## FIN-UGOR OILASI

Fin-ugor til oilasiga *f i n g u r u h i* (fin, eston, karel, komiziryan, komi-permyak, udmurd, mariy, mordva va boshqa), *u g o r g u r u h i* (venger, mansi, xatniy tili) kiradi.

## FLEKTIV TILLAR

Flektiv tillar – tillarning morfologik tasnifiga asosan oʻziga xos grammatik tuzilishga ega boʻlgan tillar turi. Bunday tipga, avvalo, Hind-Yevropa, som-xom tillari kiradi. Agglutinat siya dan (q. **Agglutinat iv tillar**) farqli ravishda, fleksiyada oʻzakka affiks alohida, mustaqil qoʻshilmaydi, balki unga singib ketadi, natijada oʻzak shaklini, tarkibini oʻzgartiradi. Ingliz, nemis, rus va fransuz, ayniqsa, arab tillari misolida flektiv tillarlarning morfologik asoslarini kuzatish mumkin: ingliz tilida *begin-began*, *find-found*, *bring-brought* va koʻplik formalari: *goose-geese*, *foot-feet*, *tuth-tooth*; nemis tilida: *schreiben-schrieb*, *fahren-fuhr*; *bruder (aka-uka) – bruder*, *buch-bucher* va hokazo. Rus tilida koʻplab soʻzlar fleksiya formalarida ifodalanadi: *вужь (вудеть)*; fransuz tilida undosh tovushlarning almashishi sifatning rod formalari ham oʻzgartiradi: a) *grand* – katta (bolshoy– muj. r.) ([d] tovushi talaffuz qilinmaydi.) b) *grande* – (*большая* – jen.r.) ([d] talaffuz qilinadi.) Flektiv tilning tipik koʻrinishi – arab tili. Bunda oʻzak-negiz faqat undosh tovushlardan iborat “formula”, yangi maʼnoli soʻzlar unli tovushlar qoʻshilishi natijasida hosil boʻladi: *HBB – hubub (sevmog)*, *uhub* – *sev*; *mahub* – *oshiq, sevimli*; *mahbuba* – *maʼshuqa, sevimli ayol*; *muhabbat-ishq, sevgi*; *habib, habiba-sevimli, sevgili*; *KTB-kataba – yozdi, katib – kotib, yozuvchi, kitab – kitob, akteb – yozmog, maktab – idora yoki maktab – makaatib – idoralar, maktub – xat, noma, yozilgan narsa*. Flektiv tillarning agglutinat iv tillardan ajralib turadigan yana bir morfologik jihati-qoʻshimchalarning koʻp maʼnoli va polifunksionalligi. Rus tilida: *вудел* soʻzidagi [-ел] qoʻshimchasi zamon (oʻtgan), son (birlik), shaxs (I), mayl, rod maʼnolarini ifodalaydi.

## FONEMA

Soʻzdan tashqarida, alohida olingan nutq tovushi fonema. Eng kichik lisoniy birlik fonema. Fonema muayyan til egalarining maʼlum tovushlar tipi haqidagi umumiy tasavvurlari. Har bir fonema soʻzlovchilar ongida oʻz tipini farqlovchi belgilari majmui asosida vujudga kelgan maxsus «akustik-artikulyatsion portret» yoki «tovushlar obrazi» sifatida saqlanadi. Muayyan fonemaning farqlovchi belgilari uning artikulyatsion va akustik xususiyatlari asosida shakllanadi. Artikulyatsion belgilar muayyan tovushlarni talaffuz qilish uchun nutq aʼzolarining bir xildagi harakatga moslashgan avtomatik, standart holatlari haqidagi tasavvur boʻlsa, akustik belgilar sifatida bir turdagi tovushlarga xos talaffuz sifati va miqdori tushuniladi. Oʻzbek tilida soʻzlovchi shaxslarning ongida hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi 30 ta tovush tipi – fonema haqida maʼlumot bor. Bu maʼlumot kishi ongida uning til oʻrganishi, oʻzgalar va oʻzining nutqini kuzatish natijasi sifatida jonlanadi. Mas., oʻzbek tili sohibi oʻzining eshitish va soʻzlash aʼzolari faoliyatini kuzatish natijasida [a] fonemasining unlilik, kenglik, lablanmaganlik, [u] fonemasining unlilik, torlik, lablanganlik, [p] fonemasining undoshlik, shovqinlilik, jarangsizlik, portlovchilik, lab-lablik kabi belgilarga ega ekanligi haqidagi «tabiiy» (goʻyoki oʻzi hosil qilingan) bilimga ega boʻladi. Nutq soʻzlaganda, ana shu tipik belgilarni jonlantirishga, ongidagi imkoniyatni voqelantirishga, fonetik umumiylikni xususiylashtirishga harakat qiladi. Lisoniy birliklar nutqiy birliklarga nisbatan miqdoran cheklangan boʻlsa-da, ammo ular ham sanoqli emas. Shu boisdan ularning xotirada saqlanish mexanizmini ochish lozim

bo`ladi. Ma'lumki, inson narsalarni ularning umumlashtiruvchi va farqlovchi belgilari asosida esda saqlaydi. Esda saqlanishi lozim bo`lgan narsa miqdor jihatdan ko`p bo`lsa, eslab qolishning asosiy yo`li tasniflash, ya'ni guruhlariga ajratish. Tasnif esa o`xshash va noo`xshash, umumiy va farqlovchi belgilarini aniqlash asosida kechadi. Bu tamoyil barcha lisoniy birlik, xususan, fonema tasnifida ham to`la amal qiladi. Hozirgi o`zbek adabiy tilida 30 ta fonema so`zlovchi ongida, avvalo, ikki guruh – unlilar va undoshlarga bo`lingan holda mavjud bo`ladi. Bu guruhlar tovushlar talaffuzidagi ovoz va shovqinning ishtiroki darajasiga qarab belgilanadi. Bo`linish shu tarzda alohida fonemagacha davom etib boradi. Unlilar ham, undoshlar ham qarama-qarshi belgilari asosida kichik guruhchalarga bo`linib boraveradi. Mas., o`zbek tilidagi 6 ta unli bir tizim, ular shovqinsizligi bilan undoshlardan ajraladi. Biroq bu tizimchaning o`zi ham unsurlarning qarama-qarshi belgilari asosida bo`linadi. Unlilarning qarama-qarshi qo`yilishi quyidagicha:

|   |    |
|---|----|
| I | U  |
| E | O` |
| A | O  |

Umuman olganda, eng kichik lisoniy birlik bo`lgan fonemalar inson nutq a`zolari yordamida vujudga kelgan tovush ko`rinishlarining umumiy andozasi, cheksiz tovushlarning umumlashmalari qatori sifatida ongimizda yashaydi. So`zlovchilar ongidagi ushbu psixo-akustik obrazlar asosida nutq a`zolarini harakatga keltirib, tovushlarni hosil qiladi. Yoki tinglovchi o`zgalar tomonidan hosil qilingan tovushlarni eshitish orqali ongidagi andozaga solishtirib ko`radi. Fonemalarning ma`no farqlash xossasi mavjud, bir fonemaning turli ko`rinishlari bo`lgan tovushlarda bu hodisa kuzatilmaydi. Bir fonemaning nutqiy varianti bo`lmish tovush boshqa fonemaning varianti bo`lgan tovush bilan almashtirilsa, so`z ma`nosi yangilanadi, ya'ni boshqa so`zga aylanadi. Qiyoslang: [qora] va [qara], [ota] va [ata], [ona] va [ana]. Shu boisdan ham fonemaga tilning ma`no farqlovchi eng kichik birligi deb ta`rif beriladi. Bir fonemaning turli variantlari ma`no farqlamaydi. Mas., til oldi va til orqa (o`) unlilari quyidagi so`zlarda ma`no farqlamagan: o`l-o`l.

## FONETIK USLUBIYAT

Fonetik uslubiyat – nutq tovushining to`g`ri/noto`g`ri qo`llanishi, urg`uning o`rinli/o`rinsiz berilishi e`tiborga olinadigan uslubiyat bo`limi. Mas., nutq tovushining uslubiy xususiyati deganda quyidagilar e`tiborga olinadi: 1) *asir*, *devon* kabi so`zdagi tovushning noto`g`ri (*asr*, *divan* kabi) talaffuz qilinishi oqibatida nutqda tushunmovchilik yuzaga keladi; 2) *-da*, *-va*, *-qa* (yoki *-q*) kabi bo`g`indan keyin yana shunday tovush bilan boshlanadigan so`zni keltirish nutqiy g`alizlikni keltirib chiqaradi: *So`zning gapda qo`llanishi va vazifasi...* kabi. Shuningdek, nutqda tovush tushirish, o`rinsiz orttirish ham nutq go`zalligini buzadi: *Saodat* – *sodat*, *muallim* – *malim*, *daraxt* – *daraxit* kabi. Shuningdek, o`zga tildagi so`zni noto`g`ri talaffuz qilish ham nutq go`zalligini buzadi. Mas., *Moskva* so`zini *Maskva*, *morfema* so`zini *marfema*, *sintaksis* so`zini *sintiksis* tarzida talaffuz etish lozim. Urg`uning uslubiy xususiyati alohida

ahamiyatga ega. Uni noto'g'ri qo'yish nutq ko'rkini buzadi va ko'pincha so'zning ma'nosini o'zgartirib yuboradi. Shuning uchun, ayniqsa, chetdan o'zlashgan so'zning urg'usini to'g'ri qo'yish lozim. Mas., *rektor*, *direktor* kabi so'zning oxirgi bo'g'iniga urg'u berish nutqiy qo'pollikni keltirib chiqaradi.

## FONETIK YOZUV (TAMOYIL, PRINSIP)

Fonetik yozuv (tamoyil, prinsip) – o'zakka qo'shimcha qo'shilganda yuz beradigan tovush o'zgarishini yozuvda aynan aks ettirish, ya'ni qanday aytilsa, shunday yozish – fonetik yozuv. Mas., *ong* o'zagidan *-la* affiksi bilan yasalgan so'z *ongla* emas, *angla* shaklida beriladi, ya'ni o'zakdagi *o* o'rniga *a* talaffuz qilinar ekan, u xuddi shunday yoziladi. *Ishla* negizidan yasalgan *ishlovchi* so'zida *a* o'rniga *o* yoziladi.

Fonetik yozuv orfografiyani jonli talaffuzga yaqinlashtiradi. Yozuv va talaffuzda ma'lum darajada umumiylik saqlanadi.

Nutqda *tushdi* so'zi *tushti*, *tushgan* so'zi *tushkan* tarzida talaffuz qilinadi. Lekin bunday yozilmaydi. Ba'zan so'z oxirida bir undosh tushirilib aytiladi: *Samarqan*, *xursan*, *pas* kabi. Ammo bu holat yozuvda aks etmaydi. Bunday so'z boshqa tamoyilga bo'ysunadi. (q. **Morfologik yozuv**).

Fonetik yozuv asosida yoziladigan o'zak va qo'shimchalar quyidagilar: 1. Bir bo'g'indan iborat *o* tovushli yopiq bo'g'inli ba'zi o'zakka *-a* qo'shilib yasalganda, *o* tovushi *a* tovushiga aylanadi: *ong* – *angla*, *ot* – *ata*, *son* – *sana*, *yosh* – *yasha* kabi. 2. Keyingi yopiq bo'g'inda *i* yoki *u* unlisi bo'lgan ikki bo'g'inli ba'zi negizga *a* yoki *o* bilan boshlangan qo'shimcha qo'shilganda keyingi bo'g'indagi *i*, *u* unlisi aytilmaydi va yozilmaydi: *ulug'* – *ulg'aymoq*, *sariq* – *sarg'aymoq*, *og'iz* – *og'zaki*, *ikki* – *ikkov*, *olti* – *oltov* kabi. 3. Keyingi yopiq bo'g'inda *i* yoki *u* unlisi bo'lgan ikki bo'g'inli ba'zi negizga egalik shakli qo'shilsa, keyingi bo'g'indagi *i*, *u* unlisi aytilmaydi va yozilmaydi: *og'iz* – *og'zi*, *burun* – *burni*, *o'g'il* – *o'g'li*. 4. *K* yoki *q* undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli o'zak-negizga egalik shakli qo'shilsa, *k* tovushi *g*, *q* tovushi *g'* tarzida aytiladi va yoziladi: *istak* – *istagim*, *qishloq* – *qishlog'im* kabi. 5. Kishilik olmoshining birinchi va ikkinchi shaxs birligiga *-ning*, *-ni*, *-niki* qo'shimchasi qo'shilsa, yonma-yon kelgan ikki *n* tovushidan biri aytilmaydi va yozilmaydi: *menning* emas, *mening*, *senning* emas, *sening* kabi. 6. Ko'rsatish olmoshidan *u*, *bu*, *shu* o'zagiga *-ga*, *-da*, *-day* affiksi qo'shilsa, bir *n* tovushi orttiriladi va shunday yoziladi: *unga*, *undan*, *bunga*, *shunday* kabi. 7. Undosh *s*, *t*, *ch* tovushi bo'lgan *isi*, *qot*, *achi* kabi fe'l o'zagiga *-q* qo'shilib sifat yasalganda, o'zakdagi undosh takrorlanadi: *issiq*, *qattiq*, *achchiq* kabi.

Fonetik yozuv asosida yoziladigan qo'shimchaning ayrimi ikkitadan yettitagacha fonetik shaklga ega. Bu o'zak-negiz va qo'shimcha tarkibida *k*, *g*, *q*, *g'* undoshining mavjudligiga bog'liq: 1. Ikki shaklda yoziladigan qo'shimcha: *-il*, *-l*: *yozi*ldi, *quri*ldi, *o'qi*ldi, *tarqa*ldi; *-in*, *-n*: *kiyi*n, *tara*n; *-iy*, *viy*: *ijodi*y, *oilavi*y. 2. Uch shaklda yoziladigan qo'shimcha: *-ga*, *-ka*, *-qa*: *quyosh*ga, *o'simlik*ka, *xalqqa*; *-gan*, *-kan*, *-qan*: *uchga*n, *tikka*n, *boqqa*n; *-gach*, *-kach*, *-qach*: *singach*, *to'kkach*, *oqqach*. 3. To'rt shaklda yoziladigan qo'shimcha: *-gich*, *-kich*, *-g'ich*, *-qich*: *suzgich*, *chekkich*, *qirg'ich*, *bosqich*; *-chak*, *-choq*, *-chiq*, *-chik*: *kelinchak*, *maqtanch*oq, *sirg'amchi*q, *o'rgamchi*k; 4. Olti shaklda yoziladigan qo'shimcha: *-gi*, *-ki*, *-gu*, *-g'u*, *-g'i*, *-qi*: *sevgi*, *turtki*, *ezgu*, *cholg'u*, *yoqilg'i*, *tashqi*; 5. Yetti shaklda yoziladigan qo'shimcha: *-gin*, *-kin*, *-gun*, *-*

*kun, -g`in, -qin, -g`un, -qun: tizgin, keskin, surgun, tushkun, ozg`in, uyg`un, uchqun.*  
Demak, fonetik yozuv imloni talaffuzga moslaydi.

## FONETIK O`ZGARISH

Fonetik o`zgarish – nutqda qulaylik, tejam uchun tovushlarning bir-biriga ta`siri natijasida yoki tutgan o`rniga ko`ra tushib qolishi, orttirilishi, almashishi, moslashishi kabi o`zgarish hodisasi.

Nutq jarayonida tovushni ketma-ket keltirish yo`li bilan turli ma`noli birlik hosil qilamiz. Mas., *t-o-sh, b-o-sh, q-o-l*. So`z tarkibidagi tovush alohida-alohida emas, balki uzluksiz talaffuz qilinadi. So`z uzluksiz talaffuz qilinganda, uning tarkibidagi bir tovush hali to`liq talaffuz qilinmay turib, nutq a`zosi ikkinchisiga tayyorlanib turadi. Natijada tovush zanjiri vujudga keladi. Talaffuz qulayligiga intilish tufayli nutq jarayonida tovush zanjirida turli fonetik o`zgarish ro`y beradi. Mas., *tog`* asosiga *-ga* qo`shimchasini qo`shsak, asos oxiridagi chuqur til orqa *g`* dan so`ng til orqa *g* undoshi kelib, chuqur til orqa tovushidan til orqa tovushiga birdaniga o`tish qiyinlashadi. Talaffuz noqulayligi vujudga keladi. Ana shu noqulaylikni bartaraf qilish uchun ikkinchi tovush ham chuqur til orqaga aylantiriladi va har ikkisi ham jarangsizlashadi: *tog` + ga – toqqa, bog` + ga – boqqa* kabi.

Fonetik o`zgarish unliga ham, undoshga ham taalluqli.

**Singarmonizm.** Unlining nutq jarayonida o`zgarishi *singarmonizm* deyiladi. Singarmonizm unlining moslashishi, uyg`unligi demakdir. U faqat turkiy tillarga xos.

Singarmonizmning ikki asosiy ko`rinishi farqlanadi: a) *t i l g a r m o n i y a s i*; b) *l a b g a r m o n i y a s i*.

Til garmoniyasida unli tovush yumshoqlik yoki qattqlik, til oldilik yoki til orqalik jihatdan bir-biriga moslashadi. Singarmonizmning til garmoniyasi qonuniyatiga ko`ra, so`zning boshida til oldi unlisi kelsa, so`z o`rtasi va oxirida ham shunday unli keladi. Boshqacha aytganda, so`zning boshida undoshning hosil bo`lish (artikulyatsion) o`rniga bog`liq ravishda unli tovushda yuz bergan o`zgarish so`zning keyingi bo`g`indagi unlida ham yuz beradi. Bu hol so`zning talaffuzida qulaylikka olib keladi. Mas., *qalam* so`zidagi *q* undoshi chuqur til orqa undoshi bo`lganligi bois, birinchi bo`g`indagi *a* unlisi ham til orqalik xususiyatiga ega bo`ladi. Buning natijasida esa keyingi bo`g`indagi *a* tovushi ham til orqa unlisi sifatida namoyon bo`ladi. Demak, birinchi *a* unlisi *q* undoshiga, keyingi bo`g`indagi *a* esa oldingi bo`g`indagi *a* unlisiga moslashadi.

Lab garmoniyasida unlining moslashishi ikki tomonlama bo`ladi. Bunda unli ham tiloldi-tilorqalik jihatidan, ham lablanganlik-lablanmaganlik jihatidan boshqa unliga va undoshga moslashadi. Bunga ko`ra, so`z boshidagi unli lablangan til oldi unlisi bo`lsa, so`z oxirida ham lablangan til oldi unlisi keladi. So`z boshidagi unli lablangan til orqa unlisi bo`lsa, so`z oxiridagi unli ham lablangan til orqa unlisi bo`ladi. Mas., *boshqird, sog`in, bo`g`in* so`zidagi kabi.

**Tovush o`zgarishi turi.** Fonetik qonuniyat asosida yuz beradigan o`zgarish turini sanaymiz.

**Tovush moslashishi** (assimilatsiya). Assimilatsiya – lotincha *assimilare* – o`xshatib olish demak. Tovush moslashishi to`liq va to`liqsiz bo`lishi mumkin. Tovush

moslashishi to'liq (*yoz + sin = yossin*) yoki qisman (*yoq + sa = yoxsa, tanbur – tambur*) moslashish bo'ladi.

Moslashish hodisasi ikki xil:

a) *progressiv moslashish* da oldingi tovush keyingi tovushni o'xshatib oladi. Masalan: *otdan – ottan, ishdan – ishtan, soldat – sollat* va boshqalar.

b) *regressiv moslashish* da keyingi tovush oldingi tovushni o'xshatib oladi: *shanba – shamba, ichsa – issa, oqshom – oxshom, tuzsiz – tussiz* kabi.

**Tovush noo'xshashligi** (dissimilatsiya). Dissimilatsiya lotincha *dissimilate* – noo'xshashlik degani, bu fonetik hodisada tovushning ta'siri natijasida noo'xshash tovush talaffuz qilinadi. Tovush noo'xshashligi hodisasi ham ikki xil bo'ladi:

a) *progressiv noo'xshashlik* da oldingi tovush ta'sirida keyingi tovush paydo bo'lish o'rnini va usulini o'zgartiradi va tovushning sifatida o'zgarish – noo'xshashlik yuzaga keladi. Masalan: *zarur – zaril, zarar – zalal, birorta – bironta, madad – madat, kabob – kabop, rubob – rubop* kabi.

b) *regressiv noo'xshashlik* da keyingi tovushning ta'siri bilan oldingi tovushda o'zgarish ro'y beradi. Masalan: *po'chta – po'shta, maqtanchoq – maxtanchoq, uchta – ushta* kabi.

Ba'zi so'zda har ikki hodisa (tovush moslashishi va tovush noo'xshashligi) ham uchraydi. Masalan: *uchdi – ucti – ushti, ichdi – ichti – ishti* kabi.

**Metateza.** Og'zaki nutqda ba'zan yonma-yon kelgan undosh tovushning o'rnini almashishi mumkin. Nutqdagi bunday jarayon metateza deyiladi: *r – y: daryo – dayro; m – g': yomg'ir – yog'mir, b – r: tebratmoq – terbatmoq; m – l: yamlamoq – yalmamoq; h – v: ahvol – avhol; p – r: tuproq – turpoq, r – g: o'rganmoq – o'granmoq; g' – r: to'g'ramoq – to'rg'amoq, n – m: aylanmoq – aynalmoq* va boshqa.

So'z o'zagida yoki unga biror qo'shimcha qo'shilganda, o'zakdagi *a* unlisi *o* ga yoki *i* unlisi *u* ga almashadi va shunday yoziladi: *ong – angla, son – sana, ot – ata, yosh – yasha; sayla – saylov, to'pla – to'plov; tara – taroq, so'ra – so'roq, chanqa – chanqoq; o'qi – o'quv, to'qi – to'quv* kabi.

Ayrim so'zga egalik qo'shimchasi qo'shilganda so'z o'zagidagi *k* va *q* tovushi *g* va *g'* ga almashadi va shunday yoziladi: *bilak – bilagi, tilak – tilagi, buloq – bulog'i, tirnoq – tirnog'i* kabi.

Ammo ayrim so'zda bunday tovush o'zgarishi bo'lmasligi mumkin: *nok – noki, doq – doqi, oq – oqi, zavq – zavqi* kabi.

Ba'zi so'zda yonma-yon kelgan tovush o'rnini almashadi. Masalan: *sayram – saryam, daryo – dayro, tuproq – turpoq, to'g'ramoq – to'rg'amoq* kabi.

*Yomg'ir* so'zi *yog'mur* tarzida aytilsa ham *yomg'ir* yoziladi (bu so'z aslida *yag'mur* shaklida bo'lgan).

**Proteza.** So'z boshida bitta unlining orttirilishi **proteza** hodisasi sanaladi. Odatda, aksariyat sonor *r* tovushidan oldin *o'*, *u* unlisi orttiriladi: *ro'mol – o'ramol, ro'za – o'raza, rayhon – o'rahon, rozi – o'rozi, rais – o'rais, rang – o'rang, ro'zg'or – o'razg'or, rustam – urustam* kabi.

Ayrim holatda so'z boshida sirg'aluvchi va portlovchi ikki undosh qator kelganda *i* unlisi orttirilishi mumkin: *shkaf – ishkaif, spravka – ispravka, stol – istol, stul – istul, shtraf – ishtraf, stansiya – istansa*.

**Epenteza.** Soʻz boshida, oʻrtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda, ular orasida *i*, baʼzan *u* va *a* unlisi orttiriladi: *fikr* – *fikir*, *hukm* – *hukum*, *doklad* – *dakalad*, *klass* – *kilass*.

**Epiteza.** Soʻz oxirida bir oʻrinda kelgan ikki undoshdan soʻng *a* tovushining qoʻshilish hodisasidir: *disk* – *diska*, *bank* – *banka*, *tank* – *tanka*, *kiosk* – *kioska*, *otpusk* – *otpuska* kabi.

Tovush orttirish oʻzbek tilining oʻziga xos talaffuz qoidasi asosida roʻy beradi. Oʻzbek tilida ikki undosh qator talaffuz qilinmaydi yoki maʼlum tovush (*h*, *r*) bilan soʻz boshlanmaydi.

Soʻz boshida: *stakan* – *istakan*, *spirt* – *ispirit*, *shkaf* – *ishkaf*, *rus* – *oʻris*, *roʻmol* – *oʻroʻmal*, *roʻza* – *oʻroʻza*, *igna* – *yigna* yoki *yiyna* kabi.

Soʻz oʻrtasida: *aql* – *aqil*, *fikr* – *fikir*, *ilm* – *ilim*, *shifr* – *shipir*, *hukm* – *hukum*, *doir* – *doyir*, *doim* – *doyim*, *foiz* – *foyiz*, *teatr* – *teyatr* kabi.

Soʻz oxirida: *bank* – *banka*, *tank* – *tanka* kabi.

Shuningdek, baʼzi olmoshga qoʻshimcha qoʻshilishi natijasida tovush orttirilishi roʻy beradi: *shu* + *ga* – *shunga*, *bu* + *da* – *bunda*, *u* + *dan* – *undan* kabi.

**Prokopa.** Bunda soʻz boshida baʼzan unli yoki undosh tovush tushib qoladi: *yiroq* – *iroq*, *yigna* – *igna*, *yigʻach* – *agʻach*, *yirik* – *irik*, *yuz* – *uz*.

Oʻzak va qoʻshimcha qoʻshilishi bilan ayrim tovush soʻz boshi, oʻrtasi va oxirida tushib qoladi. Soʻz boshida odatda qisqa talaffuz qilinuvchi *y* yoki *h* tovushi tushadi: *yiring* – *iring*, *yiroq* – *iroq*, *yogʻoch* – *ogʻoch* kabi.

Soʻz oʻrtasida odatda qoʻshimcha qoʻshilganda, oʻzakdagi ayrim tovush tushib qoladi: *ogʻiz* – *ogʻzi*, *burun* – *burni*, *ikki* – *ikkov* kabi.

Qisqa (*i*) tovushi soʻz oʻzagida ham tushadi yoki juda qisqa aytiladi: *pishiq* – *pshiq*, *kishi* – *kshi*, *bilan* – *blan* kabi.

Soʻz oxirida odatda qator kelgan undoshning soʻnggisi (*t*, *d* kabi) talaffuzda tushib qoladi: *Samarqand* – *Samarqan*, *sust* – *sus*, *doʻst* – *doʻs*, *pisand* – *pisan*, *post* – *pos*, *xursand* – *xursan* kabi.

Oʻzbek tilida arab tiliga xos ayrim soʻzda *ayn* (‘) (kirill alifbosida ayirish va lotin alifbosida tutuq belgisi) soʻz oʻrtasi va oxirida tushib qoladi, soʻz boshida choʻziq tarzda talaffuz qilinadi: *maʼlum* – *malum*, *maʼmur* – *mamur*, *taʼlim* – *talim*, *ʼayb* – *ayb*, *ʼilm* – *ilm* kabi.

**Sinkopa** hodisasiga binoan soʻz oʻrtasidagi va oxiridagi keng unli tor unli kabi talaffuz qilinadi va ayrim holatda tushib qoladi: *valochka* – *valichka*, *traktor* – *traktir*, *avtor* – *avtir*, *direktor* – *direktir*, *generator* – *generatir* kabi.

**Apakopa** – soʻz oʻzagidagi oxirgi unli yoki undoshning tushishi hodisasi: *doʻst* – *doʻs*, *xursand* – *xursan*, *gazeta* – *gazit*, *smena* – *smen* va hokazo.

**Sinerezis** hodisasiga koʻra soʻz oʻrtasida bir joyda kelgan ikki unlining biri kuchsizlanadi va nutqda tushib qoladi. Ikkinchi unli tovush esa choʻziq talaffuz etiladi: *maorif* – *mo:rif*, *saodat* – *so:dat*, *qiroat* – *qiro:t*, *jamoat* – *jamo:t*. Bu hodisa asl oʻzbekcha soʻzga xos emas.

**Reduksiya** – soʻzning birinchi boʻgʻinida biror unlining, odatda, tor unlining kuchsiz talaffuz qilinishi. Mas., *bir*, *bil*, *til* soʻzlari bir boʻgʻinli boʻlganligi va urgʻu shu soʻzdagi *i* unlisiga tushganligi tufayli *u* meʼyordagidek talaffuz qilinadi va eshitiladi. Lekin shu soʻzning oxiriga ikkinchi bir boʻgʻin qoʻshilishi bilan, urgʻu ham ikkinchi

bo`g`inga ko`chadi. Natijada birinchi bo`g`indagi *i* unlisi kuchsizlanadi va eshitilar-eshtilmas holda sust talaffuz qilinadi: *bilak, tilak, biroq*. Birinchi bo`g`indagi urg`uning ana shunday kuchsizlanib talaffuz qilinishi reduksiya hodisasiga misol bo`ladi (*reduksiya* so`zining lug`aviy ma`nosi «kuchsizlanish», «orqaga qaytish», «pastga tushish» demakdir). Reduksiyaga quyidagi so`zning birinchi bo`g`inida kelgan *i* ning kuchsizlanib talaffuz qilinishi ham misol bo`la oladi: *pishiq, shira, pishak, qiliq, ichak* kabi. Reduksiyaning ikkinchi bo`g`inda kelishi ham uchrab turadi. Bu hodisa so`zga uchinchi bo`g`in qo`shilganda sodir bo`ladi – ikkinchi bo`g`indagi unli tamoman kuchsizlanib, tushib qoladi. Mas., *burun – burni, bo`yin – bo`yni, egin – egni, keyin – keyni* singari.

**Eliziya** – unli bilan tugovchi va boshlanuvchi ikki so`zning qo`shilishi natijasida unlidan birining tushib qolish hodisasi. Bunda bir necha holat kuzatiladi; a) birinchi so`z oxiridagi unli tushib qoladi: *yoza oladi – yozoladi, bora oladi – boroladi, qora ot – qorot*; b) unli bilan boshlanuvchi ikkinchi so`zning bosh unlisi tushib qoladi: *borar ekan – borarkan, borar emish – borarmish, yozgan ekan – yozgankan* kabi; d) Abdusalom so`zining *Absalom*, Abdujabbor so`zining *Abjabbor*, *olib kel* so`zining *opke* tarzida talaffuz qilinishi natijasida bir unli va bir undoshning tushib qolishi ham eliziyaning yuqori, murakkablashgan shakli hisoblanadi. Eliziyaning murakkablashishi natijasida so`zning qisqargan shakli hosil bo`ladi.

**Tovush o`zgarishi tasnifi.** Aytilganlar asosida tovush o`zgarishini uch xil tasniflash mumkin:

1. So`zning qaysi qismida ro`y berishiga ko`ra:

a) o`zakda yuz bergan tovush o`zgarishi: *hukm – hukum, stakan – istakan, og`iz – og`zi*;

b) qo`shimchada yuz bergan tovush o`zgarishi: *uchdi – uchti, birorta – bironta, itdan – ittan*;

d) ham o`zak, ham qo`shimchada yuz bergan tovush o`zgarishi: *bog`ga – boqqa, uchdan – ushtan*.

2. Yozuvda aks etishiga ko`ra:

a) yozuvda aks etadigan tovush o`zgarishi: *shuga – shunga, birorta – bironta, og`iz – og`zi*;

b) yozuvda aks etmaydigan tovush o`zgarishi: *hukm – hukum, stakan – istakan, bog`ga – boqqa, uchdan – ushtan*;

3. Tovush o`zgarishining tabiatiga ko`ra:

a) tovush tushishi: *menning – mening, muallim – malim, og`iz – og`zi*;

b) tovush orttirilishi: *hukm – hukum, stakan – istakan*;

d) tovush almashishi: *tanbur – tambur, bog`ga – boqqa, uchdan – ushtan*.

## FONETIKA

Fonetika – eng quyi lisoniy sath va tilshunoslikning shu sathni o`rganadigan sohasi. Fonetika (gr. *phonetikos* – tovushga, ovozga xos) tilshunoslikning boshqa sohalaridan farqli o`laroq, nafaqat o`rganish manbaining funksional tomonini, balki nutq tovushlarini hosil qiluvchi talaffuz apparatini, shuningdek, ularning akustik xossalarini va til egalari tomonidan qabul qilinish jihatlarini ham tekshiradi. Fonetika da

tilshunoslikning boshqa fan sohalari – adabiyotshunoslik, fiziologiya, fizika, psixologiya kabi fanlar bilan aloqasi yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Bu fanlardan farqli o'laroq, fonetika tovushlarga so'z, qo'shimcha va gaplarga moddiy qiyofa beruvchi til unsuri sifatida qaraydi.

Fonetika nutqdagi **tovush o'zgarishlari, urg'u** va uning turlarini ham o'rganadi.

Fonetikani o'rganish imlo (orfografiya), to'g'ri talaffuz (orfoepiya) me'yorlarini yaxshi o'zlashtirib olishda, adabiy va dialektal talaffuz farqlarini aniqlashda, logopediya va surdopedagogikada nutqiy nuqsonlar diagnostikasi va ularni bartaraf etishda katta ahamiyatga ega. Fonetika yutuqlari aloqa vositalarini tekshirish va ular samaradorligini oshirishda hamda nutqni avtomatik aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

Fonetikaning bo'limlari. Fonetika, avvalo, umumiy, xususiy va qiyosiy fonetika ga ajraladi.

**Umumiy fonetika.** Inson talaffuz apparatining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda nutq tovushlari hosil qilishning umumiy shartlari (mas., undoshlarning hosil bo'lishi o'rniga ko'ra lab, til, bo'g'iz undoshlarining farqlanishi, hosil bo'lish usuliga ko'ra portlovchi, sirg'aluvchi, portlovchi-sirg'aluvchi tovush xossalari aniqlanishi kabilar), shuningdek, tovushlarning umumiy akustik xossalari o'rganiladi. Qisman artikulyatsion, qisman akustik belgilarga tayangan holda nutq tovushlarining universal, shuningdek, farqlovchi belgilariga tayanadigan ichki tasniflarini berish bilan ham shug'ullanadi. Umumiy fonetika tovushlarning birikish qonuniyatlari, bir tovushning ikkinchisiga ta'siri xususiyatini (akkomodatsiya va assimilyatsiyaning turli ko'rinishlari), bo'g'inning tabiati, bo'g'inda tovushlarning birikish qonuniyatlari, bo'g'inlarga bo'linish shartlari, so'zlarning fonetik tuzilishi, qisman, urg'u va singarmonizm masalalarini ham tekshiradi. Umumiy fonetika intonatsiya uchun qo'llaniladigan vositalar (tovush balandligi, kuchi (intensivligi), cho'ziqligi, tezligi (tempi), pauza, tembr kabi masalalarni ham tekshiradi.

**Xususiy fonetika**da yuqorida aytilgan masalalar muayyan tillar misolida tekshiriladi. Xususiy fonetika tarixiy fonetika va zamonaviy (muosir) fonetika, sinxron fonetika va diaxron fonetika, tasviriy fonetika va eksperimental fonetika kabi ko'rinishlarda ish yuritadi.

**Qiyosiy fonetika** bir nechta qarindosh yoki qarindosh bo'lmagan tillarning, yoxud bir qancha dialekt va shevalarning unli va undosh tovushlari, ulardagi fonetik o'zgarishlar va boshqa hodisalarni qiyosiy aspektda tekshiradi.

Qiyosiy fonetika umumiy va xususiy fonetika oralig'idagi vaziyatni egallaydi.

## **FONOGRAFIK YOZUV**

Fonografik yozuv – ilgari ayrim bo'g'inni, keyinroq ayrim tovushni biror belgi bilan ifodalovchi alifbo. Fonetik yozuvning kelib chiqishi qadimgi **finikiya yozuvi** bilan bog'langan.

Xalqlar fonetik yozuvni tiliga moslab, o'ziga xos shaklini yaratib olgan: yunon, lotin, arman, gruzin, slavyan, arab yozuvi va uning ayrim o'zgargan turi kabi. Qadimgi yozuv tosh, suyak, yog'och, qamish kabi qattiq jismga, so'ngra pergament va keyinchalik qog'ozga yozilgan. Yozuv o'ngdan chapga, chapdan o'ngga yoki yuqoridan pastga qarab o'qiladi.

## FRANSUZ TILI

Fransuz tili – hind-yevropa tillari oilasining roman guruhiga mansub til; Fransiya, Fransiya Gvianasi, Gaiti, Monako, Benin, Gabon, Gvineya, Kongo Demokratik Respublikasi, Kongo Respublikasi, Kot d'Ivuar, Mali, Markaziy Afrika Respublikasi, Niger, Senegal, Togo, Chad davlatlarining rasmiy tili; Belgiya Qirolligi, Shveytsariya Konfederatsiyasi, Kanada, Luksemburg, Andorra, Kamerun, Madagaskar, Burundi, Ruanda, Komor orollari, Federativ Islom Respublikasi, Jibuti, Vanuatu, Seyshel orollari davlatlaridagi rasmiy tillardan biri. Shuningdek, Italiya, AQS'H hududlarida ham tarqalgan. BMTning rasmiy va ishchi tillaridan. 100 milliondan ortiq aholi gaplashadi.

Fonetik xususiyati: urg'u, asosan, so'nggi bo'g'inga tushadi, urg'u ta'sirida unlilar o'zgarishi, unlilar o'rtasidagi va so'z oxiridagi undoshlarning tushib qolishi kuzatiladi.

Morfologik xususiyati: so'zlar morfologik jihatdan o'zgarmaslikka moyil, murakkab zamon, nisbat, qiyosiy darajaning analitik shakllari farqlanadi. Bir qancha grammatik ma'nolarning ifodalanishi sintaksis bilan bog'lanadi. Yordamchi so'zlar keng qo'llanadi. Fe'lda to'rt mayl, uch nisbat va keng tarmoqli zamon shakllari farqlanadi.

## FRAZELOGIK ANTONIMLAR

Frazeologik antonim (zid ma'noli ibora)lar bir-biriga teskari tushunchani ifodalaydi. Masalan: *ko'ngli joyiga tushdi-yuragiga g'ulg'ula tushdi, qoni qaynadi-og'zi qulog'iga yetdi*. Frazeologik antonimlarni belgilash iboralarning ma'nosini chuqurroq belgilashga, ko'p ma'noli iboraning ma'nosini farqlashda muhim ahamiyatga ega. Tarkibidagi so'zlar har xil zid ma'noli iboralarni topish oson: *savol bermoq – javob qaytarmoq; yerga urmoq va ko'kka ko'tarmoq* kabi. Ba'zi antonim iboralar tarkibidagi so'zlar qisman farqlanadi: *yuragi keng – yuragi tor; ko'ngli ko'tarildi – ko'ngli cho'kdi*. Shunday bo'lsa-da, ular antonim bo'laveradi. Chunki frazeologik ma'no undagi ayrim so'z asosida emas, balki so'zlarning yaxlitligidan kelib chiqadi.

Ko'p ma'noli ibora boshqa iboraga har bir ma'nosi asosida antonimik munosabatda bo'ladi. Mas., *savol bermoq* iborasi *javob bermoq* iborasining birgina ma'nosiga antonim, xolos. Qolgan ma'nolariga antonimik munosabatda bo'lmaydi

## FRAZELOGIK LUG'AT

Frazeologik lug'at maxsus filologik lug'atning bir turi, Sh.Rahmatullayev tomonidan tuzilgan «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati» (Toshkent, 1978) – uning mukammal namunasi. Bu lug'atdan ayrim namuna keltiramiz:

Qulog'(i)ga chalinmoq nima kimning? Biror gapni yoki tovushni noaniq tarzda eshitmoq. O'xshashi: qulog'(i)ga kirmoq. *Erkaklar orasidagi gap Asalbibining qulog'iga chalingan edi*. Oybek. Oltin vodiya shabadalar. *Uzoqdan traktorning guvillagan ovozi quloqqa chalindi*. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. (294-bet).

Q u r i m o q – yostig`ini quritmoq: yostig`i quridi: tinka-madori quridi: tinkasini quritmoq: esim qursin (375-bet).

2007-yilda “Yangi asr avlodi” nashriyotida chop etilgan B.Mengliyev, O.Boymatova va M.Xudoyberdiyevlarning “O`zbek tili iboralari o`quv lug`ati” maktab o`quvchilariga mo`ljallangan.

## FRAZELOGIYA

Birdan ortiq mustaqil leksema ko`rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma`noviy tabiatga ega bo`lgan lisoniy birlik **frazeologizm** deyiladi: *tepa sochi tikka bo`ldi, sirkasi suv ko`tarmaydi, o`takasi yorildi, do`ppisi yarimta, ikki gapning birida, boshga ko`tarmoq* va boshqalar. Shunday birlikni o`rganuvchi soha – frazeologiya. Frazeologizmlar ibora, frazeologik birlik, frazeologik birikma atamaları bilan ham yuritiladi. Frazeologizmlar tashkil etuvchilarga ko`ra qo`shma leksemalar, so`z birikmasi va gaplarga o`xshaydi. Biroq ular ko`proq qo`shma leksemalar kabi til jamiyati ongida tayyor va barqaror holda yashaydi. Boshqacha aytganda, frazeologizmlar lisonda barcha lisoniy birliklarga xos bo`lgan umumiylik tabiatiga ega bo`ladi va nutqda xususiylilik sifatida namoyon bo`ladi. Frazeologizmlar lug`aviy birlik bo`lganligidan u nutq jarayonida gaplar tarkibida bir mustaqil so`z kabi harakat qiladi- bir gap bo`lagi yoki kengaytiruvchi sifatida keladi: 1.*Madamin bo`yniga qo`yilgan aybnomadan tamom hovuridan tushdi.* (P.Turs.) 2.*Stol yoniga kelguncha uning boshi aylanib ketdi* (S.Zun.). 3. *Qosh qo`yaman deb ko`z chiqaradigan* bunday hodisalar hali ham onda-sonda ro`y berib turibdi. (“O`zbekiston adabiyoti va san`ati”). 4.*Kavushini to`g`rilab qo`yish kerak.* (As.Mux.) 1- va 2-gaplarda frazeologizmlar gap markazi-kesim mavqeida, 3-gapda so`z kengaytiruvchisi aniqlovchi va 4- gapda butun bir egasiz gap vazifasida kelgan.

Frazeologizmlar tashqi ko`rinishi jihatidan so`z birikmasi va gap ko`rinishida bo`ladi. So`z birikmasi ko`rinishidagi frazeologizmlar: *ko`ngli bo`sh, enka-tinkasini chiqarmoq, jig`iga tegmoq, bel bog`lamoq, kir izlamoq, terisiga sig`may ketmoq va hokazo.* Gap tipidagi frazeologizmlar «gap kengaytiruvchisi+kesim» qolipi mahsulidir: *istarasi issiq, ichi qora, labi-labiga tegmaydi, ko`ngli ochiq, tarvuzi qo`ltig`idan tushmoq, kapalagi uchib ketdi, po`konidan yel o`tmagan, tepa sochi tikka bo`lmoq* va hokazo.

Ayrim leksik birliklar frazeologizmlarning tadrijiy taraqqiyoti mahsulidir: *dardisar, toshbag`ir, boshog`riq.* Demak, leksemalar hosil bo`lish manbalaridan biri frazeologizmlar.

Frazeologizmlar, asosan, belgi va harakat ifodalaydi. Demak, ular grammatik jihatdan belgi va harakat bildiruvchi so`z turkumlariga mansub. Fe`l turkumiga mansub frazeologizm: *me`dasiga tegmoq, yaxshi ko`rmoq, holdan toymoq, sabr kosasi to`lmoq, tepa sochi tikka bo`lmoq, og`ziga talqon solmoq, podadan oldin chang chiqarmoq;* sifat turkumiga mansub frazeologizm: *ko`ngli bo`sh, rangi sovuq, yuragi toza, avzoyi bejo, dili siyoh, kayfi buzuk;* ravish turkumiga mansub frazeologizm: *ipidan-ignasigacha, ikki dunyoda ham, miridan-sirigacha, ha-hu deguncha;* so`z-gaplarga mansub frazeologizm: *turgan gap, shunga qaramay, katta gap.*

Frazeologizmlar leksik birliklar kabi qo'llanish darajasi nuqtayi nazaridan ham tasnif qilinadi. Bunga ko'ra, umumiste'mol frazeologizmi (*holdan toymoq, shunga qaramay, ro'yobga chiqmoq*) va qo'llanilishi chegaralangan frazeologizm farqlanadi. Qo'llanilishi chegaralangan frazeologizm qo'llanilish davri (eskirgan va zamondosh) va doirasi (dialektal, ilmiy, badiiy so'zlashuv) bilan ham ma'lum bir tafovutga ega. Eskirgan frazeologizm: *alifni kaltak demoq, aliflaylani bir cho'qishda qochiradigan, dastin aliflom qilib, kallasini xam qilib, yeng silkitmoq*; dialektal frazeologizm: *alag'da bo'lmoq* (xavotir olmoq) *ko'ngli tob tashladi* (ezildi), *halak bo'lmoq* (ovora bo'lmoq), *qumortqisi quridi* (intiq bo'lmoq); ilmiy frazeologizm: *nazar tashlamoq, ko'zga tashlanmoq, chambarchas bog'lanmoq, to'g'ri kelmoq, imkoniyatlar doirasi, qulay qurshov*; badiiy frazeologizm: *sabr-kosasi to'lmoq, og'zining tanobi qochmoq, og'zidan bodi kirib, shodi chiqmoq, qildan qiyiq axtarmoq, six ham kuymasini, kabob ham, boshida yong'oq chaqmoq*; so'zlashuv frazeologizmi: *arpasini xom o'rmoq, yerga urmoq, yuragi qon, ko'zi tor, ko'zi och, boshi ochiq*. Frazeologizmning aksariyati badiiy va so'zlashuv nutqiga xos.

Frazeologizm ham, xuddi so'z kabi, shakl va ma'no butunligiga ega. So'zning shakliy tomoni tovushdan iborat bo'lsa, frazeologizmning shakliy tomonini so'z tashkil etadi: *rahmdil* ( $r+a+h+m+d+i+l$ ) – *ko'ngli bo'sh* ( $ko'ngli+bo'sh$ ) *xursand* ( $x+u+r+s+a+n+d$ ) – *boshi osmonga yetdi* ( $boshi+osmonga+yetdi$ ).

Frazeologizm tarkibidagi so'z ma'no butunligiga ega emas. Frazeologizm so'z yig'indisining ko'chma ma'nosiga asoslanadi. Shuning uchun frazeologizm tarkibidagi bir necha so'z bir butunligicha gap bo'lagi vazifasida keladi: ***Ko'z ochib-yumguncha necha ming piyoda va suvoriy kishilar paydo bo'ldi.*** (A.Qah.) ***Ko'z ochib-yumguncha*** frazeologizmining ma'nosi «juda tez» va gapdagi vazifasi – payt holi.

Lug'aviy birlik sifatida frazeologizm so'zga xos bir qator xususiyatga ega.

Frazeologizmning ma'no tarkibi. Frazeologizmning ma'no tarkibi frazeologik va qo'shimcha ma'nodan iborat. Frazeologizmdan anglashiladigan belgi, miqdor va harakat kabilar haqidagi ma'lumot frazeologik ma'no deyiladi. Mas., ***Qizim boshimni osmonga yetkazdi*** (A.Qah.). *Endi to'rtinchi rotani ham ratsiya bilan ta'min qilsak, oshiq olchi bo'lardi* (I.Rah.). Birinchi gapda harakat («juda xursand qildi»), ikkinchisida belgi («juda yaxshi») ifodalangan. Bu frazeologik ma'no. Frazeologizmlarning atash ma'nosi biror so'zning atash ma'nosiga teng, lekin qo'shimcha ma'nosi so'zda ko'pincha bo'lmaydi yoki iboranikidan kuchsiz bo'ladi. Mas., *xufiya* so'zi va *yeng ichida* frazeologizmining atash ma'nosi bir xil. Ammo frazeologizmda uslubiy va hissiy ma'no mavjud. Frazeologik ma'no obrazli va jozibali bo'ladi. Shu xususiyati bilan leksik ma'noli so'zdan farqlanadi. Chog'ishtiring: *xufiya* – *yeng ichida*, *beqiyos* – *yer bilan osmoncha*, *xursand* – *og'zi qulog'ida*. Ayrim frazeologizm bildirgan ma'noni bir so'z bilan ifodalab bo'lmaydi: *Qildan qiyiq topib, janjal chiqarardi, qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarib qo'ydi*. Frazeologik ma'no frazeologizm tarkibidagi biror so'zning ko'chma ma'nosiga asoslanishi (*shirin so'z, achchiq gap, ishning ko'zi, gapning tuzi*) yoki tarkibidagi qismlarning umumiy ma'nosiga tayanib ko'chma ma'no ifodalashi mumkin (*og'zi qulog'ida, bel bog'lamoq, og'iz ochmoq, tili tutildi, temirni qizig'ida ur*). Yoxud tarkibidagi qismning ma'nosiga mutlaqo aloqasi bo'lmagan ma'no anglatadi (*boshi osmonga yetdi, tepa sochi tik bo'ldi, yulduzni benarvon uradi, yuragiga qil sig'maydi*). Frazeologizm tarkibidagi so'z boshqa

oddiy birikmadagi soʻzga shaklan oʻxshab qolishi mumkin: 1.*Qodirqul mingboshining bundaqangi ishlarga suyagi yoʻq* (H.Hak.). – *Bu goʻshtning suyagi yoʻq.* 2.*Mirzakarimboyning qoʻli uzun, bu ishlarni uddalaydi* (Oyb.). – *Basketbolchining qoʻli uzun edi.* Bunday holda frazeologik maʼno matnga qarab aniqlanadi. Frazeologizmning qismi qatʼiy bir qolipga kirib ketganligi uchun uni bir tildan ikkinchi tilga soʻzma-soʻz tarjima qilib boʻlmaydi. U tarjima fikr chalkashligiga olib keladi.

Frazeologizmning ham soʻz kabi shakl va maʼno munosabatiga koʻra turi mavjud.



## GAGAUZ TILI

Gagauz tili – gagauzlar tili. Turkiy tillarning janubi-gʻarbiy (oʻgʻuz) guruhiga mansub. Moldaviya va Ukrainaning janubida, shimoliy Kavkaz, Ruminiya, shimoli-sharqiy Bolgariyada tarqalgan. Soʻzlashuvchilarning umumiy soni 220 ming kishi (1990 – yildagi maʼlumot). Bu til leksikasida bolgar, rus, moldavan kabi qoʻshni tillarning taʼsiri bor. Fonetikasidagi asosiy xususiyat shuki, ikkilamchi choʻziq unlilar mavjud, diftonglashuvning yuzaga kelishi hamda soʻz boshida yuqori va oʻrta koʻtarilishdagi unlilar oldidan undoshlarning “y”lashuvi. Koʻpgina undoshlar old qator unlilar bilan yonma-yon kelganda yumshaydi. Gapda soʻzlar erkin tartibda keladi. Yordamchi soʻzlar vositasida birikma hosil qilish rivojlangan. Ikki lahjasi bor: chodirlung-qumrat (markaziy) va vulkanesht (janubiy). Yozuvi 1957-yilda qabul qilingan, kirill grafikasiga asoslangan.

## GAP

Gap – maʼlum til qonuniyatlari asosida grammatik jihatdan shakllangan holda tugallangan ohang orqali nisbiy tugal fikr ifodalovchi sintaktik birlik: *Paxta terimi qizgʻin davom etyapti. Oltin kuz qanday goʻzal!* Gap kesimga ega, bir mustaqil soʻzdan yoki birdan ortiq mustaqil soʻzning koʻmakchi va kelishik yordamida bogʻlanishidan hosil boʻladi. Mas., *Xatni qalam bilan yozdi* gapida *-ni, bilan, -di* bogʻlovchi vosita hisoblanadi. Bu gap tarkibining grammatik jihatdan shakllanganligi. Gap ohang jihatdan tugallangan boʻlishi lozim: *Kuz. Hamma yoqda ish qaynayapti.* Bu gapdagi *kuz* soʻzi tugallangan ohang bilan aytilgani uchun gap hisoblanadi. Demak, gap: 1) muomalaning eng kichik birligi; 2) nisbiy tugallangan fikrni ifodalaydi; 3) grammatik jihatdan shakllangan boʻladi; 4) tugallangan ohang bilan aytiladi. Koʻrinadiki, tugallangan ohang va fikrga ega, grammatik jihatdan shakllangan, muomalaning eng kichik vositasi hisoblangan yakka soʻz yoki soʻz birikuvi gap deb ataladi.

Gap tasnifi. Gap grammatik va mantiqiy tomonning birligidan iborat, bu yaxlitlik gapni hamma nuqtayi nazardan: maqsadi, tuzilishi, ohang butunligi va hokazoda namoyon boʻladi. Gapning bu tomoni uning turlicha tasnif qilinishini koʻrsatadi. Gap quyidagicha tasnif qilinadi:

I. Ifoda maqsadiga ko`ra. Gap ifoda maqsadiga ko`ra uch turga ega: darak gap, so`roq gap, buyruq gap. **Darak gap** orqali biror narsa haqida xabar beriladi, uning oxiriga nuqta qo`yiladi: *Navoiy ruboiylaridan yodladim.* Darak gapdagi xabar keng ma`noli, darak-xabar, orzu-umid, ishonch, ta`kid, g`urur, maslahat, tashviq, sevinch, taajjub, gumon, achinish, tashvish, g`azab, norozilik, kinoya kabini ifodalaydi. **So`roq gap** orqali so`zlovchi o`zi suhbatdoshidan yangi ma`lumot olishga urinadi: *Bugun keldingizmi?* Yozuvda so`roq gapning oxiriga so`roq belgisi qo`yiladi. Bu gaplar ko`proq dialogik nutqda uchraydi. So`roq gap so`roq olmoshi (*kim? nima? qanday? qancha? necha? qaysi?* (bunday gap so`roqqa javob bo`luvchi so`zni talab qiladi), so`roq yuklamasi (*-mi, -chi, -a, -ya*) yoki so`roq ohangi bilan hosil bo`ladi. Bu xil gap *ha* yoki *yo`q* degan javobni talab qiladi. Quyidagi misolda so`roq ohangi so`roq vositasi sifatida qatnashgan: *Soat ikki bo`ldi. Ikki bo`ldi?* So`roq gap ikkiga bo`linadi: 1) sof so`roq gap javob talab qiladi: *Siz ertaga kelasizmi?* 2) ritorik so`roq gap javob talab qilmaydi, javobi o`zida yashiringan va barcha uchun ma`lum bo`ladi: *Men uning to`satdan kelib qolishini qaydan bilay?* Ritorik so`roq gap quyidagi ma`noni ifodalashi mumkin: – “tasdiq”: *Bu Vatanda nimalar yo`q!* – “inkor”: *O`zingdan chiqqan baloga, qayga borasan da`voga!* – “taajjub”: *Bu nimasi?!* – “tashvish”: *Meni tashlab ketmaysanmi?!* – “g`azab”: *Maqsad nima, maqsad?!* – “gumon”: *Paxta ham yaxshi ochilmagandir?* – “kuchli hayajon”: *Tokaygacha ezilamiz, ota?!* **Buyruq gapda** suhbatdoshni nimadir qilishga undash maqsad qilib qo`yiladi. Bunday gapda iltimos, buyruq, taklif, maslahat, hayratlanish, tashviq, gumon, tashvish, hayajon, g`azab, yalinish tarzida bo`lishi mumkin: *Avval o`yla, keyin so`yla* (maslahat); *Dadil harakat qil!* (buyruq); *Ashuladan yana bo`lsin* (iltimos); *Qani hamma odam sizday bo`lsa!* (orzu); *Nahotki, bu siz bo`lsangiz!* (hayratlanish); *Sovqotib qolma, issiqroq yot* (g`amxo`rlik); *Kunning tig`ida nima qilasan, bu yerga kelib, salqinda o`tirsang-chi!* (tashviq); *Qo`rqqan bo`lsa kerak!* (gumon); *Xatdan o`chir o`g`limni hozir!* (g`azab, do`q). Yozuvda buyruq gapning oxiriga ko`pincha undov belgisi, ohangiga qarab esa nuqta ham qo`yilishi mumkin. Ayrim darslikda gap ifoda maqsadiga ko`ra to`rt turga ajratiladi: darak gap, so`roq gap, buyruq gap, **istak gap**. Istak gapga quyidagicha ta`rif berilgan: "Kesimi -sa shaklidagi fe`l bilan ifodalangan gap istak gap hisoblanadi. *Xorijiy tilni yaxshi o`rganib, chet elga o`qishga borsam.* Istak gap oxiriga nuqta (.) qo`yiladi." Bundan istak gap buyruq gapning ichidan ajralib chiqqanligi ko`rinib turibdi.

II. His-hayajon ifodalashiga ko`ra. Gap ohangiga, his-hayajonni ifodalashiga ko`ra 2 xil: 1) his-hayajonli; 2) his-hayajonsiz. **His-hayajonli gap** *eh, oh, uh, o, uf, obbo* kabi undov, *qanday, qancha, naqadar, shunday* kabi so`z yoki faqat his-hayajon ohangi bilan hosil bo`ladi: *Eh, bahorning gashtiga nima yetsin! Farg`ona vodiysi naqadar go`zal! Paxta terimi boshlandi!* His-hayajon ohangi bilan aytilgan darak, so`roq, buyruq gap his-hayajonli darak/so`roq/buyruq gapga aylanadi: *Dalada qancha odam bor? Dalada qancha odam bor!* His-hayajon gap so`roq gap bo`lsa, tinish belgisi quyidagicha qo`yiladi: 1) so`roq mazmuni kuchli bo`lsa, oldin so`roq, keyin undov belgisi qo`yiladi: *Nima bo`ldi, gapirsangiz-chi?!* 2) his-hayajon kuchli bo`lsa, oldin undov, keyin so`roq belgisi qo`yiladi: *Farzand qanday oqlar ona haqqini!?* 3) ayrim holda his-hayajonning o`ta kuchliligini ifodalash uchun uchta undov belgisi ketma-ket qo`yiladi: *O`lim – yovga!!!* Biror sabab bilan uzilib

qolgan his-hayajon gapning oxiriga undov belgisi va undan keyin ketma-ket ikkita nuqta qo'yiladi: *Men yetim o'sganman, oh, u yetimlik!..* **His-hayajonsiz gap**da yuqoridagi xususiyatlar bo'lmaydi.

III. Grammatik asos miqdori (tuzilishi)ga ko'ra. Ega va kesim birgalikda, bir bosh bo'lakli gapda kesimning o'zi gapning grammatik asosini tashkil etadi. Gap tuzilishi, ya'ni grammatik asos miqdoriga ko'ra ikkiga bo'linadi: a) soddaga gap; b) qo'shma gap. **Sodda gap**da bitta kesim, ya'ni bitta grammatik markaz mavjud bo'ladi: *1.Dars boshlandi. 2.Yomg'ir yog'madi. 3.Bahor keldi.* Ba'zan sodda gap egasiz, boshqa bo'laklar kesimga bog'lanadi: *Bugun Moskvadan ukam bilan uchib keldim.* **Qo'shma gap**da ikki va undan ortiq kesim, ya'ni kamida ikkita grammatik markaz mavjud bo'ladi: *Qo'ng'iroq chalindi va dars boshlandi. Salim kiyindi va yo'lga tushdi.* Qo'shma gap faqat kesimdan iborat bo'lishi ham mumkin: *Qarasam, qaramaysan.*

IV. Bosh bo'laklar tarkibiga ko'ra. Gapda bosh bo'laklar tarkibi to'liq (ega ham, kesim ham mavjud bo'lishi) yoki to'liq bo'lmasligi (egasi tushirilgan bo'lishi) mumkin. Shunga ko'ra gap ikkiga bo'linadi: 1) **bir bosh bo'lakli gap**ning grammatik asosi bir bosh bo'lakdan iborat bo'ladi: *Ota-onalarga yordam berdik;* 2) **ikki bosh bo'lakli gap**ning grammatik asosida ega ham, kesim ham qatnashadi: *Biz maktabga bordik.*

V. Eganing ishtirokiga ko'ra. Gapning egasi bor yoki yo'q bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra: a) egali (shaxsli) gap; b) egasiz (shaxssiz) gap farqlanadi.

**Egali gap** – egasi ifodalangan gap. Bunday gapning egasini kesim orqali so'roq berish yo'li bilan tiklash mumkin va u gapda mavjud bo'ladi: *1. Salim shu vazifani bajarishi shart. 2. Bugun Samarqandga boramiz.* Egali gap o'z o'rnida ikkiga ajraladi: a) egasi voqelangan gap: *Salim shu vazifani bajarishi shart;* b) egasi yashiringan gap: *1. Bugun Samarqandga boramiz (biz). 2. So'zimning ustidan chiqaman (men). 3. O'ylab ko'rsin (u). 4. Hurmat qilsang, hurmat topasan (hamma).* Egasi yashiringan gap quyidagi turga ega: a) egasi (shaxsi) ma'lum gap; b) egasi noma'lum gap; d) egasi (shaxsi) umumlashgan gap; **Egasi ma'lum gap**da egani kesimdagi shaxs-son qo'shimchasi orqali tiklasa bo'ladi. Bunday gapning kesimi, odatda, 1-, 2-, qisman 3-shaxsda bo'ladi: *1.Masalani yechdingizmi? 2. Shaftolizor bog'larni ko'rdim. 3. Derazadan ko'chaga tikilgani tikilgan.* **Egasi noma'lum gap**ning egasi mavjud, lekin aniq bo'lmaydi: *1. Farg'onada kichiklarni ham sizlashadi. 2. Bu ishni ma'qul deyishadi-ku?* **Egasi umumlashgan gap**da ega ikkinchi va uchinchi shaxsga qaratilgandek bo'lsa-da, aslida hamma uchun umumiy bo'ladi. Bunday eganing umumlashishi maqol, matal, hikmatli ibora, odat tusiga kirgan rasm-rusumni bayon etuvchi gapda uchraydi: *1.Hurmat qilsang, hurmat topasan. 2. Sog'liq tilasang ko'p yema. 3. Yaxshilikni minnat uchun qilmaydilar. Avtobusga orqa eshikdan kiriladi.*

**Egasiz gap.** Egasiz gapda ega tamoman bo'lmaydi va gap ma'nosidan anglashilmaydi. Egasi yo'q gapning: a) shaxsi topilmas gap; b) atov gap; d) so'z-gap turi farqlanadi. **Shaxsi topilmas gap**ning kesimi fe'l bilan ifodalanadi va ish-harakatni bajarishga imkoniyat, zaruriyat, shart, tilak, istak ma'nosini ifodalab keladi. Bunday gap kesimining eng muhim tomoni kesimdagi *shart, lozim, darkor, joiz*

kabi soʻz bilan kelgan harakat nomi shaxs-sonni koʻrsatuvchi vositaga ega boʻlmaydi: 1. *Dam olish kuni kitobxonlar yigʻiniga **borish kerak***. 2. *Koʻngilda armon qolmasin deb, chilyosin qilishga ham **toʻgʻri keldi***. 3. *Bu yerda oʻrtoq Ergashevning hushyorligiga **tan berish kerak***. Shaxsi topilmas gapning kesimi: a) majhul nisbatdagi feʼl: *borildi, oʻqiladi, berilayotir*; b) *-ga toʻgʻri kelmoq* koʻrinishida murakkablashgan feʼl: *borishga toʻgʻri keldi, aytishga toʻgʻri keladi*; d) harakat nomi + kerak/zarur/shart kabi modal: *borish kerak, bilish shart, aytish zarur*; Bunda harakat nomi egalik shaklini olsa, egali gapga aylanadi: *Borishi kerak* (u), *aytishim zarur* (men). e) *-sa boʻladi, -ib boʻlmaydi* kabi murakkablashgan holda: *Mana buni oʻqish desa boʻladi. Oyni etak bilan yopib boʻlmaydi*. **Atov gap** narsa-hodisaning nomini oʻtgan yoki hozirgi zamonda qayd etish bilan cheklanadi: 1. *Amu-Buxoro kanali*. 2. *Sentabrning boshlari edi*. 3. *Hamon yodimdadir: gul chogʻi erdi*. Atov gap yigʻiq yoki yoyiq boʻlishi mumkin: *Bahor* (yigʻiq) – *Erta bahor* (yoyiq). U turli sodda va murakkab aniqlovchi, toʻldiruvchi, hol bilan bimalol kengayadi: 1. *Togʻ bagʻrida qad koʻtargan yam-yashil oʻtov*. 2. *Qip-qizil saraton quyoshi*. 3. *Qaqragan ming-ming gektaga hayot suvi olib kelgan qudratli inshoot*. 4. *Hali ona suti ogʻzidan ketmagan qizni qari bir cholgʻa berish*. 5. *Ilk bahorning serzavq kunlari*. Atov gap badiiy va publisistik nutqda keng qoʻllanadi. **Soʻz-gap**. Bir soʻzdan iborat, tarkibiy qismga ajralmaydigan, boshqa soʻz bilan kengaymaydigan gap soʻz-gap deyiladi: 1. *Mayli*. 2. *Yoʻq*. 3. *Assalom-u alaykum*. Soʻz-gap tasdiq, inkor, soʻroq, taajjub, his-hayajon kabini ifoda etib, koʻproq dialogik, baʼzan monologik nutqqa xos boʻladi, modal yoki undov bilan ifodaladi: *Xoʻp. Albatta*. Baʼzan takrorlanib qoʻllanadi: *Nima-nima? Yoʻq-yoʻq*. Soʻz-gapdan keyin vergul qoʻyilib, unga izohlovchi birlik kiritilsa, soʻz-gap kirish soʻzga aylanib qoladi: *Mayli* (soʻz-gap) – *Mayli* (kirish soʻz), *boraman*.

VI. Ikkinchi darajali boʻlakning mavjudligiga: a) yigʻiq gap; b) yoyiq gap; **Yigʻiq gap** faqat kesimdan yoki kesim va egadan iborat boʻladi: *Keldim. Men oʻqituvchiman*. Atov va soʻz gap ham yigʻiq gapdir: *Qish. Rahmat*. **Yoyiq gap**da boshqa boʻlaklar ham qatnashadi.

VII. Zarur boʻlagi mavjud/mavjud emasligiga koʻra. Gap zarur boʻlagining barchasi qatnashayotganligi yoki qatnashmayotganligiga koʻra ikkiga boʻlinadi: a) toʻliq gap; b) toʻliqsiz gap. **Toʻliq gap**da fikrni ifodalash uchun zarur boʻlgan boʻlakning barchasi qatnashadi: *Ulardan xat keldimi? Toʻliqsiz gap*da nutq vaziyatidan maʼlum boʻlgan ayrim boʻlak tushiriladi: – *Siz maktabga borasizmi?* – *Boraman* (ega (men), hol (maktabga) tushirilgan). Toʻliqsiz gapning quyidagi turi mavjud: a) dialogik nutq tarkibidagi toʻliqsiz gap: – *Kim kelmadi?* – *Ahmad*; b) ibora shaklidagi toʻliqsiz gap: *Tugʻilgan kuningiz bilan! Navroʻzingiz muborak!*; d) qoʻshma gap tarkibidagi toʻliqsiz gap: *Yaxshidan ot qoladi, yomondan dod* (qoladi).

VIII. Murakkablashtiruvchi vositasiga koʻra. Gap undalma, kirish soʻz, kirish birikma, kirish gap va kiritma qurilma bilan murakkablashishi mumkin. Shunga koʻra: a) murakkablashmagan gap; b) murakkablashgan gap farqlanadi. **Murakkablashmagan gap** tarkibida undalma, kirish soʻz, kirish birikma, kirish gap va kiritma qurilma ishtirok etmaydi: *Oʻquvchilar maktab bogʻiga toʻplanishdi*. **Murakkablashgan gap** tarkibida undalma, kirish soʻz, kirish birikma, kirish gap va kiritma qurilma ishtirok etadi. Shuning uchun

murakkablashgan gapning: a) undalmali; b) kirish soʻz/birikma/gapli; d) kiritma qurilmali turi ajratiladi. Bu murakkablashtiruvchi vositadan birortasi ham gap boʻlagi bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi.

Ayrim gap turi orasidagi maʼnodoshlik: Ayni bir fikr gapning har xil turi bilan ifodalanadi: a) sodda gap – qoʻshma gap: *Har kim ekanini oʻradi – Kim nimani eksa, shuni oʻradi.* b) yigʻiq gap – yoyiq gap: *Oʻqiyuvchiman – Men oʻqituvchiman.*

**Gap tahlili.** Gap tahlili – gap turi, boʻlagini va ularning xususiyatlarini aniqlaydigan sintaktik tahlil. Gap tahlili quyidagicha: I. Gapning ifoda maqsadiga koʻra turi: 1) darak gap; 2) soʻroq gap: a) sof soʻroq gap; b) ritorik soʻroq gap; 3) buyruq gap: a) maslahat maʼnoli; b) buyruq maʼnoli; d) iltimos maʼnoli; e) orzu maʼnoli; f) hayratlanish maʼnoli; g) gʻamxoʻrlik maʼnoli; h) tashviq maʼnoli; i) gumon maʼnoli; j) gʻazab maʼnoli; k) doʻq maʼnoli; 4) istak gap; II. Gapning his-hayajon ifodalashiga koʻra turi: a) his-hayajonli gap; b) his-hayajonsiz gap. III. Gapning grammatik asos miqdori (tuzilishi)ga koʻra turi: a) sodda gap; b) qoʻshma gap. IV. Gapning grammatik asos tarkibiga koʻra turi: a) bir bosh boʻlakli; b) ikki bosh boʻlakli gap. V. Gapning zarur boʻlagi mavjud/mavjud emasligiga koʻra turi: a) toʻliq gap; b) toʻliqsiz gap: 1) dialogik nutq tarkibidagi toʻliqsiz gap; 2) ibora shaklidagi toʻliqsiz gap; 3) qoʻshma gap tarkibidagi toʻliqsiz gap. VI. Gapning murakkablashtiruvchi vositasiga koʻra turi. a) murakablashmagan gap; b) murakkablashgan gap: 1) undalmali murakkablashgan gap; 2) kirish soʻz/birikma/gapli murakkablashgan gap.

## GAP BOʻLAGI

Gap boʻlagi – sodda gapning tarkibiy qismi. Gap boʻlagini ajratishda asosiy belgi – ular orasidagi sintaktik aloqa. Gapdagi soʻzga soʻroq berish, uning qaysi turkumga mansubligi, gap ichida joylashish tartibi, qanday qoʻshimcha olishi tom maʼnoda gap boʻlagi turini belgilashda asos boʻla olmaydi. Gap boʻlagini aniqlash kesimni aniqlashdan boshlanadi. Chunki asosiy xabar kesimda mujassamlangan boʻladi. Gapdagi boshqa barcha boʻlak olib tashlansa ham, xabar saqlangan boʻladi. Lekin birgina kesimni olib tashlab, boshqa boʻlak saqlansa ham, bu xabar yoʻqoladi. Kesim orqali ega va hol, ular orqali esa toʻldiruvchi va aniqlovchi aniqlanadi. Gap boʻlagining turi odatda bir-biriga nisbatan aniqlanadi: hol va ega kesimga nisbatan, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan, toʻldiruvchi toʻldirilmishga nisbatan. Umuman olganda, qolgan barcha boʻlak bevosita yoki bilvosita kesimga bogʻlanadi. Shuning uchun u g a p n i n g g r a m m a t i k m a r k a z i deyiladi. Ega va hol kesimga bogʻlanadi. Lekin aniqlovchi bilan toʻldiruvchi har qanday boʻlakka bogʻlanishi mumkin. Gap boʻlagi darajasiga koʻra ikki xil: 1) bosh boʻlak; 2) ikkinchi darajali boʻlak. **Bosh boʻlak.** Ega va kesim – bosh boʻlak. Boshqa boʻlak ega va kesimga tobelanadi. Kesim gapning markaziy boʻlagi hisoblanadi. (q. **Bosh boʻlaklar**). **Ikkinchi darajali boʻlak** toʻldiruvchi, aniqlovchi, hol kiradi. (q. **Ikkinchi darajali boʻlaklar**)

Gap boʻlagining uslubi xususiyati: 1) ega bilan kesimni moslashtirishda bogʻlama (shaxs-son qoʻshimchasi, toʻliqsiz feʼl, *boʻldi, qildi, etdi*

yordamchi fe'li, *sanaladi, hisoblanadi* kabi fe'l)dan foydalaniladi: *Men o'quvchiman. U talaba bo'ldi. Bu tarix hisoblanadi*; 2) qaratqich-aniiqllovchidagi -ning qo'shimchasi she'riyatda ba'zan -im tarzida qo'llanadi: *O'zbekiston - vatanim manim*; 3) sifatlovchi aniiqllovchi ot bilan ifodalansa, majoziy ma'no kasb etadi: *Kumush choyshab yopib dalalar, qor tagida uxlav yotadi*; 4) sifatlovchi-aniiqllovchi turli so'z turkumidan tizilib, sifatlash vazifasini bajargan ibora va so'z birikmasi bilan ifodalanadi: *Osmono'par tog'lar, bag'ri keng inson, cheki yo'q qirlar, fikri tiniq insonlar*. 5) qaratqich-aniiqllovchi o'rnida sifatlovchi-aniiqllovchi qo'llanadi: *Bahorning sarin yellarini sog'indim – Bahordagi sarin yellarni sog'indim*.

**Gap bo'lagi tartibi.** Gap bo'lagi tartibi ikki xil: a) odatdagi tartib; b) o'zgargan tartib. **Odatdagi tartib.** Bunda quyidagi holat kuzatiladi: 1) ega (o'z aniiqllovchisi bilan) oldin, kesim gapning oxirida keladi: *Yosh havaskorlar to'plandi*; 2) payt holi egadan oldin keladi: *Bugun yosh havaskorlar to'plandi*; 3) to'ldiruvchi o'z aniiqllovchisi bilan egadan keyin keladi: *Bugun yosh havaskorlar dehqonlarga katta tomosha ko'rsatdi*; 4) vaziyat holi kesimdan oldin keladi: *Daryo uzoqdan tovlanib ko'rinardi*. **O'zgargan tartib** (bu inversiya ham deyiladi)da quyidagi holat kuzatiladi: 1) ega kesimdan keyin keladi: *Yashasin mustaqillik!* 2) to'ldiruvchi kesimdan keyin keladi: *To'xtat suvni!* 3) vaziyat holi fe'l-kesimdan keyin keladi: *Shamol esadi g'ir-g'ir*.

Gap bo'lagi tartibi o'zgarishi quyidagi hollarda kuzatiladi:

1) badiiy nutqda, ko'pincha, she'riyatda; *Senga bo'ldim azaliy oshiq. Bunga berar o'lim xotima*;

2) hayajon kuchli bo'lganda: *Oling qo'lingizni!*

3) shior va chaqiriqda: *Yashasin mustaqillik!*

4) mantiqiy urg'u talabi bilan: *Bordik biz. Ayting o'zingiz*.

**Gapning ajratilgan izoh bo'lagi.** Gapda biror bo'lakning ma'nosi so'zlovchi nazarida noaniqroq bo'ladi va uning ma'nosini aniiqroq berish, izohlash maqsadida xuddi shunday boshqa bo'lakni gapga kiritadi. Mas., *Men ishni mana shundan boshladim* gapida *shundan* to'ldiruvchisining ma'nosi noaniq. Shuning uchun so'zlovchi aniiqroq ma'noli boshqa bir to'ldiruvchini gapga kiritadi: *Men ishni mana shundan, ya'ni tushuntirishdan boshladim*. O'zidan oldingi bo'lakni izohlagan bunday bo'lak *ajratilgan izoh bo'lak* deyiladi. Ajratilgan bo'lakning uyushiq bo'lakdan farqi shundaki, u bir tushunchaning ikkita nomi, ya'ni bir shaxs/narsa/belgi/harakat ikki marta nomlanadi, uyushiq bo'lak esa bir necha shaxs/narsa/belgi/harakatni ifodalaydi. Gap bo'lagini ajratishda so'z tartibining o'zgarishi, gap bo'lagining kengayishi, bir bo'lakning o'zidan oldingi bo'lakni izohlashi, bir bo'lakni boshqasidan ajratib, bo'rttirib ko'rsatish zaruriyati kabilar sabab bo'ladi: 1. *Ko'chada borar, g'amgin va o'ychan*. 2. *Ukasi, ko'zlari chaqnagan, unga g'azab bilan qaradi*. 3. *Oldinda, muyulishda, bir qora ko'rindi*. 5. *U har kuni, quyosh tikka kelganda, shaharga tushadi*. Quyidagi gap bo'lagi ajratiladi: 1) ega: *Biz, yoshlar, buni esdan chiqarmasligimiz kerak*; 2) kesim: a) fe'l-kesim: *Men uni ko'ndirishga harakat qildim – yalindim, yolvordim, hatto tiz cho'kdim*; b) ot-kesim: *U shoir – inson ruhining bilimdoni*; 3) to'ldiruvchi: *Oyimni, ya'ni Xosiyat Suvonovani, mukofotlashdi. To'ldiruvchi tashqari, boshqa, o'rniga, bilan, birga kabi so'zli birikma bilan ham ajratiladi: Mendan tashqari, u ham bor*. 5) aniiqllovchi: 1) qaratqich-aniiqllovchi: *Bir necha kishining ayol va*

*erkakning qorasi ko`rindi*; 2) sifatlovchi-aniqlovchi (ba'zi darslikda bu ters sifatlovchi-aniqlovchi deb ataladi): *Gullar terdim, chiroyli*; 6) hol: 1) o`rin holi: *Uning qo`lidan ushlab ichkariga, mehmonxonaga, boshladi*; 2) payt holi: *Anjuman bugun, soat beshda, boshlanadi*; 3) ravish (vaziyat) holi: *Qo`llar ishlar tez — mo`jizakor*; 4) maqsad holi: *Shaharga borish uchun, ya'ni o`g`lini ko`rish uchun, ulov qidirdi*; 5) miqdor-daraja: *Bugun sizni yana, ikkinchi marta kechirishdi*. Ko`pincha ravishdosh va sifatdosh bilan ifodalangan hol ham ajratilishi mumkin: *O`zidan o`zi hadiksirab, atrofga olazarak boqadi. Otasi, ikki qo`ltig`ida narsa ko`targan holda, yo`lga tushdi*.

Ajratilgan izoh bo`lakda tinish belgisi. Yozma nutqda izoh bo`lak ko`pincha vergul va tire bilan ajratiladi: 1) izoh bo`lak ikki tomondan vergul bilan ajratiladi: *Kanal bo`yidagi choyxonada, avtobus bekatida, A`zamjon uchradi*; 2) izoh bo`lakning o`z ichida vergul bo`lsa, ikki tomoniga tire qo`yiladi: *Endi odamlar — otliq, piyoda, yosh-qari — uchray boshladi*; 3) ajratilgan bo`lak kengayib, uyushib, gap oxirida kelsa, undan oldin tire qo`yiladi: *Mening o`z muhabbatim bor — toza va musaffo!*; 4) bosh kelishikdagi kishilik olmoshini izohlagan bo`lakdan avval tire, keyin vergul qo`yiladi: *Men — Mengliyeva Munira, VIII sinfda o`qiyman*; 5) yozma nutqdagi *Onam — Xosiyat Suvonova, maktabda ishlaydi* kabi gapda ham shunday.

**Gapning uyushiq bo`lagi.** Gapda bir xil shakllangan, bir xil so`roqqa javob bo`ladigan, o`zaro teng bog`langan va boshqa bitta bo`lakka tobelanadigan bo`lak birdan ortiq bo`lishi mumkin. Bu - u y u s h i q b o ` l a k . Masalan: *Bola goh menga, goh unga qarar edi*. Gapning barcha bo`lagi uyushadi: 1) ega: *Bugun Anvar yoki Sobir navbatchilik qiladi*; 2) kesim: a) fe'l kesim: *Biz besh oydan buyon o`qib, ishlab, izlanib kelyapmiz*; b) ot-kesim: *Yo`l keng va tekis edi*; 3) to`ldiruvchi: a) vositasiz to`ldiruvchi: *Kitob(larni) va daftarlarni keltirdi*; b) vositali to`ldiruvchi: *Akamga va opamga xabar qildik*; 4) aniqlovchi: a) sifatlovchi-aniqlovchi: *Salqin va bahavo bog`da dam oldik*; b) qaratqich-aniqlovchi: *Olma(ning) va shaftoliniig hosili mo`l bo`ldi*; 5) hol: a) vaziyat holi: *Topshiriqni tez va puxta bajardik*. b) payt holi: *Bugun va ertaga men navbatchilik qilaman*; d) o`rin holi: *Shahar va qishloqda qurilish avjiga chiqqan*; e) sabab holi: *Quvonch va shodlikdan tili aylanmas edi*; f) maqsad holi: *U shaharga o`qish va ishlash maqsadida kelgan edi*. g) miqdor holi: *Men sizga o`n marta, yuz marta gapirdim*; h) shart holi: *Agar mehnat qilmasang, qiynalmasang o`z maqsadingga erisha olmaysan*; i) to`siqsizlik holi: *U charchasa ham, yiqilib qolgudek bo`lsa ham yurishdan to`xtamadi*. Uyushiq ega shaxsni anglatlsa, kesim birlikda ham, ko`plikda ham bo`lishi mumkin: *Karim, Salim va Ahmad keldi(lar)*. Uyushiq ega jonsiz narsani ifodalasa, kesim, odatda, birlikda bo`ladi: *Stol va stul tartibga keltirilgan*. Gapda ko`makchi fe`lli so`z qo`shilmasi uyushiq kesim bo`lib kelganda ba`zan ko`makchi fe`l yetakchi fe`lning eng so`nggisiga bog`lanib kelishi mumkin: *U allaqachon yozib, chizib bo`ldi*. Uyushiq bo`lak yoyiq holda ham bo`ladi: *Ma`ruzachiga qiziq, kishini hayratda qoldiradigan savollar berishdi*. Uyushiq bo`lak juft-juft bo`lib ham qo`llanadi: *Shahrimizda keng va tekis, toza va yorug` ko`chalar ko`paymoqda*.

Uyushiq bo`lakda ko`plik, egalik va kelishik qo`shimchasining qo`llanishi ikki xil: 1) son (ko`plik), egalik va kelishik qo`shimchasi uyushiq bo`lakning oxirgisiga qo`shiladi: *Noma va arizalarning ba`zisi mirzo, muftilarga havola qilinar edi*; 2) gapdagi uyushiq bo`lakning har birida son,

egalik, kelishik qo`shimchasi alohida-alohida takrorlanadi: *Qor sovug`i qo`llarimni va oyoqlarimni, peshonamni yalab tursa-da, menga juda yoqimli tuyuldi.* Nutqda son, egalik va kelishik qo`shimchasi uyushiq bo`lakda har xil ishlatilishi ham uchraydi: *Bolalar yaslilari va bog`chalarida, maktablarda mehnatkashlarning farzandlari tarbiyalanmoqda.* Gapda uyushiq bo`lak bog`lovchisiz, sanash ohangi bilan, biriktiruv bog`lovchisi (*va, hamda*), ular vazifasidagi *-u, -yu* yuklamasi, *bilan* ko`makchisi, zidlov bog`lovchisi (*ammo, lekin, biroq*), *na, -da* yuklamasi, *goh, yoki, yoxud, dam, ba`zan, yo* kabi ayiruv bog`lovchisi bilan bog`lanib keladi: *Mashina sekinladi, lekin to`xtamadi.* Gapning uyushiq bo`lagi guruh-guruh bo`lsa, bir-biridan nuqtali vergul bilan ajratiladi: *Yutib chiqish uchun ot chopqir, zotdor bo`lishi, yaxshi toblanib sovutilishi; chavondoz usta, epchil bo`lishi kerak.*

**Umumlashtiruvchi so`z (qism) va unda tinish belgisi.** Uyushiq bo`lakli gapda so`zni jamlovchi **umumlashtiruvchi so`z** bo`lishi mumkin. Ko`pincha belgilash, bo`lishsizlik olmoshi va jamlovchi ot, jamlovchi son, shuningdek, so`z birikmasi, kengaygan birikma umumlashtiruvchi so`z bo`lib keladi: *Uylar, daraxtlar, ko`chalar – hammasi qorong`ulik qa`riga cho`mdi.* *Ishga yangi qabul qilinganlar: Ahmad, Salim va Akbar boshliqning oldiga kirishsin.* Umumlashtiruvchi so`z bilan uyushiq bo`lak bir xil sintaktik vazifani bajaradi. Umumlashtiruvchi bo`lak uyushiq bo`lakdan oldin kelsa, undan keyin ikki nuqta qo`yiladi: *Qudratning oldidan ikki o`rtoq: Ilhom va Rustam chiqib keldi.* Umumlashtiruvchi bo`lak uyushiq bo`lakdan keyin kelsa, undan oldin tire qo`yiladi: *Shu hovli-joy, mana shu daraxtlar, kursi, so`ri – hammasi meniki.* **Uyushiq va uyushmagan sifatlovchi-aniqlovchi hamda hol.** Ketma-ket kelgan, lekin sanash ohangi bilan aytilmaydigan, yozuvda orasiga vergul qo`yilmaydigan aniqlovchi va hol uyushmagan aniqlovchi va uyushmagan hol hisoblanadi. Uyushmagan sifatlovchi-aniqlovchi va uyushmagan hol o`zi bog`langan bo`lakning turli tomoniga oid belgini anglatadi: *Qop-qora shirin (uyushmagan aniqlovchi) uzum g`arq pishgan. Ertaga ertalab (uyushmagan hol) ota-onalar majlisi bo`ladi.*

## GRAMMATIK KATEGORIYA

Tilimizda shunday qo`shimchalar mavjudki, ular umumiy belgilari - muayyan vazifa va ma`nosiga ko`ra bir tizimga birlashsa, xususiy belgilari bilan bir-biridan zidlanib turadi. Yaqin ma`noli bunday shakllar tizimga grammatik kategoriya deyiladi. Mas., kelishikning 6 ta shakli bo`lib, ularning barchasi ismlarni keyingi so`zga bog`lash va gapdagi sintaktik vazifasini belgilash umumiyligi bilan birlashsa, qaratqich kelishigi ismni ism bilan, tushum kelishigi ismni fe`l bilan, jo`nalish kelishi ismni fe`l yoki ism bilan aloqasini ta`minlashi hamda gapdagi mavqelarini belgilashi bilan farqlanadi.

Ayni paytda o`zbek tilida egalik, kelishik, son, daraja, nisbat, bo`lishsizlik, harakat tarzi, o`zgalovchi, kesimlik (zamon, mayl, shaxs-son) kategoriyalari ajratiladi.

## GRAMMATIK MA`NO

Grammatik ma`no – so`zning biror turkumga mansubligi, so`z birikmasi va gapdagi vazifasi. Grammatik ma`no – murakkab hodisa. Mustaqil va alohida olingan so`zda lug`aviy ma`no ustiga qavatlanadigan, yordamchi so`zning mohiyatini tashkil

etadigan, ko'plab so'z uchun umumiy bo'lgan ma'no. Mas., *kitob* so'zining lug'aviy ma'nosi ustiga ot, turdosh ot, aniq ot, yakka ot ma'nosi qavatlangan bo'ladi. *Uchun* so'zida "atash" ma'nosi va "so'zni ergash so'z sifatida bosh so'zga bog'lash" uning mohiyatini tashkil etadi.

Grammatik ma'no leksik ma'nodan umumiyliги bilan farqlanadi. Chunki lug'aviy ma'no har bir so'z uchun alohida bo'ladi. Mas., hatto bir ma'nodoshlik qatoridagi har bir so'zning lug'aviy ma'nosi farq qiladi: *bashara* so'zining lug'aviy ma'nosi "odam boshi old tomoni peshanadan iyakkacha bo'lgan qismining salbiy ifodasi" bo'lsa, *yuz* so'zining lug'aviy ma'nosi "odam boshi old tomoni peshanadan iyakkacha bo'lgan qismining betaraf ifodasi". Farq: "salbiy ifoda" va "betaraf ifoda". Lekin nafaqat ma'nodosh, balki narsa-predmet va shaxsni bildiruvchi so'zning barchasi uchun ot grammatik ma'nosi umumiy. Grammatik ma'no barcha turkumga mansub so'zda mavjud. Lug'aviy ma'no esa faqat gap bo'lagi va gap bo'la oladigan so'zda mavjud.

**G r a m m a t i k m a ' n o n i n g t u r i .** Mavjudliliga ko'ra grammatik ma'no uchga bo'linadi:

- a) so'zning tabiatida avvaldan mavjud grammatik ma'no;
- b) grammatik vosita yordamida hosil qilinadigan grammatik ma'no;
- v) so'z birikmasi va gap tarkibida vujudga keladigan grammatik ma'no.

So'zning tabiatida avvaldan mavjud grammatik ma'no ot turkumiga mansub ot, aniq ot, mavhum ot, yakka ot, jamlovchi ot, atoqli ot, turdosh ot; sifat turkumida sifat, asliy sifat, nisbiy sifat; son turkumida son, miqdor; fe'l turkumida fe'l, o'timli fe'l, o'timsiz fe'l; ravish turkumida ravish, miqdor, payt, sabab; ko'makchida ko'makchi, sof ko'makchi, ko'makchi vazifasidagi so'z kabilar ularda avvaldan mavjud grammatik ma'no. Har bir so'z turkumida bunday ma'no bor. So'z biror turkumga kirdimi, bu turkum atamasi uning bir grammatik ma'nosining nomi.

Grammatik vosita yordamida hosil qilinadigan grammatik ma'no. Bunday ma'no mustaqil so'zda mavjud, grammatik qo'shimcha va yordamchi so'z vositasida hosil qilinadi. Mas., ot turkumida birlik va ko'plik, egalik, kelishik, kichraytirish erkalash va ko'makchi yordamida vujudga keladi: *kitobchalarimga* so'zidagi "kichraytirish oti", "ko'plikda", "birinchi shaxsdagi birlik egalik shaklida", "jo'nalish kelishigida" grammatik ma'nosi grammatik vosita yordamida vujudga kelgan grammatik ma'no. Sifat va ravishdagi daraja, sonning sanoq sondan boshqa barcha ma'no turi, fe'lda nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, fe'lning xoslangan shakli, mayl kabilar shunday ma'no sirasiga kiradi.

So'z birikmasi va gap tarkibida vujudga keladigan grammatik ma'no. Mustaqil so'z erkin birikma tarkibida bosh so'z yoki ergash so'z, gap tarkibida biror gap bo'lagi, undalma, kirish so'z, ajratilgan bo'lak, so'z-gap bo'lib keladi. Yordamchi so'z so'z yoki gapni o'zaro bog'laydi (ko'makchi va bog'lovchi), qo'shimcha ma'no beradi (yuklama). Bu ma'no faqat gap tarkibida hosil bo'ladi. Gapdan tashqaridagi so'zda bunday grammatik ma'no bo'lmaydi.

Grammatik ma'no ifodalovchi vositalar. Grammatik ma'no maxsus vositalar bilan ifodalanadi. O'zbek tilida grammatik ma'no ifodalashning quyidagi vositalari mavjud: 1. Grammatik qo'shimcha. 2. Yordamchi so'z. 3. So'z tartibi. 4. Takror. 5. Ohang.

Grammatik qo'shimcha tilda keng tarqalgan turi grammatik ma'no ifodalovchi vosita. Ifodalaydigan grammatik ma'noning tabiatiga ko'ra u ikkiga bo'linadi: *lug'aviy qo'shimcha* va *sintaktik qo'shimcha*.

Lug'aviy qo'shimcha so'zni bog'lamaydi, balki lug'aviy ma'noni nutqqa moslaydi. Mas., ot turkumiga mansub so'zga *-lar* lug'aviy qo'shimchasi qo'shilib, uning lug'aviy ma'nosini birlik yoki ko'plik ko'rinishida yuzaga chiqaradi. Fe'lda nisbat lug'aviy ma'noning harakat bajaruvchisini ko'rsatadi. Lug'aviy shakl hosil qiluvchi – so'z ma'nosini qisman o'zgartiruvchi, muayyanlashtiruvchi qo'shimcha. Mas., *kitob* so'zida birlik ma'nosi ham (*Bu kitob qiziqarli*), ko'plik ma'nosi ham (*Do'konga kitob keldi*) mujassamlangan. Nutq sharoiti, matn kitob so'zida birlik yoki ko'plik voqelanishini ajratib beradi. Shu so'zga *-lar* shakli qo'shilishi bilan u kitob so'zida birlik ma'nosini ko'plik ma'nosidan chegaralaydi, ya'ni lug'aviy ma'noni muayyanlashtiradi, toraytiradi. Lekin bevosita so'zni sintaktik aloqaga kiritish uchun xizmat qilmaydi. Lug'aviy shakl hosil qiluvchi, asosan, 4 yirik so'z turkumi – fe'l (nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, o'zgalovchi, sintetik va analitik harakat tarzi shakllari), ot (son, kichraytirish-erkalash), sifat (daraja) va sonda (uning ma'no turini hosil qiluvchi) mavjud.

Sintaktik (munosabat) qo'shimcha so'zni so'zga bog'laydi yoki so'zga sintaktik mavqe beradi. Kelishik ergash so'zni bosh so'zga, egalik bosh so'zni ergash so'zga bog'laydi: *kitobni o'qimoq, daftarning varag'i* kabi. Sintaktik (munosabat) shakli hosil qiluvchi qo'shimcha so'z lug'aviy ma'nosiga ta'sir etmay, bir-biriga bog'lashga yoki unga ma'lum bir sintaktik vazifa berishga xizmat qiladi. Kelishik, egalik, mayl, zamon, shaxs-son shunday grammatik vosita. Kelishik, egalik qo'shimchasi so'zni bog'lasa (*Salimning ukasi*), mayl, zamon, shaxs-son qo'shimchasi gap kesimini shakllantiradi: *o'qidim* (xabar mayli, o'tgan zamon, birinchi shaxs).

O'zbek tilida shunday shakl borki, ular bir tomondan so'zning lug'aviy ma'nosiga ta'sir etadi, ikkinchi tomondan, sintaktik aloqaga kiritadi. Fe'lning ayrim vazifa shakli (ravishdosh, sifat-dosh) shunday ikkiyoqlama mohiyatga ega. Mas., *shoshilib gapirmoq* birikmasida *-ib* ravishdosh shakli *shoshil* so'zining lug'aviy ma'nosiga ta'sir etgan, ya'ni unga ravishlik ma'nosiga yaqin ma'no bergan, shu bilan birga, bu so'zni keyingi so'zga bog'lash vazifasini ham bajargan.

Yordamchi so'z ham grammatik ma'no ifodalovchi vosita sirasida muhim o'rin tutadi. U mustaqil so'zlar va gapda grammatik ma'no ifodalashning alohida turini tashkil etadi.

Ko'makchi mustaqil so'z bilan birga kelib, oldin turgan so'zni keyingi so'z bilan sintaktik aloqaga kiritadi. Bu bilan kelishikka o'xshaydi. *Biz kelajakka ishonch bilan qaraymiz* gapida ko'makchi yordamida «holat» grammatik ma'nosi yuzaga chiqib, *ishonch* so'zi *qaraymiz* so'ziga bog'lanadi. *Telefon orqali gaplashdim* gapida ko'makchining «vosita» ma'nosi yuzaga chiqib, *telefon* so'zini *gaplashdim* so'ziga bog'lagan. *Do'stlik biz uchun hamisha ilhom va kuch-quvvat manbai bo'lib kelgan* gapida yordamchi so'z «atalganlik» ma'nosini ifodalab, *biz* so'zini *bo'lib kelgan* so'ziga bog'lagan. Ko'rinadiki, grammatik ma'no va grammatik vazifa birga yashaydi.

Bog'lovchi uyushiq bo'lakni, qo'shma gapning tarkibiy qismini bog'lash, ular orasida har xil tenglashtirish, zidlash, ayirish kabi grammatik ma'noni ifodalash uchun

xizmat qiladi: *olma va anor, o`qidi, lekin yozmadi* kabi. Ba`zan gap boshida ham keladi: *Sitora aytdi. Lekin Munira tushunmadi.*

Ko`makchining morfologik ma`no ifodalash imkoniyati uning sintaktik imkoniyatidan keng. Chunki ular mustaqil so`z va gapga qo`shimcha ma`no yuklashi bilan ahamiyatli. Shu sababli ko`makchi kelishik bilan qo`llanishga ehtiyoj sezadi.

Mustaqil so`z ham o`rni bilan yordamchi so`zdek grammatik ma`no ifodalaydi: *juda, eng, bag`oyat, nihoyatda, o`ta, sal, birmuncha* kabi ravish daraja ma`nosini ifodalaydi; *olmoq, bermoq, qolmoq, o`tirmoq, chiqmoq, ketmoq, boshlamoq, bo`lmoq* kabi 30 dan ortiq ko`makchi fe`l harakat ma`nosini nutqqa moslaydi, lug`aviy ma`noga grammatik ma`no qo`shadi: *o`qib chiqdi, yoza boshladi, qo`rqib ketdi* kabi.

So`z tartibi grammatik ma`no ifodalashning maxsus vositasi, tartib o`zgarishi so`z grammatik ma`nosining o`zgarishiga olib keladi. Mas., *Dalalar yam-yashil* birikuvi gap bo`lsa, *yam-yashil dala* birikuvi – so`z birikmasi. «gap» va «so`z birikmasi» – grammatik ma`no atamasi. Grammatik ma`no ifodalashda so`z tartibiga ohang hamrohlik qiladi. Ya`ni yuqoridagi gap va so`z birikmasida tartib o`zgarishi bilan ularning ohangi ham o`zgarib ketgan (so`z birikmasida tugallanmagan ohang bo`lsa, gapda tugallangan ohang mavjud).

O h a n g – grammatik ma`no ifodalashning fonetik vositasi. Bu vosita yordamida gapning turini, gap bo`lagini ajratish, farqlash mumkin. *Gulnora, singlim keldi. Gulnora, singlim, keldi. Gulnora singlim keldi* gapining birinchisida *Gulnora va singlim* so`zi uyushiq bo`lak vazifasida, ikkinchi gapda *Gulnora* so`zi undalma, *singlim* so`zi ega, uchinchi *Gulnora* so`zi aniqlovchi, *singlim* so`zi izohlanmish – ega vazifasida kelgan. Gapni tashkil etuvchidagi bunday farq so`zlovchining maqsadiga muvofiq tarzda ohang yordamida yuzaga chiqmoqda.

## GRAMMATIK SHAKL

Shakl yasovchi vositalar (shakl yasovchi qo`shimcha, shakl yasovchi so`z (yordamchi so`z, ko`makchi fe`l kabi)) nutqqa kiritish uchun so`zga yangi shakl berganligi sababli **grammatik shakl** deyiladi. Bu vositani olgan so`z ham leksemaning grammatik shakli, grammatik shakllangan ko`rinishi deb yuritiladi.

**Grammatik shaklning so`zga qo`shilish tartibi.** Grammatik vositaning so`z tarkibidagi tartibi ma`lum qonuniyatga ega, ular ma`lum tartibda joylashadi: so`z yasovchi qo`shimcha + lug`aviy qo`shimcha + sintaktik qo`shimcha. Grammatik vositaning joylashishidagi tartib va izchillik uning ma`no va grammatik xususiyati bilan bog`liq: yangi lug`aviy ma`no hosil qiluvchi (so`z yasovchi) vosita birinchi, lug`aviy ma`noga ta`sir qiluvchi vosita (lug`aviy shakl yasovchi) ikkinchi va lug`aviy ma`noga ta`sir qilmaydigan, lekin so`zni bog`laydigan, unga ma`lum bir sintaktik vazifa tayin etadigan) vosita uchinchi bo`lib qo`shiladi.

Qo`shimchaning joylashuvidagi me`yoriy holat ba`zan buziladi: *opa-lar-im – opa-m-lar, ayt-di-ng-lar – ayt-di-lar-ing* kabi. Bunda sintaktik shakl yasovchi lug`aviy shakl yasovchidan keyin qo`shilgan. Bu kam uchraydi. Ba`zan lug`aviy shakl yasovchi so`z yasovchidan oldin keladi: *ko`r+gaz+ma, isi+t+ma, maqta+n+choq.*

«O`zak+so`z yasovchi + lug`aviy shakl + sintaktik shakl» qolipi bir qancha xususiyatga ega. Biz quyida faqat shakl hosil qiluvchi doirasida fikr yuritamiz.

Lug`aviy shakl hosil qiluvchining odatdagi tartibi:

a) otda: kichraytirish-erkalash+son. Kichraytirish-erkalash shaklining kam qo'llanadigan ko'p qo'llanadiganidan avval keladi: *toychoqcha, toyloqcha*;

b) sifatda -*roq* qo'shimchasi -*ish*, -*imtir* qo'shimchasidan, shuningdek, ravishdosh va sifatdoshga qo'shilganda ham ularni hosil qiluvchi qo'shimchadan keyin qo'shiladi: *oqishroq, ko'kimtirroq, sovinqiraganroq, tortinibroq* kabi;

v) sonda: taxmin bildiradigan -*cha* affiksi «*dona*» ma'nosini ifodalovchi -*ta* (urg`usiz) unsuridan keyin keladi: *o`ntacha* kabi;

g) olmoshda: gumon bildiruvchi -*dir* (urg`usiz) unsuri, umuman, yuklama tabiatida, hamma turdagi qo'shimchadan keyin qo'shiladi: *nima-lar-ni-dir...*;

d) fe'lda: o'zlikdan boshqa nisbat ko'rsatkichi orttirma nisbat qo'shimchasidan keyin qo'shiladi: *tarqa-til-di, yugur-tir-ish-di, tik-tir-ish-di*; fe'lning tarz qo'shimchasi va kuchaytiruvchisi (*chayqa, bura, to'zg'i*); bo'lishsizlik qo'shimchasi (*urintirma, chayqatma*); zamon qo'shimchasi; shart mayli qo'shimchasi va buyruq maylining kuchaytiruvchisi (*bordi, boradi, borsa, boray, borgin/borgil*), fe'lning xoslangan shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha (*bormoq, borgan, borib* va boshqa) oxirida qo'shiladi.

Sintaktik shaklning tartibi:

a) egalik qo'shimchasi+kelishik qo'shimchasi: *bolamni, o`qiganimni*;

b) munosabat shakli: tasdiq-inkor+zamon/mayl+shaxs+son: *o`qimayapsan*.

Hamma turdagi qo'shimchadan keyin qo'shimcha tipidagi yuklama qo'shiladi: *o`qimayapsanmi*. Qo'shimcha qo'shilishida istisno holat ham bor. Til hodisasining davrga ko'ra o'zgarishi, shevaviy farqi va o'zgarish xususiyati, badiiy talab bilan bog'liq bo'ladi. Misol: *Bilurlar erdi* (Qutb) – *bilar edilar, qilmag`aylarsiz* («Boburnoma») – *qilmag`aysizlar, solurlar erdi quloq – quloq solur erdilar*.

Bunday tartib o'zgarishi o'zida nozik ma'noviy farqni aks ettiradi.

**Grammatik shaklning tuzilishiga ko'ra turi.** Grammatik vositaning tuzilishiga ko'ra turi bir qarashda uning sintetik va analitik turlarining yangicha nomlanishiga o'xshaydi. Grammatik shakl tuzilishiga ko'ra sodda yoki murakkab bo'lishi mumkin. **Sodda shakl** bir grammatik ko'rsatkichdan iborat bo'ladi: *kelishik, egalik, kichraytirish, nisbat shakli*. **Murakkab shakl** bir necha ko'rsatkichdan iborat bo'ladi: *uydagi, aytib qo'ydi, shuning uchun*. O'zbek tilida „hurmat“ ma'nosi ko'plik qo'shimchasi egalik shakli bilan birga bo'lganda ifodalanadi. **Dadamlar keldilar**. Bunda u murakkab shakl hisoblanadi. Ko'makchilarning kelishiklar bilan kelishi ham murakkab shakl hisoblanishi lozim.

**Grammatik shakllarda ortiqlik va tejam.** Bir so'zda ma'nosi bir xil yoki yaqin bo'lgan qo'shimchaning takrorlanishi **qo'shimcha ortiqchaligi** deyiladi. Bu bir necha ko'rinishga ega. Mas., bir qo'shimchaning aynan o'zi yoki ma'nodosh qo'shimcha takrorlanadi: takrorlangan bu qo'shimcha: a) zich holda (*ayting+iz+lar*) ham; b) ajralgan holda ham bo'lishi (*ish+da+lig+im+da*) mumkin.

Qo'shimcha ortiqligi har xil sababga ko'ra yuzaga kelishi mumkin. Bir qo'shimcha o'zak bilan juda ham zichlashib, o'zakning tarkibiga singib ketadi, bunda o'zak mustaqilligidan mahrum bo'ladi, natijada so'zga shu qo'shimchaning ma'nodoshidan biri qo'shilishi mumkin, qo'shimcha arxaiklashib, undan keyin tildagi iste'molda bo'lgan qo'shimcha qo'shiladi (*ich+kari+ga, tash+qari+ga, na+ri+ga, be+ri+ga*,

*bar+i+si* kabi). Takrorlanayotgan sinonim qo`shimchaning barchasi «tirik» bo`lsa, ular ta`kid, kuchaytirish kabi uslubiy vazifani o`z zimmasiga oladi (*sizlar aytingizlar* kabi). Boshqa tildan kirgan qo`shimcha tushunarli va keng iste`molli bo`lmaganda ham uning tilimizdagi ma`nodoshi qo`llanadi (*yor+on+lar* kabi). Qo`shimcha qo`shilishi natijasidagi tovush o`zgarishi ham ma`nodosh qo`shimchaning qo`shilishiga sabab bo`ladi: *yarm+i+si*, *kich+kina+gina*, *u+n+i+si*, *anavi+n+i+si*, *qay+si+n+i+si*, *singl+i+si*, *toy+choq+cha* kabi.

Ortiqchalik aksar holda til rivoji bilan bog`liq. Masalan:

Ot va sifat yasovchi *-lik* qo`shimchasi farqlanib, vazifasi ajralgandan keyin (mas., *-li* sifat yasaydi, *-lik* ot yasaydigan bo`lgan) ular ketma-ket qo`llanadigan bo`lgan: *aqllilik*, *ifodalilik*, *bilimlilik*.

Og`zaki so`zlashuv nutqida ba`zan uchrab qoladigan *mashshoqchi*, *xodimchi* kabi so`zda «bajaruvchi» ma`nosi ikki marta ifodalangan: so`z ma`nosi (arab tilida *mashshoq* – mashq qiluvchi shaxs, *xodim* – xizmat qiladigan shaxs) va *-chi* qo`shimchasi orqali.

Bir xil ma`nodagi ikki qo`shimcha qo`shma qo`shimcha maqomini oladi: *yog`ingarchilik*, *namgarchilik*, *rasvogarchilik* kabi.

Kelishik va egalik qo`shimchasining ikki marta ifodalanishi (*kitobni uch so`mdanga oldi*, *romanning so`zboshisi*) ham ortiqchalikning o`ziga xos ko`rinishi.

Bir qo`shimchaning o`zi takrorlanganda, ko`pincha u fonetik variantning qator kelishi tusida bo`ladi (fonetik, uslubiy qulaylik): *qistalang* (-ta, -la), *shoshilinch* (-l, -n), *tiqilinch* (-l, -n) kabi.

**T e j a m** – ortiqchalikning ziddi. Tildagi tejam til birligini qisqartirish, tushirib qoldirish orqali ketadigan vaqtni kamaytirish, tildagi ortiqchalikni bartaraf etish ehtiyojidan kelib chiqadi. *Opkeng* (olib keling), *buyam* (bu ham), *qong* (qoling) kabi hodisa bunga misol bo`ladi. Tejamning fonetik, morfologik ko`rinishi mavjud. Morfologik tejam asosida fonetik tejam yotadi. *Yirik* – *irik*, *yigit* – *igit*, *yiroq* – *iroq* qisqaruvi fonetik tejamga misol. *Olib ber* – *ober*, *bizim* – *bizning*, *sizing* – *sizning* – morfologik qisqaruvga misol. Bu tejalish nutqiy qisqaruvga ham misol. Chunki, mas., *sizing* so`zshaklidagi *-ing* tilda *-ning* shaklida yashaydi.

Tejam nutqiy aloqani osonlashtirishga xizmat qiladi, biroq axborot sifatiga salbiy ta`sir ko`rsatmaydi.

## GRAMMATIKA

Grammatika – yunoncha, *g r a m m a t i k e* so`zidan olingan, “*h a r f o`q i s h v a y o z i s h s a n`a t i*” demakdir. Grammatika ko`plab tilshunoslik atamasi kabi ikki ma`noli. Bir ma`nosida tilning grammatik qurilishi tushunilsa, ikkinchi ma`nosida tilshunoslikning shu grammatik qurilishni o`rganuvchi sohasi anglashiladi. Grammatika tilshunoslik sohasi sifatida **so`z turkumi**, **grammatik ma`no**, **shakl yasovchi qo`shimcha**, **so`z birikmasi** va **gap** kabi masalani o`rganadi.

Tillar o`zaro grammatik xususiyatiga ko`ra farqlanadi. Mas., o`zbek tilida kesim gap markazi sifatida boshqa barcha bo`lakni o`z atrofida uyushtiradi. Rus tilida ega va kesim birga gap markazi hisoblanadi. O`zbek tilida ega birinchi va ikkinchi shaxsda tushirib qoldiriladi. Rus, ingliz, nemis va boshqa ayrim tilda bunday emas. O`zbek tilida

sifatlovchi sifatlanmishdan oldin keladi: *qizil gul, maktab bog'i* kabi. Tojik tilida buning aksi bo'ladi: *guli surx, bog'i maktab* kabi.

Til hamisha taraqqiyotda. Bu, asosan, tilning leksikasida ko'proq ko'zga tashlanadi. Ijtimoiy hayotning o'zgarishi leksikada katta o'zgarish yasaydi. Yangi so'zning vujudga kelishi, so'zning «tirilishi», iste'moldan chiqib ketishi kabilar bunga misol. Tilning fonetik va grammatik sohasiga ijtimoiy o'zgarish ta'sir qilmaydi, unda faqat vaqt o'z izini qoldiradi. Chunki yaqin yillarda tubdan o'zgarishga uchragan ijtimoiy hayotning ta'siri natijasida, mas., o'zbek tilining morfologik xususiyati, sintaktik qurilishida o'zgarish kuzatilmaganligi buning yorqin dalili. Lekin asrlar davomida bunday o'zgarish bo'lib turadi. Mas., eski o'zbek tilida *-gu* affiksi yordami bilan yasalgan ish otiga *-m, -ng* qo'shimchasi qo'shilib, uning kesim ekanligini ko'rsatgan: *Men ko'rgum* shaklida. Bu hozirgi o'zbek tilida kuzatilmaydi. *Ul, alar, andin, anda, ko'zun ko'rub* (ko'zi bilan ko'rib) kabi qator so'z – fikrimiz dalili. Yoki eski o'zbek tilida *Bu sening, Bu mening* ko'rinishidagi sintaktik qurilma mavjud bo'lgan. U hozirgi kunda *Bu seniki, Bu meniki* ko'rinishiga ega.

Grammatika deganda tor ma'noda **morfologiya** va **sintaksis** birligi, keng ma'noda til qurilishi tushuniladi. Morfologiyada so'zning grammatik shakllanishi, buni hosil qiluvchi shakl yasovchi qo'shimcha va yordamchi so'z, ko'makchi fe'l, to'liqsiz fe'l, so'z turkumlari o'rganilsa, sintaksisda so'z birikmasi va gap qurilishi tekshiriladi. Demak, *grammatika* tor ma'noda – shakl yasalishi (morfologiya) va erkin bog'lanish haqidagi (sintaksis) bo'lim.



## HARF

Harf – yozma nutqni shakllantiruvchi, boshqa bo'lakka bo'linmaydigan eng kichik grafik belgi. Harf nutq tovushining yozuvdagi aksi, tasviri. Shuning uchun har bir tilda harf shu tilning tovushiga qarab olinadi. Bir tovushga bir harfni to'g'ri keltirishga harakat qilinadi. (q. **Yozuv**).

## “HIBATU-L- HAQOYIQ”

Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub «Hibatu-l-haqoyiq» – (“Haqiqatlar armug'oni”) kitobi uch nusxada yetib kelgan, bir-biridan kam farq qiladi. Ulardan eng qadimiysi Samarqandda Zaynul Obidin degan xattot tomonidan uyg'ur yozuvida ko'chirilgan, 1444- yilda Turkiyaga borib qolgan. 1480- yilda Markaziy Osiyodan Abdurazzoq baxshi Turkiyaga borib, ushbu kitobdan arab va uyg'ur yozuvida ikki nusxa ko'chirgan. Uchala nusxa ham Istanbulda saqlanadi. So'ngroq yana ikki nusxa topilib, hozirda kitob qo'lyozmasining 5 nusxasi mavjud.

Zaynul Obidin nusxasida kitobning nomi “A t e b a t u - l - h a q o i q ” (“Haqiqatlar eshigi”) deb berilgan va Turkiyada shunday nom bilan mashhur. Undan ko`chirilgan nusxaning biri “A y b a t u - l - h a q o i q ”, ikkinchisi “H i b a t u - l - h a q o i q ” deb nomlangan. Bizda shu nom bilan mashhur. Uni o`rganishda olimlarimizdan Qayum Karimov, Qozoqboy Mahmudovning hizmati katta.

Mutaxassislar asarning yaratilish tarixini XII asrning oxiri deb belgilaydi. Kitob muallif zamondoshi D o d S p o h s o l o r b e k k a bag`ishlangan (*spohsolor* “bosh qo`mondon” ma`nosini beradi).

“Hibatu-l-haqoyiq” bor yo`g`i 256 baytni tashkil qiladi. U boshidan oxirigacha ta`rif tavsifdan iborat. Salmoqli o`rinni odob-axloq masalasi egallaydi, maxsus bir bobi esa dunyo va umr haqidagi falsafiy kuzatishlarga bag`ishlangan. U dunyoni karvonsaroy (robot), insonni yo`lovchi deb biladi.

“Hibatu-l-haqoyiq” asosan aruzning m u t o q o r i b bahrida to`rtliklar ko`rinishida yozilgan. O`rni bilan masnaviyga ham murojaat qilingan.

## HIJO

Hijo arabcha “bo`g`in” demakdir. Lekin bo`g`in hijo tushunchasiga har doim ham to`g`ri kelmaydi. She`rdagi so`zning bir nafas zarbi bilan talaffuz etiladigan qismi, ya`ni she`r o`lchovidagi dastlabgi ritmik birlik – hijo. Hijo ba`zan bo`g`indan farqli o`laroq undosh tovushning o`zidan ham tuzilishi mumkin.

*Vasl bog`i ichra sendek shohi zolim ko`rmadim,*

*Ishq kuyida o`zimdek notavone topmadim* (Navoiy)

baytidagi *vasl, ishq* so`zidagi *l* va *q* undoshi mustaqil hijoni tashkil etadi. (q. **Bo`g`in**).

## HIND-YEVROPA TILLARI OILASI

Bu oilaga slavyan guruhi (belorus, rus, ukrain, slovak, chex, polyak, makedon, serb, xorvat, sloven tili), german guruhi (ingliz, nemis, shved, norveg, dat, island, golland tili), roman guruhi (fransuz, ispan, portugal, italyan, rumin, moldavan tili) boltiq guruhi (litva, latish, latgal tili), eron guruhi (fors, afg`on, osetin, kurd, tojik tili), hind guruhi (hind, urdu, bengal, panjob, gujarat tili) kiradi.

## HISOB SO`ZI

Son boshqa so`zdan farqli ravishda maxsus hisob so`zi bilan qo`llanadi. Hisob so`zi manbalarda s a n o q s o`z, n u m e r a t i v degan atama bilan ham yuritiladi. Hisob so`zi asli ot turkumiga mansub, miqdorni emas, sanalayotgan narsaning qaysi guruhga mansub ekanligini bildiradi: *hovuch, dona, nusxa, bog`, siqim*. Gapda son hisob so`zi bilan bitta gap bo`lagi bo`lib keladi.

H i s o b s o`z i n i n g q o`l l a n i s h d a v r i g a k o`r a t u r i:

1) eskirgan hisob so`zi: *gaz* (bir gaz chit), *jon, vaqt* (besh vaqt namoz), *mahal* (uch mahal ovqat), *paysa, pud* (o`n pud bug`doy), *sarjin, so`lkavoy, tanob, tosh* (to`rt tosh yo`l), *enlik* (ikki enlik xat), *yumaloq* (uch yumaloq choy), *qadoq*;

2) zamonaviy hisob soʻzi: *gradus, kilovatt-soat, kubometr, metr* (santimetr, millimetr), *mehnat kuni, minut, par, sotix, sentner*;

3) yangi hisob soʻzi: *bayt, megabayt, gegabayt, dyum*.

Hisob soʻzining qanday hisoblashiga koʻra turi:

1) yakkalab hisoblash uchun: *bosh, dona, nafar, nusxa, tup*;

2) juftlab hisoblash uchun: *juft, par(a)*;

3) toʻdalab hisoblash uchun: *bogʻ/bogʻlam, gala, guruh, dasta, toʻda, toʻp, shoda, quchoq, hovuch*;

4) boʻlaklab hisoblash uchun: *burda, varaq* (bet, sahifa), *luqma, ogʻiz* (bir ogʻiz gap), *parcha, poy, siqim, tilim* (karch), *tomchi* (qatra), *toʻgʻram, chaqmoq, chimdim, shingil, qultum*;

Hisobsoʻzining nimani hisoblashiga koʻra turi:

1) ogʻirlik: *gramm, kilogramm, litr, pud, tonna, sentner, misqol, qadoq, botmon* (aniq oʻlchovni bildiradi); *kosa, piyola, choynak, qop* (xalta), *qoshiq, quti* (taxminiy oʻlchovni bildiradi);

2) uzunlik: *qadam, qarich, quloq*;

3) yosh: *yashar, yoshdagi, yoshli*;

4) vaqt: *asr, yil, kun, kecha-kunduz, oy, hafta, daqiqa, soat, soniya*;

5) qiymat: *soʻm, tiyin, miri, paqir, dinor, yevro, dollar*;

6) ish-harakat: *marta/martaba/marotaba, karra, qatla, sidra* (bular tartib son bilan ham qoʻllanadi: *bir marta – birinchi marta* kabi).

## HOJIYEV AZIM

Azim Hojiyev – filologiya fanlari doktori, professor, OʻzFA akademigi. 1933 yilda Toshkent viloyatida tavallud topgan. Olim oʻzbek tili morfologiyasi, soʻz yasalihi, leksikologiyasi va leksikografiyasi, orfografiyasi boʻyicha qator asarlar yaratib, tilshunosligimiz rivojiga munosib hissa qoʻshdi. Ular orasida «Oʻzbek tilida koʻmakchi feʼllar» (1966), «Toʻliqsiz feʼl» (1970), «Feʼl» (1973), «Hozirgi oʻzbek tilida forma yasalihi» (1979), «Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati» (1980), «Oʻzbek lingvistik terminlarining izohli lugʻati» (1984), «Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati» (2002) kabi asarlari alohida qimmatga ega.

A.Hojiyev oliy va oʻrta maktablarda ona tilini, hozirgi oʻzbek tilining nazariy muammolarini oʻqitishni takomillashtirish boʻyicha ham barakali faoliyat olib bormoqda. Uning tashabbusi va bevosita ishtirokida oliy oʻquv yurti filologiya fakultetlari talabalari uchun «Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – I qism» (1980) darsligi, oʻrta maktablarning V–IX sinflari uchun «Ona tili» dasturi (1992) va darsligi (1992-94) yaratilib, amaliyotda keng qoʻllanildi.

## HOZIRGI OʻZBEK ADABIY TILI

Hozirgi oʻzbek adabiy tili XX asr boshidan hozirgacha boʻlgan davrni oʻz ichiga oladi. Bu davrda Fitrat, Choʻlpon, A.Qodiriy, A.Qahhor, Gʻafur Gʻulom, H.Olimjon va boshqa adiblar asarlar yaratdi. Bu til XX asrdan boshlab shakllandi. Hozirgi oʻzbek

adabiy tili mustaqil o'zbek millatining milliy adabiy tili. Ma'lumki, til ijtimoiy hodisa bo'lganligi sababli undagi o'zgarishlar ijtimoiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq. Shu ma'noda o'zbek tilining XX asrdagi taraqqiyoti juda katta tarixiy evrilishlar jarayonida yuz berdi. XX asrning boshlarida gazeta, jurnallarning tili panturkizm g'oyalari ta'siriga haddan tashqari berilish natijasida juda chalkash bir ahvolda edi. Ularda iste'moldagi arab, fors so'zlari turk, ozarbayjon, qadimiy turkiy so'zlar bilan almashtirilgan va baribir, omma tilidan uzoqlashgan edi. Ba'zi bir oqimlar tilni tozalash bayrog'ini baland ko'tarib, jonli tildan ancha yiroq bo'lgan eski o'zbek tili («chig'atoy tili») ni adabiy til sifatida qabul qilish fikrida bo'ldilar. Abdurauf Fitrat turk (o'zbek) tilining ayanchli ahvoli haqida «dunyoning eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz yana shul turkchadir» degan xulosaga kelgan edi. U buning sabablari xususida to'xtalib: «Turklarning baxtsizligi arab bosqini bilan bog'lanmishdir. Dunyoning eng boy tili bo'lg'on turkchamiz yolg'uz arabcha yumruqlar bilan emas, forsiycha tepkilar bilan dag'i ezilmishdir» - deydi kuyunib. Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan so'ng bu yerdagi millatlar ustida ham ulug'davlatchilik va ulug'millatchilik mafkurasi o'rnatila boshladi. Kuchli mafkuraviy tazyiqlar natijasida hukmron tilga nisbatan ijobiy munosabat ham paydo bo'la boshladi. Jonli nutqda, hatto she'riy asarlarda ham ruscha so'zlarni ishlatish hollari kuzatila boshladi. Buni Muqimiy, Zavqiy she'rlaridagi *durak*, *chert*, *vot*, *poshyol* so'zlari isbotlaydi. 1917- yilgi Oktyabr to'ntarishidan so'ng nafaqat ruscha, balki sovetizm deb ataluvchi so'zlar ham tilimizda hisobsiz darajada ko'payib bordi. U mavjud so'zlarimizni ham siqib chiqara boshladi. Mas., *pioner* (*kashshof*), *propaganda* (*targ'ibot*), *agitatsiya* (*tashviqot*), *yedinitsa* (*birlik*), *grajdan* (*fuqaro*), *problema* (*muammo*), *poeziya* (*she'riyat*) kabi. Rus tili hukmronligi kuchayishi natijasida boshqa milliy tillar kabi o'zbek tili ham o'zbek millatiga mansub kishilarning o'zaro suhbat tiliga aylanib, rasmiy doiralardan siqib chiqarila boshladi. Rus tilida gaplashishlariga qarab kishilarni «madaniyatli» va qoloq kishilarga ajratish urf bo'ldi. Yig'inlar rus tilida olib borilar, barcha rasmiy hujjatlar va ish qog'ozlari rus tilida yuritilar edi. Oliy o'quv yurtlardagi asosiy mashg'ulotlar rus tilida o'tilar edi. Umuman olganda, o'tgan asrning 80- yillariga kelib, O'zbekistonda ham rus tili mutlaq hukmronlikni qo'lga oldi va o'zbek tilining vazifa doirasi keskin toraydi. Mamlakatdagi bu kabi boshqa ijtimoiy jarayonlar kuchayishi sobiq Sho'ro hududida milliy istiqlool harakatiga turtki bo'ldi. Milliy respublikalar milliy mustaqillik, milliy tillarga davlat tili maqomini berish talablari bilan chiqdilar. Bu jarayon O'zbekistonda ham kuchli portlashlar asosida vujudga keldi. Natijada 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi unga tom ma'noda mustaqillik baxsh etdi. U tobelik kishanlaridan butkul xalos bo'lib, mustaqil rivojlana boshladi. 1991-yilda O'zbekistonning alohida davlat sifatida istiqloolga erishuvi o'zbek tili davlat tili maqomining abadiyligini kafolatladi.



## IDEOGRAFIK YOZUV

Ideografik yozuv – (yunoncha *idea* – tushuncha), shuningdek, *logografik* yoki *ieroglifik* deb ham ataladi. Qadimgi yahudiy, shumer, xitoy, astek va mayya qabilalarining yozuvi ideografik yozuv namunasi.

Ideogrammalar, asosan, muayyan tushunchani ifodalovchi rasm (piktogramma)lar asosida shakllandi. Chunonchi, yahudiy va shumer mix xatlarida *tog`* tushunchasi – orasidan vodiy va jarlik o`tuvchi ikki tog` tasviri orqali, *suv* – to`lqinlarni eslatuvchi to`lqinsimon chiziq bilan bildirilardi. *Quyosh* tushunchasi shumer yozuvida xitoy ideogrammasi kabi ichida nuqtali doira (O) shaklida ifodalangan. Ideogrammaning piktogrammadan kelib chiqqanligini qadimgi xitoy yozuvi yaqqol ko`rsatib turadi. Eng qadimgi logografik yozuv tizimlari (misr ieroglifikasi, xitoy ieroglifikasi, shumer va boshqalar.) mil. av. 4- ming yillikning oxiridan 2- ming yilliklarning boshlarigacha bo`lgan davrda shakllangan. Hozirgi kunga qadar eng turg`un va keng tarqalgan ideografik yozuv xitoy yozuvi, bunga Xitoy tarixi va xitoycha so`zning bir bo`g`inlilik tabiati asosiy omil bo`lib xizmat qilgan. XV asrdayoq In` qabilalari rivojlangan yozuv tizimiga ega edi. Biroq, davlat bo`lib birlashish va ierogliflarning sistematzatsiyasi (tizimga solinishi) Xitoyning Sin va asosan Xan sulolalari davrida siyosiy markazlashuvi davomida sodir bo`ldi. Syuy Shen I–II asrlarda “Shoven szeszi” (“Elementlar va murakkab belgilar haqida”) degan xitoycha ieroglif jadvalini yaratdi: bunda 10,5 ming ieroglif ko`rsatilgan.

## IKKINCHI DARAJALI BO`LAK

Ikkinchi darajali bo`lak – gapning bosh bo`lagiga tobe, uni to`ldirib, aniqlab, izohlab keladigan gap bo`laklari. Ikkinchi darajali bo`lak 3 ta: *hol*, *to`ldiruvchi*, *aniqlovchi*.

**Hol.** Ko`pincha fe`l-kesimga bog`lanib, uning belgisini bildirgan bo`lak hol deyiladi: *Minbarga notiqlar **birin-ketin** chiqa boshladilar.* Hol ba`zan fe`ldan boshqa turkumga ham bog`lanadi: ***Ko`chada** odam ko`p.* Holning ma`no turi: 1) *vaziyat* (*ravish*, *tarz*) *holi qanday, qay holda, qay tarzda* kabi so`roqqa javob bo`ladi va har doim fe`lga bog`lanadi. Vaziyat hol *ravish*, *ravishdosh*, *ot*, *sifat*, *olmosh*, *taqlid*, *ibora* bilan ifodalanadi: 1. *U **diqqat bilan** tingladi.* 2. *Ukam **chiroyli** yozadi.* 3. *U **shoshmasdan** jo`nadi.* 4. *Rais bilan ikkisi **do`stlarcha** xayrlashdi.* 5. *U **qorovul bo`lib** ishlaydi.* 6. *Daraxt barglari **duv** to`kildi.* 7. *Buni **qanday** bajarasiz?* 8. ***Boshini** eggan **holda** kelardi.* Ravishdosh bilan ifodalangan vaziyat hol o`ziga tobe bo`lgan bo`lak bilan so`z birikmasini hosil qilishi mumkin: *Eshikni **sekin ochib**, ichkariga qaradi.* Bu yoyiq vaziyat hol deyiladi. 2) *o`rin* hol *qayerga, qayerda, qayoqqa, qayerdan* kabi so`roqqa javob bo`ladi va ko`pincha *o`rin ravishi*, *ot*, *olmosh* bilan ifodalanadi: 1. *Bolalar **ko`chaga** chiqib ketishdi.* 2. *U **orqadan** qochdi.* 3. ***Bunda** bulbul kitob o`qiydi.* 3) *payt* hol *qachon, qachongacha, qachondan beri, qay vaqt* kabi so`roqqa javob bo`ladi va ko`pincha *ot*, *payt ravishi*, *olmosh*, *payt ravishdoshi*, *sifatdosh*, *harakat nomi*, *son*, *sifat* bilan ifodalanadi: 1. *Imtihonlar **yozda** bo`ladi.* 2. ***Bugun** maktabim yonidan o`tdim.* 3. ***Shunda** men bir sapchib tushganman.* 4. *Nafasimni **rostlagach**, tikilibroq qaradim.* 5. *Buni **o`qiyotganimda** sezib qoldim.* 6. ***Qaytishda** siznikiga kirib o`tamiz.* 7. ***Qo`lim bo`shida** o`qiyman.* 8. *Yig`ilish **uchda** bo`ladi.* 4) *miqdor* hol *qancha*,

*qanchalab, nechalab, necha marta* kabi soʻroqqa javob boʻladi va koʻpincha miqdor-daraja ravishi, son, sifat va miqdor-daraja maʼnosini bildirgan soʻz birikmasi bilan ifodalanadi: 1. *Men juda koʻp qaygʻurdim.* 2. *Oʻn marta eshitgandan bir marta koʻrgan afzal.* 3. *Bir onda oʻz kuchining oʻlchovsiz darajada oʻsganini sezdi.* 4. *Siz qancha terdingiz?* 5. *Bular qop-qop terib qoʻyishdi.* 6. *Men oʻylagan darajada qilisharmikan?* 5) *sabab holi nima sababdan, nima sababli, nima uchun, nimaga, nega* kabi soʻroqqa javob boʻladi va quyidagicha ifodalanadi: a) *sabab ravishi: Otasi noiloj koʻndi;* b) *-lik, -siz+lik, -gan+lik* qoʻshimchali chiqish kelishigidagi ot, sifat-doshdan keyin *-dan* qoʻshimchasini keltirish bilan: *Salima opa quvonganidan hech gapira olmas edi;* d) *-gani, -ganligi* qoʻshimchali soʻzdan keyin *tufayli, uchun* soʻzidan birini keltirish bilan: *U oʻqimagani uchun bilmadi.* 6) *maqsad holi nima maqsadda, nima uchun, nima qilgani, nima qilgali, nega* soʻrogʻiga javob boʻlib, quyidagicha ifodalanadi: a) *maqsad ravishi: Men atayin gapirmadim;* b) *joʻnalish kelishigidagi harakat nomi yoki harakat nomidan keyin uchun* koʻmakchisini keltirish bilan: *U oʻqish uchun keldi;* d) *maqsad ravishdoshi: U oʻqigani keldi;* e) *feʼldan soʻng uchun, deb* soʻzini keltirish bilan: *Oʻqiyman deb keldi;* f) *harakat nomidan keyin maqsadida, maqsadda, maqsadi bilan* soʻzini keltirish yordamida: *Gulnor opa bafurja gaplashish maqsadida keldi;* 7) *shart holi nima qilsa (m, -ng, -k, -ngiz)* soʻrogʻiga javob boʻladi va bir harakatning bajarilishi uchun shart boʻlgan boshqa ish-harakatni bildiradi: *Eksang, oʻrasan;* 8) *toʻsiqsizlik holi nima qilsa (-m, -ng, -k, -ngiz) ham/-da?* soʻrogʻiga javob boʻlib, bir ish-harakatning bajarilishi uchun toʻsiq boʻla olmaydigan ish-harakatni bildiradi va shart feʼli+ham (-da), ravishdosh/sifatdosh+*bilan* koʻmakchisi, *qaramay, qaramasdan* soʻzi qatnashgan qurilma orqali ifodalanadi: *Chaqirilmasa ham, qatnashdi. Kichik boʻlgani bilan ancha ogʻir edi. Shoshganiga qaramay kutib turdi.* Ayrim darslikda qurol-vosita holi ajratiladi. Bu hol *nima bilan, qanday usul bilan* degan soʻroqqa javob boʻladi: *Xat qalamda (qalam bilan) yozilgan edi.*

**Toʻldiruvchi.** Kelishik va koʻmakchi bilan shakllangan, *kim?* yoki *nima?* soʻrogʻiga (*kim/nima+ni/ga/da/dan/uchun/orqali/sababli* va hokazo) javob boʻluvchi va gapda feʼl bilan ifodalanuvchi boʻlakka boshqaruv yoʻli bilan bogʻlanadigan ikkinchi darajali boʻlak toʻldiruvchi deyiladi: 1. *Men bu gapni ukamdan eshitdim.* 2. *Seni eslayman.* Demak, toʻldiruvchi: 1) predmetni (*kimni, nimani, kimga, nimaga* va hokazo. soʻroqni oladi) ifodalaydi; 2) kelishik va koʻmakchi bilan shakllanadi; 3) feʼl bilan ifodalangan boʻlakka (koʻpincha kesimga) bogʻlanadi; 4) bosh soʻzga boshqaruv yoʻli bilan bogʻlanadi: Toʻldiruvchining ikki turi bor: a) *vositali toʻldiruvchi;* b) *vositasiz toʻldiruvchi.* **Vositasiz toʻldiruvchi** oʻtimli feʼl bilan ifodalangan boʻlakka tobelanib, belgisi yoki belgisiz tushum kelishigi qoʻshimchasi bilan shakllanadi: 1. *Yosh havaskorlar ashulani zavq bilan aytdilar.* 2. *Boʻlinganni boʻri yer.* 3. *Oʻziga birovning oz-moz til tegizishini koʻtarmasdi.* 4. *Oʻquvchilar hozir kitob oʻqishyapti.* **Vositali toʻldiruvchi** oʻtimli yoki oʻtimsiz feʼl bilan ifodalangan boʻlakka tobelanib, joʻnalish, oʻrin-payt va chiqish kelishigi shakli yoki koʻmakchi bilan shakllanadi: 1. *Ravshan sen bilan boradi* 2. *Yaxshiga yondash, yomondan qoch.* 3. *Ogʻzi boʻshga ishonib boʻlmaydi.* 4. *Paxta mashina bilan terildi.* Joʻnalish, oʻrin-payt va chiqish kelishigidagi soʻz doimo toʻldiruvchi boʻlib kelavermaydi, ular hol vazifasini ham bajaradi, bunda ham ular savolga qarab farqlanadi: *U yolgʻondan hayron boʻldi*

(qanday? – hol). *U akasidan eshitdi* (kimdan? – to'ldiruvchi). *U maktabga bordi* (qayerga? – hol). *Menga gapirdi* (kimga? – to'ldiruvchi). Umuman olganda, to'ldiruvchi va hol shaklan ko'pincha o'xshaydi. Lekin asosiy farqi shundaki, to'ldiruvchi predmetni ifodalab, uning so'rog'iga javob bo'ladi, hol esa bunday xususiyatga ega emas.

**Aniqlovchi.** Gapdagi biror bo'lakning belgisini yoki bir narsa-buyumning boshqasiga qarashli ekanligini bildirgan bo'lak aniqlovchi deyiladi. Aniqlovchi gapda har doim otga yoki otlashgan har qanday bo'lakka bog'lanadi: 1. *Mayda qor yog'yapti.* 2. *Qovunning og'iri, tarvuzning yengili shirin bo'ladi.* 3. *Oppoq mashina keng ko'chada navbatdagi chorrahani kesib o'tmoqda edi.* 4. *Toshkent juda chiroyli shahar.* Aniqlovchi uch xil: 1) sifatlovchi-aniqlovchi; 2) qaratuvchi-aniqlovchi; 3) izlohlovchi. **Sifatlovchi-aniqlovchi** predmetning belgisini, miqdorini, tartibini bildiradi va qanday? qanaqa? qaysi? qancha? nechanchi? necha? qayerdagi? kabi so'roqqa javob bo'ladi. Sifatlovchi-aniqlovchi tomonidan aniqlangan bo'lak **sifatlanmish** deb yuritiladi. Sifatlovchi va sifatlanmish bitishuv yo'li bilan bog'lanadi: *Notanish kishi unga qaradi.* Sifatlovchi-aniqlovchining ifodalanishi: 1) sifat, son, olmosh, sifatdosh, ravish, taqlid: 1. *Biz serjun va sergo'sht qo'ylarni ko'paytiryapmiz.* 2. *O'ninchi yillarning sargardonligi.* 3. *Taqir-tuqur ovozdan uyg'onib ketdim.* 4. *O'qigan kishi o'zar.* 5. *Ko'p odamning duosi ko'l.* 2) ot: *Asfalt yo'ldan mashinalar g'iz-g'iz o'tib turibdi.* Bunday aniqlovchilar ba'zan majoziy (ko'chma) ma'noni ifodalashi mumkin: *Kumush choyshab yopib dalalar...* 3) ibora: *Unda og'zining tanobi qochadigan odat bor.* *U qo'y og'zidan cho'p olmagan bola.* 4) so'z birikmasi bilan: 1. *U birinchi kungi ishni yakunladi.* 2. *Ukamning uyidagi mollarni ham olib ketishibdi.* 2. *Menga tegishli bo'lakni qoldiring.* 3. *Ertaga bo'ladigan majlis qoldirildi.* Ba'zan sifatlovchi-aniqlovchi kengaygan ravishdoshli, sifatdoshli, harakat nomli birikma bilan ifodalanib, yoyiq holda kelishi mumkin: *Misdek qizarib turgan yuzini ikki kafti orasiga olib, peshonasiga yuzini bosdi.* **Qaratqich-aniqlovchi.** Qaratqich-aniqlovchi biror narsa tegishli, qarashli bo'lgan shaxs yoki predmetni bildiradi va belgili hamda belgisiz qaratqich kelishigidagi so'z bilan ifodalanadi. Qaratqich-aniqlovchi tomonidan aniqlangan bo'lak **qaralmish** deyiladi. Qaratqich va qaralmish moslashuv orqali birikib, shaxs va sonda, albatta, moslashgan bo'ladi: *Odamning qo'li gul.* Qaratqich-aniqlovchining ifodalanishi: 1) ot, olmosh: *Gulnor yigitning so'zlarini diqqat bilan tingladi.* 2) otlashgan so'z: *O'nning yarmi – besh.* 3) ibora: *Og'zi bo'shning ichida gap yotmas.*

**Izohlovchi.** Izohlovchi aniqlovchining alohida bir ko'rinishi, bunda izohlovchi ot boshqa bir otni izohlaydi. Izohlovchi izohlagan ot **izohlanmish** bo'ladi: *General Sobir Rahimov.* Izohlovchi va izohlanmish umumiy va aniq ma'noni bildiruvchi turdosh otdan iborat bo'lsa, aniq ma'noni bildiruvchi ot izohlovchi, umumiy ma'noni bildiruvchi ot izohlanmish bo'ladi. Yozuvda ular orasiga chiziqcha qo'yiladi: *mexanik-haydovchi.* Izohlovchi unvon, kasb, laqab, qarindoshlik, jins, o'xshatish, taxallus kabini ifodalash uchun xizmat qiladi. O'xshatishni bildirgan izohlovchi bilan izohlanmish orasiga chiziqcha qo'yiladi: *ona –Vatan.* Gazeta, jurnal, korxona, muassasa va hokazoning nomini bildirgan atoqli ot ham izohlovchining bir turi hisoblanadi: *"Yoshlik" jurnali, "Turkiston" gazetasi.* Bunday izohlovchi shaxs nomi bilan ifodlansa, qo'shtirnoqqa olinmay, *nomli, nomidagi* so'zi bilan birga qo'llaniladi: *Oybek nomli maktab.* So'zning

o`rni almashtirilsa, izohlovchi bilan izohlanmish maqomi ham almashadi: *Ayol* (izohlovchi) *hamshira* (izohlanmish), *hamshira* (izohlovchi) *ayol* (izohlanmish).

## **IMLO LUG`ATI**

Imlo lug`ati – so`zni amaldagi imlo qoidasiga muvofiq ravishda qanday yozish kerakligini o`rgatadi. Bunday lug`at hammabop va amaliy tabiatga ega bo`ladi. 1995-yilda lotin imlosidagi «Imlo lug`ati» «O`qituvchi» nashriyotida chop etildi.

## **IMLO QOIDALARI**

Imlo qoidalarini – to`g`ri yozish qonun-qoidasi to`plami. Buning asosini imlo to`g`risidagi qoida tashkil etadi. Qoidada to`g`ri yozishning deyarli barcha tomoni batafsil izohlanadi.

Lotin yozuviga o`tilgandan keyin bu yozuvda ham imlo to`g`risidagi qoida qabul qilish ehtiyoji tug`ildi va 1995- yil 24- avgustda tasdiqlandi. Hozirgi qoidalar tizimi 7 bo`lim, 82 paragrafdan iborat.

## **INGLIZ TILI**

Ingliz tili Hind-yevropa tillari oilasining g`arbiy german tillari guruhiga mansub. Ingliz tili BMTning rasmiy ish yuritish tillaridan biri, Buyuk Britaniya, Irlandiya, AQSH, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Osiyo va Afrikadagi ko`pgina mamlakatlarda tarqalgan. Bu tilda 400 milliondan ortiq kishi gaplashadi (1992). Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya, AQSH, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Kanada (fransuz tili b-n birga), Irlandiya (Irland tili bilan birga), Hindiston va 15 ta Afrika davlati (JAR, Nigeriya, Gana, Uganda, Keniya, Tanzaniya va boshq.) da rasmiy davlat tili sifatida qo`llaniladi.

Ingliz tili eramizdan avvalgi V–VI asrlarda qadimgi german qabilalari (ingliz, saks va yut)ning tillaridan kelib chiqqan. Qadimgi ingliz tili (VII–XI asrlar) anglosaks deb atalgan va 4 shevaga ega bo`lgan: nortumriy, mersiy, uessk va kent. IX–XI asrlarda uessk shevasi asosida adabiy ingliz tili shakllangan. XVI–XVII asrlarda yangi ingliz tili vujudga keldi.

Hozirgi ingliz tili o`z hududiy shevalariga ega. Buyuk Britaniyada shotland shevasi, shimoliy; janubiy; markaziy shevalar guruhi, AQSHda sharqiy, o`rta Atlantika (markaziy), jan, sharqiy, o`rta, g`arbiy shevalar guruhi mavjud. Boshqa german tillaridan analitik qurilish belgisi bilan farqlanadi. Grammatik munosabatlarni ifodalash yordamchi so`zlar (artikl, yordamchi fe`llar, predloglar) va so`z tartibi katta ahamiyatga ega. Ingliz tili boshqa tillar (lotin, fransuz, italyan, ispan va boshq.) dan 70 % ga yaqin so`z olgan. Ingliz tilining amerikacha variantini Buyuk Britaniya variantidan shu bilan izohlash mumkinki, Shimoliy Amerikaga dastlab ko`chib kelganlar (1607) London va uning atrofidan, keyingilar esa Shimoliy Britaniya va Irlandiyadan kelishgan. AQSH tilida Britaniyadagi singari aniq farqlangan shevalar yo`q. Ingliz tili ning amerikacha va Buyuk Britaniya variantlari o`rtasidagi farq leksikada va ma`lum darajada fonetikada namoyon bo`ladi. Grammatikasidagi farq sezilarli emas. Ingliz tilining Kanada,

Avstraliya, Yangi Zelandiya, JAR va Hindiston variantlari xususida ham shunday fikrni aytish mumkin. Ingliz tili yozuvi lotin alifbosida.

## ISMLARNING MUNOSABAT SHAKLLARI

Ismlarning munosabat shakllari – ism asoslariga qoʻshilib, ularni boshqa soʻzlar bilan aloqa-munosabatga kiritish va gap boʻlaklarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan shakllar. Unga quyidagilar kiritiladi: 1) **egalik shakllari**; 2) **kelishik shakllari**; 3) **ismlarni kesimga xoslovchi shakllar**.

**Egalik shakllari** ismlarga qoʻshilib, asos qismda ifodalangan narsa, belgi, xususiyat, harakat-hoʻlatlarni uch shaxsdan biriga qarashlilikini bildiradi: *-(i)m*, *-(i)ng*, *-(s)i*; *-(i)miz*, *-(i)ngiz*, *-(lar)i*.

**Kelishik shakllari** ismlarni boshqa soʻzlarga tobelantirib bogʻlaydi va doimo tobe soʻz tarkibida boʻladi: *-ning*, *-ni*, *-ga(-ka, -qa)*, *-da*, *-dan*.

Kesim ega bilan shaxs va sonda mos boʻladi. Kesim ot kesim boʻlganda uni egaga xoslovchi, ega bilan munosabatini koʻrsatuvchi shakllarga **ismlarni kesimga xoslovchi shakllari** deyiladi. Bu shakllarga quyidagilar kiritiladi:

1) *-man*, *-san*, *-miz*, *-siz* shaxs-son shakllari – *Men shoirman. Sen chiroylisan. Biz toʻrttamiz. Siz endi talabasiz*;

2) *-dir* kesimlik shakli – *Yer xazinadir*;

3) *boʻlmoq*, *sanalmoq*, *hisoblanmoq* bogʻlamalari – *Mehnatning noni shirin boʻladi*;

4) *edi*, *ekan*, *emish*, *emas* toʻliqsiz feʼllari – *U shoir edi. Men undan ancha kichik edim. Ular toʻrtta ekan. Bu yaxshi emas*.

5) *kerak*, *zarur*, *shart*, *lozim*, *darkor*, *mumkin* nisbiy soʻzlari – *U buni unutmazligi kerak. Berilgan topshiriqni vaqtida bajarish kerak*.

## ISPAN TILI

Ispan tili Hind-Yevropa tillari oilasining roman tillari guruhiga mansub. Ispan tilida 320 milliondan ortiq kishi soʻzlashadi (1990- yilgi maʼlumot). Ispaniya va Lotin Amerikasidagi 19 mamlakatning rasmiy tili. Shuningdek, Peruda kechua, Boliviya kechua va aymara, Puerto-Rikoda ingliz tili bilan birga qoʻllanadi. Filippin va AQSHning janubi-gʻarbida ham tarqalgan. Jonli lotin tili asosida shakllangan, koʻp dialektli, lugʻati tarkibida arab tilidan oʻzlashgan soʻzlar anchagina. Ispan adabiy tiliga kastil dialekti asos qilib olingan. Shuning uchun bu til XV asrgacha “kastil tili” deb ham atalgan. Ispan tiliga oid dastlabgi yozuv namunalari X–XI asrga oid rasmiy hujjatlarda uchraydi. Ispan tili tovush qurilishi uchun 5 unli, diftong va triftonglar xos. Urgʻuning oʻrni qatʼiy emas. Ot va sifat turlanmaydi, jins va son kategoriyalari, artiklning 3 turi (aniq, noaniq va nol) mavjud. Faqat kishilik olmoshlari turlanadi. Gapda soʻzlar tartibi nisbatan erkin. Yozuvi lotin alifbosi asosida. Ispan tili – BMTning olti rasmiy va ish yuritish tilidan biri.

## ISHOQXON IBRAT

Ishoqxon Ibrat – ma’rifatparvar shoir, atoqli tilshunos, o`zbek tili grafikasi, leksikografiyasi tadqiqida munosib hissa qo`shgan yetuk olim. 1862- yili Toshkentda tavallud topgan. O`zbek xalqining sharq va g`arb tillarini o`rganishini osonlashtirish yo`lida tinmay izlanishlar olib bordi. Arab, fors, hind, turk, o`zbek, rus tillaridagi so`zlarni o`z ichiga olgan olti tilli «Lug`ati sitta al-sina» (1901) lug`atini yaratib, ko`p tilli lug`atlar tuzishda ilk qadamni qo`yib berdi. Lug`at mingdan ortiq so`zni o`z ichiga olgan, unda o`zbekcha so`zlarning qarshisida arab, rus, fors, turk va hindcha tarjimasi berilgan.

Ishoqxon Ibrat tilshunoslikning murakkab sohasidan biri – yozuv tarixi bilan shug`ullandi. Uning piktografik yozuvdan to shu kungacha ishlatilgan yozuvlar tarixiga bag`ishlangan «Jome’-ul xutut» (Yozuvlar majmuasi) asari o`zbek grafikasining muhim yutug`i. Ushbu asarda muallif nafaqat o`zbek yozuvi, balki eramizdan 2000 yil ilgari finikiya xalqlari tomonidan vujudga keltirilgan yozuv yodgorliklari, Kipr orolidan topilgan yozuv qoldiqlari, yahudiy, arab, suriya yozuvlari haqida ham qimmatli ma’lumotlar keltiradi.

1932- yilda vafot etgan.



## JARGON

Jargon – (fransuzcha *g`ar g o n* – «buzilgan til») ham qo`llanishi chegaralangan leksika tarkibi. Kasbi, jamiyatdagi o`rni, qiziqishi, yoshiga ko`ra alohida guruhni tashkil etgan kishilarning ko`pchilikdan ajralib turish maqsadida ishlatadigan so`z jargon. Mas., programmist jargoni, talaba jargoni, aslzodalar jargoni, o`g`ri jargoni, artistlar jargoni va h: 1) talaba jargoni: *yopmoq* (sessiyani tugatmoq), *vozdux* (stipendiya), *yaxlamoq* (imtihondan qaytmoq), *stukach* (chaqimchi); 2) yoshlar jargoni: *g`isht* (xunuk), *sindirmoq* (lol qilmoq), *krutoy* (ketvorgan), *risovka* (ko`z-ko`z qilmoq), *uxlatib ketmoq* (aldamoq). Adabiyotlarda jargon va argo talqinida ba`zan chegara sezilmaydi.

## “JAVOHIR UN-NAHV FI LUG`ATIT-TURK”

«Javohir un-nahv fi lug`atit-turk» – (Turkiy tillar sintaksisi javohirlari) Mahmud Koshg`ariyning grammatik xarakterdagi asari. «Devonu lug`otit turk»da muallif ayrim grammatik masalalar talqini xususida fikr ketar ekan, bu boradagi qarashlarining «Javohir un-nahv fi lug`atit-turk» nomli asarida keltirilishiga ishora qilib ketadi. Ammo «Devonu lug`otit turk»da muallif tomonidan tilga olingan bu nodir asar bizgacha yetib kelmagan. (q. **Mahmud Koshg`ariy**)



## KAVKAZ TILLARI OILASI

Bu oilaga g`arbiy guruh (abxaz, abazin, adigey, kabardin, ubix tili), nax guruh (chechen, ingush, batsbiy tili), dog`iston guruh (avar, dargin, lezgin, lak, karatin, gunzib tillari), janubiy guruh (megrel, chan, gruzin, kartali, svan, guriy va boshqa tillar) kiradi.

## KELISHIK

Kelishik shakli – nutqda ismlarni o`zidan keyingi so`zga tobelovchi vosita. Bu vositalar ismni keyingi so`zga tobelantirish bilan birga uning gapdagi vazifasini ham belgilab beradi. Bunday shakllar tizimi – kelishik kategoriyasi. Kelishik, aytilganidek, ergash so`z vazifasidagi ismni bosh so`z vazifasidagi ism yoki fe`l bilan bog`laydi. Shu sababli kelishik ismlarning munosabat (aloqa-munosabat, sintaktik) shakllariga kiritiladi. O`zbek tilida kelishikning oltita shakli ajratiladi.

**Bosh kelishik.** Maxsus shakli yo`q. Bosh kelishikdagi ism gapda quyidagi vazifada keladi: 1) ega: *Yomg`ir yog`moqda*; 2) izohlovchi-aniqlovchi: *Doktor Aybolit – bolalarning sevimli qahramoni*; 4) sifatlovchi-aniqlovchi: *Taxta ko`prik sinovdan yaxshi o`tmadi*; 5) undalma: *Bolalar, darsga!*; 6) ravish holi: *Oy borib, omon qayt*.

**Qaratqich kelishigi.** Maxsus shakli *-ning*. Tarixiy varianti *-im*: *O`zbekiston – vatanim manim (A.Orip.)*. Tovush tushishiga uchragan varianti *-ing*: *mening, sening*. Qisqargan shakli *-n*: *ko`zin oqu qorasi, yer kurrasin boshin tang`idik*. O`g`uz lahjasidagi varianti *-ing*: *Intizorman yoriming diydoriga*.

Gapda qaratqich kelishigi shaklidagi so`z qaratqich-aniqlovchi vazifasida keladi: *Dunyoning tashvishlari ko`p*.

Ism bilan ismning aloqasini ko`rsatadi: *maktabning hovlisi, Qarshining havosi*.

**Tushum kelishigi.** Maxsus shakli *-ni*. Tovush tushishiga uchragan varianti *-i*: *meni, seni*. Qisqargan shakli *-n*: *Tog`lolasin zavq bilan terdim... Olmazorlar gulin to`kadi, meva bog`lab shoxin bukadi (H.Olim.)*.

Tushum kelishigidagi ism gapda vositasiz to`ldiruvchi vazifasida keladi: *Dunyoni qizg`anma mendan, azizim (A.Orip.)*.

Ism bilan fe`lning aloqasini ko`rsatadi: *choyni ichmoq, maktabni tugatmoq*.

**Jo`nalish kelishigi.** Maxsus shakli *-ga*. Tovush o`zgarishiga uchragan varianti *-ka/-qa*. (*k* undoshi bilan tugagan so`zlarga qo`shilganda *-ka*, *q* undoshi bilan tugagan so`zlarga qo`shilganda *-qa* shaklida aytiladi va shunday yoziladi: *eshikka, buyruqqa*. Boshqa barcha holda, qanday aytilishidan qat`i nazar, *-ga* tarzida yoziladi: *bog`ga, cho`g`ga, pedagogga, bargga*. O`g`uz lahjasidagi varianti *-a*: *Do`stlar, sog`inganimni gul yuzli yora ayting. Do`stlar, men bir guli ra`noya oshiq o`lmisham. Bolama o`xshaydi ovozing sening. -g`a qo`shimchasi eskirgan va shevadagina saqlangan. -na faqat o`g`uz lahjasiga xos: Go`zal yorim Shohsanamning to`yina Borsam, o`ldirarlar, bormasam, o`lam*.

Gapda jo`nalish kelishigi shaklidagi ism quyidagi vazifalarda keladi: 1) vositali to`ldiruvchi: *Balki senga ayon, balki noayon, Bir hayot hadisini aylayin bayon*; 2) o`rin holi: *Kitobga ketyapman*. 3) Payt holi: *Bu kiyimlarni qishga asrab qo`ying*. 4) Sabab

holi: *Bilmaganiga uyaldi*. 5) Maqsad holi: *O`qishga kelganmiz*. 6) Kesim: *Bu kitob senga (-dir, edi, ekan, emish)*.

Ismning fe'l, ba'zan ism bilan aloqasini ko'rsatadi: *maktabga ketmoq, menga katta, o`zingga qiyin*.

**O`rin-payt kelishigi.** Maxsus shakli *-da*. Gapda o`rin-payt kelishigi shaklidagi ism quyidagi vazifada keladi: 1) Vositali to`ldiruvchi: *Unda nima ishing bor?* 2) O`rin holi: *Zo`r karvon yo`lida yetim bo`tadek, Intizor ko`zlarda halqa-halqa yosh; Kitobda tug`ilganman*; 3) payt holi: *1- avgustda uchrashamiz*; 4) sabab holi: *Suyaklari mehnatda qotgan*; 5) ravish holi: *Sukutda kutdi*; 6) kesim: *Hamma ayb o`zimda (-dir, edi, ekan, emish)*. *Kuch – adolatda*.

Ismning asosan fe'l bilan aloqasini ko'rsatadi: *maktabda o`qimoq, yozda uchrashmoq*.

**Chiqish kelishigi.** Maxsus shakli *-dan*. Tarixiy shakli *-din*: *Jondin seni ko`p sevarman, ey umri aziz... (Nav.)*.

Gapda chiqish kelishigi shaklidagi ism quyidagi vazifalarda keladi: 1) vositali to`ldiruvchi: *Otalar boladan ranjisa biroq... (A.Orip.) Paxtadan ko`plab sanoat mahsulotlari olinadi*; 2) o`rin holi: *Xorazmdan qaytib keldik*; 3) payt holi: *O`qishni 1-sentyabrdan boshlaymiz*; 4) sabab holi: *Bilmaganidan uyaldi. Xursandlikdan shoshib qoldi chol*; 5) ravish holi: *Yurakdan tabrikladi*; 6) kesim: *Umidimiz sizdan*; 7) ega: *Rastada har xil ko`katlardan bor edi* (bosh kelishik bilan ma'nodosh bo'ladi); 8) vositasiz to`ldiruvchi: *Nondan oling* (tushum kelishigi bilan ma'nodosh bo'ladi).

Ismning fe'l, ba'zan ism bilan aloqasini ko'rsatadi: *maktabdan qaytmoq, mendan so`ramoq, olmagan shirin*.

Kelishikning belgisiz ishlatilishi. Kelishik shakllaridan to`rttasi belgisiz ishlatilishi mumkin: 1) qaratqich: *Maktab (ning) stadioni kengaytirildi*; 2) tushum: *Bunda bulbul kitob (ni) o`qiydi*; 3) jo`nalish: *Ertaga litsey (ga) borasanmi?* 4) o`rin-payt: *yer haydasang, kuz (da) hayda*.

Kelishik ma'nodoshligi. Kelishiklarda ma'nodoshlik kelishiklararo, kelishik va ko`makchi orasida kuzatiladi.

Kelishiklararo ma'nodoshlik:

1) *-ning* bilan *-dan*: *mehmonning biri – mehmondan biri, do`stimning ba`zisi – do`stimdan ba`zisi*. Qaratqich va tushum sinonim bo`lolmaydi: *Ukamning daftari birikmasini ukamni daftari tarzida qo`llash noto`g`ri*.

2) *-ni* bilan *-ga, -dan, -da*: *gapingizni tushunmadim – gapingizga tushunmadim; nonni oling – nondan oling; shaharni kezmoq – shaharda kezmoq*;

3) *-ga* bilan *-dan, -da. -ni*: *kelganiga xursand – kelganidan xursand; vokzalga tushaman – vokzalda tushaman – vokzaldan tushaman; gapingizga tushunmadim – gapingizni tushunmadim*;

4) *-da* bilan *-ga, -dan, -ni*: *vokzalda tushaman – vokzalga tushaman – vokzaldan tushaman; bog`ni aylanmoq – bog`da aylanmoq*;

5) *-dan* bilan *-ning, -ni, -ga, -da*: *topishmoqning biri – topishmoqdan biri; taassurotdan so`zlab bermog – taassurotni so`zlab bermog; bekatdan tushmoq – bekatga/da tushmoq*.

Kelishik va ko`makchi ma'nodoshligi:

1) *-ning bilan qarashli va tegishli: maktabning stadioni – maktabga qarashli stadion; sizning xonangiz tayyor – sizga tegishli xona tayyor;*

2) *-ni bilan haqida, to`g`risida, xususida: o`qigan romanini so`zlab bermoq— o`qigan romani haqida so`zlab bermoq;*

3) *-ga bilan uchun, sababli, tufayli, vajdan, tomon, qarab: senga oldim – sen uchun oldim; shunga xafa bo`ldi – shu sababli (tufayli) xafa bo`ldi – shu vajdan xafa bo`ldi;*

4) *-da bilan bilan, orqali, yoqalab (bo`ylab): qalamda yozmoq – qalam bilan yozmoq, telefonda gaplashmoq – telefon orqali gaplashmoq; sohilda yugurmoq – sohil bo`ylab/yoqalab yugurmoq;*

5) *-dan va bilan, orqali, haqida: shu yo`ldan boriladi – shu yo`l orqali boriladi – shu yo`l bilan boriladi; bolaligidan so`zladi – bolaligi haqida so`zladi.*

Uslubiy belgilari. Kelishik shaklining noto`g`ri qo`llanishi uslubiy g`alizlikni keltirib chiqaradi: *Bu Salimnigina emas, mening ham kamchiligim.* Bu gapda tushum kelishigi shakli noto`g`ri qo`llangan. Yoki o`rin-payt kelishigi shakli o`rnida jo`nalish kelishigi shaklini ishlatish ham uslubiy xato: *Qarshida o`qiyman – Qarshiga o`qiyman* kabi.

Tushum va qaratqich kelishigidan boshqa barcha kelishik shaklidagi ismlar kesim vazifasida kela oladi.

Qaratqich, tushum, jo`nalish, o`rin-payt kelishiklari belgisiz ishlatiladi.

Qaratqich, tushum, jo`nalish kelishiklari qisqargan shaklda ishlatiladi.

Chiqish, jo`nalish, o`rin-payt kelishiklar ravish, modal so`zlar tarkibida yaxlitlanib qoladi: *birga, tezda, chindan, to`satdan, birdaniga, yoppasiga, kunda; haqiqatdan, birinchidan.*

## KINOYA

Kinoya – so`zni teskari ma`noda ishlatish. Kinoyadagi so`z qo`shtirnoqqa olinadi:

*Bizni «homiy»lardan himoya qilg`il,*

*Degan sharq xalqida piching – duo bor.*

*Xo`sh, janobi oliy, qaysi sho`rlik xalq*

*Sizning «himoyangizga» qolmish intizor (G`.G`ul.).*

Bu o`rinda *homiy* so`zi *zolim*, *himoya* so`zi *zulum* so`zi ma`nosida ishlatilgan.

## KIRILL YOZUVI

Kirill yozuvi – qadimgi slavyanlarning ikki alifbosidan biri (ikkinchisi – glagolitsa). Kirill yozuvi atamasi xristianlikning slavyanlar orasidagi targ`ibotchisi Kirill nomi bilan bog`liq. Kirill yozuvi yunonlarning unsial yozuvi asosida paydo bo`lgan. Slavyanlardagi tovushlarni ifodalash uchun mazkur yunon yozuvida harflar yetishmas edi. Glagolitsa bilan bog`liq holda bu tovushlar uchun maxsus belgilar yaratiladi.

Kirill yozuvining qadimiy ko`rinishlari qabrtosh xatlari, turli yorliqlar asosida yetib kelgan. Dastlab provaslav slavyanlar, keyinchalik ruminlar (XIX asrgacha) qo`llagan. Rossiyada 1708-yil Petr I farmoyishiga ko`ra, bosma kirill yozuvi bekor

qilinib, bolgar, belorus, rus, serb, ukrain yozuvlari slavyan kirill yozuvi asosida yaratilgan. Ko'pgina xalqlar rus tilida amalda bo'lgan Kirill yozuviga o'zgartirishlar kiritib, o'z yozuvlarini belgilagan.

1940-yil 8-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidiumi lotin alifbosidan kirillitsa (rus) alifbosiga o'tish to'g'risida qaror qabul qildi. Qarorda ish yuritish va vaqtli matbuot yangi alifboga o'tishi va I, II, III sinfda yangi alifboni o'qitish 1940-yil 1-sentabrdan boshlanishi hamda yangi alifboga o'tish 2 yil ichida – 1942-yil 1-yanvargacha tugallanishi zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

Shunday qilib, deyarli hamma respublika va viloyat (o'zining qadimgi an'anaviy alifbosi bo'lgan Gruziya, Armaniston, Boltiqbo'yi respublikasidan tashqari) yangi alifboga o'tdi.

## KIRISH BIRLIKLAR

Kirish – so'zlovchining bayon qilgan fikriga munosabatini bildirgan so'z, birikma va gap. Munosabat so'z bilan ifodalansa, **kirish so'z**, so'z birikmasi bo'lsa, **kirish birikma** deb yuritiladi. Kirish so'z va kirish birikma asosan modal so'z bilan ifodalanib, quyidagi ma'noni bildiradi: 1) “ishonch/tasdiq”: *albatta, shubhasiz, ma'lumki, haqiqatan, darhaqiqat, haqiqatan ham, so'zsiz*; 2) “gumon”: *ehtimol, shekilli, chamasi, balki, taxminimcha, mumkin*; 3) “shodlik/achinish”: *Baxtinga, baxtga qarshi, attang, afsus*; 4) “bayon qilingan fikrning kimga qarashliligi”: *menimcha, mening fikrimcha, uning aytishicha, aytishlaricha, sizningcha*; 5) “bayon qilingan fikrning tartibi”: *birinchidan, ikkinchidan...* 6) “bayon qilingan fikrning oldingi fikr bilan bog'liqligi”: *demak, shunday qilib, umuman, aksincha, ba'zan, aks holda, xullas, shuningdek, ayniqsa, asosan, binobarin, xususan*; 7) “bo'lishli/bo'lishsizlik”: *ha, yo'q, mayli, to'g'ri*. Kirish so'z yoki birikma gapning boshida kelsa, undan keyin, gapning o'rtasida kelsa, ikki tomoniga, gapning oxirida kelsa, undan oldin vergul qo'yiladi: *Nihoyat, ular jo'nashdi. Ular, nazarimda, ketishdi. Hali-beri qishning keti ko'rinmaydi, shekilli. Kirish gap* so'zlovchining o'zi bayon qilgan fikrga qo'shimcha mulohazasini bildiradi. Kirish gap asosiy fikrni to'ldirish, izohlash uchun ishlatiladi. U, odatda, vergul bilan ajratiladi: *Biz, sinf rahbarimiz aytdi, ertaga sayohatga boramiz*. Kirish gap yoyiq bo'lsa, tire bilan ajratiladi yoki qavs ichiga olinadi: *1. Mirzakarimboy boshqalarga maqtanmasa ham (maqtancholikni yomon ko'rar edi) ba'zi vaqt ichidan faxrlanardi. 2. Qabulxona – bu yer ilgari katta boyning mehmonxonasi bo'lgan bo'lsa kerak – qorong'i edi*. Kirish gapning tuzilish turi: a) bir bosh bo'lakli: *U yog'ini so'rasang, aytaymi, men bunga rozi emasman*; b) ikki bosh bo'lakli: *Ibrohimov, Qurbon ota aytmoqchi, gullarni o'z ilmidan bahramand qildi*.

## “KITOB AL-IDROK LI LISON AL-ATROK”

«Kitob al-idrok li lison al-atrok» – Abu Hayyon al-Andalusiy (1256–1345) ning asari. Bu nodir asar 1312- yilda Qohirada bitilgan, lug'at va grammatikadan iborat. Asarning 2 qo'lyozmasi bor. Ular Istanbulda saqlanmoqda. Mazkur qo'lyozmalar asosida 1891- yilda Mustafa Bey va 1931- yilda Ahmad Ja'far o'g'li asarni chop qildi. So'nggi davrlarda esa A.Zayonchkovski, K.Brokkelmann, F.Vushtenfeld, L.Bouvat,

E.Fozilov, A.Kurishjonov, N.Rasulova singarilar bu asar yuzasidan maxsus tadqiqot olib bordilar.

“Kitob al-idrok li lison al-atrok” tilida qipchoq elementlari kuchliroq. Mas., *r, g* tovushining *y* tovushiga oʻtishi holati: *agin – ayin, dagma – tayma, bak – bay, agarlab – ayarlab*. *G* tovushining *y, v* tovushlariga oʻtishi: *bugʻdoy – buvday, ogʻul – ovul*. *G* tovushining undoshlar oldidan tushishi: *igna – ina*; *x* tovushining *k* ga oʻtishi: *xoja – koja*. Soʻz boshida *y* tovushining orttirilishi: *ilon – yilon, ip – yip*. Soʻz oʻrtasida *t* undoshidan oldin *l* undoshining orttirilishi: *katur – kaltur* kabi.

“Kitob al-idrok li lison al-atrok” tilida oʻgʻuz elementlari ham uchrab turadi. Mas., *m* tovushining *b* tovushiga oʻtishi: *men – ben*. *T* tovushining *d* tovushiga oʻtishi: *tamir – damir, tilku – dilku*.

Lugʻatda 5 ta arabcha va 13 ta forsha soʻz qayd etilgan. *-niki* qoʻshimchasi oʻrnida qaratqich kelishigi shakli qoʻllangan: *yir sanindir* (yer senikidir). Sifatlarning orttirma darajasi *yavlak* soʻzi orqali hosil qilingan: *yavlak koʻrkludur*. Yarim maʼnosini bildiruvchison manbada *bichuk, yaru* soʻzlari orqali berilgan.

Asar turkiy tillar tarixini oʻrganishda muhim ahamiyatga ega.

## **“KITOBU-L-LUGʻAT AL-MUSHTOQ FI LUGʻATI-T-TURK VAL-QAFCHOQ”**

«Kitobu-l-lugʻat al-mushtoq fi lugʻati-t-turk val-qafchoq» – mashhur tilshunos Jamoliddin Muhammad Abdulloh Turkiyning lingvistik asari. Asarning Abu Bahr ismli kishi tomonidan 855- yilda koʻchirilganligi asosida uning XIV–XV asrda yaratilganligi haqida xulosa qilish mumkin. “Kitobul lugʻat al-mushtoq fi lugʻat-it turk val-qafchoq” birgina nusxaga ega, Parij Milliy kutubxonasida saqlanmoqda. Olimlar asar Suriyada yaratilgan deb taxmin qilishadi.

Qoʻlyozma 4 bobdan iborat, ularning har qaysisi fasllarga ajratilgan. Birinchi bobi tangrining ismi va fazoda unga tobe boʻlgan mavjudotlarga hamda diniy atamalarga bagʻishlangan. Mas., *tangri, yalavach, farishta, quyosh, yulduz, oy*. Ikkinchi bobi yer, uning osti va ustidagi narsalar izohiga bagʻishlangan, bir qancha ichki guruhga ajratilgan.

Asarning uchinchi bobida payt va oʻrin ravishlari, kishilik va soʻroq olmoshi, koʻmakchilar, hafta kunlari, yil fasllari haqida soʻz boradi. Toʻrtinchi bob esa feʼl haqida.

Arab, fors, turk, moʻgʻul tillari qiyosiga bagʻishlangan bu asar turkiy tillar taraqqiyotini oʻrganishda qimmatli manba.

## **KICHRAYTIRISH SHAKLI**

Otlar, yaʼni narsa hajm jihatidan katta yoki kichik boʻlishi mumkin: *kitob-kitobcha*. Hajman kichik predmetni bildiruvchi shaklga kichraytirish shakli deyiladi. U quyidagi: 1) *-cha*: *hovuzcha, uycha, kapalakcha*. *-cha* shakli baʼzan kinoya, kamsitish kabi koʻchma maʼnolarni ham bildiradi: *tilchangiz chiqib qoptimi? Sholcha, bogʻcha* (bolalar bogʻchasi), *koʻrpacha, olcha, qalamcha* (otrozka), *koʻkcha* (qovun navi), *qizilcha* (kasallik) soʻzlarida *-cha* shakli yaxlitlanib qolgan, soʻz maʼnoli qismga ajralmaydi; 2)

-choq//chak: toychoq, qo`zichoq, kelinchak, tugunchak. 3) -kay: bolakay. 4) -ak: yo`lak.

## KOREYS TILI

Koreys tili Oltoy tillariga, ba`zan Tungus-manjur tillariga kiradi, deb taxmin qilinadi. KXDR va Koreya Respublikasining rasmiy tili. Bu tilda 60 million kishi so`zlashadi. Uning genetik jihatdan boshqa tillar bilan bog`liqligi aniqlanmagan. Koreys tilining shimoli-sharqiy, shimoli-g`arbiy, markaziy, janubi-sharqiy, shimoliy va janubiy shevalari bor. Koreys tilida 40 fonema (19 undosh, 21 unli) mavjud. Morfologik jihatdan agglutinatsiya rivojlangan. Fe`l zamonlari hozirgi, 2 o`tgani, 2 kelasi zamon shaklidan iborat. Son kategoriyasida birlik va ko`plik shakli farqlanmaydi. Hisbat kategoriyasi hamma fe`llarga xos emas. Leksikasida xitoy tilidan, sanskrit, mo`g`ul va ba`zan Yevropa tillaridan o`zlashgan so`zlar bor. Koreys tili 1993- yilgacha “standart til”, 1966- yilda “milliy til” (munxbao) deb atalgan. Bu tilning 2 turi ham KXDR hamda Koreya Respublikasida qo`llanib kelinadi. KXDRda koreys yozuvi, Koreya Respublikasida xitoy-koreys aralash yozuvi qo`llaniladi.

## KO`MAKCHI

Ko`makchi – ot, olmosh, sifat-dosh va harakat nomidan keyin kelib, uni hokim so`zga bog`lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so`z.

Umumiy grammatik belgilari. Ko`makchi morfologik jihatdan o`zgarmaydi: turlanmaydi, tuslanmaydi. So`z yasalishi, shakl yasalishi uchun asos bo`lmaydi.

Ko`makchi o`zidan oldingi mustaqil so`zga vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon kabi grammatik ma`no va munosabatni berish uchun qo`llanadi va u bilan bitta gap bo`lagi vazifasini bajaradi: 1) vosita: *Ismat bobo hassasi bilan (to`ldiruvchi) eshikni ochdi.* 2) sabab: *O`qiganligi uchun (sabab holi) javob berdi.* 3) maqsad: *O`qish uchun (maqsad holi) keldi.* 4) payt: *Kelgandan so`ng (payt holi) gaplashamiz.* 5) makon: *Tom boshida (o`rin holi) tog`ora.*

Ko`makchili so`z to`ldiruvchi va hol, ayrim holda kesim bo`lib keladi.

Hozirgi o`zbek tilida ko`makchining ikki turi ajratiladi:

1. **Sof ko`makchi** – mustaqil lug`aviy ma`nosini butunlay yo`qotgan, faqat grammatik ma`no ifodalaydi: *bilan, uchun, sari, sayin, kabi, singari, yanglig`, qadar, dovur, to, doir, oid.*

2. **Vazifadosh ko`makchi** – aslida mustaqil turkumga mansub lug`aviy ma`noli so`z, lekin ko`makchi vazifasini bajarayotganda faqat grammatik ma`no ifodalaydi: *tomon, qarab, qaramay, qaraganda, qaramasdan, boshqa, bo`lak, tashqari, sababli, tufayli, so`ng, oldin, keyin, beri, ko`ra, bo`yicha, uzra, chog`i, osha, bo`ylab, ichra, bo`yi, chamasi, haqida, to`g`risida, holda, yo`sinda, qarshi, yarasha, asosan, binoan, muvofiq, qarata, o`zga, buyon, burun, ilgari, boshlab, badaliga, davomida, vajidan, evaziga, borasida, bobida, misoli, tortib; ko`makchi otlar: ost, ust, tepa, old, orqa, yon, ich, ora, bosh, o`rta (-i/-si egalik va -ga/-da/-dan kelishik qo`shimchasi bilan).*

Ko`makchi vazifasida qo`llanuvchi so`z quyidagi turkumdan ko`chib o`tgan: 1) otdan: *tomon, haqida, chamasi, misoli, holda, yo`sinda, bo`yi; osti, tagi, usti, oldi, orqasi, yoni, bo`yi, ichi, orasi, o`rtasi + -ga/-da/-dan*; 2) sifatdan: *boshqa, bo`lak, o`zga, tashqari, sababli, chog`li, to`g`risida, qarshi, muvofiq*; 3) ravishdan: *so`ng, oldin, burun, ilgari, keyin, beri, nari, bo`yicha, uzra, ichra, asosan, binoan*; 4) fe`lning sifatdosh shaklidan: *qaraganda, qaramasdan*; 5) fe`lning ravishdosh shaklidan: *qarab, qaramay, ko`ra, osha, bo`ylab, yarasha, qarata, boshlab, tortib*.

K o ` m a k c h i n i n g q o ` l l a n i s h i g a k o ` r a t u r i . Ko`makchi biror kelishik bilan ham birga qo`llanadi va shunga ko`ra uning quyidagi turi ajratiladi:

1) bosh kelishikdagi so`z va ba`zan qaratqich kelishigidagi olmosh bilan: *bilan (qalam bilan, sening bilan, sening-la), uchun, kabi, singari, yanglig`, sayin, sari, sababli, orqali, tufayli, chog`li, osha, bo`ylab, uzra, ichra, bo`yi, chamasi, haqda//to`g`rida, haqida//to`g`risida, holda//yo`sinda*;

2) qaratqich kelishigidagi so`z bilan: *ost, tag, ust, old, orqa, yon, qarshi, bo`yi, ich, o`rta, bosh*;

3) jo`nalish kelishigidagi so`z bilan: *tomon, qadar, ko`ra, qarshi, qarab, qaraganda, qaramasdan/qaramay, yarasha, doir, asosan, binoan, muvofiq, qarata*;

4) chiqish kelishigidagi so`z bilan: *so`ng, keyin, boshqa, bo`lak, tashqari, o`zga, beri, buyon, nari/nariga, burun, ilgari, oldin, avval, boshlab, tortib*.

## KO`MAKCHI FE`LLI SO`Z QO`SHILMASI (HARAKAT TARZI SHAKLI)

Ko`makchi fe`lli so`z qo`shilmasi (harakat tarzi shakli) – o`zi birikkan fe`lning ma`nosiga qo`shimcha ma`no yuklash uchun xizmat qiladigan nomustaqil fe`l bilan mustaqil fe`lning qo`shiluvidan hosil bo`lgan shakl: *ketib qolmoq* (kutilmaganda), *berib turmoq* (vaqtincha), *kutib turmoq* (davomli harakat). Bundagi ikkinchi fe`llar ko`makchi fe`l, vaqtincha o`z lug`aviy ma`nosini yo`qotgan bo`ladi. Ma`nosi bir oz o`zgarayotgan fe`l **yetakchi fe`l**, yetakchi va ko`makchi fe`l birikuvi esa ko`makchi fe`lli so`z qo`shilmasi deyiladi. Ko`makchi fe`l lug`aviy shakl yasovchi qo`shimchadek vazifa bajaradi. Shu sababli yetakchi va ko`makchi fe`l birikuvidan tashkil topgan bunday analitik shakl fe`lning **harakat tarzi lug`aviy shakli** ham deb yuritiladi. Mas., *Salim kitobni o`qib chiqdi* gapida *chiqdi* fe`li “tashqarida bo`lmoq” lug`aviy ma`nosini yo`qotib, gapdagi *o`qib* yetakchi fe`lining ma`nosini o`zgartirish, ya`ni undan anglashilgan harakatning tugallanganligini ifodalash uchun xizmat qilmoqda.

Yetakchi fe`l va ko`makchi fe`l uch xil birikadi: 1) ravishdoshning *-(i)b* shakli orqali: *o`qib turdi, aytib qoldi*; 2) ravishdoshning *-a/y* shakli orqali: *yura boshladi, so`ray qol*; 3) juftlashish orqali: *yozib oldim – yozdim-oldim, tugatib qo`yding – tugatding-qo`yding, to`xtab qoldi – to`xtadi-qoldi*.

Bu uch vosita barcha yetakchi va ko`makchi fe`lni hosil qilavermaydi: *yozdi-boshladi, ayta soldi* ko`makchi fe`lli so`z qo`shilmasi me`yoriy emas. Me`yoriy: *yoza/yozib boshladi, aytib soldi*.

Hozirgi o`zbek adabiy tilida bitta ham s o f k o ` m a k c h i f e ` l yo`q. 30 dan ortiq (darsliklarda 25 ta, ba`zan 27 ta) mustaqil fe`l ko`makchi fe`l vazifasida kela oladi: *ber(ver), bil, bit(bitir), bor, boshla, boq, bo`l, yet, yoz, yot, kel, ket, ko`r, ol, sol, tashla, tur, tush, chiq, yubor, yur, o`l, o`t, o`tir, qara, qol, qo`y*;

25 ta ko`makchi fe'l (yoz va boshla so`zidan boshqasi) yetakchi fe'lga ravishdoshning *-(i)b* shakli yordamida birika oladi:

|       |   |                |                       |                      |                       |                |
|-------|---|----------------|-----------------------|----------------------|-----------------------|----------------|
| O`qib | { | <i>berdi</i>   | <i>bo`ldi</i>         | <i>ko`rdi</i>        | <i>(yoqib) tushdi</i> | <i>o`tdi</i>   |
|       |   | <i>bildi</i>   | <i>(anglab) yetdi</i> | <i>oldi</i>          | <i>chiqdi</i>         | <i>o`tirdi</i> |
|       |   | <i>bitirdi</i> | <i>yotdi</i>          | <i>(aytib) soldi</i> | <i>yubordi</i>        | <i>qaradi</i>  |
|       |   | <i>bordi</i>   | <i>keldi</i>          | <i>tashladi</i>      | <i>yurdi</i>          | <i>qoldi</i>   |
|       |   | <i>boqdi</i>   | <i>ketdi</i>          | <i>turdi</i>         | <i>o`ldi</i>          | <i>qo`ydi</i>  |

11 ta ko`makchi fe'l ravishdoshning *-a/y* (sol ko`makchi fe'li faqat *-a* ravishdosh shakli bilan: *ayta solib*) shakli bilan birika oladi:

|                                    |                                |                              |
|------------------------------------|--------------------------------|------------------------------|
| 1) ber/ver ( <i>yoza berdi</i> )   | 5) yoz ( <i>yiqila yozdi</i> ) | 9) sol ( <i>kela solib</i> ) |
| 2) bil ( <i>topa bildi</i> )       | 6) ket ( <i>gapira ketdi</i> ) | 10) tur ( <i>yoza tur</i> )  |
| 3) bor ( <i>o`zgara bordi</i> )    | 7) ko`r ( <i>ayta ko`rma</i> ) | 11) qol ( <i>ayta qol</i> )  |
| 4) boshla ( <i>yoza boshladi</i> ) | 8) ol ( <i>unuta oldi</i> )    |                              |

Demak, 16 ta ko`makchi fe'l *-a/y* shaklidagi ravishdosh qo`shimchasini olgan yetakchi fe'l bilan ko`makchi fe'lli so`z qo`shilmasi hosil qilolmaydi, ya'ni faqat *-b/ib* qo`shimchasini olgan yetakchi fe'lga birikadi: *bit* (*bitir*), *boq*, *bo`l*, *yet*, *yot*, *kel*, *tashla*, *tush*, *chiq*, *yubor*, *yur*, *o`l*, *o`t*, *o`tir*, *qara*, *qo`y*.

9 ta ko`makchi fe'l ravishdoshning har ikkala shaklini olgan fe'lga birika oladi: *ber* (*aytib ber*, *ayta ber*), *bil* (*yozib biladi* (*shevada*), *yoza biladi*), *bor* (*o`qib bordi*, *o`qiy bordi*), *ket* (*isib ketdi*, *gapira ketdi*), *ko`r* (*aytib ko`r*, *ayta ko`rma*), *ol* (*yozib ol*, *yoza ol*), *sol* (*to`kib soldi*, *kela solib*), *tur* (*o`qib tur*, *yoza tur*), *qol* (*tugab qoldi*, *ayta qol*).

Ko`makchi fe'llar ko`pincha *-(i)b* shakli bilan boshqa, *-a/y* shakli bilan boshqa ma'no ifodalaydi: *yozib oldi* – *yoza oldi*, *kelib qoldi* – *kela qoldi*, *aytib ko`r* – *ayta ko`rma*, *o`qib berdi* – *o`qiy berdi*, *qo`ng`iroq qilib tur* – *qo`ng`iroq qila tur*. Ayrim holda ma'no mos keladi: *og`irlashib bordi* – *og`irlasha bordi*.

Ko`makchi fe'l ifodalaydigan ma'no:

| Shakl                      | Ma'nosi                                 | Misol                                                     |
|----------------------------|-----------------------------------------|-----------------------------------------------------------|
| <i>-(i)b ber</i>           | harakat natijasining o`zgaga yo`nalishi | <i>qo`yib ber</i> , <i>bilib ber</i>                      |
| <i>-a/y ber</i>            | davomiylik                              | <i>ko`chaver</i> , <i>o`ylayver</i>                       |
| <i>-a/y ol/bil</i>         | qodirlik                                | <i>tuzata oldi</i> , <i>foydalana bil</i>                 |
| <i>-(i)b bit/bitir</i>     | to`la bajarilish                        | <i>yonib bitgan</i> , <i>ekib bitir</i>                   |
| <i>-(i)b, -a/y bor/kel</i> | harakatning davomiyligi                 | <i>unutib bordi</i> , <i>o`zgartira bor</i>               |
| <i>-a/y boshla</i>         | boshlanish                              | <i>yura boshla</i> , <i>o`qiy boshla</i>                  |
| <i>-(i)b boq/ko`r/qara</i> | sinash                                  | <i>o`qib boq</i> , <i>o`ylab qara</i> , <i>yozib ko`r</i> |
| <i>-(i)b bo`l</i>          | to`la bajarilish                        | <i>yozib bo`l</i> , <i>yuvib bo`l</i> , <i>qazib bo`l</i> |
| <i>-(i)b yet</i>           | to`la bajarilish                        | <i>anglab yetdi</i> , <i>pishib yetmagan</i>              |
| <i>-a/y yoz</i>            | bajarilishga yaqinlik                   | <i>qula yozdi</i> , <i>yorila yozdi</i>                   |

|                         |                                                   |                                                                                           |
|-------------------------|---------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------|
| -(i)b yot/tur/o`tir/yur | davomiylik                                        | <i>o`qib yot, aytib tur, yozib o`tir</i>                                                  |
| -(i)b ket               | to`la, kuchli bajarilish; boshlash va davom etish | <i>tarqab ketdi, isib ketdi, g`ovlab ketdi, maqtab ketdi</i>                              |
| -a/y ket                | boshlash va davom etish                           | <i>o`qiy ketdi, gapira ketdi</i>                                                          |
| -(i)b sol               | to`la-to`kis bajarilish                           | <i>aytib sol, yuragini to`kib soldi.</i>                                                  |
| -a sol                  | ketma-ketlik                                      | <i>ola solib ot, kela solib boshla, tura solib tashlan</i>                                |
| -(i)b tashla/yubor      | to`la va tez yuzaga kelishi:                      | <i>o`qib tashla, to`qib tashla, haydab yubor</i>                                          |
| -(i)b chiq              | tugallash                                         | <i>o`qib chiq, so`rashib chiq, aylanib chiq</i>                                           |
| -(i)b tush              | butunlay                                          | <i>ag`darilib tushdi, yiqilib tushdi, yoqib tushdi, yarashib tushdi</i>                   |
| -(i)b o`l               | yuqori darajada davomiylik, takroriylik           | <i>mudrab o`lyapman, surishtirib o`ldi, sog`inib o`ldi, chanqab o`ldi</i>                 |
| -(i)b o`t               | tugallik, alohida e`tibor                         | <i>bo`lib o`tdi, gapirib o`t</i>                                                          |
| -(i)b qol               | holatga aylanish kutilmaganlik davomiylik         | <i>tikilib qol, serrayib qoldi; kelib qoldi, so`rab qol; jonlanib qoldi</i>               |
| -a/y qol                | ruxsat, rozilik, istak                            | <i>bora qol, yura qol, keta qol</i>                                                       |
| -(i)b qo`y              | holatga aylanishi davomiylik bir marta bajarilish | <i>suyab qo`y, ilib qo`y; o`ylantirib qo`y, shoshirib qo`y; qarab qo`y, yo`talib qo`y</i> |

Ko`makchi fe`lli so`z qo`shilmasi qisqargan holda ishlatilishi va qo`shib yozilishi mumkin: *aytib yubor* – *aytvor*, *bora ber* – *boraver*, *unuta olmadi* – *unutolmadi*.

Ko`makchi fe`lli so`z qo`shilmasida ko`makchi fe`l birdan ortiq bo`lishi mumkin: *aytib berib tura qol*, *aytib bera olmay qoldi*. Bunda keyingi ko`makchi fe`l uchun oldingi ko`makchi fe`lli so`z qo`shilmasi yetakchi fe`l bo`ladi: *Aytib* (yetakchi fe`l) *ber* (ko`makchi fe`l), *aytib berib* (yetakchi fe`l) *tur* (ko`makchi fe`l). Bu ko`makchi fe`lli so`z qo`shilmasi ichida ko`makchi fe`lli so`z qo`shilmasi.

Ko`makchi fe`lli so`z qo`shilmasi [fe`l+fe`l] tipidagi qo`shma fe`l va [ravishdosh+fe`l] tipidagi so`z birikmasiga o`xshaydi. Farqi:

1) ko`makchi fe`l olib tashlansa, yetakchi fe`l ma`nosi bir oz o`zgaradi: *yozib bordi* – *yozdi*, *isib ketdi* – *isidi*; qo`shma fe`ldagi yordamchi fe`l ma`noni butunlay o`zgartiradi: *sotib ol* – *sot*; *ishlab chiqardi* – *ishladi*;

2) so`z birikmasida birdan ortiq gap bo`lagi mavjud: *quvonib* (hol) *so`zladi* (kesim); ko`makchi fe`lli so`z qo`shilmasi bitta gap bo`lagi bo`lib keladi: *o`ylab qoldi* (kesim).

Ravishdosh shaklidagi ko`makchi fe`lli so`z qo`shilmasida nisbat va bo`lishsizlik ko`rsatkichi yetakchi va ko`makchi fe`lning birortasiga yoki har ikkalasiga qo`shilishi mumkin: *to`xtatib qo`yishdi; aytib qo`yma, aytmay tur, aytmay turma*; zamon, mayl, shaxs-son qo`shimchasi esa ko`makchi fe`lda bo`ladi. Ikkala fe`l bir shaklda juftlashsa, sanalgan qo`shimcha ikkalasida ham bo`lishi mumkin: *tamomlashdi-qo`yishdi*.

Harakat tarzining qo`shimcha bilan yasalgan ko`rinishlari. O`zbek tilida shunday shakllar borki, fe`llarga qo`shilib, harakatning bajarilish tarzi – kuchli yoki kuchsiz darajasini bildiradi. Bu shakllar tasniflovchi lug`aviy shakli hisoblanadi. Ular quyidagi:

1) harakatning kuchsiz darajasini bildiradi:

|                |                                                    |
|----------------|----------------------------------------------------|
| -msira/imsira: | <i>yig`lamsira, kulimsira</i>                      |
| -qira/inqira:  | <i>ishonqira, oqarinqira, o`chinqira</i>           |
| -sh/ish:       | <i>to`lish, qizish, oqarish, to`xtash (yuragi)</i> |
| -q/iq/k/ik:    | <i>tutaq, toliq, junjik, ko`nik</i>                |

2) harakatning kuchli darajasini bildiradi:

|                         |                                                                                        |
|-------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------|
| -la/ala:                | <i>quvla/quvala, ishqala, savala, siypala, cho`qila, chayqala, siltala, opichla</i>    |
| -qi/g`i:                | <i>yulqi, sizg`i, to`zg`i, bijg`i</i>                                                  |
| -chi:                   | <i>tipirchila, tepchi, terchila</i>                                                    |
| -a:                     | <i>bur – bura, quvon – quvna, urin – urna</i>                                          |
| -gila/kila/ qila/g`ila: | <i>yugurgila, titkila, tepkila, chopqilla, turtkila, tortqila, ezg`ila, cho`zg`ila</i> |
| -ga/ka/qa:              | <i>surga, surka, chayqa</i>                                                            |

## KO`P MA`NOLILIK

Ko`p ma`nolilik – nutq jarayonida til birliklarining birdan ortiq ma`no bildirish hodisasi. Mas., *kitob* so`zi ko`p ma`noli so`z: 1) «varaقدan tashkil topgan va muqovalangan, bosma yoki qo`lyozma holidagi o`quv quroli»; 2) «katta hajmli asarning qismi, bo`limi». Yoki *qo`zichoq* so`zi «qo`yning bolasi» va «aziz farzand» ma`nosiga ega. Ko`p ma`noli so`zlarda, qo`shimchalarda, iboralarda, tasviriy ifodalarda bo`lishi mumkin. (q. **Ko`p ma`noli so`z, Ko`p ma`noli ibora, Ko`p ma`noli qo`shimcha.**)

Bir ma`nolilik tilda kam va termin, biror soha, kasb-hunar atamasi, shuningdek, yangi paydo bo`lgan so`zga daxldor. Yangi so`z (neologizm) ham davr o`tishi bilan boshqa ma`no ham kasb eta boshlashi mumkin. Mas., *hakker* so`zi neologizm, «kompyuter programmasi buzuvchisi» ma`nosiga ega. U ayni paytda «umuman buzg`unchi» ma`nosini ham anglatmoqda. Ko`p ma`noli so`z **metafora, metonimiya, vazifadoshlik, sinekdoxa** usullari bilan hosil bo`ladi.

**Ko`p ma`noli so`z.** Nutq jarayonida birdan ortiq ma`no bildiradigan so`z ko`p ma`noli so`z. Tildagi so`zning ancha qismi ko`p ma`noli, chunki kishi o`zining kundalik hayotida yangi paydo bo`lgan tushunchaning har biri uchun alohida-alohida so`z qo`llayveradigan bo`lsa, uning soni o`ta ko`payib, xotirada saqlash mumkin bo`lmay qoladi. Natijada tildan foydalanish ham qiyinlashadi.

Har qaysi tilda sanoqli til birligining turli xil birikuvidan cheksiz tushuncha va fikrni ifodalashga harakat qilinadi. Ana shunday harakat tufayli tilda ilgari mavjud bo'lgan so'zga yangi-yangi ma'no yuklanadi. Natijada ko'p ma'noli so'z hosil bo'ladi. Mas., *tosh* so'zi dastlab «suv ta'sir qilmaydigan qattiq yoki mo'rt holdagi tabiiy jins» ma'nosiga ega bo'lgan: *Yo'lda tosh yotibdi*. Keyinchalik so'zdagi «qattiqlik» ma'no qirradi faollashib, «g'am ham yemira olmaydigan» ma'nosi vujudga kelgan: *Tosh ekan boshim*.

Nutq jarayonida ikki va undan ortiq ma'noda qo'llanuvchi so'z ko'p ma'noli yoki polisemantik so'z, ko'p ma'nolilik hodisasi esa polisemiya deyiladi. **Polisemiya** yunoncha *poli* «ko'p», *semi* o «ma'no» so'zidan olingan, ko'p ma'noli demakdir. Polisemiya monosemiya (yunoncha *mono* bir, *semi* o ma'no)ga zidlanadi.

**Qo'shimcha** (hissiy va uslubiy) **ma'no** so'zni ko'p ma'noli qila olmaydi. Chunki u o'zi alohida tushunchani ifodalamaydi, balki tushunchaga biror qo'shimcha ma'no orttiradi. **Ko'p ma'nolilikka** birinchi anglatgan tushuncha va tasavvurdan tashqari boshqasini anglatish asos qilib olinadi.

Ko'p ma'noli so'z qancha ma'noni bildirmasin, baribir o'sha predmet, hodisa, harakat orasida aloqa, umumiy belgi mavjud bo'lishi shart. Mas., *bel* so'zi uch predmetni anglatadi, ammo ular orasidagi o'xshashlikka asoslangan umumiy («o'rta qism») belgisi mavjudligi bir-biri bilan bog'lab turadi. Qiyoslang: 1) *Avazxon olmos po'latni beliga boylab, o'tning beliga mindi*; 2) *Ezilib ketadi tog'larning beli*.

Ko'p ma'noli so'zda ma'no qancha bo'lsa ham, u bir so'z hisoblanaveradi. Ko'chma ma'no nutq tarkibida boshqa so'z bilan bog'langanda namoyon bo'ladi, so'z nutq tarkibidan chiqarilganda o'z ma'nosi qoladi. Mas., *tosh* so'zi nutq qurshovidan ajratib olinsa, «suv ta'sir qilmaydigan qattiq yoki mo'rt holdagi tabiiy jins» ma'nosini anglatadi.

Har qanday ko'p ma'noli so'z gapning ichida faqat bir ma'noni anglatadi. Chunki bunda so'zlovchi bir ma'noni nazarda tutadi va gapdagi qo'shni so'z ham boshqa ma'noni yuzaga chiqarmaydi.

**Ko'p ma'noli ibora.** Ko'p ma'noli ibora birdan ortiq ma'noga ega. Mas., *Bosh ko'tarmoq*: 1) «sekin sog'aymoq»; 2) «sekin qaramoq»; 3) «qo'zg'olon qilmoq»; *o'ziga kelmoq*: 1) «sekinlik bilan tushunmoq»; 2) «sekinlik bilan sog'aymoq»; *ko'zi ochildi*: 1) «qoqilib tushdi»; 2) «ko'rdi».

Ko'p ma'noli iboraning qaysi ma'nosi voqelanayotganligi matndan anglashiladi.

**Ko'p ma'noli qo'shimcha.** Ko'p ma'noli qo'shimcha birdan ortiq ma'no anglatadi. Mas., **-chilik** qo'shimchasini olaylik. Darslik va qo'llanmada uning quyidagi uch ma'nosi farqlanadi: 1. Asosdan anglashilgan narsa yetishtiriladigan sohani ifodalovchi ot: *paxtachilik, urug'chilik, chorvachilik, uzumchilik*. 2. Asosdan anglashilgan narsa-hodisaning borlik holatini bildiruvchi ot: *pishiqchilik, mo'lchilik, arzonchilik*. 3. Asosdan anglashilgan tushuncha bilan bog'liq bo'lgan ishni bildiruvchi ot: *ulfatchilik, tirikchilik, dushmanchilik*. Aksariyat qo'shimcha – ko'p ma'noli. Tilda qo'shimchanning kamligi uning ko'p ma'noli bo'lishiga olib kelgan.

Ko'p ma'noli qo'shimchaga misol:

| Qo'shimcha | Misol                                                                         |
|------------|-------------------------------------------------------------------------------|
| -li        | <i>aqli</i> (mavjudlik), <i>yog'li</i> (ortiqlik), <i>o'tirishli</i> (moslik) |

|         |                                                                                            |
|---------|--------------------------------------------------------------------------------------------|
| -ma     | <i>qovurma</i> (harakat natijasi), <i>burama</i> (odatdagi xususiyat)                      |
| -la     | <i>moyla</i> (ega bo'ldirish), <i>randala</i> (vosita bilan), <i>bolala</i> (paydo qilish) |
| -chilik | <i>paxtachilik</i> (soha), <i>to'kinchilik</i> (mavjudlik), <i>tirikchilik</i> (holat)     |
| -dor    | <i>Aybdor</i> (mavjudlik), <i>bo'ydor</i> (ortiqlik)                                       |
| -no     | <i>noumid</i> (ega emaslik), <i>nomard</i> (qarama-qarshilik)                              |
| -be     | <i>beg'ubor</i> (yo'qlik), <i>beg'am</i> (kamlik)                                          |
| -siz    | <i>Asossiz</i> (ega emaslik), <i>madorsiz</i> (kamlik)                                     |
| -lik    | <i>otalik</i> (qarindoshlik), <i>bolalik</i> (holat), <i>mudirlik</i> (kasb-hunar)         |

## KO`CHIRISH QOIDASI

Ko`chirish qoidasi – 1995- yil 24- avgustda qabul qilingan “O`zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ning 75–82- paragraflarini o`z ichiga oluvchi ko`chirish to`g`risidagi imlo qoidasi to`plami.

Ko`chirish qoidasi quyidagilarni o`z ichiga oladi: 1. Ko`p bo`g`inli so`zning oldingi satrga sig`may qolgan qismi keyingi satrga bo`g`inlab ko`chiriladi: *to`q-son*, *si-fatli*, *sifat-li*, *pax-takor*, *paxta-kor* kabi. Tutuq belgisi oldingi bo`g`inda qoldiriladi: *va`-da*, *ma`-rifat*, *mash`-al*, *in`-om* kabi. 2. So`zning bosh yoki oxirgi bo`g`ini bir harfdan iborat bo`lsa, quyidagicha ko`chiriladi: 1) so`z boshidagi bir harfdan iborat bo`g`in yolg`iz o`zi oldingi satrda qoldirilmaydi: *a-badiy emas*, *aba-diy*, *e-shikdan emas*, *eshik-dan* kabi; 2) so`z oxiridagi bir harfdan iborat bo`g`in yolg`iz o`zi keyingi satrga ko`chirilmaydi: *mudofa-a* emas, *mudo-faa*, *matba-a* emas, *mat-baa* kabi. 3. O`zlashma so`zning bo`g`ini chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko`chiriladi: 1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko`chiriladi: *dia-gramma*, *mono-grafiya* kabi; 2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko`chiriladi: *silin-drik* kabi. 4. Bir tovushni ko`rsatuvchi harflar birikmasi (*sh*, *ch*, *ng*) birgalikda ko`chiriladi: *pe-shayvon*, *pe-shona*, *mai-shat*, *pi-choq*, *bi-chiqchi*, *si-ngil*, *de-ngiz* kabi. 5. Bosh harfdan yoki bo`g`inga teng qism va bosh harfdan iborat qisqartma, shuningdek, ko`p xonali raqam satrdan satrga bo`lib ko`chirilmaydi: *AQSH*, *BMT*, *O`zMU*, *16*, *245*, *1994*, *XIX* kabi. 6. Harfdan iborat shartli belgi o`zi tegishli raqamdan ajratib ko`chirilmaydi: *5-„A” sinf*, *V „B” guruhi*, *110 gr*, *15 ga*, *105 m*, *25 sm*, *90 mm* kabi. 7. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomi ajratilgan holda keyingi satrga ko`chirilmaydi: *„Navro`z–92”* (festival), *„O`qituvchi–91”* (ko`rik-tanlov), *„Andijon–9”*, *„Termiz–16”* (g`o`za navi), *„Boing–767”* (samolyot), *„Foton–774”* (televizor) kabi. 8. *A.J.Jabborov*, *A.D.Abduvaliyev* kabilarda ism va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartma familiyadan ajratib ko`chirilmaydi. Shuningdek, *v.b.* (*va boshqalar*), *sh.k.* (*shu kabilar*) singari harfiy qisqartma ham oldingi so`zdan ajratib ko`chirilmaydi.

## KO`CHMA MA`NO

Ko`chma ma`no so`zning o`z ma`nosidan tashqari, o`xshatish, mubolag`a, kinoya asosida boshqa ma`noda qo`llanishi natijasida hosil bo`ladi: *ko`z* – 1) «yog`ochning

qavariq joyi»; 2) «uzukning yaltiroq dumaloq qismi»; *to`qimoq* – «yo`q narsani o`ylab chiqarmoq» kabi. Ko`chma ma`no ham o`z ma`no kabi har xil manbada turlicha atalgan: **yasama ma`no, hosila ma`no, erkin ma`no** va hokazo.

Ko`chma ma`no gap tarkibidagi boshqa so`z yordamida anglashiladi. Mas., *U bu gaplarni o`zi to`qigan* jumlasidagi *to`qimoq* so`zining «o`ylab chiqarmoq» ma`nosi undagi *gaplarni* so`zi yordamida anglashiladi. *Derazaning ko`zi sindi* gapidagi *ko`z* so`zining «shisha» ma`nosi *deraza* va *sindi* so`zi yordamida yuzaga chiqmoqda. Bir so`zda o`nlab ko`chma ma`no bo`lishi mumkin. So`zning ko`chma ma`nosi faqat matn orqali, gapning ichidagina aniqlanadi. Aytilganidek, o`z va ko`chma ma`no deganda qo`shimcha ma`noni tushunmaslik kerak. Bir so`zning o`z va ko`chma ma`nosining yana alohida-alohida qo`shimcha ma`nosi ham bo`lishi mumkin. Mas., yuqorida aytib o`tilgan *to`qimoq* so`zining o`z ma`nosida (*gazmol to`qimoq*) qo`shimcha ma`no yo`q, lekin ko`chma ma`nosida esa salbiy ma`no borligini anglash qiyin emas. So`zning ko`chma ma`nosi – til taraqqiyoti mahsuli. Har qanday so`z vaqt o`tishi bilan ko`chma ma`noli bo`lib keta oladimi? Ko`chma ma`no qanday hosil bo`ladi? Borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatning nomi ma`lum bir asosga ko`ra boshqa narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatning nomi sifatida ham qo`llanadi. Bunday vaqtda bitta so`z bir necha narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatning nomi sifatida xizmat qiladi. Mas., *burun* so`zi «tirik organizmning yuz qismida bo`rtib chiqqan nafas olish a`zosi» ma`nosini ifodalash bilan birga «Yerning dengiz yoki okean tomon bo`rtib chiqqan qismi» ma`nosini ham ifodalaydi. Bunda narsa orasidagi tashqi o`xshashlik (yuzdan bo`rtib chiqqan burun bilan yer qirg`og`ining dengiz yoki okeanga qarab bo`rtib chiqishi o`rtasidagi o`xshashlik) birining nomini ikkinchisi o`rnida qo`llashga asos bo`lgan.



## LAHJA

Lahja – bir-biriga yaqin bo`lgan sheva yig`indisi lahja deb yuritiladi. O`zbek umumxalq tili tarkibida uchta lahja mavjud: 1) **qarluq lahjasi** (janubi-sharqiy guruh); 2) **qipchoq lahjasi** (janubi-g`arbiy guruh); 3) **o`g`iz lahjasi** (shimoli-g`arbiy guruh).

## “LATOFATNOMA”

«Latofatnoma» – XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrning birinchi choragida yashab ijod etgan Xo`jandiy qalamiga mansub va eski o`zbek tilining nodir namunasi. Shu davrda Xorazmda hukmronlik qilgan Temurning avlodlaridan biri Sulton Mahmudga bag`ishlangan. Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sidan farqli ravishda, har bir nomadan so`ng g`azal keltirilmaydi, fard, qit`a va munojotlar ham yo`q. “Latofatnoma” masnaviy shaklida yozilgan. Bizgacha 4 nusxasi yetib kelgan. Ikkitasi Kobul kutubxonasi muzeyida, bir nusxasi Istanbulda, biri esa Britaniya muzeyida

saqlanadi. 488- yilda ko`chirilgan qo`lyozma 313 baytdan iborat. Asar 1980- yilda E.Fozilov tomonidan nashr etilgan. "Muborak maktublar" majmuasiga kiritilgan.

## LEKSEMA

Leksema – so`zning gap tarkibidan tashqaridagi, grammatik qo`shimchasiz, alohida olingan ko`rinishi. Mas., *kitob, o`qi, qizil, bir, ko`p, holbuki*. Bular gap tarkibiga kirsar, so`zga aylanadi: 1.*Kitob qiziqarli ekan.* 2.*O`qib chiqmoq bo`ldi odatim.* 3.*Bir gapirib o`n kuladi.* 4.*Holbuki, orzulardan judo ham bo`lganim yo`q.* Leksemaning har bir so`z birikmasi, gap tarkibidagi ko`rinishi alohida so`z. Mas., tilimizda bitta *kitob* leksemasi bor. Lekin uning har bir so`z birikmasi yoki gapdagi ko`rinishi alohida so`z. Shuning uchun tilda leksema sanoqli, so`zning miqdori esa cheksiz.

Lug`at leksemani tavsiflaydi, so`zni emas. Aks holda *kitobni, o`qidim, qizilroq* so`zi ham lug`atda berilgan bo`lur edi.

## LEKSIKA

Leksika – (yun. *lexis* – so`zga oid, lug`aviy) tilshunoslikning tildagi so`z va ibora jami. Shuningdek, lug`at tarkibi – o`z va o`zlashgan qatlam, faol va nafaol so`z, so`zning qo`llanish davri va doirasiga ko`ra turini o`rganuvchi sohasi. Leksika ma`lum qonun-qoidaga bo`ysunuvchi izchil va murakkab tizim.

Leksika lug`at tarkibida yangi so`zning paydo bo`lishi, ayrim so`zning davr o`tishi bilan eskirib, iste`moldan chiqishi, ma`no taraqqiyoti natijasida leksik ma`no o`zgarishi kabi sabab bilan bog`liq ravishda to`xtovsiz o`zgarib turadi. Leksika jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tuzumning o`zgarishi bilan uzviy bog`liq holda boyib boradi. O`zbek tili leksikasida o`z va o`zlashma qatlam, shuningdek, o`z qatlam tarkibida umumturkiy so`z va ulardan yasalgan o`zbekcha so`z mavjud. O`zlashma qatlamning katta qismini forsha, arabcha, ruscha so`z tashkil qiladi.

O`zbek tili leksikasi turli jihatlariga ko`ra tasnif qilinadi. Mas., zamonaviyligiga (zamonaviy, eskirgan va yangi so`z), qo`llanilishiga (ishlatilish doirasi chegaralanmagan va chegaralangan so`z), kelib chiqishiga (o`z va o`zlashma so`z), shakl va ma`no munosabatiga (shakldosh, ma`nodosh, zid ma`noli, talaffuzdosh, uyadosh) ko`ra tasniflar bunga dalil.

*Leksika* termini tor ma`noda biror muallif yoki asarda ishlatilgan so`zlarning jamiga nisbatan ham ishlatiladi: *Navoiy leksikasi, «O`tgan kunlar» leksikasi*.

## LEKSIKOGRAFIYA

Leksikografiya, ya`ni lug`atshunoslik lug`at va uning turi, turli lug`at yaratishning nazariy masalasini o`rganadi.

**Lug`atshunoslik.** Lug`atshunoslik – lug`at tuzishning nazariy va amaliy masalalari bilan shug`ullanuvchi tilshunoslik sohasi. O`zbek lug`atshunosligi katta yutuqlarni qo`lga kiritdi. Ko`p tomli «O`zbekiston ensiklopediyasi», ikki va besh tomli «O`zbek tilining izohli lug`ati», o`zbek tili frazeologiyasi, terminologiyasi, kasb-hunar leksikasi, Navoiy asarlari tilining lug`ati va boshqa sohalar bo`yicha ham qator lug`atlar

yuzaga keldi. «O`zbek tilining morfem lug`ati» yangi tipdagi lug`at sifatida yaratildi. O`zbek lug`atchiligining rivojlanishida, ayniqsa, A.K.Borovkov, K.K.Yudaxin, V.V.Reshetov, O.Usmonov, R.Doniyorov, Z.Ma`rufov, Sh.Rahmatullayev, S.Akobirov, G.Mixaylov kabi olimlarning xizmati katta bo`ldi. Bugungi kunda maktab o`quvchilari uchun “Ona tili” darsligiga yordamchi manba sifatida yaratilib, “Yangi asr avlodi” nashriyotida chop etilayotgan “O`zbek tilining ma`nodosh so`zlar o`quv izohli lug`ati”, “O`zbek tilining zid ma`noli so`zlar o`quv izohli lug`ati”, “O`zbek tilining so`zlar darajalanishi o`quv lug`ati”, “O`zbek tilining so`z tarkibi o`quv lug`ati”, “O`zbek tilining so`z yasalihi o`quv lug`ati”, “O`zbek tilining o`zlashma so`zlar o`quv izohli lug`ati”, “O`zbek tilining so`zlar birikuvchanligi o`quv lug`ati”, “O`zbek tilining eskirgan so`zlar o`quv izohli lug`ati”, “O`zbek tili iboralarining o`quv izohli lug`ati”, “O`zbek tilining o`quv etimologik lug`ati”, “O`zbek tilining o`quv toponimik lug`ati”, “O`zbek tilining talaffuzdosh so`zlar o`quv izohli lug`ati” kabi o`nlab o`quv lug`ati ham o`zbek lug`atchiligi yutug`i.

## LEKSIKOLOGIYA

*Leksikologiya* (yunoncha *lexis* – so`z, *logos* – ta`limot) «so`z haqida so`z», «so`z haqida ta`limot» demakdir. So`zning lug`aviy ma`nosi, lug`aviy ma`no turi, so`zning shakl va ma`no munosabati, lug`at tarkibidagi faol va nafaol so`z, tarixiy jihatdan o`zbek tili leksikasi, so`zning hissiy va uslubiy xususiyati kabini o`rganadi. So`zda qanday lug`aviy ma`no munosabati bo`lsa, barchasini leksikologiya tekshiradi. Anglashiladiki, leksikologiya – tilning so`z boyligi, lug`at tarkibi, so`zning lug`aviy ma`nosi, so`z ma`nosining o`zgarishi, ya`ni kengayishi, torayishi va ko`chishi, so`zning shakli va ma`no munosabati, qo`llanish davri va doirasiga ko`ra turini o`rganuvchi va o`rgatuvchi soha. Leksikologiya semasiologiya, frazeologiya, etimologiya, leksika kabi sohani o`z ichiga oladi. **1. Semasiologiya** so`zni ma`no jihatdan o`rganadi. Unda so`zning ma`no turi, lug`aviy va grammatik ma`no, bir ma`nolilik va ko`p ma`nolilik, o`z va ko`chma ma`no kabilar tadqiq qilinadi. **2. Frazeologiya** ibora va uning ma`no tarkibi, turi kabilar bilan shug`ullanadi. **3. Etimologiya** so`zning kelib chiqishi masalasi bilan mashg`ul bo`ladi. Yasama, qo`shma va xorijiy tildan o`zlashtirilgan so`z bilan ham qiziqadi. Etimologiya so`zning har ikki tomoni – ya`ni shakli va ma`nosini hisobga oladi. **4. Leksika** tildagi so`zning lug`at tarkibini – o`z va o`zlashgan qatlam, faol va nafaol so`z, so`zning qo`llanish davri va doirasiga ko`ra turini o`rganadi. Bundan tashqari, leksikologiya onomasiologiya, toponimika, onomastika kabi bo`limni ham o`z ichiga oladi. Bu bilan ko`pincha tilshunoslik mutaxassisi shug`ullanadi. Leksikologiya tilshunoslikning boshqa bo`limlari bilan bevosita bog`langan. Tovush bo`lmasa, so`z bo`lmaydi. Bu leksikologiyaning fonetikaga aloqasini ko`rsatadi. So`z bo`lmasa, grammatikaning ham bo`lishi mumkin emas. Bu leksikologiya va morfologiya aloqasiga dalil. So`zni nutqda maqsadga muvofiq qo`llash nazarda tutilsa, leksikologiya uslubiyat bilan ham uzviy bog`lanadi. Demak, leksikologiya tilning barcha bo`limi bilan uzviy aloqador.

## LOTIN YOZUVI

1926- yil 10- iyunda O`zbekiston Sovetlar Ijroiya Komiteti lotin alifbosiga o`tish to`g`risida Qaror qabul qildi. Qarorga asosan «Yangi o`zbek alifbosini joriy qilish qo`mitasi» tuzilib, unga Y.Oxunboboyev rais, A.Ikromov, F.Xo`jayev, Elbek, Majidiy, Fitrat va boshqalar a`zo bo`ldi. O`zbekiston Markaziy Ijroiya Komitetining 1928- yil mart oyidagi III sessiyasi lotin alifbosini joriy qilishni ko`rib chiqib, uni davlat alifbosi deb qaror qabul qildi. Sobiq Sho`ro Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi bu Qarorni 1929- yil 7- avgust kuni maxsus qarori bilan ma`qulladi. 1929- yil may oyida o`tkazilgan imlo qurultoyida 9 unli shakli olingan bo`lsa-da, 1934- yil mart oyida o`tkazilgan imlo qurultoyi 6 unlining harf shaklini belgiladi. 1993- yil 2- sentabrda bo`lib o`tgan Respublika Oliy Kengashi «Lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosini joriy qilish to`g`risida» qaror qabul qildi. 1995- yil 6–7- mayda Oliy Kengash bu alifboga ma`lum o`zgarish kiritdi va shu yil 24- avgustda «O`zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash» haqidagi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga Respublika Prezidenti imzo chekdi. 1996–1997- o`quv yilidan maktabning 1-sinfi yangi alifboni o`rgana boshladi. Yangi o`zbek alifbosiga o`tish 2005- yil 1- sentabrda tugallanishi ko`rsatilgan. Keyinchalik bu 2010- yilgacha uzaytirildi. O`zbekiston Respublikasining rus (kirillitsa) alifbosidan lotin alifbosiga asoslangan o`zbek alifbosiga o`tishida dunyo fani va texnikasiga yaqinlashish, o`zbek tilining nozik xususiyatini to`laroq ifodalash asosiy maqsad qilib qo`yildi.



## **MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY**

Tilshunos, adib, tafsir va hadis olimi Mahmud az-Zamaxshariy – (Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Ahmad) 1075- yil 18- martda Xorazmdagi Zamaxshar qishlog`ida dindor dunyoqarashli oilada tug`ilgan. Yoshligida ilm-fanning turli sohalari, arab tili va xattotlikni mukammal egallagan. Ustozi – til, lug`at va adabiyot sohasida mashhur Abu Madar Isfahoniy. Ilmini oshirish maqsadida Buxoroga borib, u yerda shayxulislom Abumansur Nasr Xorisiy, Abu Sa`d Shaqqoniy va Abdulxattob ibn Abulbatrdan saboq oladi. Ma`lum muddat Xorazmshohlar xizmatida bo`lib, so`ngra Marv, Nishopur, Isfahon, Damashq, Bog`dod va Hijozda, 2 marta Makkada bo`ladi. Bu yerda arab tili grammatikasi, lahjalari, maqol va urf-odatlarini, geografiyasini o`rganadi. Asarlarini Makkada yozganligi tufayli u Jorulloh (“Allohning qo`shnisi”) degan sharaflı nisbaga muyassar bo`lgan.

Zamaxshariy arab grammatikasi, lug`atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, geografiya, tafsir, hadis va fiqhga oid 50 dan ortiq asar yozgan. Ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan. “Al-Mufasssal” kitobi (“Grammatika bo`yicha mufasssal kitob” (1121) asari arab tili nahvu-sarfini o`rganishda yirik qo`llanma sifatida azaldan Sharqda ham, G`arbda ham shuhrat topgan. Uning ixcham varianti “Al-Un-muzaj” (“Namuna”) nomi bilan ataladi. “Sibavayh kitobiga sharh” asari - mukammal manba. Otsiz Xorazmshohga bag`ishlangan “Muqaddimat ul-adab” (“Adab ilmiga muqaddima”, 1137) asaridagi arabcha so`zlar ostida forsiy va turkiy tarjimalarning berilishi o`zbek tarixiy leksikologiyasi uchun qimmatli. Asar 5 ta katta qismga bo`lingan – ot, fe`l, bog`lovchi,

ot o'zgarishi, fe'l o'zgarishi. Asarda o'sha davr arab tilidagi barcha so'zni qamrab olishga harakat qilingan. "Muqaddimat ul-adab" 1706- yilda Xo'ja Ishoq afandi tomonidan usmonli turk tiliga tarjima qilingan.

"Kitob-al-jibol val-amkina val-miyoh" ("tog'lar, joylar va suvlar haqida kitob") asarida qimmatli geografik ma'lumotlar berilgan. "Asos ul-balog'a" asarida notiqlik san'ati haqida so'z boradi.

Qur'on tafsiriga bag'ishlangan "Al-Kashshof" asari islom olamida mashhur.

Zamaxshariy ijodi A.Z.Validiy, Muhammad Kozimbek, A.Rustamov, U.Tursunov, U.Uvatov, Z.Islomov, M.Hakimjonov kabilar tomonidan o'rganilgan.

1144- yilda hozirgi Ko'hna Ugranchda vafot etgan.

## **MAHMUD KOSHG'ARIY**

Mahmud Koshg'ariy (XI asr) (to'liq ismi Mahmud Ibn-ul Husayn ibn Muhammad-al-Koshg'ariy) – qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning otasi, fonetist-fonolog, leksikolog, leksikograf, lingvogeograf, turkiy tillar sarf va nahv ilmining asoschisi. Uni haqli ravishda turkiyshunoslik fanining asoschisi deb aytish mumkin. Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» (1076–77) asari nafaqat o'sha davr uchun, bugungi turkologiya fani uchun ham o'z qimmatini yo'qotmagan qomusiy asar. Asar davr an'anasiga muvofiq arab tilida yozilgan. Bizgacha birgina qo'lyoma nusxasi yetib kelgan. U muallif o'z qo'li bilan yozgan nusxasidan kotib Abu Bakr Damashqiy tomonidan ko'chirilgan. Istambulda saqlanadi. 1960–63- yillarda S.Mutallibov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, uch tomida nashr qilingan.

## **MAHMUDOV NIZOMIDDIN**

Nizomiddin Mahmudov 1951- yil Farg'ona viloyatida tavallud topgan, filologiya fanlari doktori, professor. Hozirgi o'zbek tilshunosligining sintaksis, leksikologiya, leksikografiya, sotsiolingvistika sohalari bo'yicha qator jiddiy tadqiqotlar yaratgan, ona tili bo'yicha darsliklar e'lon qilgan yirik va sarmahsul olim.

«O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik va sintaktik asimmetriya» (1984), «Yozuv tarixidan qisqacha lug'at – ma'lumotnoma» (1990), «Til va ma'naviyat» (hamkor, 1992), «O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi» (hamkor, 1992), «Turkcha - o'zbekcha, o'zbekcha – turkcha lug'at» (hamkor, 1993), «O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis» (hamkor, 1995), «Til» (1998), «O'zimiz va so'zimiz» (1997), «Ma'rifat manzillarida» (2000), «O'zbek tilida ish yuritish» (hamkor, 2003), «Ona tili» (hamkor, 2004) kabi qator darslik va qo'llanmalar muallifi.

## **MALAY-POLINEZ TILLARI OILASI**

Mazkur tillar oilasi ana'anaga ko'ra 4 guruhga bo'linadi: indonez, polinez, melonez va mikronez tillari. Mazkur tillar o'zagini malay, polinez tillari tashkil qiladi. Malay-polinez tillari oilasi avstronez tillari ham deb yuritiladi. Hozirgi tasniflarda Tayvan avstronez tillari qolgan avstronez tillariga qarama-qarshi qo'yiladi. Ulardan Okeaniya (sharqiy avstronez) shoxobchasi ajralib turadi.

## MAQOL

Maqol – grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalq donishmandligi mahsuli bo'lgan barqaror birikma. *To'g'ri o'zadi, egri ozadi. Ko'ngli qoraning yuzi qora.* Maqollar yaxlit holda yashaydi va xalqning ma'naviy boyligi hisoblanadi. Maqolning aksariyati qo'shma gap shaklli bo'ladi: 1. *O'zga yurtida shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l.* 2. *Bekorchining beti yo'q, qozon osar eti yo'q.* 3. *Bodom po'sti bilan, odam do'sti bilan.* 4. *Kamtar bo'lsang osh ko'p, manman bo'lsang, tosh ko'p.* Sodda gap tipidagi maqol ham tilda ancha: 1. *Bir tariqdan bo'tqa bo'lmas.* 2. *Arg'amchiga qil quvvat.* 3. *Beli og'rimaganning non yeyishini ko'r.* To'liqsiz gap shaklli maqol ham ko'p uchraydi: 1. *Arslon izidan qaytmas, yigit so'zidan (qaytmas).* 2. *Oltin o'tda bilinadi, odam mehnatda (bilinadi).* Maqol tugal fikr bildirishi, ibora bir so'zga teng tushuncha anglatishi, matal esa ergash gapli qo'shma gap tarkibidagi sodda gapdek «chala» fikr ifodalashi bilan o'zaro farqlanadi. Mazmuni obrazli va ko'chma xarakterda bo'lishi bilan o'xshash.

## MATAL

Matal – barqaror birikma turi, to'g'ri ma'no ifodalamaydigan obrazli ifoda, tugal shaklga ega bo'lmagan hikmatli birikma. Mas., *qizil qor yoqqanda, tuyaning dumi yerga yetganda, dumi xurjunda, ali desa vali deydi, berdisini aytguncha* kabi. Matalga boshqa bir gap qo'shilishi bilan fikr to'liq ifodalanadi. Mas., *Berdisini aytguncha jim tur. Tuyaning dumi yerga yetganda qarzini to'laydi* kabi.

## MAXSUS ENSIKLOPEDIK LUG'AT

Maxsus ensiklopedik lug'at – fan-texnika, san'at va madaniyatning ma'lum bir sohasiga oid tushunchalarni shu soha qiziquvchilari va mutaxassislari uchun mo'ljallab tavsiflaydi. Bunday lug'atlar sifatida soha ensiklopedik lug'atlari – «Meditcina ensiklopediyasi», «Физический энциклопедический словарь», «Лингвистический энциклопедический словарь» va qo'lingizdagi lug'atni misol qilish mumkin. Umumiy ensiklopedik lug'atdan farqli ravishda maxsus ensiklopedik lug'atlar tor sohaga doir tushunchani keng va batafsil sharhlaydi. Mas., rus tilida yaratilgan «Лингвистический энциклопедический словарь» da shunday deyiladi: «Bu lug'at turli ixtisosliklardagi filolog-tilshunoslar va ilmiy xodimlarning keng doirasiga, shuningdek, tilshunoslik bilan yaqin bo'lgan soha – psixologiya, mantiq, falsafa, etnografiya va adabiyotshunoslik sohalari mutaxassislarga mo'ljallangan.

## MAXSUS FILOLOGIK LUG'AT

Maxsus filologik lug'at – tor o'quvchilar ommasi, tilshunoslik bilan shug'ullanuvchi va boshqa ayrim ilmiy tadqiqotchilarga mo'ljallangan lug'at turi. O'zbek tilining morfem, chastotali, ters, o'zlashma so'zlar, frazeologizmlar, sinonimlar,

antonimlar, omonimlar, dialektizmlar, terminologik, etimologik lugʻatlari shular jumlasidan.

## MAYL

Gapga kesim vazifasida kirgan feʼl harakatning bajarilishi haqida xabar, buyruq, shart, iltimos maʼnosidan birini bildiradi: *oʻqidi, oʻqisa, oʻqigin* kabi. Feʼl asosida ifodalangan harakat-holat haqidagi xabar, buyruq-istak, shart, maqsad maʼnosini ifodalovchi feʼlning munosabat shakli – m a y l . Maylning uchta shakli ajratiladi:

**Xabar mayli.** Harakat-holatning zamon bilan bogʻliq holda bajarilish yoki bajarilmasligi haqida xabar beradi: *keldi, kelyapti, keladi*. Doimo zamon va shaxs-son qoʻshimchalari bilan shakllangan boʻladi. Xabar maylining maxsus koʻrsatkichi yoʻq.

**Buyruq-istak mayli.** Harakat-holatning kelasi zamonda bajarilish yoki bajarilmasligi haqidagi buyruq, iltimos, maslahat maʼnosini ifodalaydi. Uning qoʻshimchasi buyruq-istak bilan birga shaxs va sonni ham koʻrsatadi:

I shaxsda buyruq shakli mavjud emas, ammo istak maylining birligi *-(a)y* shakli bilan, koʻpligi unga *-lik* shaklini qoʻshish bilan yasaladi: *yozay, yozaylik*. Buyruq-istak maylining asosiy shakli II shaxs, uning birligi: 1) maxsus koʻrsatkichsiz (nol shakl): *yoz*; 2) *-gin* shakli bilan: *yozgin*; 3) koʻpligi *-ing*: *yozing va -ingiz*: *yozingiz* shakllari bilan yasaladi. Maxsus qoʻshimchasiz yasalganda buyruq ohangi kuchli boʻladi: *kel, oʻqi, ket*. III shaxs birlikda *-sin*, koʻplikda *-sinlar* shakli bilan hosil qilinadi: *yozsin, yozsinlar*.

Buyruq-istak maylining inkor shakli *-ma* qoʻshimchasi orqali hosil qilinadi: *bormay, borma(gin), bormasin* kabi.

**Shart mayli.** Boshqa bir harakat/holatning bajarilishi yoki bajarilmasligi uchun shart boʻlgan harakat/holatni, shuningdek, payt, istak, iltimos, maslahat, faraz (*kerak* soʻzi bilan qoʻllanganda), toʻsiqsizlik (asosan, *ham* va *-da* yuklamasi bilan) kabi maʼnolarni bildirgan feʼlning munosabat shakli. *-sa* qoʻshimchasi yordamida yasaladi: 1) shart: *Sunnatjon bilsa, aytadi*; 2) payt: *Mahbuba uyga kirsam, hech kim yoʻq*. 3) istak-xohish: *tezroq talaba boʻlsam*. 4) maslahat: *yaxshisi, oʻtilganlarni takrorlaymiz*. 5) faraz, gumon: *ertaga qor yogʻsa kerak*. 6) iltimos: *daftaringizni berib tursangiz*. 7) taklif: *bitta yostiqlik bersam, yonboshlasangiz*.

**Uslubiy belgilari.** Mayl qoʻshimchasi bir-birining oʻrnida qoʻllanadi:

a) xabar mayli buyruq maylini ifodalaydi: *Qani, yozamiz, bolalar. Ketdik, yigitlar. Bugun ish koʻp, bolam. Mehmonlarning qoʻliga suv quyasan, joy-joyiga oʻtqazib, avval choy berasan. Ovqatlanayotganda ham gapiradimi, odam*.

b) xabar mayli shart mayli oʻrnida: *Vaʼda berdingmi, bajar*.

d) buyruq mayli xabar mayli oʻrnida: *Oʻzingiz oʻylab koʻring. Mehnatni ular qilsin-u, foydani siz koʻzlaysiz*.

## MAʼNO

Maʼno – soʻz va qoʻshimchaning ichki tomoni, semasiologiya va grammatikaning oʻrganish manbai. Soʻz va qoʻshimchani maʼnosiz tasavvur qilib boʻlmaydi.

Soʻz tovush orqali idrok qilinishi va maʼno anglatishi bilan birga tushuncha ifodalash xususiyatiga ham ega. Chunki tushuncha narsa va predmet, voqea va hodisani muhim belgisi asosida boshqa barcha narsa va predmet, voqea va hodisadan ajratadigan fikr shakli. U ana shu narsa va hodisa, uning xususiyati orasidagi maʼlum bogʻlanishni ongda aks ettiradi. Kishining fikrlashi tushuncha asosida vujudga keladi. Shu maʼnoda, soʻz – tushunchaning tildagi ifodasi. Soʻz orqali predmet va hodisa bir-biriga qiyos qilinadi va shu yoʻl bilan uning umumiy va xususiy belgisi ajratiladi. Mas., hozirgi oʻzbek tilida *daraxt* soʻzi umuman daraxt haqidagi tushunchani bildiradi. Ayni zamonda bu soʻz *mevali* va *mevasiz daraxtni*, *mevali daraxtdan olma*, *oʻrik*, *shaftolini*, *shaftolidan chillaki shaftoli* yoki *anjir shaftoli* kabi tushunchani ham ifodalashi mumkin. Misoldan koʻrinadiki, tushuncha doirasi qanchalik kengaygan sari, predmet haqidagi tasavvur ham kengayib boradi, shu predmetni anglatgan soʻz maʼnosida ham kengayish yuz beradi.

Narsa va predmet, voqea va hodisa yoki ular orasidagi munosabatning soʻzda aks etishi soʻzning maʼnosi deyiladi. Boshqacha aytganda, u soʻzning borliqdagi narsa va hodisa (narsa-shaxs, belgi, miqdor, harakat)ni bildirishi, nimaningdir atamasi, nomi boʻlishi.

Odatda, predmet yoki hodisaga duch kelinganda dastlab u tanish predmet yoki hodisa bilan qiyoslanadi va shu asosda yangi predmet yoki hodisaning biror muhim belgisi (xususiyati) ajratiladi. Ana shu muhim belgi narsa va predmetga nom berish uchun asos boʻladi, bu nom soʻzning maʼnosini tashkil qiladi. Buni, ayniqsa, tildagi barcha yasama soʻzda yaqqol koʻrish mumkin: *ishchi* – «ishlaydigan», *tomchi* – «tomadigan», *guliston* – «gul oʻsadigan», *qumtepa* – «qum uyumi» kabi.

Soʻz gapdagi vazifasini grammatik shakllanganda roʻyobga chiqaradi. *Biz litseyda oʻqiyamiz* gapi grammatik shaklsiz (*Biz, litsey, oʻqi*) holida fikr ifodalay olmaydi.

Demak, soʻzning mohiyatini tushunmoq uchun uning fonetik, semantik, grammatik tomoniga eʼtibor berish kerak.

Soʻzning maʼnosi murakkab, uning bir necha tipi mavjud. Eng avvalo, maʼnoning **lugʻaviy (atash), grammatik va qoʻshimcha maʼno** turini farqlash kerak.

**Lugʻaviy (atash) maʼno.** Soʻzning borliqdagi qanday narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatni bildirishi uning lugʻaviy (leksik), yaʼni atash maʼnosi deyiladi. Masalan: *non* – “oziq-ovqat”, *keldi* – “harakat”. Soʻzning leksik maʼnosi uning oʻzak, negizida boʻladi. Baʼzi bir soʻzda lugʻaviy maʼno boʻlmaydi: *lekin, bilan, va, ammo, uchun, sari* kabi. Faqat mustaqil soʻzgina atash maʼnosiga ega boʻladi. Olmosh bundan mustasno. U oʻzi almashtiradigan mustaqil soʻzning atash maʼnosiga ishora qiladi.

**Grammatik maʼno.** Soʻzning biror soʻz turkumiga xos belgisi, soʻz birikmasi va gapdagi vazifasini koʻrsatuvchi xususiyati grammatik maʼno deyiladi. Mas., biror soʻz ot turkumiga, uning turdosh, aniq, yakka turiga mansub, biror kelishikda va maʼlum bir egalik qoʻshimchasini olgan, shuningdek, soʻz birikmasida ergash soʻz, gapda toʻldiruvchi boʻlib kelgan. Sanalgan xususiyatning barchasi ot turkumiga mansub bu soʻzning grammatik maʼnosi. Demak, soʻzning morfologik va sintaktik xususiyati uning grammatik maʼnosini tashkil etadi.

Grammatik maʼno juda koʻp soʻz uchun bir xil, yaʼni umumiy. Shuning uchun u umumiy maʼno deyiladi. Bir xil grammatik maʼnoli soʻz juda koʻp. Lugʻaviy maʼno esa har bir soʻzda alohida.

**Qo'shimcha ma'no.** So'zning lug'aviy ma'nosiga qo'shimcha tarzda kishining his-tuyg'u, kayfiyatini, turli munosabatini, so'zning turli xil uslubda qo'llana olishini ifodalovchi ma'no so'zning qo'shimcha ma'nosi deyiladi. Masalan: *yuz*, *aft*, *chehra* sinonimik qatorida atash ma'nosi bitta, qo'shimcha ma'no har xil. *Yuz* so'zidagi "betaraf", *aft* so'zidagi "salbiy", *chehra* so'zidagi "ijobiy" ma'no qirradi qo'shimcha ma'no.

Qo'shimcha ma'no asosan ikki xil bo'ladi:

**a) hissiy ma'no (emotsional-ekspressiv);**

**b) uslubiy ma'no (stilistik).**

Hissiy ma'no ham o'z navbatida so'zlovchining qanday munosabatini ko'rsatishiga ko'ra ikki turli bo'ladi:

**a) ijobiy;**

**b) salbiy.**

Mas., *chehra* so'zi yuzni ijobiy ma'no bilan ifodalaydi. *Turq* so'zi esa salbiy munosabatni ifodalaydi.

Ma'no qirrasining yuqori, ortiqcha ekanligini bildiruvchi ma'no ham mavjud. Mas., *kerak*, *lozim*, *shart*, *darkor* sinonimik qatorida *kerak*ka nisbatan *lozim*ning, *lozim*dan ko'ra *shart*ning ma'nosi kuchli ekanligini anglash qiyin emas. Bu uslubiy ma'no. Uslubiy ma'no so'zning nutq uslubidan biriga mansubligini ko'rsatuvchi, uni nutq uslubiga ko'ra tavsiflovchi xususiyati. Mas., *bashar*, *hur* so'zi faqat badiiy uslubga xos. *Lozim* so'zi ilmiy, *darkor* so'zi badiiy uslubga xos, *kerak*, *shart* so'zi uslubiy betaraf. Uslubiy betaraf so'zni har qanday nutq vaziyatida ishlatish mumkin. Uslubiy xoslangan so'z ma'lum bir uslubda qo'llanadi.

Barcha so'z qo'shimcha ma'noga ega bo'lavermaydi. Qo'shimcha ma'no so'zning ma'no tarkibida bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Mas., *novcha* so'zining atash ma'nosi – "baland bo'yli", qo'shimcha ma'nosi esa yo'q. *Naynov* so'zida leksik ma'no bilan birga salbiy munosabat ham mavjud. Demak, faqat atash ma'nosiga ega va uslubiy xoslanmagan so'z xolis (neytral) so'z deyiladi.

Qo'shimcha ma'no so'zdagi kabi leksemada bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin.

Yuqoridagi fikrdan bir so'zda qanday ma'no bo'lishi mumkinligini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

a) lug'aviy ma'no + grammatik ma'no + qo'shimcha ma'no: *bashara*, *chehra*, *hur*, *sevgi*, *naynov* kabi;

b) lug'aviy ma'no + grammatik ma'no: *kitob*, *stul*, *odam*, *ozod*;

d) grammatik ma'no + qo'shimcha ma'no: *darkor*, *-chun*, *-la*, *lek*, *yoxud*;

e) faqat grammatik ma'no: *va*, *bilan*, *ammo*, *uchun* kabi.

Demak, leksik (atash) va qo'shimcha ma'no har qanday so'zda bo'lmasligi ham mumkin, lekin grammatik ma'no har bir so'zda mavjud.

**Ma'no kengayishi.** Ma'no kengayishi – tildagi birliklarning vaqt o'tishi bilan ko'p ma'noni anglatib qolish hodisasi. So'z ma'nosi doimiy taraqqiyotda bo'ladi, o'zgarib turadi. *Vatan* so'zi dastlab tug'ilgan joy ma'nosini anglatgan. Bugungi kunda u respublika, davlat ma'nosini ham bildiradi. Bunday holni hozirgi o'zbek tilidagi *burchak*, *kecha*, *yutuq*, *boshlang'ich* kabi qator so'zda ham ko'rish mumkin. Shuningdek, qarindoshlik bildiruvchi *ota*, *ona*, *xola*, *amaki* kabi so'zning keng ma'noda hurmat ifodalovchi sifatida qo'llanishi ham ma'no kengayishiga misol bo'ladi.

Shuningdek, ba'zi manbada atoqli otning turdosh otga o'tishi ham ma'no kengayishi sifatida qoraladi: *Amper – amper, Rentgen – rentgen* kabi.

**Ma'no torayishi.** Ma'no torayishi – davr o'tishi bilan ko'p ma'noni bildiruvchi so'z ma'nosining kamayishi. Mas., *ichkari* so'zi avval biror narsa yoki binoning ichki qismini ham, "biron kishining oila a'zolari" ma'nosini ham bildirgan. Lekin hozir bino yoki narsaning ichki qismini bildiradi, xolos. *Kiyik* so'zi ilgari barcha yirtqich hayvonga nisbatan ishlatilgan bo'lsa, hozir faqat ohuni, *pivo* so'zi avval ichimlikning har qanday turini bildirgan bo'lsa, hozir faqat bir turini ifodalaydi. Turdosh otning atoqli otga ko'chishi ham ma'no torayishiga olib keladi: *po'lat – Po'lat, bolta – Bolta, kumush – Kumush, bahor – Bahor* kabi.

## MA'NODOSHLIK

Ma'nodoshlik (sinonimiya) – birdan ortiq til birligirining ma'no munosabatiga ko'ra har xil shaklda bo'lsa-da, bir tushunchani bildirishi: *ovoz, tovush, un, sado, sas, nido, sazo*.

Tilda bir so'z ko'p ma'noni anglatishi bilan birga, bir necha so'z bir tushunchani bildirishi ham mumkin. Mas., *osmon, falak, ko'k, samo, gardun; yurak, qalb, dil, ko'ngil* kabi. Bir tushunchani turli ma'noda ifodalaydigan so'z ma'nodosh so'z. Ma'nodosh so'zning atash ma'nosi bir xil, o'zaro qo'shimcha ma'nosi bilan farqlanadi. Mas., *yuz, aft, bashara, chehra* so'zining hissiy va uslubiy bo'yog'i farqli.

Ma'nodoshlik so'z, qo'shimcha, ibora, gaplarda mavjud. Shunga ko'ra ma'nodoshlik: 1) **lug'aviy (leksik) ma'nodoshlik**, ya'ni so'z ma'nodoshligi: *ish, yumush; gapirmoq, so'zlamoq*; 2) **ibora (frazologik) ma'nodoshligi**: *boshi osmonga yetdi, terisiga sig'madi*; 3) **qo'shimcha (affiks) ma'nodoshligi**: bu o'z o'rnida ikkiga bo'linadi: a) so'z yasovchi qo'shimcha ma'nodoshligi: *-ser, -dor, -siz, -be*; b) grammatik shakl ma'nodoshligi: *-yap, -yotir, -moqda*; 4) **sintaktik ma'nodoshlik** kabi turga bo'linadi.

Leksikologiyada faqat leksik (lug'aviy) va frazeologik ma'nodoshlik o'rganiladi.

Ma'nodoshlikning mohiyatini to'g'ri tushunish uchun ikki hodisani bir-biridan farqlash lozim:

- tushuncha va so'z, uning o'zaro munosabati;
- so'z va uning ma'nolari, har bir so'zning ma'no qirrasini.

Tushuncha predmet, belgi, voqea-hodisa, harakat haqida kishining tasavvuri, ma'no – uning tilda namoyon bo'lishi. Tushuncha ma'noga, so'z esa tushunchaga to'la ravishda mos kelavermaydi. Mas., *yuz, aft, bashara, chehra* so'zi bir tushunchani bildiradi, ammo ma'nosi boshqa-boshqa. Ma'nosi bir xil so'zning bittasi tilda yashaydi, boshqasi iste'moldan chiqib ketadi.

So'z ma'nosi tushunchaning hamma tomonini qamrab ololmaydi, balki uning mohiyatini va muhim tomonini aks ettiradi. Tushunchaning boshqa tomoni va xususiyati o'zga so'z bilan ifodalanadi.

**Ma'nodoshlik qatori.** Ma'nodosh so'zlar to'plami **ma'nodoshlik qatori** deyiladi. Sinonimik qator birdan ortiq so'zdan tashkil topadi: *osmon, ko'k, samo, falak; qiziq, g'alati, ajoyib, alomat, antiqa, ajab* kabi.

Sinonimik qatordagi ma'lum aniqlikka ega bo'lgan, uslubiy jihatdan «betaraf» soʻz **bosh soʻz** (dominanta) deyiladi: *yurak, koʻngil, qalb, dil* qatorida bosh soʻz – *yurak*.

Bosh soʻz quyidagi xususiyatga ega: a) boshqalariga nisbatan koʻp ishlatiladi; b) uslub tanlamaydi; d) boshqasini erkin almashtiradi; e) hissiy boʻyoqsiz boʻladi.

Qoʻshimcha maʼno anglatish-anglatmasligiga koʻra, sinonim uchga boʻlinadi:

- a) toʻliq maʼnodoshlik;
- b) maʼnoviy maʼnodoshlik;
- d) shartli maʼnodoshlik.

Agar asos maʼno ham, qoʻshimcha maʼno ham bir-biriga toʻgʻri kelsa, **toʻliq maʼnodoshlik** deyiladi: *lingvistika – tilshunoslik, fazogir – kosmonavt, huquqshunos – yurist* kabi. Bir tilning oʻz soʻzlari oʻzaro toʻliq maʼnodosh boʻlmaydi.

Asos maʼnosi bir xil, lekin qoʻshimcha maʼnosi (hissiy, uslubiy maʼnosi) bir-biridan farq qilsa, **maʼnoviy maʼnodoshlik** deyiladi. Mas., *yurak, dil, qalb, koʻngil; kerak, lozim, shart, darkor* kabi.

Maʼnodoshlik munosabati bir soʻz turkumi doirasida boʻladi: *ulugʻ, buyuk, katta* (sifat); *odam, inson, bashar* (ot). Maʼnodoshlik deyarli barcha soʻz turkumida uchraydi.

Koʻp maʼnolilikda maʼnodoshlik. Koʻp maʼnoli soʻzda maʼnodoshlik oʻziga xos. U har bir maʼnosi bilan boshqa-boshqa maʼnodoshlik qatorida boʻlishi mumkin. Mas., *bitirmoq* soʻzi uch maʼnosi bilan uch maʼnodoshlik qatorida birlashadi:

a) *bitirmoq, tugatmoq, tamomlamoq*. Bu soʻz «yakuniga yetkazmoq» tushunchasi asosida oʻzaro maʼnodosh.

b) *bitirmoq, bajarmoq, ado etmoq, doʻndirmoq*. Bu qatordagi soʻz «ish, vazifa, topshiriqni amalga oshirmoq, bajo keltirmoq» tushunchasi asosida oʻzaro sinonim.

d) *bitirmoq, sop qilmoq, yoʻqotmoq*. Bu soʻz «butkul yoʻq holatga keltirmoq» tushunchasi asosida sinonimlik hosil qiladi.

Yoki *birinchi* soʻzini olaylik: a) *birinchi* (sentabr) (sinonimi yoʻq); b) *birinchi* (farzand), *bosh, toʻngʻich, katta*; d) *birinchi* (masala), *asosiy, muhim, dolzarb*; e) *birinchi* (qadam), *dastlabgi, ilk*.

Maʼnodoshlikning paydo boʻlishi. Quyidagi yoʻl bilan paydo boʻladi: a) bir tildan ikkinchi tilga soʻz oʻtishi natijasida: *manglay, peshona; kuch, quvvat; josus, agent*; b) mahalliy shevadan soʻz olish natijasida: *doʻppi, kalapoʻsh; buzoq, goʻsala*; d) soʻz yasalihi natijasida: *his, sezgi; savol, soʻroq; vazifa, topshiriq*; e) soʻzning yangi maʼno kasb etishi natijasida: *oʻrin, joy, lavozim*.

Ayrim soʻz koʻchma maʼnoda qoʻllanib, boshqa soʻzga vaqtincha maʼnodosh boʻladi. Mas., *qattiq* soʻzi koʻchma maʼnoda *baxil, xasis, ziqna, mumsik* soʻzi bilan, *oʻt* soʻzi *chiroy, husn* soʻzi bilan maʼnodosh. Bu **shartli maʼnodoshlik** deyiladi.

Koʻrinib turibdiki, maʼnodoshlikning asosi turlicha, ular oʻzaro umumiy maʼnosi asosida bogʻlanadi. Har bir maʼnodosh soʻz maʼno xususiyatiga koʻra farqlanadi. Shuning uchun ham uning baʼzisini ikkinchisining oʻrnida ishlatib boʻlmaydi.

**Ibora maʼnodoshligi.** Ibora (frazologik) maʼnodoshligi – shakli har xil, maʼnosi bir-biriga yaqin boʻlgan ibora (frazologik sinonim)lar munosabati: *toqati toq boʻlmoq-sabr kosasi toʻlmoq; yaxshi koʻrmoq – koʻngil bermoq; terisiga sigʻmadi – boshi osmonga yetdi*. Lugʻaviy birlik sifatida ibora soʻz bilan sinonimlik tashkil qila oladi:

*g'azablanmoq – joni chiqmoq, sevmq – yuragidan urmoq, maqtamoq – ko'klarga ko'tarmoq.* Bu ibora va soʻz (leksik-frazeologik) maʼnodoshligi deyiladi.

**Maʼnodoshlikning uslubiy xususiyati.** Ogʻzaki va yozma nutqda maʼnodoshlikning amaliy ahamiyati katta. Maʼnodoshlik soʻzni oʻrinsiz takrorlashga yoʻl qoʻymaydi, uslubning ravonligini taʼminlaydi.

Maʼnodoshlik badiiy nutqda tasvir vositasi boʻlib xizmat qiladi. Yozuvchi maʼnodoshlik vositasida kishi xarakterini, voqea-hodisani, manzarani aniq va jozibali qilib tasvirlaydi. Maʼnodoshlikdagi bunday xususiyatni XV asrdayoq idrok etgan Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lugʻatayn» asarida *ichmoq* soʻzining 6 ta, *yigʻlamoq* soʻzining 7 ta maʼnodoshini keltiradi: *yigʻlamoq, ingramoq, singramoq, siqtamoq, oʻkirmoq, inchkiramq, hoy-hoy yigʻlamoq.* Alisher Navoiy bu maʼnodosh soʻzlarni bir-biridan oʻzining nozik maʼno qirrasini bilan farqlanishini sheʼriy nutqda qoʻllash asosida tushuntiradi.

Maʼnodosh soʻz oʻzaro hissiy-taʼsiri boʻyogʻi bilan farqlanadi: *yuz, aft, bashara, bet, chehra, jamol, ruxsor, diydor* sinonimik qatoridagi *yuz* soʻzi betaraf boʻlsa, *bet, aft* soʻzi salbiy boʻyoqli, *bashara* soʻzida esa salbiy boʻyoq yanada kuchli, *turq* soʻzida *bashara* soʻziga nisbatan ham kuchliroq; *chehra* ijobiy boʻyoqqa ega, *jamol* soʻzida bu boʻyoq yanada kuchli. Soʻzlovchi oʻz kayfiyati, maqsadi va munosabatiga qarab undan tanlaydi. Shuningdek, maʼnodoshning ishlatilish doirasi chegaralangan yoki chegaralanmagan boʻlishi mumkin: *keksa, qari, oqsoqol, nuroniy, moʻysafid* sinonimik qatoridagi *qari* soʻzining ishlatilish doirasi keng, qolganiniki esa chegaralangan.

Maʼnodoshni oʻrinsiz ishlatish oqibatida turli uslubiy xato kelib chiqadi: *Buldozer koʻchamizda yiqilay deb turgan devorlarni bir chekkaga surib yoʻl ochar edi* gapida *yiqilay* soʻzi noʻrin qoʻllangan, chunki bu soʻz kishiga nisbatan ishlatiladi; bunda devorga nisbatan *nuray (qulamoq)* soʻzi qoʻllanishi maqsadga muvofiq edi.

**Qoʻshimcha (affiksal) maʼnodoshligi.** Qoʻshimcha (affiksal) maʼnodoshligi – qoʻshimchalardagi shaklning turlicha, lekin maʼnoning bir xil boʻlish hodisasi. Barcha tur qoʻshimcha maʼnodoshlik munosabatida boʻladi. Shu boisdan soʻz yasovchi qoʻshimcha maʼnodoshligi hamda grammatik qoʻshimcha maʼnodoshligi farqlanadi.

Qoʻshimcha maʼnodoshligiga misol keltiramiz:

| Qoʻshimcha | Misol                                         | Qoʻshimcha   | Misol                        |
|------------|-----------------------------------------------|--------------|------------------------------|
| ba/-li     | <i>bahaybat – haybatli</i>                    | -qir/-agʻon  | <i>topqir – topagʻon</i>     |
| -ga/-ni    | <i>unga tushunmadi – uni tushunmadi</i>       | -chi/-shunos | <i>tilchi – tilshunos</i>    |
| -dan/ -ni  | <i>nondan oling – nonni oling</i>             | no/-siz      | <i>nooʻrin – oʻrinsiz</i>    |
| -dan/-ga   | <i>teshikdan sigʻmadi – teshikka sigʻmadi</i> | -ona/-larcha | <i>mardona – mardlarcha</i>  |
| -dan/-ning | <i>shundan biri – shuning biri</i>            | -sa/-sira    | <i>suvsamoq – suvsiramoq</i> |
| -digan/-ar | <i>qiladigan ish – qilar ish</i>              | -lab/-dan    | <i>saharlab – sahardan</i>   |
| -don/-li   | <i>bilimdon – bilimli</i>                     | (-u)v / -    | <i>oʻquv – oʻqish</i>        |

|                      |                                         |                       |                                              |
|----------------------|-----------------------------------------|-----------------------|----------------------------------------------|
|                      |                                         | (i)sh                 |                                              |
| -do`z/-chi           | <i>mahsido`z – mahsichi</i>             | -imtir/-ish/-roq      | <i>Oqish – oqimtir – oqroq</i>               |
| -yotir/-moqda/-yapti | <i>borayapti – borayotir – bormoqda</i> | -iz/-dir              | <i>Tomiz – tomdir</i>                        |
| -ish/-lar            | <i>ketishdi – kettilar</i>              | -larcha/-cha/-chasiga | <i>Erkaklarcha – erkakchasiga – erkakcha</i> |
| -lay/-ligicha        | <i>butunlay – butunligicha</i>          |                       |                                              |
| -loq/-zor            | <i>o`tloq – o`tzor</i>                  | -li/-dor              | <i>unumli – unumdor</i>                      |
| ser/-li              | <i>sero`t – o`tli</i>                   | be/-siz               | <i>bemaza – mazasiz</i>                      |
| -soz/-chi            | <i>soatsoz – soatchi</i>                |                       |                                              |

**So`z yasovchi qo`shimcha ma`nodoshligi.** So`z yasovchi qo`shimchaning bir-biriga yaqin ma`noni ifodalashi so`z yasovchi qo`shimcha ma`nodoshligi deyiladi. Mas., sifat yasovchi *-li, -dor, -ser, -ba* qo`shimchasi o`zaro sinonim: *savlatli, savlatdor, sersavlat, basavlat* kabi. Biroq ma`nodoshlik to`liq emas, balki qo`shimchaning ayrim ma`no qirrasida orasida. Ya`ni bir qo`shimcha ikkinchi qo`shimcha bilan barcha ma`nosi asosida sinonim bo`la olmaydi.

**Grammatik qo`shimcha ma`nodoshligi.** *Nonni yeng – nondan yeng, uyga jo`namoq – uy tomon jo`namoq* kabi hodisada grammatik ma`nodoshlik mavjud. Grammatik ma`nodoshlik grammatik qo`shimcha orasida ham, grammatik qo`shimcha va yordamchi so`z orasida ham bo`ladi.

## METAFORA

Metafora (*metaphora* – «ko`chirish», «ko`chirma») – biror predmet, belgi yoki harakatning boshqasiga tashqi o`xshashligi asosida ma`no ko`chish hodisasi. Bunda predmetning rangi, shakli, harakat-holati, xususiyati, o`rni va paytga munosabati jihatidan o`xshashligiga asoslaniladi. Mas., *choynakning jo`mrangi odamning burniga, dengizning quruqlikka suqulib kirgan joyi odamning qo`ltig`iga o`xshatiladi*. Metafora ko`proq odam tana a`zosi nomiga (*bosh, yuz, burun, og`iz, quloq, til, oyoq*); kiyim qismiga (*etak, yoqa*); hayvon, parranda yoki hasharotning biror a`zosi nomi (*qanot, dum*) kabilarga o`xshatib hosil qilinadi. *Otlanmoq* ilgari «otga minib biron joyga borish» ma`nosida ishlatilgan (albatta, ot minganlik tasavvur qilingan), hozir xoh ot, xoh piyoda, xoh mashinada bo`lsin – «biror joyga jo`nash» ma`nosi tushuniladi. Bunda harakatning tashqi o`xshashligi mavjud. Narsa va hodisa orasidagi o`xshashlik quyidagicha bo`lishi mumkin: 1) shakliy o`xshashlik: *odamning qulog`i – qozonning qulog`i, qush uchdi – odam uchdi*; 2) joylashish o`xshashligi: *itning dumi – samolyotning dumi, qo`shni odam – qo`shni dala*; 3) mazmuniy o`xshashlik: *tomdan yiqilmoq – imtihondan yiqilmoq, sovuq havo – sovuq xabar, qaynoq suv – qaynoq liniya, achchiq o`t – achchiq sovuq, tomdan tushmoq – mansabdan tushmoq, odam o`tirdi – fabrika o`tirdi, akkumulyator o`tirdi*.

Metaforaga juda yaqin bir vosita **o`xshatish**, ular yordamida shaxs-predmet bir-biriga yaqinlashtiriladi, qiyos qilinadi. Unda *-dek, -day, go`yo, yanglig`, singari, xuddi* kabi o`xshatish vositasidan foydalaniladi: *Bahor kelinchakdek yasanib keldi. Ulug`bek – misoli oftob.* Nutq jarayonida metaforadadan o`rinli foydalanganda so`zlovchining badiiy-estetik qobiliyati namoyon bo`lib, nutqning ta`sirchanligiga, jozibaliligiga erishiladi.

## METONIMIYA

Metonimiya (*m e t o n i m i a* – «yangi nom qo`yish», «nomni o`zgartirish», «qayta nomlash») – bir narsa va hodisaning nomini makon va zamondagi o`zaro bog`liqligi asosida ikkinchisiga ko`chirish usulu. Metonimiyada biror predmet xususiyati yoki voqea-hodisaning nomini aytganda shunga o`zaro bog`liq bo`lgan ikkinchisi anglashiladi. Bunda o`xshashlik nazarda tutilmaydi. Boshqacha aytganda, ikkita bir-biriga bog`liq predmet, belgi, holatdan birining nomi tejamkorlik natijasida tushiriladi. Mas., *Fuzuliyning oldim qo`limga, Majnun bo`lib yig`lab qichqirdi (H.Olim.)* gapida *Fuzuliy* va *asar (Fuzuliyning kitobini oldim qo`limga)* bir-biriga bog`liq, tejash uchun *kitob* so`zi tushirib qoldirilgan. Natijada *Fuzuliy* so`zi shaxs ma`nosini emas, *kitob* so`ziga xos ma`noni ifodalagan. Metonimiya turli ko`rinishda bo`ladi: 1) o`ringa munosabatiga ko`ra: *bir stakan (suv) ichdim, bir tarelka (ovqat) yedim, qishloq uyquda*; 2) vaqtga ko`ra: *o`nga (yosh) kirdim, yarim yillik (imtihon) topshirildi*; 3) muallif va asar orasidagi munosabatga ko`ra: *Pushkinni (asar) o`qidim* va hokazo. Metonimiya asosidagi **ko`chma ma`no** – fikrni lo`nda va ta`sirchan bayon qilish vositasi.

## MIRZO MAHDIXON

Mirzo Mahdixon ((XVII–XVIII asr, Eron) asl ismi – Nizomiddin Muhammad Xodi al-Husayni as-Safaviy). Asli astrobodlik, Eron shohi Nodirshoh saroyida muarrix va xattot bo`lib ishlagan. Grammatika masalalarini o`z ichiga olgan «Sangloh» (1760) lug`ati mashhur. Asarga qo`shimcha kiritilgan «Maboni ul - lug`at» ikki qismdan: muqaddima va tarsif (grammatika) dan iborat.

Muqaddima qismida asarning yozilish sababi, Alisher Navoiy asarlarining asar yozilishi uchun manba bo`lib xizmat qilgani, turkiy tilning arab va turs tillaridan farqlanuvchi o`ziga xos grammatik xususiyati haqida fikr yuritiladi. Asarning lug`at qismi, asosan, Navoiy, Lutfiy, Bobur asarlaridagi tushunilishi qiyin bo`lgan so`zlar izohiga, ularning fors tiliga tarjima qilinishiga qaratilgan.

Tarsif qismida arab tilida fe'llarning asosi masdar-infinitiv ekanligi, o`zbek tilida esa II shaxs, birlik, buyruq mayli shaklida ekanligi va fe'lning barcha shakllari shu asosdan hosil qilinishi bayon qilinadi.

Mirzo Mahdixonning «Maboni ul-lug`at» asari – XVII–XVIII asr o`zbek tilshunosligidagi grammatik tushunchani qamrab olgan nodir manba.

## MODAL SO`Z

Modal soʻz – soʻzlovchining bildirgan fikriga qoʻshimcha munosabatini ifodalovchi soʻzlar guruhi.

Umumiy grammatik belgilari. Morfologik jihatdan oʻzgarmaydi: turlanmaydi, tuslanmaydi. Soʻz yasalishi, shakl yasalishi uchun asos boʻlmaydi. Maʼnoli qismga ajralmaydi. Gapda boshqa boʻlaklar bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi.

Modal soʻzning 2 turi ajratiladi:

1. Sof modal soʻz: *albatta, chamasi, aftidan, tabiiy, mazmuni, ehtimol;*

2. Modal maʼnoli mustaqil (vazifadosh) soʻz: *bor, yoʻq, kerak, darkor, zarur, lozim, mumkin, iborat.*

Modal soʻzlar, aslida boshqa turkumdan oʻsib chiqib, alohida bir guruhni hosil qilgan: 1) otdan: *ehtimol, chogʻi, chamasi, mayli, mazmuni, haqiqatdan, haqiqatda, darhaqiqat, darvoqe, filhaqiqat, aslida, aftidan, xayriyat, vassalom;* 2) sifatdan oʻsib chiqqan: *shubhasiz, shekilli, rost/rostdi, toʻgʻri/toʻgʻrisi/ toʻgʻrirogʻi, soʻzsiz, tabiiy/tabiiyki, maʼlumki, muhaqqaq, ochigʻi;* 3) ravishdan: *albatta, rostdan, chindan, avvalo, zotan, umuman;* 4) bogʻlovchidan: *balki;* 5) olmoshdan: *oʻz-oʻzidan, har qalay;* 6) feʼldan: *kel/keling, qoʻy/qoʻying/qoʻyingki, hoynahoy, demak, deylik, olaylik;* 7) sintaktik birlikdan: *har holda, haytovur, ishqilib, bari bir, nafsilambiriga.*

Modal soʻzning maʼno turi. Modal soʻz ifodalaydigan maʼnosiga koʻra ikkiga boʻlinadi:

1) fikrning aniqligini bildiradigan modal soʻz: *darhaqiqat, darvoqe, haqiqatan/haqiqatdan(ham), rost, toʻgʻri/toʻgʻrisi, rostdan, chindan;*

2) fikrning noaniqligini bildiruvchi modal soʻz: *balki, ehtimol, chamasi, aftidan, mazmuni;*

Sintaktik vazifasi. Modal soʻz quyidagi sintaktik vazifada keladi:

1. Kirish soʻz: *Bu, shubhasiz, bizning yutugʻimiz. Tabiiy, bir kun oldin ekan hafta burun oʻradi. Balki bu biz bilmagani yangi elementdir.*

2. Soʻz-gap:

– *Bemorni kasalxonaga yotqizish kerakmi?*

– *Albatta.*

– *Majlis bir soatda tugarmikin?*

– *Ehtimol.*

Modal maʼnoli soʻz:

1. Kesim: *Kitob bor. Daftar yoʻq;*

2. Kesimning tarkibiy qismi: *Bugun borishim kerak. Kitobning keragi yoʻq;*

3. Sifatlovchi-aniqlovchi: *Yoʻq narsani yoʻndirib boʻlmaydi.*

4. *Bor, yoʻq, kerak* soʻzi otlashsa, otning sintaktik vazifasini bajaradi: *Bor maqtansa topilar, yoʻq maqtansa chopilar.*

Modal soʻzlarda shakl va maʼno munosabati. Modal soʻz maʼnodoshlik, shakldoshlik, zid maʼnolilik munosabatida boʻladi:

1) maʼnodosh modal: *chamasi – chogʻi – mazmuni; shubhasiz – shaksiz – soʻzsiz; oʻz-oʻzidan – tabiiy; haqiqatda – haqiqatdan – darhaqiqat; voqean – darvoqe – aytgancha – deganday; ehtimol – balki.*

2) zid maʼnoli modal: *bor – yoʻq, ha – yoʻq.*

3) shakldosh modal: *to`g`ri, rost, tabiiy (sifat) – to`g`ri, rost, tabiiy (modal); albatta, rostdan, chindan (ravish) – albatta, rostdan, chindan (modal).*

Modal so`z **ma`noli qism** (morfemalar)ga ajratilmaydi: *aftidan, shubhasiz*. Lekin unda omonim bo`lgan mustaqil so`z ajratiladi: *Uning tobi qochganligi aftidan bilinardi (aftidan – ot, aft-i-dan). Bu haqiqat shubhasiz (shubhasiz – ot, shubha – siz).*

Modalga o`tish bosqichida turgan ayrim so`zni modal yoki modal emas deyish qiyin. Shuningdek, *xullas, xullasikalom, demak, bas, binobarin, qisqasi, umuman; mas., shuningdek, jumladan, chunonchi; aksincha; avvalo, avvalambor, nihoyat; aytganday, aytmoqchi, zotan; xususan, ayniqsa, asosan; koski, zora, yaxshiki, xayriyat, shoyad* kabi so`zni ko`proq so`zlovchining qo`shimcha munosabatini ifodalashga xoslanayotganligi, kirish bo`lak vazifasini bajarayotganligi uchun modal so`z deyish mumkin.

## MORFEM LUG`AT

Morfem lug`at – so`zning tarkibi (ma`noli qismlari)ni ko`rsatadigan filologik lug`at turi. Bunday lug`at birinchi marta A.G`ulomov, A.N.Tixonov, R.Q.Qo`ng`urov tomonidan tuzilib, 1977- yilda «O`qituvchi» nashriyoti tomonidan chop etilgan. 2007-yil «Yangi asr avlodi» nashriyatida B.Mengliyev va B.Bahriddinovaning maktab o`quvchisi uchun mo`ljallangan «O`zbek tilining so`z tarkibi o`quv lug`ati» chop etilgan.

## MORFEMIKA

Morfemika (so`z tarkibi) – tilshunoslikning alohida bo`limi, morfema haqidagi ta`limot. So`zning ma`noli qismi – o`zak va qo`shimcha, uning xususiyati va turi, qo`shimchanning vazifasi, tuzilishi, joylashishi, aniqrog`i so`z tarkibini tekshiradi. Maktabda morfemika bo`limi morfologiyaga kirish mavzusi sifatida o`qitiladi. Bu bo`limda asos va qo`shimcha, qo`shimchanning vazifasi, tuzilishi, shakl va ma`no munosabatiga ko`ra turi, qo`shimchalarning asosga qo`shilish tartibi, qo`shimcha qo`shilganda asosda yuz beradigan fonetik o`zgarishlar o`rganiladi.

## MORFOLOGIK TAHLIL

Morfologik tahlil – so`zlarni turkumlarga ajratib, ularning shakllari va xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan amaliy izohlash. Unda quyidagilarga e`tibor qaratiladi: 1. Ifodalaydigan kategorial umumiy ma`nosiga ko`ra qaysi turkumga mansubligi. 2. Shu so`z turkumining qaysi lug`aviy-mazmuniy guruhga mansubligi aniqlanadi. 3. Grammatik shakli – lug`aviy va sintaktik shakllari. 4. Tuzilishiga ko`ra turlari. 5. Gapdagi vazifasi.

Namuna: *Men nechun sevaman O`zbekistonni,*  
*Tuprog`in ko`zimga aylab to`tiyo. (A.Orip.)*

*Tuprog`in* – ot, turdosh ot, III shaxs birlik, tushum kelishigining qisqargan poetik varianti, sodda, vositasiz to`ldiruvchi. *Ko`zimga* – ot, turdosh ot, I shaxs birlik, jo`nalish kelishigi, sodda, to`ldiruvchi. *Aylab to`tiyo* – fe`l, harakat fe`li, qo`shma fe`l – *to`tiyo*

*aylab* – soʻz tartibi poetik talabga koʻra oʻzgargan, ravishdosh shakli, aniq nisbat, xabar mayli, boʻlishli, oʻtgan zamon shakli, qoʻshma, ravish holi.

## MORFOLOGIK YOZUV

Morfologik yozuv (tamoyil, prinsip) – oʻzakka qoʻshimcha qoʻshilganda yuz beradigan tovush oʻzgarishini inobatga olmay yozishga asoslangan imlo tamoyilidan biri. Mas., *uchta* soʻzi *ushta*, *kelib turibdi* soʻzi *kep turibti* tarzida aytiladi. Ammo ular asliga muvofiq *uchta*, *kelib turibdi* tarzida yoziladi. Yoki *-lar* qoʻshimchasining *-la*, *-lor*, *-nor* holida aytilishiga qaramay, asl holati yoziladi. Feʼlning noaniq shakli *-moq* qoʻshimchasi ogʻzaki nutqda *-mak* aytilsa ham, *-moq* yoziladi. Hozirgi orfografiya talabi boʻyicha qoʻshimchaning deyarli hamma shakli morfologik yozuv boʻyicha yoziladi: egalik affiksi: *-im*, *-ing*, *-i*, kelishik affiksi: *-ning*, *-ni*, *-da*, *-dan*, soʻz yasovchi ham turlicha aytilishidan qatʼi nazar imloda oʻzining asl morfologik shaklini saqlaydi. Morfologik yozuv soʻz va morfemani adabiy tilda yagona shaklda saqlash va yozishga koʻmaklashadi, yozuvda bir xillikni taʼminlaydi. (q. **Fonetik yozuv**).

## MORFOLOGIYA

Morfologiya (*m o r p h e* va *l o g o s* – "shakl haqidagi fan") – grammatikaning soʻz turkumi, unga xos grammatik kategoriya va grammatik shakl, bu shaklni hosil qilish yoʻli va vositasini oʻrganuvchi tarkibiy qismi.

Morfologiyaning obyekti, asosan, soʻzning shakl yasalishi masalasi. Soʻzning shakl yasovchi qoʻshimcha va nomustaqil soʻzni olishi shakl yasalishi, oʻzgarishi deyiladi. Mas., *kitob*, *kitobning*, *kitobni*, *kitobga*, *kitobda*, *kitobdan*, *kitob uchun*, *kitob bilan* soʻzlari *kitob* soʻzining kelishik qoʻshimchasi va koʻmakchi asosidagi oʻzgarishi.

## «MUHABBATNOMA»

«Muhabbatnoma» – Xorazmiyning dunyoviy lirikaga munosib hissa boʻlib qoʻshilgan asari. Eski oʻzbek adabiy tilining va oʻzbek adabiy tilida noma janrining birinchi namunasi. U Oltin Oʻrda hududida hukmronlik qilgan Muhammad Xoʻjabekning iltimosiga koʻra yozilgan. Shoir uni Sirdaryo yoqalarida yozganligini maʼlum qiladi. Asarning ikki nusxasi fan olamida maʼlum. Biri arab, ikkinchisi uygʻur yozuvida. Ikkalasi ham Londondagi Sharq qoʻlyozmalari muzeyida saqlanadi.

Asar xudoga hamd, paygʻambarlarga naʼt bilan boshlanib, soʻngra asarning kimga bagʻishlanganligi va uning madhi, lirik chekinish – gʻazal keltiriladi. Soʻngra asarning yozilish sababi aytilib, nomlar keltiriladi. Har qaysi nomadan keyin masnaviy yoki gʻazal beriladi.

«Muhabbatnoma» asari oshiqning oʻz maʼshuqasiga yozgan sheʼriy maktublari koʻrinishida. 11 nomadan iborat, 8 tasi eski oʻzbek tilida, uchasi (4-, 8-, 11-) fors-tojik tilida.

Asarning yozilish yilini shoirning oʻzi hijriy 754 (milodiy 1353) deb aytadi.

## MURAKKAB QO`SHMA GAP

Murakkab qo`shma gap – ikkitadan ortiq sodda gapning bog`lanishidan tuzilgan qo`shma gap turi. Maktab darsligida uch va undan ortiq sodda gapning birikishidan tarkib topgan gap murakkab qo`shma gap deyiladi. Ayrim darslikda uning quyidagi turi ajratiladi: 1) bog`lanish yo`li bilan tuzilgan murakkab qo`shma gap, ya`ni tarkibidagi sodda gap teng bog`lovchi yoki shu bog`lovchi vazifasidagi yuklama yordamida bog`langan qo`shma gap: *Hamma keldi- **yu**, Sattor kechikayotgan edi, **lekin** biz ishni boshlashga qaror qildik*; 2) ergashish yo`li bilan tuzilgan murakkab qo`shma gap (bu haqda quyida so`z yuritiladi); 3) bog`lovchisiz tuzilgan murakkab qo`shma gap, ya`ni tarkibidagi sodda gaplar maxsus bog`lovchi vositasiz, faqat ohang yordamida bog`langan murakkab qo`shma gap: *Nonlar yopildi, qo`ylar so`yildi, o`choqlarga o`t yoqildi*. 4) aralash tarkibli murakkab qo`shma gap. (Bu haqda quyida so`z yuritiladi).

**Bir necha ergash gapli murakkab qo`shma gap.** Birdan ortiq ergash gap bir bosh gapga tobelanib kelsa, bir necha ergash gapli qo`shma gap deyiladi. Bunday gap tarkibidagi ergash gap bosh gapdan, shuningdek, bir-biridan vergul bilan ajratiladi: *Tomosha zaliga kirsam, chiroq o`chib, parda proyektor nurida porlab turardi*. Bu gapdagi ergash gap bosh gapga quyidagicha bog`lanadi: 1) to`g`ridan-to`g`ri tobelanish (birgalik ergashish). Bunda ergash gapning har biri to`g`ridan-to`g`ri bosh gapga bog`lanadi. Bunday gapdagi ergash gap: a) bir xil ergash gap (uyushgan) bo`ladi: *Mana bu kanal bitsa, yangi yer ochilsa, paxta ham ko`payadi*; b) har xil ergash gap (uyushmagan) bo`ladi: *Bordi-yu, rost bo`lsa, hammasi emas, yarmi rost bo`lsa ham, juda xunuk gap-ku!* Bunda oradagi biror ergash gap tushirib qoldirilsa ham, gap qurilishi va mazmuni buzilmaydi: *Mana bu kanal bitsa, yangi yer ochilsa, paxta ham ko`payadi – Mana bu kanal bitsa, paxta ham ko`payadi*; 2) ketma-ket ergashishda har bir ergash gap to`g`ridan-to`g`ri bosh gapga bog`lanmasdan, biri ikkinchisiga, ikkinchisi keyingisiga va oxirgisi bosh gapga bog`lanadi. Bunday gap tarkibida turli xil ergash gap qatnashadi: *Agar siniq shisha bo`lsa ham, birovning mulki bo`lsa, xiyonat qilma*. Bunda oradagi ergash gap tushurilsa, gap qurilishi va mazmuni buziladi: *Agar siniq shisha bo`lsa ham, birovning mulki bo`lsa, xiyonat qilma – Agar siniq shisha bo`lsa ham xiyonat qilma* kabi.

**Aralash turdagi qo`shma gap.** Tarkibidagi gap ergashish yo`li bilan ham, tenglanish yo`li bilan ham bog`langan bo`lsa, aralash turdagi qo`shma gap deyiladi. Bunday qo`shma gap uchdan ortiq sodda gapdan ham tashkil topadi: *Eshik ochildi, shuning uchun hamma qayrilib qaradi, lekin hech kim kirmadi; sovuq havo xonani qopladi*.

## MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIK

Murakkab sintaktik butunlik – sodda gaplarning bir-biriga grammatik jihatdan bog`lanmasdan, nisbatan mustaqil, lekin bir mavzu atrofida birlashishidan hosil bo`lgan sintaktik birlik: *Men ko`chada do`stimni uchratib qoldim. Biz u bilan birga dars tayyorlashga kelishib oldik. Do`stim ham matematika va ona tilidan sal qiynaladi*. Bir

abzas (xat boshi) tarkibidagi mustaqil gaplar murakkab sintaktik butunlikni tashkil etadi.

## **MUSTAQIL LUG`AVIY MA`NOLI SO`Z**

Mustaqil lug`aviy ma`noli so`z – atash ma`nosiga ega bo`lgan so`zlar. Bunday so`zlar mustaqil so`roq qabul qilib gapda turli gap bo`lagi vazifasida kela oladi. Fe'l, ot, sifat, son, ravish turkumiga mansub so`zlar mustaqil atash ma`nosiga ega bo`ladi.



## **NE`MATOV HAMID**

Filologiya fanlari doktori, professor Hamid Ne`matov 1941 yilning 22 noyabrida Buxoro shahrida tavallud topgan. O`zbek tili tarixi, leksikologiyasi, morfologiyasi yuzasidan qator asarlar muallifi.

H.Ne`matov tilshunoslikning deyarli barcha sohalari bo`yicha barakali ijod qilib kelmoqda. Uning «История лингвистических учений» (1981), «Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI – XII в.» (1989), «O`zbek tili tarixiy fonetikasi» (1992), «Til va nutq» (hamkorlikda, 1993), «O`zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari» (hammuallif, 1995), «Ona tili ta`limi mazmuni» (hammuallif, 1995), «O`zbek tili struktural sintaksisi asoslari» (hammuallif, 1999) kabi asarlari, shuningdek, tilshunoslik tarixi hamda hozirgi o`zbek tilshunosligining dolzarb masalalariga, ona tili ta`limi mazmuniga bag`ishlangan 300 dan ortiq ilmiy, ilmiy – metodik maqolalari fanimiz rivojiga barakali xizmat qilmoqda.

H.Ne`matov o`zbek tilini sistemaviy tadqiq qilish asoschilaridan hisoblanadi.

H.Ne`matov o`rta umumiy ta`limda ona tili predmetini takomillashtirish bo`yicha ham barakali xizmat qildi. U o`rta maktablarning V–IX sinflari uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ishlashga mo`ljallangan «amaliyotdan nazariyaga» tamoyiliga asoslangan yangi tipdagi ona tili darsliklarining nazariy asoschisi.

H.Ne`matov o`zbek tilini uning milliy tabiatidan kelib chiqqan holda tadqiq etib, boshqa tillar qolipi asosida o`rganish jarayonida yuzaga kelgan chalkashliklarga aniqlik kiritdi va o`zbek tilshunosligining keyingi takomillashuviga katta hissa qo`shdi.

## **NISBAT**

Nisbat shakli – bajaruvchining harakat va holat jarayoniga qay darajada ishtirok etishini ko`rsatuvchi fe'l shakli.

Fe'llarda harakat va bajaruvchi munosabatining besh ko`rinishi ajratiladi:

- 1) harakat bajaruvchisi aniq: *Mohiniso tuflisini kiydi;*
- 2) bajaruvchi harakatni o`z ustida amalga oshiryapti: *Mohiniso kiyindi;*

- 3) harakatning bajaruvchisi noma'lum: *Tufli kiyildi*;
- 4) harakat jarayonida kimdir orttirilayapti: *Mohiniso tuflini kiydirdi*;
- 5) bajaruvchi birdan ortiq, birgalikdagi harakat: *Tuflilarini kiyishdi*.

Nisbat shakli fe'ning tasniflovchi lug'aviy shakli hisoblanadi. Nisbatini yo'qotgan fe'l fe'ldan chiqib ketadi: *ko'ra, qaraganda, qaramay, osha, o'ta, eshitishimcha, aytishlaricha, demak, qarab*. Nisbat shakli fe'lga o'zak yoki negizdan keyin, ya'ni boshqa shakl yasovchilardan oldin qo'shiladi. Nisbat shaklining besh turi ajratiladi:

**Aniq nisbat.** Bajaruvchisi aniq bo'lgan harakat yoki holatni bildirgan fe'l shakli. Maxsus qo'shimchaga ega emas, ya'ni nol shaklli: *bildi, ko'rdi, so'radi, aytmadi, qaytmadi*.

**O'zlik nisbati.** Bajaruvchining o'z ustida amalga oshiradigan harakat yoki holatni ifodalaydigan fe'l shakli. Maxsus shakli: *-(i)n, -(i)l – tashlan, ko'rin, yuvin, taran, so'kin, suyan, so'zlan, yutin, kiyin, artin, kavshan, o'pkalan, tanil, ayiril, qayril, bo'g'il, tug'il, qoril, yig'il, otil, qiynal, teshil, tikel*.

Ayrim manbalarda o'zlikning *-(i)sh* shakli ham qayd etiladi: *joylashdi, kerishdi, qorishdi*. (Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili: pedagogika institutlari filologiya fakulteti studentlari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 1980. – B. 329)

O'zlik nisbat shakli, asosan o'timli, qisman o'timsiz fe'llardan yasaladi: *kiyin, izlan, shoshil*. Hatto o'timli fe'llarning barchasidan o'zlik nisbat yasalmaydi: *yayra, yashna, qichqir, uxla, bor, kel, o'qi, hayda, ek, min, kes, sug'or, hidla*. Fe'l yasovchi *-lan* shakli bilan yasalgan *jonlanmoq, odatlanmoq, harakatlanmoq, zavqlanmoq, xezlanmoq* fe'llari aniq nisbat shaklida bo'ladi.

**Majhul nisbat.** Bajaruvchisi noma'lum bo'lgan harakat yoki holatni ifodalovchi nisbat shakli maxsus shakli *-(i)n, -(i)l: tozalandi, takrorlandi, egarlandi, tarjima qilindi, o'qib bo'lindi, olindi; o'qildi, haydaldi, o'raldi, yasaldi, archildi, yugurtirildi, keltirildi, to'xtatildi, yurildi, tushildi, tushirildi, topshirildi*. Bunda harakatni kim bajarishi emas, bajarilishi muhim bo'ladi: *yer haydaldi. Pol yuvildi. Xona tozalandi*.

**Birgalik nisbat.** Birdan ortiq bajaruvchi tomonidan birgalikda bajarilgan harakat yoki holatni ifodalaydigan nisbat shakli maxsus ko'rsatkichi *-(i)sh: borishdi, kelishdi, o'qishdi, terishdi*. III shaxs ko'plik son shaklidagi aniq nisbat fe'lga III shaxs birlik son shaklidagi birgalik nisbati ma'nodosh bo'ladi: *o'qidilar – o'qishdi* kabi.

Ma'nosi:

- birga bajarish: *Mehmonlar kelishdi*;
- ko'maklashish: *U ukasiga paxta terishdi*;
- umuman ko'plik: *Talabalar imtihonga tayyorlanishdi*;
- galma-gal bajarish: *Ikkovlari birga arra tortishdi*.

Ba'zan birgalik nisbati qo'shimchasi fe'l yasovchi *-la* qo'shimchasi bilan yaxlitlanib, bir butunlik hosil qiladi: *go'zallashmoq, ommalashmoq, hazillashmoq, o'rtoqlashmoq, tezlashmoq* kabi. Bunday fe'l aniq nisbatda deyiladi.

**Orttirma nisbat.** Bajaruvchining ta'siri bilan boshqa shaxs yoki narsa tomonidan bajarilgan harakat yoki holatni bildiruvchi nisbat shakli quyidagi shakllar bilan yasaladi:

- 1) *-ar* – faqat 2 ta fe'lga qo'shiladi: *chiqar, qaytar*.

2) *-giz/kiz/qiz/g'iz/gaz/kaz/qaz* (*-giz/g'iz* jarangli undosh bilan tugagan fe'lga qo'shiladi: *yurgiz, kirgiz, turg'iz, ko'rgaz*; *-kiz/qiz/kaz/qaz* jarangsiz undosh bilan tugagan fe'lga qo'shiladi: *ketkiz, o'tkaz, yutqiz, o'tqaz*)

3) *-dir/tir* (*-dir* unli va jarangli undosh bilan tugagan fe'l o'zagiga qo'shiladi: *yedir, yoydir, buzdir, kuldir, qoldir, to'ldir, oldir*; *-tir* – jarangsiz va *r, n, y, l* kabi jarangli undosh bilan tugagan fe'l o'zagiga qo'shiladi: *toptir, ayttir, uqtir, ilintir, oqartir, ko'paytir, kuchaytir, keltir*)

4) *-ir – t, ch, sh* tovushi bilan tugagan fe'l o'zagiga: *botir, qotir, ichir, qochir, shoshir, oshir, tushir, pishir*.

5) *-iz – q, m* tovushi bilan tugagan ba'zi fe'lga qo'shiladi: *oqiz, tomiz, emiz*.

6) *-t/it* – unli bilan tugagan ikki va undan ortiq bo'g'inli so'zga qo'shiladi: *ishlat, tugat, boshlat, o'qit, yurit, kirit*.

Bir fe'lning o'ziga orttirma nisbatning birdan ortiq qo'shimchasi qo'shilishi ham mumkin. Bu bajaruvchi va bajartiruvchi soni ortishi bilan belgilanadi: *yozdir – yozdirtir, o'qit – o'qittir*.

Orttirma nisbat qo'shimchasi bir-biriga ma'nodosh bo'lib kelishi mumkin: *bitir – bitkaz, yedir – yegiz, kirgiz – kirit, ko'payt – ko'paytir, to'ldir – to'lg'iz*.

Orttirma nisbat qo'shimchasi o'zlik va birgalik nisbat qo'shimchasidan keyin qo'shilishi ham mumkin: *yuvintir, kiyintir*.

Orttirma nisbat qo'shimchasi o'timsiz fe'lni o'timliga aylantiradi: *kel – keltir, to'l – to'ldir, uxla – uxlat*.

Uslubiy belgilari. O'zlik va majhul nisbat qo'shimchasi shakldosh: *yuvildi* (majhul), *tug'ildi* (aniq), *yopindi* (o'zlik), *takrorlandi* (majhul). Ularni farqlash uchun *kim tomonidan, nima tomonidan* so'rog'idan biri berib ko'riladi. Majhul nisbatdagi fe'l bu so'roqni olgan so'zga bog'lanadi: *yuvildi* (kim tomonidan), *poymol qilindi* (nima tomonidan).

Ayrim fe'llarning o'zlik yoki majhul nisbatda ekanligi matndan aniqlashadi: *Mirkomil xayolga berildi – Mirkomilga mukofot berildi. Salimjon imtihonga tayyorlandi – Mehmonlar uchun joy tayyorlandi*.

Fe'l yasovchi *-lash* murakkab shakli bilan yasalgan aniq nisbatdagi fe'llar shaklan birgalik nisbatga o'xshaydi: *go'zallashmoq, ommalashmoq, hazillashmoq, o'rtoqlashmoq, tezlashmoq* kabi.

Fe'lga birdan ortiq nisbat shakli qo'shilganda, uning qaysi nisbatda ekanligi oxirgi qo'shilgan nisbat shakliga ko'ra belgilanadi: *to'xta+t+il+di, kiy+in+tir+il+di, yugur+tir+il+di* (majhul nisbat); *art+in+ish+di, kel+tir+ish+di, o'qi+t+tir+ish+di* (birgalik nisbati).

Fe'lda qaysi nisbat qo'shimchalari borligi so'ralganda barcha qo'shimcha e'tiborga olinadi: *to'xta+t+il+di* (orttirma, majhul), *art+in+ish+di* (majhul, birgalik).

Fe'ldagi nisbat qo'shimchalari birga kelgan vaqtda quyidagi tartibda joylashadi: Fe'l asos + o'zlik nisbati + orttirma nisbati + majhul nisbat + birgalik nisbati: *kiy+in+tir+il+ish+di*.

## **NOMUSTAQIL LUG`AVIY MA'NOLI SO`Z**

Nutqimizda ishlatiladigan barcha soʻzlar mustaqil lugʻaviy maʼno anglatmaydi. Atash maʼnosiga ega boʻlgan soʻz mustaqil lugʻaviy maʼnoli, atash maʼnosiga ega boʻlmaydigan soʻzlar nomustaqil maʼnoli soʻz deyiladi. Mustaqil soʻzdan olmosh, alohida olingan soʻzdan undov, modal va taqlid atash maʼnosiga ega emasligi bilan xarakterlanadi.

## NURMONOV ABDUHAMID

Filologiya fanlari doktori, professor Abduhamid Nurmonov 1942- yili Andijonda tavallud topgan. Oʻzbek tili fonetikasi, morfologiyasi, sintaksisi va tilshunoslikning umumiy nazariy masalalari bilan bogʻliq qator asarlar muallifi. Ular orasida «Oʻzbek tili sintaksisini sistema sifatida oʻrganish muammolari» (1982), «Gap haqida sintaktik nazariyalar» (1988), «Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi» (1991), «Oʻzbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi» (1992), «Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis» (1995), «Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya» (2001), «Tilshunoslik va tabiiy fanlar» (2001), «Oʻzbek tilshunosligi tarixi» (2002) kabi kitoblar muallifi.

A.Nurmonov oʻrta va oliy taʼlimda oʻzbek tili va tilshunosligini oʻqitishni takomillashtirish borasida ham samarali mehnat qilmoqda. Ayniqsa, uning akademik litsey talabalari uchun yozilgan «Hozirgi oʻzbek adabiy tili» I qism (2001), «Hozirgi oʻzbek adabiy tili» II qism (2002), «Hozirgi oʻzbek adabiy tili» III qism (2003) darsliklari, oʻrta maktablarning V–IX sinflari uchun yozilgan «Ona tili» darsliklari ona tili taʼlimi va oʻzbek tilshunosligining taraqqiyotiga muhim hissa boʻlib qoʻshildi.

## NUTQ AʼZOLARI

Nutq aʼzosi nutq tovushini hosil qilishda ishtirok etadi, ularning jami nutq apparati deyiladi. Nutq apparati tuzilish nuqtayi nazaridan 4 ga boʻlinadi: 1. **Nafas apparati:** oʻpka, diafragma, bir juft bronx, nafas yoʻli; 2. **Boʻgʻiz boʻshligʻi:** halqasimon, piramidasimon, qalqonsimon togʻay, un paychasi; 3. **Ogʻiz boʻshligʻi:** til, tanglay, kichik til, lab, tish; 4. **Burun boʻshligʻi.** Tovush hosil qilishdagi faoliyatiga koʻra 2 xil: 1. **Faol aʼzo:** tovush paychasi, kichik til, til, yumshoq tanglay, pastki jagʻ, lab; 2. **Nofaol aʼzo:** yuqori jagʻ, tish, qattiq tanglay, burun boʻshligʻi. Quyida ularning muhimlari tavsiflanadi.

**Diafragma** – koʻkrak qafasi bilan qorin boʻshligʻi oʻrtasidagi muskul paydan iborat, nofaol nutq aʼzosi hisoblanadi. Diafragma qisqarishi va kengayishi bilan nafas olish va nafas chiqarishni yengillashtirishga xizmat qiladi.

**Oʻpka** – odam, quruqlikda yashovchi hayvonlar va baʼzi baliqlarning havodan nafas olish aʼzosi. Odamda oʻpka bir juft, koʻkrak qafasining ikki tomonida joylashgan. Oʻpka passiv nutq organi hisoblanadi.

**Bronx** – nofaol nutq azosi, odam kekirdagining havo oʻtadigan naysimon tarmoqlari. Kekirdak oʻng va chap bronxga boʻlinadi. Oʻpkadan chiqayotgan havo bronx orqali kekirdakka uzatiladi.

**Bo`g`iz** – nafas a`zolarining burun bo`shlig`idan keyingi qismi; ovoz chiqarish va nafaol nutq a`zosi. Nafas olish va tovushning ravon chiqishini ta`minlaydi. Shuningdek, unli va *h* undosh tovushining hosil bo`lish o`rni.

**Og`iz** – nutq tovushi hosil bo`lishining so`nggi bo`limi. Old va yon tomonlari lunj bilan, yuqoridan yumshoq va qattiq tanglay, pastdan til osti muskullari bilan chegaralangan, orqa tomondan toq teshik, yani tomoq orqali halqum bo`shlig`iga tutashadi. Barcha unli va *h* dan boshqa undoshlar o`zaro og`iz bo`shlig`ida farqlanadi.

**Burun** – nafaol nutq a`zolaridan biri. Ovoz chiqarish va so`zlashda rezonator vazifasini o`taydi (ovozni kuchaytiradi va unga ohang beradi). Burun bo`shlig`i yondosh bo`shliqlarga bo`linadi, ular esa burun bo`shlig`iga tor teshiklar orqali ochiladi. Shuningdek, burun bo`shlig`i nafas olish, hid bilish vazifalarini bajaradi. Burun bo`shlig`i *m, n, ng* tovushlarini hosil qilishda faollashadi.

**Jag`** – odam yuz skeletidagi eng yirik suyak. Yuqori va pastki jag`larga bo`linadi. Jag` nutq tovushini hosil qilishda ishtirok etuvchi nafaol a`zo.

**Tanglay** – passiv nutq a`zosi, burun va og`iz bo`shlig`ini bir-biridan ajratib turadi. Tanglay ikkiga ajraladi: a) qattiq tanglay; b) yumshoq tanglay. Tanglayning kichik tilga tutashgan qismi yumshoq tanglay, yuqori tishdan ungacha bo`lgan qismi qattiq tanglay deyiladi. Yumshoq tanglay til va halqum bilan birlashadi. Unlilarning hosil bo`lishida tilning tanglayga yaqinlashishi yoki uzoqlashishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, undoshlarning aksariyati talaffuzida ham tanglay ishtirok etadi.

**Tish** – ayrim undosh tovushlarni talaffuz qilishda ishtirok etuvchi a`zo. Tovushlarni talaffuz qilishda tish boshqa a`zolar, xususan, til, lab bilan qatnashadi. Shu boisdan lab-tish (*f*) tovushi ajratiladi. Boshqa undoshlarda ham tish ishtirok etsa-da, biroq tasniflarda u qayd etilmaydi. Mas., *l, s, sh, z* kabi undoshlar talaffuzida bevosita ishtirok etadi. Tish kasalligi, tishning noto`g`ri parvarishi noto`g`ri qo`yilgan sun`iy tishlar tovush talaffuzini buzadi.

**Til** – odam va umurtqali hayvonlar og`iz bo`shlig`idagi muskulli organ. Odamda ovqatni chaynash, yutish bilan birga gapirishda qatnashadi.

**Lab** – og`iz bo`shlig`ining kirish qismini tashkil etadigan muskul teri burmalari bo`lgan faol nutq a`zosi. So`zlashda talaffuzning to`g`ri va ravon bo`lishini ta`minlaydi. O`zbek tilidagi 5 ta undoshni (*b, p, v, f, m*) hosil qilishda qatnashadi, unlilarning lablanishini ta`minlaydi (*u, o`, o*).

## NUTQ USLUBI

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma`lum bir sohada qo`llanadigan ko`rinishi adabiy til uslubi deyiladi. O`zbek adabiy tilida 5 ta asosiy nutq uslubi bor: so`zlashuv uslubi, badiiy uslub, rasmiy-idoraviy uslub, ommabop uslub, ilmiy uslub. Ayrim darslikda so`zlashuv uslubidan boshqa barcha uslub **kitobiy uslub** degan umumiy nom ostida beriladi. Barcha uslubda cheklanmagan tarzda ishlatiladigan so`z va qo`shimcha uslubiy betaraf deyiladi: *suv, tog`, bola, xat*.

**So`zlashuv uslubi.** Keng qo`llanadigan uslubdan biri – so`zlashuv uslubi. Bu uslubda, odatda, adabiy til me`yoriga rioya qilinmaydi. So`zlashuv uslubidagi gap

asosan dialogik shaklda bo`ladi. Bunda turli uslubiy bo`yoqli so`z, grammatik vosita qo`llanadi. Shuningdek, tovush tushib qolishi, orttirilishi mumkin: *1.Obbo, hamma ishni do`ndiribsiz-da. 2. Mazza qildik. 3. Ketaqool!* So`zlashuv uslubida gapdagi so`z tartibi ancha erkin. Ko`proq sodda, to`liqsiz, undalmali gapdan foydalaniladi. Jargon, argo, vulgar, varvar so`z ham ishlatiladi. Bu nutq madaniyati yuqori bo`lmagan kishida uchraydi.

**Ilmiy uslub.** Fan-texnikaning turli tarmog`iga doir ilmiy asarlar, darslik va qo`llanmalar ilmiy uslubda yoziladi. Ilmiy uslub aniq ma`lumot asosida chiqarilgan ilmiy xulosa (qoida, ta`rif)ga boy bo`lishi bilan boshqa uslubdan farq qiladi: *Yomg`ir - suyuq tomchi holiday atmosfera yog`ini. Tomchining diametri 0,5-0,6 mm bo`ladi.* Ilmiy uslubda har bir fanning o`ziga xos ilmiy atamasidan foydalaniladi, bu uslubda so`z o`z ma`nosida qo`llanadi, qoida yoki ta`rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo`lak, kirish so`z, kirish birikma, shuningdek, qo`shma gapdan keng foydalaniladi.

**Rasmiy-idoraviy uslub.** Davlat idorasi tomonidan chiqariladigan qaror, qonun, nizom, xalqaro hujjatlar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Ariza, tilxat, ma`lumotnoma, chaqiruv qog`ozi, taklifnoma, shartnoma, tarjimayi hol, e`lon, tavsifnoma, dalolatnoma, hisobot kabilar ham shu uslubda bitiladi. Ilmiy uslubdagi hujjat qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli bo`lishi lozim. Asosiy belgilari – jummalarning bir qolipda, bir xil shaklda bo`lishi. Rasmiy-idoraviy uslubda ham so`z o`z ma`nosida qo`llanadi, ko`pchilikka ma`lum bo`lgan ayrim qisqartma so`z ishlatiladi, har bir sohaning o`ziga xos atamasidan foydalaniladi. Bu uslubda ko`pincha darak gapdan, qaror, buyruq, ko`rsatma kabida esa buyruq gapdan ham foydalaniladi. Gap bo`lagining odatdagi tartibda bo`lishiga rioya qilinadi: *M.Ahmedovga o`z lavozimini suiiste`mol qilganligi uchun hayfsan e`lon qilinsin.*

**Ommabop (publisistik) uslub.** Tashviqot-targ`ibot ishini olib borishda qo`llanadigan uslub, ya`ni matbuot uslubi – ommabop uslub. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy so`z ko`p qo`llanadi. Nutq ta`sirchan bo`lishi uchun ta`sirchan so`z va birikmadan, maqol va hikmatli so`zdan keng foydalaniladi. Bunday uslubda gap bo`lagi odatdagi tartibda bo`ladi, kesim buyruq va xabar maylidagi fe`l bilan ifodalanadi, darak, his-hayajon va ritorik so`roq gap, yoyiq undalma, takroriy so`z va birikma unumli qo`llanadi: *Azamat paxtakorlarimiz mo`l hosil yetishtirish uchun fidokorona mehnat qilishyapti.*

**Badiiy uslub.** Badiiy asar badiiy uslubda bo`ladi. Bunday asar kishiga ma`lumot berish bilan birga, timsol (obraz) vositasida estetik ta`sir ham ko`rsatadi: *O`lkamizda fasllar kelinchagi bo`lmish bahor o`z sepini yoymoqda.* Badiiy uslubda qahramon nutqini jonli berish oddiy nutq so`zi, sheva, vulgarizmdan ham foydalaniladi. Badiiy asar uslubi **aralash uslub** hisoblanadi. Unda so`zlashuv uslubiga, kitobiy uslubga xos o`rin ham uchraydi.

## NO`G`AY TILI

No`g`ay tili – turkiy tillar oilasiga mansub, Rossiya Federatsiyasining Checheniston Respublikasida, Stavroipol (jumladan, Qorachoy Cherkes Respublikasi) va Krasnodar o`lkalarining bir qator tumanlarida tarqalgan. Oq no`g`ay, no`g`ay, qora

no`g`ay lahjalariga bo`linadi. 60 mingga yaqin kishi so`zlashadi. Fonetik va grammatik xususiyatlari bilan qozoq va qoraqalpoq tillariga yaqin. Mas., umumturkiy “ch” va “sh” tovushlari “sh” va “s” tarzida talaffuz qilinadi (*qish –qis, tash –tas*).

Adabiy shakli 20- yillarda shakllangan; uning ta’sirida dialektal farqlar yo`qolib bormoqda. Yozuvi 1924–28-yillarda arab alifbosi, 1928–38-yillarda lotin alifbosi asosida bo`lgan. 1938-yildan esa rus grafikasi asosidagi alifbodan foydalaniladi.



## OLMOSH

Olmosh – aniq atash ma’nosiga ega bo`lmasa-da, gap tarkibida biror so`roqqa javob bo`ladigan, ma’lum gap bo`lagi vazifasida kelib, barcha mustaqil so`z, undov, taqlid so`z, ba’zan so`z birikmasi, gap, hatto matn o`rnida qo`llanadigan, ularga ishora qiladigan mustaqil so`z turkumi.

**Ma’noviy xususiyati.** Olmosh umumiy va mavhum ma’no bildiradi. Shuningdek, uning bir qismi so`roq so`zidan iborat. Olmosh anglatgan ma’no matnda oydinlashadi: 1) ot o`rnida: *Mahbuba* (ot) *o`qiydi* – *Men* (olmosh) *o`qiyman*. *Ukam* (ot) *keldi* – *U* (olmosh) *keldi*; 2) sifat o`rnida: *qiziq* (sifat) *kitob* – *shunday* (olmosh) *kitob*, *qanday* (olmosh) *kitob*; 3) son o`rnida: *o`nta* (son) *qalam* – *shuncha* (olmosh) *qalam*, *qancha* (olmosh) *qalam*; 4) fe’l o`rnida: *kitobni o`qimoq* (fe’l) – *kitobni nima qilmoq* (olmosh); 5) ravish o`rnida: *bugun* (ravish) *keldi* – *qachon* (olmosh) *keldi*; 6) taqlid o`rnida: *taq-tuq* (taqlid) *ovoz* – *qanday* (olmosh) *ovoz*, *shunday* (olmosh) *ovoz*; 7) so`z birikmasi o`rnida: *insho yozmoq* (so`z birikmasi) – *nima qilmoq* (olmosh); 8) gap o`rnida: *Istagim shuki* (olmosh), *dunyoda tinchlik bo`lsin* (gap).

**Morfologik belgisi.** Olmosh morfologik jihatdan o`zgaradi: *o`zlari*, *shunaqaroq*. Olmosh yasalmaydi, ammo ayrim ot, sifat, fe’l, sodda va qo`shma ravishning yasalishi uchun asos bo`la oladi: 1) ot: *manmanlik*, *butunlik*, *o`zlik*; 2) sifat: *hammabop*, *bizbop*. 3) fe’l: *mensimoq*, *sensiramoq*, *senlamoq*, *sizsiramoq*, *sizlamoq*, *o`zlashmoq*; 4) ravish: *har doim*, *har kuni*, *har yili*, *o`zicha*, *o`z-o`zidan*.

Olmosh qaysi turkumga xos so`zni almashtirsa, shu turkumning morfologik xususiyatiga ega bo`ladi:

1) otning morfologik xususiyatiga egalik: a) birlik: *men*, *sen*, *kim*; b) ko`plik: *kimlar*, *ular* (Olmosh otning kichraytirish shaklini olmaydi. Ayrim holda *-gina* erkalash shaklini oladi: *Shuginamni o`ylayman*);

2) sifatning morfologik xususiyatiga egalik: daraja: *shunaqaroq*;

3) sonning morfologik xususiyatiga egalik: a) tartib: *nechanchi*; b) dona: *nechta*; d) chama: *nechtalar*; e) taqsim: *nechtadan*; f) jamlovchi: *nechov*;

4) fe’lning morfologik xususiyatiga egalik: a) nisbat: *nima qilishdi*, *shunday qildirdi*; b) ravishdosh: *nima qilgach*, *shunday qilib*; d) sifatdosh: *nima qilgan*, *shunday qilajak*.

Olmosh o`zi almashtiruvchi so`zning barcha morfologik xususiyatiga ega bo`la olmaydi. Mas., kishilik olmoshi ot o`rnida qo`llansa-da, egalik qo`shimchasini qabul qilmaydi.

**Sintaktik belgisi.** Olmosh gapda barcha bo`lak vazifalarda kela oladi. Uning muhim sintaktik belgisi – aniqlovchi olmasligi, belgi bildiradigan so`zlarni tobelantirmasligi.

Olmosh nutqni ixcham ifoda qilishning muhim vositasi: *Hamma kirsin. Bularni yig`ishtiring.* Olmosh mustaqil turkum bo`lsa-da, o`ziga xos so`rog`i va xoslangan vazifasi yo`q. U qaysi turkumga xos so`zni almashtirsa, shu turkum so`rog`ini oladi va shu turkumga xos vazifani bajaradi: 1) ega: *Men kecha Stokgolmdan keldim;* 2) ot-kesim: *Firma rahbari – o`zim;* 3) sifatlovchi-anirqlovchi: *Qanaqa surat chizding?* 4) qaratqich-anirqlovchi: *Sening familiyang nima?* 5) to`ldiruvchi: *Kimga kimni maqtading?* 6) hol: *Majlis qachon boshlandi?* 7) kirish so`z: *Menimcha, ishni bugun tugatish kerak.*

**Uslubiy belgilari.** a) *U, bu, shu* olmoshlari o`rnida *bir* so`zi (yoki *bir xil* so`zi) qo`llanadi: *Bir* (shunday) *chamanki, atrofida bulbul giryon. Bir xil* (shunday) *odam tushunmaydi;* b) *men* olmoshi o`rnida *kamina, siz* o`rnida *o`zlari* so`zi qo`llanadi: *Bu ishda kaminaning zarracha tajribasi yo`q. Siz va`da bergan edingiz – O`zlari va`da bergan edilar;* d) ilmiy ish, rasmiy hujjat, yig`ilishlarda *men* olmoshi o`rnida *biz* ishlatiladi: *Bizning* (mening) *bu ilmiy ishimizda ko`rsatish olmoshining xususiyati haqida so`z yuritiladi;* e) hurmatni ifodalash uchun *sen* olmoshi o`rnida *siz* olmoshi qo`llanadi. *Siz bugun kelasizmi?* Aksincha, hurmatsizlikni ifodalash uchun esa *sen* olmoshiga ko`plik qo`shimchasi qo`shiladi: *Senlar buni tushunmaysanlar;* f) ko`rsatish olmoshi ta`kidlash, ajratish ma`nosini beradi: *Kitob – bu dono maslahatchi.*

*Nima, bir narsa, nimadir, hech narsa, har nima, hech nima* olmoshi belgisiz tushum kelishigida qo`llanishi mumkin.

**Olmoshning ma`noviy guruhlari.** Olmosh atash ma`nosiga ega bo`lmasa-da, matnda uning ma`nosi aniqlashadi. Shu jihatdan olmoshlarning 7 guruhi ajratiladi:

**Kishilik olmoshi** ot-olmosh, shaxsga ishora qiladi: *men, sen, u, biz, siz, ular.* Ular ot o`rnida qo`llanuvchi olmosh deyiladi.

**Xususiyati:**

1) hurmat ma`nosida *sen* o`rnida *siz*, ba`zan maqtanish yoki kamtarlik ma`nosida *men* o`rnida *biz* qo`llanadi: *Buni biz yasadik. Bizga navbat qachon kelar ekan?*

2) *men* olmoshi ko`plikda qo`llanmaydi. *Sen* olmoshiga esa *-lar* qo`shilib, hurmatsizlik ma`nosi anglashiladi: *Senlar ham keldinglarmi?*

3) ko`plik ma`nosini ta`kidlash uchun *biz* va *siz* olmoshi *bizlar* va *sizlar* shaklida qo`llanadi.

4) kishilik olmoshi kelishik shaklini qabul qila oladi. *Men* va *sen* olmoshiga *-ning, -ni, -niki* qo`shimchasi qo`shilsa, *-n* tovushi tushib qoladi, *u* olmoshiga *-ga, -da, -dan* qo`shimchasi qo`shilsa, *-n* tovushi ortadi: *mening, meni, meniki, sening, seni, seniki, unga, unda, undan.*

*Men* olmoshining *kamina, banda, faqir, qulingiz* kabi tarixiy ma`nodoshi bor. *Men* olmoshidan mavhum ot (*menlik*), takrorlanishidan sifat (*manman*) va undan mavhum ot (*manmanlik*) yasaladi.

Kishilik olmoshi gapda ega, ot-kesim, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi vazifalarida keladi.

**O'zlik olmoshi** o'z so'zidan iborat, shaxsni ta'kidlash yoki yolg'izligini ifodalash uchun qo'llanadi. Qaratqich kelishigidagi so'zdan keyin kelsa, ta'kidni (*mening o'zim, uning o'zi, Karimning o'zi, kitobning o'zi*), usiz kelsa, uch shaxsdan biriga ishorani (*o'zi (u), o'zim (men), o'zing (sen)*) bildiradi.

Xususiyati:

1) egalik shaklini olib, uch shaxsni ham anglatadi: *o'zim, o'zing, o'zi, o'zimiz, o'zingiz, o'zlari*. O'zlik olmoshi ot kabi turlanadi;

2) otning turli shaklini egalik qo'shimchasidan keyin qabul qiladi: *o'zimning, o'zingni, o'ziga, o'zimizda, o'zingizda, o'zlariday, o'zimniki, o'zigacha*.

**Ko'rsatish olmoshi.** Oldingi gap, gapdagi biron-bir so'z, so'z birikmasi o'rnida qo'llanib, unga ishora qiladi. Sifat, ot xarakteriga ega. Unga *u, bu, shu, ul, o'shal, o'sha, ana, mana, ana shu, mana bu, anovi, unday, unaqa, uncha, bunday, bunaqa, buncha, o'shanday, o'shanaqa, o'shancha* so'zlari kiradi.

Xususiyati:

*U* ko'rsatish olmoshi *u* kishilik olmoshi bilan shakldosh. Uning *kim* so'rog'iga javob bo'lgani kishilik, *qaysi* so'rog'iga javob bo'lgani ko'rsatish olmoshi hisoblanadi.

*Bu, shu, u, o'sha* olmoshiga *-ga, -da, -dan, -cha, -day* qo'shimchasi qo'shilsa, bitta *-n* tovushi ortadi: *unda, unga, undan, shunday, o'shanday, shuncha*.

**So'roq olmoshi.** Shaxs, narsa, belgi-xususiyat, miqdor, sabab, maqsad, o'rin, payt, harakat haqida so'roqni bildiradi. Bunday olmosh har bir mustaqil so'z turkumiga daxldor: *kim, nima, qayer, qanday, qanaqa, qaysi, qancha, nechta, necha, nechanchi, qachon, qayerda, qayerga, qayerdan, qayoqqa, qayoqda, qayoqdan, nega, nechun*.

Xususiyati. *Kim, nima, qayer* olmoshi otga daxldor bo'lgani uchun ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchasini qabul qiladi: *kimlar, kimlarim, kimingiz, kimga, kimlardan*.

*Qanday, qanaqa, qaysi* olmoshi belgini aniqlash uchun ishlatiladi, gapda aniqlovchi, hol bo'lib keladi va ba'zan qiyosiy daraja qo'shimchasini oladi: *qandayroq, qanaqaroq*.

*Necha, nechta, nechanchi, qancha* olmoshi son va ravish so'rog'i bo'lganligi uchun bu turkumni aniqlashda qo'llanadi.

*Qachon, qayerga (-da, -dan), qayoqqa (-da, -dan), qani, nega, nechun* so'roq olmoshi ish-harakatning bajarilish tarzi, payti, o'zni, sababi va maqsadini bildirish uchun ishlatiladi, gapda hol yoki kesim bo'lib keladi.

**Bo'lishsizlik olmoshi.** Hech so'zini so'roq olmoshiga qo'shish asosida hosil qilinadi va inkor ma'nosini bildiradi: *hech bir, hech narsa, hech kim, hech nima, hech qanday, hech qanaqa, hech qaysi, hech qancha, hech qachon, hech qayerda*.

Bo'lishsizlik olmoshi qatnashgan gap kesimi inkor shaklida bo'ladi: *hech kim kelmadi, hech qayerga borma*. Tasdiq shaklida bo'lganda ham inkor ma'nosi anglashiladi: *hech eshitganmisiz, yozda qor yoqqanini*.

*Kimsa* oti bo'lishsizlik olmoshi o'rnida ishlatiladi: *Dardimni eshitadigan kimsa topilmadi*.

**Belgilash-jamlash olmoshi.** To'pdan ajratilgan yoki jamlab ko'rsatilgan shaxs, narsa, belgi, harakat-holatni ifodalaydi: *hamma, barcha, bari, jami, yalpi, butun, har kim, har nima, har bir, har qaysi, har qachon, har qayerda*;

*Hamma, barcha, bari, jami, yalpi, butun* olmoshlari sifat xarakterida bo'lib jamlash, *har+so'roq* olmoshi ko'rinishidagi olmoshlar belgilash olmoshlari deb yuritiladi. Belgilash olmoshlari ot, sifat, son va ravish vazifasida qo'llanadi va shu turkumlarga xos belgilarga ega bo'ladi: *har kimlarga, har nimadan, har qayerni*.

**Gumon olmoshi.** Noaniqlik, gumon ma'nosini bildiradi. U 4 shaklga ega:

1) *so'roq olmoshi + -dir: kimdir, nimadir, qandaydir, qanaqadir, qaysidir, qachondir, qayerdadir*;

2) *alla+so'roq olmoshi: allakim, allanima, allaqayer, allaqancha*;

3) *bir+narsa/kishi/nima/qancha/necha so'zi: bir narsa, bir kishi, bir qancha, bir necha*;

4) boshqa turkumdan ko'chirish: *birov, biron(ta), biror(ta), falon(chi), fiston(chi)*.

**Olmoshning tuzilishiga ko'ra turlari.** Olmosh tuzilishiga ko'ra sodd a, q o`shma, juft, takroriy bo'ladi.

**Sodd a olmosh.** Olmosh ma'noviy guruhlarining barchasida sodda olmosh mavjud: *men, sen, u, qanday*.

**Q o`shma olmosh.** Bo'lishsizlik, belgilash, ko'rsatish olmoshlari qo'shma olmosh bo'lishi mumkin: *har kim, hech kim, mana bu, ana u*.

**Juft olmosh.** Faqat ko'rsatish olmoshlari juftlashib qo'llana oladi: *u-bu, unga-bunga*. Kishilik olmoshi juft qo'llanganda otga o'tib ketadi: *Sen-menga borib qolishdi. O'nta sizni bizdan, bitta jizni biz yaxshi*.

**Takroriy olmosh.** Asosan so'roq olmoshlari takror qo'llanadi: *kim-kim, nima-nima, shunday-shunday*. Ko'rsatish, o'zlik olmoshlari takror qo'llanib, ravishga xos ma'no beradi: *Shu-shu uni ko'rmadim. O'z-o'zicha ish tutdi*.

## «OLTIN YORUG'»

«Oltin yorug'» – buddayivlikka e'tiqod qilgan turkiy qavmlar orasida mashhur bo'lgan qadimgi yozma yodgorlik. Asl nomi *S u v a r n a p r a b x a s a*, sanskrit tilidan qadimgi xitoy tiliga tarjima qilingan. X asrda Beshbaliq shahrida Sengi Seli Tudung uni xitoy tilidan qadimgi turkiy tilga «Oltin yorug'» nomi bilan tarjima qilgan va eski uyg'ur-turk tiliga ko'chirgan. O'nta afsonani ichiga olgan asar 675 sahifadan iborat. Barchasida buddaviylikning "najot topish" ta'limoti birinchi o'rinda turadi. Unda aks etgan "to'rt oliy haqiqat" bosqichi ham O'rta Osiyo xalqlarining falsafiy qarashlariga mos keladi. «Oltin yorug'»ning hozir foydalanilayotgan nusxasi XVIII asrda ko'chirilgan va Sankt-Peterburgdagi Osiyo muzeyida saqlanadi. Uni 1910- yilda Sharqiy Turkistonning Xan-su viloyatidagi Vun-shigu qishlog'idan S.Y.Malov topgan. Topilmaning faksimel nusxasini u va V.V.Radlov nashr qilgan (1913–17). Nemis olimi V.Myuller esa asarning 1920 sahifasini asl nusxa bilan qiyoslagan holda chop ettirgan (1913). V.V.Radlov «Oltin yorug'»ning bir qismini nemis tilida nashr qilgan (1930). Turk olimi Rashid Rahmatiy Arat «Oltin yorug'»ni transliteratsiya qilib, usmonli turk tiliga tarjima qilishni boshlagan, lekin ish yakun topmagan. Yana bir turk olimi Cheval Qoya yuqorida eslatilgan faksimel nashr asosida «Oltin yorug'»ni to'liq transliteratsiya

qilib, chop ettirdi (Anqara, 1994). O'zbek olimi Nasimxon Rahmonov asarni o'zbek tiliga o'girib, "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida e'lon qildi.

## OLTOY TILLARI OILASI

Bu oilaga turk, mo'g'ul, manchjur, yapon, koreys va boshqa til tarmog'i kiradi. "Oltoy" atamasi ushbu tillarning ehtimoldagi qadimgi vataniga ishora. Turkiy tarmoq o'z navbatida quyidagi guruhga bo'linadi: o'g'uz guruhi (turkman, gagauz, ozarbayjon, turk, qrim-tatar va bolqon turklari tili), qipchoq guruhi (qo'miq, qorayim, bolqar, tatar, boshqird, no'g'ay, qoraqalpoq, qozoq tili), qorluq-uyg'ur guruhi (o'zbek va yangi uyg'ur tili), uyg'ur-o'g'uz guruhi (tuva, tofa, yoqut, xakas, shor, sariq uyg'ur va boshqalar), qirg'iz-qipchoq guruhi (qirg'iz va oltoy tili).

G.Ramsted, N.N.Poppe, E.D.Polivanov, V.L.Kotvich, R.Ryasyanen kabi turkiyshunoslarning asarlarida turli davrlarda turlicha nuqtai nazardan isbotlashga harakat qilingan oltoy nazariyasining kelib chiqishiga quyidagi omillar sabab bo'lgan: sanab o'tilgan til tarmoqlaridagi anchagina umumiy leksika; so'zning tovush tarkibidagi, fonetik (singarmonizm) va morfologik qurilishidagi (agglyutinatsiya) o'xshashliklar; sintaktik strukturaning mosligi va so'z yasalishi tizimining o'xshashligi. Shuningdek, deyarli barcha tillarida maxsus so'roq yuklamalari mavjud, old qo'shimcha yo'q. Egalik kategoriyasi taraqqiy etgan, ravishdosh va sifatdosh kuchli rivojlangan. Biroq sonlar, tana a'zolari nomlari, yil fasllari va sutka bo'laklari, osmon jismlari, ob-havo hodisalari nomlari kabi asosiy lug'aviy guruhlar orasidagi o'xshashliklar nisbatining ancha pastligi ularga oltoy **bobo tili** asos bo'lganligini shubha ostiga qo'yadi.

Demak, oltoy tillarining qarindoshlik darajasini o'rganish dolzarb masala.

## OLTOY TILI

Oltoy tili – turkiy tillardan biri. 1948- yilgacha o'yr o't tili deb atalgan. Rossiya Federatsiyasi Oltoy o'lkasining Tog'li Oltoy viloyatida tarqalgan, 60 mingga yaqin kishi so'zlashadi. Lahjalari 2 guruhga bo'linadi: a) j a n u b i y (qirg'iz-qipchoq guruhi); b) s h i m o l i y (uyg'ur guruhi). Oltoy tili fonetik xususiyatiga ko'ra qirg'iz tiliga ancha yaqin: unlilar sistemasi o'xshash, lab garmoniyasi mavjud. Undoshlar tizimida farqlar ham bor: qirg'iz tilidagi so'z boshida keluvchi qorishiq *dj* ga Oltoy tilida *d'* mos keladi. Qirg'iz tilidan farqli ravishda unlilar orasida jarangsiz undoshlar jarangli undoshlarga aylanadi. Fe'llar tuslanganda, shaxs ko'rsatkichining reduksiyaga uchrashi – oltoy tili morfologiyasining asosiy xususiyati.

## ONOMASTIKA

*Onomastika* yunoncha *onomastike* - "nom qo'yish san'ati" demakdir. *Onomastika* – tilshunoslik sohasi. Tilda mavjud bo'lgan barcha tur atoqli otlarini o'rganadi. Atoqli otlarning tildagi tarkibining (qanday so'z va qo'shimchalardan iboratligi) qaysi til dalillari ekanligi, ma'no soni, tovush o'zgarishlari onomastikada o'rganiladi.

Onomastikaning bo`limlari:

1. *Antroponimika* (ismshunoslik), kishilarning ismi, otasim, familiya, taxallus va nisbalarni o`rganadi.
2. *Toponimika* joy nomlarini o`rganadi.
3. *Teonimika* iloh, ma`bud, ilohiy shaxs va tushunchalar, payg`ambar va aziz avliyolar, qadamjolarining nomini o`rganadi.
4. *Kosmonimika* osmon jismlari, sayyora va yulduzlar, burjlarning nomlarini o`rganadi.
5. *Zoonimika* hayvonlarga atab qo`yilgan maxsus nom-laqablarni o`rganadi.
6. *Ktematonimika* insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan, yaratilgan moddiy va nomoddiy narsa, tushuncha nomini o`rganadi: kuy-qo`shiq, badiiy asar, ommaviy axborot vositasi, haykaltaroshlik va rasm kabilarning nomi.
7. *Mifonimika* xayoliy narsa va tushunchalar nomini o`rganadi.

**Onomastik lug`atlar.** Onomastik lug`at – o`zbek leksikografiyasining alohida sohasi. Bunday lug`atlarda atoqli otlar (onomosionimlar)dan, mas., toponim yoki antroponim izohlanadi va ular etimologik lug`atning o`ziga xos ko`rinishi. Bunga T.Nafasov tomonidan tuzilgan «Janubiy O`zbekiston toponimlarining izohli lug`ati»ni, E.Begmatovning “O`zbek ismlari”, S.Qorayevning joy nomlarining izohli lug`atini misol qilib keltirish mumkin.

2007- yilda “Yangi asr avlodi” nashriyotida chop etilgan T.Nafasov va V.Nafasovning “O`zbek tilining o`quv toponimik lug`ati” maktab o`quvchilariga mo`ljallangan.

## ORFOEPIYA

Orfoepiya (yunon. *o r p h o s* – to`g`ri, *e p o s* – nutq) – adabiy tilning og`zaki shakli talaffuz me`yorini o`rganuvchi tilshunoslik sohasi. To`g`ri talaffuz, avvalo, shaxsning madaniy yetukligidan dalolat beradi. Og`zaki nutqda har xil talaffuz qilinadigan tovush, qo`shimcha va so`zlardan adabiy til uchun qabul qilingan bittasi to`g`ri talaffuz me`yori hisoblanadi. Mas., o`zbek shevasida bir so`z turlicha talaffuz qilinadi: *yo`q* – *jo`q*, *ko`z* – *go`z*, *ota* – *ata*, *aka* – *oka*, *anor* – *onar* kabi. Hozirgi zamon davom fe`li qo`shimchasi shevada *-yap(ti)*, *-op(ti)*, *-utti*, *-vot(ti)* shaklida qo`llanadi: *boryapti*, *boropti*, *borutti*, *borvotti* kabi. Adabiy tilda shulardan *yo`q*, *ko`z*, *ota*, *aka*, *anor*, *boryapti* variantlari adabiy talaffuz me`yori (orfoepik norma) sifatida saralangan.

Orfoepiyaning yuzaga kelishida orfografiya va xalq og`zaki nutqining talaffuzi asos qilib olinadi. Adabiy talaffuz me`yorlarini o`rganish orfoepik qoida va orfografik lug`at orqali amalga oshiriladi. (q. **Orfoepik lug`at**). Orfoepiya orfografiya bilan zich bog`langan. Biroq talaffuz hamma vaqt ham yozuv bilan teng kelavermaydi. Jumladan, yozuvda bor ayrim tovush sezilar-sezilmas aytilishi, umuman tushirilishi yoki, aksincha, orttirilishi mumkin. Nutqda tovush almashtirilishi ham ko`p uchraydi. Mas., *adabiyochchi* (adabiyotchi), *badbax* (badbax), *ussum* (uch so`m), *issiz* (izsiz), *xursan* (xursand), *go`sh* (go`sht), *bo`sa* (bo`lsa), *kesa* (kelsa) kabi. Bular yozuv bilan mos kelmasa-da, adabiy talaffuz me`yori hisoblanadi. Lekin *oshshi* (oshni), *ishshi* (ishni), *yuzzi* (yuzni), *o`tta* (u yerda), *aqqa* (u yoqqa), *baqqa* (bu yoqqa) kabi so`zlarda adabiy

me'yordan chekinish ro'y bergan. O'zbek adabiy tilining asosiy orfoepik qoidalarini **unli talaffuzi, undosh talaffuzi, asos va qo'shimcha talaffuzi** hamda **boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'z talaffuzi** tarzida o'rganish mumkin.

**Orfoepik lug'at.** Orfoepik lug'at – so'zning to'g'ri adabiy talaffuzini ko'rsatadi. Bunday lug'at birinchi marta kichik hajmda M.Sodiqova va U.Usmonova tomonidan «O'zbek tilining orfoepik lug'ati» nomi bilan 1977- yilda «O'qituvchi» nashriyoti tomonidan bosib chiqarildi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti tomonidan «O'zbek adabiy talaffuz lug'ati» 1984- yilda nashr qilingan. Birinchi lug'atda o'zbek tilida faol qo'llanadigan 8000 ga yaqin so'z, ikkinchisida esa 20 000 dan ortiq so'z va so'z shaklining adabiy-me'yoriy talaffuzi belgilab berilgan, ba'zi so'z va grammatik shaklning talaffuzidagi noto'g'ri ko'rinishi inkor qilinib, uning to'g'ri aytilishi ko'rsatilgan.

## ORFOGRAFIYA

Orfografiya – (yunon. *orphos* - «to'g'ri», *grapho* – “yozmoq») – so'z o'zak-negizi va qo'shimchasini yagona tarzda yozish haqidagi qoidalarni o'rganuvchi tilshunoslik sohasi. Orfografiya adabiy tilning yozma shakliga xos, orfoepiya va alifbo (grafika) bilan uzviy bog'liq. Bu bo'limda so'zning tovush tarkibi, so'z va uning morfologik tarkibi imlosi, qo'shib yoki ajratib yozish, bosh harflarni qo'llash qoidalari, bo'g'inga ajratish, satr ko'chirish qoidalari o'rganiladi. Orfografiya qoidalari til va jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda yangilanib borishi mumkin. O'zbek yozuvi uchun hozirga qadar ikki marta imlo qoidasi tasdiqlangan: 1. 1956- yil kirill yozuviga asoslangan o'zbek yozuvi imlo qoidalari. 2. 1995- yil 24- avgustda lotin alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvi imlo qoidalari.

**Orfografiya tamoyili.** O'zbek yozuvi besh tamoyil asosida ish ko'radi: 1) fonetik yozuv; 2) morfologik yozuv; 3) shakliy yozuv; 4) tarixiy-an'anaviy yozuv; 5) farqlash yozuvi.

Bu tamoyillar yozilishi va talaffuzi muvofiq kelmaydigan holat uchun ishlatiladi. Mas., *kitob* so'zining talaffuzida *b* tovushi *p* tarzida eshitiladi. Demak, so'zdagi tovushning asli va talaffuzi farq qilganligi va so'z o'zlashma bo'lganligi uchun imlodagi shakliy yozuv qoidasiga tayaniladi. Yoki *men* so'ziga *-ning* qo'shilganda asl holat *menning* bo'lishi kerak edi. Talaffuz esa *mening* ko'rinishida. Demak, bunda tovushni tushirib yozishga asos bo'lgan qoidaga tayaniladi. Talaffuzi va imlosi bir xil so'zga yozuv qoidasi ishlatilmaydi.

## OT

Ot mustaqil so'z turkumlari sirasida fe'ldan keyin 2-o'rinda turadi. Shaxs/predmet/hodisa/joy nomini bildiradigan so'z – ot.

**Ma'noviy xususiyati:** *odam, o'quvchi, ishchi* so'zi shaxsni, *maysa, kitob, ildiz, bulut* so'zi predmetni, *bahs, kengash, avariya, inversiya, gurun, istilo, raqobat, qo'zg'olon, surgun, bayram, urush, janjal, to'fon* so'zi hodisani, *qishloq, shahar, ovul, maktab* so'zi joyni bildiradi.

Ot *kim, nima, qayer* soʻrogʻiga javob boʻladi. Gap tarkibida *qanday* soʻrogʻini ham oladi: *asfalt yoʻl, tilla sirgʻa* kabi. Bunda narsaning ishlanish materialini bildirib sifat xarakterida boʻladi. Joy nomi *nima* soʻrogʻiga ham javob boʻlishi mumkin: *shahar (nima)*.

Grammatik shakl olishi bilan soʻrogʻi ham oʻzgaradi: *uydagi* (qayerdagi), *Qarshidagi* (qaysi). Bu otning oʻziga xos soʻrogʻi emas.

**Morfologik belgisi.** Ot yasaladi (*temirchi, quvonch*), turlanadi (*kitobni, kitobning..., kitobim, kitobing...*), kesim vazifasida kelganda tuslanadi (*oʻquvchiman, oʻquvchisan, oʻquvchi, oʻquvchi edim...*). Ot egalik, kelishik kabi munosabat shakllariga, son, kichraytirish, erkalash kabi lugʻaviy shakllarga ega: *kitoblar, kitobcha, bolajon, otaxon va hokazo*. Kelishik, egalik, kesimlik, qarashlilik, oʻrin va payt belgisi, chegara shakli boshqa mustaqil turkumga ham xos. Lekin ot ularga koʻproq xoslangan.

**Sintaktik belgisi.** Ot barcha mustaqil soʻz turkumi, hatto taqlid, otlashgan undov va modal bilan ham sintaktik aloqaga kirishadi. Ot soʻz birikmasida ergash soʻz (*kitobni oʻqimoq*), bosh soʻz (*qiziq kitob*) boʻlib keladi. Ot gapda barcha sintaktik vazifalarda kela oladi: ega: *Kitob bilim manbaidir*; ot-kesim: *Kasbim – oʻqituvchi*; toʻldiruvchi: *Kitobni asrang*; aniqllovchi: *Taxta koʻprikning eskirishi...*; hol: *Qarshida yashaydi*; Undalma: *Kuyla, dilkash dutorim*.

**Ot yasalishi.** Ot ikki usul bilan yasaladi:

1. Qoʻshimcha qoʻshish. Qoʻshimcha qoʻshish bilan quyidagi ot hosil boʻladi: a) shaxs oti; b) narsa-buyum oti; v) oʻrin-joy oti; g) mavhum ot; d) harakat-holat oti.

Bu usul bilan ot quyidagi soʻz turkumidan yasalishi mumkin: Otdan: *qalamdon, gulzor, Oʻzbekiston, toshloq, odamgarchilik*; Ravishdan: *tezlik, sekinlik, koʻpchilik, ozchilik*; Sifatdan: *yaxshilik, yomonlik, pishiqchilik, namgarchilik*. Sondan: *birlik, toʻrtlik*. Taqliddan: *qahqaha, sharshara, chirildoq, hiqildoq, qarsak*. Undovdan: *ura-urachilik, haybarakallachi*. Feʻldan: *yogʻin, oʻroq, taroq, kurak, elak*. Modaldan: *borliq, yoʻqchilik, yoʻqlik*. Olmoshdan: *oʻzlik*.

Qoʻshimcha qoʻshish orqali ot yasalishi:

| qoʻshimcha | xususiyati | yasalma                                                                                      | asos                |
|------------|------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------|
| -a(i):     |            | <i>qahqaha, sharshara, gʻargʻara, jizza, doʻmbira, dagʻdagʻa, boʻza, quyqa, yara (yor-a)</i> | taqlid, sifat, feʻl |
| -a(ii):    |            | (forsiy) — <i>xaroba, vayrona</i>                                                            | sifat               |
| -ak:       |            | <i>bizbizak, pirpirak, guldirak, varrak, qarsak, xurrak</i>                                  | taqlid              |
| -archilik: | unumsiz    | <i>ocharchilik</i>                                                                           | sifat               |
| -at:       |            | <i>koʻchat, oʻlat, koʻkat</i>                                                                | feʻl, sifat         |
| -bin:      |            | <i>folbin</i>                                                                                | ot                  |
| -bon:      |            | <i>darvozabon, soyabon, tarozibon, xazinabon</i>                                             | ot                  |
| -boz:      |            | <i>masxaraboz, qimorboz, dorboz</i>                                                          | ot                  |
| -voy:      | unumsiz    | <i>novvoy (nonvoy)</i>                                                                       | ot                  |

|                                            |         |                                                                                                            |              |
|--------------------------------------------|---------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------|
| -vchi// -uvchi:<br>i:                      |         | <i>o`quvchi, yozuvchi, uchuvchi, aniqllovchi, to`ldiruvchi</i>                                             | fe'l         |
| -gar// -kar:                               |         | <i>zargar, savdogar, da`vogar, miskar</i>                                                                  | ot           |
| -garchilik:                                |         | <i>yog`ingarchilik, odamgarchilik, namgarchilik, xafagarchilik, xunobgarchilik, sharmandagarchilik</i>     | ot, sifat    |
| -gi// -ki//<br>-qi// -g`i// -g`u:          |         | <i>sezgi, sevgi, supurgi, kulgu, turtki sanchqi, tomizg`i, tuyg`u.</i>                                     | fe'l         |
| -gir:                                      |         | <i>jahongir, fazogir</i>                                                                                   | ot           |
| -gach// -kich<br>//<br>-qich// -g`ich<br>: |         | <i>kulgich, o`tkazgich, ko`rsatkich, yoritqich, tutqich, ochqich, to`g`nag`ich, chizg`ich, o`chirg`ich</i> | fe'l         |
| -gin// -qin//<br>-kin// -gun//<br>-qun:    |         | <i>tizgin, surgun, to`lqin, to`squin, quvg`in, yong`in, uchqun</i>                                         | fe'l         |
| -goh:                                      |         | <i>oromgoh, saylgoh, sayrgoh, qarorgoh, ziyoratgoh, bazmgoh</i>                                            | ot           |
| -go`y:                                     |         | <i>kalimago`y, maslahatgo`y</i>                                                                            | ot           |
| -dak// -doq:                               |         | <i>yugurdak, kekirdak, qovurdoq, qo`ndoq</i>                                                               | fe'l         |
| -diq// -dik:                               |         | <i>o`rindiq, qoldiq, topildiq, hordiq</i>                                                                  | ot, fe'l     |
| -don:                                      |         | <i>guldon, kuldon, qalamdon</i>                                                                            | ot           |
| -dor:                                      |         | <i>muhrdor, chorvador</i>                                                                                  | ot           |
| -dosh:                                     |         | <i>sinfdosh, kursdosh, maslakdosh</i>                                                                      | ot           |
| -do`z:                                     |         | <i>etikdo`z, mahsido`z, kashtado`z</i>                                                                     | ot           |
| -zor:                                      |         | <i>olmazor, gulzor, olchazor</i>                                                                           | ot           |
| -ik:                                       |         | <i>ko`rik, teshik (ot va sifat), kekirik, bilik, bitik, ko`pik</i>                                         | fe'l, ravish |
| -ildoq:                                    |         | <i>hiqildoq, chirildoq</i>                                                                                 | taqlid       |
| -imlik:                                    |         | <i>o`simlik, ichimlik</i>                                                                                  | fe'l         |
| -in// -un:                                 |         | <i>yig`in, yog`in, ekin, tiqin, tugun, tutun</i>                                                           | fe'l         |
| -indi//<br>-undi// -ndi:                   |         | <i>chiqindi, yuvundi, chirindi, cho`kindi, kuyundi, yig`indi</i>                                           | fe'l         |
| -iston:                                    |         | <i>guliston, go`riston, o`zbekiston</i>                                                                    | ot           |
| -it:                                       | unumsiz | <i>chiqit</i>                                                                                              | fe'l         |
| -ich:                                      |         | <i>cho`mich, cho`kich, o`pich, bog`ich</i>                                                                 | fe'l         |
| -ish:                                      |         | <i>qarg`ish</i>                                                                                            | fe'l         |
| -iq// -uq:                                 |         | <i>chaqiriq, kesatq, yutqiziq, chopiq, yutuq, buyruq.</i>                                                  | fe'l         |
| -k:                                        |         | <i>ko`rk, elak, tilak, kurak, bezak, to`shak</i>                                                           | fe'l         |
| -kash:                                     |         | <i>aravakash, qalamkash, suratlash</i>                                                                     | ot           |

|                         |           |                                                                                                                                                                   |                                                    |
|-------------------------|-----------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------|
| -kilitik//<br>-gilitik: | unumsiz   | ichkilitik, ko`rgilitik                                                                                                                                           | fe'l                                               |
| -kor:                   |           | ganchkor, paxtakor, sholikor,<br>san'atkor                                                                                                                        | ot                                                 |
| -kov:                   |           | go`rkov                                                                                                                                                           | ot                                                 |
| -lik//-liq:             |           | bolalik, vaqtichog`lik, do`stlik,<br>boshliq, yaxshilik, ezgulik, yomonlik,<br>saxiylik, birlik, to`rtlik, o`zlik, tezlik,<br>sekinlik, birgalik, borliq, yo`qlik | ot, sifat,<br>son,<br>olmosh,<br>ravish,<br>modal, |
| -loq:                   |           | o`tloq, qumloq, toshloq                                                                                                                                           | ot                                                 |
| -m//-im//-u<br>m:       |           | to`plam, ho`plam, chidam, tishlam,<br>kechirim, qo`nim, terim, chiqim,<br>bitim, bosim, unum, tuzum, qultum                                                       | fe'l, taqlid                                       |
| -ma:                    |           | surma, o`sma, tortma                                                                                                                                              | fe'l                                               |
| -mak//-moq:             |           | emak, ilmoq, chaqmoq, topishmoq                                                                                                                                   | fe'l                                               |
| -machoq:                |           | bekinmachoq, quvlashmachoq                                                                                                                                        | fe'l                                               |
| -mish:                  |           | o`tmish, kechmish, qilmish.                                                                                                                                       | fe'l                                               |
| -movchilik:             |           | anglashilmovchilik, kelishmovchilik,<br>yetishmovchilik                                                                                                           | fe'l                                               |
| -noma:                  | affiksoid | taklifnoma, tabriknoma, pandnoma                                                                                                                                  | ot                                                 |
| -navis:                 |           | tarixnavis, voqeanavis, romannavis                                                                                                                                | ot                                                 |
| -on:                    |           | qiron, to`zon                                                                                                                                                     | fe'l                                               |
| -os:                    |           | uvvos, chuvvos                                                                                                                                                    | taqlid                                             |
| -ot//-at:               | arabcha   | ma'lumot, mushkulot, xarobot,<br>she'riyat, madaniyat, majburiyat                                                                                                 | sifat                                              |
| -paz:                   |           | oshpaz, kabobpaz, somsapaz                                                                                                                                        | ot                                                 |
| -soz:                   |           | soatsoz, kemasoz                                                                                                                                                  | ot                                                 |
| -furush:                |           | baliqfurush, nosfurush                                                                                                                                            | ot                                                 |
| -xon:                   |           | kitobxon, she'rxon                                                                                                                                                | ot                                                 |
| -xona:                  | affiksoid | darsxona, mehmonxona, ishxona,<br>yotoqxona                                                                                                                       | ot                                                 |
| -xo`r:                  |           | merosxo`r                                                                                                                                                         | ot                                                 |
| -ch//-j//-inch:         |           | sevinch, quvonch, yupanch, ilinj,<br>qo`rqinch                                                                                                                    | fe'l                                               |
| -chak//-choq:           |           | belanchak, emchak, ovunchoq,<br>taqinchoq, o`yinchoq                                                                                                              | fe'l, ot                                           |
| -chi:                   |           | ishchi, temirchi, terimchi, gulchi,<br>bosqinchi, qiziqchi, suyunchi,<br>tilanchi, tomchi, haybarakallachi                                                        | ot, sifat,<br>fe'l, undov                          |
| -chilik:                |           | hunarmandchilik, o`zbekchilik,<br>dehqonchilik, pishiqchilik,<br>arzonchilik, ko`pchilik, ozchilik                                                                | ot, sifat,<br>ravish                               |
| -chiq:                  |           | suyanchiq, yopinchiq                                                                                                                                              | fe'l                                               |

|          |  |                                                                                     |      |
|----------|--|-------------------------------------------------------------------------------------|------|
| -shunos: |  | <i>tilshunos, tabiatshunos, uslubshunos</i>                                         | ot   |
| -q//oq:  |  | <i>charchoq, taroq, qayroq, qiynoq, tirnoq, so`roq, suvoq, bo`yoq, o`roq, yotoq</i> | fe'l |
| ham-:    |  | <i>hamqishloq, hamshahar, hamyurt</i>                                               | ot   |

2. So`zga so`z qo`shib ot yasash. Bu usul bilan q o ` s h m a o t hosil qilinadi.

**Qo`shma ot.** Qo`shma ot quyidagi tur qoliplar asosida yasaladi:

Ot+ot: *jo`raboshi, zaharxanda, ishtonbog`, karvonsaroy, karvonboshi, kinodramaturgiya, kinolenta, ko`zmunchog, lolaqizg`aldaq, makkajo`xori, namozshomgul, oshqozon, otquloq, oshqovoq, piyozdog`, sochpopuk, toshbo`ron, tilxat, tomorqa, toshbaqa, tog`olcha, tuyaqush, tuyatovon, xontaxta, xo`rozqand, shakarqamish, shamchiroq, shaftoliqoqi, yurtboshi, qo`ziqorin, qo`ypechak, ajdargul, ayiqtovon, atirgul, arpabodiyon, baqaterak, belbog`, bilaguzuk, bo`yinbog`, gugurtcho`p, gulbarg, gulbahor, gultojxo`roz, gulbog`, guldasta, gulqaychi, gulg`uncha, gulhamishabahor, yer yong`oq, joynamoz, , qo`larra, qo`ltiqtayog, temiryo`l.*

Sifat+ot: *ko`ksulton, kaltakesak, Sho`rko`l, ko`rsichqon, ko`rshapalak, oqsoqol, xomtok, qoradori, boychechak.*

Ot+fe'l: *socho`sar, echkiemar, ko`zboylog`ich, kallakesar, husnbuzar, beshiktervatar, dunyoqarash, mushtketdi, o`rinbosar.*

Son+ot: *yettisuv, beshbarmoq, beshqarsak, Oltiariq, uchburchak, mingoyoq, qirqog`ayni.*

Son+fe'l: *beshtar.*

Ot+sifat: *ustabuzarmon, gulbeor, oshko`k.*

Fe'l+fe'l: *iskabtopar, ishlabchiqarish.*

Fe'l + ot: *savacho`p.*

Birikma xususiyatiga ega bo`lgan *Markaziy Osiyo, Janubiy Amerika, O`zbekiston Respublikasi, Fanlar akademiyasi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti* kabi qo`shma ot ham bor. Uning bir qismi qisqargan holda ham qo`llanadi.

**Otlashish.** Otlashish – otdan boshqa so`zning nutq jarayonida o`z vazifasini bajara turib, vaqtincha ot turkumi vazifasini ham zimmasiga olishi. Otlashishning 4 ta muhim belgisi bor:

1. Otlashgan so`z bog`langan ot tushib qolgan bo`ladi: *Yaxshi (odam) oshini yer, yomon (odam) – boshini.*

2. Otlashgan so`z otning shakl yasovchi qo`shimchasini oladi: *Yaxshidan adashma, yomonga yondashma.*

3. Otning so`rog`iga javob bo`lishi mumkin: *Intilganga (kimga?) tole yor.*

4. Otning sintaktik vazifasini bajaradi: *Shakarning ozi shirin.*

Sifat, son, ravish, shu uch so`z turkumi o`rnida qo`llanuvchi olmosh, fe'lning sifat-dosh shakli, taqlid, undov va ayrim modal so`zlar otlashish xususiyatiga ega. Chunki ular o`zi bog`langan otni tushirib, uning grammatik shakli va sintaktik xususiyatiga ega bo`la oladi. Ot vazifasidagi olmosh va fe'lning harakat nomi shakli otlashmaydi. Ular – ot vazifasini bajaruvchi so`z.

**Otning lug'aviy shakllari.** Otning lug'aviy shakllari – faqat otlarga mansub, uning ma'nosini muayyanlashtiruvchi, aniqlashtiruvchi, toraytiruvchi kichraytirish, shaxsiy munosabat va son shakllari. **Kichraytirish shakli** otning hajm jihatidan, **son shakli** bitta yoki ko'pligi jihatidan aniqlashtirsa, **shaxsiy munosabat shakli** erkalash yoki achinish kabi turli munosabatni ifodalaydi

**Son shakli.** Son shakli – otlarning son jihatidan bitta yoki ko'p bo'lishini ko'rsatuvchi shakl. Ikki shakli mavjud: *birlik* va *ko'plik*. Birlikdagi ot birlik va noaniq ko'plik ma'nosini bildiradi. Maxsus shakli yo'q. *Do'konga kitob keltirildi* (bitta yoki ko'p). *Menga bitta kitob bering* (birlik). Ko'plikdagi ot noaniq ko'plikni ifodalaydi, *-lar* shakli bilan hosil qilinadi: *Yigitlar maktubin bitganda qondan...*(A.Orip.)

Barcha ot **birlik**da qo'llanishi mumkin, biroq har qanday ot **ko'plik**da qo'llana olmaydi. Shu nuqtayi nazardan otlar faqat birlikda qo'llanadigan va birlik hamda ko'plikda qo'llanadigan otga bo'linadi:

*Birlik va ko'plikda qo'llanadigan ot.* Sanoq son bilan birika oladigan ot birlikda ham ko'plikda ham qo'llana oladi: *kitob(lar), uy(lar), og'ayni(lar) - 10 ta kitob.*

Faqat birlikda qo'llanadigan ot - ko'plik shaklini qabul qilmaydigan, sanoq son bilan birika olmaydigan ot. Atoqli ot (*Toshkent, Mohinur, Qashqadaryo, Qarshi davlat universiteti*), mavhum ot (*sevinch, hasrat, tinchlik, ko'ngil*), yakka predmetlar nomi (*ota, ona, yurak, bosh, til*), sanalmaydigan jism nomi (*tuz, qum, shakar, tuproq, suv, havo*), juft predmet nomi (*ko'z, quloq, oyoq, etik, tufli*) va boshqalar faqat birlikda qo'llanadi.

**Uslubiy belgilari.** Ko'plik shakli ko'p ma'noli, atoqli otlar, mavhum otlar, sanalmaydigan otlar, asli birdan ortiq bo'lmaydigan, shuningdek, juft predmet nomiga qo'shilganda grammatik ko'plik emas, nutqiy qurshov bilan bog'liq quyidagi uslubiy ma'noni ifodalaydi:

1. Atoqli ot turdosh otga aylanib, "o'xshashlik" (*zamonamiz farhodlari, Marg'ilonning kumushlari*), yoki "yaqin shaxs to'dasi" ma'nosini (*aka-uka Shojililovlar, Salimlarnikiga bordik*) bildiradi.

2. Yakka predmet nomi ko'chma (*Navoiy, Bobur va Mashrab mumtoz she'riyatimizning so'nmas quyoshlaridandir*) yoki kuchaytirilgan ma'no (*Quyoshlarga yetdi faryodim*) ifodalaydi.

3. Sanalmaydigan predmet nomi (*yog', suv, qum, tuproq, havo kabi*) har xil tur, mo'llik ma'nosini (*yog'lar (paxta yog'i, zigir yog'i, kunjut yog'i va hokazo)*) bildiradi.

4. Juft predmet nomi kuchaytirish ma'nosini (*Ko'zlari qamashib ketdi. Oyoqlari zirqirab og'rir edi*) ifodalaydi.

5. Mavhum ot kuchaytirilgan ma'no beradi: *U xayollarga cho'mib ketdi. Ahvollar yaxshimi?*

*-lar* shakli ko'plikdan tashqari yana quyidagi ma'noni ifodalaydi:

6. Hurmat – bunday paytda doimo egalik shakli ishtiok etadi va ko'plikdan oldin qo'shiladi: *ayamlar, dadamlar, tog'amlar.*

7. Taxmin, davomiylik: *kechalari, tunlari, yozlari.*

8. Kuchaytirish: *Boshlarim og'rib ketdi. Yuraklarim ezilib ketdi. Tillarim achishdi.*

9. Piching, kinoya: **Tog'alari** rais ekanmi? **O'zlari** ham qadam ranjida qilibdilar-da?!

10. Tur-nav: *unlar, suvlar.*

Arabcha ko`plikni bildiruvchi *-ot//-at* qo`shimchasini olgan so`z ham birlik shaklida deyiladi: *nabotot, muzofot, mukofot.*

Ko`plik *-lar* shaklisiz ham ifodalanadi:

a) son bilan: *Darsda 15 ta o`quvchi qatnashdi. To`rt tup olma ko`hati o`tqazdik.*

b) ravish bilan: *Maydonda ko`p odam yig`ilgan edi. Ta`tilda ancha badiiy asar o`qidim;*

d) olmosh bilan: **Shuncha qalamni** nima qilasiz?

e) takroriy so`z bilan: *dasta-dasta gul, to`da-to`da odam, savat-savat non, qop-qop bug`doy;*

f) matn orqali: *Bog`bonlar bog`iga ko`chat o`tqazishyapti. Zayniddin – davra ko`rgan odam.*

Bunday ot baribir birlik shaklda deyiladi.

Yuqoridagilar asosida ko`plik ma`nosining ifodalanish usulini quyidagicha tartiblash mumkin: 1) morfologik usul: *kitoblar, uylar*; 2) sintaktik usul: *ancha odam, bir qancha kitob*; 3) leksik usul: *armiya, xalq, olomon, guruh, to`da, dasta*; 4) so`zni juftlash usuli: *qop-qop, dasta-dasta*; 5) leksik-morfologik usul: *ancha kitoblar.*

Yuqoridagilardan tashqari yana ot turkumiga xos lug`aviy shakllar mavjud. Ular:

1. **Qarashlilik** shakli *-niki*: *meniki, seniki, bizniki, maktabniki, Rustamniki.* Ko`pincha ot-kesim tarkibida bo`ladi: *Kitob Salimniki.* Egalik, kelishik qo`shimchasini olib to`ldiruvchi, aniqlovchi va hol bo`lib keladi: *Har kimniki o`ziga, oy ko`rinar ko`ziga. Biznikining toychog`i bor. Tog`asinikini so`rab-so`rab topdi. Qizinikiga ketdi.*

2. **O`rin va payt belgisi shakli** *-dagi*: *uydagi, ko`chadagi, mendagi, sendagi.* Bu qo`shimcha predmet-hodisaning belgisini bildirib, odatda sifatlovchi-aniqlovchi bo`lib keladi: *Uydagi kompyuter boshqacha-da, istagan vaqtda ishlayverasiz.* Otlashsa, otning sintaktik vazifalarini bajaradi: *Majlisdagilar ketishdimi?*

Ayrim darslikda *-day/dek* shaklini sifat yasovchi sifatida qarashadi. Bu aslida qo`shimchaga aylangan *tek* ko`makchisi. *-gacha//-kacha//-qacha* shakli tarkibidagi *-cha* ham aslida *chayin* ko`makchisining qisqargan shakli. Ular qadimgi turkiy tilda *bilan, kabi, uchun* ko`makchisi bilan teng huquqli bo`lgan.

3. **Chegara shakli** *-gacha//-kacha//-qacha*: *uygacha, parkkacha, qishloqqacha.* U otlashgan so`z, olmosh, ravish, son va fe`lning ikki vazifa shakliga ham qo`shila oladi. Zamon va makon, ba`zan turli predmet bilan bog`liq chegarani anglatib, payt va o`rin holi, to`ldiruvchi bo`lib keladi: *Markazgacha piyoda borishdi. Haligacha daragi yo`q. Ko`rgazmali qurol, bo`r, hatto lattagacha tayyorlab qo`yildi.*

4. **O`xshatish shakli** *-dek//-day*: *sherdek, kaftdek, kiyikdek. Muzdek suv, qitday dori* kabida yangi ma`noli so`zga aylangan. Predmet-hodisa va ish-harakatning belgisini bildirib, sifatlovchi-aniqlovchi, hol, ot-kesim bo`lib keladi: *Peshonasida no`xatdek g`urra bor edi. U onasiga xuddi yosh boladek erkalana edi. Boshi xumday edi.*

*-dagi, -niki, -gacha* kabi affiks tarixan 2 ta qismdan tashkil topgan bo`lsa-da, hozir yaxlit murakkab qo`shimcha hisoblanadi.

**Otning ma'noviy guruhlari.** Ot ma'no jihatidan, dastlab atoqli va turdoshga bo'linadi.

**Atoqli ot.** Bir turdagi shaxs, predmet, hodisa, joydan biriga atab qo'yilgan ot - atoqli ot: *Alisher, Qarshi, Mustaqillik kuni*. Atoqli otlar ma'nosiga ko'ra o'z ichida shaxs oti (*kim* so'rog'iga javob bo'ladi), joy oti (*qayer* so'rog'iga javob bo'ladi) va narsa oti ga (*nima* so'rog'iga javob bo'ladi) bo'linadi.

1. Atoqli shaxs oti (kishi ismi, familiyasi, taxallusi): *Oybek, Sitora, Xudoyberdiyeva*.

2. Atoqli joy oti: a) geografik nomlar: *Qashqadaryo, Boltiqbo'yi, Kavkazorti, O'zbekiston, Hisor, Kavkaz*; b) tashkilot nomlari: *Qarshi davlat universiteti, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, "Rohat" kichik korxonasi*.

3. Atoqli narsa oti: a) osmon jismi nomi: *Zuhul, Mirrix, Yupiter*; b) gazeta, jurnal, darslik, asar nomi: *"Nasaf", "Yoshlik", "O'tgan kunlar", "Ona tili"*; d) suv havzasi va inshooti nomi: *Chimqo'rg'on suv ombori, Hisor tog'i*; e) tarixiy sana va bayram nomi: *Ramazon hayiti, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Mustaqillik kuni*; f) hayvon nomi: *Boychibor, Yo'lbars, Olapar*.

**Uslubiy belgilari.** Atoqli ot, odatda, ko'plik qo'shimchasini olmaydi. Atoqli otga qo'shilgan *-lar* shakli quyidagi ma'nolarni ifodalaydi: a) "bir turdagi shaxs/joy" ma'nosi: *To'yga Zulfiyalar ham keldi* (Zulfiya hamda yaqinlari); b) "o'xshashlik": *Farhodlar keldi kanal qazmoqqa* (Farhod emas, o'xshashlari).

Atoqli ot belgisiz qo'llanmaydi: *Mohinurning qo'g'irchog'i, Dildorani kutmoq*.

Atoqli otning katta qismi turdosh otdan, bir qismi boshqa turkumdan o'tgan: a) turdosh otdan: *Asal, Arslon, Ra'no, Rayhon, Anor, Lola*; b) sifatdan: *Shirin, Buyuk, Tuyg'un, Aziza, Ulug'*; d) sondan: *Yetmishboy, Sakson, To'qson*; e) ravishdan: *Bultur*; f) olmoshdan: *Kimsanboy*; g) fe'ldan: *Tursun, Turdi, O'lmas, Sotiboldi, Unsin*.

*Rentgen, xosiyatxon, amper, makintosh, muslimka* kabi so'z kashf etgan shaxs nomidan turdosh otga o'tgan.

**Imloli.** Atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi. (q. **Bosh harflar imlosi**).

**Turdosh ot.** Bir turdagi shaxs, predmet, hodisa, joyning umumiy nomini bildiruvchi ot – turdosh ot. Otning asosiy qismi turdosh hisoblanadi: *suv, havo, osmon, qalam, daftar, shamol, yong'in*.

Turdosh ot lug'aviy ma'nosiga ko'ra 4 ga bo'linadi: a) shaxs oti: *kishi, odam, jin, , ishchi, o'quvchi*; b) narsa oti: *paqir, daraxt*; d) o'rin-joy oti: *uy, dorixona, maktab, oshyon*; e) faoliyat/jarayon oti: *ezmalik, g'allachilik, serobgarchilik, chaquv, terim, umum, mehribonlik, yoshlik, tanlov, chopiq, loygarchilik, chorvachilik*.

Turdosh ot grammatik ma'nosiga ko'ra uchga bo'linadi:

1) bevosita kuzatish mumkin/mumkin bo'lmagan narsa nomini bildirishiga ko'ra: a) **aniq ot** ifodalagan narsani sezgi a'zosi bilan sezish mumkin: *daraxt, kishi, ovoz, rang*; b) **mavhum ot** ifodalagan narsani sezgi a'zosi bilan sezish mumkin emas: *sevgi, oqim, tuyg'u, yaxshilik, pishiqchilik, gina, gumon, did, ibo, istehzo, mung, rashk, rohat, taskin*.

Aniq otga ko'plik shakli qo'shib, sof ko'plik ma'nosini namoyon qila oladi.

2) bir turga kiruvchi bitta predmetning yoki predmetlar to'dasining nomini bildirishiga ko'ra: a) **yakka ot** bir turga kiruvchi bitta predmetning nomini bildiradi:

*barg, qalam, terak, yaylov*; b) **jamlovchi ot** predmet to`dasining nomini bildiradi: *armiya, qo`shin, lashkar, xalq, ulus, el, jamoa, poda, uyur, suruv, komanda, guruh*.

3) sanalish-sanalmasligiga ko`ra: a) **sanaladigan narsa oti**: *daftar, qalam, daryo, tosh*; b) **sanalmaydigan narsa oti**: *havo, suv, bug`, yog`, qum*.

**Boshqa turkum so`zlarining otga ko`chishi.** Ot boshqa so`zlardan predmetni nomlashi *kim?, nima?, qayer?* so`roqlaridan biriga javob bo`lishi bilan farqlanadi. Ba`zan otdan boshqa so`zlar ham otga xos belgilarga ega bo`lishi mumkin. Bunday hodisa – otga ko`chish. Quyidagi so`zlar otga ko`chgan:

a) sifat: *yigit, qiz, o`g`il, yosh, qari, er, xotin, ko`r, issiq-sovuq* (issiq-sovug`idan xabar olmoq), *achchiq-chuchuk, yosh-u qari, ko`k* ("osmon", "nasha", "dollar") (*siyoh* so`zi ham aslida sifatdan ko`chgan);

b) fe`l: *yel, shish, yuq, ich, ko`ch, qir, chaqirdi, chorladi, ko`rdi, keldi-ketdi, qo`ydi-chiqdi, oldi-berdi, oldi-sotdi; mindi-mindi* (bolalar o`yining nomi), *bordi-keldi, keldi-ketdi, oldi-berdi, ur-yiqit, ur-sur, baqir-chaqir, yasan-tusan, supur-sidir, yugur-yugur, yig`di-yig`di* (gap), *kuydi-pishdi* (ayol), *iliguzildi* (vaqt), *supraqoqdi* (farzand, ya`ni so`nggi farzand) kabi sodda, qo`shma, juft va takroriy fe`l;

d) fe`lning harakat nomi shakli: *kengash, kurash, o`qish, yozish, o`tmish, qilmish, qidiruv, o`ynash, saylov, ishlov, qurshov, qatnov, qistov, tanlov, tintuv, maqtov, tergov, to`lov, o`quv, chanqov, qalov, qarov, to`ntarish, o`zgarish, qiziqish, o`qish, o`tirish, qarash* (русча взгляд), *muyulish//burilish, burilish* ("o`zgarish" ma`nosida), *yo`zuv-chizuv, yurish-turish, borish-kelish, bosar-tusar, ko`rolmaslik, kiraverish*;

e) fe`lning sifatdosh shakli: *o`qituvchi, bog`lovchi, kuzatuvchi*;

f) son: *uch, yetti, yigirma, qirq, to`qqiz-to`qqiz*;

g) taqlid: *ququ* (qush), *dudut* (yengil mashina), *popop* (asli: *pop-pop*, tikuv mashinasi), *tutu* (tovuq), *patpat* (mototsikl), *shapshap* (magazkushak), *shaqshaq, jiz* (taom nomi).

**Otning tuzilishiga ko`ra turlari.** Ot tuzilishiga ko`ra sodda, qo`shma, juft, takroriy va qisqartma otga bo`linadi.

**Sodda ot.** Bir asosdan tashkil topadi: *ishchi, kitob*. Sodda otlar tub va yasama bo`lishi mumkin. Tarkibida yasovchi qo`shimcha bo`lmagan ot **tub otdir**: *ish, ishning, kitoblar*. Tarkibida yasovchi ishtirok etgan ot **yasama otdir**: *ishchi, kitobxon*.

**Qo`shma ot.** Birdan ortiq mustaqil asosning birikib, yangi ma`no ifodalashidan qo`shma ot hosil bo`ladi: *o`rinbosar, iskabtopar, Markaziy Osiyo*. Qo`shma otlar yasama so`z, asosan, qo`shib yoziladi.

**Juft ot** - ikki otning o`zaro birikib, umumlashgan ma`no ifodalovchi turi. Juft ot ma`nodosh (*o`y-xayol*), ma`nosi yaqin, uyadosh (*to`y-tomosha, do`st-yor, chang-to`zon, ona-bola, aka-uka*), zid ma`noli (*do`st-dushman, shoh-gado*), butun-bo`lak munosabatida (*tog`-tosh, gap-so`z, yer-joy*), tur-jins munosabatida (*qo`y-qo`zi, ot-ulov*) bo`lishi mumkin. Juft ot turkum jihatidan ot (*ona-bola*), sifat (*achchiq-chuchuk, oq-qora, eski-tuski*), taqlid so`z (*jiz-biz*), ravish (*kam-ko`st*), fe`l (*keldi-ketdi, oldi-berdi*)ga mansub bo`ladi.

Juft ot qismining yakka ishlatilishi/ishlatilmasligiga ko`ra uchga bo`linadi:

1. Har ikki qismi yakka ishlatiladigan juft ot quyidagicha: a) qismi o`zaro ma`nodosh so`z: *rang-qut, rahm-shafqat, rohat-farog`at; sehr-jodu; tag-tub, talon-taroj, tuz-namak; ta`rif-tavsif; urush-janjol, urug`-aymoq, urf-odat; fisq-fasod,*

*fahm-farosat; xayr-ehson, xayr-baraka, xayr-saxovat, xavf-xatar, xesh-aqrabo, xulq-atvor; chang-g`ubor, cho`l-biyobon; shovqin-suron, shak-shubha, sharaf-shon//shon-sharaf, sharm-hayo, shon-shuhrat, shon-shavkat; es-hush, el-ulus; yuz-bet; yarog`-aslaha; o`-t-olov, o`ch-adovat, o`-t-o`lan; azob-uqubat, azm-u qaror, aysh-ishrat, alam-hasrat, amr-farmon, asbob-uskuna, atrof-tevarak//tevarak-atrof, aft-bashara, aql-zakovat, aql-idrok, aql-hush; baxt-saodat, bog`-u bo`ston, va`z-nasihati; gap-gashtak, gard-g`ubor; yo`l-yo`riq; kayf-safo, kibr-havo; lutf-u karam, lutf-marhamat, lutf-ehson; maza-ta`m, makr-hiyla, mol-mulk, murod-maqsad; nazar-pisand, nasl-nasab, nola-fig`on; or-nomus, osmon-u falak, oshna-og`ayni, oziq-ovqat; pand-nasihati, pand-o`git; qavm-qarindosh, qaddi-qomat, qahr-g`azab, qurol-aslaha; g`am-hasrat, g`am-g`ussa; his-tuyg`u, hazil-mutoyiba, huzur-halovat; dori-darmon, diqqat-e`tibor, davr-davron, dasht-biyobon; jabr-zulm, jabr-sitam; zeb-ziynat, ziyon-zahmat, zavq-shavq; ilm-fan, inon-ixtiyor, izzat-hurmat, izzat-ikrom, izm-ixtiyor, ishq-muhabbat; b) qismi o`zaro zid ma`noli so`z: avra-astar, achchiq-chuchuk; bordi-keldi (fe`ldan ko`chgan), bosh-oyoq; do`st-dushman; yer-osmon, yer-ko`k; ko`ylak-ishton; salom-alik; shoh-u gado; d) qismi uyadosh so`z: chang-to`zon; shahd-shakar; egar-jabduq, evara-chevara, el-yurt; yuz-xotir, yuz-qo`l//qo`l-yuz; yara-chaqa; o`q-yoy, o`q-dori, o`yin-kulgi, o`lim-yitim; qazi-qarta, qovoq-tumshuq, quloq-miya, qurt-qumursqa, qiz-juvon, qo`y-qo`zi; harb-zarb, hisob-kitob, hol-jon, ariq-zovur; baxt-taxt, baqir-chaqir, boj-xiroj, bosh-ko`z; go`sht-yog`//yog`-go`sht, izohlovchi-izohlanmish munosabatida: general-mayor, general-polkovnik; dala-dasht, dur-javohir, dard-u balo, dev-alvasti, domla-imom; yem-xashak, yetim-yesir, yer-suv; jon-u dil, jon-jahd; zahar-zaqqum; idish-tovoq, ilm-ma`rifat, ish-harakat, igna-ip; kalla-pocha, kasb-kor, ko`rpa-to`shak, ko`rpa-yostiqlik, karnay-surnay, lab-lunj, mol-hol, munkar-nakir, mushk-anbar; nevara-chevara, nom-nishon, non-tuz, non-nasiba, ota-bobo, ot-ulov, orzu-havas; sa`y-harakat, sovg`a-salom; toj-taxt, tosh-tarozi, tashviqot-targ`ibot, tish-tirnoq; uy-ro`zg`or, ur-yiqit, ur-sur, ust-bosh, fikr-zikr; xas-xashak, xat-savod, xor-xas, xotin-qiz, ot-ulov; e) qismi o`zaro butun-bo`lak ma`noli so`z: tog`-tosh, gap-so`z, vaqt-soat, hovli-joy.*

2. Qismidan biri yakka ishlatilmaydigan juft ot: *idish-oyoq, yig`i-sig`i, kiyim-kechak, ko`ch-ko`ron, kam-ko`st, ko`cha-kuy, latta-putta, maza-matra, murosam-madira, meva-cheva, narx-navo, pardoz-andoz, rizq-ro`z, temir-tersak, to`s-to`polon, fe`l-atvor, xotin-xalaj, shox-shabba, ekin-tikin, enka-tinka, yasan-tusan, qo`ni-qo`shni, qirg`in-barot, quda-anda, qand-qurs, qiyomat-qoyim, g`ala-g`ovur, hayot-mamot, aldama-qaldam, bozor-o`char, bola-baqra, bog`-rog`, bo`y-bast, bosar-tusar, vaj-korson, dov-daraxti, dabdaba-as`asa, dov-dastgoh, yog`in-sochin, irim-chirim//irim-sirim, non-pon, qo`y-po`y, paxta-maxta, bug`doy-mug`doy, tosh-posh.*

3. Har ikki qismi yakka holda ishlatilmaydigan juft ot: *ya`juj-ma`juj, qalang`i-qasang`i, g`idi-bidi, adi-badi, ashqol-dashqol, zer-zabar, ikir-chikir, lash-lush, lom-mim, shara-bara, shikast-rext.*

**Takroriy ot** - bir otning takror qo`llanib, bir urg`u bilan aytilishi. Ko`p ot takror qo`llanganda yangi ma`no ifodalab, boshqa turkumga ko`chishi kuzatiladi: ravishga: *qop-qop, takror-takror, gul-gul, es-es*; sifatga: *yo`l-yo`l*. Shuningdek, boshqa turkum so`zlari takror qo`llanib otga ko`chishi ham mumkin: *dedi-dedi, mindi-mindi,*

*ko`tar-ko`tar, yugur-yugur, chopa-chop*. Ayrim takroriy ot yasama so`zga xos ma`no beradi: *yor-yor, kazo-kazo, mish-mish, jag`-jag`* (o`simlik nomi).

Otlar takror qo`llanganda ma`no kuchaytiriladi: *tomir-tomiriga singmoq, jon-jonidan o`tmog, qon-qoniga singib ketmoq*.

**Qisqartma ot.** Qisqartma otlar quyidagi yo`l bilan hosil qilinadi:

1. Faqat bosh harflarni olish bilan: *MDH* (Mustaqil davlatlar hamdo`stligi), *XDP* (Xalq demokratik partiyasi), *QDU* (Qarshi davlat universiteti).

2. Birinchi so`zning bir qismini olib, keyingi so`zlarning bosh harflarni olish bilan: *SamDU* (Samarqand davlat universiteti), *O`zMU* (O`zbekiston Milliy universiteti).

3. So`zlardan bir qismdan olish bilan: *boshbux, O`zdunrobta, O`zmevauzumsabzavotsanoatxolding*.

**Ot turkumi tahlili.** Ot turkumi tahlili – otning turlari, ularning shakllari va xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan morfologik tahlil turi. Unda quyidagilar aniqlanadi: 1. Qaysi lug`aviy mazmuniy guruhga mansubligi. 2. Morfologik tarkibi. 3. Yasalishi. 4. Lug`aviy shakli. 5. Sintaktik shakli. 6. Tuzilishiga ko`ra turi. 7. Gapdagi vazifasi.

Namuna: *Keksa dilingizga tushmasin titroq,*  
*Otalar, chayqalib turibdi olam...(A.Orip.)*

Turdosh ot, narsa oti, mavhum ot; *dil-ingiz-ga*; tub; *-ingiz* II shaxs ko`plik; *-ga* jo`nalish kelishigi; sodda ot, to`ldiruvchi.

## OVOZ

Ovoz – ovoz a`zolari yordamida chiqariladigan, balandligi, kuchi, tembri har xil b`lgan tovush. Ovoz hiqildoqda hosil bo`ladi: o`pkadan chiqayotgan havo oqimi bir-biriga tegib turgan ovoz boylamlari oralig`idan o`tib uni tebratadi, natijada nozikkina ovoz hosil bo`ladi, so`ngra uni yuqori rezonatorlar (og`iz bo`shlig`i, halqum, burun va yondosh bo`shliqlar) kuchaytirib, ovoz o`ziga xos ohang oladi. O`pkadan chiqayotgan havo oqimining kuchiga, jips turgan ovoz boylamlarining ko`rsatayotgan qarshiligi va ularning tebranish amplitudasiga qarab, ovoz kuchli yoki kuchsiz, shuningdek, tebranishning uzunligi va chastotasiga qarab baland yoki past bo`lishi mumkin. Unli tovush sof ovozdan iborat. Ovoz og`iz bo`shlig`iga o`tgach, uning bir qismi shovqinga aylanib, undosh tovush hosil bo`ladi. Undoshning turlari **shovqin** miqdori bilan belgilanadi.

## OZAR TILI

Ozar tili – turkiy tillar oilasining o`g`uz guruhiga mansub til; asosan, Ozarbayjon Respublikasida, qisman Armaniston, Gruziya, Turkiya, Iroq Respublikasida tarqalgan. So`zlashuvchilarning umumiy soni 14 million kishidan ortiq (jumladan, Ozarbayjonda 6 millionga yaqin (1979)). Ozar tili 4 ta lahja guruhiga ega: 1) *s h a r q i y* (kuba, boku, shemahi lahjalari va mug`an, lankaran shevalari); 2) *g` a r b i y* (kazax, qorabog`, ganja lahjalari, ayrum shevasi); 3) *s h i m o l i y* (nuhin lahjasi va zakatala-kox shevasi); 4)

janubiy (naxichevan, o`rdubod, tavriz lahjalari, yerevan shevasi). Lahjalardagi farqlar asosan fonetika va leksika sohasida kuzatiladi.

Ozar tili fonetikasining boshqa turkiy tillarga nisbatan farqli jihatlari: ozarbayjon tilida 9 ta unli, 23 ta undosh tovush bor; barcha o`rinlarda *g* fonemasining keng qo`llanilishi; asli turkiy *k/q* undoshlarining jaranglilanishi (*qon-gan*) va bo`g`iz tovushiga aylanishi (*qachon-hachan*), so`z boshidagi ba`zi jarangli undoshlarning jarangsizlanishi (*balchiq – palchig*) va boshqalar. Morfologiyada bir qator affiksalar ko`rsatkichlar o`zaro farqlansa, sintaksisda bog`lovchili qo`shma gaplar tizimi rivojlangan. Hozirgi ozarbayjon tili leksikasining asosiy qismini shu tilning o`ziga mansub va umumturkiy so`zlar tashkil etadi; shuningdek, unda arab va fors tillaridan o`zlashgan so`zlar ham anchagina.

Yozuvi 1929-yilgacha arab grafikasi asosida, 1929–1939-yillarda rus grafikasi asosida bo`lgan. 1992-yilda yana lotin grafikasidagi yozuv joriy qilingan. Hozirgi ozar adabiy tili XIX asr o`rtalarida boku va shemahi lahjalari asosida shakllana boshlagan.



## PAPUAS TILLARI

Papuas tillari – Yangi Gvineya va Tinch okeanining boshqa bir qancha orollarida tarqalgan til guruhlar va yakka-yakka tillarning umumlashma shartli nomi. Ushbu atama mazkur tillar o`rtasida genetik o`xshashlik bor yoki yo`qligidan dalolat beradi va shu mintaqadagi avstronez tillaridan farqlash uchun ishlatiladi. Shu boisdan noavstronez (avstronez bo`lmagan) til deb ham yuritiladi. Tillarning umumiy soni 750 dan 1000 tagacha yetadi. So`zlashuvchilarning umumiy soni 5 mln kishiga yaqin. Papuas tillariga kiruvchi tillarning qarindoshligi haqida aniq va ishonarli ma`lumot yo`q.

Dastlabgi ma`lumotlar bo`yicha papuas tillari 12 ta til guruhiga ajraladi. Ulardan eng yiriklari: Yangi Gvineya hududini qamrab oluvchi fila (yun. Phyle – qabila; avstraliyalik olim S.Burm taklif etgan ushbu termin “tillar mikrooilasi” tushunchasiga to`g`ri keladi) – 491 tilni qamrab oladi, bu tilda so`zlashuvchilar soni 4 million kishini tashkil qiladi; G`arbiy Papua oilasi 24 tilni qamrab oladi, unda 500 mingdan oshiq kishi so`zlahsadi; Sepik-Ramu oilasi 97 tilni qamrab oladi, so`zlashuvchilari 300 ming kishidan ortiq. Torrichelli oilasi 47 tilni qamrab oladi, 120 mingdan ortiq kishi so`zlashadi; Sharqiy Papua oilasi 28 tilni qamrab oladi, 80 mingdan ortiq kishi so`zlashadi va boshqalar.

Papuas tillari – agglutinatив qurilishli til. Undosh tovushlar tizimi rivojlangan. Morfologik sathda fe`l turkumi murakkab. Ot turkumida turlanish yo`q.

Papuas tillari o`z yozuviga ega emas. Maktablarda bu tilda ta`lim olib borilmaydi. Turli papuas tillari uchun lotin yozuvi asosida alifbolar yaratish ishlari olib borilmoqda.

## PARONIM

Paronim – talaffuzi bir-biriga juda yaqin, ammo yozilishi va ma’nosi har xil bo’lgan soʻz. Mas., *asr* va *asir*, *afzal* va *abzal*, *sher* va *she’r*, *adib* va *adip* kabi soʻz talaffuzda bir xil aytilsa-da, yozilishda farq qiladi. Ma’nosi butunlay boshqa-boshqa. Paronimni ikki xil yozilishga ega bo’lgan, ammo ma’nosi bir xil bo’lgan dubletdan farqlash kerak: *arava* – *aroba*, *bekik* – *berkik*, *benihoya* – *benihoyat*, *gado* – *gadoy* kabi. Paronim soʻz orfoepik qoidaga rioya qilmasdan talaffuz qilishdan paydo bo’ladi. Paronim talaffuz jihatdan oʻzaro oʻxshash bo’lganligi uchun, undan badiiy adabiyotda qofiya sifatida keng foydalaniladi. Paronim uslubiy xususiyatga ham ega. Mas., paronimni to’g’ri qo’llamaslik oqibatida ham xato yuz beradi: *Chanoqdagi lo’ppi ochilgan paxta quyoshda yarqirab kumushdek **toblanadi***. Bu gapdagi *toblanadi* so’zi o’rnida *tovlanadi* so’zi ishlatilishi kerak edi.

## PIKTOGRAFIK YOZUV

Piktografik yozuv (p i k t u s – chizilgan, g r a p h e – yozaman) – fonografik yozuvdan oldingi yozuv turi. Biror axborotni rasm, rasmlar ketma-ketligi asosida uzatish vositasi. Amerika indeyslari, Tropik Afrika xalqlari, Avstraliya va Okeaniya tub aholisi, Sibirdagi ayrim elatlar (ykagir, nanay va boshqalar.) orasida tarqalgan va hatto XX asrgacha amal qilib kelgan. Ildizlari paleolitga (ayrim olimlarning fikricha, neolitga) mansub. Paleolit davridagi suratlar bilan piktografik yozuv orasiga chegara qo’yish mumkin. Piktografik yozuv belgilari (piktogrammalar) fonetik yozuv belgilaridan shunisi bilan farq qiladiki, ular aniq til birligiga bog’liq emas va ular istalgan tilda istalgancha talqin qilinadi: bir piktogramma muayyan bir soʻz, uning sinonimi, soʻz birikmasi, bir necha ma’noga ega bo’lgan bir yoki bir necha gap tarzida o’qilishi mumkin.

Piktogrammalar tipologik jihatdan 2 ga: tasvirlanayotgan tushuncha yoki predmetlar bilan bog’langan (mas., oy belgisi oyni, tunni, qorong’ulikni anglatadi) va bog’lanmagan (obyekt bilan aloqasi bo’lmagan, ramziy, shartli) piktogrammalarga ajraladi. Piktografik axborot birgina murakkab belgidan yoki bir nechta soddalari piktogrammalarning qat’iy ketma-ketligidan iborat bo’lishi mumkin.

Piktografik yozuvda piktogrammaning obyektidan uzila borishi natijasida **iyeroglifik** hamda **fonografik yozuv** kelib chiqqan.

Hozirgi madaniy rivojlangan jamiyatda piktografik yozuvning ayrim ko’rinishlari saqlanib qolgan (xaritalardagi shartli belgilar, yo’l harakati ko’rsatkichlari va. h.).

## POLINEZ TILLARI

Polinez tillari – avstronez tillarining alohida guruhi: Okeaniya tillarining bir guruhi (jami 30 ga yaqin). Polineziyada ( tub aholi tillari), shuningdek, Melaneziya va Mikroneziyaning chekka oilalarida (tashqi polinez tillari) tarqalgan. So’zlashuvchilarning umumiy miqdori 1 milliondan ortiq. Polinez tillari tonga (tonga va niuye) tillari va asl polionez tillari guruhchalariga, asl polionez tillari esa samoa-tashqi (samoa, tivalu, tokelau, futuna, uvea, pukapuka, shuningdek, barcha tashqi polionez tillari) va sharqiy polionez tillariga (maori, gavay, taiti, rarotongo, rapanui, tuamotu va boshqalar.) ajraladi.

Polinez tillari – grammatik qurilishi jihatdan analitik tillardan. Fonetikasida 5 ta unli va 8 tadan 12 tagacha undosh tovush bor. Gapni tashkil etuvchi eng muhim birlik lugʻaviy maʼno bildiruvchi mustaqil soʻz hamda uning oldidan yoki ortidan joylashuvchi xilma-xil (grammatik maʼno bildiruvchi) soʻzlar majmuidan iborat. Gapda soʻz tartibi bir qadar erkin; koʻp tillarda ega kesimdan keyin, baʼzilarida esa gap boshida keladi; aniqlovchi aniqlanmishdan keyin keladi. Soʻz yasallishining keng tarqalgan turlari soʻz qoʻshish va soʻz takrori.

Polinez tillari XIX asrgacha yozuvga ega boʻlmagan; XIX asrdan bir qancha adabiy polinez tillari lotin alifbosi asosidagi yozuvga ega boʻldi. XX asr oʻrtasigacha polinez tillari yaxshi oʻrganilmagan. XX asr oʻrtalaridan ushbu tillarni sinxron tarzda hamda qiyosiy- tarixiy oʻrganish boshlandi.

## **POLISINTETIK TILLAR**

Amerika hindulari, chukot, koryak va boshqa tillar – polisintetik til. Bu tillarning asosiy morfologik xususiyati – ega, aniqlovchi, toʻldiruvchi va holni ifodalab kelgan soʻzlar feʼl bilan birikib, murakkab tarkibli qoʻshma soʻz shakliga oʻxshash gap hosil qilishi. Bunda gap boshida ega, oxirida kesim, toʻldiruvchi, hol, aniqlovchi esa ega bilan kesimning oʻrtasida keladi. Mas., chukot tilida *te-ata-kaa-nme-rkein* – *Men semiz bugʻularni oʻldiryapman*.

## **POLIVANOV YEVGENIY**

Yevgeniy Dmitriyevich Polivanov – (1891–1938, Peterburg) mashhur tilshunos olim, oʻzbek tilshunosligining Toshkent maktabi asoschilaridan biri. Peterburg universiteti professori (1919), Oʻrta Osiyo davlat universiteti professori (1925), Qirgʻiziston Madaniy qurilish instituti professori (1934). 1921- yil Komintern apparatida ishlab, yoʻllanma bilan Toshkentga kelgan.

Y.Polivanov umumtilshunoslikning nazariy masalalari, oʻzbek tili fonetikasi, grafikasi, dialektologiyasi, leksikologiyasi, etimologiyasi, leksikografiyasi, morfologiyasi, soʻz yasallishi va turkiy tillar tarixini oʻrganish borasida samarali faoliyat olib borgan. Oʻzbek dialektologiyasi faniga asos solgan; oʻzbek va rus tillarini chogʻishtirib oʻrganish – oʻzbek maktablarida rus tili oʻqitish metodikasiga tamal toshini qoʻygan. Uning «Toshkent dialektining tovushlar tarkibi» (1922), «Toshkent dialekti boʻyicha fonetik yozuv namunalari» (1924), «Toshkent tarixidan ocherklar» (1925), «Toshkent nomining kelib chiqishi» (1927), «Oʻzbek tilining qisqacha grammatikasi» (1926, 3 qism), «Oʻzbek dialektologiyasi va oʻzbek adabiy tili» (1933), «Oʻzbek tili bilan qiyoslangan rus tili grammatikasi» (1933), «Oʻzbek tili grammatikasidan materiallar» (1935) kabi asarlari oʻzbek tilshunosligining shakllanishida va keyingi taraqqiyotida muhim oʻrin tutadi.

Y.Polivanov - oʻzbek maktablari uchun rus tili, rus maktablari uchun yozilgan ilk oʻzbek tili darsliklari muallifi.

## **PUNKTUATSIYA**

Punktuatsiya – tilshunoslikning tinish belgisini ishlatish qoidasini o`rgatuvchi bo`limi. Lotincha punktum – nuqta, kichkina dog`. Punktuatsiya uch narsani anglatadi: 1) alifboga kirmaydigan grafik belgilar majmui; 2) yozma matnni punktuatsion jihatdan me'yorga soluvchi qoidalar majmui; 3) tinish belgilarini ishlatish qoidalarini o`rganuvchi tilshunoslik bo`limi.

**Tinish belgilari** taraqqiyoti turli tillarda turlicha bo`lgan. Hozirgi punktuatsion tizim G`arbiy Yevropa tillarida XV–XVI asrlarda, rus yozuyida XIX asrning ikkinchi yarmida, o`zbek yozuvida lotin imlosiga ilk o`tilgandan keyin shakllandi. Arab imlosi bilan ish ko`rganda o`zbek tili arab tiliga xos ishoraviy belgilardan foydalangan.

Tinish belgilari soni ham har xil tillarda o`ziga xos. Ingliz tilida tutuq belgisi va chiziqcha ham tinish belgisi hisoblanib, ularning jami soni 12 ta bo`lsa, o`zbek tilida jami 10 ta tinish belgisi mavjud: vergul, nuqtali vergul, nuqta, ikki nuqta, ko`p nuqta, ko`proq belgisi, tire, undov belgisi, qavs, qo`shtirnoq.

Punktuatsiya tilning sintaktik sathi bilan zich bog`langan. Tinish belgisi yozma nutq birligi bo`lgan gapning to`g`ri anglashilishini ta'minlaydi.

O`zbek tili punktuatsiyasini takomillashtirishda tilshunoslarimiz H.G`ozdiyev, S.Ibrohimov, G`.Abdurahmonov va K.Nazarovning xizmati katta.



## QADIMGI TURKIY TIL

Qadimgi turkiy til – (VII asrdan – XIII asrgacha) Qadimgi turkiy adabiy til. Turk hoqonligi barpo bo`lgandan to Qoraxoniylar davrigacha bo`lgan davrni o`z ichiga oladi. Bu davrda run (O`rxun-Enasoy), uyg`ur, so`g`d, manixey, braxma yozuvlarida bitilgan yodgorliklar bizgacha yetib kelgan. Bu yodgorliklar tosh, teri, yog`ochlarga bitilgan. Yodgorliklarning eng mashhuri turk hoqon va sarkardalari Kultegin, Tunyuquq, Bilga hoqon sha`niga qo`yilgan tosh yozmalar. Yodgorliklar O`rxun daryosi bo`ylaridan (Mo`g`uliston) topilgani uchun O`rxun yodnomalari yoki turk, run, dulbarchin yozuvlari deb ham yuritiladi. Yodnomalar XIX asrning ikkinchi yarmida topilgan. Ularni V.Tomsen o`qishga, birinchi marta V.Radlov tarjima qilishga muvaffaq bo`ldi. Bunga o`xshash yodnomalar keyinchalik Enasoy daryosi bo`ylaridan, Talas vodiysidan ham ko`plab topilgan. Qadimgi turkiy til o`ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ulardan eng muhimlari quyidagi:

1.Bu til fonetik jihatdan *d*-lovchi til hisoblanadi, ya'ni bugungi *y, z* tovushlari o`rnida *d* tovushi ishlatilgan: *adoq (oyoq), ado`g` (ayiq), edgu (ezgu)* kabi.

2.Morfologik jihatdan ham o`ziga xos belgilarga ega bo`lgan. Mas., tushum kelishigi *-g`/-g* qo`shimchasiga, jo`nalish kelishigi esa *g`aru/qaru/garu* shakliga ham ega bo`lgan: *budunug` (xalqni), Uyg`urg`aru (uyg`urga)* kabi.

Sifatdagi va ravishdagi shakllarning o`ziga xos ko`rsatkichlari ishlatilgan: *oltachi (o`lajak), udimato` (uxlamay)*. Shart mayli *-sar* shaklida bo`lgan: *borsar (borsa)*. (Bular haqida «Qadimgi turkiy til» kursi bo`yicha darslik va qo`llanmalardan batafsil ma'lumot olasiz).

## QARLUQ LAHJASI

Qarluq lahjasi, asosan, shahar shevasini o`z ichiga oladi (Toshkent, Andijon, Farg`ona, Samarqand, Buxoro). O`zbek milliy tilining lahjalari orasida, odatda, qarluq-chigil-uyg`ur lahjasi o`zbek adabiy tilining tayanch manbalari deb qaraladi. Bu lahjaga Toshkent, Andijon, Farg`ona, Namangan, Jizzax, Samarqand, Buxoro, Qarshi, O`sh, Marg`ilon, Jalolobod, Termiz va boshqa shaharlarning shevalari kiradi. Ba`zi olimlar o`zbek adabiy tili me`yorlarini belgilashda Toshkent shevasi fonetik jihatdan, Andijon, Farg`ona shevalari morfologik jihatdan tayanch sheva degan fikrni ilgari suradi. Aslini olganda, A.K.Borovkov qayd qilib o`tganidek, o`zbek tilining birorta shevasini ham adabiy tilga hamma jihatdan asos bo`lgan deb aytib bo`lmaydi. Chunki o`zbek tilining barcha lahjalari o`zbek tilining taraqqiyotiga ma`lum bir darajada hissa qo`shgan. Birining adabiy tilga ta`siri kuchayganda, ikkinchisiniki susaygan bo`lishi mumkin.

Qarluq lahjasiga mansub shevalarning muhim fonetik va grammatik belgisi quyidagi:

- so`z oxiridagi *k* tovushi *y* tarzida aytiladi: *elak* – *elay*, *terak* – *teray* kabi;
- *o* lashish yuz beradi: *aka* – *oka*, *Akram* – *Akrom*, *bahor* – *bohor*, *boramiz* – *borovuz*;
- qaratqich kelishigi yo`q va uning o`rnida ham tushum kelishigi qo`shimchasi *-ni* ishlatiladi: *ukamni(ng) daftari*.

## QIPCHOQ LAHJASI

Qipchoq lahjasiga mansub shevalar O`zbekistonning barcha viloyatida mavjud, asosan qishloqda tarqalgan (Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Qoraqalpog`iston, Shimoliy Xorazm viloyati, Turkmanistonning Toshovuz viloyati shevasi). Belgisi:

- *y* o`rnida *j* ishlatiladi: *yo`l* – *jo`l*, *yo`q* – *jo`q*;
- *g`* o`rnida *v* ishlatiladi: *tog`* – *tov*, *sog`* – *sov*;
- *k*, *q* tushuriladi: *eshi(k)*, *sari(q)*, *quru(q)*.

## QIRG`IZ TILI

Qirg'iz tili – turkiy tillarning qirg'iz-qipchoq guruhiga mansub tillardan, Qirg'iziston Respublikasining davlat tili. Asosan, Qirg'iziston, shuningdek, O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston, Xitoy, Afg'oniston, Rossiya, Pokiston va boshqa hududlarda tarqalgan. Qirg'iz tilida so'zlashuvchilarning umumiy soni 2.5 milliondan ortiq, shundan 2 million 330 mingdan ortig'i Qirg'izistonda yashaydi (o'tgan asrning 90- yil) Qirg'iz tili 2 ta: shimoliy va janubiy lahja guruhlariga bo'linadi. Bu lahjalar fonetika va leksika sohalarida o'zaro farqlanadi; shu jihatlari bilan boshqa turkiy tillardan ham farqlanadi. Janubiy lahjada o'zbek tilining ta'siri kuchli.

Fonetik xususiyati: 8 ta qisqa unli fonemaga qarama-qarshi 8 ta cho'ziq unli mavjud. Singarmonizm izchil saqlangan, so'z boshida j (portlovchi) undoshining (boshqa turkiy tillarda y yoki j) qo'llanilishi xos.

Morfologik xususiyati: boshqa turkiy tillarga o'xshash. Singarmonizm mavjudligi tufayli affikslarning fonetik variantlari ko'p.

Qirg'iz adabiy tili shimoliy lahja asosida shakllangan, uning leksikasida sof qirg'izcha va turkiy so'zlar qatlamidan tashqari mo'g'ul, rus, arab, eroniy tillardan o'zlashgan so'zlar ham mavjud.

## **QODIROV MUHAMMADJON**

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.Qodirov 1941- yilning 22- oktabrida Farg'ona viloyatining Buvayda tumanida tavallud topgan. Olimning ilmiy faoliyatida o'zbek adabiy tili tarixini, xususan, Alisher Navoiy asarlarining til xususiyatlarini o'rganish asosiy o'rinda turadi.

M.Qodirov oliy o'quv yurtlari va umumta'lim maktablarida o'qitilayotgan "Ona tili" fani ta'lim mazmuni va usulini yangilash ishida faol ishtirok etmoqda. Jumladan, olim 5-9 sinflar "Ona tili" fanining mustaqillik ruhiga mos, yangilangan o'quv dasturini yaratishda (1999, 2004, 2009) qatnashdi. Professorlar H.Ne'matov, A.G'ulomov, R.Sayfullayevalar bilan hamkorlikda 5-, 6-, 7- sinflar uchun (2000-2004), 8- sinf uchun (2006) yaratgan darsliklari yosh avlodga til haqida bilim va nutqiy ko'nikmalar berishga xizmat qilib kelmoqda. Shuningdek, u oliy o'quv yurtlari talabalari uchun "Ozbek tilini o'qitish metodikasi" (200), "Ona tili o'qitish metodikasi" (hamkor, 2001), "Til ta'limida milliy istiqlol g'oyasi" (2003) qo'llanmalarini tuzgan.

M.Qodirovning o'zbek adabiy tili me'yorlari va nutq madaniyati, yozma savodxonlik, mumtoz adabiyot vakillarining o'zbek adabiy tiliga qo'shgan muhim hissasi va boshqa masalalar bo'yicha yozgan maqolalari respublikamizning madaniy va ma'naviy taraqqiyotiga hissa qo'shib kelmoqda.

## **QORAQALPOQ TILI**

Qoraqalpoq tili turkiy tillarning qipchoq guruhiga mansub tillardan; qozoq va no'g'ay tillari bilan birgalikda qipchoq tillarining qipchoq-no'g'ay guruhchasini tashkil qiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat tili. Asosan, Qoraqalpog'istonda, shuningdek, Xorazm, Navoiy, Buxoro viloyatlari hamda Qozog'iston va Turkmanistonning unga qo'shni hududlarida, Rossiya, Afg'onistonda tarqalgan.

Qoraqalpoq tilida soʻzlashuvchilarning umumiy soni 425 ming kishidan oshadi (oʻtgan asrning 90-yillari maʼlumoti).

Qoraqalpoq tili asosan, 2 ta: shimoli-sharqiy va janubi-gʻarbiy lahjaga boʻlinadi. Bu lahjalar fonetik xususiyati jihatidan oʻzaro farqlanadi. Adabiy qoraqalpoq tili XX asrning 1- yarmida shimoliy-sharqiy lahja asosida shakllangan; ungacha qoraqalpoqlar eski oʻzbek tilidan foydalanishgan.

Fonetik xususiyati: unlilar ohangdoshligi (lab singarmonizmi) va undoshlar assimilyatsiyasi mavjud.

Leksik xususiyati: qoraqalpoq tilida boshqa turkiy tillarda boʻlganidek, umumturkiy soʻzlardan tashqari, arab, fors, rus tillaridan oʻzlashgan soʻz koʻp uchraydi.

## **QOSIMOVA KARIMA**

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent K.Qosimova 1923- yil Toshkent shahrida tugʻildi. 1940- yilda maktabni tugatib, mahalla xotin-qizlar klubida tashkilotchi boʻlib ishladi. 1942- yilda Toshken davlat pedagogika instituti qoshida tashkil etilgan oʻqituvichilar tayyorlash kursini bitirdi. 1952-1955- yillarda Toshken davlat pedagogika instituti aspiranturasida tahsil oldi. 1942-1952- yillarda maktabda oʻqituvichilik faoliyati bilan shugʻullandi. 1956-1959- yillarda institutning Oʻzbek tilshunosligi kafedrasida ishladi. 1960-1964- yillar mobaynida Qori Niyoziy nomidagi Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida faoliyat koʻrsatdi. 1964-1990- yillarda Toshken davlat pedagogika institutida ishladi.

K.Qosimova hammualligida 4- sinf uchun “Oʻzbek tili darsligi” (1963) (hamkorlikda), 2- sinf uchun “Ona tili darsligi” (1996) (hamkorlikda), 5- sinfi uchun “Ona tili darsligi” (1997, 1998) nashr qilingan.

K.Qosimova “Oʻzbekiston halq taʼlimi aʼlochisi” koʻkrak nishoni, “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan.

## **QOZOQ TILI**

Qozoq tili turkiy tillarning qipchoq guruhiga mansub; qoraqalpoq va noʻgʻay tillari bilan birgalikda qipchoq tillarining qipchoq-noʻgʻay guruhchasini tashkil qiladi. Qozogʻiston Respublikasining davlat tili. Asosan, Qozogʻiston, Xitoy, Oʻzbekiston, Rossiya, Mongoliya, shuningdek, Turkmaniston, Qirgʻiziston, Tojikiston, Afgʻoniston, Turkiya, Ukraina va boshqa mamlakatlarda tarqalgan. Qozoq tilida soʻzlashuvchilarning umumiy soni 9.5 milliondan oshadi (oʻtgan asrning 90-yillari maʼlumoti).

Qozoq tilining dialektik boʻlinishi haqida aniq bir fikr yoʻq. Manbalarda 2 ta, baʼzan 3 ta lahjasi borligi aytiladi. Lahjalar leksik tarkibi va fonetik xususiyati jihatidan oʻzaro farqlanadi.

Fonetik xususiyati: 9 unli fonemaga ega, unlilar ohangdoshligi (lab singarmonizmi) va undoshlar assimilyatsiyasi mavjud, urgʻu dinamik xususiyatga ega. Boʻgʻinlar ochiq yopiq va yarim yopiq turlarga boʻlinadi.

Morfologik xususiyati: otlar kelishiklar bilan turlanadi, ot yasashida affiksatsiya va kompozitsiya usullari mavjud bo'lsa, sifatlar leksik-semantik, morfologik va sintaktik usullar bilan yasaladi. Son va olmosh farqli belgilarga ega emas. Fe'llar morfologik tuzilishiga ko'ra tub va yasama fe'llarga bo'linadi. 4 mayl (aniqlik, buyruq, istak, shart), 3 zamon (o'tgan, hoz., kelasi) farqlanadi. Ravishlar asliy va nisbiy turlarga bo'linadi. Yordamchi so'zlar umumturkiy xususiyatga ega.

Sintaktik xususiyati: 4 xil sintaktik aloqa turi (moslashuv, munosabatlashuv, boshqaruv, bitishuv), 4 xil gap turi (darak, so'roq, buyruq, undov) farqlanadi. Gap haqidagi ta'limot umumturkiy xususiyatga ega. Qo'shma gaplar bog'lovchisiz va bog'lovchili turlarga bo'linadi.

Leksik xususiyati: qozoq tili leksikasi o'z qatlamini qad. turkiy tillardan semantik va struktur-morfologik o'zgarishlarga uchrab o'tgan umumturkiy qatlam tashkil qiladi, shuningdek, unda arab, fors, mo'g'ul, o'zbek, tatar, rus va xitoy tillaridan o'zlashgan so'zlar uchraydi.

## QRIM-TATAR TILI

Qrim-tatar tili turkiy tillarning qipchoq guruhiga mansub. Asosan, O'zbekiston va Ukrainaning bir qator hududlarida, qisman Rossiya, Mongoliya, Tojikiston, Gruziya, Ozarbayjon, Ruminiya, Turkiya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan. So'zlashuvchilarning umumiy soni 800 ming kishiga yaqin (o'tgan asrning 90-yil).

Qrim-tatar tili tarixan tipologik jihatdan bir tekis rivojlanmagan. Unda 3 ta: shimoliy, o'rta va janubiy lahjalar ajratilib, birinchisi no'g'ay tiliga, uchinchi o'g'iz tiliga yaqin turadi. Lahjalar leksik tarkibi va fonetik xususiyati jihatidan o'zaro farqlanadi.

Fonetik xususiyati: lab va tanglay ohangdoshligining 2- bo'g'inga ta'siri, 2-darajali cho'ziq unlilarning mavjudligi, ba'zan undoshlar assimilyatsiyasi kuzatiladi.

Morfologik xususiyati: kishilik olmoshlarining qaratqich kelishigidagi 1-shaxs birlik va ko'plik shakllari *menim*, *bizim* tarzida qo'llanishi bilan boshqa turkiy tillardan farqlanadi.

Leksik xususiyati: qrim-tatar tili leksikasida shu tilning o'zigagina xos bo'lgan «balaban» (katta), «qo'ranta» (oila) kabi so'zlar bilan bir qatorda arab, fors, grek, italyan tillaridan o'zlashgan so'zlar uchraydi.

XX asrgacha bo'lgan adabiy qrim-tatar tili Oltin O'rda turkiy adabiy tilidan kelib chiqqan va unda Qrim xonlarining ko'plab farmon va yorliqlari saqlanib qolgan. Eng qadimgi yozma yodgorligi XIII asrga mansub. XIX asrdan adabiy til bir necha marta isloh qilingan va so'zlashuv tiliga yaqinlashtirilgan. Hozirgi adabiy til o'tgan asrning boshida o'rta lahja asosida shakllangan.

## «QUTADG`U BILIG»

«Qutadg`u bilig» – («Saodatga yo'llovchi bilim») – Yusuf Xos Hojib asari, turk adabiyotining nodir namunasi, 1069–70- yillarda yaratilgan. Muallifning asar muqaddimasida xabar berishicha, bu kitob o'z davridayoq keng tarqalib, mashhur bo'lgan. Chin (Shimoliy Xitoy) liklar uni «Adab ul-muluk» («Hukmdorlar odobi»),

mochin (Janubiy Xitoy) liklar «Oyin ul-mamlakat» («Hukmdorlik qonun-qoidalar»), Sharqiy xitoyliklar «Ziynat ul-umaro» («Hukmdorlar ziynati»), eronliklar «Shohnomai turkiy» («Turkiy shohnoma»), ba'zilar «Pandnomai muluk» («Hukmdorlar pandnomasi»), turonliklar esa «Qutadg`u bilig» deb ataganlar.

«Qutadg`u bilig» dostonini yaratar ekan, muallif o`z oldiga qoraxoniylar davlati hokimiyatini mustahkamlash, Tavg`achxon bilan Yeloqxonlar o`rtasidagi ixtiloflarni bartaraf etish, hukmron doiralarning turli ijtimoiy tabaqalarga munosabatini belgilash, ma`rifat va obodonchilik uchun kurash, yaxshi xulq-odobni targ`ib qilish kabi maqsadlarni qo`ygan. Bu bilan Yusuf Xos Hojib o`z davrining yirik ma`rifatparvari va donishmandi sifatida gavdalanadi.

«Qutadg`u bilig» markaziga 4 masala qo`yilib, ular 4 obraz vositasida ochib berilgan: birinchisi – adolat bo`lib, u podshoh Kuntug`di timsolida, ikkinchisi – davlat, vazir Oyo`ldi, uchinchisi – aql, vazirning o`g`li O`gdulmish, to`rtinchisi – qanoat, uning qarindoshi O`zg`urmish qiyofasida tasvirlanadi.

«Qutadg`u bilig» qoraxoniylar hokimiyatining o`ziga xos nazmiy nizomnomasi, bu ramziy-timsoliy asar yurt egalari bo`lmish hukmdorlar va katta-kichik amaldorlarga atab yozilgan va ularga asarda mamlakatni adolat bilan boshqarish, tinchlikni saqlash, raiyatga zulm qilmaslik, bilaks, xalqning og`irini yengil qilish, turmushini farovon qilish, jamiyatning ma`naviy-axloqiy negizlarini mustahkamlash, ilm-ma`rifatga keng e`tibor berish, iste`dod sohiblarini qo`llab-quvvatlash, huquq, burch, adolat bo`yicha maslahat va tavsiyalar berilgan.

Asar muallifining so`nggi tahriridan va Tabg`ach Bug`roxonga taqdim etilgan nusxasi nasriy (38 misra) va she`riy (77 bayt) muqaddima, kirish boblar (390 bayt), asosiy qism (68 bob, 5896 bayt), xotima (2 qasida va masnaviy), jami 6520 baytdan iborat.

«Qutadg`u bilig»ning 3 qo`lyozma nusxasi mavjud: uyg`ur yozuvidagi Vena nusxasi, arab yozuvidagi Namangan va Qohira nusxasi. Asar ingliz, nemis, fransuz, rus, chex, turk, uyg`ur, xitoy va boshqa tillarga tarjima qilingan. Uni J.Amedi, A.Fitrat, R.Arat, Y.E.Bertels, H.Vamberi, V.Radlov, S.Malov, A.N.Kononov, S.N.Ivanov, G`Abdurahmonov, B.To`xliyev, Q.Sodiqov va boshqa chet el va o`zbek olimlari o`rgangan.

## **QO`LLANILISHI CHEGARALANMAGAN SO`Z**

Qo`llanilishi chegaralanmagan so`z o`zbek tili lug`at tarkibining asosini tashkil etadi. Qo`llanilishi chegaralanmagan so`zni shu tilda so`zlashuvchi kishi, qanday shevaga, qaysi hududga, qaysi kasb yoki sohaga mansub bo`lishidan qat'i nazar, cheklanmagan darajada ishlatadi.

Qo`llanilishi chegaralanmagan so`z barcha turkumda mavjud: 1) fe'l: *ishlamoq, kelmoq, olmoq, ko`rsatmoq, buyurmoq, saylamoq*; 2) ot: *ota, ona, non, suv, stol, eshik, tog`, yer, shamol, radio*; 3) sifat: *shirin, achchiq, qizil, ko`k, katta-kichik, xunuk, go`zal*; 4) son: *bir, o`n, yuz, ming*; 5) ravish: *hamisha, ba`zan, ataylab, hozir, ilgari*. 6) olmosh: *kim, nima, qanday, nima qilib, qancha, shu, biz, hamma*; 7) undov va modal: *xo`p, mayli, rahmat*; 8) ko`makchi: *uchun, bilan, singari*; 9) bog`lovchi: *ham, va, bilan, ammo*; 10) yuklama: *faqat, xuddi, hatto*.

Qo'llanilishi chegaralanmagan so'zning aksariyati umumturkiy va o'zbekcha. Ammo, shu bilan birga, ular orasida o'zlashmasi ham ko'p. Masalan: tojikcha: *go'sht, non, dard, bobo, dugona, do'st*; arabcha: *avlod, bilan, inson, sinf, millat, himoya*.

## QO'LLANISH DAVRI CHEGARALANGAN SO'Z

Davr taraqqiyoti, ijtimoiy hayotdagi o'zgarish tilning leksikasida ancha sezilarli. Bunda to'rt holat kuzatiladi. Birinchidan, ayrim so'z eskirib, iste'moldan chiqib ketsa, ikkinchidan, allaqachon iste'moldan chiqib ketgan so'z qayta «jonlanadi», «tiriladi», uchinchidan, yangi-yangi so'z paydo bo'ladi, to'rtinchidan, nafaol so'z faollashadi, iste'mol doirasi kengayadi, ma'nosida o'zgarish yuz beradi.

Hozirgi adabiy tildagi eskirgan so'z **eski so'z**, yangi so'zning jami **yangi so'z**, na eskirgan, na yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'z **zamonaviy so'z** deb yuritiladi. Demak, o'zbek tili leksikasini tarixiylik nuqtayi nazaridan uchta asosiy qatlamga bo'lib o'rganish mumkin: 1) **zamonaviy leksika**; 2) **eskirgan leksika**; 3) **yangi leksika**. Ularning qo'llanishi davrga nisbatan farqlanadi.

## QO'LLANISH DOIRASI CHEGARALANGAN SO'Z

Qo'llanilish doirasi chegaralangan so'zni uchga bo'lib o'rganish mumkin: a) shevaga xos so'z; b) termin (atama); v) argo va jargon. (q. **Argo, Jargon, Termin, Shevaga xos so'z**).

## QO'MIQ TILI

Qo'miq tili turkiy tillarning qipchoq guruhiga mansub. Rossiyaning Dog'iston, qisman Checheniston, Ingushiya, Shimoliy Osetiya Respublikalarida tarqalgan. Qo'miq tilida so'zlashuvchilarning umumiy soni 282 mingdan oshadi (o'tgan asrning 90- yili ma'lumoti).

Qo'miq tilining, asosan, 3 ta: bo'ynoq, qaytaq, xasavyurt lahjasi farqlanadi. Lahjalarda fonetik va morfologik tafovutlar mavjud. Qo'miq tili qipchoq guruhiga mansub bo'lsa-da, unda o'g'iz tillariga mansub belgilar ham kuzatiladi.

Adabiy qo'miq tili XX asr boshlarida xasavyurt va bo'ynoq lahjalari asosida shakllangan.

## QO'SHIB YOZISH

Qo'shib yozish – 1995- yil 24- avgustda qabul qilingan “O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ning 38–50- paragraflarini o'z ichiga oluvchi, so'zlarni qo'shib yozish haqidagi imlo qoidasi to'plami.

Quyidagi hollarda birliklar qo'shib yoziladi: 1. *Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so'z yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifat: *qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsisfat, suvtalab* kabi. 2. *-(a)r* (inkori *-mas*) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va

qo'shma sifat: *o'rinbosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushqo'nmas* kabi. 3. Takror taqlid so'zga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'l: *pirpirak* (*pir-pir+ak*), *hayhayla* (*hay-hay+la*), *gijgijla* (*gij-gij+la*) kabi. 4. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o'xshatish yo'li bilan bildiruvchi qo'shma ot va qo'shma sifat: *karnaygul, qo'ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyko'z* kabi. 5. Narsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgisi asosida bildiruvchi qo'shma ot: *olaqarg'a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi. 6. Narsaning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma ot: *kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, ko'zoynak molqo'ra, nosqovoq* kabi. 7. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo'shma ot: *tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi. 8. Marosim, afsona kabini bildiruvchi qo'shma ot: *kiryuvdi, kelintushdi, qoryog'di, Urto'qmoq, Ochildasturchon* kabi. 9. Qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma ot: *mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi* kabi. 10. Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki obod so'zi bilan ifodalangan joy nomi: *Yangiyo'l, To'rtko'l, Mirzaobod, Xalqobod* kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomi ajratib yoziladi: *O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, O'rta Chirchiq* kabi. 11. Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'z: *kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika, teleko'rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti* kabi. 12. Qisqartmaning barcha turi va ularga qo'shiladigan qo'shimcha: *SamDU, ToshDU*ning kabi. Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: *O'zXDP MK* (*O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi*) kabi. 13. Bir tovush ikki yoki undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday holat harfni takror yozish bilan ko'rsatiladi: *yo'o'q, nimaa, himm, uff* kabi

## QO'SHIMCHA (MORFEMA)

Qo'shimcha, ya'ni morfema (*morfema* –yun. *morphe* – shakl) o'ziga xos shakl va ma'noga ega bo'lgan, boshqa ma'noli qismga bo'linmaydigan, so'z yasash, so'zning biror grammatik shaklini hosil qilish uchun asos bo'ladigan lisoniy birlik. Masalan: *ish-chi, ish-ga, ish-lar*.

Qo'shimcha vazifasiga ko'ra ikkiga bo'linadi: so'z yasovchi morfema, shakl yasovchi morfema. So'z yasovchi qo'shimcha yangi leksema hosil qilishda ishtirok etadi va tilning lug'at qatlamini boyitadi. Shakl yasovchi qo'shimcha so'zning biror grammatik shaklini yasash uchun xizmat qiladi: *kitob-lar* ko'plik shakli, *bola-ni* kelishik shakli va boshqalar.

Ayrim manbada so'z o'zagi ham morfema sifatida qoraladi.

**Qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra turlari.** Qo'shimcha vazifasiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

- 1) so'z yasovchi qo'shimcha;
- 2) shakl yasovchi qo'shimcha.

**So'z yasovchi qo'shimcha** asosdagi atash ma'nosini yangilaydi: *ish-chi, ish-chan, ish-la*. Yasovchi qo'shimcha faqat to'rtta so'z turkumi (fe'l, ot, sifat, ravish) da mavjud. Boshqa turkumlarning yasalishi munozarali.

Qo'shimcha qo'shish usuli bilan so'z yasash 12 ta so'z turkumining 4 tasiga xos. Ular: **1. Ot. 2. Sifat. 3. Fe'l. 4. Ravish.** Bu to'rtta so'z turkumida so'z yasovchi

qo'shimcha mavjud. Son, olmosh, taqlid, undov va modal so'z yasalmasa-da, xuddi shu usul bilan ot, sifat, fe'l va ravish yasashda ishtirok etadi. Qo'shimcha qo'shilayotgan so'z asos, hosil bo'lgan so'z yasalma deyiladi. Yasama so'z tarkibida so'z yasovchi qo'shimcha birdan ortiq bo'lishi ham mumkin. So'zning yasamaligini belgilashda eng so'nggi yasaliş hisobga olinadi. Mas., *terimchilik, suvoqchilik, bichiqchilik, to'qimachilik* so'zi *ter, suva, bich, to'qi* fe'lidan, *terim, suvoq, bichiq, to'qima* otidan ham emas, balki *terimchi, suvoqchi, bichiqchi, to'qimachi* so'zidan yasalgan.

So'zda so'z yasovchi qo'shimcha birdan ortiq bo'lishi mumkin: *dard-mand-lik, darmon-siz-lan-moq, til-shunos-lik, tarjima-shunos-lik, osh-paz-lik, tekis-la-gich, ba-davlat-lik, be-ma'ni-garchilik, bos-qin-chi, vafo-dor-lik, no-tin-ch-lik, be-o'xsha(o)-v-lik*. Qo'shimcha qo'shib so'z yasashga faqat so'z yasovchi qo'shimcha emas, qo'shimchasimon (ya'ni qo'shimchalashgan so'z, affiksoid) ham ishtirok etadi: -*aro*: *xalqaro, davlatlararo*; -*baxsh*: *orombaxsh, hayotbaxsh, shifobaxsh*; -*noma*: *taklifnoma, tavsifnoma, yilnoma*; -*xona*: *darsxona, kutubxona, mehmonxona*; *xush*:- *xushmanzara, xushfe'l, xushbichim*.

Bir o'zakdan yasalgan so'zlar o'zakdosh deyiladi. Mas., *gulla, gulchi, guldori, guldor* kabi. Turli grammatik qo'shimcha olgan bir so'z ko'rinishlari o'zakdosh sanalmaydi: *kitob, kitobning, kitobni, kitobdan, kitobda* kabi.

So'z yasovchi qo'shimcha **unumli** va **unumsiz** bo'ladi. Unumli yasovchi – bugungi kunda ham so'z yasayotgan qo'shimcha: *-chi, -dosh, -kor* kabi.

Unumsiz qo'shimcha til tarixida so'z yasagan va bugungi kunda hosila bermaydi: -*archilik (ocharchilik), -i (tinchi), -gi (kuzgi)* kabi.

**Shakl yasovchi qo'shimcha** so'zning biror grammatik shaklini yasaydi. Shuning uchun unga doimo *shakl* so'zi qo'shib aytiladi: *egallik shakli, nisbat shakli, zamon shakli, daraja shakli, kichraytirish shakli, ko'plik shakli* kabi.

Shakl yasovchi umumiy xususiyatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1) *lug'aviy shakl yasovchi*;

2) *sintaktik shakl yasovchi*.

**Lug'aviy shakl** yasovchi so'z lug'aviy ma'nosiga biroz ta'sir qiladi. Qo'llanilishi bir turkum bilan chegaralanadi. Mas., nisbat fe'lga, kichraytirish, erkalash otga, daraja belgi bildiruvchi so'zga xos. Lug'aviy shaklga fe'ldagi nisbat, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi, harakat tarzi (*-la, -kila, -imsira, inqira*), bo'lishsizlik shakli; otdagi son, erkalash, kichraytirish, o'xshatish, chegara, qarashlilik, o'rin belgisi shakli; sonda uning ma'no turini hosil qiluvchi vositalar kiritiladi.

**Sintaktik shakl** yasovchi sintaktik vazifaga ega. Sintaktik (munosabat) shakl hosil qiluvchi qo'shimcha so'z lug'aviy ma'nosiga ta'sir etmay, bir-biriga bog'lashga yoki unga ma'lum bir sintaktik vazifa berishga xizmat qiladi. Kelishik, egalik va kesimlik (mayl, zamon, shaxs-son, tasdiq-inkor) shunday shakl yasovchi. Mas., kelishik ergash so'zni bosh so'zga, egalik bosh so'zni ergash so'zga bog'laydi: *kitobni o'qimoq, daftarning varag'i* kabi. Kelishik, egalik qo'shimchasi so'zni bog'lasa (*Salimning ukasi*), kesimlik (mayl, zamon, shaxs-son, tasdiq-inkor) qo'shimchasi gap kesimini shakllantiradi: *O'qidim* (xabar mayli, o'tgan zamon, birinchi shaxs, tasdiq).

**Qo'shimchalarning tuzilishiga ko'ra turlari.** Qo'shimcha tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab bo'ladi. Bir ma'noli qismdan tarkib topgan qo'shimcha – **sodda qo'shimcha:** *-chi* shaxs oti yasovchi, *-dan* chiqish kelishigi shakli va hokazo.

Aslida birdan ortiq ma'noli qismdan tarkib topib, ajralmas holga kelib qolgan qo'shimcha – **murakkab qo'shimcha:** *-chi+lik* (*ko'pchilik, dehqonchilik*), *-la+b* (*saharlab, ko'plab*) kabi.

**Qo'shimchalarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.** Qo'shimchalar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra quyidagi turga bo'linadi:

**Shakldosh qo'shimcha** (morfologik omonim) – shaklan bir xil, vazifa jihatidan boshqa-boshqa bo'lgan qo'shimcha: *tinch-i, ranj-i* (fe'l yasovchi); *rang-i, kitob-i* (egallik shakli); *bahor-i, jannat-i* (sifat yasovchi), *chay-i, qaz-i* (fe'lning harakat tarzi shakli). *-la, -lab, -a, -cha, -iq, -chak, -don, -kash, -dor* shakllari ham shakldosh qo'shimcha.

**Ma'nodosh qo'shimcha** (morfologik sinonim) – shaklan har xil, vazifasi bir xil va ma'nosi yaqin qo'shimcha: *-li, -ser, -dor, -mand, ba-, bo-:* *davlatli, badavlat, serdavlat, davlatmand; unumli, serunum, unumdor.*

**Zid ma'noli qo'shimcha** (morfologik antonim) – vazifasi o'zaro zid bo'lgan qo'shimcha: *-li – -siz, no- – -li, be- – bo-* va hokazo.

**Talaffuzdosh qo'shimcha** (morfologik paronim) – aytilishi va yozilishi yaqin, vazifasi boshqa-boshqa bo'lgan qo'shimcha: *-li* (sifat yasovchi) / *-lik* (ot yasovchi) – *paltoli – paltolik, otali-otalik; -chana* (sifat yasovchi) / *-changa* (ravish yasovchi) *ishchan, uyatchan, unutulchan; mahsichang, ko'ylakchang, yaktakchang; -lik / liq:* *otalik-otaliq, borlik-borliq.* Talaffuzdosh qo'shimchani farqlamaslik so'z qo'llashda xatolikka olib keladi.

## QO'SHMA GAP

Qo'shma gap birdan ortiq gapning mazmun, grammatik va ohang jihatidan birikuvidan hosil bo'ladi: *Eshik sekin ochildi-yu* (birinchi sodda gap), *Qalandarovning yuzi ko'rindi* (ikkinchi sodda gap). Sodda gap tarkibida bir grammatik markaz (kesim birligi) ishtirok etsa, qo'shma gap tarkibida u birdan ortiq qatnashadi. Buni uyushgan kesimli sodda gapdan farqlash kerak: *Yomg'ir yog'ib, yerlarni loy qildi.* Bu gapda kesim uyushgan.

**Q o ' s h m a g a p n i n g t u r i .** Qo'shma gap tarkibidagi sodda gap o'zaro bog'lovchi, yuklama, ko'makchi va fe'l shakli hamda ohang orqali bog'lanadi. Shunga ko'ra, qo'shma gapning 3 turi farqlanadi: **1) bog'langan qo'shma gap; 2) ergash gapli qo'shma gap; 3) bog'lovchisiz qo'shma gap.** Ayrim darslikda qo'shma gap bog'lovchi vositasiga ko'ra 5 guruhga bo'linadi: 1) qismlari teng bog'lovchi vositasida bog'langan qo'shma gap; 2) qismlari ergashtiruvchi bog'lovchi vositasida bog'langan qo'shma gap; 3) qismlari bog'lovchi-yuklama vositasida bog'langan qo'shma gap; 4) qismlar fe'l shakllari vositasida bog'langan qo'shma gap; 5) qismlari nisbiy so'z vositasida bog'langan qo'shma gap; 6) qismlari faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gap (qarang: **Bog'langan qo'shma gap, Ergash gapli qo'shma gap, Bog'lovchisiz qo'shma gap.**)

Uslubiy xususiyati: 1) bogʻlangan qoʻshma gap tarkibida biriktiruv va zidlov bogʻlovchisi oʻrnida -u, -yu, -da yuklamasi maʼnodosh qoʻllanishi mumkin: *Havo bulutlandi va yomgʻir yogʻa boshladi. Havo bulutlandi-yu yomgʻir yogʻa boshladi*; 2) ega, kesim, toʻldiruvchi, aniqllovchi ergash gapli qoʻshma gap sodda gapga maʼnodosh boʻladi: *Shunisi aniqki, biz bugun yoʻlga chiqa olmaymiz – Bizning bugun yoʻlga chiqa olmasligimiz aniq*; 3) sabab, maqsad, oʻxshatish ergash gapning kesimi sifat-dosh, harakat nomi, ot bilan ifodalansa, sodda gapga maʼnodosh boʻladi: *Togʻ etagi juda goʻzal edi, goʻyo chiroyli gilam toʻshalganday – Chiroyli gilam toʻshalganday togʻ etagi juda goʻzal edi*; 4) payt, sabab, shart, toʻsiqsiz, natija, ravish ergash gap oʻz doirasida maʼnodoshi bilan almashishi mumkin: *U kelsa, hamma ketib boʻlibdi*; 5) bogʻlovchisiz qoʻshma gap bogʻlangan va ergashgan qoʻshma gapga maʼnodosh boʻladi: *Qor yogʻdi – don yogʻdi (Qor yogʻsa, don yogʻadi. Qor yogʻdi-yu, don yogʻdi).*



## RAVISH

Ravish –harakat-holatning belgisini bildiruvchi, oʻzgarmas mustaqil soʻz turkumi.

Maʼnoviy xususiyati. Ravish harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, oʻrni, daraja-miqdorini bildiruvchi va *qanday, qachon, qayer, qancha* singari soʻroqqa javob boʻluvchi soʻz: *astoydil oʻqimoq, harbiychasiga qasamyod, hamisha navqiron.*

Morfologik belgisi: Ravish morfologik jihatdan oʻzgarmaydi, yaʼni lugʻaviy shaklga ega emas va aloqa-munosabat shaklini ham olmaydi. Ayrim ravish tarkibida uchraydigan egalik (*kechasi*), kelishik (*unda-bunda, olgʻa, joʻrttaga, toʻsatdan, birdan*) shakllari soʻz bilan yaxlitlangan, maʼnoli qismga ajratilmaydi: *hozirdan, tezda, ilgarilari, kechqurunlari.*

Sintaktik belgisi: Ravish boshqa soʻzga bitishuv yoʻli bilan birikadi. Gapda hol (*Kechasi ishlaydi*) vazifasida keladi. Baʼzan aniqllovchi boʻlib keladi: *mahsichang odam.*

**Ravishning maʼnoviy guruhleri.** Ravish maʼno jihatidan quyidagi guruhga boʻlinadi:

**Holat ravishi:** *fidoyilarcha, chalqancha(siga), chambarchas, eran-qaran, yaxshilikcha, boshdan-oyoq, ochiqchasiga, ohista, paydar-pay, piyoda, pinhona, surunkasiga, sidirgʻasiga, tekin, toʻgʻridan-toʻgʻri, tiriklayin, tikkama-tikka, tekinga, toʻsatdan, tezda, tezlikda, teskarisiga, uzunasiga, boshma-bosh, butunisicha, butunligicha, vahshiyona, vijdonan, dabdurustdan, darrov, darhol, dafʼatan, zoʻrgʻa, zimdan, yoʻl-yoʻlakay, koʻr-koʻrona, nari-beri, oldinma-keyin, yangicha, yangitdan, oʻzidan-oʻzi, oʻzicha, qayta, qatʼiyan, qiygʻos, arang, badastir, bekami-koʻst, bajonudil, bahuzur, bazoʻr, baloday, bamaylixotir, bamaslahat, banogoh, baravariga, baralla, basma-bas, bafurja, bahamjihat, bahodirona, beayov, bevosita, bedarak, beijoat, beixtiyor, bekitiqcha, besoʻroq, betinim, betma-bet, betoʻxtov, bexos/bexosdan,*

*bilinar-bilinmas, aksincha, bira to`la, birma-bir, birvarakay(iga), birga(likda), birdan(iga), birin-ketin, bosim (ishlamoq), qo`qqisdan.*

**Daraja-miqdor ravishi** (harakat va holatni bajarishdagi miqdor-darajani bildiradi, umumiy so`rog`i qancha?): *arang, batamom, baqadrihol, baholiqudrat, bag`oyat, birnav`i, beaded, birmuncha, butunlay, bazo`r, deyarli, jilla, jichcha, jinday, juda (ham), zarracha, zinhor-bazinhor, mutlaqo, rosa, ozmi-ko`pmi, ozmuncha, sal, sal-pal, sira, talay, tegishli, yetarlicha, tirnoqcha, xiyol, xiyla, o`lguday, qittak.*

**O`rin ravishi:** *u yerga (-da, -dan), bu yerga (-da, -dan), shu yerga (-da, -dan), u yoqqa (-da, -dan), olg`a, o`rtaga (-da, -dan), hech yoqqa (-da, dan), nari-beri (surmoq), ilgariga (-da, -dan), tashqariga (-da, -dan), quyiga (-da, -dan), chapga (-da, -dan), o`ngga (-da, -dan).*

**Payt ravishi:** *tongla, uzzukun, umrbod, unda-bunda, endi, erta, ertalab, erta-indin, erta-indin, erta-yu kech, eskidan, yaqinda, o`qtin-o`qtin, qadimdan, hali, halitdan, hali-beri, hozir, hamisha, hamon, hanuz, avval, ahyon-ahyonda, bugun, barvaqt, ba`zan, ba`zida, birpas, boya, bultur, vaqtincha, gohida, goho, dastavval, dastlab, doim/doimo, ilalabad, ilgari, indinga (-da, -dan), keyin, kecha-kunduz, kechasi, kunduzi, mangu, muqaddam, mudom, ora-sira, oxiri, onda-sonda, so`ng//so`ngra,*

**Maqsad ravishi:** *atay, atayin, ataylab, azza-bazza, jo`rttaga, qasddan.*

**Sabab ravishi:** *noiloj, noilojlikdan, bekordan-bekorga, chor-nochor.*

Sifat kabi ravishni ham ma`no turiga ajratish nisbiy. Chunki ko`chma ma`noda qo`llangan ravish bir ma`no turidan boshqasiga o`tib ketadi: *Ishxonamiz yaqinda joylashgan* – o`rin ravishi. *Yaqinda qishloqqa boraman* – payt ravishi. *Partalarni nari-beri surdik* — o`rin ravishi. *U nari-beri dars qildi* — holat ravishi.

**Ravish yasalishi.** Ravish qo`shimcha qo`shish va so`z qo`shish usuli bilan yasaladi.

Qo`shimcha qo`shish – ravish yasalishining keng tarqalgan usuli. Bu usul bilan yasalgan ravishning asosi quyidagi turkumlarga mansub bo`ladi: 1. Ot: *yaxshilikcha, dom-daraksiz, do`stona, beixtiyor.* 2. Sifat: *qat`iyan, mardlarcha, yaxshilab, tiriklay.* 3. Son: *bittalab.* 4. Olmosh: *butunlay, o`zicha, yalpisicha.* 5. Ravish: *ko`pincha, hozircha, ko`plab, keyincha.* 6. Fe`l: *erkalangansimon, uyalgannamo, to`xtovsiz.* 7. Modal: *keragicha, boricha.*

**Qo`shimcha qo`shish** orqali ravish yasalishi:

| Qo`shimcha   | Xususiyati | Yasalma                                                                                                                                 | Asos                      |
|--------------|------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------|
| -an:         | unumsiz    | <i>tasodifan, vijdonan, taxminan, fikran, xayolan, ruhan, rasman, qat`iyan, majburan</i>                                                | ot, sifat, modal          |
| bar-:        | unumsiz    | <i>Barvaqt</i>                                                                                                                          | Ot                        |
| be-:         |            | <i>beijozat, beixtiyor, bevosita, bedarak, bemalol, betinim, bevaqt</i>                                                                 | Ot                        |
| -iga//-siga: |            | <i>surunkasiga, nomiga, qatorasiga, uzunasiga, rostakamiga, ko`ndalangiga, tikkasiga, chinakamiga, birdaniga, qanaqasiga, yalpisiga</i> | ot, sifat, ravish, olmosh |

|               |                                            |                                                                                                                                                                                                                                                                           |                                                             |
|---------------|--------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------|
| -lab:         |                                            | <i>oylab, donalab, harflab, haftalab, bo`g`inlab, yaxshilab, bittalab, ko`plab</i>                                                                                                                                                                                        | ot, sifat, son, ravish                                      |
| -lay/-layin : | unumsiz                                    | <i>tiriklayin, yoshlayin, butunlay</i>                                                                                                                                                                                                                                    | sifat, olmosh                                               |
| -larcha:      |                                            | <i>qahramonlarcha, bolalarcha, do`stlarcha, otalarcha, vahshiylarcha, mardlarcha, yovvoyilarcha, telbalarcha</i>                                                                                                                                                          | ot, sifat,                                                  |
| -ligicha:     |                                            | <i>yangiligicha, xomligicha, butunligicha</i>                                                                                                                                                                                                                             | sifat                                                       |
| -namo:        |                                            | <i>hazilnamo; oliftanamo (gerdaymoq), uyalgannamo (yuzini chetga burmoq)</i>                                                                                                                                                                                              | ot, sifat, sifatdosh shakl                                  |
| -n//-in:      | tarixiy yasalish                           | <i>yozin-qishin, oldin; ochin-to`qin; ertan, kechin.</i>                                                                                                                                                                                                                  | ot, sifat, ravish                                           |
| -ona:         |                                            | <i>do`stona, mardona, xolisona, oqilona, fidokorona, itoatkorona</i>                                                                                                                                                                                                      | ot, sifat                                                   |
| -siz:         | yasama so`z sifat, keyin ravishga ko`chgan | <i>dom-daraksiz, navbatsiz, to`xtovsiz</i>                                                                                                                                                                                                                                | ot, harakat nomi                                            |
| -simon:       |                                            | <i>hazilsimon, xafasimon, erkalangansimon</i>                                                                                                                                                                                                                             | ot, sifat, fe`lning sifatdosh shakl                         |
| -cha:         |                                            | <i>tirnoqcha, qishloqcha, yaxshilikcha, osonlikcha, o`g`rincha (-n orttirilgan), o`zbekcha, vaqtincha (-in orttirilgan), o`zgacha, boshqacha, yangicha, yashirincha, sizcha, o`zicha, istagancha, ko`pincha (-in orttirilgan), hozircha, keyincha, keragicha, boricha</i> | ot, sifat, olmosh, fe`lning sifatdosh shakli, ravish, modal |
| -chasiga:     |                                            | <i>qishloqchasiga, dehqonchasiga, soldatchasiga, yigitchasiga, mo`g`ulchasiga, ochiqchasiga, harbiychasiga</i>                                                                                                                                                            | ot, sifat                                                   |
| -chang:       | unumsiz                                    | <i>mahsichang, ko`ylakchang</i>                                                                                                                                                                                                                                           | Ot                                                          |
| -aki          | unumsiz                                    | <i>yodaki, zo`raki</i>                                                                                                                                                                                                                                                    | ot, sifat                                                   |

**So`zga so`z qo`shib ravish yasash.** Bu yo`l bilan qo`shma ravish yasaladi. Qo`shma ravish tarkibi quyidagicha bo`lishi mumkin:

1) *u/bu/shu/o`sha* ko`rsatish olmoshi + *yer/yoq/ora/o`rta* oti: *u yerga, bu yerda, shu yerdan, o`sha yoqdan, bu orada, shu o`rtada*.

2) *shu/o`sha* ko`rsatish olmoshi + *kun/zamon/vaqt/on/asno* oti: *shu kuni, o`sha zamon, shu zamon, shu zahoti, shu onda, shu asnoda*.

3) *har* belgilash olmoshi + *bosh/o`rin* kelishigidagi so`z: *har kuni, har yili, har yoqqa, har yerda, har taraf, har dam, har zamonda, har gal, har yoqdan, har lahza*.

4) *bir soni* + *bosh/o`rin-payt* kelishigidagi so`zlar: *biryo`la, bir kuni, bir dam, bir zumda, bir nafas, bir pas, bir on, bir onda, bir boshdan, bir zamon, bir tekis, bir oz, birmuncha, bir talay, bir nav*.

5) *hamma* olmoshi + *yoq/vaqt/zamon/joy/yer*: *hamma yoq, hamma vaqt, hamma zamonda, hamma joy, hamma yer*.

6) *qay* olmoshi + *vaqt/choq/zamon/payt/mahal*: *qay vaqt, qay choq, qay zamon, qay payt, qay mahal*.

7) *alla* olmoshi + *mahal/nechuk/payt/zamonlar*: *allamahol, allanechuk, allapayt, allazamonlar*.

**Ravishning tuzilishiga ko`ra turlari.** Ravish tuzilishiga ko`ra s o d d a , q o ` s h m a , j u f t va takroriy bo`ladi.

**Sodda ravish** bir asosdan tashkil topib, yasovchi qo`shimcha olish/olmasligiga ko`ra ikki turga bo`linadi:

1) s o d d a t u b : *oz, erta, indin, bultur, kecha, avval; birdan, birga, qo`qqisdan, yaqinda, bugun, tez, sekin, sal, ko`p, kechasi*;

2) s o d d a y a s a m a : *tiriklayin, yangicha, mardona, qahramonlarcha, ko`pincha, betinim*.

**Qo`shma ravish** birdan ortiq asosdan tashkil topadi:

1) *u/bu/shu/o`sha* + *yer/yoq/ora/o`rta*: *u yerga, bu yerda, shu yerdan, o`sha yoqdan, bu orada, shu o`rtada*;

2) *shu/o`sha+kun/zamon/vaqt/on/asno*: *shu zamon, shu zahoti, shu onda, shu kuni, shu asnoda, o`sha zamon*;

3) *har+bosh/o`rin* kelishigidagi so`z: *har dam, har zamonda, har gal, har yoqdan, har kuni, har yili, har yoqqa, har yerda, har lahza, har taraf*;

4) *bir+bosh/o`rin* kelishigidagi so`z: *bir pas, bir on, bir onda, bir boshdan, bir zamon, bir tekis, bir oz, birmuncha, bir talay, bir nav, biryo`la, bir kuni, bir dam, bir zumda, bir nafas*;

5) o`zlashma so`z: *baqadrihol, bajonudil, baholiquidrat*.

**Juft ravish** ikki ravishning juftlashuvidan yuzaga keladi. Juft ravish qismlarining mustaqil ishlatilishi yoki ishlatilmasligiga ko`ra quyidagi guruhlariga bo`linadi:

1) ikki qismi ham yakka ishlatiladi: *ozmi-ko`pmi, erta-yu kech, kecha-kunduz, qishin-yozin/yozin-qishin, tun-kun, erta-indin, uzil-kesil, ura-sura, unda-bunda, asta-sekin, yana-tag`in, eson-omon*;

2) qismidan biri yakka ishlatilmaydi: *ora-chora, ro`y-rost, sal-pal, chala-chulpa, emin-erkin, huda-behuda, oz-moz, dom-daraksiz, mo`l-ko`l, ora-sira*;

3) ikki qismi ham yakka holda ishlatilmaydi: *onda-sonda, eran-qaran, o`lda-jo`lda, azza-bazza, apil-tapil, imi-jimida*.

**Takroriy ravish** ot, sifat, son, olmosh, fe`l va ravishning takror qo`llanishidan yuzaga keladi. Takroriy ravish tub yoki yasama asosli bo`lishi mumkin:

1) takroriy yasama: *galma-gal, birma-bir, yo`l-yo`lakay, o`qtin-o`qtin, es-es, qayta-qayta*;

2) takroriy tub: *asta-asta, birga-birga, darajama-daraja, sekin-sekin, zinhor-bazinhor, tez-tez, to`g`ridan-to`g`ri, sira-sira, ahyon-ahyonda*.

**Ravish turkumi tahlili.** Ravish turkumi tahlili – ravishning turi, unga xos xususiyatni aniqlashga qaratilgan morfologik tahlil. Unda quyidagilar aniqlanadi: 1. Qaysi lug`aviy mazmuniy guruhga mansubligi. 2. Morfologik tarkibi. 3. Yasalishi. 4. Tuzilishiga ko`ra turi. 5. Gapdagi vazifasi.

Namuna: **Kunduzi** hamma ishga ketadi, kechasi esa hovlida odam gavjum. Payt ravishi; morfologik tarkibi ajralmas holga kelgan; tub; sodda, hol.

## RAFIYEV ABDIROZIQ

Filologiya fanlari nomzodi, Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti dotsenti Abduroziq Rafiyev 1952- yilning 18- oktabrida Buxoro viloyatida tug`ilgan. Hozirgi o`zbek tili leksikologiyasi, frazeologiyasi, o`zbek tilini o`qitish metodikasi, turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi bo`yicha ilmiy-tadqiqot va metodik ishlari bilan tanilgan.

Faol ishtiroki va ilmiy-metodik rahbarligida respublikamizning ta`lim boshqa tillarda olib boriladigan sinf (guruh)larda o`zbek tilini o`qitish konsepsiyasi va barcha ta`lim bosqichlarida o`zbek tili predmetining uzviyligini ta`minlashga qaratilgan namunaviy o`quv dasturlari yaratilgan. Chet elliklar uchun 4 ta audiokassetali (SD) va multimediali “O`zbek tili” darsligi 50 dan ortiq nufuzli xorij universitetlarida o`qitilmoqda. Indiana universitetidagi hamkorlari bilan o`zbek tilini masofadan o`qitish dasturi va elektron darsligini tayyorlagan.

Kasb-hunar kollejlari uchun “Ona tili va adabiyoti” darsligi, ta`lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 3-11- sinflari uchun “O`zbek tili” darsligi amalda qo`llanilmoqda.

A.Rafiyev “O`zbekiston Respublikasi xalq ta`limi a`lochisi” (1994), “O`zbekiston Respublikasi xalq ta`limi fidoyisi” (2002) unvonlari bilan taqdirlangan. Olim Xalqaro turkiyshunoslar jamiyati a`zosi.

## RUN (IY) YOZUVI

V–VIII asrlar davomida turkiy xalqlar O`rxun-Yenisey nomli yozuvdan keng foydalangan. Bu yozuv ba`zan *r u n i k y o z u v i* deb ham yuritiladi. Yenisey daryosi havzasidan topilgan O`rxun yozuvi yodgorliklari haqida dastlab XVIII asrning boshlarida rus xizmatchisi Remezov degan kishi xabar berdi. Keyinroq shved ofitseri Iogann Stralenberg shu daryo havzasida noma`lum yozuvli tosh borligini qayd etadi. Bu haqda olim Messerschmidt ham o`z asarlarida ma`lumot berib o`tadi. Ammo uzoq vaqt davomida olimlar bu yodgorliklarni o`qishga, uning qaysi xalqqa tegishli yodgorlik ekanligini aniqlashga muvaffaq bo`la olmadi. XIX asrning birinchi choragida «Сибирский вестник» («Sibir axboroti») jurnalida Grigoriy Spasskiyning Yenisey yodgorliklari haqidagi maqolasi bosildi. Bu maqola lotin tiliga tarjima qilinib, ko`p

mamlakatlarning olimlariga ma'lum bo'ldi. Lekin turli mamlakat olimlari uni turlicha talqin qila boshladi. 1890-yilda Fin-Ugor ilmiy jamiyati O'rxun daryosiga arxeologik ekspeditsiya uyushtirdi. 1891-yil esa Rossiya Fanlar akademiyasi akademik V.Radlov boshchiligidagi O'rxunga katta ekspeditsiya yubordi. 1892-yilda bu ekspeditsiyaning ish natijalari ikkita atlas holida nashr qilinib, ularda noma'lum yozuv yodgorliklarining surati, ular topilgan joylarning xaritasi va boshqa ma'lumotlar berilgan edi. Yodgorliklarni birinchi bo'lib daniyalik olim V.Tomsen o'qishga muvaffaq bo'ldi. U bu yodgorliklarni o'qishda turli alfavitlarga tayanmay, ishni harflarning o'zaro nisbati va o'xshashliklarini aniqlashdan boshladi. Turkiy tillardagi ba'zi bir tovushlarning qator kelish/kelmaslik holatini aniqlab, uni yodgorlikka solishtirib ko'rdi. Olim yodgorlik yozuvini chapdan-o'ngga qarab emas, balki o'ngdan chapga qarab o'qish kerakligini aniqladi. V.Tomsen birinchi bo'lib *turk* so'zini o'qib, mazkur yodgorlik turkiy xalqlarga tegishli degan xulosaga keldi. 1893-yilning 25-noyabrida deyarli barcha harflarni aniqlab, yodgorliklarning «siri»ni ochdi. Bu orada akademik V.Radlov ham 15 ga yaqin harfni aniqlab ulgurgan edi. V. Radlov o'zining va V.Tomsenning kashfiyotiga tayanib, O'rxun daryosi atrofidan topilgan bir necha yodgorlik matnini birinchi bo'lib tarjima qildi. Demak, daniya olimi V.Tomsen ikki so'zni oldin o'qigan bo'lsa-da, ayni bir vaqtda rus olimi V.Radlovning ham bu yozuvlarini o'qishda xizmati katta. Shunga ko'ra, ushbu yozuvni birinchi bo'lib o'qish va izohlab berish sohasida har ikki olimning xizmati ham bir xil. Keyinchalik O'rxun-Yenisey yozuvining yangi-yangi yodgorliklari topildi, o'rganildi va aniqlandi. Umuman, O'rxun-Yenisey yodgorliklarini tekshirish va o'rganishda V.Tomsen, V. Radlov, P. Melioranskiy, A.Geykel, S.Malov kabi rus va chet el olimlarining xizmati juda katta. Hozirgi vaqtda ham bu yozuv o'rganilmoqda.

O'rxun-Yenisey yodgorliklariga xos ayrim leksik birlik va grammatik shaklni hozirgi o'zbek, uyg'ur, ozarbayjon, qirg'iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq, tatar, boshqird, qorachoy, bolqar va boshqa turkiy tillarda uchratish mumkin. Shunga ko'ra, S.Malov ta'kidlaganidek, bu yodgorliklar ko'pchilik turkiy tillar tarixini o'rganishda mushtarak bir manba sifatida juda katta ahamiyat kasb etadi. Qisqasi, O'rxun-Yenisey yozuvi turkiy xalqlarning eng katta madaniy yodgorliklaridan. Ayni vaqtda ushbu yozuv turkiy xalqlarning jahon xalqlari orasida eng qadimiy va yetuk madaniyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

O'rxun-Yenisey yozuvi turkiy xalqlar uchun ham tarixiy, ham siyosiy, ham madaniy jihatdan beqiyos darajada katta ahamiyatga ega.

## **RUS TILI**

Rus tili – rus xalqi tili, jahonda keng tarqalgan tillardan. Avval sobiq SSSRda, so'ng Rossiya va MDHda millatlararo va davlatlararo aloqa vositasi. Rus tili BMTdagi 6 ta rasmiy tildan biri. Ukrain va belorus tillari bilan birgalikda Hind-yevropa tilari oilasiga kiruvchi slavyan tillari guruhini tashkil etadi. O'tgan asrning 80- yillaridagi ma'lumotga ko'ra, rus tilida so'zlashuvchilarning umumiy soni 250 million kishidan, hozirgi Rossiya va MDH mamlakatlarida 185 million kishidan ortiq. Bundan tashqari, mazkur hududlardagi 60 milliondan ortiq kishi rus tilida erkin so'zlasha oladi.

Eng qadimgi rus adabiy tili Kiyev Rusida shakllangan, XIV asrgacha sharqiy slavyanlar uchun umumiy til hisoblangan. XIV–XV asrlar qadimiy rus tili 3 tilga –

velikorus (rus), ukrain va belorus tillariga bo'linib ketadi. Shu davrdan boshlab rus tili, boshqacha aytganda, velikorus tili markazi Moskva bo'lgan. Rus davlati hududida rivojlana boshlaydi.

Rus tili lahja va shevalari 2 ga: shimoliy velikorus ("o" lovchi) va janubiy velikorus ("a" lovchi) guruhlariga bo'lingan; o'rta rus shevalari mazkur ikkala guruh xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. XVI–XVII asrlarda shimoliy va janubiy lahjalar chegarasida bo'lgan Moskvada o'ziga xos koyne (umumiy lahja) shakllanib, u namuna tilga aylangan.

Qadimiy rus tili xususiyatini saqlab qolgan adabiy til bilan so'zlashuv tili o'rtasida sezilarli tafovut paydo bo'lib, XVII asrdan boshlab rus millati va rus milliy tili shakllana boshladi. XVII asr oxiri XVIII asr boshidagi adabiy til boy va ifodali yevropa o'zlashmalariga ega esa-da, barqaror bo'lmagan. Uni tartibga solish va barqarorlashtirishda M.Lomonosovning xizmatlari katta. XIX asr boshlarida adabiy tilning xalqchilligi bosh muammo hisoblanib, bu muammoning yechimida I.Krilov, A.Griboyedov va, ayniqsa, A.Pushkin ijodi alohida o'rin tutadi. Ayni Pushkin ijodiyotida rus adabiy tilining shakllanishi yakun topadi. Rus tilining umumiy me'yorlari ishlab chiqilgan va mustahkamlangan hamda, bu me'yorlar Pushkinning zamondoshlari va undan keyingi avlod tomonidan qabul qilingan.

Rus adabiy tilining boyishiga XIX–XX asrlardagi rus adabiyotining mumtoz vakillari ulkan hissa qo'shdi; XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab uning rivojlanishiga yozuvchilar bilan bir qatorda jamoat arboblari, fan va madaniyat namoyondalari ham katta hissa qo'shmoqda. Oktabr to'ntarilishidan so'ng o'zgacha ijtimoiy tuzum va texnikaning rivojlanishi tufayli rus tilida, ayniqsa, uning leksikasida sezilarli o'zgarish bo'ldi, adabiy tilning umumiy demokratlashuvi kuchaydi.

Rus tili flektiv-sintetik tillardan, unda 3 ta grammatik jins kategoriyasi, otlarning 3 xil turlanishi, fe'lning 2 xil tuslanishi mavjud; ko'makchi predlog ko'rinishida, ya'ni o'zi bog'lanadigan so'z oldidan joylashdi.

Hozirgi rus alifbosi kirill yozuviga (kirillitsaga) asoslangn. Unga bitilgan eng qadimiy yodgorlik XI asrga taalluqli.

XX asr o'rtalaridan boshlab butun jahonda rus tilini o'rganish keng tarqaldi. U dunyodagi 100 dan ortiq mamlakatda o'qitiladi. 1967- yilda rus tili va adabiyoti o'qituvchilarning xalqaro assosiatsiatsiasi, 1973- yilda A.Pushkin nomidagi Rus tili instituti tashkil etilgan. Sho'ro davrida O'zbekistonda va MDHning bir qancha mamlakatlarida rus tilida oqish, o'rganishga alohida e'tibor berilgan.

*“O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi” dan.*

## **RUSTAMOV ALIBEK**

Taniqli tilshunos, filologiya fanlari doktori, professor, O'zFA akademigi A.Rustamov 1931 yilda Toshkent viloyatida tavallud topgan. U o'zbek tili tarixi, tilning badiiy-estetik vazifasi, tilshunoslikning umumiy masalalarini hal qilishda barakali faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Xususan, «Navoiyning badiiy mahorati» (1979), «Qofiya nima?» (1975), «Mahmud Zamaxshariy» (1971), akademik G'.Abdurahmonov bilan hamkorlikda yozgan «Alisher Navoiy asarlarining grammatik xususiyatlari» asarlari alohida ahamiyatga ega.

Akademik A.Rustamov oliy o`quv yurtlarida filologiya ta'limini yuksaltirish sohasida tinimsiz mehnat qilmoqda. Jumladan, G`.Abdurahmonov bilan hamkorlikda yozgan «Qadimgi turkiy til» (1982) o`quv qo`llanmasi qadimgi turkiy manbalarni o`qish va ularni tahlil etish bo`yicha talabalarning doimiy hamrohiga aylanib qoldi.



## **SARIQ UYG`UR TILI**

Sariq uyg`ur tili sharqiy turkiy tillardan biri. Asosan, Xitoyning Gansu viloyatidagi Minxua mintaqasida tarqalgan. So`zlashuvchilarning soni taxminan 4-5 ming kishiga yaqin. Aniq dialektal bo`linishga ega emas; tog`lik va dashtlik aholi shevalarida fonetika va leksika sohalarida tafovutlar kuzatiladi.

Sariq uyg`ur tili leksikasi turkiy va noturkiy (sanskrit, tibet, mo`g`ul, xitoy) tillarga xos unsurlar qorishmasidan iborat, lekin grammatik qurilishi asl turkiyligicha saqlanib qolgan. Sariq uyg`ur tilining o`tmishda qadimgi uyg`ur tiliga yaqin bo`lganligi haqida taxminlar bor. Sariq uyg`urlar XVIII asr oxirlarigacha qadimgi uyg`ur adabiy tilidan foydalanib kelgan va keyinchalik tibet tilining ta'sirida qadimgi uyg`ur yozuvi unutilgan bo`lishi mumkin. Bugungi kunda sariq uyg`ur tili oddiy so`zlashuv tili bo`lib qolmoqda.

## **SART TILI**

*Sart tili* – Chor Rossiyasi istilochilari tomonidan o`zbek tiliga nisbatan ishlatilgan atama. Shunday nomda rus olimlarining yozma asarlari uchraydi. Mas., Z.Alekseyev va V.Vishnegorskiyning «Sort tili samouchiteli» (1884), M.Andreyevning «Sort tilini birinchi bor o`rganuvchilar uchun qo`llanma» (1896)sini, F.Mashkovsevnig «Sort tili darslari» (1899)ni, V.Nalivkinning «Sort tilini amaliy o`rganish uchun qo`llanma» (1898)sini, N.Budzinskiyning «Sort tili darsligi» (1910) bunga misol.

Manabalarda qayd etilishicha, s a r t so`zi sanskrit tilida «karvonboshi», «savdogar», «shaharlik» kabi ma`noda qo`llangan.

## **SAYFULLAYEV RAUF**

Filologiya fanlari doktori, professor R.Sayfullayev 1924-yili Buxoro (Navoiy) viloyati Qiziltepa tumanida tavallud topgan. 1940-44 yillarda Buxoro davlat pedagogika institutida, 1947-49 yillarda Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston davlat universitetida tahsil olgan. O`z faoliyatini o`rta maktabda o`qituvchilikdan boshlagan R.Sayfullayev Buxoro davlat pedagogika institutida assistent, 1960 yildan boshlab O`zbekiston pedagogika ilmiy-tekshirish institutida katta ilmiy xodim, bo`lim boshlig`i bo`lib ishladi. Olim maktab ona tili ta'limi uchun ko`plab ilmiy, ilmiy-uslubiy, uslubiy ishlar yaratgan. Uning 50 dan ortiq darslik, qo`llanma, risolalari chop etilgan. 1993 yilda

“O`zbek tili” darsligi (kechki maktablarning 8-9 sinflari uchun; G`Abdurahmonov, H.Rustamovlar bilan hammualliflikda), 1995 yilda mazkur olimlar bilan hamkorlikda yaratilgan “Ona tili” darsligi (kechki maktablarning X-XII sinflari uchun) “O`qituvchi” nashriyotida nashr qilingan.

Xalq maorifi a`lochisi (1976) R.Sayfullayev “Mehnat veterani” (1984), “Qori Niyoziy” (1986), “Shuhrat” medallari (1994) bilan taqdirlangan.

R.Sayfullayev 2002 yilda vafot etgan.

## SAYFULLAYEVA RA'NO

Filologiya fanlari doktori, professor R.Sayfullayeva 1948-yili Buxoro viloyatida tavallud topgan. 1972-yili ToshDUning filologiya fakultetini tamomlagan. 1979-yildan Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti O`zbek tilshunosligi kafedrasida faoliyat ko`rsatib keladi. Bir necha yil O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida bo`lim bo`shlig`i vazifasida ishladi.

Olima o`zbek tilidagi qo`shma gaplarning substansial tadqiqi bilan shug`ullanib kelmoqda. Uning hammualliflikda yaratgan oliy o`quv yurtlari uchun “Hozirgi o`zbek adabiy tili”, o`rta ta`lim 8-9 sinflari uchun “Ona tili” darsliklari zamonaviy tipdagi qo`llanmalar sifatida amalda.

## SEMASIOLOGIYA

Semasiologiya, asosan, so`zning ma`no jihatini o`rganadi. Unda so`zning ma`no turi, lug`aviy va grammatik ma`no, bir ma`nolilik va ko`p ma`nolilik, o`z va ko`chma ma`no kabilar tadqiq qilinadi. Semasiologiya asosiy diqqatni ikki tomonli (shakl+ma`no) til birliklarining ma`no tomoniga qaratadi. Semasiologiya so`zlarni o`rganganda leksikologiya, qo`shimchalarni o`rganganda morfemika va morfologiya, erkin birikmalarni o`rganganda sintaksisga muvofiq keladi.

## SIFAT

Ma`noviy xususiyati. Sifat, asosan, predmet-hodisaning, qisman harakatning belgisini bildiradi va *qanday, qanaqa, qaysi* so`rog`iga javob bo`ladi. Predmet-hodisaning belgisi: *yaxshi bola, katta kitob, shirin taom, qizg`in bahs*; harakatning belgisi: *Salim yaxshi o`qiydi. Hayot abadiy davom etadi*. Otlashganda, otning so`rog`ini oladi: *Qizilini qo`yib, ko`kini berdi. Yaxshi bilan yurding – yetding murodga*.

Morfologik belgisi. Sifat **ism** guruhiga kiradi, ya`ni morfologik jihatdan o`zgaradi. Otlashib egalik, kelishik, ko`plik shakllarini qabul qiladi: *qizilini yoqtirmoq, kattalar, yaxshilar va hokazo*. Ot bilan ifodalangan bo`lakka sifatlovchi-aniqlovchi bo`la oladigan har qanday so`z otlashadi. Sifat otlashganda u birikkan ot tushib qolib, vazifasi va grammatik shaklini sifat egallaydi: *Yomon kishidan yaxshilik kutma* gapida *yomon* sifati oddiy daraja, sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida, kishi oti esa chiqish kelishigida, birlikda, to`ldiruvchi vazifasida. *Yomondan yaxshilik kutma* gapidagi

yomon sifati otlashgan, ya'ni tushirilgan otning chiqish kelishigi, birlik son shakli va to'ldiruvchi vazifasini olgan.

Otning har qanday grammatik shaklini olgan so'z otlashgan bo'lavermaydi. Otlashish uchun so'z bog'langan ot tushirilishi ham lozim. Buni aniqlash uchun tushirilgan otni tiklab ko'rish kerak: *Bilimli o'zadi – bilimli kishi o'zadi*. Lekin *Olmaning qizilini yeyman* gapida ot tushirilmaganligi tufayli uni tiklab bo'lmaydi: *Olmaning qizil olmasini yeyman* kabi. Bunda siafat otlashmagan.

Sifat kesim vazifasida kelganda tuslanadi: *yaxshiman, yaxshisan*.

Sifatning muhim morfologik xususiyatidan biri - darajalanishi. Sifatning to'rt daraja shakli ajratiladi (q. **Daraja shakli**)

**Sintaktik belgisi.** Sifat gapda, odatda otga tobelanib, uning aniqlovchisi bo'lib keladi. Ba'zan sifat harakatning belgisini bildirishi ham mumkin: *chiroyli yozmoq*. Sifat otlashmagan va otlashgan holda barcha gap bo'lagi vazifasida keladi.

Otlashmaganda: 1) sifatlovchi-aniqlovchi: *Oq paxtalar ochildi. Odobli bola elga manzur*. 2) ravish (tarz, vaziyat) holi: *U qiziq kular ekan. Qobil bobo dardli xo'rsindi*. 3) ot-kesim: *Gul qizil. Devor oq. U o'ychan, asabiy edi*.

Otlashganda: 1) ega: *Yaxshi oshini yer, yomon – boshini*. 2) qaratqich-aniqlovchi: *Saxiyning ehsoniga baxilning boshi og'rir*. 3) to'ldiruvchi: *Yaxshidan adashma, yomonga yondashma*. 4) undalma: *Azizim, dunyoga bevaqt kelibmiz*.

**Sifatning grammatik ma'no turi.** Sifat grammatik jihatdan asliy yoki nisbiy bo'ladi.

Darajalanuvchi sifat – **asliy**: *katta (kattaroq – eng katta)*, *yaxshi (yaxshiroq – eng yaxshi)*, *yaqin (yaqinroq – eng yaqin)*, *achchiq (achchiqroq – eng achchiq)*, *qizil (qizilroq – eng qizil)*.

Darajalanmaydigan sifat **nisbiy sifat** deyiladi: *tonggi, kuzgi, kechki, keyingi, avvalgi, qishki, yozgi, ertangi, bugungi, dastlabgi, ilk, sobiq, yuqorigi (qavat), quyi (palata), tuban (joy), tungi, to'ng'ich, kenja, chetki, o'rtancha, bulturgi, burungi*. O'rin va paytga bog'liq belgini bildiruvchi sifat darajalanmaydi.

**Sifatning ma'noviy guruhleri.** Sifat ma'nosiga ko'ra 8 ta guruhga bo'linadi:

**Xarakter-xususiyat sifati** (inson va jonivorning xarakter-xususiyati, jonsiz predmet xususiyati): *vositali, vositasiz (to'ldiruvchi), gajir (jangari), gapdon, garang, go'l, dadil, daydi, dali-g'uli, dangasa, yebto'ymas, ochofat, parishonxotir, yovvoyi, jo'n, zab, zabardast, zakiy//zukko, ziyrak, yo'rg'a, kamgap, lalmi, maxfiy, mahmadona, mechkay, merov, mudhish, muttaham, muqaddas, nodir, nodon, noyob, nontepki, nonko'r, no'noq, ovsar, odil, odmi, oddiy, ojiz, olifta, ofatijon, pismi, puch, rahmdil, samimiy, saranjom-sarishta, sarxil, tajang, tanbal, tansiq, tanqis, tentak, tepsa-tebranmas, teran, tetik, tuzuk-quruq, tuyg'un, turli, to'pori, ulgurji, umumiy, faol, foniy, xayrixoh, xasis, xokisor, chakki, chaqqon, cho'rtkesar, shallaqi, sheryurak, shinam, sho'x, shaddod, yuvosh, yanglish, yaxlit, yaxshi, yashirin, yaqin, o'jar, o'gay, qat'iyatli, qaltis, abadiy, abjir, avom, adabiy, ajib, ajnabiy, azaliy, aziz, ayyor, alamli, aldanchi, aldoqchi, aloqador, amaliy, asosli, asriy, afsonaviy, ahmoq, babaq (xo'roz), badbin, badgumon, badjahl, badiiy, badnafs, badrashk, bo'sh-bayov, baynalminal, balandparvoz, baroq, battol, bashariy, bebosh, begona, bezbet, biyron, bilag'on, bo'lmag'ur, bo'tana (suv), vazmin, vaysaqi, vatanparvar, vafodor, va'daboz, vijdonli, qiyin, g'alati, g'irrom, harom-harish;*

**Holat sifati:** ko'hna, luchchak, mal'un, marhum, mast, mast-alast, mashhur, mosuvo, muallaq, mulzam, muntazir, mushtoq, muhtoj, noqulay, navqiron, ochiq, olazarak, obod, ozod, osoyishta, osuda, pajmurda, palag`da, paxmoq, pachoq, pinhon, pokiza, semiz, sovuq, sokin, so'lg'in, tayyor, shay, hoziru nozir, toza, tarang, tashna, to`q, farovon, xom, xarob, xasta, xafa, xijil, xomush, xor, xursand, shalabbo, eski, qaram, qizg'in, qistalang, abgor, aybdor, alag`da, alamzada, ayanchli, apoq-chapoq, baravj, barkamol, barqaror, boxabar, bexabar, baxtiyor, bedor, besaranjom, bo`liq, vayron, voqif, gavjum, giryon, dabdala, darg`azab, yopiq, issiq, iliq, kir, ho`l;

**Rang-tus sifati:** moviy, nafarmon, ol (qizil), oq-qora, pushti (och qizil), jigarrang, kulrang, novvotrang, rang-barang, targ`il, ola, chipor, ola-chipor, shafaq rang, zarg`aldoq, mosh-guruch (otdan ko`chgan), tillarang, gunafsha rang. Ot tusini ifodalaydi: saman, to`riq, chovkar, jiyron, bo`zto`riqoq, qora, qizil, sariq, ko`k, zangori, alvon (rang-barang), go`los (to`q jigar rang), gungurt (qora-sariq);

**Shakl-ko`rinish sifati:** dumaloq, yassi, uzunchiq, cho`zinchoq, qiyshiq, to`garak, do`ng, tekis, do`mboq, do`ndiq, qabariq, botiq, jingalak, jikkak, lo`nda, lo`ppi, miqti, silliq, g`adir-budir, egri, adil (qomat), naysimon, sharsimon;

**Hajm-o`lchov sifati:** muazzam, mo`jaz, katta, kichik, og`ir, vazmin, yengil, so`ngsiz, bepoyon, tubsiz (ummon), teng, ulkan, keng, tor, uzun, chuqur, chog` (choqqina uy), yirik, jimitday, jajji, hayhotday, ixcham, mayda, mitti, azim, ulug`;

**Maza-ta`m sifati:** achchiq, shirin, sho`r, nordon, chuchuk, taxir, kakra, laziz, xushta`m, chuchmal, talxa; shakar, novvot, namakob, zahar;

**Hid sifati:** xushbo`y, muattar, qo`lansa, ifor, sassiq, badbo`y;

**O`rin va payt bilan bog`liq belgi bildiruvchi sifatlar:** tonggi, kuzgi, kechki, keyingi, avvalgi, qishki, yozgi, ertangi, bugungi, dastlabgi, ilk, sobiq, yuqorigi (qavat), quyi (palata), tuban (joy), tungi, to`ng`ich, kenja, chetki, o`rtancha, bulturgi, burungi.

Sifatni lug`aviy ma`no turiga ajratish nisbiy. Ma`no ko`chishi natijasida ma`no turi ham o`zgaradi: *achchiq gap* (maza-ta`m emas, xil-xususiyat), *qizil so`z* (rang-tus emas, xil-xususiyat).

**Sifatning tuzilishiga ko`ra turlari.** Sifat tuzilishiga ko`ra sodda, qo`shma, juft va takroriy bo`ladi:

**Sodda sifat.** Bir asosdan tashkil topib, o`z ichida quyidagi guruhlariga bo`linadi: 1) **sodda tub:** yaxshi, shirin, go`zal, baland, keng, mo`rt, ko`kimtir, sarg`ish; 2) **sodda yasama:** ishchan, devoriy, maqtanchiq, noo`rin, hiylagar, ozg`in, sezgir.

**Qo`shma sifat.** Birdan ortiq asosdan tashkil topadi: *darveshsifat, devsifat, devqomat, dilozor, dilorom, dilpora, izzattalab, kafangado, xomkalla, sho`rpeshona, kaltafahm, ochofat, maydagap, og`iroyoq, shikastahol*.

**Juft sifat.** Qismlarining ishlatilishiga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi:

I. Har ikki qismi yakka ishlatiladigan juft sifat: 1. Qismi o`zaro sinonim: *saranjom-sarishta, sog`-salomat, telba-teskari, fahm-farosatli, yakka-yolg`iz, yakka-yu yagona, g`arib-benavo, aql-hushli, ajoyib-g`aroyib, boy-badavlat, och-nahor, ola-chipor, pishiq-puxta, son-sanoqsiz, sarson-sargardon*. 2. Qismi o`zaro antonim: *uzoq-yaqin, xom-pishiq, quyuq-suyuq, achchiq-chuchuk, baland-past//past-baland, vayron-u obod, issiq-sovuq, yiroq-yaqin, yiroq-yovuq, tanish-notanish*. 3. Qismining ma`nosi yaqin: *och-yalang`och,*

*soya-salqin, tinch-totuv, uzuq-yuluq, xor-zor, ezma-churuk, o`ydim-chuqur, g`oyaviy-badiiy, ijtimoiy-siyosiy, mo`min-qobil, ochiq-oydin.*

II. Bitta qismi yakka ishlatiladigan juft sifat: *nest-nobud, ola-bula, ola-kula, siniq-mertik, toparmon-tutarmon, tuppa-tuzuk, tilka-pora, teng-tush, tep-tekis, to`kin-sochin, uvun-to`da, xom-xatala, chalakam-chatti, egri-bugri, eski-tuski, entak-tentak, yum-yumaloq, yamoq-yasqoq, qarama-qarshi, qari-quri, qora-qura, harom-harish, aralash-quralash, achchiq-tizziq, burma-churma, bo`ltak-so`ltak, devor-darmiyon (qo`shni), yengil-yelpi, yolg`on-yashiq, yosh-yalang, ilma-teshik, yirtiq-sirtiq, kalta-kulta, kir-chir, mayda-chuyda, mast-alast.*

III. Har ikki qismi yakka holda ishlatilmaydigan juft sifat: *zim-ziyo, ilang-bilang, poyintar-soyintar (gap), dali-g`uli, zim-ziyo, ilang-bilang, aji-buji (yozuv), almoyi-aljoyi, apoq-chapoq, aloq-chaloq (tush), uvali-juvali, o`poq-so`poq.*

**Takroriy sifat:** *burda-burda, yo`l-yo`l (otdan ko`chgan), oppoq-oppoq, yaxshi-yaxshi, katta-katta, shirin-shirin.*

**Sifat yasalishi.** Sifat qo`shimcha qo`shish va so`z qo`shish usuli yordamida yasaladi. Bu usul bilan yasalgan sifatning asosi quyidagicha: 1. Ot: *bama`ni, hosildor, odobli, gorizontal* 2. Sifat: *g`ayritabiiy, noto`g`ri, xomaki.* 3. Son: *bashchi, ikkichi.* 4. Olmosh: *hammabop, o`zaro, sizbop.* 5. Ravish: *kechki, avvalgi, kamchil, oldingi.* 6. Fe`l: *so`lg`in, boshlang`ich, ochiq, erinchoq.* 7. Undov: *dod-voysiz, oh-vohli.* 8. Taqlid: *po`rsildoq, sharros, so`lqildoq, shartaki.* 9. Modal: *zaruriy, kerakli.*

**Qo`shimcha qo`shish yo`li bilan sifat yasalishi:**

| Qo`shimcha | Xususiyati | Yasalma                                                                     | Asos              |
|------------|------------|-----------------------------------------------------------------------------|-------------------|
| -a:        |            | <i>to`la, aylana, ko`tara (savdo).</i>                                      | fe`l              |
| -avon:     | unumsiz    | <i>zo`ravn.</i>                                                             | sifat             |
| -aki:      |            | <i>og`zaki, qalbaki, yuzaki; zo`rma-zo`raki, xomaki; shartaki, jirtaki.</i> | ot, sifat, taqlid |
| -al:       | unumsiz    | <i>regional, gorizontal, monumental, patriarxal.</i>                        | ot                |
| -aro:      | affiksoid  | <i>xalqaro, davlatlararo; o`zaro.</i>                                       | ot, olmosh        |
| -ag`on:    | unumsiz    | <i>bilag`on, topag`on, chopag`on.</i>                                       | fe`l              |
| ba-//bo-:  |            | <i>basavlat, badavlat, bama`ni, bahaybat, baodob yoki boadab.</i>           | ot                |
| bad-:      |            | <i>badhazm, badbaxt, badnafs, badbashara, badaxloq.</i>                     | ot                |
| bar-:      |            | <i>barqaror, barkamol, barhayot.</i>                                        | ot                |
| -baxsh:    | affiksoid  | <i>orombaxsh, hayotbaxsh, shifobaxsh.</i>                                   | ot                |
| be-:       |            | <i>beg`ubor, bedavo, betashvish, bexosiyat, beor.</i>                       | ot                |
| -bin:      | unumsiz    | <i>kaltabin, nekbin (badbin — o`zbek tili nuqtayi nazaridan o`zak).</i>     | sifat             |
| -boz:      |            | <i>va`daboz, safsataboz, xotinboz.</i>                                      | ot                |

|                                     |         |                                                                                                                                                  |            |
|-------------------------------------|---------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| -bon:                               | unumsiz | <i>mehribon (-i orttirilgan).</i>                                                                                                                | ot         |
| -bop:                               |         | <i>ommabop, qishbop; hammabop, sizbop.</i>                                                                                                       | ot, olmosh |
| -vash:                              |         | <i>laylivash, devonavash, parivash.</i>                                                                                                          | ot         |
| -vor:                               | unumsiz | <i>ulug`vor; umidvor.</i>                                                                                                                        | sifat, ot  |
| -vuch//-ovuch:                      |         | <i>iskovuch, hurkovuch.</i>                                                                                                                      | fe`l       |
| -gay//-kay:                         | unumsiz | <i>kungay; terskay.</i>                                                                                                                          | ot, sifat  |
| -gar:                               |         | <i>sitamgar, ig`vogar, hiylagar.</i>                                                                                                             | ot         |
| -gi//-ki//-qi:                      |         | <i>kuzgi, bahorgi, qishki, ichki, sirtqi, tashqi; avvalgi, ertalabki.</i>                                                                        | ot, ravish |
| -gir//-kir//-qir//<br>-g`ir//-qur:  |         | <i>sezgir, keskir, topqir, olg`ir, uchqur.</i>                                                                                                   | fe`l       |
| -gin//-gun:                         | forsiy  | <i>g`amgin, gulgun.</i>                                                                                                                          | ot         |
| -go`y:                              |         | <i>xushomadgo`y.</i>                                                                                                                             | ot         |
| -diq:                               |         | <i>Tashlandiq.</i>                                                                                                                               | fe`l       |
| -don:                               | omonim  | <i>bilimdon, gapdon, qadrdon.</i>                                                                                                                | ot         |
| -dor:                               | omonim  | <i>azador, aloqador, aybdor, vafodor, guldor, daxldor.</i>                                                                                       | ot         |
| -dosh:                              |         | <i>ohangdosh, sirdosh, fikrdosh, o`zakdosh.</i>                                                                                                  | ot         |
| -zada:                              |         | <i>alamzada, yurakzada.</i>                                                                                                                      | ot         |
| -i:                                 |         | <i>qozoqi (it), qishloqi (bola), bahori (bug`doy), payvandi (o`rik), bozori (non).</i>                                                           | ot         |
| -iv:                                |         | <i>obyektiv, sub`ektiv.</i>                                                                                                                      | ot         |
| -iy//-biy:                          |         | <i>ilmiy, shaxsiy, axloqiy, oilaviy, moliyaviy, diniy (jinoiy, maishiy, lug`aviy, siyosiy, madaniy kabi so`zlarda bu qo`shimcha ajralmaydi);</i> | ot         |
|                                     |         | <i>Zaruriy.</i>                                                                                                                                  | modal      |
| -ik:                                | omonim  | <i>faktik, geologik, realistik.</i>                                                                                                              | ot         |
| -ildoq:                             |         | <i>so`lqildoq, akildoq, likildoq, chiyildoq.</i>                                                                                                 | taqlid     |
| -imli:                              |         | <i>to`yimli, sevimli, yoqimli, o`timli.</i>                                                                                                      | fe`l       |
| -in (i):                            | omonim  | <i>to`kin, to`lin, sog`in;</i>                                                                                                                   | fe`l       |
|                                     |         | <i>Erkin.</i>                                                                                                                                    | ot         |
| -in (ii):                           | forsiy  | <i>rangin, g`ishtin.</i>                                                                                                                         | ot         |
| -inki:                              | unumsiz | <i>ko`tarinki.</i>                                                                                                                               | fe`l       |
| -inch:                              |         | <i>shoshilinch, tiqilinch.</i>                                                                                                                   | fe`l       |
| -k//-q//-g`//-i<br>k//<br>-iq//-uq: |         | <i>chirik, o`ksik, quruq, yorug`, o`lik, egik, yopiq, ochiq, buzuq, yumuq.</i>                                                                   | fe`l       |
| -kash:                              |         | <i>zahmatkash, jafokash, dardkash,</i>                                                                                                           | ot         |

|                                           |         |                                                                   |           |
|-------------------------------------------|---------|-------------------------------------------------------------------|-----------|
|                                           |         | <i>dilkash, hazilkash.</i>                                        |           |
| <i>-kin//-qin//-g`in // -kun// -g`un:</i> |         | <i>tushkun, jo`shqin, so`lg`in, horg`in, turg`un.</i>             | fe`l      |
| <i>-kor:</i>                              |         | <i>zulmkor, isyonkor, omilkor, fidokor, ehtiyotkor.</i>           | ot        |
| <i>-l:</i>                                | unumsiz | <i>Tugal.</i>                                                     | fe`l      |
| <i>-li:</i>                               |         | <i>aqli, gulli, kuchli, odobli; kerakli.</i>                      | ot, modal |
| <i>-lik:</i>                              |         | <i>yozlik (palto), ko`rpalik (mato), bayramlik (kiyim).</i>       | ot        |
| <i>-lom:</i>                              | unumsiz | <i>sog`lom.</i>                                                   | sifat     |
| <i>-m:</i>                                | unumsiz | <i>Qaram.</i>                                                     | fe`l      |
| <i>-ma:</i>                               |         | <i>qaynatma, ko`chma, qo`shma, terma, tug`ma.</i>                 | fe`l      |
| <i>-mand:</i>                             |         | <i>ayolmand, davlatmand, orzumand.</i>                            | ot        |
| <i>-mas:</i>                              |         | <i>qo`rqmas, bo`linmas, yaramas, yengilmas, o`tmas, qaytmas.</i>  | fe`l      |
| <i>-mon:</i>                              |         | <i>bilarmon, ustabuzarmon, o`larmon, toparmon-tutarmon.</i>       | fe`l      |
| <i>-msiq//-imsi q:</i>                    |         | <i>qarimsiq, achimsiq.</i>                                        | fe`l      |
| <i>-namo:</i>                             |         | <i>darveshnamo, olimnamo; tentaknamo.</i>                         | ot, sifat |
| <i>no-:</i>                               |         | <i>noinsof, noumid; noto`g`ri, nomard, noma`lum.</i>              | ot, sifat |
| <i>-nok:</i>                              |         | <i>alamnok, g`amnok.</i>                                          | ot        |
| <i>-ndi:</i>                              | unumsiz | <i>asrandi (bola).</i>                                            | fe`l      |
| <i>-on//-an:</i>                          |         | <i>charog`on, za`faron, tuban (tub — ham ot, ham sifat).</i>      | ot        |
| <i>-os:</i>                               |         | <i>sharros, gulduros.</i>                                         | taqlid    |
| <i>-omuz:</i>                             |         | <i>kinoyaomuz, shikoyatomuz, hayratomuz, haqoratomuz.</i>         | ot        |
| <i>-ong`ich//-n g`ich:</i>                |         | <i>so`kong`ich, tepong`ich, tishlong`ich.</i>                     | fe`l      |
| <i>-oq:</i>                               |         | <i>qo`rqoq, baqiroq, qoloq.</i>                                   | fe`l      |
| <i>-parast:</i>                           |         | <i>mansabparast, maishatparast, xayolparast, shaxsiyatparast.</i> | ot        |
| <i>-parvar:</i>                           |         | <i>adolatparvar, insonparvar, xalqparvar.</i>                     | ot        |
| <i>-rli//-arli:</i>                       |         | <i>arzirli, zerikarli, ishonarli, qiziqarli.</i>                  | fe`l      |
| <i>-saro:</i>                             | unumsiz | <i>Motamsaro.</i>                                                 | ot        |
| <i>ser-:</i>                              |         | <i>serhosil, serunum, sergo`sht, sersomon, sershovqin.</i>        | ot        |
| <i>-siz:</i>                              |         | <i>o`rinsiz, tuzsiz, ishsiz, sanoqsiz.</i>                        | ot        |
| <i>-simon:</i>                            |         | <i>odamsimon, sharsimon, naysimon.</i>                            | ot        |

|                          |                   |                                                           |                              |
|--------------------------|-------------------|-----------------------------------------------------------|------------------------------|
| -xo`r:                   |                   | tekinxo`r; poraxo`r.                                      | sifat, ot                    |
| xush-:                   | affiksoid         | xushmanzara, xushfe`l, xushsurat (xushxabar — ot).        | ot                           |
| -ch:                     |                   | tinch, jirkanch.                                          | fe`l                         |
| -cha:                    |                   | o`zbekcha, farg`onacha (kurash).                          | ot                           |
| -chak//-choq<br>//-chiq: |                   | kuyunchak, tortinchoq, erinchoq, sirpanchiq, qizg`anchiq. | fe`l                         |
| -chan:                   |                   | kurashchan, talabchan, harakatchan;                       | ot                           |
|                          |                   | Yashovchan, o`suvchan.                                    | fe`lning harakat nomi shakli |
| -chi:                    |                   | ayirmachi; a`lochi, bekorchi.                             | ot ,sifat                    |
| -chil:                   |                   | dardchil, izchil, xalqchil, epchil; kamchil.              | ot ,ravish                   |
| -shta:                   | unumsiz           | Sinashta.                                                 | fe`l                         |
| -shumul:                 |                   | Olamshumul, jahonshumul.                                  | ot                           |
| -q:                      |                   | oqsoq, porloq, quvnoq.                                    | fe`l                         |
| -qa:                     | unumsiz           | qisqa; loyqa.                                             | fe`l ,ot                     |
| -qi:                     |                   | vaysaqi, sayroqi, o`ynoqi.                                | fe`l                         |
| -qoq:                    |                   | yopishqoq, urishqoq, uyushqoq, tirishqoq, qochqoq.        | fe`l                         |
| g`ayri-:                 | arabiy, affiksoid | g`ayriqonuniy, g`ayritabiiy.                              | sifat                        |
| ham-:                    |                   | hamfikir, hamdam, hamnafas.                               | ot                           |

**So`z qo`shish usuli** bilan qo`shma sifat yasaladi: 1. Ot+ot: sheryurak, xumkalla, ofatijon, bodomqovoq, jigarrang, havorang, darveshsifat, devsfifat, devqomat, dilozor, dilorom, dilpora, izzattalab, kafangado, otashnafas, sohibjamol. 2. Sifat+ot: sho`rtumshuq, sofdil, qattiqqo`l, chalasavod, chalamulla, sovuqqon, balandparvoz, uzunquloq, olijanob, xomkalla, sho`rpeshona, kaltafahm, ochofat, maydagap, og`iroyoq, shirinsuxan. 3. Ot+sifat: jig`ibiyron, tepakal, xonavayron, xudobexabar, otabezori, dilausta, nonko`r, boshqorong`i, yoqavayron. 4. Ravish + ot: hozirjavob, kamgap, kamsuqum, kamqon, kamxarj. 5. Ravish + fe`l: cho`rtkesar, tezpishar, kechpishar. 6. Fe`l + fe`l: yebto`ymas. 7. Olmosh + ot: o`zboshimcha. 8. Ot + fe`l: gadoytopmas, tilyog`lama. 9. Olmosh + sifat: o`zbilarmon. 10. Son + ot: qirqyamoq, ikkiyuzlamachi.

**Sifat turkumi tahlili.** Sifat turkumi tahlili – sifatning turlari, shakllari va xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan morfologik tahlil. Unda quyidagilar aniqlanadi: 1. Asliy yoki nisbiyligi. 2. Qaysi lug`aviy mazmuniy guruhga mansubligi. 3. Morfologik tarkibi. 4. Yasalishi. 5. Lug`aviy shakllari. 6. Sintaktik shakli. 7. Tuzilishiga ko`ra turi. 8. Gapdagi vazifasi.

Namuna: **Kuzgi** ishlar tugadi: asliy sifat; holat belgisi; kuz+gi; yasama, otdan yasalgan; sodda sifat; aniqllovchi.

## SINEKDOXA

Sinekdoxa (yunon. *synecdoche* – «birga anglash») – qism bilan butun munosabati asosida ma’no ko’chirish usuli. Sinekdoxa **metonimiyaning** bir ko’rinishi deb ham yuritiladi. Ammo undan farqli ravishda sinekdoxada miqdoriy tavsifga asoslanadi. Mas., *bosh, tuyoq* so’zi (ya’ni, qism) orqali *hayvon* (ya’ni, butun) tushuniladi. *Yurak, tirnoq* so’zi (ya’ni, qism) orqali *odam* (ya’ni, butun) anglashiladi. Sinekdoxa butun orqali qism ham anglashishi mumkin. Mas., *Besh qo’l barobar emas* gapida *qo’l* (ya’ni butun) so’zi orqali *barmoq* so’zining ma’nosi anglashilmoqda. *Nikolay zamonida ostonam tuyoq ko’rmagan (Oyb.)* gapida qism (*tuyoq*) orqali butun (*mol*) ifodalangan.

## SINTAKSIS

Sintaksis (yunon. *sintaxis* – tuzish, qurish) – grammatikaning so’zning o’zaro erkin bog’lanishi, bu erkin bog’lanish natijasida hosil bo’lgan so’z birikmasi va gap, uning turi va xususiyatini o’rganuvchi tarkibiy qismi. Sintaksisning asosi gap haqidagi ta’limot. Gaplar, aslida, so’zlarning erkin birikuvlariga ham asoslanganligi tufayli so’zlarning bog’lanish qonuniyatlari, so’z birikmalari ham sintaksisda o’rganiladi. Atom xususiyatlari va ularning birikish qonuniyatlarini ochish molekula tabiatini o’rganishga bo’ysundirilganligi kabi so’z birikmalarini o’rganish ham gap ta’limotining tarkibiy qismi, undan ajratilgan holda qaralishi mumkin emas. Sintaksis so’zlarning har qanday birikuvlarini emas, balki hokim-tobelik munosabatiga kirishgan erkin nutqiy birikuvlar va ularning lisoniy mohiyatlarini tekshiradi. Qaysidir yo’sindagi so’zlarning birikuvlari sanalmish qo’shma so’zlar (*uchburchak, ertapishar, sotib olmoq*), frazeologik birliklar (*ilonning yog’ini yalagan, po’konidan yel o’tmagan, ko’ngli bo’sh*) sintaksisning tadqiq doirasidan chetda qoladi. Chunki ular erkin bog’lanishga ega emas. Sintaksis atamasi, **grammatika** atamasining o’zi kabi ikki ma’nolidir: 1) tilning sintaktik qurilishi; 2) grammatikaning tarkibiy qismi.

## SINXRONIYA VA DIAXRONIYA

Tilning tarixiy taraqqiyoti va o’zgaruvchanligini tilning istalgan sathida kuzatishimiz mumkin. Albatta, bundan yangi so’zlarning hosil bo’lishi masalalari bilan shug’ullanuvchi «So’z yasash» bo’limi ham mustasno emas. Yasalma so’zlarning so’z yasaliş strukturasi hamda har bir tilga xos so’z yasash vositalari tizimi tarixan o’zgaruvchan. Shunga ko’ra, bu sathda **diaxroniya** va **sinxroniya** aniq farqlanishi lozim. Xo’sh, bu atamalarda qanday ma’no mujassamlashgan? Til taraqqiyotining ma’lum davrida so’zlar qanday hosil bo’lganligini, uning dastlabgi holati, so’z yasaliş qurilishida bo’lgan o’zgarishlarni o’rganuvchi soha diaxroniya yoki tarixiy so’z yasaliş deyiladi. Til taraqqiyotining hozirgi bosqichida so’z yasash tizimini sinxroniya yoki hozirgi so’z yasaliş o’rganadi.

Diaxroniya va sinxroniya oʻzaro bir-biriga mos kelishi ham, mos kelmasligi ham mumkin. Chunonchi, oʻzbek tilidagi *xazinachi*, *suvchi* (Izoh: *-chi* affiksi bilan ot yasaliishi turkiy tillarda qadimdan mavjud va u qadimgi yodgorliklar tilida ham aks etgan. (q. M a h m u d Q o s h g ` a r i y . Devoni lugʻotit turk. II tom, -Toshkent, 1961. 54-bet), *vafosiz*, *sensiz* (q. Alisher Navoiy. M u h o k a m a t u l l u g ` a t a y n . Tanlangan asarlar, III tom. -Toshkent, 1948.) soʻzlarida sinxronik soʻz yasaliishi strukturasi diaxronik soʻz yasaliishi strukturasi ga mos keladi.

Ammo oʻzbek tilidagi *yumsha*, *yurak*, *yuksak* soʻzlarining tuzilishi diaxronik aspektida *yum+sha*, *yur+ak*, *yuk+sa+k* shakliga ega boʻlsa-da, sinxronik aspektida bir oʻzak sifatida qaraladi. Chunki sinxronik aspektida ularning *yum*, *yur*, *yuk* soʻzlari maʼnosi bilan bogʻlanishi sezilmaydi.

Diaxronik va sinxronik soʻz yasaliishi oʻzaro dialektik bogʻliq. Til taraqqiyotining har bir bosqichida mavjud qoliplar asosida yangi soʻzlar yasaliishida yasaluvchi soʻzning boshlangʻich soʻz yasaliishi strukturasi emas, oʻsha davrdagi sinxronik soʻz yasaliish strukturasi muhim. Chunonchi, hozirda rus tilida eng sarmahsul hisoblanadigan *-nik* suffiksi tarixan qayta boʻlinishga uchragan, diaxronik aspekt uning asl shakli *-ik* boʻlganligini koʻrsatadi. Demak, *svetnik*, *oxotnik* soʻzlarining sinxronik soʻz yasaliish strukturasi diaxronik soʻz yasaliish strukturasi ga mos kelmaydi. Biroq *-nik* suffiksi hozirda yangi soʻzlar yasashga xizmat qilmoqda: *gradusnik*, *plotnik* kabi.

Odatda, har qanday yasalma ikki aʼzoli boʻladi: asos va formant. Birinchi yasalma bilan semantik bogʻlanishda boʻlgan qism, ikkinchisi esa farqlovchi qism. Mas., *sinfdosh* soʻzining semantikasi bilan bogʻliq boʻlgan qism *sinf* va bu soʻzni farqlovchi qism *-dosh* shakli. Yasaluvchi soʻz bilan yasalgan soʻzning maʼnolarida bogʻlanish boʻlishi sinxronik soʻz yasaliishining asosini tashkil etadi.

## **SOBIROV ABDULHAY**

Andijon davlat universiteti Tilshunoslik kafedrası professori, filologiya fanlari doktori Abdulhay Sobirov 1957- yilning 15- iyunida Andijon viloyatining Xoʻjaobod tumanida tavallud topgan. U tilshunos sifatida oʻzbek tili terminologiyasi, leksikologiyasi va leksikografiyasi sohalarida faoliyat koʻrsatib kelmoqda. A.Sobirov tomonidan chop ettirilgan "Oʻzbek tili faol soʻzlarining izohli lugʻati" (1999, hammualif), "Oʻzbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish" (2004) kabi asarlar bunga misol boʻla oladi.

A.Sobirov umumiy oʻrta taʼlim va akademik litsey oʻquvchilari uchun professorlar A.Nurmonov, M.Mahmudovlar bilan hammualliflikda darsliklarning yangi avlodini yaratish ishiga munosib hissa qoʻshib kelmoqda. 5-, 6-, 7-, 9- sinflar uchun "Ona tili" (2004, 2005, 2006), "Oʻqituvchi kitobi" (2004, 2005, 2006), akademik litseylarning 1-3- bosqich talabalari uchun "Hozirgi oʻzbek adabiy tili" (2001, 2002, 2003) darsliklarining yuzaga kelishida xizmatlari katta.

## **SON**

Son mustaqil soʻz turkumlari sirasida toʻrtinchi oʻrinni egallaydi.

**Ma'noviy xususiyati.** Asosan, predmet-hodisa, qisman harakat-holatning ko'pincha aniq miqdori, sanog'i va tartibini, shuningdek, mavhum sanoqni bildiradi. *Ancha, talay, biroz, savat-savat, quchoq-quchoq, qop-qop* kabi ravishlar, *uncha, buncha, shuncha, qancha, bir qancha* kabi olmoshlar ham miqdor ma'nosini bildirishi yoki unga ishora qilishi mumkin. Bu – noaniq ko'plik.

Son *necha, nechta, nechanchi, qancha, qanchadan, qanchalab* kabi so'roqqa javob bo'ladi. *Qancha* so'roq olmoshi bir vaqtning o'zida ravishga ham xizmat qiladi: *qancha – ko'p*. Ba'zan otning so'rog'ini oladi: *Ikki odamning biri (kim?) hali ham kutib turibdi. Necha so'rog'i esa faqat songa tegishli.*

**Morfologik belgisi.** Son turkumining ma'no turini hosil qiluvchi barcha qo'shimcha – **lug'aviy shakl yasovchi**: *-(i)nchi, -ta, -tacha, -lab, -tadan, -larcha, -ov/-ovlon, -ala* kabi.

Son hisob (*kilo, metr, dona, hovuch* kabi) so'zi bilan ishlatiladi.

Otlashish (*Birinchi kishini chaqir – birinчисini chaqir*) va otga ko'chish (*yetti, qirq, yigirma, to'qqiz-to'qqiz* kabi marosim oti) xususiyatiga ega. Bunda otga xos lug'aviy va sintaktik shaklni hamda uning sintaktik vazifasini qabul qiladi: *o'ninchisini, o'ninchigacha*. Otga xos shakl yasovchi qo'shimcha sonning hamma turiga ham birday qo'shila olmaydi: *o'nlarcha(ni), uchala(ga)* kabi.

**Sintaktik belgisi.** Son otlashmagan va otlashgan holda turli gap bo'lagi bo'lib keladi.

Otlashmaganda: 1) sifatlovchi-aniqlovchi: *Bir chetda gulzor oralab ikkita chiroyli qiz gul terib yuribdi*; 2) daraja-miqdor holi: *Samarqandni to'rt besh marta ko'rganman. U marraga birinchi yetib keldi*; 3) ot-kesim: *Bu xotinning joni bitta emas, ming bitta.*

Otlashganda: 1) ega: *Dutorim tori ikkidir, biri dilkash, biri dilxun*; 2) qaratuvchi aniqllovchi: *Ikkalamizning gapimiz bir joydan chiqsin. Ikki uchga qoldiqsiz bo'linmaydi.*

**Imloli.** Son, odatda raqam va so'z bilan yoziladi:

1) arab raqami bilan: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9;

2) rim raqami bilan: birlik: a) *I, II, III, IV, V, VI, VII, VIII, IX*; b) o'nlik: *X, XX, XXX, XL, L, LX, LXX, LXXX, XC*; d) yuzlik: *C, CC, CCC, CD, D, DC, DCC, DCCC, CM*; e) minglik: *M, MM, MMM...*

Tartib sonlar rim raqami bilan yozilganda chiziqchasiz, arab raqami bilan yozilganda chiziqcha bilan yoziladi: *XX asr, 2008- yil, 103- guruh* kabi.

Badiiy asarda sonlar ko'pincha so'z bilan yoziladi: *Ikki minginchi yilning bahorida uchinchi kursda ekanimda* kabi.

**Sonda shakl va ma'no munosabati.** Sonda shakldoshlik, ma'nodoshlik, ko'pma'nolilik hodisasi mavjud.

**Shakldoshlik.** Ba'zi son boshqa turkum so'zi bilan omonim bo'ladi: *uch* (son) – *uch* (fe'l), *qirq* (son) – *qirq* (fe'l), *yuz* (son) – *yuz* (ot), *yigirma* (son) – *yigirma* (fe'l).

Urug' nomini bildiruvchi *qirq, yuz, ming* kabi otga ko'chgan so'z shu shakldagi songa omonim bo'ladi.

**Ma'nodoshlik.** Bu hodisa kam uchraydi: *o'n ming – tuman, yuz ming – lak. Tuman, lak* – eskirgan so'z.

Ba'zan *bir* soni o'rnida *yakka, yolg'iz* so'zi, *birinchi* so'zi o'rnida *ilk, dastlabgi, avvalgi, to'ng'ich, bosh, asosiy, katta* kabi so'z, *ikki* soni o'rnida *qo'sh, juft* so'zi, *yarim*

o`rnida *nol butun o`ndan besh, chorak o`rnida nol butun yuzdan yigirma besh* ishlatilishi mumkin.

**Zid ma`nolilik.** Sonda bu hodisa yo`q. *Ikki va besh* soni bahoni bildirganda, nutqiy zid ma`nolilik kasb etadi, xolos.

**Ko`p ma`nolilik.** Sonda ko`p ma`nolilik hodisasi mavjud. Bu *bir* sonida yaqqol ko`zga tashlanadi: 1) noaniqlik: *Sizni ko`chada bir kishi chaqiryapti*; 2) yolg`izlik: *Darsga bir Karim kelmadi*; 3) ayiruv: *Bir qor yog`adi, bir yomg`ir*; 4) kuchaytirish: *Ertaga bir dam olsam; Bugun bir charchadim*. 5) bir xillik: *Tiling bilan dilingni bir tut*.

**Sondan boshqa turkum so`zining yasalishi.** Sondan ot, sifat, fe`l, ravish, olmosh yasalishi mumkin: 1) ot: *birlik, to`rtlik; uchburchak, to`rtburchak, yettisuv, Oltiariq*. 2) sifat: *ikkichi, beshchi, uchli, to`rtsiz; ikkiyuzlamachi, qirqyamoq, beshotar*. 3) fe`l: *birik, birlash, ikkilan*; 4) ravish: *bittalab; ikkiyoqlama, bir kuni, birpas, bir zumda*. 5) olmosh: *bir kishi, bir nima, bir narsa*.

**Sonning ma`no turi.** Sonning ma`no turi asosan shakl yasovchi qo`shimcha vochtasida hosil qilinadi. Barcha qo`shimchasi lug`aviy shakl hosil qiluvchi bo`lganidan sonning ma`noviy guruhlari ham grammatik asosda farqlanadi. Grammatik xususiyatiga ko`ra son, dastlab, ikkiga bo`linadi: 1) *miqdor son*; 2) *tartib son*.

**Miqdor son** predmet-hodisa hamda harakat/holatning miqdori va sanog`ini, tartib son esa tartibini bildiradi.

**Tartib son** *-(i)nchi va -lamchi* (kam qo`llanadi) qo`shimchasi yordamida sanoq sondan hosil bo`ladi: *birinchi, o`ninchi, yigirmanchi, birlamchi, ikkilamchi*.

Miqdor son quyidagi turga bo`linadi: 1) *sanoq son*; 2) *dona son*; 3) *chama son*; 4) *jamlovchi son*; 5) *taqsim son*.

**Sanoq sonning** ko`rsatkichi yo`q: *bir, ikki, o`n, qirq besh*.

**Dona son** narsaning miqdorini donalab ifodalaydi, sanoq songa *-ta* qo`shimchasini qo`shish bilan yasaladi. Ba`zan *-ta* shakli o`rniga *dona, nafar, bosh* hisob so`zi qo`llanishi ham mumkin: *beshta kitob, ikkita daftar, uch dona qalam, o`n besh nafar o`quvchi, yigirma bosh sovliq*. Qo`shimcha bir so`ziga qo`shilganda, *r* tovushi *t* bilan almashadi: *bir – bitta, o`n bir – o`n bitta*.

**Chama son.** Bu son *-tacha, -lab, -larcha* qo`shimchasi, sonni juftlash, *taxminan, qariyb, taqriban* ravishi vositasida hosil qilinadi: *o`ntacha ishchi, minglab vatandoshlarimiz, yuzlarcha bola, soat o`n birlar edi, taxminan o`nta*. *-cha* qo`shimchasini olgan son hisob so`zi olsa ham, chama ma`nosi voqelanaveradi: *ming yilcha burun, besh milcha narida*.

**Jamlovchi son** quyidagi yo`l bilan hosil qilinadi: 1) sanoq son+*-ov/-ovlon*: *uchov, to`rtov, beshovlon; birov so`zi bundan mustasno*; 2) sanoq son+ *-ala*: *ikkala (i tushgan), uchala, to`rtala*.

Jamlovchi son *birdan yettigacha* bo`lgan sondan hosil qilinadi. Bunda *besh* sonidan boshqasida tovush o`zgarishi yuz beradi.

**Taqsim son** ikki usulda hosil qilinadi: 1) dona songa *-dan* shaklini qo`shish bilan: *bittadan qalam, o`ntadan ruchka*; 2) dona sonni takrorlash bilan: *bitta-bitta, o`nta-o`nta*.

Son butun va qismni ifodalashiga ko'ra uch guruhni tashkil etadi: 1) butun son; 2) kasr son; 3) aralash son.

**Butun son** narsa-buyumning bo'linmagan holdagi sanog'i va miqdorini ifodalaydi: *bir, o'n, ikki yuz kabi*.

**Kasr son** butunning bo'lagini, ulushini ifodalaydi: *yarim, chorak, nimchorak* kabi.

Kasr son ikki ko'rinishda bo'ladi: a) qo'shma so'z ko'rinishidagi matematik kasr ifodasi: *ikkidan bir, o'ndan ikki, to'qqizdan besh* kabi; b) sodda so'z ko'rinishidagi oddiy kasr ifodasi: *yarim, chorak, nimchorak*; v) butun va kasr son birgalikda aralash sonni tashkil qiladi: *bir yarim, ikki butun o'ndan besh, bir butun to'rt dan uch*.

**Sonning tuzilishiga ko'ra turlari.** Son ham tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft va takroriy bo'ladi:

**Sodda son.** Hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'p ishlatiladigan 23 ta sodda son mavjud: *nol, bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz, o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, to'qson, yuz, ming, million, milliard. Yarim, chorak* so'zi ham sodda songa misol.

**Qo'shma son** birdan ortiq o'zakning birikuvidan hosil bo'ladi: *o'n besh, uch yuz besh, to'rt dan uch, o'n olti yarim*. Tarixan ayrim qo'shma son soddalashib borgan: *sakkiz o'n → sakson, to'qqiz o'n → to'qson*.

**Juft son.** Bu son chama, taxmin ma'nosini bildiradi. Sanoq, dona va taqsim son juft qo'llanadi: *bir-ikki joy, o'n-o'n beshta savol, uch-to'rttadan yosti*.

**Takroriy son** takroriy son jamlash, taqsimlash kabi ma'noni ifodalaydi. Sanoq, dona va taqsim son takroriy holda ham qo'llanadi: *beshta-beshta, yuzta-yuzta, bir-bir (gapirib chiqdi), to'rtta-to'rttadan*.

**Son turkumi tahlili.** Son turkumi tahlili – sonlarning turi, shakllari va xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan morfologik tahlil. Unda quyidagilar aniqlanadi: 1) qaysi lug'aviy mazmuniy guruhga mansubligi; 2) morfologik tarkibi; 3) lug'aviy shakli; 4) hisob so'zga munosabati; 5) sintaktik shaklga munosabati; 6) tuzilishiga ko'ra turi; 7) gapdagi vazifasi.

Namuna: *Talabalarga beshtadan toza varaq tarqatildi*: 1) taqsim son; 2) *beshtadan*; 3) *-tadan* taqsim son hosil qiluvchi lug'aviy shakl; 4) hisob so'z bilan qo'llanadi; *besh donadan*; 5) sintaktik shakl olmagan; 6) sodda; 7) aniqlovchi.

## SOTSIOLINGVISTIKA

Sotsiolingvistika til va jamiyat muammosi, tilning jamiyatdagi turli tabaqa, toifa, yosh, kasb va jinsdagi kishi nutqida o'ziga xos tarzda voqelanishi masalasini tekshiradi. Lotincha jamiyat va lingvistika so'zining qo'shiluviga ega, tilning jamiyatga va jamiyatning tilga ta'siri masalarini o'rganuvchi tilshunoslik yo'nalishi.

*Sotsiolingvistika* termini tilshunoslikda birinchi bor 1952- yilda amerikalik tadqiqotchi X.Karri tomonidan qo'llangan.

Sof tilshunoslik tilning o'zinigina tekshiradi. Sotsiolingvistika esa uni jamiyat a'zolari turli sharoit va muhitda turlicha ishlatishiga e'tibor qaratadi. Mas., "sof" tilshunos o'zbek tilidagi *siz* so'zini II shaxs ko'plik olmoshi sifatida talqin qiladi. Sotsiolingvist esa uning yosh bolaga nisbatan qo'llanishiga, birlik son o'rnida voqelanishiga, *-lar* shakli bilan ishlatilishiga, qaysi yoshdagi, toifadagi kishilar nutqida

qanday ma'no, maqsad va miqdorda qo'llanishiga diqqat qiladi. Chunki *sen* va *siz* olmoshi birlik va ko'plik olmoshi ekanligi bilan emas, balki sotsial qiymati, zamiridagi inson qalbi tuyg'ulari bilan farqlanishi bilan sotsiolingvistni qiziqtiradi.

## SUN'IY TIL

Sun'iy til – ma'lum bir kishilar tomonidan yaratilgan til. Qadim zamondan xalqaro tilga talab sun'iy til yaratishga ham sabab bo'ldi. 1880- yilda Germaniyada I. M. Shleyer tomonidan «volyapuk» degan til loyihasi e'lon qilindi. 1887- yilda esa polshalik vrach-poliglot Zamenhof «esperanto» tilini yaratdi va u ko'pchilikka ma'qul bo'ldi, tez orada turli mamlakatga tarqaldi. Hatto badiiy asarlar yozildi yoki bu tilga tarjima qilindi. Ayni paytda **esperanto** tilida gazeta-jurnal chop etilib, radioeshittirishlar uzatiladi, xalqaro tashkilotlar ish yuritadi.

## SURYONIY YOZUVI

Suryoniy yozuvi Mesopotamiyada paydo bo'lgan, VII-VIII asrda Markaziy Osiyoda nasroniy (xristian) mazhabi bilan kirib keldi. Bu yozuv XV asrgacha qo'llandi.

Suryoniy yozuvi – undoshli finikiy-oromiy yozuvi. Finikiy yozuvi kabi 22 belgidan iborat ko'pgina klassik yozuvlar singari (mas., arab) imlosi kabi o'ngdan chapga qarab qo'shib yoziladi. Suryoniy yozuvi I asrdan boshlab adabiy oromiy lahjalaridan bo'lgan suryoniy tili uchun qo'llana boshlagan. Bu yozuvning asosiy ko'rinishlaridan biri **estrangelo** deb yuritiladi. 430- yilda Suriya cherkovining ikkiga bo'linishi natijasida g'arbiy suryoniy (yakovit yoki serto) va sharqiy suryoniy (nestorian) yozuvlari. Nestorian yozuvi Markaziy Osiyo va Xitoyga ham tarqalgan.

Suryoniy yozuviga VII–VIII asrlardan unlilarni ifodalovchi satr usti va satr osti belgilari kiritilgan. Tinish belgilar ham qo'llangan. 1840- yilda nestorian asosida yangi yozuv turi yaratilib, u Eron va Iroqda, shunigdek, Turkiyada yashaydigan ossuriylarda qo'llana boshlagan.

## SO'G'D YOZUVI

So'g'diy yozuvda, asosan, eron tilida matn yozilgan. Tojikistonning Zahmatobod tumani Xayrobod qishlog'idan topilgan so'g'diy yozuvdagi 74 hujjatdan bittasigina turkiy tilda yozilgan.

So'g'd yozuvi I–IX asrlarda mavjud bo'lgan oromiy yozuvi asosida shakllangan harf (tovush) yozuvi. Oromiy yozuvi asosidagi suryoniy yozuviga yaqin turadi. Zarafshon daryosining vodiy va yuqori oqim qismlarida joylashgan So'g'd (So'g'diyona) viloyatida qo'llangan.

22–23 undoshni ifodalovchi belgidan iborat, barcha xususiyati bilan oromiy yozuvini eslatadi. IV asr boshlarida ayrim harf belgilari chiqib ketishi natijasida umumiy soni 17 ta bo'lib qolgan. VII asrlarda yozuvning qiya shakli paydo bo'lishi bilan u murakkablashib qolgan va, natijada, qo'shimcha diakritik belgilar kiritilishiga olib kelgan.

VI asrlardan boshlab bu yozuv harflarning vertikal joylashgan ko'inishi ham paydo bo'lgan. Bunda vertikal satrlar chapdan o'ngga qarab joylashgan. Bu shakl devor va qoyalarga yozilgan.

So'g'd yozuvining eng qadimgi namunasi (I asr) Samarqand shahri yaqinidagi Talli Barzu tepaligidan topilgan. So'nggi namunasi VIII–IX, asosiy qismi IV–VIII asrga mansub. 1933- yilda topilgan Mug' qal'asi xarobasidan yodgorlik hujjati buning yorqin namunasi. XX asrda bu yozuvdagi yodgorliklarning ko'pi Sharqiy Turkistondan topilgan. Mas., 808–821- yillarda hukmronlik qilgan hoqonlardan biri sharafiga uch til (so'g'd, qadimgi turk va xitoy) da bitilgan qabr toshi – muhim hujjatlardan biri. Yodgorliklarning aksariyati Sankt-Peterburg, London, Parij va Berlin muzeylarida saqlanadi.

Barcha hujjatlarda so'g'd adabiy tili me'yorlari, uslubi yaqqol seziladi.

So'g'd yozuvi run, uyg'ur yozuvi uchun asos bo'lgan.

## SO`G`D TILI

So'g'd tili milodiy I-IX asrlarda Samarqand – Buxoro – Naxshab – Kesh viloyatlari hududida yashagan so'g'd xalqining tili. U eroniy tillarning shimoli-sharqiy guruhiga kirgan o'lik til, qadimgi So'g'd (So'g'diyona) davlatining rasmiy tili bo'lgan. Arab istilosidan so'ng so'g'dlar turkiy tilli xalqlar va fors, tojik xalqlari tarkibiga singishib, qorishib ketgan, elatlik maqomini saqlab qololmagan, ularning tili ham siqib chiqarilgan, XII-XIII asrlarda so'g'd tili batamom yo'qolgan.

So'g'd tilida bitilgan yodgorliklar saqlanib qolgan. Moniylik matnlari, kundalik hujjat, yozishma, farmon va yorliqlar, astronomik taqvim, epos namunalari Sin'qzyan va Mug' tog'idan topilgan. Hozir Tojikiston Respublikasining Yag'nob daryosi (Zarafshonning bosh irmog'i) bo'yida yashovchi yag'nobiylarning tili so'g'd tiliga o'xshash, shu bois hozirgi yag'nob tilini yangi so'g'd tili deb atashadi.

So'g'd tilidan o'zbek va tojik tiliga bir qancha so'zlar o'zlashgan. Ularning ma'nolari va tovush shakli o'zgargan: *oqshom, ofarin, suvoriy, non, pul, hafta, falon, falonchi, falonchi, katta, kichik, kalta, kurta (kulta), bog', rog', vayish, palag'da, charx, chig'ir, chig'il, chig'iriy, namat, po'st, to'stak, bod, kafsh, chiroq, charog', kat, katak, kent, ravshan, katvol (kutvol), katxudo, katbonu (kayvoni), dev, pora, mix, farishta, poshna, kampir, devor, juvon, istara, burj, burch, go'dak, jo'ja, dakki, daryo, dam, dahliz, charm, xona, kaft, moh, may, mard, murda, muhr, nuqra, nom, noma, nim, rah, sar, mo'pon, joy.*

O'zbekistonning bir qancha shahar, qishloq, daryo, jilg'a, anhor, tog' nomlari so'g'dcha. Sug'diy nomlar tarixiy va hozirgi joy nomlari majmuida anchagina: **kat, kent:** Kat, Navkat, Navqat, Parkent, Pistaken, Beshkent, Ishkent, No'shkent, Shirkent; **diz, di:** Tezguzar, Tezob, Kamandi, Pakandi, Apari, Jizza; **mitan:** Metan, Parmetan, Namangan, Romiton, Shamaton, Bo'rimetan; **duvon:** Gijduvon, Ayriduvol; **g'ar** (tog'): Palg'ar, Chimqor, Shovg'ar, Oyqor; **ob:** Panjob, Sho'rob, Farob, Tezob; **rud:** Ro'dak, Keshrud, Chag'onrud, Rudibolo; **man:** Manak, Gishman, Xushman, Lag'mon, Tolmon, Motmon; **jon\shon:** Navjon, Sherjon, Andijon, Zarafshon, Badaxshon, Ardaxshon; **kom/kon/gan:** Shofurkom, Namangan; **za:** Varganza, Ispanza, Zog'za, Dovza.

## SO`Z

So`z – leksemaning nutqda ma'lum grammatik shakl va vazifa bilan ro'yobga chiqqan ko'rinishi. Leksikologiyaning o'rganish manbai, ya'ni obyekti bo'lgan so'zni tushuncha va ma'nosiz tasavvur qilib bo'lmaydi. So`z tovush orqali idrok qilinishi va ma'no anglatishi bilan birga tushuncha ifodalash xususiyatiga ham ega. Chunki tushuncha narsa va predmet, voqea va hodisani muhim belgisi asosida boshqa barcha narsa va predmet, voqea va hodisadan ajratadigan fikr shakli. U ana shu narsa va hodisa, uning xususiyati orasidagi ma'lum bog'lanishni ongda aks ettiradi.

Kishining fikrlashi tushuncha asosida vujudga keladi. Shu ma'noda, so`z – tushunchaning tildagi ifodasi. So`z orqali predmet va hodisa bir-biriga qiyos qilinadi va shu yo'l bilan uning umumiy va xususiy belgisi ajratiladi. Mas., hozirgi o'zbek tilida *daraxt* so'zi umuman daraxt haqidagi tushunchani bildiradi. Ayni zamonda bu so`z *mevali* va *mevasiz daraxtni*, mevali daraxtdan *olma*, *o'rik*, *shaftolini*, shaftolidan *chillaki shaftoli* yoki *anjir shaftoli* kabi tushunchani ham ifodalashi mumkin. Misoldan ko'rinadiki, tushuncha doirasi qanchalik kengaygan sari, predmet haqidagi tasavvur ham kengayib boradi, shu predmetni anglatgan so`z ma'nosida ham kengayish yuz beradi. So`z gapdagi vazifasini grammatik shakllanganda ro'yobga chiqaradi. *Biz litseyda o'qiy* gapidagi so'zlar grammatik shaklsiz va bog'lanishsiz (*biz*, *litsey*, *o'qi*) holda fikr ifodalay olmaydi.

**So'zlarning ma'noviy tasnifi.** So'zlarni tasniflashda ma'noga asoslanilsa, so`z quyidagi guruhlariga ajraladi:

1. Mustaqil lug'aviy ma'noli so`z (fe'l, ot, sifat, son, ravish).

2. Nomustaqil lug'aviy ma'noli so`z (olmosh va undov, modal, taqlid).

3. Lug'aviy ma'nosiz so`z (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama).

Olmosh anglatadigan ma'no – u almashtirayotgan, ishora qilayotgan so'zning ma'nosi. Mas., ot o'rnida qo'llangan olmosh otning, sifat o'rnida qo'llangan olmosh sifatning ma'nosiga ishora qiladi, mustaqil holda ma'no anglatmaydi: *Salim keldi. U ishlaydi* gaplarida *u* olmoshi *Salim* otini, *Gul – qizil. Gul – qanday?* gapining ikkinchisidagi qanday olmoshi oldingi gapdagi *qizil* sifatini almashtirgan.

Undov, modal, taqlid so'zning lug'aviy ma'nosi g'ayritabiiy. Ular hatto bir butun gap vazifasida ham kela oladi. Bu undov va modalning lug'aviy ma'nosiz so'zdan farqini ko'rsatadi, biroq lug'aviy ma'nosi matnda anglashiladi. Mas., *po'sht-po'sht* so'zining nimani haydash uchun qo'llanayotganligi matnda ma'lum bo'ladi. Yoki *Uyga bor. – Mayli.* gapida mayli so'z-gapi *boraman* so'zi anglatgan lug'aviy ma'noga teng nutqiy ma'noga ega. Biroq bu ma'no mustaqil emas.

Ko'makchi, bog'lovchi, yuklama lug'aviy ma'no ifodalamaydi.

**So'zlarning morfologik tasnifi.** So'zlar morfologik belgilariga ko'ra ikki umumiy guruhni tashkil etadi:

1. O'zgaruvchi so`z (ot, sifat, son, olmosh, fe'l).

2. O'zgarmas so`z (ravish, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, modal, undov, taqlid).

**O'zgaruvchi so`z** maxsus lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalarga ega. **O'zgarmas so'zlar** bunday xususiyatiga ega bo'lmaydi.

**Soʻzlarning sintaktik tasnifi.** Soʻzlar sintaktik tabiati, yaʼni soʻz birikmasi hosil qilishi, gap boʻlagi boʻlib kela olish-olmasligiga koʻra quyidagi guruhlariga boʻlinadi:

1. Gap va gap boʻlagi boʻlishga xoslangan soʻz: feʼl, ot, sifat, son, ravish, taqlid, olmosh.

2. Gap boʻlagi boʻlishga xoslanmagan, lekin gap boʻla oladigan soʻz: undov, modal.

3. Gap va gap boʻlagi boʻlishga xoslanmagan soʻz: koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama.

Undov va modal boshqa soʻz bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi, oʻzi mustaqil gap, yaʼni soʻz-gap boʻlib kelish qobiliyatiga ega. Yordamchi soʻz gapda alohida boʻlak boʻlib kela olmaydi, balki soʻzni bogʻlash vazifasini bajaradi. Mustaqil soʻz esa gap boʻlagi boʻlib kela oladi.

**Soʻzlarning yasashga koʻra tasnifi.** Tildagi soʻzlar yasash/yasalmasligiga koʻra 2 guruhga boʻlinadi:

1. **Yasaladigan soʻz** (ot, sifat, feʼl, ravish).

2. **Yasalmaydigan soʻz** (son, olmosh, koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, modal, undov, taqlid soʻzlar).

Ayrim dalillar olmosh va sonda ham yasash mavjudligiga ishora qiladi: *allakim, har kim, hech qachon, oʻn besh, yigirma olti* kabi. Ularda qoʻshma soʻzlik xususiyati mavjud.

## SOʻZ BIRIKMASI

Mustaqil soʻz birikuvi 2 koʻrinishda boʻladi: 1) **barqaror birikuv** (turgʻun birikma); 2) **nutqiy birikuv** (erkin birikma). Mustaqil soʻzning **barqaror birikuvi** nutq uchun avvaldan tayyor qilib qoʻyiladi: *sadarayhon, uchburchak, sotib oldi, Qarshi davlat universiteti*, (qoʻshma soʻz), *kalavasining uchini yoʻqotdi* (ibora), *yetti oʻlchab bir kes* (maqol). Bu birikuvning har birida kamida ikkitadan mustaqil soʻz boʻlib, ular oʻzgarmas, buzilmas qilib bogʻlangan. Sanalgan birliklar sintaktik qurilma emas, balki lugʻaviy birlik, ularni tildan tayyor holda olamiz.

Mustaqil soʻzning **nutqiy birikuvi** nutq jarayonida yuz berib, shu jarayon paytidagina yashaydi, vaqtinchalik hodisa ekanligi bilan ajralib turadi: *olma va anor, kitobni oʻqidi, Otam – oʻqituvchi, mening uyim* kabi. Nutqiy birikuv **erkin bogʻlanish** deyiladi. Turgʻun birikuv xalq tomonidan, erkin birikuv esa bir kishi tomonidan yaratiladi. Mustaqil soʻzning erkin bogʻlanishi 2 xil boʻladi: 1) **teng bogʻlanish**; 2) **tobe bogʻlanish**; Mustaqil soʻzning teng bogʻlovchi (bogʻlovchi vazifasidagi soʻz) yoki sanash ohangi yordamida **teng bogʻlanishi** natijasida soʻz qoʻshilmasi vujudga keladi: *olma va anor, qalam bilan ruchka* yoki *oʻqidi, yozdi* kabi. Teng bogʻlanishda bir soʻz boshqasiga tobe boʻlmaydi: *erkak va ayol; erkak, ayol*. Teng bogʻlanish soʻz qoʻshilmasi hamda bogʻlangan va bogʻlovchisiz qoʻshma gap tarkibida uchraydi. Sintaksis **tobe bogʻlanishga** asosiy eʼtibor qaratadi.

Tobe bogʻlanish natijasida soʻz birikmasi (*qalamda yozmoq, qishloqdan kelmoq*) va gap (*Salim – muallim, Yil yaxshi boʻldi*) hosil boʻladi. Birdan ortiq mustaqil soʻzning maʼno va grammatik jihatdan tobe bogʻlanishi soʻz birikmasi deyiladi: *maktabga borish, daftarning varagʻi* kabi. Soʻz birikmasida bosh va ergash soʻz boʻladi. Bunda

ma'nosi izohlanayotgan soʻz **bosh (hokim) soʻz**, uning ma'nosini ravshanlashtirib kelayotgan, izohlayotgan, to'ldirayotgan soʻz **ergash (tobe) soʻz** hisoblanadi. Soʻroq hamma vaqt bosh soʻzdan beriladi, soʻroqqa javob boʻlgan soʻz ergash(tobe) soʻz hisoblanadi: *Shirin olma* (qanday olma?). Gapdagi bir soʻz faqat bir soʻzga tobe boʻladi. Lekin bir soʻz koʻplab soʻzga hokim boʻlishi mumkin.

Oʻzbek tilida, odatda, ergash soʻz oldin, bosh soʻz keyin keladi. Baʼzan gap boʻlagi tartibi oʻzgarganda, ergash va bosh soʻzning oʻrni almashishi mumkin: *oʻqidim* (bosh soʻz) *tarixni* (ergash soʻz), *vatanim* (bosh soʻz) *manim* (ergash soʻz) kabi. Bunday hol koʻpincha sheʼriy nutqda boʻladi.

Bosh soʻzning ifodalanishiga koʻra soʻz birikmasi ikkiga boʻlinadi: 1) otli birikma; 2) feʼlli birikma. Bosh soʻz ot, sifat, son, olmosh, ravish, modal soʻz bilan ifodalansa, **otli birikma** hisoblanadi: *baland bino*, *asalday shirin*, *intizomda birinchi*, *bolalarning hammasi*, *menda koʻp*, *senga kerak*. Bosh soʻz feʼl va uning ravishdosh, sifat-dosh shakli bilan ifodalansa, **feʼlli birikma** deyiladi: *kitobni oʻqish*, *ishni bajarib*, *tez kelgan*, *daftarga yozmoq*.

Ergash soʻzning qanday sintaktik vazifada kelayotganligiga koʻra soʻz birikmasi uchga boʻlinadi: a) aniqlovchili birikma: *qizil qalam*, *ukamning daftari*; b) toʻldiruvchili birikma: *kitobni oʻqimoq*, *qalam bilan yozmoq*; d) holli birikma: *tez kelmoq*, *yurakdan kuylamoq*;

Soʻz birikmasi tuzilishiga koʻra ikki xil boʻladi: 1) sodda soʻz birikmasi; 2) murakkab soʻz birikmasi. **Sodda soʻz birikmasida** mustaqil soʻz ikkitadan ortiq boʻlmaydi: *beshta daftar*, *bugun keldi*, *oʻzining uyi*, *shaharda yashaydi*, *akasi haqida soʻradi*. Ajralmas birikma, qoʻshma soʻz, ibora qatnashgan birikma ham sodda soʻz birikmasi hisoblanadi: *qilich boʻyin ot*, *borsa kelmas oroli*, *turib javob bermoq*, *ichi qora odam*, *oq koʻngil bola*. **Murakkab soʻz birikmasi** tarkibida ikkitadan ortiq mustaqil soʻz qatnashib, soʻz birikmasi ichida yana soʻz birikmasi boʻladi: *gʻayratli yosh bolalar*, *yangi ommabop kitob*, *katta qora qoʻy*, *asfalt yotqizilgan keng koʻchalar*, *katta mevali daraxt*, *bugun kelgan ishchilar* kabi. Mas., *gʻayratli yosh bolalar* birikmasida *gʻayratli* – ergash soʻz, *yosh bolalar* – bosh soʻz. Bosh soʻz oʻz ichida yana boʻlinadi: *yosh* – ergash soʻz, *bolalar* – bosh soʻz. Bunda sodda soʻz birikmasi kengayadi. Bunday birikma **soʻz birikmasi zanjiri** deb atalgan: *kalta yengli chiroyli guldor shefon koʻylak kiygan qiz*.

Soʻz birikmasining soʻz, ibora, sintagma va gapdan farqi. Soʻz birikmasi maʼnosi bilan soʻzga, shakli bilan ibora, sintagma va gapga oʻxshaydi, ammo oʻziga xos farqqa ega.

Soʻz birikmasi va soʻz. Soʻz narsa, belgi, shaxs, ish-harakatni umumiy ifodalash uchun xizmat qiladi. Mas., *kitob* deganda umuman *kitobni*, *bordi* deganda umuman borilganlikni tushunamiz. Soʻz birikmasi ham narsa, belgi, ish-harakatni ifodalaydi va bu jihatdan soʻzga oʻxshab ketadi, ammo soʻz birikmasi narsa, belgi, ish-harakatni boshqa narsa, belgi, ish-harakatdan ajratib, aniqroq qilib ifodalaydi: *oʻquvchi* – *aʼlochi oʻquvchi*, *yozish* – *tez yozish*. Demak, soʻz umumiy, soʻz birikmasi nisbatan aniq tushuncha beradi. Qoʻshma soʻz va soʻz birikmasi oʻzaro quyidagicha farqlanadi: qoʻshma soʻz bir soʻroqqa javob boʻladi, chunki u bitta soʻz, soʻz birikmasi tarkibidagi har bir soʻz esa alohida-alohida soʻroqqa javob boʻladi; *sotib olmoq* (nima qilmoq?) – qoʻshma soʻz; *joʻshib kuylamoq* (qanday kuylamoq? joʻshib nima qilmoq?). Soʻz

birikmasi – qo'shma so'zning ilk bosqichi. U o'sib qo'shma so'zga aylanadi: *ko'zning oynagi – ko'zoynak, sarv qomatli – sarvqomat, dunyoga qarash – dunyoqarash* kabi.

**So'z birikmasi va ibora.** Ibora (barqaror birikma) – ma'no jihatidan bir so'zga teng, ajralmas holatga kelib qolgan lug'aviy birlik. Uning tarkibidagi so'zni bosh yoki ergashga ajratish mumkin emas: *tarvuzi qo'ltig'idan tushdi, oq yo'l, og'zi bo'sh*. Ibora bir so'zga teng, shuning uchun gapda bitta gap bo'lagi bo'lib keladi: *Sizga oq yo'l* (ibora, to'ldiruvchi) *tilayman*. So'z birikmasidagi mustaqil so'z nutq jarayonidagina birikuv hosil qiladi va bosh so'z ham, ergash so'z ham alohida gap bo'lagi bo'lib kelishi mumkin: *A'lochi* (ergash so'z) *o'quvchilar* (bosh so'z) *kelishdi*. Bunda ergash so'z aniqlovchi, bosh so'z ega vazifasida.

**So'z birikmasi va sintagma.** **Sintagma** fonetik hodisa, unda ikki so'z o'zaro birikkanda mazmun yetakchi hisoblanmaydi, bitta mustaqil yoki bitta yordamchi so'z ham sintagmani tashkil etishi mumkin yoxud bir so'zning o'zi ham sintagmani tashkil etishi mumkin. Sintagma – gap tarkibidagi kichik pauza bilan ajratilgan qism. Mas., *Maktabga borganda Karim bilan gaplashib turibman* gapi uch sintagmadan iborat: *Maktabga borganda* (1) *Karim bilan* (2) *gaplashib turibman* (3). Bunda birinchi sintagma *Maktabga borganda* (1) so'z birikmasiga teng, qolganida bir mustaqil so'z va bir mustaqil bo'lmagan so'zdan tashkil topgan: *Karim bilan* (2) *gaplashib turibman* (3). So'z birikmasi esa kamida ikkita mustaqil so'zdan iborat bo'ladi. Sintagmadagi so'z ketma-ket joylashishi shart, so'z birikmasida esa shart emas: Mas., *Uyga tez bor* gapida ikkita so'z birikmasi mavjud: *uyga bor, tez bor*. Lekin *uyga bor* birikmasi a'zosi orasida *tez* so'zi joylashgan.

**So'z birikmasi va gap.** Gap fikr bildirib, tugallangan ohang bilan aytiladi: *Ko'cha katta*. So'z birikmasi esa tushuncha bildirib, tugallanmagan ohang bilan aytiladi: *katta ko'cha*. Gap bitta so'zdan ham iborat bo'lishi mumkin va u kesimlik qo'shimchasi bilan shakllangan bo'ladi, so'z birikmasi esa har doim kamida ikkita mustaqil so'zdan iborat bo'ladi: *Bahor*. (gap), *Atrof yam-yashil libosga burkangan*.

**So'z birikmasida ergash va bosh so'zning birikish usuli.** Ergash va bosh so'z quyidagi usul yordamida birikadi: a) boshqaruv; b) moslashuv; d) bitishuv.

**Boshqaruv.** Ergash va bosh so'zning tushum/jo'nalish/o'rin-payt/chiqish kelishigi va ko'makchi yordamida bog'lanishi boshqaruv deyiladi. Demak, boshqaruvda ergash so'z bilan bosh so'zning birikishi ikki xil: 1) *kelishikli boshqaruv*: *ilg'orlarni tabriklash, uyga ketish, shaharda yashash, qishloqdan kelish*; Ayrim holda kelishik belgisiz bo'lishi ham mumkin: *olma terish, shahar borish*. U baribir kelishikli boshqaruv deyilaveradi. 2) *ko'makchili boshqaruv*: *Sayr haqida suhbat, paxta uchun kurash, sayohat to'g'risida gapirish*.

**Moslashuv.** Bosh va ergash so'zning qaratqich kelishigi va egalik qo'shimchasi yordamida bog'lanishi moslashuv deyiladi. Bunda qaratqich kelishigi qo'shimchasi ergash so'zni bosh so'zga, egalik qo'shimchasi bosh so'zni ergash so'zga bog'laydi: *ukamning kitobi*. Bunday birikma a'zolari shaxs va sonda moslashadi. Ega va kesim ham moslashuv usuli yordamida bog'lanadi: *Men ketdim*. Lekin u gap bo'lganligi uchun so'z birikmasi doirasida o'rganilmaydi. Moslashuvda ba'zan qaratqich kelishigi yoki

egalik qo'shimchasi tushirilishi mumkin: *maktab hovlisi, bizning maktab. U* baribir moslashuv deyilaveradi.

**Bitishuv.** Ergash so'zning bosh so'z bilan grammatik vositasiz, faqat ma'no jihatdan yoki so'z tartibi yordamida birikishi bitishuv deyiladi. Bitishuvda doimo ergash so'z avval, bosh so'z keyin keladi: *tiniq suv, katta ko'cha*. Ularning o'zni o'zgartirilsa, gap hosil bo'ladi: *Suv tiniq. Ko'cha katta*. Bitishuvda ergash so'z vazifasida shu vazifaga xoslangan sifat, ravish hamda ular vazifasidagi boshqa so'z keladi: *qizil gul, tez yurmoq, tilla bilaguzuk, bunday odam, o'qigan odam, jo'shib kuylamoq*. Bosh so'z ot va fe'l turkumidan iborat bo'ladi. Esda tutish kerakki, *birga o'qish, birdan gapirish, qunt bilan tinglash, zavq bilan kuylash, yolg'ondan gapirmoq* kabi birikmaning ergash so'zida o'rin-payt/jo'nalish/chiqish kelishigi qo'shimchasi yoki ko'makchi bo'lishiga qaramay, boshqaruvli emas, bitishuvli birikma sanaladi, chunki bu birikma tarkibidagi kelishik va egalik qo'shimchasi o'zidan oldingi so'z bilan "qotib" qolgan va so'zni bog'lashda hech qanday roli yo'q.

## SO'Z TARKIBI TAHLILI

So'z tarkibi tahlili (morfemik tahlil) – so'zlarni ma'noli qismlarga, ya'ni asos va qo'shimchaga ajratish va izohlash. Tartibi: 1. Ma'noli qismga ajratish. 2. Asos va qo'shimchani aniqlash. 3. Qo'shimchanning vazifasiga ko'ra turini aniqlash. 4. Qo'shimchanning tuzilishiga ko'ra, shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turi, o'zbekcha yoki o'zlashma ekanligi. 5. Qo'shimcha variantlari. 6. O'zakka qo'shimcha qo'shiluvda yuz bergan fonetik o'zgarish.

Namuna: *be-g'ayrat-lig-i-dan*

*g'ayrat* – asos, *be-*, *-lig*, *-i*, *-dan* morfema; *be-* – sifat yasovchi, *-lig* – ot yasovchi, *-i* – III shaxs, birlikdagi egalik shakli, *-dan* – chiqish kelishigi; *be-*, *-lig*, *-i*, *-dan* – tuzilishiga ko'ra sodda; *be-* sinonimlari *no-*, *-siz* (beumid, noumid, umidsiz), antonimlari *ba/bo-*, *-li*, *-dor* (beodob – boadob, beaql – aqlli, beunum-unumdor); *be-* fors-tojikcha, *-lig*, *-i*, *-dan* – o'zbekcha; *-i* – shakldoshi: *-i<sub>1</sub>* (*tinchi*) fe'l yasovchi, *-i<sub>2</sub>* (*do'zaxi*) sifat yasovchi; *-lig* – fonetik variant, asli *-lik*, *-dan* – *tan/nan* – dialektik varianti; *-lik* morfemasida egalik shakli ta'sirida jarangsiz tovushning jaranglilashuvi yuz bergan.

## SO'Z TURKUMLARI

So'z turkumlari – so'zlarning ma'noviy va grammatik umumiyliklariga ko'ra guruhlar. O'zbek tilida so'zlar eng umumiy belgilariga ko'ra dastlab uch guruhga ajratiladi:

**Mustaqil so'z turkumi:** ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish.

**Yordamchi so'z turkumi:** ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

**Alohida olingan so'zlar turkumi:** modal, undov, taqlid, taklif, tasdiq va inkor.

**Mustaqil so'zlar** olamdagi narsa, hodisa, belgi, miqdor, harakat, holat kabini ataydi, ya'ni mustaqil lug'aviy ma'noga ega, so'roq oladi. Mustaqil so'z turkumi

sirasida faqat olmosh predmet-hodisa, belgi va miqdorni bildiradi olmaydi, balki unga ishora qiladi.

**Yordamchi soʻz** gap boʻlagi va qoʻshma gap tarkibidagi sodda gapni oʻzaro bogʻlaydi yoki ularga qandaydir qoʻshimcha maʼno yuklaydi. U lugʻaviy maʼnoga ega emas, soʻroqqa javob boʻlmaydi va yakka holda gap boʻlagi boʻlib kelmaydi.

**Alohida soʻzlar** nisbiy mustaqil lugʻaviy maʼnoga ega. Ular goho soʻroqqa javob boʻlsa ham, oʻzining maxsus soʻrogʻiga ega emas. Gapda qandaydir sintaktik vazifani bajaradi. Lekin har biri oʻziga xos umumiy xususiyati bilan alohida-alohida turkumni tashkil etadi.

Mustaqil soʻzning qaysi turkumga kirishini aniqlash - soʻroq berish asosida. Har bir turkumning oʻz soʻroq tizimi bor. Ammo birdan ortiq turkumga xos umumiy soʻroq ham mavjud. Mas., *qanday* soʻrogʻi sifat, ravish va otga, *nima* soʻrogʻi ot, olmosh, taqlid, harakat nomiga ham xos. Ot esa sifat va ravish vazifasida kelganda uning soʻrogʻiga javob boʻladi: *yogʻoch qoshiq – qanday qoshiq?, takror aytmoq – qay tarzda aytmoq?*

Sifatning soʻrogʻiga sifat oʻrnida qoʻllanuvchi olmosh, feʼlning sifatdosh shakli, sifat vazifasida kelgan ot, taqlid va modal ham javob boʻladi. Sifat otlashib, otning soʻrogʻini olishi mumkin.

Demak, mustaqil soʻz turkumiga xos soʻroqni olish bilan birga, birdan ortiq turkumning umumiy soʻrogʻi borligini ham esda tutish lozim.

Soʻzning soʻroqqa javob boʻlolmasligi uning sof yordamchi yoki yordamchi vazifasidagi soʻz ekanligini koʻrsatadi.

Soʻz turkumlarining morfologik belgisi – uning qanday grammatik qoʻshimchani qabul qila olishi. Mas., ot turkumi birlik va koʻplik, egalik va kelishik qoʻshimchasini, sifat va ravish daraja koʻrsatkichini, feʼl nisbat, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi qoʻshimchasini oladi.

Soʻz turkumlarining yasaliş bilan bogʻliq belgisi – har bir yasaluvchi turkumning oʻziga xos yasovchi qoʻshimchasi borligi. Mas., *-li* sifat, *-chi* ot, *-la* feʼl, *-ona* ravish yasaydi. Olmosh va sonda yasovchi qoʻshimcha yoʻq.

Soʻzni tasniflash uchun, avvalo, har birining atash maʼnosini emas, balki umumiy maʼnosini hisobga olish kerak. Mas., ot predmet, sifat predmet belgisi, ravish harakat belgisi, son aniq miqdor, feʼl ish-harakat va holat maʼnosiga ega.

Soʻzning maʼnoviy, morfologik, sintaktik, yasaliş belgisi quyidagi jadvalda berilgan:

| №  | Soʻz turkumi | Maʼnoviy belgisi                 | Morfologik belgisi                                                         | Sintaktik belgisi         | Yasaliş belgisi |
|----|--------------|----------------------------------|----------------------------------------------------------------------------|---------------------------|-----------------|
| 1. | feʼl         | harakat va holat ifodalaydi      | nisbat, harakat tarzi, zamon, mayl, harakat tarzi, boʻlishli-boʻlishsizlik | gap boʻlagi boʻlib keladi | yasaladi        |
| 2. | Ot           | shaxs, predmet, oʻrin ifodalaydi | son, kichraytirish-erkalash                                                | gap boʻlagi boʻlib keladi | yasaladi        |
| 3. | Sifat        | predmet belgisini                | daraja                                                                     | gap boʻlagi boʻlib keladi | yasaladi        |

|     |            |                                                   |                                                      |                                                          |            |
|-----|------------|---------------------------------------------------|------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------|------------|
|     |            | ifodalaydi                                        |                                                      |                                                          |            |
| 4.  | Son        | miqdor ifodalaydi                                 | tartib, dona, chama, jamlovchi, taqsim shakli        | gap bo`lagi bo`lib keladi                                | yasalmaydi |
| 5.  | Ravish     | harakat belgisini ifodalaydi                      | lug`aviy shakli yo`q                                 | gap bo`lagi bo`lib keladi                                | yasaladi   |
| 6.  | Taqlid     | tovush yoki ko`rinishga taqlid ifodalaydi         | lug`aviy shakli yo`q                                 | gap bo`lagi bo`lib keladi                                | yasalmaydi |
| 7.  | Olmosh     | barcha mustaqil so`z turkumi ma`nosini ifodalaydi | barcha mustaqil so`z turkumi lug`aviy shaklini oladi | gap bo`lagi bo`lib keladi                                | yasalmaydi |
| 8.  | ko`makchi  | lug`aviy ma`noga ega emas                         | lug`aviy shakli yo`q                                 | so`zni so`zga tobelab bog`laydi                          | yasalmaydi |
| 9.  | bog`lovchi | lug`aviy ma`noga ega emas                         | lug`aviy shakli yo`q                                 | so`zni so`zga teng, gapni gapga teng va tobe bog`laydi   | yasalmaydi |
| 10. | yuklama    | lug`aviy ma`noga ega emas                         | lug`aviy shakli yo`q                                 | gap bo`lagi vazifasida kela olmaydi                      | yasalmaydi |
| 11. | Modal      | munosabatni atash                                 | lug`aviy shakli yo`q                                 | so`z-gap bo`lish, gap bo`laklari bilan bog`lana olmaslik | yasalmaydi |
| 12. | Undov      | his-hayajonni tasvirlash                          | lug`aviy shakli yo`q                                 | so`z-gap bo`lish, gap bo`laklari bilan bog`lana olmaslik | yasalmaydi |

## SO`Z TURKUMLARI KO`CHISHI (TRANSPOZITSIYA)

So`z turkumlari orasida ko`chish hodisasi – muayyan bir turkumga mansub so`zning boshqa turkumga xos ma`noviy va sintaktik belgiga ega bo`lishi. O`zbek tilida boshqa turkumga ko`chgan yoki ko`chishga shay turgan so`zlar talay, bu so`zning ayni paytda qaysi turkumga kirishini aniqlashda qiyinchilik tug`diradi. Shuning uchun:

a) vaqtincha boshqa turkum vazifasini bajarish;

b) butunlay boshqa turkumga ko`chish farqlanadi.

Vaqtincha boshqa turkum vazifasini bajarish nutqiy, bunda nutqiy ko`chma ma`no ifodalanadi. Mas., *Birni ko`rib fikr qil, birni ko`rib shukur qil* gapida son turkumiga mansub bir so`zi vaqtincha ot turkumi vazifasida kelmoqda.

Butunlay ko`chishda so`z bir turkumdan boshqa turkumga butunlay o`tib ketadi. Butunlay ko`chish deyarli barcha mustaqil so`zlar doirasida, hatto yordamchi so`zlarda ham kuzatiladi:

1. Otga o'tgan: a) s i f a t : *yigit, qiz, o'g'il, qari, er, xotin, ko'r, issiq-sovuq* (issiq-sovug'idan xabar olmoq), *achchiq-chuchuk, yosh- qari, yosh-u qari, quyuq-suyuq, ko'k* (osmon, nasha, dollar) ("siyoh" so'zi ham aslida sifatdan ko'chgan); b) f e ' l : *yel, shish, yuq, ich, ko'ch, qir, chaqirdi, chorladi, ko'rdi, keldi-ketdi, qo'ydi-chiqdi, oldi-berdi, oldi-sotdi; mindi-mindi* (bolalar o'ynining nomi), *bordi-keldi, keldi-ketdi, oldi-berdi, ur-yiqit, ur-sur, baqir-chaqir, yasan-tusan, supur-sidir, yugur-yugur oldi-qochdi* (gap), *kuydi-pishdi* (ayol), *iliguzildi* (vaqt), *ichakuzdi* (hangomalar), *supraqoqdi* (farzand, ya'ni so'nggi farzand) kabi sodda, qo'shma, juft va takroriy fe'l; b) f e ' l n i n g harakat nomi shakli: *kengash, kurash, o'qish, yozish, o'tmish, qilmish, qidiruv, o'ynash, saylov, ishlov, qurshov, qatnov, qistov, tanlov, tintuv, maqtov, tergov, to'lov, o'quv, chanqov, qalov, qarov, to'ntarish, o'zgarish, qiziqish, o'qish, o'tirish, qarash* (vzglyad), *muyulish//burilish, burilish* ("o'zgarish" ma'nosida), *yozuv-chizuv, yurish-turish, borish-kelish, bosar-tusar, ko'rolmaslik, kiraverish*; v) f e ' l n i n g sifatdosh shakli: *o'qituvchi, bog'lovchi, kuzatuvchi*; g) s o n : *uch, yetti, yigirma, qirq, to'qqiz*; d) t a q l i d : *ququ* (qush), *dudut* (engil mashina), *popop* (asli: pop-pop tikuv mashinasi), *tutu* (tovuq), *patpat* (mototsikl), *shapshap* (magazkushak), *shaqshaq* (qushning nomi).

2. Sifatga o'tgan: a) f e ' l : *daydi, qari, och, chalkash, yanglish, tutash, aralash*. b) f e ' l n i n g sifatdosh shakli: *kelajak, bo'lajak*; v) o t : *tilla, kumush, taxta* (tilla uzuk, asal bola), *mosh-guruch, yo'l-yo'l, rang-barang, xilma-xil*. g) o l m o s h : *manman*.

3. Olmoshga o'tgan: a) o t : *odam, kishi, inson* (zerikib ketdi odam (men), hayron qolasan kishi (men), dardimni eshitadigan inson (hech kim) topilmadi); b) s o n : *bir* (bir kishi (kimdir)); v) s i f a t : *ba'zi* (ba'zilar (allakimlar) unday deydi, ba'zilar bunday).

4. Ravishga o'tgan: a) f e ' l n i n g sifatdosh shakli: *charchamasdan* (ishlaysan), *o'ylamasdan* (gapirdi), *indamasdan, bilinar-bilinmas*; b) f e ' l n i n g ravishdosh shakli: *osha, o'ta, ura, qayta, qo'yarda-qo'ymay, ura-sura*; v) o t : *erta, indin, kecha, kech, kechqurun, savat-savat, navbatma-navbat*.

5. Yuklamaga o'tgan: a) s o n : *bir*; b) s i f a t : *yakka, yolg'iz*.

6. Modalga o'tgan: a) o t : *haqiqatdan, chamasi, mazmuni*; b) s i f a t : *yaxshi, so'zsiz, tuzuk, to'g'ri, tabiiy*; d) o l m o s h : *qani, qalay*;

7. Bog'lovchiga o'tgan: a) s o n : *bir*; b) r a v i s h : *ba'zan*; b) y u k l a m a : *ham*; d) k o ' m a k c h i : *bilan*.

8. Ko'makchiga o'tgan: a) o t : *ost, ust, old, orqa, tomon, tag, tepa, ich, ora, qosh, lab, yoqa, og'iz*; b) f e ' l n i n g ravishdosh shakli: *qarab, boshlab, ko'ra, deya, deb, o'xshab*; d) s i f a t : *tashqari, boshqa, bo'lak, o'zga*; e) r a v i s h : *avval, oldin, ilgari, keyin, so'ng*.

Sanalganning ayrimi bugungi kunda boshqa turkumga butunlay o'tib bo'lgan bo'lsa, ayrimi hali o'tish bosqichida. Mas., mavjud grammatikalarda son turkumining tasnifiy belgisi sanalar ekan, predmetning sanog'i, tartibini bildirishi, *qancha, nechta, nechanchi* so'rog'idan biriga javob bo'lishi, ot turkumiga mansub so'z bilan erkin aloqada bo'lishi va gapda, asosan, sifatlovchi aniqllovchi vazifasida kelishi ta'kidlanadi. Jamlovchi son shakli bu talabga to'la javob berolmaydi. Ayni paytda jamlovchi sonning -ov, -ala, -ovlon, -ovlab, -ovlashib shakli ajratiladi. Qayd etilgan shakldan -ovlab, -

*ovlashib* shakli, bizningcha, jamlovchi son shakli emas, balki jamlovchi son dan yasalgan fe'lning ravishdosh shakli: *ikki+ov+lash+ib*.

Asosiy shakl sifatida *-ov*, *-ala*, *-ovlon* ko'rsatkichlari ajratilishi mumkin. Ma'lumki, bundan *-ov*, *-ala* shakli boshqa son ma'no turidan farqlanib, deyarli har doim egalik shakli bilan qo'llanadi. *-ovlon* shaklli jamlovchi sonning atash ma'nosi bugungi kunda miqdor emas, balki «qanchadir miqdordagi shaxs» deb qaraladi: *Oltovlon* (olti kishi)*ola bo'lsa, og'zidagin oldirar*. *-ov*, *-ovlon* shakli barcha sonlar kabi ot bilan birikmaydi, gapda sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelmaydi, sonning so'rog'iga javob bo'lmaydi, barcha son o'zaklaridan jamlovchi son hosil qilinmaydi. U ko'proq otga xos belgiga ega. *-ala* shakli esa sonlik belgisini ham o'zida birmuncha saqlab turibdi: *uchala bola ham qo'shni qishloqdan ekan*. Jamlovchi son shaklidagi ma'no taraqqiyoti quyidagicha:

*-ala -ov -ovlon*

Ko'rib o'tilganidek, bular orasida *-ala* shaklida sonlik belgisi birmuncha saqlangan, *-ovlon* shaklida otlik belgisi kuchaygan. *-ov* shaklida sonlik ham, otlik ham mushtarak. Demak, jamlovchi sonning *-ov* va *-ovlon* shakllari ayni paytda otga ko'chishni «boshidan kechirmoqda».

## SO'Z YASALISHI

So'z yasash – yangi so'z hosil qilish. O'zbek tilida to'rtta mustaqil so'z turkumi – ot, sifat, fe'l, ravish yasalishi tan olinadi. Yasama son va olmosh tilda mavjud emas. So'z yasalishining tarixiy va zamonaviy turi farqlanadi. **Zamonaviy so'z yasalishida** yasama so'zning o'zakka aloqasi sezilib turadi. Mas., *kitobxon* so'zi *kitob* so'zi bilan, *ishchi* so'zi *ish* so'zi bilan, *gulla* so'zi *gul* so'zi bilan aloqadorligi ko'rinib turibdi. **Tarixiy yasalishda** yasama so'zning o'zakka aloqasi sezilmaydi. Bu maxsus tekshirish natijasida aniqlanadi. Mas., *qishloq*, *ovloq* so'zini *qish*, *ov* so'ziga bog'lab bo'lmaydi. Chunki u tarixiy yasalishga oid. *Qorovul*, *yasovul*, *silliq* so'zida ham shu hol kuzatiladi. Darslikda so'z yasalishining quyidagi usuli e'tirof etiladi: a) **qo'shimcha qo'shish usuli** (affiksatsiya yoki morfologik usul); b) **so'z qo'shish usuli** (kompozitsiya yoki sintaktik usul). Tilshunoslikka oid boshqa har xil manbada bundan boshqa usul borligi ham aytiladi: a) **boshqa turkumga ko'chirish usuli** (konversiya); b) **so'zni yangi ma'noda qo'llash usuli** (semantik yoki leksik-semantik usul); v) **tovushni o'zgartirish usuli** (fonetik usul); g) **so'zni qisqartirish usuli** (abbreviatsiya). Sh. Shoabdurahmonov, M. Asqarova, A. Hojiyev va boshqalarning “Hozirgi o'zbek adabiy tili” darsligida so'z yasashning qisqartirish (abbreviatsiya) usuli ham bor deyiladi. (Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили: педагогика институтлари филология факультети студентлари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1980. – Б. 186. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили: ўзбек филологияси бакалаври ихтисослиги учун қўлланма. – Бухоро, 2005. –Б. 136.) E. Qilichevning “Hozirgi o'zbek adabiy tili” o'quv qo'llanmasida esa bu usul keltirilmaydi. Demak, bu usul munozarali. So'z yasalganda, yangi lug'aviy ma'no vujudga kelishi lozim. Qisqartma so'zda bunday hol kuzatilmaydi. Mazkur darslik va qo'llanmada qayd etilgan sintaktik-leksik usulda so'z birikmasining vaqt o'tishi bilan qo'shma so'zga aylanishi nazarda tutiladi: *tokqaychi*, *qashqargul*, *mingboshi*, *jo'xoripoya*, *yengiltabiat*,

*kaltafahm* kabi. Ko`rinadiki, bunday so`z yasalishi so`zni so`zga qo`shish, ya`ni sintaktik usuldan farq qilmaydi: *erksevar, belbog`, tomorqa, boshpana, asalari, tuyaqush, oybolta, qo`ziqorin, xushfe`l*. Demak, bu ikki usulni birlashtirib, so`zni qo`shib so`z yasash (kompozitsiya, sintaktik) usuli deyish mumkin. Fonetik usul deganda so`z tarkibidagi tovushni o`zgartirish orqali yangi so`z yasash tushuniladi. Bunda so`z boshqa turkumga ko`chishi ham mumkin: *ko`r* (fe`l) – *ko`z* (ot), *qattiq* (sifat) – *qatiq* (ot), *semir* (fe`l) – *semiz* (sifat), *oyoq* (ot) – *yayov* (ravish), *artmoq* (fe`l) – *archmoq* (fe`l).

**So`z yasalishi tahlili.** So`z yasalishi tahlili – so`zlarning yasalish turi, usuli va xususiyatini aniqlash. Tartibi quyidagicha: 1. So`z yasash qolipi aniqlanadi. 2. Qolip hosilasining nutqiy, lisoniylashayotgan yoki lisoniylashganligi aniqlanadi. 3. So`z yasovchi morfemalar aniqlanadi.

Namuna: *Bilimdonlik*

(fe`l) + (im) = asosdan anglashilgan harakat natijasini atash: *bilim, terim, tinim, o`rim, to`plam*; unumli lisoniy qolip, fe`ldan ot yasalmoqda; (ot) + (don) = asosdan anglashilgan narsaga egalikni bildirish: *gapdon, bilimdon*; kam unum lisoniy qolip, otdan sifat yasalmoqda; (sifat, ravish) + (lik) = asosdan anglashilgan belgi bilan bog`liq holatni atash: *mardlik, tezlik, xursandlik*; unumli lisoniy qolip, sifatdan ot yasalmoqda; Bir o`zakdan uch marta so`z yasalgan.

## SO`ZNI QO`SHIB SO`Z YASASH

Ikki mustaqil so`zning birikib yasalishidan qo`shma, juft va takroriy so`z hosil bo`ladi.

Q o ` s h m a   s o ` z : *sadarayhon, sotib oldi, tuyaqush, soddadil, biroz, bir nafas, birpas*.

J u f t   s o ` z : *qozon-tovoq, achchiq-chuchuk, achchiq-tiziq, bola-chaqa, katta-kichik*;

Juft so`z yangi lug`aviy ma`no anglatrsa, yasama so`z hisoblanadi: *bordi-keldi* (aloqa), *issiq-sovuq* (ahvol), *quyuq-suyuq* (ovqat). Mas., *chol-kampir* so`zining ma`nosi *chol* va *kampir*, *aka-uka* so`zining ma`nosi *aka* va *uka*, *asta-sekin* so`zining ma`nosi *asta* va *sekin* so`zining alohida-alohida atash ma`nosidan farqlanmaydi. Demak, bular yasama so`z emas.

T a k r o r i y   s o ` z : *ququ* (qush), *dudut* (yengil mashina), *popop* (asli: pop-pop, tikuv mashinasi), *tutu* (tovuq), *patpat* (mototsikl), *shapshap, es-es, ko`z-ko`z, qop-qop, tez-tez, tog`-tog`, yo`l-yo`l, yor-yor, izma-iz*.

Qo`shma, juft, takroriy so`zning hosil bo`lishi kompozitsiya usulida, lekin undan so`z yasovchi qo`shimcha qo`shib yangi so`z yasalsa, qo`shimcha qo`shish usuli ham yuzaga chiqadi: *nom-nishonsiz, dom-daraksiz, orzu-havasli, og`a-inigarchilik, pirpirak, pirpiramoq, po`sht-po`shtlamoq, sarson-sargardonlik, son-sanoqsiz, uy-joyli, gijgijlamoq, hayhaylamoq, qarindosh-urug`chilik, haybarakallachi, vaqtichog`lik, boshpanasiz* kabi. Demak, bir so`zda ikki yasalish usuli ham voqelanishi mumkin.

## SO`ZNING SHAKL VA MA`NO MUNOSABATIGA KO`RA TURI

Soʻz maʼno munosabatiga koʻra **maʼnodosh, zid maʼnoli, uyadosh, butun-boʻlak, tur-jins munosabatidagi** soʻzga, shakl munosabatiga koʻra esa **shakldosh** va **talaffuzdosh** soʻzga boʻlinadi.

# T

## TAQLID SOʻZ

Taqlid – mustaqil soʻz turkumi sirasida 6-oʻrinni egallaydigan, oʻzgarmas soʻz turkumi.

**Maʼnoviy xususiyati.** Kishi, jonli va jonsiz predmet, hodisa chiqaradigan tovush va uning turli holatiga taqlidni ifodalovchi soʻz taqlid soʻz deyiladi. Taqlid soʻz *qanday* soʻrogʻiga, otlashsa, *nima* soʻrogʻiga javob boʻladi.

**Morfologik belgisi.** Oʻzgarmas soʻz. Egalik va kelishik shaklini oladi: *taqir-tuquri, gʻovur-gʻuvurni*; yasalish xususiyatiga ega emas, ammo boshqa turkum yasalishiga xizmat qiladi: *jizza* (ot), *sharros* (sifat), *yaltira* (feʼl), *tappa, chippa* (ravish);

**Sintaktik belgisi.** **Taqlid soʻz** sintaktik vazifasiga koʻra sifat va ravishga yaqin turadi va soʻrogʻiga javob boʻladi: 1) sifatlovchi-aniqllovchi: *Gangir-gungir suhbatga quloq solib oʻtirdi. Dahlizdan shivir-shivir ovoz eshitildi.* 2) tarz holi: *Olmalar duv-duv toʻkildi. Alamidan piq-piq yigʻlar edi. Shamol gʻir-gʻir esmoqda;* 3) ot-kesim: *Miyangda aql gʻij-gʻij. Bu yogʻi gij-badabang ekan-da.*

Otlashganda: 1) ega: *Shivir-shivir tindi;* 2) qaratqich-aniqllovchi: *Qiy-chuvning boisi nima ekan-a?* 3) toʻldiruvchi: *Etigining gʻarchini pasaytirish uchun oyoq uchida yurib keldi.*

**Taqlid soʻzlarning maʼno turlari.** Taqlid maʼnosiga koʻra 2 ga boʻlinadi:

1) **tovushga taqlid:** *ak-ak, ang-ang, ar-ar, afshu, baka-bang, baqir-buqur, bagʻ-bugʻ, biq-biq, bit-bidiq, vang-vang, vov-vov, gangir-gungur, gijbang, guv* (shiddatli, boʻgʻiq tovush), *guldur, gurs, jaz-buz, jiz-biz, inga-inga, miyov-miyov, patir-putur, tapara-tapar, taraqa-turuq, tars, tars-turs, tars-tars, tasira-tusur, taqir-tuqur, taq-taq, taq-tuq, tiq-tiq, xir-xir, xur-xur, chak-chak, chalp-chulp, chilp-chilp, choʻlp-choʻlp, chirs-chirs, chars-churs, shapir-shupur, qars, qars-qars, qars-qurs, qart-qurt, qasir-qusur, qa-qaq, qiy-chuv, qisir, gʻarch, gʻarch-gʻurch, gʻat, gʻat-gʻat, gʻiz, hingir-hingir, hoʻngir-hoʻngir;*

2) **holat (obrazga) taqlid:** *atak-chechak, alang-jalang, bij-bij, bijir-bijir, vij-vij, vijir-vijir, gar-gar, gir-gir* (aylanmoq), *guv-guv, gup, dik, dik-dik, dikir-dikir, duv-duv, jimir-jimir, jilpang-jilpang, zirq-zirq, yilt-yilt, lapang-lapang, lim-lim, limmo-lim, lov-lov, lop, loʻq-loʻq, milt-milt, moʻlt-moʻlt, pildir-pildir, shart-shurt, yum-yum* (yigʻlamoq), *sim-sim* (ogʻrimoq), *yalt, yalt-yalt, yalt-yult, yaraq, yarq, gʻij-gʻij* (aql), *gʻim-gʻij, gʻir-gʻir* (esmoq), *hang-mang, hil-hil* (pishmoq).

**Taqlid soʻzlarning tuzilishiga koʻra turlari.** Taqlidlar tuzilishiga koʻra sodda, juft va takroriy boʻladi:

1) sodda: *shigʻ, duv, dik, lop, yalt, shuv, tiq; tiqir, liking, shigʻir, jarang;*

2) juft: *g`arch-g`urch, taq-tuq, tars-turs, vag`ir-vug`ur, sholop-shulup; g`ivir-shivir, chirt-pirt, g`ing-ping; alang-jalang, apir-shapir; gij-badabang, qiy-chuv;*

3) takroriy: *guv-guv, duv-duv, zir-zir, lipir-lipir, miyov-miyov, cho`lp-cho`lp, qirt-qirt; taqa-taq, tasira-tusir, gurso-gurs, shaqa-shaq; g`irra-g`irra, guppa-guppa, shartta-shartta; bij-bij, vij-vij, dag`-dag`, jav-jav* (oxirgi guruhning qismlari yakka qo`llanmaydi).

Taqlid q o` s h m a s h a k l da bo`lmaydi. Ular *etmoq, demoq, qilmoq* yordamchi fe`li bilan birikib, q o` s h m a f e`l hosil qiladi: *dik etmoq, shir etmoq, mo`o` demoq, tiqir qilmoq, g`iz etmoq.*

**Taqlid so`z turkumi tahlili.** Taqlid so`z turkumi tahlili – taqlidning turlari va uning xususiyatini aniqlash. Tartibi quyidagicha: 1. Lug`aviy mazmuniy guruhini aniqlash. 2. Morfologik tarkibi. 3. Sintaktik shakllarga munosabati. 4. Tuzilishiga ko`ra turi. 5. Gapdagi vazifasi.

Namuna: *Zerikkanimdan partadosh qizlarning shivir-shiviriga quloq tutdim.*

Ovozga taqlidni bildiradi; *shivir-shivir-i-ga; -i* I shaxs birlik, *-ga* jo`nalish kelishigi; takroriy so`z, to`ldiruvchi.

## TARIXIY SO`Z

Tarixiy so`z – hozirgi o`zbek adabiy tilida qo`llanuvchi o`tmishga oid, iste`moldan chiqib ketgan narsa-hodisani bildiradi: 1) ijtimoiy-siyosiy nom: *podsho, xon, qul, quloq, batrak, qarol, chorikor;* 2) mansab, amal, unvon nomi: *qozi, amin, bek, amir, arbob, udaychi, g`unchachi, shotir, zakotchi;* 3) buyum nomi: *qalqon, dubulg`a, sovut, charx, duk, halaj, kajava, foytun, diliyon, kashkul;* 4) o`lchov, pul birligi nomi: *botmon, dirham, miri, paqir, qadoq, tanob arshin;* 5) kiyim-kechak nomi: *kuloh, choriq, paranji, chachvon, qalami, hirqa;* 6) hujjat nomi: *vasiqa, sanad, taraka xati, vaqfnoma;* 7) maorif atamasi: *mudarris, xalfa, haftiyak.*

Tarixiy so`z bildiradigan narsa-hodisa iste`moldan chiqib, o`tmish voqeligiga aylanganligi sababli, uning ko`pchiligi hozirgi davr kishisi uchun notanish bo`lishi mumkin. Ayrim ko`p ma`noli so`zning ba`zi ma`nosi tarixiylashib, boshqasi saqlanib qoladi. Mas., *millat* so`zining *Millatingni ayt:* – *Ibrohim Xalilulloh millati* gapida voqelangan «biror dinga mansublik» tarixiy ma`nosi eskirgan.

Tarixiy va arxaik birlikning muhim belgisi:

1) arxaik so`z hozir mavjud narsaning, tarixiy so`z – o`tmish narsa-hodisasi atamasi;

2) arxaizmning hozirgi tilda ma/nodoshi mavjud, tarixiy so`zda esa yo`q;

3) tarixiy so`z narsa/hodisaning yakka nomi, arxaik so`z birdan ortiq nomning biri.

## TARIXIY-AN`ANAVIY YOZUV

Tarixiy-an`anaviy yozuv – so`zning hozirgi talaffuz me`yoriga mos kelmasa-da, qadimdan o`zlashib qolgan shaklda yozishga asoslangan imlo tamoyili. Boshqacha aytganda, so`z hozirgi holatiga ko`ra emas, balki an`ana tusiga kirib qolgan qoidaga ko`ra yoziladi: *Chor Rossiyasi* (asli *царь*), *pudratchi* (asli *подрядчик*), *tamagir* (asli *та`magir*), *taqiqlamoq* (asli *та`qiqlamoq*) kabi. Hozirgi orfografiyada tarixiy-an`anaviy

yozuv asosida yoziluvchi ba'zi shakl quyidagilar: 1. Buyruq-istak mayli eski adabiyotimizda qo'llanib kelgan an'anaga ko'ra, she'riyat va nasr tilida ba'zan *-gil*, *-g'il* tarzida ishlatiladi: *borgil* // *borg'il*. 2. Maqsad ma'nosini anglatuvchi *-gani* shaklining *-gali*, *-g'ali*, *-kali*, *-qali* shakllari. 3. Hozirgi-kelasi zamon sifatdash shaklini yasovchi *-ur* shakli:

*Yulduzlar o'tiga bardosh berurman*

*Fazolar taftiga qilurman toqat.* (A.Orip.)

4. *-mu* so'roq yuklamasi:

*Sevgini tortib bo'lurmu*

*Toshu tarozi bilan.* (E.Voh.)

## TASDIQ-INKOR

Tasdiq-inkor shakllari – odatda gap kesimiga aloqador, harakatning yuz berish/yuz bermasligini bildirish shakli. Kesim tasdiq yoki inkor shaklda bo'lishi shart.

Tasdiq quyidagicha ifodalanadi:

1) nol shakl orqali – *O'qiyman. Keldim*;

2) ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasining har ikki qismiga inkor qo'shimchasini qo'shish orqali (*aytmay qo'yma, yozmay turma, kelmay qolmayman*);

3) faqat ohang yordamida (kinoya) – *Bormaysan-a, bormaysan!*

Inkor esa quyidagi shakllar yordamida hosil qilinadi:

1) *-ma* eng ko'p qo'llanadigan shakl: *o'qi – o'qima, keldi – kelmadi, borgan – bormagan, yuryapti – yurmayapti, to'xtabdi – to'xtamabdi* kabi. U *-mas*, *-may*, *-maslik* ko'rinishiga ham ega: *aytmas (so'z), aytmay, aytmaslik*;

2) *emas* fe'l-kesimdagi *-gan/kan/qan* va *-moqchi* qo'shimchasidan va ismdan keyin kelib, bo'lishsiz shaklni hosil qiladi: *kelgan – kelgan emas, borganman – borgan emasman, o'qimoqchisan – o'qimoqchi emassan*.

3) *yo'q* modal so'zi *gan/kan/qan* va *yotgan/ayotgan* qo'shimchali fe'lning kesimdagi bo'lishsiz shaklini vujudga keltiradi. Bunda egalik shakli ham qo'shiladi: *Borgani yo'q. Aytayotganim yo'q*;

4) *na* inkor yuklamasi yordamida ham ifodalanadi: *Bugun na o'qidim, na yozdim*.

5) faqat ohang (kinoya, piching asosida) orqali ham voqelanadi: *Borasan-a, borasan! Borib bo'libsan!*

**Bo'lishli-bo'lishsizlik** va tasdiq-inkorni farqlash kerak. Fe'l kesimdan boshqa vazifada kelganda bo'lishli-bo'lishsizlikka ega bo'ladi: *o'qigan bola – o'qimagan bola* kabi. Bo'lishli-bo'lishsizlik faqat kesimdan boshqa vazifadagi fe'lga, fe'lga, tasdiq-inkor kesim vazifasidagi barcha mustaqil so'z turkumiga xos.

## TASVIRIY IFODA

Tasviriyl ifoda – predmet, voqea va hodisani o'z nomi bilan emas, balki muhim xususiyatini tasvirlash orqali ifodalovchi birikma: *oq oltin – paxta, oq oltin ijodkori – paxtakor, kumush tola – pilla, zangori kema kapitani – mexanizator* va hokazo.

Tasviriyl ifoda uslubiy vosita sifatida nutqqa ko'tarinkilik, obrazlilik baxsh etadi, jamiyat taraqqiyoti talabidan kelib chiqib, lug'at tarkibini boyitadi. Nutq jarayonida

takror va qaytariqdan qochish imkonini beradi, notiqni soʻzamollikka, tinglovchini esa falsafiy mushohada etishga undaydi. Shuningdek, tasviriy ifoda faqat jozibadorlik va obrazlilik, nutqni boyitish, uning mazmunini kuchaytirish uchungina emas, balki jamiyatning olgʻa qadam qoʻyishiga toʻsqinlik qilayotgan illatni fosh qilish, undan kulish va unga qarshi kurashga chaqirish maqsadida ham ishlatiladi. Binobarin, tasviriy ifoda predmet, voqea-hodisaning oʻz nomi orqali yuzaga chiqmagan muhim xususiyatini tasvirlab, boʻrttirib, izohlab va toʻldirib koʻrsatishda muhim nutqiy vosita hisoblanadi.

Soʻz maʼnosining kengayishi va koʻchgan holda qoʻllanishi tilning, ayniqsa, lugʻat tarkibining boyligini oshiruvchi omildan biri. Soʻzni koʻchma maʼnoda qoʻllash – lugʻat boyligini koʻrsatuvchi, uslub ravonligi, ifoda mazmundorligini taʼminlovchi, obrazlilik yaratishga xizmat qiluvchi muhim vosita.

Tasviriy ifoda koʻproq ot va sifat turkumiga mansub. Baʼzan ikki predmetga bitta tasviriy ifoda (*aql gimnastikasi – matematika, shaxmat*) yoki bitta predmetga ikkita tasviriy ifoda qoʻllanishi (*zangori ekran, oynayi jahon – televizor*) mumkin.

## **TATAR TILI**

Tatar tili – turkiy tillarning biri. Rossiya Federatsiyasining Tatariston Respublikasida, Boshqirdiston, Chuvashiston, Mariy El, Udmurtiya, Moldaviya Respublikasi va koʻplab viloyatning ayrim tumanlarida, shuningdek, Markaziy Osiyoda va Ozarbayjon Respublikasida tarqalgan. Soʻzlashuvchilarning umumiy soni 7 million kishiga yaqin (XX asr oxiri). Sezilarli fonetik va morfologik tafovutga ega uch lahjasi bor: oʻrta, gʻarbiy (yoki mishar), sharqiy (yoki sibir tatarlari lahjasi).

Tatar tili fonetikasi 10 unli fonemaning mavjudligi, lab-tish v fonemasining, *ch* qorishiq undoshlarining yoʻqligi, baʼzi unlilar oʻrnining umumturkiy holatdan farqlanishi bilan ajralib turadi. Morfologiyasida analitik zamon shakllari, yetakchi feʼlning koʻmakchi fel bilan qoʻshilib harakatning davomiyligi, jadalligi, tugallangan-tugallanmaganligi kabi maʼnolarni ifodalashi keng tarqalgan. Leksikasida arabcha, forsha, ruscha va rus tili orqali oʻzlashgan baynalminal soʻzlar koʻp. Eski adabiy tatar tili yozma yodgorliklari XII asrga mansub. XIX asr oʻrtalaridan adabiy til xalq tili bilan yaqinlasha boshlaydi. Hozirgi adabiy tatar tili morfologik jihatdan fonetik va leksik jihatdan oʻrta lahjaga, morfologik jihatdan gʻarbiy lahjaga yaqin. Yozuvi 1927- yilda arab grafikasi, 1927–39- yilgacha lotin grafikasi, 1939- yidan boshlab rus grafikasi asosida shakllangan.

“Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi”dan

## **TERMINOLOGIK LUGʻAT**

Terminologik lugʻat – maʼlum bir sohaga tegishli soʻz (termin)ni izohlaydi. Terminologik lugʻat izohli yoki tarjima koʻrinishiga ega. Terminologik lugʻatni bir tilli va koʻp tilli lugʻatga ajratish mumkin. A.Hojiyevning «Tilshunoslik terminlarning izohli lugʻati» (Toshkent, “Oʻqituvchi”, 2003)dan olingan namunaga eʼtibor qiling:

“**Kriptologiya.** Maxfiy til, ularni tuzish qonuniyatini, rasshifrovka qilish usulini oʻrganuvchi fan.

**Ko`makchili aloqa.** So`zlar o`rtasida ko`makchi vositasida yuzaga keladigan aloqa: *qalam bilan yozmoq, uyga qadar yugurmoq* kabi.”

Tarjima lug`at bir tildagi atamaning boshqa tilda ifodalanishi, berilishini ko`rsatadi.

## TERS LUG`AT

Ters lug`at – so`zlarni teskari tomondan (oxiridan) alifbo tartibida joylashtirishga asoslangan lug`at turi. Bunday lug`at ham lingvistik lug`at, R.Qo`ng`urov va A.Tixonovlar tomonidan «Обратный словарь узбекского языка» nomi bilan 1969-yilda Samarqandda chop etilgan. Undan namuna keltiramiz:

*serxarajat*

*hujjat*

*xat-hujjat*

*behujjat*

*murojaat*

*hojat*

*muhofazat*

*ijozat*

*beijozat.*

## TIL

Til yordamida suhbatlashib, savol-javob qilinadi. Fikr til yordamida ifodalanib, uzatiladi. Ajdoddan ma`lumot olib, avlodga uzatamiz. Tilning eng muhim aloqa vositasi ekanligi shunda namoyon bo`ladi.

Insonning eng asosiy, boshqa jonzotdan farqlab turuvchi belgisi – ong va tilga egaligi. Til faqat insonga va jamiyatga xos bo`lgan hodisa. U bir kishi tomonidan emas, balki kishilik jamiyati tomonidan uzoq davr mobaynida yaratilgan. Shuningdek, til ayrim shaxsga emas, balki jamiyatga xizmat qiladi. Shuning uchun **til ijtimoiy hodisa** deyiladi.

**Tilning paydo bo`lishi.** Tilning paydo bo`lishi masalasi – azaliy mavzu. Biror tilning qachon paydo bo`lganini taxminan aytish mumkin. Mas., manbalarda o`zbek tili XV asrda shakllanib bo`lgan, boshqa turkiy tillardan ajralib chiqqan deyiladi. (Ne`matov H., Mahmudov N., G`ulomov A., Sayfullayeva R., Abduraimova M. Ona tili. 9- sinf uchun darslik. – T.: O`qituvchi, 2002. – B. 5.) Biroq, umuman insoniyatga xos tilning qachon paydo bo`lganini aniqlab bo`lmaydi. Chunki ma`lum bo`lgan tillarning yozuv tarixi 10–15 ming yildan nariga bormaydi. Olimlar esa tilning paydo bo`lishini yozma manba asosida belgilaydi.

Tilning paydo bo`lishi haqida olimlarning fikrini umumlashtirib, shuni aytish mumkinki, til bizga in`om etilgan so`zlash imkoniyati asosida kishilarning birga mehnat qilishi jarayonida boshqa kishi bilan aloqada bo`lish zaruriyati, ehtiyoji natijasida paydo bo`lgan. Til kishining bir-birini tushunishiga, yashash vositasini topish va yaratishda birlashishiga yordam bergan.

**Tildagi o'zgarish.** Bizni qurshab turgan olamdagi hamma narsa va hodisa kabi til ham muttasil rivojlanish va o'zgarishda. Buni shu tilning ikki davrdagi holati farqiga qarab bilish mumkin. Mas., eski o'zbek tili bilan hozirgi o'zbek tili orasidagi farq lug'at tarkibida ko'proq aks etganini sezish mumkin.

Ko'rinadiki, tildagi o'zgarish, asosan, lug'at jamg'armasida ko'proq namoyon bo'ladi, chunki xalq tarixida ro'y bergan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy o'zgarish tufayli yangi so'z kirib keladi, ayrimi chiqib ketadi. Mas., eski o'zbek tiliga xos *cherik* (askar), *o'kush* (ko'p), *talim* (bir qancha) singari so'z hozir qo'llanmaydi.

Shunday qilib, o'zbek tili lug'at tarkibi turmush uchun keraksiz bo'lib qolgan tushunchani bildiruvchi so'zning iste'moldan chiqib ketishi, yangi paydo bo'lgan tushunchani ifodalovchi so'zning esa kirib kelishi hisobiga doimo rivojlanib, boyib boradi.

**Tilning taraqqiy etishi.** O'zgarish tabiat-hodisalarigagina emas, tabiiyki, ijtimoiy hodisalarga, shu jumladan, til hodisalariga ham xos. Tarixiy taraqqiyot va o'zgaruvchanlik tilning hamma sathlariga xos. Kishilik jamiyati paydo bo'lgandan buyon til uzoq davrlar o'tishi bilan o'zgarib, boyib borgan. Ayni vaqtda til taraqqiyoti kishilarning turli-tuman tajribalarining takomillashishiga, bu tajriba-yu bilimlarning avloddan avlodga o'tishiga ham imkon bergan. Til taraqqiyoti natijasida fan, texnika, madaniyat taraqqiy qilgan, ya'ni kishilik jamiyati rivojlangan.

Tilning tarixiy taraqqiyoti va o'zgaruvchanligi jamiyat hayoti bilan bevosita bog'liq, ijtimoiy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar tilda aks etadi. Bu o'zgarishlar hammadan ko'proq tilning lug'at boyligida o'z ifodasini topadi. Yangi narsa-buyum, tushunchalarning paydo bo'lishi yoki, aksincha, narsa-buyum va tushunchalarning iste'moldan chiqib ketishi hammadan avval tilning lug'at boyligida o'zgarish bo'lishiga olib keladi. Chunonchi, Muqimiy (1850-1903) ning «Navbahor ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar» matlali g'azalidagi ayrim baytlarga e'tibor qarataylik:

*Xush bu mahfilda tiriklik ulfatu ahhob ila*

*O'ynashib, gohi tabiatni qilaylik chog'lar.*

*Hayfkim, ahli tamiz ushbu mahalda xor ekan,*

*Oldilar har yerda bulbul oshyonin zog'lar.*

Hozir Muqimiy davrida keng qo'llanilgan *mahfil*, *ulfatu ahhob*, *ahli tamiz* kabi juda ko'p so'z va so'z birikmalari iste'moldan chiqib, eskirgan so'zlarga aylangan. Muqimiy yashagan davrda tilimizda *patta*, *vistavka*, *gimnaziya*, *pech* kabi yangi-yangi so'zlar paydo bo'lgan bo'lsa, bu so'zlarning ko'pchiligi bizning davrimizga kelib eskirib qoldi. Tilning lug'at tarkibida yangi so'zlar, iboralar paydo bo'lishi, ayrim so'zlarning semantikasida o'zgarishlar yuz berishi, ba'zi so'zlarning eskirib qolishi barcha tillarga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlardan. Chunonchi, o'tgan asrning boshlari va o'rtalarida rus tilida paydo bo'lgan *bolshevizm*, *menshevizm*, *proletariat*, *syezd*, *kolhoz*, *sovxoz* *marksizm*, *leninizm*, *kommunizm* kabi ko'plab so'zlar hozirda eskirib iste'moldan chiqqan. Tilda sodir bo'layotgan o'zgarishlar so'zning tuzilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi, oqibatda u ham asta-sekin o'zgarib boradi. So'z strukturasining o'zgarishi turli tillarda turli yo'l bilan yuz beradi. Tilshunoslikda buning asosiy uch usuli qayd etiladi: **soddalashuv**, **qayta bo'linish** va **murakkablashuv**.

So'zlarni qo'shish yo'li bilan yasalgan qo'shma so'zlarning tub so'zlarga yoki o'zakka, ko'p morfemali so'zning bir morfemali so'zga o'tish hodisalari

soddalashuv deyiladi. Odatda, soddalashuv hodisasi soʻz oʻz «ichki tuzilish shakli»ni oʻzgartirganda, yaʼni morfemalar orasidagi chegara yoʻqolganda roʻy beradi. Ilmiy adabiyotlarda soddalashuv hodisasining sodir boʻlishiga asosan ikkita sabab borligi koʻrsatiladi:

1) u yoki bu morfemaning maʼnosi kuchsizlanishi, asta-sekin yoʻq boʻlib ketishi natijasida uning isteʼmoldan chiqib ketishi;

2) oʻzakdosh soʻzlar oʻrtasidagi aloqaning uzilishi.

Birinchi usulga oʻzbek tilidagi *qishloq*, *qovurgʻa*, *yuksak*, *qachon*, *boʻrsiq* soʻzlari, rus tilidagi *нужный*, *хижина*, *кольцо* soʻzlari misol boʻla oladi. *Qishloq* soʻzi aslida *qish+la* (feʼl yasovchi affiks) + *q* (ot yasovchi affiks) morfemalaridan; *qovurgʻa* soʻzi *qop+ur* (daraja koʻrsatuvchi affiks) + *gʻa* (ot yasovchi affiks) morfemalaridan; *yuksak* soʻzi *yuk+sa* (feʼl yasovchi affiks) + *k* (sifat yasovchi affiks); *qachon* soʻzi *qay*, *chogʻ* va *-in* morfemalaridan hamda *boʻrsiq* soʻzi esa *boʻr+si+q* morfemalaridan tashkil topgan. Hozirgi tilshunoslikda bu soʻzlar sodda tub soʻzlar sifatida baholanadi.

*Нужный*, *хижина*, *кольцо* soʻzlarini hozirgi rus tili grammatikasi nuqtai nazaridan yuqoridagi soʻzlar kabi izohlash mumkin. Bir vaqtlar rus tilida *нужа*, *хижа*, *коло* soʻzlari boʻlgan, ana shu soʻzlarga soʻz yasovchi (-н, -ин, -у) va shakl hosil qiluvchi (-ый, -а, -о) affikslar qoʻshilishi natijasida bu soʻzlar hosil boʻlgan.

Hozirgi oʻzbek tilidagi *qishloq* va *qishki* soʻzlari ikkinchi usulga misol boʻla oladi. Etimologik jihatdan har ikkala soʻzning ham oʻzagi *qish* soʻzi boʻlgan. Hozirgi til nuqtai nazaridan ularda hech qanday semantik umumiylik yoʻq. Rus tilidagi *жуп* (*yogʻ*), *жизнь* (*hayot*), *живой* (*tirik*) soʻzlari qadimda oʻzakdosh soʻzlar hisoblangan. Aslida *жуп* soʻzi *жу+п* (soʻz yasovchi affiks)dan tuzilgan, «hayotda orttirilgan» maʼnosini bergan. Tilning tarixiy taraqqiyotida bu soʻzlarning morfemalari orasidagi chegara yoʻqolgan, yaʼni soddalashuv hodisasi roʻy bergan. Soddalashuv jarayoni baʼzan bir tildan ikkinchi tilga soʻz oʻzlashtirganda ham sodir boʻlishi mumkin. Chunonchi, ingliz tilidan oʻzlashgan *futbol*, *voleybol* soʻzlari, nemis tilidan oʻzlashgan *kurort* soʻzi oʻzbek tilida tub soʻzlar hisoblanadi. Aslida esa oʻz holatida bular qoʻshma soʻzlardir, yaʼni *foot* – oyoq, *ball* – toʻp, *volley* – qoʻl, *ball* – toʻp; *kur* – dam, *ort* – joy kabi. Oʻzbek tiliga fors tilidan oʻzlashgan *navroʻz* tub soʻzi aslida *nav*-yangi, *roʻz*-kun ikki oʻzakdan, *astoydil* tub soʻzi «*az tahi dil*» uch oʻzakdan tashkil topgan. Rus tiliga oʻzbek tilidan oʻzlashgan *karandash*, *utyug* soʻzlari hozirda shu tilda tub soʻzlar hisoblansa-da, etimologik jihatdan oʻzbek tilida bular «*qora tosh*», «*oʻt yoq*» shaklidagi qoʻshma soʻzlar boʻlgan.

Soʻzdagi morfemalar chegarasining oʻzgarishi natijasida yangi affiksali morfemalar paydo boʻlishi ham mumkin. Bunday jarayon soʻzning material strukturasidagi q a y t a b oʻ l i n i s h hodisasi deb yuritiladi.

Oʻzbek tilidagi *boʻlajak*, *ular*, *gulduros* soʻzlarida, rus tilidagi *готовность* soʻzida qayta boʻlinish hodisasini kuzatish mumkin. Hozirgi kunda bu soʻzlar *boʻl+ajak* (sifatdosh shakli affiksi), *u+lar* (koʻplik shakli affiksi), *guldur+os* (sifat yasovchi affiks); *gotov+nost* (soʻz yasovchi affiks) shaklida morfemalarga ajratiladi. Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, bu soʻzlarda quyidagicha qayta boʻlinish roʻy bergan:

*boʻlajak* < *boʻl-a-jak* < *boʻl-ajak*

*ular* < *ul-ar* < *u-lar*

*gulduros* < *guldur-a-s* < *guldur-os*

*готовность < готов-н-ость < готов-ность.*

Ba'zi hollarda faqat affiksalar morfemalar emas, soʻzlar ham qayta boʻlinadi. Mas., rus tilidagi *с* va *к* predloglari uchta tovushdan tashkil topgan: *сън, кън*. Ma'lumki, predloglar yordamchi soʻzlar. Nutqda urgʻu olmaydigan predloglar, odatda, olmoshlarga qoʻshilib talaffuz etiladi. Vaqt oʻtishi bilan bu predloglar quyidagi koʻrinishga ega boʻlgan:

*сън ум < сънум < съ нум < с нум;*

*кън ум < кънум < къ нум < к нум.*

Avval tub deb hisoblangan soʻzlarning yasama yoki murakkab soʻzlar qatoriga oʻtishi m u r a k k a b l a s h u v deyiladi. Bu hodisani boshqa tildan oʻzlashgan soʻzlarda kuzatishimiz mumkin. Murakkablashuv hodisasi tilda soddalashuv va qayta boʻlinish hodisalariga nisbatan kamroq uchraydi. Chunonchi, rus tilidagi *спавюра* (toshga, metallga yoki yogʻochga oʻyib ishlangan va bosmaxonada bosilgan rasm) soʻzi fransuz tilidan olingan, rus tilida *спавёр, спавуровать* soʻzlari paydo boʻlgandan keyingina uch morfemaga (*спав-юр-а*) ajraladigan boʻlgan.

**Til – yaxlit butunlik.** Borliqdagi barcha narsa qismlardan tashkil topganligi kabi til ham gap, soʻz birikmasi hosil qilish va soʻz yasash qolipi, soʻz, qoʻshimcha va tovushdan iborat. Ana shu qismlar bir-biri bilan turli qonun-qoida, tartib asosida birikib butunlikni, ya'ni tilni hosil qiladi. Til qismi til birligi hisoblanadi. Maktab darsligida gap, soʻz birikmasi, soʻz, qoʻshimcha va tovush til birligi sifatida qaraladi. Bularning barchasi nutqda qorishgan holda namoyon boʻladiki, ular orasiga keskin chegara qoʻyishning iloji yoʻq.

Tilning yaxlit butunligini ikki xil tushunish bor: 1) zohiriy tushunishda bir xil til birligining birikib ikkinchi bir birlikni keltirib chiqarishi tushuniladi: tovush+tovush=soʻz; soʻz+soʻz=soʻz birikmasi yoki gap kabi; 2) botiniy tushunishda bir sath birligi voqelanishi uchun ikkinchi bir sathning yordamga kelishi tushuniladi. Mas., soʻzni voqelantirish uchun morfologik qoʻshimchalar bilan birga soʻz birikmasi va gap qoliplari yordam beradi. Qoʻshimchaning yuzaga chiqishida leksik birliklar soʻz birikmasi va gap qoliplari koʻmaklashadi. Soʻz birikmasi va gap qoliplari yuzaga chiqishida esa morfologik qoʻshimchalar va leksik birliklar hamrohlik qiladi.

Muayyan nutq sharoitida *yaxshi* leksemasi turli daraja shakllari bilan keladi. 1. *Salim yaxshi oʻqiydi.* 2. *Bugun ish unumi yaxshiroq.* 3. *Eng yaxshi odamlar bizlarga hamrohdir.* Koʻrinadiki, birinchi gapda *yaxshi* soʻzi oddiy darajada, bunda leksema ma'nosining ifoda boʻyogʻi darajaning oddiyligi. 2- va 3- gaplarda esa daraja ma'nosi kuchaygan holda voqelangan. Daraja shakllari *yaxshi* soʻzining ma'nolarini farqlash vazifasini ham bajaradi. Qiyoslang: 1. *Yaxshi, hozir yetib boraman.* 2. *Siz zudlik bilan yoʻlga tayyorlaning. -Yaxshi.* 3. *Qovun yaxshi yetishibdi.* 4. *Oʻsmamiz juda yaxshi.* *Yaxshi* soʻzining voqelangan ma'noviy koʻrinishlari farqlanuvini asosida gaplarni ikkiga ajratish mumkin:

a) 1- va 2- gaplar;

b) 3- va 4- gaplar.

Birinchi guruh qoʻllanishlarda yuqorida zikr etilgan *yaxshi* leksemasining barchasi kuzatilmaydi. Aniqrogʻi, bunda «belgi» ma'nosi emas, balki «ma'qullash» ma'nosi voqelangan, «mustaqil gap boʻlagi» emas, balki «kirish soʻz» (birinchi gapda) va «soʻz-gap» (ikkinchi gapda) vazifasi yuzaga chiqqan. Chunki kirish soʻz va soʻz-gap

vazifasida *yaxshi* soʻzi darajalanish qobiliyatini yoʻqotgan. Demak, *yaxshi* soʻzida ikki xil maʼno borligiga amin boʻlish mumkin:

1. Ijobiy, shaxsiy, maʼqullashni bildiruvchi kirish soʻzi yoki soʻz gap.
2. Ijobiy, shaxsiy, oddiy belgi ifodalovchi va gap boʻlaklari vazifasida kela oladigan sifat.

Bu ikki maʼnoni sintaktik vazifa va daraja koʻrsatkichlari farqlaydi. Tilning yaxlitligini ana shunday tushunish lozim.

**Til meʼyori.** Meʼyor lisonning ichki qurilish tizimiga nisbatan tashqi omil, lisoniy imkoniyatlardan – sinonimik qatorlardan, lisoniy birliklarning dublet, allovariant va variantlari, sohaviy birliklaridan har birining voqelanish oʻrinlari va xususiyatlarini belgilaydi.

Oʻzbek va dunyo tilshunosligida meʼyor masalasiga keng oʻrin berilgan va unga bagʻishlangan qator ishlar mavjud. Bu masala, avvalo, uslubshunoslik va nutq madaniyati masalalari atrofida oʻrganildi. Zero, oʻzbek adabiy meʼyoring asoschilaridan boʻlgan E.Begmatovning uqtirishicha, meʼyor masalasi XX asrning boshlarida oʻzbek adabiy tili taraqqiyotining yangi bir bosqichida u uchun asos boʻlgan dialektal negizni belgilash, yozuv va alifbo masalalarini hal qilish, imlo qoidalarini ishlab chiqish, imlodagi mavjud kamchiliklarni tuzatish, umuman til birliklarini qoʻllashdagi ikkilanish va beqarorlikni bartaraf etish, atamalarni takomillashtirish, grammatikalar yaratish, oʻqish-oʻqitish ishini yoʻlga qoʻyish singari vazifalarni amalga oshirish yoʻlidagi sayʼ-harakatlar ham nutq madaniyati muammolarini hal qilishning tarkibiy qismi edi. Bundan esa oʻtgan davr mobaynida oʻzbek tilini tadqiq etishga bagʻishlangan kuzatishlarning maʼlum qismi shu tilning adabiy meʼyor muammolarini hal etishga xizmat qilgan, degan xulosa kelib chiqadi.

Oʻzbek tilshunosligida oʻtgan asrning soʻnggi chorak asri davomida adabiy til meʼyorlari boʻyicha bajarilgan barcha tadqiqot ishlari natijasi oʻlaroq qator oʻquv qoʻllanmalari va darsliklar yaratildi.

Tadqiqotlarning barchasida adabiy meʼyorga eʼtibor qaratilgan. Darhaqiqat, adabiy til normalari, undagi muhim qonuniyatlarni ochish oʻzbek adabiy tili normativ sistemasidagi toʻgʻri, namunaviy holatlarni belgilash bilan birga, undagi noadabiy hodisalarni, yaʼni xato va nuqsonlarni ham aniqlashga, ularning asosiy sabablarini ochishga koʻmaklashish asosiy diqqat markazida boʻlgan.

Lison nutqda turlicha voqelanadi. U adabiy til koʻrinishida ham, sheva va lahja shaklida ham, turli tabaqa, toifa kishilari nutqida, shuningdek, turli nutq sharoiti va vaziyatiga mos ravishda yuzaga chiqadi. Ana shu moslanish va xoslashuv meʼyor tusini oladi.

Umumxalq tilining lisoniy tizimi dastlab ikki koʻrinishda voqelanadi: sheva va adabiy til. Avvalo, adabiy til va shevaga xos meʼyoriy qonun-qoidalar mavjud, bu qonun-qoida umumxalq tilining ikki tarkibiy qismini ajratishga, ularning har birining oʻziga xos yashovchanligini taʼminlashga xizmat qiladi. Shuning uchun dialektal va adabiy meʼyor farqlanadi. Buni chizmada quyidagicha berish mumkin:

|                       |
|-----------------------|
| UMUMXALQ TILI (lison) |
|-----------------------|

O'zbek tilshunosligida umumxalq tilining umumxalq va dialektal ko'rinishi keng va teran o'rganilgan, biroq me'yor masalasida adabiy tilga ko'p e'tibor qaratilgan. Bu shevalarning nutqiy ko'rinishi me'yorsiz bo'ladi, degani emas. Holbuki, shevada ham lison voqelanar ekan, bu voqelanish, albatta, ma'lum "cheklov" va so'zlovchiga lisoniy-ijtimoiy "buyurish" asosida yuz beradi. Ana shu "cheklov" (qolip) va ijtimoiy buyurish me'yorni tashkil etadi. E.Begmatov sheva me'yori xususida fikr yuritar ekan, uning stixiyali tarzda shakllanishi va rivojlanishi, majburiy deb tushunilmasligi, bilvosita, negativ ravishda, ya'ni biz unday demaymiz, biz bunday gapirmaymiz singari tasavvurlar asosida amalga oshirilishini ta'kidlaydi.

## TIL OILASI

Til oilasi – kelib chiqishi umumiy va leksik-grammatik xususiyatlari o'xshash bo'lgan til tarmoqlari majmui. Bir oilaga kiruvchi tillarning qarindoshligi tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metod asosida o'rganiladi. *Oila* atamasi o'rnida ba'zan guruh termini ham ishlatiladi. Mas., turkiy tillar bir butun holda *guruh* sifatida oltoy oilasiga kiradi. Bir oilaga kirishi haqidagi ma'lumotlar kam, uzoqlashib ketgan tillarga nisbatan *makrooila*, *fila*, *filiya* terminlari ishlatiladi.

Ko'plab til oilalarining tarkibi haqidagi ma'lumotlar oxirigacha isbotlanmagan. Mas., ayrim tilshunoslar mo'g'ul, tungus-manjur va turkiy tillarni bir umumiy oila sifatida qaraydilar. Boshqalari esa oltoy, hind-yevropa, som-xom, ural, dravid kabi tillar ilgari qarindosh bo'lgan deya bir til oilasiga kiritiladi.

Dunyodagi ko'p tillar hali yetarli darajada o'rganilmagan. Ayniqsa, Amerika va Afrikadagi tillarning kamayib borayotganligi bu tillarninig biror oilaga munosabatini belgilashni qiyinlashtirmoqda. Bunga qaramasdan, indeys tillarining Shimoliy Amerikada 7 ta, Meksika va Markaziy Amerikada 3 ta, Janubiy Amerikada 20 dan ortiq oilasi borligi aniqlangan. Bundagi har bir oila 15–20 dan 100 tagacha tilni qamrab olgan. Janubiy Amerikada keng tarqalgan chibcha tili oilasi jami 70 tilni o'z ichiga olgan 20 guruhga bo'linadi.

Dunyo tillari soni aniq emas (2500 tadan – 5 000 tagacha). Tillar sonini belgilashning qiyinligi shundaki, ayrim tilning alohida til yoki lahjaligi aniq emas. Aloqasi uzilgan lahjalarning alohida tilga aylanishi hozir ham yuz bermoqda. Ziddiyat va chalkashliklar bo'lishiga qaramay, olimlar 2000 dan ortiq tilni oilalarga bo'lishgan. Ma'lumotga ko'ra, hozirgi kunda **20 dan ortiq til oilasi** bor. Til oilasidan keng tarqalganlari quyidagilar: **1. Hind-Yevropa oilasi. 2. Oltoy oilasi. 3. Fin-ugor oilasi. 4. Xom-som oilasi. 5. Kavkaz oilasi. 6. Xitoy-tibet oilasi.** Bundan tashqari, **dravid, malay-polinez, avstraliya, papua, afrika** oilasi ham ajratiladi.

Ayrim darslik va qo'llanmada turkiy tillarni ba'zan alohida oila, ba'zan guruh sifatida ham berishadi. (Mas., quyidagi manbaga qarang: Ирискулов М. Тилшуносликка кириш: Дорилфунун ва педагогика институтлари талабалари учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – В. 176; Ne'matov H., Mahmudov N., G'ulomov A., Sayfullayeva R., Abduraimova M. Ona tili. 9- sinf uchun darslik. – Т.:

O`qituvchi, 2002. – B. 8.) Umuman olganda, bu masalada bir xillik yo`q. Shuning uchun o`quvchi amaldagi maktab darsligi bergan ma'lumotga tayangani ma'qul.

## **TILLARNING TASNIFI**

Dunyo tillari genetik, morfologik, funksional, areal kabi tasniflarga ega.

**Tillarning genetik tasnifi** – tillarni kelib chiqishi, qarindoshligi asosida tasniflash. U geneologik tasnif ham deyiladi. Geneologik tasnifning ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Buni qadim olimlar va tarixchilar ham e'tirof etishadi. Tasnifning asoschilari F.Bopp, Y.Grimm, R.Rask, A.X.Vostokovlar. Ma'lumki, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik bir bobo tildan ajralib chiqqan, o'tmishda qardosh, qarindosh bo'lgan tillar dalillarini o'zaro qiyoslab o'rganishi, shuningdek qayta tiklash vazifalarini o'z ichiga oladi. Avgust Shleyxerning qiyosiy-tarixiy tilshunoslik bo'yicha qilgan ishlari bizga ma'lum (hind-yevropa tillarida bobo til, tillar shajarasi, bobo til haqida). Tillarning geneologik tasnifi til dalillarini tarixiy tamoyil asosida o'rganib, tillarning qarindoshlik munosabatini aniqlaydi. Bu tasnif turi dunyo tilshunosligida ancha keng tarqalgan, deyarli barcha tillarni qamrab oladi. Tadqiqotlar natijasida tarixiy qarindoshlik belgisi asosida til oilalari deb ataluvchi bir necha yirik guruhlariga bo'linishi mumkin ekanligini aniqlashadi. Bir oilaga mansub tillar o'zaro uzoq yoki yaqin «qarindoshlik munosabatlari» bilan bog'lanadi, bu esa bunday tuzilishlar, aslida bobo til, asos tilga borib taqalishini ko'rsatuvchi tillararo umumiy xususiyatlarda, uyg'unlikda seziladi. Xuddi shuningdek, geneologik jihatdan turli til oilalariga mansub bo'lgan tillarda tarixiy genezis asoslari yoki umumiy kelib chiqishini ifodalovchi so'z va shakllar mavjud emas.

Tillarning hozirgi kungacha amaldagi geneologik tasnifi quyidagicha:

**I. Hind-Yevropa oilasi** keng tarqalgan oila, unda 2500 million so'zlashadigan tillar mujassam. Bu tillar ko'proq Yevropa mamlakatlariga tarqalgan. Osiyo (mas., Hindiston), Amerika, hatto, Avstraliya va Afrikada ham Hind-Yevropa tillaridan foydalaniladi. Hozirgi hind-yevropa tillari quyidagi guruhlariga ajratiladi: hind, eron, slavyan, boltiq, german, roman, kelt, grek, alban, arman. Bu tillarning barchasi umumiy qonuniyatga ega, ya'ni ularda o'zak, qo'shimcha va tovush muntazam mos keladi.

**II. Xom-som oilasi** 3 guruhga bo'linadi: **A.** Berber guruhi – Tripoli janubi, Tunis, Aljir, Marokko: 1) shilx, 2) tuareg, 3) kabil, 4) amazir – tirik (jonli) tillar; 5) luviy, 6) numidiy, 7) getul – o'lik til. **B.** Misr guruhi: 1) qadimgi yahudiy tili; 2) kopt tili – o'lik til. **V.** Kushit guruhi. Quyi kushit: 1) bedia (bishari, bezavis) Qizil dengiz va Nil orasida; 2) saxo, 3) afar (dalkali), 4) somali. Yuqori kushit – Efiopiyaning g'arbida: 1) agav (bilin, xamir, kvara); 2) sidam (kafra). O'rta kushit - galla (Somalining g'arbidan Markaziy Afrikaning shimoligacha).

**III. Kavkaz oilasi.** 1. G'arbiy guruh: abxaz, kabardin, cherkas, adigey. 2. Nax tillari: chechen, ingush, batsbiy. 3. Dog'iston tillari: avar, dargin, lezgin, lak, tabasaran, andiy, karatin, tindin, chamolin, bagaul, axvax, butlix, gadoberin, sez, betetin kabilar.

**IV. Ugor – fin oilasi.** 3 yirik guruhga ajratiladi: 1. Ugor tillari: vengr (mojor), mansiy, xanti. 2. Fin tillari: fin, saam, karel, komi, eston, udmurt, mariy, mordov. 3. Samodiy tillari: nenes, enes, selkum.

**V. Tungus – manchjur oilasi.** 1. Tungus guruhi: evenk, even, negidal; 2. Manchjur guruhi: manchjur, nanay, udey, ule, orog.

**VI. Xitoy-tibet oilasi.** 1. Xitoy tili – 450 million (7 ta bir-biridan juda farq qiluvchi shevalardan iborat). 2. Dungan: Qirg'iziston, Qozog'iston va O'zbekistonda 22 ming kishi, G'arby Xitoyda 10 million kishi so'zlashadi; 3. Vetnam (annam). 4. Siam (tay) Hindistonning g'arbi, Tay. 5. Tibet. 6. Birma tili. 7. Assam tillari.

**VII. Dravid oilasi:** tamil, malalayam, telugu, kannar, tulu, barxun, gandi.

**VIII. Malay-polineziya oilasi:** malay, yava, dayak, tagal, batak, age, bali, madur, torigi, bug'iy kabilar.

**IX. Afrika oilasi.** 1. Sudan tillari: nil-chad, nil-abissin, nil-ekvatorial guruh, kardofan, nil-kong, ubang, shor, dagaliy va hokazo. 2. Bantu tillari: bube, lundu, fang, kongo, rundi, ganda, poto, igala, luba, bemba, subiyi, suaxili, sanga, shambala, zulu, soto, venda, lunda.

**X. Avstraliya oilasi.** Bu yerda mahalliy xalq tillari juda ko'p, eng asosiy til aranta tili hisoblanadi.

**XI. Papuas oilasi.** Yangi Gvineya, G'arbiy Eron hamda Malaneziyadagi ba'zi orollar tili, barchasi yozuvsiz. So'zlashuvchilar soni 1000 dan oshmaganligi sababli, til va dialektlar aniq farqlanmagan. Bu tillarga: xagen (medyapa), chimbu (kuman), xuli, kamano, abelam (maprik), ngalum, sianelar kiradi.

**XII. Eskimos oilasi.** Vrangeli, Chukotka, Kanada, Alyaskada tarqalgan.

**XIII. Paleosiyo oilasi.** 1) Chukot tillari: chukot, koryak; 2) Sibir guruhi: odul, nix.

**XIV. Mo'g'ul oilasi.** 1) a) xalxa - mo'g'ul tili; 2) buryat tili; 3) qalmoq tili.

**XV. Uzoq Sharqning birorta oilaga kirmagan tillari.** 1) Yapon tili. 70 million kishi gaplashadi. 2) Ryukyu – Ryu-Kyu orollarida (yapon tiliga yaqin); 3) Koreys tili. 30 million kishi gaplashadi; 4) ayn tili 15 ming kishi gaplashadi. Yaponiyadagi Xokkondo orollari, Saxalin orolining janubi, Kuril orollari.

**XV. Turkiy oila.** Bu ham yirik oila, 30 ga yaqin til kiradi. Bu tilda so'zlashuvchilarning aksariyati Osiyo qit'asida yashaydi. Turkiy tillar oilasiga quyidagilar kiradi: turk, ozarbayjon, turkman, gagauz, qrim-tatar, bashqird, oltoy, shor, xakas, tuva, yoqut, qirg'iz, o'zbek, qoraqalpoq, chuvash, uyg'ur, qozoq. Mazkur oila – bulg'or tillari guruhi, o'g'uz, qipchoq, o'zbek va uyg'ur, o'g'iz guruhi, qirg'iz-qipchoq tillari guruhiga ajratiladi.

**Tillarning morfologik tasnifi.** Tilshunoslikda tillarning morfologik tasnifi muhim ahamiyatga ega. Bu tasnifning ahamiyatli tomoni shundaki, tillar morfologik xususiyati, tiplari asosida muayyan guruhga birlashtiriladi va, qat'iy tasnifga erishiladi. Morfologik tasnif tillarning kelib chiqishi, tarixi, qarindoshlik aloqalari bilan qiziqmaydi, balki tillarning grammatik xususiyatlarini, aniqrog'i, o'zak va affikslarni qarama-qarshi qo'yish asosida taqqoslab o'rganishga asoslanadi. Morfologik tasnif asosida til tiplari aniqlanadi va ajratiladi. U yoki bu tilning qaysi morfologik tipga mansub ekanligini aniqlash uchun esa shu tillardagi so'z qurilishi (strukturalari) o'rganiladi.

XIX asr o'rtalarida nemis komparativist olimi Avgust Shleyxer (1821–1868), aka-uka Shlegellar (Fridrix Shlegel va Avgust Shlegel) hamda Gumboldt g'oyalarini umumlashtirib, o'zaklar – ma'no, affikslar esa munosabatni ifodalashini isbotlaydi. O'z vaqtida F.Shlegel (1822–1890) o'zining «Hindlarning donoligi va tili» (1869) nomli

asarida sanskrit tilini grek, lotin va turkiy tillar bilan chog'ishtirib, tillarni ikki tipga ajratiladi: a) affiksli tillar, b) flektiv tillar. Avgust Shlegel esa o'zining «Provansal tili va adabiyoti haqidagi mulohazalar» (1818) nomli asarida tillarni 3 tipga bo'ladi: a) flektiv; 2) agglyutativ va 3) amorf tillar. V.Gumboldt esa bu qatorga polisintetik tillar guruhini ham qo'shadi. Avgust Shleyxer mana shu faktlarga asoslanib, dunyo tillarini 3 tipga ajratadi: o'zakli yoki ajratuvchi (ruscha: корневые, изолирующие), agglyutativ va flektiv. Tillarning morfologik tasnifi masalasi bilan G.Shteyntal (1821–1889), N.Fink, Moskva tilshunoslik maktabining asoschisi F.Fortunatov ham shug'ullangan (1848–1914). Xullas, dunyodagi barcha tillar morfologik tasnif asosida 4 tipga ajratiladi: I. O'zakli yoki ajratuvchi tillar. II. Agglyutativ tillar. III. Flektiv tillar. IV. Polisintetik tillar. (q. **Agglyutativ tillar, Flektiv tillar**).

## **TILSHUNOSLIK**

Til so'zlash, fikrni ifodalash vositasi sifatida ham o'ziga xos bir olam. Uning xususiyatini o'rganuvchi va o'rgatuvchi fan tilshunoslik (lingvistika) deyiladi. Tilshunoslik fani bir necha tarkibiy qism, ya'ni bo'limdan iborat. Tilshunoslik fani umuman insoniyatga xos tilni yoki ma'lum bir xalq tilini o'rganish nuqtai nazaridan **umumiy** va **xususi**y turga bo'linadi.

Lingvistika – til haqidagi, uning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi, muayyan tillarning amal qilish qonunlari, tarixiy taraqqiyoti haqidagi fan. Maqsadi, vazifasi va boshqalarga ko'ra tilshunoslikning bir necha sohalari ajratiladi: umumiy tilshunoslik – tilni, umuman insonga xos hodisa sifatida o'rganuvchi, asosiy vazifasi dunyo tillariga xos umumiy belgi-xususiyatlarni aniqlash va yoritish bo'lgan soha; xususi y tilshunoslik – ayrim bir til umumiy xususiyatlarini o'rganadi; amaliy tilshunoslik – tildan foydalanish bilan bog'liq amaliy masalalarni hal qilish metodlarni ishlab chiquvchi soha. Shuningdek, tilshunoslikning turli vazifalar bilan shug'ullanuvchi matematik lingvistika, strukturaviy tilshunoslik, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, paralingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, interlingvistika kabi sohalari ham ajratiladi.

**Umumiy tilshunoslik.** Umumiy tilshunoslik tilning paydo bo'lishi, qarindoshlik aloqasi va barcha tillarning umumiy nazariy masalalarini o'rganadi. U tilshunoslikning alohida sohasi.

**Xususi y tilshunoslik.** Xususi y tilshunoslik – muayyan bir til xususiyatini tekshiradi. Jumladan, o'zbek tilshunosligi xususi y tilshunoslik, o'zbek tilining tovush tizimi, leksikasi, grammatik qurilishi, yozuvi, shevasi, imlo va talaffuz qoidasi, uslubini o'rganadi.

**Tilshunoslik fani bo'limlari.** O'zbek tilshunosligi fani quyidagi bo'limni qamrab oladi: 1. Fonetika. 2. Orfoepiya (talaffuz) . 3. Grafika (yozuv) . 4. Orfografiya (imlo). 5. Leksikologiya. 6. Frazologiya. 7. Leksikografiya (lug'atshunoslik). 8. Morfemika (so'z tarkibi) . 9. So'z yasalishi. 10. Morfologiya. 11. Sintaksis. 12. Punktatsiya (tinish belgilari). 13. Uslubiyat. 14. Dialektologiya (shevashunoslik). 15. Etimologiya (so'zlarning kelib chiqishi). 16. Til tarixi.

Bu bo`limdan har biri tilning alohida-alohida tomonini tekshiradi va, o`z navbatida, kichik bo`limlarga ham bo`linishi mumkin.

**O`zbek tilshunosligi tarixi.** O`zbek tilshunosligi tarixi – O`zbek tilshunosligi fan sifatida quyidagi tarixiy bosqichni bosib o`tgan: 1) eski turkiy tilshunoslik (XI–XIII asr); 2) eski o`zbek tilshunosligi (XIV–XIX asr); 3) zamonaviy o`zbek tilshunosligi (XX asrning 20- yillaridan hozirgacha).

**Eski turkiy tilshunoslik.** O`zbek tilshunosligi fani M.Koshg`ariyning “Devonu lug`otit turk” asari bilan boshlanadi. Asar XI asrda yaratilgan, 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakir shahrida topilgan.

«Devonu lug`otit turk» uch tomdan iborat, 1915–17- yillarda Istanbul shahrida nashr etilgan. Shu nashr asosida V.Brokkelman bu asarni 1928- yilda nemischa tarjimada nashr qildi. 1939- yilda Anqarada Basim Atalay tarjimasida turk tilida bosildi. Olim S.Mutallibov devon tarjimasida samarali ishlab, 1960–63- yillar davomida uch tomda o`zbek tilida nashr qildi.

Asarning lug`at qismida 7500 so`z sakkiz bo`limda izohlanadi. Asarda so`zlar ot, fe`l, yordamchi so`z turkumiga ajratilgan.

Mahmud Koshg`ariyning hozirgacha topilmagan turkiy til sintaksisiga bag`ishlangan “Kitob javohir un-nahv fil-lug`atit turk” asarini yozgani ham manbalarda qayd etilgan.

Mahmud Koshg`ariy turkiy til qurilishini tasvirlashda qiyosiy usuldan foydalanib, tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metodning asoschisidan biri bo`lib qoldi.

Ilm-fan xazinasiga bebaho durdona qo`shgan Mahmud az-Zamaxshariyning eski turkiy tilshunoslikda ham o`ziga xos o`rni bor. Zamaxshariy – yirik tilshunos sifatida arab tilshunosligining rivojiga ulkan hissa qo`shgan olim. Biroq uning lug`atlarida turkiy so`zga ham alohida e`tibor berilib, unda XII-XIII asr Markaziy Osiyo turkiy adabiy tilining leksikasi ham o`z aksini topgan. Mahmud az-Zamaxshariyning “Muqaddimatul-adab» asari arab tili grammatikasiga bag`ishlangan.

XIII-XIV asrda yashab ijod etgan Abu Hayyon al-Andalusiyning eski turkiy tilshunoslikda tutgan o`rni o`ziga xos. U turkiy va arab tili muqoyasasiga doir ko`plab asar yaratgan, muhimi – «Kitob al-idrok li lisonal-atrok» lug`ati. Asar 1312- yilda Qohirada bitilgan, lug`at va grammatikadan iborat. Asarda qipchoq unsuri juda kuchli, shu bilan birga, o`g`uz unsuri ham uchrab turadi.

Eski turkiy tilshunoslik taraqqiyotida mashhur tilshunos Jamoliddin Muhammad Abdulloh Turkiyning ham o`ziga xos o`rni bor. Uning taxminan XIII–XIV asrda yozilgan «Kitobul lug`at al-mushtaq fi lug`at-it turk val-qafchoq» («Turk va qipchoq tiliga mushtoqlarni qiziqtiruvchi kitob») asari arab, fors, turk, mo`g`ul tili qiyosiga bag`ishlangan, u turkiy tilning tarixiy taraqqiyotini o`rganishda qimmatli manba bo`lib xizmat qiladi.

**Eski o`zbek tilshunosligi.** Eski o`zbek tilshunosligining shakllanishi va taraqqiyotida Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Aloyi binni Muhibiy, Mirzo Mahdixon, Is`hoqxon Ibrat kabilarning lingvistik qarashi va asarlari muhim ahamiyatga ega.

XIX asrning oxiriga kelib o`zbek tilshunosligida chor bosqinchilarining mahalliy xalq madaniyati, urf-odati va tilini o`rganish ehtiyoji natijasida bir qancha amaliy

ahamiyatga ega grammatika vujudga keldi. M.A.Terentevning «Turk, fors, qirg'iz va o'zbek tili grammatikasi» (1875)ni A.Starlevskiyning «Rus kishisining O'rta Osiyodagi yo'ldoshi» (1878) asarini, Z.A.Alekseyev va V.Vishnegorskiyning «Sort tili samouchiteli» (1884), M.Andreyevning «Sort tilini birinchi bor o'rganuvchilar uchun qo'llanma» (1896)sini, F.Mashkovtsevning «Sort tili darsi» (1899)ni, V.P.Nalivkinning «Sort tilini amaliy o'rganish uchun qo'llanma» (1898)sini, N.Budzinskiyning «Sort tili darsligi» (1910) ni misol sifatida ko'rsatish mumkin.

**Zamonaviy o'zbek tilshunosligi.** Tom ma'nodagi fan sifatida o'zbek tilshunosligi XX asrning 20–30- yillarida shakllana boshladi va asrning oxiriga kelib o'zining yuqori cho'qqilaridan biriga erishdi.

XX asr o'zbek tilshunosligining shakllanishida Abdurauf Fitrat, G'ozi Olim Yunusov, Ulug' Tursunov, Y.D.Polivanov, Qayum Ramazon, Faxri Kamolov va Ayyub Gulomovlarning xizmati katta.

Bu davrda o'zbek tilining ichki qurilishi zamonaviy tilshunoslik yutug'i asosida ishlab chiqildi va o'zbek tilshunosligi jahon zamonaviy tilshunosligining bir bo'lagi sifatida shakllandi. Imlo qoidasi yaratilib, o'rta, o'rta maxsus va oliy maktab uchun bu tildan me'yoriy darslik, qo'llanma va ilmiy grammatika tuzildi. Tilshunoslikning mavjud barcha bo'limi bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishi vujudga keldi.

Lug'atshunoslik bo'yicha olib borilgan ish nihoyatda samarali bo'ldi. Bir tilli, ko'p tilli va turli sohaviy lug'at yaratilib, leksikografiya tilshunoslikning alohida, ilg'or bo'limi sifatida namoyon bo'ldi.

Bu sohaning barchasi bo'yicha 1934- yil Toshkentda ochilgan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti, universitet va pedagogika institutlarining tilshunoslari samarali mehnat qilishdi.

1975–76- yilda yaratilgan ikki tomli «O'zbek tili grammatikasi», 1980- yilda nashr qilingan «O'zbek tili leksikologiyasi» nomli asar, ko'p tomli «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi», ikki tomli «O'zbek tilining izohli lug'ati», o'zbek tili frazeologiyasi, terminologiyasi, kasb-hunar leksikasi, Navoiy asarlari tilining lug'ati va boshqa soha bo'yicha ham bir qator lug'at yuzaga keldi.

**O'zbek o'quv lug'atchiligi.** O'quv lug'atchiligi vatanimizda XXI asr boshida shakllana boshladi. Bugungi kunda maktab o'quvchilari uchun “Ona tili” darsligiga yordamchi manba sifatida yaratilib, chop etilayotgan “O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv izohli lug'ati”, “O'zbek tilining zid ma'noli so'zlar o'quv izohli lug'ati”, “O'zbek tilining so'zlar darajalanishi o'quv lug'ati”, “O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati”, “O'zbek tilining so'z yasaliishi o'quv lug'ati”, “O'zbek tilining o'zlashma so'zlar o'quv izohli lug'ati”, “O'zbek tilining so'zlar birikuvchanligi o'quv lug'ati”, “O'zbek tilining eskirgan so'zlar o'quv izohli lug'ati”, “O'zbek tili iboralarining o'quv izohli lug'ati”, “O'zbek tilining o'quv etimologik lug'ati”, “O'zbek tilining o'quv toponimik lug'ati”, “O'zbek tilining talaffuzdosh so'zlar o'quv izohli lug'ati” kabi o'nlab o'quv lug'ati ham o'zbek lug'atchiligi yutug'i.

## **TINISH BELGILARI**

Tinish belgisi – yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqli bayon qilishda, uni ixchamlashtirishda, yozma nutq qismlarining o'zaro mazmun munosabatlarini

ko`rsatuvchi muhim yozuv vositasi. Ular quyidagilar: nuqta (.), so`roq belgisi (?), undov belgisi (!), vergul (,), nuqtali vergul (;), ikki nuqta (:), ko`p nuqta (...), tire (–), qavs ( ( ) ), qo`shtirnoq (“”).

**Nuqtaning ishlatilishi.** Nuqta quyidagi o`rinda qo`yiladi: 1) tinch ohang bilan aytilgan darak, buyruq va undov (his-hayajon) gapdan keyin: *Oltin kuz fasli kirib keldi. Darslarni o`z vaqtida tayyorlab yurgin. Koshki, uning kuchi yetsa.* 2) birinchi qismida nuqta, ko`p nuqta, undov yoki so`roq belgisi bo`lgan ko`chirma gap o`rtasida kelgan muallif gapidan keyin: *“Men hozir jo`nayman, – dedi u. – Siz esa yarim soatlardan keyin yo`lga chiqing”.* 3) qisqartirilgan ism va familiyaning birinchi harfi yoki qismidan keyin: *M.Ism. (Mirzakalon Ismoiliy).* 4) sanash yoki ayrim fikrning qismini ifodalagan va oy, kun, yilni bir-biridan ajratish uchun qo`llangan raqam yoki harfdan keyin: 27.09.2002 kabi. Qavsga olingan manbadan oldingi gap oxiridagi tinish belgisi o`z o`rnida saqlanadi va qavsdan keyin hech qanday tinish belgisi qo`yilmaydi: *Ketdi.* (A.Qah.) Shuningdek, sarlavhadan keyin (darak gap bo`lsa) nuqta qo`yilmaydi. Lekin sarlavha birdan ortiq mustaqil sodda gapdan tuzilgan bo`lsa, oldingilaridan keyin nuqta qo`yilib, oxirgisidan keyin qo`yilmaydi: *Gap. Sodda gap*

**So`roq belgisining ishlatilishi.** So`roq belgisi quyidagi holda ishlatiladi: 1) so`roq gapdan keyin: *Ishga tayyormisiz?* 2) so`roq gap birdan ortiq bo`lishi mumkin. Bunda: a) so`roq gap mustaqil bo`lsa, har biridan so`ng so`roq belgisi qo`yiladi: *Qishloq qanday? Og`aynilar yaxshi yurishibdimi?* b) agar so`roq gap mazmunan umumiy bir fikrni ifodalasa, va qo`shma gap tarzida bo`lsa, eng so`nggi so`roq gapdan keyin qo`yiladi: – *Kim kelyapti: Savrimi, Rahbarmi, yo akangning bolalarini yetaklab kelyapsanmi?* 3) gap darak gap, undagi biror so`z yoki ibora noaniq bo`lsa va gumon ifodalansa, undan keyin so`roq belgisi qo`yiladi: *Bu ishning hammasini yarim soat (?) ichida bajarar ekanmiz.* Ba`zan qo`shma gap tarkibidagi sodda gapning oldingisi so`roq, qolgani esa uning izohi sifatida kelishi mumkin, bunday holda ular orasiga vergul yoki tire qo`yilishi mumkin, lekin qo`shma gapning qismi vergul yoki tire bilan ajratilishi shart bo`lganligi tufayli so`roq belgisi qo`yilmaydi: *U ertaga keladimi, kelmaydimi, bu men uchun qorong`i.*

**Undov belgisining ishlatilishi.** Undov belgisi quyidagi holda ishlatiladi: 1) his-hayajon ifodalagan gapdan keyin: *Yoshligimizda naqadar baxtiyor edik!* 2) buyurish, tilak, orzu ma`nosini ifodalagan gapdan keyin: *Hoziroq bularni ko`zimdan yo`qot! Qani endi qush kabi osmonda parvoz qilsa!* 3) gap boshida kelib, kuchli his-hayajon ifodalagan undalma, undov hamda *ha* va *yo`q* so`zidan keyin: *Yo`q! Rustam bunday qabihlikka bormaydi hech qachon! Azizlar! Sizni mustaqillik bayrami bilan tabriklayman!* Bunda undovdan oldingi so`z mustaqil gap sifatida qaraladi.

**Ko`p nuqtaning ishlatilishi.** Ko`p nuqta quyidagi o`rinda qo`yiladi: 1) fikr tugallanmaganda: *Agar hozir gapingizni to`xtatmasangiz...* 2) so`zlovchining o`ylashi, mulohaza qilishini ko`rsatadi: *Bugun... bugun oldingizga o`tsam bo`ladimi?* 3) ba`zan kimningdir savoliga javob bermay, indamay turganini ko`rsatish uchun: – *Mendan rozimassiz, bilaman, kechirmaysiz...* 4) biror so`z yoki gapning tushirilganini ko`rsatish uchun: *Bugun yettinchi bo`limga kelib, ... fig`oni oshdi.*

Ko`p nuqta, undov va so`roq belgisining birga kelishi. Gap mazmuni mazkur tinish belgisining birga qo`llanishini taqozo qiladi. Bunda: 1) so`roq mazmunidan his-hayajon kuchliroq bo`lgan gapdan keyin avval undov, keyin so`roq belgisi birikkan holda (!?) qo`yiladi: *Go`zallik olamni qutqarishiga kim ishonmaydi!?* 2) kuchli his-hayajon bilan berilgan savolni ifodalaydigan so`roq gapdan so`ng avval so`roq, keyin undov belgisi birikkan holda qo`yiladi: – *A?! – Xonkeldiyeva turgan yerida surat bo`lib qoldi. – Direktorimiz-a?! 3) kuchli his-hayajon ifodalagan va mazmunan tugallanmagan gapdan keyin avval undov, keyin ko`p nuqta birikkan holda (!...) qo`llanadi: – Nafisa!.. Nafisaoy!... 4) mazmunan tugallanmagan so`roq gapdan so`ng avval so`roq, keyin ko`p nuqta birikkan holda (?...) ishlatiladi: – Nima dedingiz? Bularning hammasi men uchun?...*

**Vergulning ishlatilishi.** Vergul quyidagi o`rinda qo`yiladi: 1) uyushiq bo`lak orasida: 2) bog`lovchisiz birikkan uyushiq bo`lak orasida: 1. *Andijon, Namangan, Qo`qon, Marg`ilon – O`zbekning chamani, bog`-u bo`stoni.* 3) takrorlanuvchi bog`lovchi bilan birikkan uyushiq bo`lak orasida: *U goh kulimsiraydi, goh chuqur o`yga toladi.* 4) zidlovchi bog`lovchi yordamida birikkan uyushiq bo`lak orasiga: *Zamiraning baland, ammo mayin ovozi bor edi.* 5) undalmani gapdan ajratish uchun: *Ertaga, azizim, toqqa jo`naymiz;* 6) kirish so`zni va tuzilishiga ko`ra murakkab bo`lmagan kirish gapni ajratish uchun: a). *Xullas, ertaga shu yerda yotiladigan bo`ldi.* b) *Men sizga aytsam, odamning yomoni bo`lmaydi;* 7) *ha va yo`q* so`zini gap bo`lagidan ajratish uchun: *Ha, bu gapingiz to`rg`i. Yo`q, ertaga kela olmayman;* 8) gapning ajratilgan bo`lagini ajratib ko`rsatish uchun: “*Biz, 22-guruhda o`quvchi qizlar, Xayriniso ham biz bilan yonma-yon turib o`qishini istaymiz;*”; 9) bog`lovchisiz bog`langan qo`shma gapda: *Eshik ochildi, ichkariga muzday havo yopirilib kirdi;* 10) *va, ham, hamda, yoki* (yolg`iz kelgan holida) dan boshqa bog`lovchi bilan bog`langan qo`shma gapda: *hamma gapirdi, lekin u bir chekkada xomush o`tirar edi;* 11) ergash va bosh gapni ajratish uchun: *Hamma yig`ilsa, majlis boshlanadi;* 12) muallif gapini ko`chirma gapdan ajratish uchun: – *Bugungi qilgan ezgu ishlarimiz, – dedi ota, – kelajak uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi;*

**Nuqtali vergulning ishlatilishi.** Nuqtali vergul quyidagi o`rinda qo`llanadi: 1) o`z ichida vergul bo`lgan va guruh-guruh qo`llangan yoki yoyiq uyushiq bo`lak orasida: *Mehnat, ijod, odam sharafi; Dil yorug`i, hayot quvonchi - Hammasining asli manbai Sen, Vatanim – tinchlik tayanchi.* 2) o`z ichida verguli bo`lgan, mazmunan ma`lum darajada mustaqillikka ega sodda gaplar orasida hamda har xil turdagi gapni o`z ichiga olgan qo`shma gapda: *Daraxtlar, butalar shitirladi; kuzning salqin nafasi yuziga urildi;* 3) qavsli harf yoki raqam bilan tartiblangan gapning oxirgisidan boshqasida: *Qo`shma gap uchga bo`linadi: a) bog`langan qo`shma gap; b) bog`lovchisiz qo`shma gap; d) ergash gapli qo`shma gap.*

**Ikki nuqtaning ishlatilishi.** Ikki nuqta quyidagi holda ishlatiladi: 1) uyushiq bo`lakdan oldin kelgan umumlashtiruvchi so`zdan so`ng: *Yig`ilishda tajribali ishchilar: Salim aka, Abdulkarim aka va Sobirjonlar so`zga chiqishdi;* Ba`zan umumlashtiruvchi so`z yashirinishi mumkin, lekin ikki nuqta qo`yilaveradi: *Qilinishi kerak: traktorlar ta`mirdan chiqarilsin, ishchilarga yetarli sharoit yaratilsin.* 2) quyidagi ma`noni ifodalagan bog`lovchisiz qo`shma gapda: a) bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning sababini ko`rsatsa: *U ichkariga shoshib kirib*

*ketdi: telefon anchadan beri jiringlayotgan ekan; b) bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatning natijasini ko'rsatsa: Shamol juda zo'raydi: daraxtlarning ancha-munchasi sinib tushdi; d) agar biror gap boshqa bir gapning mazmunini to'ldirsa yoki izohlasa: Vazifangiz shu: bironta odam bu xonaga kirmasligi kerak. e) ko'chirma gapdan oldin, muallif gapidan so'ng: U baland ovozda so'radi: - Kim bor?*

**Tirening ishlatilishi.** Tire quyidagi o'rinda qo'llanadi: 1) ot, son, olmosh va harakat nomi bilan ifodalanib, kesim bilan bog'lamasiz birikkan ega va kesim orasida: *O'zbekistonning poytaxti – Toshkent. Ikki o'n besh – bir o'ttiz. Bularni amalga oshiradigan – siz. O'qish – hayotni uqish;* 2) uyushiq bo'lakdan so'ng kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin: *Akam, opam va singlim – barchasi meni kutib o'tirishgan ekan;* 3) ajratilgan bo'lak bilan izohlanmish orasida: *Men – Valiyev To'ychi, 1973- yilda Dehqonobodda tug'ilganman;* 4) kirish gap bilan gap bo'laklari orasida: *Tunov kungi ovchi – uni o'rmonda uchratib qoldim – menga qiziq bir voqeani so'zlab berdi;* 5) muallif gapi bilan ko'chirma gap orasida: – *Bugun kelasizmi? – so'radi qizi;* 6) dialog tipidagi ko'chirma gapda: – *Keldimi? – Keldi;* 7) kutilmagan voqea-hodisani ifodalagan gapdan oldin: *Kecha sizlarnikiga borgan edim – Asqarjon kelibdi!* 8) zid ma'noli bog'lovchisiz qo'shma gap orasida: *Jismimiz yo'qolur – o'chmas nomimiz.*

**Qavsning ishlatilishi.** Qavs quyidagi holda ishlatiladi: 1) ifodalanayotgan fikrga yoki uning biror bo'lagiga qo'shimcha izoh beruvchi so'z yoki ibora qavsga olinadi: *Karimjon (sinfimizning a'lochisi) oliy o'quv yurtiga kiribdi;* Qavsdan oldingi tinish belgisi (vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire) qavsdan keyin qo'yiladi: *Chavandoz bu gapni Erto'yevga aytishni ham, aytmaslikni ham bilmay (aytsa Erto'yev xafa bo'ladi, aytmasa bir joydan chatog'i chiqishi mumkin), boshi qotib ... turganda... Gulchehra mojarosi chiqsa bo'ladimi?* 2) kiritma gap yoki dramatik asardagi remarka qavs bilan beriladi: a) *Ukam (sen uni taniysan) bu yil maktabni bitirdi.* b) *Aziz Kamol (xayol og'ushida). Vatanimizga qarshi ko'tarilgan ruhiy va iqtisodiy hujum shu kunlarda cho'qqisiga chiqdi;* 3) misol yoki ko'chirmaning manbai: *Eshik qars etib yopildi. (O.Yoq.);* 4) kirish so'z yoki iboraga oid tinish belgi qavsning ichiga olinadi: *To'satdan uning xayoliga akasining bundan besh-olti oy oldin... yozgan xati (o'shandan beri undan dom-darak yo'q!) ... tushdi.*

**Qo'shtirnoqning ishlatilishi.** Qo'shtirnoq quyidagi holda ishlatiladi: 1) ko'chirma gapni ajratib ko'rsatish uchun: *“Ertaga kelaman “, - dedi;* 2) ko'chma, shartli nom yoki taxallus ma'nosidagi ayrim so'z va so'z birikmasi ham qo'shtirnoqqa olinishi mumkin: *“Tog' asali” sotadigan yigit ... dovonning naryog'iga o'tib ketgan.* Qo'shtirnoqqa olinishi kerak bo'lgan so'zda turlovchi (kelishik) qo'shimcha mavjud bo'lsa, bu qo'shimcha qo'shtirnoqdan keyin qo'yiladi: *Buni ko'rgan Aziz o'zi haydab kelayotgan «GAZ 69»ning yurishini tezlatib, yo'lga chiqdi-da, “Jiguli “ tomonga burildi.*

## TOVUSH

Tovush – keng ma’noda gazsimon, suyuq yoki qattiq muhitda to’lqin sifatida tarqaladigan elastik muhit zarralarining tebranma harakati.

Tabiatdagi tovush uch xil: fizik, biologik va nutq tovushi. Fizik tovush jonli va jonsiz mavjudotning barchasiga xos, havoning siqilishidan hosil bo’ladi. Biologik tovush jonli mavjudotga xos va tiriklik belgisidan biri. Hayvon va parrandaning ovozi, kishining gap hosil qilmaydigan tovushi: qiyqiriq, xurrak, kulgi, yig’i ovozi. Nutq tovushi faqat insonga xos, uch xil xususiyati bor: 1) ijtimoiy tabiatga ega; 2) ma’no farqlaydi; 3) nutq hosil qiladi.

Nutq tovushi kishilik jamiyati bilan bog’liq ravishda vujudga kelganligi va uning uchun xizmat qilganligi bois ijtimoiy tabiatga ega deyiladi. Ma’no farqlash xususiyati deganda bir tovush o’rni boshqa tovushga berilsa, so’z va qo’shimcha ma’nosi farqlanishi, ya’ni boshqa so’z va qo’shimcha vujudga kelishi tushuniladi: *bosh – besh – bo’sh; ko’r – so’r – bo’r; ko’l – ko’r – ko’z; -chi – -ni – -gi* kabi. Bir tovushning ikki xil varianti bo’lishi mumkin. Mas., *maktab* so’zidagi *a* tovushi til oldi, *qalam* so’zidagi birinchi *a* til orqa talaffuz etiladi. Lekin bundagi til oldi tovushini til orqa tovushi bilan almashtirsak, baribir o’sha so’z, ma’no qolaveradi. Demak, o’zbek tilida ikkita – til oldi va til orqa *a* tovushi yo’q, ular variant. So’zdan tashqarida alohida olingan nutq tovushi **fonema** deyiladi.

Tovush nutq hosil qilishi lozim. Bir qarashda bir-ikki oylik chaqaloq *a, b, d* kabi tovushni talaffuz etgandek tuyuladi. Lekin u nutq, ya’ni so’z, gap hosil qilishda ishtirok etmaganligi bois nutq tovushi emas, biologik tovush hisoblanadi.

Fonetika – tilshunoslikning nutq tovushi tizimi, uning tuzilishi, nutq jarayonida o’zgarishi, almashishi, nutqiy holat bilan aloqador bo’lgan bo’g’in va boshqalar haqida nazariy va amaliy ma’lumot beradigan sohasi. Nutq tovushlari, avvalo, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko’ra ikki turli bo’ladi: 1) **unli tovush**, 2) **undosh tovush** (q. **Unli tovush**, **Undosh tovush**).

## TOPONIMLAR

Toponimlar (joy nomlari) ma’lum hududda mavjud bo’lgan joylarga xalq tomonidan maxsus qo’yilgan atoqli otlar. Odamlar nazariga tushgan, hayoti uchun zarur bo’lgan joylarni maxsus so’zlar bilan nomlagan. Joy nomining turlari:

1. Shahar, shaharcha, tuman, qishloq, ovul, qo’rg’on nomlari – *Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qarshi, Marg’ilon, Nuriston, Asaka: Oqqishloq, Beliboyli, Yangiqo’rg’on, Oqqo’rg’on, Toshqo’rg’on*.

2. Suv havzalarining nomlari – *Zarafshon, Norin, Amudaryo, Sirdaryo: Toshariq, Yangiariq, Uzunquduq, Xo’jaquduq, Toshquduq*.

3. Yer yuza shakllarining nomlari – *Oqtog’, Olatog’, Qoratog’, Chimqor, G’ubdin, Bobotog’, Uchtepa, Qoratepa, Oqtepa, Ko’kdala, Oqdala, Uzunqir, Uzunqiya, Qoraqiya*.

Joy nomlarida xalq hayoti, ishlab chiqarish tarzi, etnik tarkibi, tabiiy muhiti, ma’naviy olami to’la aks etadi.

*Mang’it, Nukus, Baliqchi, Mirishkor* shahar, qishloq nomlari urug’ nomlaridan yaratilgan.

*Oqdaryo, Oqsuv* – muz va qor suvlaridan hosil bo'lgan daryo. *Qorasuv, Qoradaryo, Qorabuloq* – yer osmon, buloq, ariq suvlaridan yuzaga kelgan daryo. *Charmgar, Tirgarom, O'qchi, Kamongaron, So'zangaron, Zargarlik* – xalqning kabi hunari bilan bog'liq nomlar. *Qayrog'och, To'pli, Qizil olma, Mudin* - o'simlik, daraxt nomlari yuzaga kelgan qishloq nomlari.

Qadimgi turkiy til so'zlaridan yaralgan joy nomlari ko'p.

*Qozoq, Qozoqli, Beshqozoq*, nomlarida qadimgi turkiy qazan, qazug', qazak, qazuq, (qazilgan, anhor) so'zi bor. *Beshtarak, Boyterak, Beshdarak* nomlari asosidagi so'z qadimgi turkiy teringak (buloq, yer osti suvi: band, to'g'on) suvi.

*Navkat, Navqat, Kat, Metan, Pormetan, Novmetan, Shamaton* (Shov+metan) nomlari tarkibida “qo'rg'on” ma'nosidagi qadimgi so'g'd tiliga mansub *kat, metan, romitan* so'zlari mavjud.

**Toponimika** - onomastikaning joy nomlarini o'rganadigan bo'limi. Yunoncha *topos*-joy, yer, *onuma* -nom, ism. Ma'lum bir hudud (respublika, voha, viloyat...) joy nomlarining yaratilish va paydo bo'lishini, nima sababdan joy shu so'z bilan atalish sababini o'rganadi. Nom asosidagi so'z va qo'shimchalarning ma'nosi, tovush va ma'no o'zgarishi haqida bahs yuritiladi. Toponimikaning bo'limlari: oykonimika - aholi yashash maskanlari (shahar, tuman, qishloq, mahalla, guzar)ning nomlarini o'rganadi; gidronimika – suv havzalari (daryo, ko'l, hovuz, ariq, quduq, buloq)ning nomlarini o'rganadi; oronimika – yer yuzasining tuzilish shakllari (tog', qir, tepa, dala, dasht, g'or) ning nomlarini o'rganadi.

**Toponimik lug'at.** Toponimik lug'at joy nomlari (viloyat, shahar, shaharcha, tuman, qishloq, ovul, mahalla; daryo, ko'l, ariq, buloq, quduq; tog', qir, choqqi, tepa, dala, dasht)ning lisoniy xususiyatlarini yoritish maqsadida tuziladi. Toponimik izohli, imlo, geografik, tarixiy, o'zlashma nomlar lug'atlari tuzilishi mumkin. Ma'rifiy, ilmiy, amaliy jihatdan eng ahamiyatlisi – izohli lug'at. Barcha tur toponimik lug'atda har bir joy nomiga alohida lug'at maqolasi yoziladi. Joy nomining rasmiy, ilmiy nomi yozilib, so'ngra nomning manzili (viloyat, shahar, tuman) ko'rsatilib, qanday joy (obyekt)ning nomi ekanligi ko'rsatiladi: Qarshi – Qashqadaryo viloyatining markazi, shahar (1929), tuman (1926), mahalla (2000), ko'cha(2002). So'ngra nomga qisqacha lisoniy izoh beriladi, nima uchun obyektning shu nom bilan atalish omili bayon qilinadi, nom uchun asos bo'lgan so'z va qo'shimchaning nom yaralgan davrdagi ma'nosi ta'kidlandi: Qadimgi turkiy tilda qarshi – shoh qasri, ark. Mo'g'ul hukmdori Kebekxon (1318-1326) shoh qasri yonida qurdirgan shahar. T.Nafasov, V.Nafasovanning “O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati” (Toshkent. Yangi asr avlodi, 2007) lug'ati ana shu tamoyilda tuzilgan o'quv toponimik izohli lug'at. Toponimik imlo lug'at H.Hasanov tomonidan tuzilgan (Teografik nomlar imlosi: Toshkent, O'qituvchi, 1962). O'zbekiston hududida hozir amalda bo'lmagan, iste'moldan chiqqan, o'tmishda Respublikamiz hududida qo'llangan joy nomlari haqidagi tarixiy, geografik ma'lumotlar H.Hasanov tomonidan tuzilgan lug'atlar va yozilgan kitoblarda bayon qilingan.

## TURK TILI

Turk tili asosan, Turkiyada, shuningdek, Iroq, Suriya, Eron, Ruminiya, Bolgariya, Gretsiya, Rossiya, Germaniya, Niderlandiya, Fransiya, Kipr oroli, Makedoniya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan. Turkiya Respublikasining va Kipr Respublikasining (grek tili bilan birga) rasmiy tili. Oʻtgan asr oxirida soʻzlashuvchilarining umumiy soni 55 millionga yaqin (Turkiyaning oʻzida 50 milliondan ortiq) kishini tashkil etgan. Dialektal jihatdan Turkiyadan sharqdagi, ayniqsa, Anatoliyaning shimoli-sharqidagi mintaqa ozar tiliga oʻxshashlik belgilari bilan ajralib turadi. Anatoliyaning boshqa qismi hamda sharqiy frakiya shevalari, shuningdek boshqa mamlakatlardagi turk tili lahjalari oʻzaro unchalik farq qilmaydi.

Turk tilining fonetik oʻziga xosliklari: soʻz boshi va oʻrtasidagi *j* undoshining qarindosh turkiy tillardagi boshqa oʻxshash tovushlarga toʻgʻri kelishi, soʻz boshidagi *p-v*, *d-t*, *k-g* jarangsizlari va jaranglilarning farqlanishi hamda singarmonizmning mavjudligi, bir qancha soʻzlarda portlovchi *b* oʻrniga sirgʻaluvchi *v* undoshining kelishi; boshqa turkiy tillardagi “boʻl” felining “oʻl” tarzida kelishi va boshqalar. Morfologik belgilaridan *-mish* shaklli sifatdashning qipchoq va boshqa bir qancha turkiy tillardagi *-gan* shaklli sifatdash bilan vazifadoshligi; *-dik* shakli qadimgi harakat nomi va *-yor* shakli aniq hozirgi zamon feʼlining faol qoʻllanishi va boshqalarni koʻrsatish mumkin.

Adabiy turk tilining hozirgi shakli XIX asr oʻrtalaridan shakllana boshlagan. Bu davrda oʻrta asr adabiy tili (eski turk yoki usmonli turk tili) arabcha, forsha elementlarga boy boʻlgan. XX asrning 20- yillaridagi islohotlardan soʻng adabiy til umumxalq soʻzlashuv tili bilan yaqinlashgan. Eski turk tilining arab yozuvida bitilgan yodgorliklari XII asrdan boshlab mavjud. Dastlabgi yodgorliklardan sharqiy turkiy (qoraxoniylar-uygʻur) adabiy tilining sezilarli taʼsiri bor. Hozirgi yozuvi 1929- yildan boshlab lotin alifbosi asosida.

## TURKIY TIL

Turkiy til – Manbalarda *turk* atamasining urugʻ, elat, «bahodir», «qalpoq», «boʻri», «kuchli», «qudratli», «qurolsiz», «dubulgʻa» maʼnosida ishlatilgani yozilgan. *Turk* nomi oʻtmishda turkiy tilning umumiy nomini bildirishi bilan birga oʻzbek xalqi va tiliga nisbatan ham ishlatilgan. *Turkiy til* atamasi bu til guruhiga kiruvchi tillar bir-biridan ajralguncha ularning umumiy nomi, soʻnra esa bu tillarning jamini anglatadigan boʻlgan. Turkiy tillar yirik oila (yoki guruh), 30 ga yaqin tilni qamrab oladi. Bu tilda soʻzlashuvchilarning aksariyati Osiyo qitʼasida yashaydi. Turkiy tillar oilasiga Sibirdan Bolqon yarim oroligacha choʻzilgan quyidagi tillar kiradi: turk, ozar, turkman, gagauz, qrim-tatar, boshqird, oltoy, shor, xakas, tuva, yoqut, qirgʻiz, oʻzbek, qoraqalpoq, chuvash, uygʻur, qozoq. Mazkur oila – bulgʻor tillari guruhi, oʻgʻuz, qipchoq, oʻzbek va uygʻur, oʻgʻiz guruhi, qirgʻiz-qipchoq tillari guruhiga ham ajratiladi.

Turkiy tillar uchun umumiy belgi quyidagilar: 1) singarmonizmning mavjudligi; 2) soʻz boshida undoshlarning ketma-ket kelmasligi; 3) gap boʻlaklari tartibining oʻxshashligi (aniqlovchi+ega+aniqlovchi+toʻldiruvchi+hol+kesim).

Turkiy tillarda kesim gapning markaziy va uyushtiruvchi boʻlagi, egaga ham hokimlik qiladi. Kesimlik kategoriyasi kuchli rivojlangan. Agglutinatsiya asosiy shakl yasalishi sanaladi. Grammatik jins kategoriyasi yoʻq. Nol shakl va harakat tarzi

kategoriyasi kuchli grammatik xususyatga ega. Soʻz yasalihi asosan affiksatsiya asosida.

Eng qadimgi turkiy til (V asrgacha), Qadimgi turkiy adabiy til (V–X asrlar), Eski turkiy adabiy til (XI–XIII asrlar) bosqichlari turkiy tillar uchun mushtarak davrlar.

## **TURKIY TILLAR OILASI**

Oltoy oilasining turkiy tarmogʻi 100 ga yaqin (baʼzi adabiyotda 24 ta) jonli tilni qamrab oladi. Butun dunyoda bir necha yuz million kishi turkiy tilda soʻzlashadi. Turkiy aholi Uzoq Sharqdan Markaziy Yevropagacha, Taymir yarim orolidan Bolqon yarim oroligacha yoyilgan.

Hozirgi turkiy tillar soʻz boyligi va grammatik qurilishi jihatidan bir-biriga juda yaqin turadi. Shuning uchun bu tilda soʻzlashuvchilar bir-birini tarjimonsiz tushunadi.

Turkiy tillar uzoq tarixiy yozuv madaniyatiga ega. Bu tillarda bitilgan dastlabgi yodgorliklarga «Xuastuanift» (V asr), V–VII asrga oid Oʻrxun-Enasoy yodgorliklari yorqin dalil. (q.**Turkiy til**)

## **TURKMAN TILI**

Turkman tili – turkiy tillarning qipchoq guruhiga mansub til; Turkmaniston Respublikasining davlat tili. Asosan, Turkmaniston, shuningdek, Qozogʻiston, Oʻzbekiston, Rossiyaning Stavropol oʻlkasi, Eron, Iroq, Turkiya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan. Turkman tilida soʻzlashuvchilarning umumiy soni 4.8 milliondan oshadi (oʻtgan asrning 90- yili maʼlumoti).

Asosiy lahjalari: taka, yovmut, ersari, goʻkkan, sariq, salir, chovdur.

Turkman tili gʻarbiy oʻgʻuz qabila tillari negizida shakllangan. Turkman tilining oʻziga xos belgilari: birlamchi choʻziq unlilarning mavjudligi, lab undoshlari garmoniyasining rivojlanganligi, kelasi zamon gumon feʼli inkor shaklining -r tugallanmali variantining qoʻllanilish va boshqalar. Leksikasida arab, fors, moʻgʻul, oʻzbek, tatar, rus va xitoy tillaridan oʻzlashgan soʻzlar uchraydi.

Eski adabiy turkman tili, asosan, sheʼriyat tili hisoblangan. Hozirgi adabiy turkman tili XX asrning 20- yillaridan turkman lahjalarining taka lahjasi negizida birlashuvi natijasida shakllangan.

## **TURSUNOV ULUGʻ**

Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor U.Tursunov 1905- yilda Qoʻqonda tavallud topgan. 2- jahon urushi qatnashchisi. Fargʻona pedtexnikumini (1924) va Leningrad Sharqshunoslik institutini (1930) tugatgan. Margʻilonda maktab oʻqituvchisi (1924-25), Qoʻqonda bolalar uyi oʻquv boʻlimi mudiri (1925–27), Til va terminologiya ilmiy qoʻmitasida ilmiy xodim, Oʻrta Osiyo universitetida oʻqituvchi va Tojik agropedagogika institutida kafedra mudiri (1930–32), Oʻzbekiston madaniy qurilish institutida direktor oʻrinbosari va sektor mudiri (1933–34), Til va adabiyot institutida direktor oʻrinbosari va sektor mudiri

(1934-36), Samarqand universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasining mudiri (1936–71) vazifalarida ishlagan.

U.Tursunovning ilmiy asarlari o'zbek tili leksikologiyasi, terminologiyasi, grammatikasi, dialektologiyasi va rivojlanish tarixiga, umuman, o'zbek tilining ilmiy-nazariy, amaliy va metodik masalalariga bag'ishlangan.

U.Tursunov 1971- yili vafot etgan.

## **TUTUQ BELGISI**

Tutuq belgisi – Alifboda 29 harfdan keyin ma'lum vazifalar yuklangan 30- belgi. Vazifasi quyidagilar: 1) *a'lo, ba'zan, ma'yus, ta'zim; ra'y, ta'b; e'lon, e'tibor, e'tiqod, me'mor, ne'mat, she'r, fe'l; Nu'mon, shu'la* kabi o'zlashma so'zlarda oldingi unli tovushning cho'ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi; *mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar* kabi so'zlarda o' unlisi cho'ziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qo'yilmaydi; 2) *in'om, san'at, qat'iy, mas'ul* kabi o'zlashma so'zda unlining oldingi undoshdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi; 3) *s* va *h* harfini *sh* harfidan farqlash uchun ishlatiladi: *is'hoq, mus'haf* kabi.

## **TUVA TILI**

Tuva tili – turkiy tillar oilasiga mansub til. Asosan, Rossiyaning Tuva Respublikasida, qisman, Mongoliya va Xitoyda tarqalgan. So'zlashuvchilarning umumiy soni 205 mingga yaqin (o'tgan asrning 90- yili ma'lumoti). Tuva tili markaziy, g'arbiy, shimoli-sharqiy va janubi-sharqiy lahjalarga bo'linadi.

Fonetik xususiyati: kuchli va kuchsiz undoshlar oppozitsiyasi, qisqa, cho'ziq va faringal unlilarning mavjudligi va boshqalar. Morfologik xususiyati: jo'nalish kelishigining maxsus shakli, shart maylining murakkab shakli, chegara mayli, birgalik, ravishdosh shakllarining mavjudligi. Sintaktik xususiyati: ot-kesimning qadimgi shakli qo'llanishi bilan ajralib turadi. Leksik xususiyati: leksikasida mo'g'ul tilidan o'zlashgan so'zlar ko'p. Adabiy tuva tili XX asrning 30–50- yillarida shakllangan.

## **TUSHUNCHA**

Tushuncha – predmet, belgi, voqea, hodisa, harakat haqida kishining tasavvuri, so'z – uning tilda namoyon bo'lishi. Tushuncha so'zga, so'z esa tushunchaga to'la ravishda mos kelavermaydi. Mas., *yuz, aft, bashara, chehra* so'zi bir tushunchani bildiradi, ammo ma'nosi boshqa-boshqa. Ma'nosi bir xil so'zning bittasi tilda yashaydi, boshqasi iste'moldan chiqib ketadi.

So'z tushunchaning hamma tomonini qamrab ololmaydi, balki uning mohiyatini va muhim tomonini aks ettiradi. Tushunchaning boshqa tomoni va xususiyati o'zga so'z bilan ifodalanadi.

## **TO`LIQSIZ FE`L**

To'liqsiz fe'l – o'z lug'aviy ma'nosini yo'qotib, asosan, kesim vazifasidagi so'zning zamonini ifodalashga moslashgan *edi, ekan, emish, emas* fe'llari: *U o'qituvchi edi/ekan/emish/emas* kabi.

Uslubiy belgilari.

1. Lug'aviy ma'noga ega emas.
2. Fe'lning barcha lug'aviy shakllari bilan birika olmaydi.
3. Nafaqat fe'l, balki barcha kesim vazifasida kelgan mustaqil so'zlarga qo'shilib, o'tgan zamonni ifodalaydi: *Uning ovozi yoqimli edi. Otam eski maktab muallimi edi. Uning bolalari to'rtta edi.*

4. Gapda bog'lama vazifasida keladi.

Birinchi unli noturg'un, asosga *-di, -mish, -kan* tarzida qo'shilishi mumkin: *Yomg'ir to'xtamay quyardi. U ertaga kelarmish. O'zi aytib qo'yarkan.*



## UMUMISTE'MOL SO'ZI

Umumiste'mol so'z – qo'llanish doirasi chegaralanmagan umumxalq ishlatadigan leksika. Hamma uchun tushunarli, atamalar, dialektizmlardan farqlanadi.

## UMUMIY ENSIKLOPEDIK LUG'AT

Umumiy ensiklopedik lug'at – alfavit tartibida, ularda so'zlar emas, balki shu so'zlardan anglashilgan tushunchalar uchun asos bo'lgan narsalar, tarixiy voqealar, tabiiy va ijtimoiy hodisalar, shaxslar, geografik nomlar haqida ma'lumot beruvchi lug'at. Lug'at maqolalari lug'atdagi tavsif lug'at maqolasi deyiladi. Lug'at yozilgan tilni tushunuvchi keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan bo'ladi. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» ana shunday lug'atlardan biri. Unda shunday deyiladi: O'zME (O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi) universal ensiklopediya bo'lganligi uchun fan-texnika va madaniyatning barcha sohalariga oid ma'lumotlar muxtasar tarzda ifodalanib, u insoniyat sivilizatsiyasining muhim yutuqlari haqidagi bilimlar majmuidan iborat.

## UMUMIY FILOLOGIK LUG'AT

Umumiy filologik lug'at – barcha soha kishilari, keng foydalanuvchilar ommasiga mo'ljallangan izohli, imlo, orfoepik, tarjima lug'atlar. «O'zbek tilining izohli lug'ati» (O'TIL) «Ruscha-o'zbekcha lug'at» (RO'L) ana shunday lug'atlar sirasiga kiradi. Shu boisdan O'TIL da shunday deyiladi: «Lug'at keng o'quvchilar ommasiga – tilshunoslar, o'rta va oliy maktab o'quvchilari va o'qituvchilari, yozuvchilar, jurnalistlar, gazeta va nashriyot xodimlari va o'zbek tiliga qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo'ljallangan.» (2

tomlik, 1- tom, 5- bet.) Izohli lugʻat soʻzning maʼnosini shu tilda sharhlaydi, izohlaydi va soʻzni shu maʼnosi bilan nutq tarkibida beradi. Misollar:

**BAQIRLAMQ** Baqir-buqur ovoz chiqarib qattiq qaynamoq. *[Hamrobibi] dasturxon yozdi, baqirlab qaynayotgan samovarni keltirib, qopqoqlab qoʻydi.* R.Fayziy. El mehri.

**YOZ 1** Yilning bahor bilan kuz orasidagi eng issiq fasli. *Laylak keldi - yoz boʻldi. Dangasaning ishi bitmas, yoz kelsa ham qishi bitmas.*

**2 koʻchma** Umrning eng gullagan yaxshi davri. *Yozim oʻtdi, chiroyingizga toʻq bu quvnoq koʻngil.* Gʻayratiy.

*Koʻngli yoz boʻldi* Ortiq sevinib, bahri dili ochildi. *Negadir otashin koʻngli yoz boʻlib ketdi.* Oʻ.Umarbekov. Charos.

## UMUMIY IZOHLI LUGʻAT

Umumiy izohli lugʻatda lugʻaviy birliklarning barcha – grammatik, uslubiy, frazeologik birliklar tarkibida qatnashishi, omonimik, qaysi tildan oʻzlashganlik belgilari koʻrsatiladi.

Oʻzbek tilining bu tipdagi lugʻati birinchi marta 1981- yilda Moskvada nashr etildi. «Boy leksikografik anʼanalarning davomi sifatida oʻtgan asrning 50–80 - yillari mobaynida oʻzbek tilshunosligida erishilgan va oʻzbek leksikografiyasini tilshunoslikning tez rivojlanib borayotgan mustaqil sohasiga aylantirgan ulkan muvaffaqiyatlari tufayli yuzaga kelgan» (2 tomli, 1- tom, 5- bet) «Oʻzbek tilining izohli Lugʻati» oʻzbek xalqi tarixi va maʼnaviyati taraqqiyotida ulkan hodisa boʻldi. «Lugʻatning asosiy vazifasi oʻzbek adabiy tilining soʻz boyligini toʻplash va tavsiflash bilan birga, uning meʼyorlarini belgilab berish va mustahkamlashdan ham iboratki, unda adabiy tilning imlo, talaffuz, soʻz yasash va ishlatish meʼyorlari tavsiya etildi» (1- tom, 5-bet).

Demak, oʻzbek tilining ilk izohli lugʻati oʻz oldiga qoʻyilgan oʻzbek adabiy tilining soʻz boyligini toʻplash va tavsiflash hamda uning meʼyorlarini belgilashdan iborat tarixiy vazifasini bajardi. Biroq tilshunoslik fanining rivoji, oʻrganish manbaiga yondashuv omillari va metodologiyasining taraqqiyoti, jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichida ijtimoiy fanlarga qoʻyiladigan yangicha talablarning yuzaga kelishi ijtimoiy ong shakllaridan boʻlgan tilning ilmiy talqinida ham yangicha qarashlar shakllanishiga olib keldi. Natijada 5 tomli izohli lugʻat yaratildi.

## UMUMXALQ TILI

Umumxalq tili maʼlum bir xalqning soʻzlashuv tili, uzoq vaqt davomida shakllanadi. Bir tilga mansub barcha sheva va lahja umumxalq tilini tashkil qiladi. Oʻzbek umumxalq tili uch lahjadan tashkil topgan. Umumxalq tili milliy til ham deyiladi.

## UNDALMA

Undalma – soʻzlovchining nutqi qaratilgan shaxs/narsa/mavjudotni bildirgan soʻz. Undalma, odatda, ikkinchi shaxsga qaratilgan boʻladi: *Kel, ey, **dilbar**, ki boʻston vaqti boʻldi.* Sheʼriy asarda shoir baʼzan oʻziga, yaʼni soʻzlovchiga ham murojaat qilishi mumkin: *Nazm tuz, Erkin, axir, erkin zamondur bu zamon.* Undalma boshqa gap boʻlagi bilan faqat mazmunan bogʻlangan boʻladi. Undalma egaga oʻxshab ketadi, chunki u ishtirok etgan gapda koʻpincha ega tushiriladi. Biroq ega kesim bilan shaxs va son (birlik va koʻplik)da bogʻlangan boʻladi, undalma esa bogʻlanmaydi: *Karimjon* (ega, 3-shaxs, birlik) *ertaga keladimi?* (kesim, 3-shaxs birlik) *Karimjon* (undalma, 3-shaxs, birlikda), *ertaga kelasizmi?* (2-shaxs, koʻplikda). Ayrim holda, ayniqsa, sheʼriy asarda hayvon/qush/jonsiz narsa/ning nomini bildirgan soʻz ham undalma boʻladi: ***Quyosh**, nuring toʻka ber moʻl-koʻl! **Bahor**, ketma bizning bogʻlardan!* (Oyb.) Bir soʻz bilan ifodalangan undalma **yigʻiq undalma** (*Bugun menga bir qarashib yubormaysanmi, **Otabek***), soʻz birikmasi bilan ifodalangan undalma **yoyiq undalma** (*Ey, **usta Parfi**, keling, bormisiz?*) deyiladi. Undashni kuchli ifodalash uchun undalmadan oldin *e, ey, hoy, obbo* kabi undov ham qoʻllanadi, keyin vergul qoʻyiladi. Undalmaning ifodalanishi: 1) ot: **Hamid**, *badiiy oʻqish toʻgaragiga qatnashasanmi?* 2) olmosh: *Hoy, **sen**, menga qara-chi.* 3) otlashgan sifat: *Shunday demaysizmi, **azizim!*** 4) otlashgan son: **Toʻrtinchi**, *birinchiga javob bering.* 5) undov: **Hoy!** *Beri keling!* 6) soʻz birikmasi: *Hoy, **imonsiz qari chol**, aroq-paroq ichdingmi?* 7) turgʻun birikma: **Yigit tushmagur**, *nima qilib qoʻyding!* Undalma gapning boshida kelsa, undalmadan soʻng, gap oʻrtasida kelsa, ikki tomoniga, gapning oxirida kelsa, undalmadan oldin vergul qoʻyiladi: *Soʻzla, koʻzgujon, Haqiqatni et bayon!*

## UNDOV SOʻZ

Kishining his-hayajoni, xitob, haydash-chaqirish maʼnosini va rasm-odat bilan bogʻliq murojaatini bildiradigan soʻz *undov* deyiladi.

Undov atash, yasalish xususiyatiga ega emas, morfologik jihatdan oʻzgarmas. Gap boʻlagi boʻlib kelolmaydi va u bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi. Otlashib, otning shakl yasovchisini qabul qiliadi va sintaktik vazifasini bajaradi.

Undov *demoq, solmoq, tortmoq, urmoq* kabi feʼl bilan birikib qoʻshma feʼl hosil qiladi: *oh demoq, dod solmoq, uf tortmoq, oh urmoq.*

**Morfologik belgisi.** Morfologik jihatdan oʻzgarmaydi. Maʼnoli qismlarga ajralmaydi.

**Sintaktik belgisi.** Gapda quyidagi vazifalarda keladi: 1) kirish soʻz: *Voy, bu oʻzimizning Salim-ku. E, sekinroq gapir.* 2) undalma: *Hoy, qayoqqa ketyapsan? Ey, nimaga ovora boʻlyapsiz?* 3) soʻz-gap: *Eh! Hayot bir lahza mening hukmim bilan yursaydi. Ho-o! Buni oʻzimga oldim.*

Otlashsa otning sintaktik vazifasini bajaradi: *Ortiqcha oh-voh (ega) oʻrinsiz. Dod-voydan (toʻldiruvchi) nima foyda?!*

**Undovlarning maʼno turlari.** Undov maʼnosiga koʻra 2 guruhga boʻlinadi:

1) his-hayajon: *iey, eh, o, uh, uf, bay-bay, ho, oʻh-hoʻ, ehe, e, hay-hay, a-ha, e-ha, ha-ya, oʻ, i, a, oʻh, obbo, iya, he, iye-voy, ura, vo, vodarigʻ, esiz, evoh, vah-vah, ajabo.*

2) *haydash - chaqirish*: a) odamga qaratilgan: *hoy, oy, ay, allo, ey, ma, tss, marsh, qani, jim, tek, fisht*; b) hayvon/parrandaga qaratilgan: *beh-beh, pisht-pisht, pisht, tu-tu, gah, kuch-kuch, mah-mah, xo'sh, tak, dirr, ish, xix, chu(h), kisht, hayt, xuyt*.

Bundan tashqari, undovning yana ikki kichik guruhi bor:

3) *rasm - odat*: *assalomu alaykum, salom, assalom, vaalaykum assalom, xayr, xo'sh, xo'p, marhamat, marhabo, rahmat, tashakkur, shukur, qulluq, balli, ofarin, barakalla, qoyil, hormang, bor bo'ling, esonmisiz, omonmisiz, uzr*.

4) *ko'rsatish, ta'kid*: *hu, huv, ha, hmm, hov*.

**Undovlarning tuzilishiga ko'ra turlari.** Undovlar tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

a) sodda: *eh, o, uf, kisht, xayr, uzr, oh, ma, pisht, obbo*;

b) qo'shma: *Bor bo'ling, assalomu alaykum, vaalaykum assalom*;

d) juft: *o'h-hu, eh-he, eh-ha, voy-bo', voy-dod, e-voh; e-ha-a, voy-voy-ey*;

e) takroriy: *bay-bay, oh-oh, mah-mah, pisht-pisht; e-e-e, bay-bay-bay, hay-hay-hay*.

## UNDOSH TOVUSH

Undosh tovush – undosh paydo bo'lish o'rni, tarkibi va boshqa sifati bilan unli tovushdan farqlanadi. Og'iz bo'shlig'ida paydo bo'lib, biror qarshilikka uchrab chiqadigan, uzoq cho'zilish xususiyatiga ega bo'lmagan, urg'u qabul qilmaydigan tovush undosh deyiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida undosh tovush 24 ta: *b, d, f, g, h, j (dj – jo'ja), j (jurnal), k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng*.

Sirg'aluvchi *j*, lab-tish *f* tovushi boshqa tildan olingan so'zdagina uchraydi: *gijda, ajdar, foyda, kift, fabrika* kabi.

Undosh tovush *tasnifi*. Undosh, asosan, to'rt belgiga ko'ra tasnif qilinadi:

I. **Hosil bo'lish o'rniga ko'ra.** Bunda undosh tovush o'pkadan chiqayotgan havo oqimi nutq a'zosining qaysisi yordamida hosil bo'lishiga, og'izning qaysi qismida to'siqqa uchrashiga ko'ra dastlab 3 ga bo'linadi: 1. **Lab undoshi** (5 ta): *b, p, v, f, m*. U o'z navbatida 2 ga bo'linadi: a) lab-lab: *b, v, p, m*; b) lab-tish: *(v), f*. Lab-tish undoshi *v* boshqa tildan kirgan so'zlarda uchraydi. 2. **Til undoshi** (18 ta): *t, d, l, n, s, z, sh, j (dj), r, ch, j, y, k, g, ng, q, g', x*. Til undoshi til tanglayning qaysi qismiga urilishiga ko'ra 3 ga bo'linadi: 1) til oldi: *t, d, l, n, s, z, sh, j (dj), r, ch, j*; Til oldi undoshi pastki tish va tanglayning ishtirokiga ko'ra 2 ga bo'linadi: a) til-tish undoshi 6 ta: *t, d, l, n, s, z*; b) til-milk undoshi 5 ta: *sh, j (dj), r, ch, j*. 2) til o'rta 1 ta: *y*. Til o'rta undoshi tilning o'rta qismi tanglayga yaqinlashishi natijasida paydo bo'ladi. 3) til orqa undoshi 6 ta: *g, k, q, g', x, ng*. Til orqa undoshi – tilning orqa qismi yumshoq tanglayga yaqinlashishi natijasida paydo bo'ladi. Til orqa undoshi o'z navbatida 2 ga bo'linadi: a) yaqin (sayoz) til orqa: *k, g, ng*; b) chuqur til orqa: *q, g', x*. 3. **Bo'g'iz undoshi** *h* tovush paychasining o'zaro yaqinlashishi natijasida paydo bo'ladi. Bo'g'iz undoshi 1 ta: *h*. **Burun undoshi**. To'siqqa uchragan havoning burun orqali o'tishidan hosil bo'lgan tovush burun tovushi deyiladi: *m, n, ng*.

II. **Hosil bo'lish usuliga ko'ra.** Undosh tovushni talaffuz qilganda ba'zisi zichlashgan ikki a'zoga urilib, portlash yo'li bilan hosil bo'lsa, ayrimi ikki nutq

organi oralig`ida qolgan bo`sh joydan sirg`alib, ishqalanib chiqadi. Ba`zisi esa portlash va sirg`alishning bir paytda yuz berishidan, boshqasi til uchi titrashidan paydo bo`ladi. Shunga ko`ra, undosh 3 ga bo`linadi: 1) portlovchi undosh; 2) sirg`aluvchi undosh; 3) portlovi-sirg`aluvchi undosh. Agar havo jipslashgan nutq a`zosidagi to`siqni yorib, portlash yo`li bilan chiqsa, **portlovchi undosh** hosil bo`ladi. O`zbek tilida portlovchi undosh 9 ta: *b, p, d, t, k, q, g, ch, j*. Havo oqimi o`zaro yaqinlashgan ikki a`zo oralig`idan ishqalanib o`tsa, **sirg`aluvchi undosh** hosil bo`ladi. O`zbek tilida u 11 ta: *v, f, s, z, sh, y, x, h, l, g`, j (jurnal)*. *M, n, ng, l, r* tovushini talaffuz qilganda, lab labga, til tanglayga jipslashib, portlashga tayyor tursa, havo oqimi burun bo`shlig`idan yoki tilning yonidan chiqib ketadi. Shu sababli ular **portlovchi-sirg`aluvchi** deb yuritiladi.

Ayrim tovushning hosil bo`lish usuli va o`rniga ko`ra bundan boshqa belgisi ham bor. Mas., paydo bo`lish o`rniga ko`ra nutq a`zosining asosan bir yerida hosil bo`lib, bir portlovchi va bir sirg`aluvchi tovushni o`z ichiga olgan, ajratilmay talaffuz qilinadigan tovush **qorishiq tovush** deyiladi. Ular 2 ta: *j (dj), ch (tsh)*.

*r* tovushi til uchining qattiq tanglayga muntazam urilib turishidan (titrashidan) hosil bo`ladi. Shuning uchun u **titroq tovush** deyiladi.

*l* undoshi talaffuzida til o`pkadan chiqayotgan havoga to`siq bo`lmoqchi bo`ladi, ammo havo uning ikki yonidan chiqib ketgani bois «portlash» yuz bermaydi. Shu sababli *l* undoshi til **yon tovushi** deyiladi. Shuningdek, *h* bo`g`iz, *y* til o`rta tovushi, boshqa bunday tovush yo`q. Demak, *j (dj), ch, r, l, h, y* tovushi – o`ziga xos belgili tovush.

III. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko`ra. Tovush paychacining harakati va holati natijasida paydo bo`ladigan shovqin va ovoz ishtirokiga ko`ra undosh 2 ga bo`linadi: a) *jarangli*; b) *jarangsiz*. Talaffuzida tovush paychasi taranglashadigan, ya`ni harakatga keladigan undosh **jarangli undosh** deyiladi. Taranglashgan tovush paychasi orasidagi tor oraliqdan chiqayotgan havo oqimi uni bir oz titratib o`tadi. Demak, tovush paychasi taranglashishi ovozni hosil qilsa, og`iz bo`shlig`idagi to`siq shovqin yaratadi. O`zbek tilida jarangli undosh 14 ta: *b, v, g, d, y, j (dj), j, z, m, n, ng, l, r, g`*.

**Jarangsiz undosh** tovushni hosil qilishda tovush paychasi taranglashmaydi. Keng oraliqdan o`tayotgan havo oqimi tovush paychasini titratmay o`tadi. Natijada ovoz, ya`ni jarang yuz bermaydi. To`siq yaratgan shovqinning o`zi qoladi. O`zbek tilida jarangsiz undosh 10 ta: *p, k, t, f, ch, s, sh, q, x, h*. Ayrim jarangsiz undosh jarangli undosh bilan hosil bo`lish o`rniga ko`ra bir xil, juftlik hosil qiladi. Ular 8 ta: *b – p, d – t, z – s, v – f, g – k, j (sirg`aluvchi) – sh, g` – x, j (dj) – ch*. Nutqda ba`zan jarangli undosh jarangsizlashadi: *kitob – kitop, tez – tes, dard – dart, tog` – tox* kabi.

IV. Ovozning miqdoriga ko`ra. Undosh tovushning ba`zisida ovoz ko`p bo`lsa, ba`zi undoshda shovqin ko`p bo`ladi. Ana shu xususiyatiga ko`ra undosh 2 ga bo`linadi: 1) *sonor*; 2) *shovqinli*. Ovoz shovqinga nisbatan ustun bo`lgan undosh **sonor**dir (*sonor* lotincha «*ovozdor*» demakdir). Sonor talaffuzida tovush paychasi taranglashib titraydi, ovoz hosil bo`ladi. Shu jihati bilan sonor unliga yaqin turadi. Ammo og`iz bo`shlig`ida qisman shovqin qatnashganligi uchun undosh hisoblanadi. O`zbek tilida sonor 5 ta: *m, n, ng, l, r*. Sonordan boshqa undoshda ovoz oz,

shovqin ko`p bo`ladi. Bunday undosh **shovqinli undosh** deyiladi. O`zbek tilida 19 ta undosh shovqinli: *b, v, g, d, y, j(dj), j, z, k, p, s, t, f, x, ch, sh, q, h, g`*.

**Undosh tovush talaffuzi.** Undosh tovush talaffuzi – adabiy tilda undosh tovushlarni to`g`ri talaffuz qilish qoidalari, orfoepik me`yorlari. Undosh tovush orfoepiyasi ko`proq fonetik hodisaga bog`liq bo`ladi. Xususan: 1) *b, d* jarangli undoshlari so`z oxirida jarangsiz *p, t* tarzida talaffuz etiladi, bu hol o`zbek adabiy talaffuzi uchun me`yor: *kitob>kitop, borib>borip, yozib>yozip, savod>savot, obod>obot* kabi; 2) *b, d* undoshlari jarangsiz undoshlar bilan yonma-yon qo`llanganda assimilyatsiyaga uchrab, *p, t* holida talaffuz etiladi, bu hol ham adabiy talaffuz me`yori hisoblanadi: *ibtidoiy>iptidoiy, ketdi>ketti*; 3) *j, z* undoshining jarangsiz undoshlar ta`sirida *sh, s* deb talaffuz etilishi ham adabiy til uchun me`yordir: *ijtimoiy > ishtimoiy, mazkur > maskur* kabi; 4) *b, q* undoshining sirg`aluvchi *v, g`* undoshiga o`tishi ham adabiy talaffuz me`yoriga xilof emas: *bora ber > boraver, keta ber > ketaver* kabi.

*V* undoshi chetdan kirgan *avtobus, avtomat, Ivanov* so`zida *f* kabi aytiladi. *g* undoshi *k, q* bilan tugagan so`zda *k* va *q* tarzida aytiladi: *ek+gan=ekkan, chiq+gan=chiqqan*. *D* undoshi *obod, ozod* kabi so`zda kelganda *t* kabi aytiladi, *xursand, farzand* kabi so`zda undoshdan keyin kelganda esa tushib qoladi. *J* qorishiq-portlovchi undoshi *avj, mavj* so`zida *ch* kabi aytiladi. *J* sirg`aluvchi undoshi chetdan kirgan *furajka, telejka* kabi so`zlarda *sh* kabi aytiladi. *Z* undoshi *sakkizta, tuzsiz* kabi so`zda yonidagi tovush ta`sirida *s* kabi talaffuz qilinadi. *N* undoshi *yonma-yon, sonma-son, manba, tanbur, shanba* kabi so`zlarda *m* kabi aytiladi. *F* undoshi *fakt, taft* kabi so`zda *p* kabi aytiladi. *Q* undoshi *maqsad, taqsimot, to`qson, oqshom* kabi so`zlarda *x* kabi talaffuz qilinadi.

## UNLI TOVUSH

Bo`g`izda paydo bo`lib, biror qarshilikka uchramaydigan, sof ovozdan iborat, cho`zilish xususiyatiga ega, urg`u qabul qiladigan tovush unli tovush deyiladi: *i, e, a, u, o`, o*.

Unli akustik (eshitilish) tomonidan ovozning ustunligi, fiziologik (paydo bo`lish) tomondan og`izning ochilish darajasi bilan xarakterlanadi. Unli talaffuzida asosiy vazifani tovush paychasi, til va lab bajaradi (ya`ni talaffuzda og`iz, til va lab turli holatga o`tadi).

Unli tovush tasnifi. Unli tovush ikki tomonlama tasnif qilinadi:

I. Tilning vertikal (tik) harakatiga ko`ra 3 ga ajraladi: 1) yuqori tor unli: *i, u*. 2) o`rta keng unli: *e, o`*. 3) quyi keng unli: *a, o*. Bunda *yuqori, o`rta, quyi* so`zi tilning og`iz bo`shlig`ining pastida, o`rtasida va yuqorisida turishni ko`rsatsa, *tor* va *keng* so`zi til bilan tanglay oralig`ining tor-kengligiga ishora qiladi.

II. Labning ishtirokiga ko`ra unli ikkiga bo`linadi: 1) lablanmagan unli: *i, e, a*. 2) lablangan unli: *u, o`, o*. Lablangan unlini talaffuz qilganda lab cho`chchayadi, lablanmagan unlida esa bunday hol kuzatilmaydi. Ba`zan unlini tilning gorizontal (yotiq) harakatiga ko`ra ikki guruhga ajratishadi: 1) til oldi: *i, e, a*. 2) til orqa: *u, o`, o*. Bu unlining doimiy belgisi va tasnifi emas. Chunki bir unli til orqa undoshi bilan kelsa, til orqa, til oldi undoshi bilan kelsa, til oldi unlisiga

aylanadi. Mas., *qachon* soʻzidagi *a* til orqa, *mana* soʻzidagi unli til oldi unlisi. Yoki *paydo*, *tamanno* soʻzidagi *o* til oldi, *qon*, *xotira* soʻzida esa til orqa.

**Unli tovush talaffuzi.** Unli tovush talaffuzi – adabiy tilda unli tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish qoidalari, orfoepik meʼyorlari. *I* unlisi: 1) bir boʻgʻinli soʻzda qisqa va ingichka talaffuz qilinadi: *til*, *tish*, *bil*, *sir* kabi; 2) *q*, *gʻ*, *x* undoshlari bilan yondosh qoʻllanganda yoʻgʻon talaffuz etiladi: *qish*, *gʻisht*, *xil* kabi; 3) *y*, *ng* undoshlaridan oldin ingichka va bir oz choʻziq talaffuz etiladi: *chiy*, *kiy*, *ming* kabi; 4) *l*, *r* undoshlaridan oldin kelgan *i* unlisi bilinar-bilinmas talaffuz qilinadi *bilan*, *biroq*, *sira*, *tilak*, *gilam*, *gilos* kabi. *U* unlisi: 1) *k*, *g*, *y* undoshlaridan keyin ingichka *kul*, *atirgul*, *yuk*, *kabi*; *q*, *gʻ*, *x* undoshlaridan soʻng esa yoʻgʻon talaffuz qilinadi: *qul*, *norgʻul*, *xulq* kabi; 3) -*uvchi*, -*uv* affikslari tarkibida choʻziqroq aytiladi: *yozuvchi*, *oʻquvchi*, *toʻquvchi*, *oluv*, *qoʻshuv* kabi. *Oʻ* unlisi: 1) bir boʻgʻinli soʻzda, shuningdek koʻp boʻgʻinli soʻzning urgʻusiz boʻgʻinida qisqa talaffuz etiladi: *boʻr*, *toʻr*, *roʻmol*, *soʻroq* kabi; 2) takroriy shaklning birinchi komponentida (urgʻuli boʻgʻinda) choʻziq talaffuz qilinadi: *koʻp-koʻp*, *zoʻr-zoʻr*, *moʻl-moʻl* kabi; 3) sayoz til orqa *k*, *g*, til oʻrta *y* va boʻgʻiz undoshi (*h*) dan soʻng torroq unli tarzida: *koʻl*, *goʻr*, *hoʻl*, *yoʻl* kabi; chuqur til orqa *q*, *gʻ*, *x* undoshlaridan soʻng kengroq unli tarzda talaffuz etiladi: *qoʻl*, *gʻoʻr*, *xoʻr*, *qoʻr* kabi. *E* unlisi: soʻz va boʻgʻin boshida kengroq (*erkin*, *ekin*, *eslamoq* kabi), boʻgʻin ichida bir oz torroq (*kecha*, *beda*, *tekin*, *sekin* kabi) talaffuz qilinadi. *E* unlisi *feruz*, *dehqon*, *telefon*, *adres* soʻzlarida *i* tovushiga yaqin aytiladi. *A* unlisi: sayoz til orqa *k*, *g* undoshlari bilan yonma-yon kelganda yumshoq va ingichka unli tarzida (*kam*, *gap* kabi) talaffuz qilinadi.

## URGʻU

Urgʻu – soʻz boʻgʻinlaridan yoki gapda ishtirok etayotgan soʻzlardan birining boshqasiga nisbatan kuchliroq aytilishi, shuningdek, ayrim soʻzning maʼno va talaffuzini belgilab beruvchi fonetik hodisa. Urgʻuli boʻgʻin zarb bilan aytiladi.

Urgʻu, avvalo, xosligiga koʻra 2 xil: a) **soʻz urgʻusi**; b) **maʼno urgʻusi**.

Soʻz boʻgʻinidan biriga tushib, uning maʼno va talaffuzini belgilab beradigan urgʻu soʻz urgʻusidir: *zakova*□*t*, *olma*□ – ot, *o*□*lma* – feʼl. Unli tovush urgʻu oladi. Oʻzbek adabiy tilida urgʻu koʻpincha oxirgi boʻgʻinga tushadi. Oʻzakka qoʻshimcha qoʻshilganda ham urgʻu oxirgi boʻgʻinga koʻchaveradi. Masalan: *paxta*□, *paxtako*□*r*, *paxtakorla*□*r*. Biror tovushning urgʻu olishi nutq aʼzosining harakati va nafas kuchiga bogʻliq. Masalan: *xiz-ma*□*t-chi*. Soʻz urgʻusi soʻzning qayeriga tushishiga koʻra 2 xil boʻladi: a) **erkin urgʻu**; b) **bogʻliq urgʻu**.

Boʻgʻindan boʻgʻinga koʻchib uning maʼnosini farqlash uchun xizmat qiladigan urgʻu erkin urgʻu deyiladi. Masalan: *yuklama*□ – ot, *yu*□*klama* – feʼl; *qatlama*□ – ot, *qa*□*tlama* – feʼl; *suzma*□ – ot, *su*□*zma* – feʼl; *atla*□*s* (ot, ipak mato) – *a*□*tlas* (ot, kartalar toʻplami). Soʻz oxiriga tushgan urgʻu bogʻliq urgʻu deyiladi: *dala*□ – *dalaga*□ – *dalala*□*r*.

Oʻzbek tilida urgʻu, asosan, soʻzning oxirgi boʻgʻiniga tushadi. Masalan: *daftarlargà*, *ishchilardàn*. Ammo boshqa tildan kirgan, baʼzan oʻzbekcha soʻzda ham bu hol bir oz boshqacharoq koʻrinishga ega, yaʼni u soʻzning boshqa boʻgʻiniga tushishi mumkin: *hózir*, *albátta*, *lékin*, *ámmo*, *chu*□*nki*, *hámma*, *bárch**a*. Shuningdek, buyruq

soʻz (*gápir, óʻtir, bóshla*) va son alohida ohang bilan aytilsa: *íkki, yétti, ólti, sákson*; belgilash va soʻroq (*hár bir, hár qachon, hár qaysi, hár narsa*), gumon (*kímdir, állakim, állanima*), boʻlishsizlik (*héch kim, héch narsa*) olmoshida urgʻu birinchi boʻgʻinga yoki birinchi qismga tushadi. Bundan tashqari, tarkibli sonda: *ón ikki, ón besh, yígirma uch* kabi; qoʻshma va koʻmakchi feʼlli soʻz qoʻshilmasida: *soʻtib oldi, yózib oldi, bérib yubordi* kabi; takror soʻzda: *kátta-katta, ásta-asta* kabilarda urgʻu soʻzning birinchi boʻgʻiniga tushadi.

Juft soʻzda urgʻu ikkinchi soʻzning oxirida boʻladi: *ota-oná, bola-chaqá* kabi.

Urgʻu olmaydigan qoʻshimcha va yuklama ham mavjud: *-ta: beʻshta; -cha: ruʻscha, -tacha: oʻntacha; -gina* (-kina) (yuklama boʻlsa): *ulaʻrgina; -dek, -day: oʻtdek, oʻtday; -ov, -yev, yeva: Ahmeʻdov; -ma* boʻlishsizlik qoʻshimchasi: *oʻlma, isʻhlama*; shaxs koʻrsatuvchi olmosh qoʻshimchasi *-man, -san, -miz, -siz: talabaman, talabasiz*; qoʻshimcha (affiks) yuklama: *-ku: oʻldi-ku; -mi: oʻldimi; -chi: seʻn-chi; -da: keʻldi-da*; koʻmakchi (*uchun, sari*) kabi.

Aytilgan qoʻshimchalar soʻz oxirida kelganda urgʻu olmaydi: *oʻtirma – oʻtirmáysan – oʻtirmaysaʻnmi*.

Oʻzlashma soʻzni toʻgʻri talaffuz qilishga intilish natijasida oʻzbek tilining urgʻu tizimida maʼlum oʻzgarish yuz bermoqda. Bu hol urgʻuning oʻzlashma soʻzda erkin qoʻllanishida, shuningdek, qisman urgʻu orqali soʻz maʼnosini farqlashida koʻrinmoqda.

Urgʻu semantik (maʼno farqlovchi), morfologik (grammatik maʼno ifodalovchi), uslubiy vazifa bajaruvchi fonetik hodisa hisoblanadi.

Gapdagi soʻzdan birontasi boshqasiga nisbatan kuchli ovoz bilan ajratib aytilishi *maʼno* (gap, logik, mantiqiy) *urgʻusi* deyiladi.

Gapda maʼno urgʻusi qaysi soʻzga tushgan boʻlsa, soʻzlovchi tinglovchining diqqatini shu soʻzga tortmoqchi ekanligini bildiradi. Maʼno urgʻusi koʻpincha kesimdan oldingi soʻzga tushadi:

*Ertalab biz keldik, Biz ertalab keldik, Biz ertalab keldik.*

Toʻliqsiz gapda, odatda, maʼno urgʻusi olmagan boʻlak tushiriladi. Masalan:

– *Kim keldi?*

– *Men.*

## USLUBIYAT

Uslubiyat – nutq uslubi va uning turi, til vositasining nutqda qoʻllanish imkoniyati, leksik, frazeologik va grammatik sinonimiya masalasini tekshiradi va oʻrgatadi.

## UYADOSH SOʻZ

Oʻz ichiga oluvchi soʻz uya soʻz va uyaga kiruvchi soʻz *uyadosh soʻz* deyiladi. *Qoʻy uya soʻzi oʻz ichiga qoʻzi, sovliq, qoʻchqor, shishak, toʻqli* soʻzini olsa, *qoramol soʻzi sigir, novvos, hoʻkiz, buqa, gʻunajin* soʻzini oladi.

Bir uyaga kiruvchi uyadosh soʻz ichki guruhlariga boʻlinishi mumkin. Masalan *daraxt* uyasi oʻz ichida *mevali daraxt* va *mevasiz daraxt* uyasiga boʻlinadi. Bu uyachada *daraxt* nomi mevali va mevasizga boʻlingan holda yashaydi. Mas., *ot* uyasi quyidagi kabi uyachalarga boʻlinadi:

- a) jins uyasi: *ayg`ir, baytal*;
- b) zot uyasi: *arabi, bedov, qozoqi, muguli, axaltaka*;
- v) rang-tusi uyasi: *saman, to`riq, chovkar, qorabayir, qashqa, jiyrón*;
- g) vazifa uyasi: *salt, aravakash, yukchi, uloqchi, poygachi*;

Uya yoki uyadosh so`z o`rnida so`z birikmasi ham bo`lishi mumkin. Bunga *mevali daraxt* va *mevasiz daraxt* birikmasi misol bo`ladi. U daraxtning mevali turiga nisbatan uya birikma, *daraxt* uyasiga nisbatan uyadosh birikma.

## UYG`UR TILI

Uyg`ur tili — turkiy tillardan biri. Asosan, Xitoyning Sintszyan-Uyg`ur muxtor rayonida, shuningdek, O`zbekiston, Qozog`iston, Qirg`iziston, Afg`oniston, Rossiya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan. So`zlashuvchilarning umumiy soni 7.7 milliondan oshadi (1990- yil ma`lumoti.)

Uyg`ur tili 3 lahjaga bo`linadi: markaziy, sharqiy va janubiy. Markaziy lahja hozirgi uyg`ur tiliga asos bo`lgan. O`rta Osiyo va Qozog`istonda yashovchi uyg`urlarning 2 ta lahjasi bo`lib, ularning nomlanishida uyg`urlarning G`arbiy Xitoydan Yettisuv va Farg`onaga ko`chib o`tganlari aks etgan.

Boshqa turkiy tillardan farqli ravishda uyg`ur tilida unli va undoshlarning regressiv assimilatsiyasi mavjud; singarmonizm izchil emas: unlilarning lab va tanglay garmoniyasi buzilish hollari uchraydi; unlilar reduksiyasi, undoshlarning tushib qolishi, tovush orttirilishi kuzatiladi.

## UYG`UR YOZUVI

Uyg`ur yozuvi – so`g`d yozuvi asosida kelib chiqqan, arab va runiy yozuvidan farqli o`laroq, unli tovushi ayrim harf bilan ko`rsatilgan yozuv turi. Sharqiy Turkistondagi turkiyzabon xalqlar foydalangan harf-tovush yozuvi.

Harflar bir-biriga qo`shib yoziladi. Shuning uchun har bir harfning uchtadan shakli: so`z boshida, o`rtasida va oxirida qo`llanadigan shakllari bo`ladi. Mahmud Koshg`ariy bu alifboni “turk yozuvi” deb ataydi. Unda 18 ta harf borligini ta`kidlaydi. A.Rustamov *a* harfi ustiga bitta nuqta qo`yish orqali hosil bo`ladigan *n* harfini ham qo`shadi. Ana shu 19 ta harf 8 ta unli va 20 undosh tovushni ifodalaydi. Uyg`ur yozuvida harflar vertikal chiziq bo`ylab yuqoridan pastga qarab yozilgan, yozuv ustunlari esa, chapdan o`ngga yo`nalgan. Harfning so`zdagi o`rniga qarab tegishli o`rinlarda alohida shakllari qo`llangan.

Uyg`ur yozuvida yaratilgan yozma yodgorliklar qadimgi turkiy tilni o`rganish uchun muhim manba sifatida ahamiyatli. Ularning eng qadimgisi (“**Xuastuanift**”) V asrga oid bo`lsa, “**Oltun yoruq**” X asrga oid. Sharqiy Turkistondan – Turfondan X–XIII asrlarga oid 28 ta yuridik hujjatlar topilgan. Mashhur “Qutadg`u bilig» (XI asr) asarining bitta nusxasi (Vena) ham uyg`ur alifbosida yozilgan.

Uyg`ur yozuvi Chingizxon va temuriylar davrida ham keng qo`llangan. S.Y.Malovning qayd qilishicha, Sharqiy Turkistonda uyg`ur yozuvi XVII asrning oxiri–XVIII asrning boshiga qadar iste`molda bo`lgan.

Uyg`ur yozuvi IX–XIII asrda budda diniga sig`inuvchi turkiy qabilalar o`rtasida keng tarqalgan. Keyinchalik bu yozuv arab yozuviga o`z o`rnini bo`shatib bergan.



## VARIANTDOSH SO`Z

Variantdosh so`z – ikki yoki bir necha xil yozilishga ega so`z. Hammasi ham imlo qoidasiga binoan to`g`ri yozilgan hisoblanadi. Bu so`zni paronim va sinonimdan farqlash kerak. Paronimda yozilishi va aytilishi bir-biriga yaqin bo`lgan ikki so`zning ma`nosi butunlay boshqa-boshqa bo`ladi. Sinonimda esa shakli butunlay o`zgacha, ma`no qirrasida ham farq sezilib turadi. Variantdosh so`z ma`noda zarracha farq qilmaydi. Ular bir so`zning ko`rinishlari. Faqat yozilishida farq bor, xolos. Buning sababi bir varianti fonetik yozuv asosida bo`lsa, ikkinchi varianti morfologik yoki boshqa yozuv qoidasi asosida yozilgani. Demak, bir so`z turli yozuv (tamoyili) qoidasi asosida ham yozilishi mumkin. *abr* - *avr*; *adab* - *odob*; *ajdarho*, *ajdahor*, *ajdar* - *ajdaho*; *akildoqlik* - *akillaklik*; *alaklamoq* - *alahlamoq*; *alifbo* - *alfavit*; *anovi* - *anavi*.

Ba`zi variantdosh so`z juft so`z orasiga bog`lovchi vazifasida kelgan *-u* affiks-yuklamasining qo`shilib kelish va kelmasligiga ko`ra farq qiladi. Lekin barcha juft so`z orasida ham *-u* yuklamasi biriktirilavermaydi. Masalan: *baqiriq-chaqiriq*, *yemay-ichmay*, *janjal-suron* kabi so`z *-u* yuklamasiz yoziladi. Shuningdek, *dog`-hasrat*, *dog`-hijron*, *balo-qazo* so`zi *-i* bilan, yani *dog`i hasrat*, *dog`i hijron*, *baloyi qazo* tarzida yoziladi. Quyida bog`lama vazifasidagi *-u* yuklamasi bilan yoziladigan juft so`zdan keltiramiz: *abgor-abgashta* - *abgor-u abgashta*; *afsus-nadomat* - *afsus-u nadomat*; *aft-angor* - *aft-u angor*; *aft-bashara* - *aft-u bashara*; *ahd-paymon* - *ahd-u paymon*; *ajiz-niyoz* - *ajz-u niyoz*; *amr-farmon* - *amr-u farmon*; *anjom-ashyo* - *anjom-u ashyo*; *aql-farosat* - *aql-u farosat*;

Variantdosh so`zning ko`pchiligi *bermoq*, *olmoq*, *yubormoq* ko`makchi fe`l (harakat tarzi) bilan bog`liq. Bu ko`makchi fe`l o`zi qo`shilib kelgan yetakchi fe`lga -*vermoq*, *-olmoq* va *-vormoq* tarzida qo`shiladi: *bajara olmoq* - *bajarolmoq*; *beravermoq* - *bera bermoq*; *berolmoq* - *bera olmoq*; *betlasholmoq* - *betlasha olmoq*; *bilavermoq* - *bila bermoq*.

*ba-* va *bo-* qo`shimchalari bilan farq qiluvchi variantdosh so`zlar ham mavjud: *baadab* - *boadab*; *bama`ni* - *bama`no*; *baobro`* - *boobro`*.

Variantdosh so`z manbalarda *dublet* so`z ham deb yuritiladi.

## VAZIFADOSHLIK

Narsa va hodisa orasidagi vazifaviy o`xshashlik asosida birining nomini ikkinchisiga ko`chirish *vazifadoshlik asosida ma`no ko`chirish* deyiladi.

Vazifaviy ko`chirish ham o`xshashlikka asoslanadi. Bu jihatdan u **metaforaga** yaqin turadi. Farq shundaki, vazifaviy ko`chirishda tashqi ko`rinish o`xshashligi emas, balki vazifa o`xshashligi hisobga olinadi. Mas., qush tanasining uchish uchun xizmat

qiladigan a'zosi *qanot* deb ataladi. O'xshash harakatni bajaruvchi samolyot qismi ham shunday nomlanadi. *Tugma* yaktakning oldini tugib yopuvchi bog'ich nomi bo'lgan. Hozir shu vazifani bajaradigan odatda aylana tutqich ham *tugma* deyiladi. Vazifadoshlik asosida ma'no ko'chishi faqat ot turkumida uchraydi.



## **XAKAS TILI**

Xakas tili — turkiy tillardan biri. Asosan, Rossiyaning Xakasiya Respublikasida, shuningdek, Krasnoyarsk o'lkasi va Tuva Respublikasining unga qo'shni hududlarida tarqalgan. So'zlashuvchilarning umumiy soni 80 mingdan oshadi (o'tgan asrning 90-yillari.)

Lahjalari: sagay, kalchin, qizil va shor. Sagay va kalchin lahjasi hozirgi xakas tiliga asos bo'lgan.

Fonetikada 17 unli va 24 undosh mavjud; unlilarning cho'ziq, qisqa variantlari bor. Asl xakas tilidagi so'zlarda undoshlarning qattiq va yumshoqligi unliga bog'liq. Ammo bu hodisa fonematik darajada bo'lmaganligi sababli variant undoshlar alifboda aks etmagan. Xakascha so'zlar boshida jarangli undoshlar deyarli bo'lmaydi. Grammatikasi barcha turkiy tillar kabi belgilarga ega bo'lsa-da, ayrim yasovchi affikslarning qo'llanishi, kelishiklar tizimi, ayrim fe'l shakllari jihatidan o'ziga xosliklarga ega. Leksikasida oz miqdorda arabcha va forsha, ruscha o'zlashmalar bor.

## **XALQARO TIL**

Xalqaro til (*j a h o n t i l i*) – Dunyoda qo'llanish doirasi juda keng, boshqa til egasi ham foydalanadigan til. Hozir rasmiy tan olingan 6 ta xalqaro til mavjud: **ingliz, ispan, rus, xitoy, arab** va **fransuz tili**. Ko'p qo'llanadigani ingliz tili.

Turli davrda turli til xalqaro vazifani o'tagan. O'rta asrda Sharqda arab tili, Yevropada esa lotin, undan keyingi davrda fransuz tili katta ahamiyatga ega bo'lgan. XX asrda ingliz va nemis tili xalqaro til darajasiga ko'tarildi. Xalqaro til shu til amal qiluvchi davlatning xalqaro maydondagi nufuzi bilan belgilanadi. BMT tashkil topishi bilan rasmiy xalqaro til masalasi hal bo'ldi. 1945- yil rasmiy xalqaro til sifatida ingliz, fransuz, rus, ispan, xitoy tili belgilandi. 1973- yildan arab tili ham jahon tili sifatida tan olindi.

## **XITOIY TILI**

Xitoy tili – xitoy-tibet tillar oilasiga mansub tillardan; Xitoy Xalq Respublikasining rasmiy tili. Unda so'zlashuvchilarning umumiy soni 1 milliard 292 milliondan oshadi (2003-y.). Shuningdek, bu tilda Indoneziya, Kambodja, Laos, Vetnam, Myanma, Malayziya, Tailand, Singapur, Bruney, Syangan, Aomin, Filippin,

Yaponiya, Koreyada 30 milliondan ortiq kishi soʻzlashadi. BMTning rasmiy va ishchi tillaridan biri.

Xitoy tilida, asosan, 7 lahja mavjud: shim, u, syan, gan, xakka, yue, min. Lahjalar leksik tarkibi va fonetik xususiyati jihatidan ancha farqlanadi, hatto turli lahja vakillari bir-birlarini tushunmaydi, ammo lahjalarning grammatik qurilishi yagona.

Xitoy tiliga oid qadimiy yozma yodgorliklar miloddan avvalgi 2- ming yillikning 2- yarmiga oid Qadimgi adabiy yodnomalar – «Shutszin» (Tarix kitobi) va «Shitszin» (Qoʻshiqalar kitobi) miloddan avvalgi 1- ming yillikning 1- yarmiga oid. Oʻsha davrdagi jonli lahjalar asosida qadimgi adabiy xitoy tili shakllangan.

Xitoy tilidagi morfema va sodda soʻzlar odatda bir boʻgʻinli. Boʻgʻin tarkibiga kiruvchi undosh va unli tovushlar maʼlum tartibda joylashadi. Xitoy tilida boʻgʻin tarkibiga kiruvchi tovushlarning hammasi ham bir-biri bilan birika olmaydi, shuning uchun xitoy tili boʻgʻinlarining miqdori chegaralangan. Putunxuada 44 boʻgʻin, ton variantlarini hisobga olganda 1324 boʻgʻin mavjud.

Xitoy tilida bir boʻgʻinli soʻzlarga qaraganda ikki boʻgʻinli soʻzlar koʻproq. Terminologiyaning rivojlanishi natijasida ikkidan ortiq boʻgʻinli soʻzlar ham koʻpaymoqda. Soʻz yasalihi soʻz qoʻshish, affiksatsiya, konversiya orqali amalga oshiriladi. Bu tilda deyarli oʻzlashma soʻzlar yoʻq. Oʻziga xos morfologik va sintaktik belgilarga ega.

## **XITOY-TIBET OILASI**

Bu oilaga tay-xitoy guruhi (xitoy, dungan, tay, laos, chjuan, vietnam tili), tibet-birma guruhi (tibet, birma tili) kiradi.

## **XOM-SOM OILASI**

Xom-som oilasiga semit (yoki som) guruhi (arab, axmar, xarari, oysor, ivrit), qushit guruhi (galla, somali, saho, beja), berber guruhi (kobil, shilx, rif, tamazist), chat-xom guruhi (xause, kotoko, angas, karekare, sura, chuzgu, mubi), arab guruhi (qadimgi arab) tili kiradi.

## **“XUASTUANIFT”**

“Xuastuanift” yodgorligi (“Monaviylar tavbanomasi”) – V asrda bitilgan monaviylarning tavbanomasi. Bu yodgorlikning uch nusxasi bor, ular Sankt- Peterburg, Berlin va Londonda saqlanadi. Turfondan topilgan Sankt-Peterburg nusxasi uygʻur yozuvida bitilgan. Turfondan va “Ming budda gʻori” ibodatxonasidan topilgan Berlin va London nusxalari monaviy yozuvida bitilgan, uning til xususiyatlarini aks ettiradi. Bu yodgorliklarni 1910–1911-yillarda ingliz olimi Le Kok Berlin va Londonda nashr ettirgan. L.V.Dmitriyeva 1963-yilda uni lotin alifbosida ruscha tarjimasi bilan nashr ettirdi.

“Xuastuanift” V asrda eronchadan qadimgi turkiy tilga tarjima qilingan. Unda monaviylarning oʻz gunohlarini kechirishini soʻrab, Xudoga qilgan tavba-tazarrulari

bayon qilingan. Monaviylik – eronlik Moniy ibn Fatan (216–276) tomonidan asos solingan diniy mazhab.



## YANGI SO`Z

Yangi so`z – tilda yangi paydo bo`lgan va yangilik bo`yog`i sezilib turgan so`z: *lizing, audit, market, test, internet* kabi. Ular fanda **neologizm** deb ham yuritiladi.

Neologizm quyidagi turga ega:

a) yangi yasalgan: *serverxona, dendixona, devonxona, oraliq nazorat, yakuniy nazorat*;

b) yangi ma'no kasb etgan: *tadbirkor, xalqa (yo`l), nazorat, do`kon, foiz*;

v) yangi kirib kelgan: *reyting, test, audit, market*.

Yangi so`z davr o`tishi bilan zamondosh leksika tarkibiga o`tib ketadi. Mas., yaqin vaqtgacha neologizm sifatida qaralgan *kosmos, televideniye* leksemasi bugungi kunda yangilik bo`yog`ini yo`qotdi.

Faollashgan so`z yangi so`zning turidan, bir vaqt iste'moldan chiqib ketgan va bugungi kunda qayta qo`llana boshlagan: *hokim, viloyat, tuman, oqsoqol, sardor* kabi.

## YAPON TILI

Yapon tili – Yaponiyaning rasmiy tili. Yapon tilining genetik aloqalari, ya'ni qaysi oilaga mansubligi uzoq vaqt aniqlanmay, turli oilalarga nisbatlangan. So`nggi yillardagi tadqiqotlar yapon tilining oltoy tillar oilasiga mansubligini isbotlamoqda. Asosan, Yaponiyada, shuningdek, Osiyo, Amerika va Yevropaning bir qancha mamlakatlarida tarqalgan. Yapon tilida so`zlashuvchilarning umumiy soni 126 milliondan ortiq (2000-y.).

Yapon tilida shimoli-sharqiy, g`arbiy va janubiy lahja guruhlari farqlanadi. Fonologik tizimi avstronez tillarinikiga yaqin, adabiy tilda 35 fonema mavjud. Unlilar cho`ziq-qisqalik, undoshlar esa yakka va qo`shaloq kelish xususiyatlariga ega, bu xususiyatlar ko`pincha ma'no farqlash uchun xizmat qiladi. Grammatik tizimi oltoy, xususan, turkiy tillarnikiga o`xshash. Leksikasida asl yapon so`zlaridan tashqari xitoy tilidan o`zlashgan so`zlar ko`p, ular Yapon tiliga xitoy yozuvi bilan birga kirib kelgan.

IX-X asrlarda adabiy yapon tili g`arbiy lahja asosida shakllangan. XIII-XIV asrlarda bungo me'yorlari og`zaki nutqdan farqlana boshlagan. Hozirgi kunda adabiy yapon tili ayrim o`ziga xos shevalarni hisoblamaganda, qolgan barcha shevalarni ham iste'moldan chetlashtirmoqda. Mahalliy lahja va shevalardan oila doirasidagina foydalanilmoqda.

Yapon tilida ikkita alifbo mavjud. Katakana chet tilidan kirib kelgan so`zlar uchun, Xiragana esa "o`zlarining" so`zlari uchun ishlatiladi.

## YORDAMCHI SO`ZLAR

Yordamchi soʻzlar – mustaqil atash maʼnosiga ega boʻlmaydigan, soʻroq qabul qilmaydigan, mustaqil gap boʻlagi boʻlib kela olmaydigan, soʻz yasalishi va shakl yasalishi uchun asos boʻla olmaydigan soʻzlar. Bunday soʻzlar turli grammatik maʼno va munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. U mustaqil soʻzda va gapda grammatik maʼno ifodalashning alohida turini tashkil etadi. Yordamchi soʻzlarga **koʻmakchi, bogʻlovchi** va **yuklama** kiritiladi.

Koʻmakchi mustaqil soʻz bilan birga kelib, oldin turgan soʻzni keyingi soʻz bilan sintaktik aloqaga kiritadi. Bu bilan kelishikka oʻxshaydi. *Biz kelajakka ishonch bilan qaraymiz* gapida koʻmakchi yordamida «holat» grammatik maʼnosi yuzaga chiqib, *ishonch* soʻzi *qaraymiz* soʻziga bogʻlanadi. *Telefon orqali gaplashdim* gapida koʻmakchining «vosita» maʼnosi yuzaga chiqib, *telefon* soʻzini *gaplashdim* soʻziga bogʻlagan. *Doʻstlik biz uchun hamisha ilhom va kuch-quvvat manbai boʻlib kelgan* gapida yordamchi soʻzlar «atalganlik» maʼnosini ifodalab, *biz* soʻzini *boʻlib kelgan* soʻziga bogʻlagan. Koʻrinadiki, grammatik maʼno va vazifa birgalikda yashaydi.

Bogʻlovchi uyushiq boʻlaklarni, qoʻshma gapning tarkibiy qismlarini bogʻlash, ular orasida har xil tenglashtirish, zidlash, ayirish kabi grammatik maʼnoni ifodalash uchun xizmat qiladi: *olma va anor, oʻqidi, lekin yozmadi* kabi. Baʼzan gap boshida ham keladi: *Sitora aytdi. Lekin Munira tushunmadi.*

Yuklama ayrim soʻz yoki gapga qoʻshimcha maʼno yuklash uchun qoʻllanadi.

Yuklamaning morfologik maʼno ifodalash imkoniyati uning sintaktik imkoniyatidan kengroq. Chunki ular mustaqil soʻz va gapga qoʻshimcha maʼno yuklashi bilan ahamiyatli.

**Mustaqil soʻz** ham oʻrni bilan yordamchi soʻzdek grammatik maʼno ifodalaydi: *juda, eng, bagʻoyat, nihoyatda, oʻta, sal, birmuncha* kabi ravish daraja maʼnosini ifodalaydi; *olmoq, bermoq, qolmoq, oʻtirmoq, chiqmoq, ketmoq, boshlamoq, boʻlmoq* kabi 40 dan ortiq koʻmakchi feʼl harakat maʼnosini nutqqa moslaydi, lugʻaviy maʼnoga grammatik maʼno qoʻshadi: *oʻqib chiqdi, yoza boshladi, qoʻrqib ketdi* kabi.

**Yordamchi soʻz turkumi tahlili.** Yordamchi soʻz turkumi tahlili – uchta yordamchi soʻzlarning turi, xususiyatlarini aniqlash. Tartibi: 1. Yordamchi soʻzlarning qaysi guruhiga kirishi. 2. Vazifasiga koʻra turi. 3. Qoʻllanilishiga koʻra turi. 4. Tuzilishiga koʻra turi.

Namuna: *Gulnor ikki haftadan buyon dadasi va onasi bilan birga har kun bogʻda ishlaydi. (Oyb.) Men-ku chidayapman. Faqat opasiga qiyin... (S.Ahm.)*

*Buyon* – koʻmakchi, sof koʻmakchi; chiqish kelishigidagi soʻzni boshqarib kelgan; soʻz shaklidagi koʻmakchi.

*Va* – bogʻlovchi, teng bogʻlovchi; yakka qoʻllanadi; soʻz shaklidagi bogʻlovchi.

*Ku* – yuklama, taʼkid yuklamasi; qoʻshimcha yuklama.

## YOZUV

Yozuv – fikrning tashqi ifodasi. U orqali kishi oʻz fikrini bir-biriga bildiradi, avlodlarga qoldiradi. Yozuv orqali oldin oʻtgan voqea, shaxs, ilm va urf-odat toʻgʻrisida maʼlumot olib, madaniyat, fan, ijtimoiy hayotda boʻlgan voqeadan voqif boʻlamiz.

Dastlabgi yozuv rasm orqali (bu xil yozuv **piktografik**: «piktus» – «chizilgan», «graphie» – «yozaman» demakdir) bo'lgan. Bunda har bir rasm (yoki narsa) biror ma'no ifodalagan (quyosh – kunduzni, oy – tunni, toshbaqa – baxtni kabi).

Yozuvning keyingi davri – **ideografik** yozuvdir (yunoncha «idea» – «tushuncha», «graphie» – «yozaman»). Bunda bir yoki bir guruh tushuncha uchun bir xil ramziy shakl olinadi. Mas., ko'z – O, asir – O, daraxt – J, oy – C kabi.

Piktografik va ideografik (uning birinchi bosqichi logografik – «so'z + yozaman») yozuv ancha murakkab, minglab shaklni chizish va uning mazmunini bilishni talab etgan. Shuning uchun kishilar yozuvning yangi bosqichi – **fonografik** yozuvga – avvalo ayrim bo'g'inni, keyinroq ayrim tovushni biror belgi bilan ifodalash usuliga o'tgan. Fonetik yozuvning kelib chiqishi **qadimgi finikiya** yozuvi bilan bog'langan.

Xalqlar fonetik yozuvni tiliga moslab, o'ziga xos shaklini yaratib olgan: yunon, lotin, arman, gruzin, slavyan, arab yozuvi va uning ayrim o'zgargan turi kabi.

Qadimgi yozuv tosh, suyak, yog'och, qamish kabi qattiq jismga, so'ngra pergament va keyinchalik qog'ozga yozilgan. Yozuv o'ngdan chapga, chapdan o'ngga yoki yuqoridan pastga qarab o'qiladi.

**O'zbek yozuvi tarixi.** Markaziy Osiyo turkiy xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi qadimdan yuksak madaniyatli xalq sifatida dunyoga tanilgan. Arab istilosiga qadar, Movarounnahrda run, turkiy (uyg'ur), so'g'd, moniy va braxma, suryoniy yozuvi qo'llangan.

Diniy mazmundagi asar braxma, suryoniy yoki moniy yozuvida, rasmiy hujjat runiy, turkiy (uyg'ur) yoki so'g'd yozuvida yozilgan. Shu bilan birga, bu yozuvning qo'llanishi ma'lum hudud, davr va xalq bilan ham bog'liq bo'lgan edi.

Qayd etilgan yozuvlarda bitilgan ko'p yozma yodgorlik hozirgacha saqlanib keladi. Runiy yozuvda – **O'rxun-Enasoy** (ba'zi adabiyotda **dulbarchin**) **tosh bitiklari**, turkiy (uyg'ur) yozuvida (uni Mahmud Koshg'ariy va Ibn Arabshoh «turkcha yozuv» deb nomlaydi) – qadimgi turkiy yodnoma (VII–X asr): «**Oltin yorug'**», «**Maytri simit**», budda va xristian diniga oid yodnoma, yuridik hujjatlar; so'g'd yozuvida bitilgan yozma yodnoma esa 1906- yili ingliz olimi Arnold Steyn tomonidan topildi. Moniy yozuvida «**Xuastuanift**» yodgorligi yozilgan. Uyg'ur yozuvi arab yozuvi bilan barobar XV asrgacha qo'llangan. «**Qutadg'u bilig**»ning Vena (Hirot) nusxasi (XI asr), «**Hibatul haqoyiq**» (XII asr)ning Anqara nusxasi «O'g'uznoma»ning qadimiy nusxasi (XIII asr oxiri), Xorazmiyning «**Muhabbatnoma**» (1353- yil) asarining qadimgi nusxasi, «**Latofatnoma**», «**Dahnoma**», «**Maxzanul asror**» (XIV–XV asr) kabi asarning ayrim nusxasi yoki parchasi uyg'ur yozuvida bitilgan. Uyg'ur yozuvida arab va runiy yozuvidan farqli o'laroq, unli tovush ayrim harf bilan ko'rsatilgan. Runiy yozuvi ham qadimgi oromiy yozuvi asosida kelib chiqqan, degan nazariya hozir asosiy o'rinni egallaydi.

**So'g'diy yozuvda**, asosan, eron tilida matn yozilgan. Tojikistonning Zahmatobod tumani Xayrobod qishlog'idan topilgan so'g'diy yozuvdagi 74 hujjatdan bittasigina turkiy tilda yozilgan.

**Suryoniy yozuvi** Mesopotamiyada paydo bo'lgan, VII–VIII asrda Markaziy Osiyoga nasroniy (xristian) mazhabi bilan kirib keldi. Bu yozuv XV asrgacha qo'llandi.

**Xatti boburiyning** harf shakli Muhammad Tohir ibn Qosimning 1645- yili yozgan «**Ajoyibot taboqat**» asarida keltiriladi.

Arab istilosi bilan birga kirib kelgan **arab yozuvi** (VIII asr) 1200 yildan ortiq davr ichida (1926- yilgacha) ba'zi isloh bilan (1918–1920) qo'llanib keldi. Bu yozuvda minglab ilmiy, badiiy, diniy asar yaratildi, rasmiy hujjat tuzildi. Birgina Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida 46 ming jild arab alifbosida yozilgan asar saqlanadi. Arab alifbosi va bu alifboda yozilgan asar Oktabr to'ntarishidan keyin, ayniqsa, 30- yillarda qattiq ta'qib ostiga olindi. Natijada ko'p qimmatbaho qo'lyozma ko'mildi, suvga oqizildi yoki ma'muriy idoralar tomonidan musodara qilinib, egalari qattiq jazoga mahkum etildi.

Arab yozuvining kufiy, nasta'liq va boshqa shakli (devoni, mag'rib, ta'liq) bo'lib, O'rta Osiyoda asosan nasta'liq shakli qo'llandi.

Oktabr to'ntarishidan so'ng arab alifbosi ma'lum darajada isloh qilindi. Chunki arab alifbosida unli tovushni ko'rsatadigan alohida belgi yo'q edi. Zer, zabar (harfning osti va ustida unli uchun qo'llanadigan belgilar) faqat Qur'on va shunga o'xshash arab tilida yozilgan diniy asardagina qo'llanar edi. 1921- yil 1–5- yanvarda Toshkentda chaqirilgan til-imlo qurultoyi, boshqa masala bilan birga, arab harfining so'z boshi, o'rtasi va oxirida qo'llanish shaklini soddalashtirdi, o'zbek tiliga xos bo'lmagan *sod, zod, itqi, izg'i* harfini alifbodan chiqardi, *u, o', i, a* tovushi uchun alohida harf belgilandi. 1922- yil aprel oyida bo'lgan maorif va madaniyat xodimlarining ikkinchi qurultoyi ham birinchi qurultoy qarorini ma'qulladi.

1926- yili Bokuda turkiyshunoslar anjumani bo'lib (O'zbekistondan A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat qatnashdi), lotin alifbosiga o'tish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bunga arab alifbosining turkiy til fonetik xususiyatini aks ettirmasligi va o'rganishning qiyinligi asos sifatida ko'rsatildi.

1926- yil 10- iyunda O'zbekiston Sovetlar Ijroiya Komiteti lotin alifbosiga o'tish to'g'risida qaror qabul qildi. Qarorga asosan «Yangi o'zbek alifbosini joriy qilish qo'mitasi» tuzilib, unga Y.Oxunboboyev rais, A.Ikromov, F.Xo'jayev, Elbek, Majidiy, Fitrat va boshqalar a'zo bo'ldi.

O'zbekiston Markaziy Ijroiya Komitetining 1928- yil mart oyidagi III sessiyasi lotin alifbosini joriy qilishni ko'rib chiqib, uni davlat alifbosi deb qaror qabul qildi. Sobiq Sho'ro Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi bu qarorni 1929- yil 7- avgust kuni maxsus qarori bilan ma'qulladi.

1929- yil may oyida o'tkazilgan imlo qurultoyida 9 unli shakli olingan bo'lsa-da, 1934- yil mart oyida o'tkazilgan imlo qurultoyi 6 unlining harf shaklini belgiladi.

1940- yil 8- may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidiumi lotin alifbosidan kirillitsa (rus) alifbosiga o'tish to'g'risida qaror qabul qildi. Qarorda ish yuritish va vaqtli matbuot yangi alifboga o'tishi va I, II, III sinfda yangi alifboni o'qitish 1940- yil 1- sentabrdan boshlanishi hamda yangi alifboga o'tish 2 yil ichida – 1942- yil 1- yanvargacha tugallanishi zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

Shunday qilib, sobiq Sovet Ittifoqi tarkibidagi deyarli hamma respublika va viloyat (o'zining qadimgi an'anaviy alifbosi bo'lgan Gruziya, Armaniston, Boltiqbo'yi respublikasidan tashqari) yangi alifboga o'tdi.

1993- yil 2- sentabrda bo'lib o'tgan Respublika Oliy Kengashi «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy qilish to'g'risida» Qaror qabul qildi. 1995- yil 6–7- mayda Oliy Kengash bu alifboga ma'lum o'zgarish kiritdi va shu yil 24- avgustda «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash» haqidagi O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining qaroriga Respublika Prezidenti imzo chekdi. 1996–1997-o`quv yilidan maktabning 1- sinfi yangi alifboni o`rgana boshladi. Yangi o`zbek alifbosiga o`tish 2005- yil 1- sentabrda tugallanishi ko`rsatilgan. Keyinchalik bu 2010-yilgacha uzaytirildi.

O`zbekiston Respublikasining rus (kirillitsa) alifbosidan lotin alifbosiga asoslangan o`zbek alifbosiga o`tishida dunyo fani va texnikasiga yaqinlashish, o`zbek tilining nozik xususiyatini to`laroq ifodalash asosiy maqsad qilib qo`yildi.

## YUKLAMA

Yuklama – ayrim so`z yoki gapga so`roq, ta`kid, ayirish-chegaralash, gumon, o`xshatish, inkor kabi ma`nolarni yuklovchi so`z va qo`shimchalar. Yuklamalar morfologik jihatdan o`zgarmaydi, so`z yasalishi va shakl yasalishi uchun asos bo`lmaydi, mustaqil gap bo`lagi vazifasida kelmaydi.

Yuklamalar tuzilishiga ko`ra so`z (*faqat, axir, hatto//hattoki, na – na, xuddi, naq, nahot//nahotki, ham, xolos, hech, sira, naq*) va qo`shimcha yuklamalarga (*-a//ya, -mi, -chi, -oq//yoq, -ki// -kim, -gina//kina//qina, -dir, -u//yu, -ku, -da*) bo`linadi.

Yuklama ma`no jihatdan quyidagi turlarga bo`linadi:

**So`roq va taajjub yuklamalari** gap ma`nosiga so`roq, ajablanish, buyruq ma`nolarini yuklaydi: *-mi, -chi, -a//ya;*

**Kuchaytiruv-ta`kid yuklamalari** gapning ma`lum bir bo`lagi yoki butun bir gap ma`nosini kuchaytirib, ta`kidlab keladi: *axir, hatto//hattoki, -oq//yoq, nahot//nahotki; tim, qoq, liq, lim, g`irt, g`arq, shilta, jiqqa; -ku, -da, -ki//kim, -u//yu, ham;*

**Ayiruv-chegaralov yuklamasi** o`zi qo`shilgan so`zning ma`nosini ayirib-chegaralab keladi. *-gina//kina//qina, faqat, xolos; yolg`iz (sifat), bir (son);*

**O`xshatish-qiyoslash yuklamasi** so`zga o`xshatish-qiyoslash ma`nosini yuklaydigan yordamchi so`z: *xuddi, go`yo, go`yoki, naq;*

**Gumon yuklamasi** gap yoki so`zga gumon manosi yuklaydi: *-dir;*

**Inkor yuklamasi** gapdagi fikrning inkorini bildiradi: *na, hech, sira.*

Imlo si: *-mi, -gina//kina//qina, -oq//yoq, -dir, -ki//kim* yuklamalari so`zga qo`shib yoziladi. *-chi, -a//ya, -ku, -da, -u//yu* yuklamalari chiziqli bilan yoziladi.

## YUNON YOZUVI

Yunon yozuvi – grek, finikiy yozuvidan kelib chiqqan alifboli yozuv; taxminan miloddan avvalgi IX-VIII asrlarda paydo bo`lgan. Eng qadimgi yodgorliklari miloddan avvalgi VIII-VII asrlarga mansub. Turi va harflar to`plami jihatidan qadimgi frigiya alifboli yozuviga yaqinroq. Yunon yozuvida finikiy konsonant alifbosidan farqli ravishda, undoshlarni ifodalovchi harflardan tashqari unilarni ifodalovchi harflar ham paydo bo`lgan. Alifboli yozuv paydo bo`lguncha greklar chiziqli bo`g`in yozuvidan foydalangan.

Mumtoz umumyunon alifbosi 27 harfdan iborat, shu asosdagi matnlar chapdan o`ngga qarab yozilgan. Yangi yunon alifbosi 24 harfdan iborat. Yunon yozuvining tosh, metall va sopol buyumlarga bitilgan monumental, unsial, kursiv, minuskul va boshqa turlari mavjud.



## ZAHIRIDDIN BOBUR

Zahiriddin Muhammad Bobur – buyuk davlat arbobi, ajoyib sarkarda, talantli shoir, muarrix, geograf, etnograf, adabiyotshunos, islomshunos, harbshunos, musiqashunos, tilshunos sifatida dunyo ilm ahliga ma'lum va mashhur. U Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tilining istiqboli yo'lidagi kurashini davom ettirib, nutq madaniyatiga katta e'tibor qaratdi. Bobur tilshunoslikka doir maxsus asar yozmagan bo'lsa ham, o'zining qomusiy asari «Boburnoma»da tilshunoslikka doir qimmatli qarashlarini ham bayon etdi. «Boburnoma»da uch oilaga kiruvchi hind, fors, afg'on; arab va o'zbek tillarini solishtirib, dunyo tilshunosligida yangi nazariyaning – bir necha tillarni qiyoslab o'rganish nazariyasining asoschisi sifatida tanildi. Shuningdek, asarda so'zlar etimologiyasi, nutq tovushlari tahlili, uslubiyat, so'z semantikasi, grammatik vositalar, lahja va adabiy til munosabati masalalari xususida qimmatli ma'lumotlar ham keltiriladi.

## ZAMON

Harakat-holat, odatda uch zamondan birida sodir bo'ladi. Zamon nutq so'zlanib turgan paytga nisbatan belgilanadi. Nutq so'zlangan vaqtgacha bo'lgan zamon, nutq so'zlanayotgan zamon, nutq so'zlangandan keyingi zamon. Shunga ko'ra, zamonning uch turi farqlanadi:

**O'tgan zamon shakllari** – harakat va holatning gap aytilayotgan paytdan oldin sodir bo'lganligini bildiradi: *Yigitlar maktubin bitganda qondan...*(A.Orip.)

Hosil bo'lishi: 1. *-di* qo'shimchasi bilan yasalgan o'tgan zamon shakli so'zlovchining bevosita o'zi ko'rgan yoki bajargan harakatini bildiradi. Bu qo'shimchadan so'ng *-m*, *-k*, *-ng*, *-ngiz* shaxs-son shakllari qo'shiladi. O'tgan zamonning bu shakli yaqin o'tgan zamon ham deb yuritiladi: *Eshityapsizmi, oyi, men yana keldim. (O'.Hosh.) Mukammal ko'rmoqchi bo'ldik dunyoni, yetuk bo'lolmadik o'zimiz biroq. (A.Orip.)*

2. *-(i)b* qo'shimchasi bilan yasalgan shakl birov tomonidan eshitib bilingan harakat-holatni bildiradi. Bu shakldan so'ng shaxs-sonning *-man*, *-san*, *-miz*, *-siz* shakllari qo'shiladi. Ayrim manbalarda **o'tgan zamon hikoya fe'li** ham deb yuritiladi: *O'g'ri o'sha amakivachchalarning tomidan sekin yura kelib, buvimning to'g'rilariga kelganda aksa urib yuboribdi. (G'.G'ul.)*

3. *-gan* shaklli sifat-doshni tushlash bilan yasalgan o'tgan zamon shakli nisbatan oldinroq sodir bo'lgan harakatni ifodalaydi. Bu shakl **uzoq o'tgan zamon shakli** ham deb yuritiladi: *Oqar daryolarga kimdir band bergan. (A.Orip.) Sen qachon kelgansan?*

4. Ayrim fe'l shakllariga to'liqsiz fe'llarni qo'shib tushlash bilan hosil qilangan zamon **o'tgan zamon davom fe'li** deyiladi: *(-r/ar/ayotgan/moqda edi+shaxs-son): Maxdum oilasini ham kiyim-kechak vajidan o'zi kabi tutar edi. (A.Qod.)* Bo'lishsiz

shakli *-mas edi* ko'rsatkichi orqali hosil qilinadi. To'liqsiz fe'ldagi birinchi unli noturg'un, tushib qolishi ham mumkin: *Esingizdami, oyi, ukamga alla aytardingiz. (O'.Hosh.)*

**Hozirgi zamon shakllari** – harakat va holatning nutq so'zlanib turgan paytda sodir bo'layotganligini bildiradi: *Siz oliy o'quv yurtiga kirish uchun tayyorlanayapsiz.*

**Hosil bo'lishi:** 1. *-yap* (yotib) shaklini tushlash bilan hosil qilinadi: *Juda chiroyli muomala qilyapsiz. (P.Qod.)*

2. *-yotir/ayotir* shaklini tushlash bilan yasaladi: *O'tib borayotir qanchalar kalom... (A.Orip.)*

3. *-moqda* shaklini tushlash bilan yasaladi: *Tong otmoqda, tong o'qlar otar... (R.Parfi)*

4. *yot, tur, o'tir, yur* ko'makchi fe'llari *-(i)b* shakli orqali tuslanib, hozirgi zamonni ifodalaydi: *Mayin shamol esib turibdi. U do'stini kutib turibdi. Bola kitob o'qib o'tiribdi. Imtihonlarga tayyorlanib yuribmiz. Mushuk o'ljasini poylab yotibdi.*

Hozirgi zamon shakli o'zaro ma'noviy emas, uslubiy qo'llanishi bilan farqlanadi. Hozirgi zamon shakllarining barchasi uchun xos bo'lgan muhim xususiyat ularning davomiyligi. Harakat o'tgan zamonda boshlanib, kelasi zamonda tugaydi. Shu sababli manbalarda bu zamon **hozirgi zamon davom fe'li**, ba'zan **hozirgi kelasi zamon** ham deb yuritiladi.

**Kelasi zamon shakllari** – harakat va holatning nutq so'zlanib turgan paytdan so'ng sodir bo'lishini bildiradi: *Sen hali ulg'ayib bir qiz bo'lasan....*

**Hosil bo'lishi:** 1. Kelasi zamon *-a/y* shaklidagi ravishdoshni shaxs-sonda tushlash orqali hosil qilinadi: *Daryoning suvi ko'paysa, baliqlarning chiqishi oson bo'ladi. (S.Ahm.)* Bu shakl 3 xil ma'no ifodalaydi: 1) **hozirgi–kelasi zamon:** *U kollejdagi o'qiydi;* 2) **sof kelasi zamon:** *Ertaga boraman. Uch-to'rt kun chidaysan;* 3) **umumzamon:** *Yer o'z o'qi atrofida aylanadi. Baliq suvda yashaydi.*

2. Sifatdoshning *-r/ar (-mas)* ko'rsatkichi bilan hosil bo'luvchi shaklini shaxs-sonda tushlash orqali kelasi zamon gumon fe'li ifodalanadi: *Yomg'ir tinsa, ertalab yo'lga chiqarmiz.*

3. Hozirgi–kelasi zamonning *-gay/kay/qay, -gu/ku/qu* qo'shimchasi orqali hosil bo'luvchi shakli ham bor. U asosan she'riyatda, shuningdek, o'g'uz lahjasida ishlatiladi: *borgayman, borgum kabi.*

**Uslubiy belgilari:** Zamon shakllari nutqiy qurshov ta'sirida turli ko'chma ma'nolarda bir-birining o'rnida ishlatiladi. Bunday nutqiy holat zamon ko'chishi deyiladi:

1) aniq o'tgan zamon kelasi zamon o'rnida: *Hozir qorong'ida qayoqqa bordigu, nimayam qildik;*

2) hozirgi zamon kelasi zamon o'rnida: *Bugun Qarshi poyezdi bilan Toshkentga jo'nab ketyapman;*

3) hozirgi–kelasi zamon o'tgan zamon o'rnida: *Alisher Navoiy 1441- yilda Hirotda tug'iladi.*

4) o'tgan zamon kelasi zamon o'rnida: *Qani, yozdik.*

5) hozirgi zamon o'tgan zamon o'rnida: *Tashqariga qarasam, ikki bola urishyapti.*

**Imlo si:** *-yap* shakli undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilganda, *-ayap* holida talaffuz qilinsa-da, *-yap* yoziladi: *Juda chiroyli muomala qilyapsiz. (P.Qod.)*

O'tgan zamonning *-di* shakli ba'zan *-ti* tarzida talaffuz qilinsa-da, asliga muvofiq yoziladi: *ketdi, o'qibdi*.

## ZAMONAVIY SO`Z

Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasining asosini zamonaviy leksika tashkil etadi. Bu leksika **umumiste'mol so`z, qo'llanilishi chegaralanmagan so`z, faol so`z, zamondosh so`z** kabi atama bilan ham yuritiladi

## ZID MA'NOLILIK

Zid ma'nolilik – so`z, ibora va qo'shimchanning o`zaro zid ma'no asosidagi munosabati. Uning leksik (*yaxshi – yomon, keng – tor*), morfologik (*-li – -siz*), frazeologik (*qo`li uzun – qo`li kalta*) ko`rinishi mavjud. Zid ma'nolilikni hosil qiladigan belgi – asos ma'nodagi zidlik. Qo'shimcha ma'nosidagi zidlik antonimlik hosil qila olmaydi. Mas., *chehra* va *bashara* so`zi qo'shimcha ma'nosi bilan farqlanadi. Inkor yoki fe'ling bo'lishli-bo'lishsizlik shakli ham antonimlik hosil qila olmaydi. Mas., *o`qidi* va *o`qimadi* fe'llari o`zaro antonim emas. Ma'nodagi zidlik asosida bo`ladigan inkor bilan biror narsa, belgi yoki harakatning aynan o`zining inkor etilishini farqlash kerak. Zid ma'nolilikda, yuqorida ko`rilganidek, o`zaro zidlik yotadi. Bu zidlik ikki birlikning ma'nosi o`rtasida bo`ladi. Oddiy inkorda esa, aynan bir narsa, belgi yoki harakat inkor etiladi. Bunda o`zaro qarama-qarshi turadigan ikki narsa, ikki belgi, ikki harakat bo`lmaydi. Mas., *tun, qora, olmoq* so`zi bildirgan narsa, belgi, harakat inkor etilishi bilan *tun emas, qora emas, olmadi* kabida *oq – qora, bormoq – kelmoq* so`zidagiga o`xshash zidlik yo`q. **Ko`p ma'noli so`zning** zid ma'noliligi qanday ma'noda kelganligiga qarab belgilanadi. Bir so`z har xil ma'nosi bilan har xil so`zga zid ma'noli bo`la olishi mumkin. Mas., *qattiq* so`zi bir ma'nosi bilan *yumshoq* so`ziga, boshqa bir ma'nosi bilan esa *saxiy* so`ziga zid ma'noli bo`ladi. Qiyoslang: *qattiq predmet – yumshoq predmet, qattiq odam – saxiy odam*. Zid ma'noli so`zlar juft holda qo'llanib **ko`chma ma'no** ifodalaydi: *yaxshi-yomon* (har xil) *gaplar, erta-kech* (doim) *xayolimdasan*. Zid ma'nolilik, asosan, belgi bildiruvchi so`z – sifat va ravishda uchraydi. Ot va fe'lda kamroq: *vafo – jafo, yig`lamoq – kulmoq* kabi. Zid ma'nolilik yordamida badiiy adabiyotda **tazod, antiteza** san'ati hosil qilinadi. Biroq zid ma'nolilikni tazod va antitezaga tenglashtirib qo`ymaslik kerak. Zid ma'noli bo`lmagan so`zlar ham bu san'atni hosil qilaveradi.

Zid ma'nolilikdan to`g`ri foydalana olmaslik ham uslubiy xatolikni keltirib chiqaradi: *Choyxona mudiri Yusufjon Nozimov turmushning issiq-chuchugini tatigan kishiga o`xshaydi*. Gapdagi *issiq-chuchugini* juftligi o`rnida *achchiq-chuchuk* juftligi ishlatilishi kerak edi.



## O`LIK TIL

O`lik til – qadimda qo`llanib, shu tilda gaplashgan xalqning turli sabab bilan yo`q bo`lib yoki boshqa xalqqa qo`shilib, o`zga tilda gaplashib ketishi natijasida iste`moldan chiqib, muomalada ishlatilmaydigan bo`lib qolgan, bugungacha faqat yozma manba orqali yetib kelgan til. Mas., **lotin, qadimgi hind yoki sanskrit, qadimgi slavyan, qadimgi xorazmiy, qadimgi arab, qadimgi fors, so`g`d tili** va boshqalar.

Lotin tili qadimgi Rim imperiyasining rasmiy tili sifatida mavjud bo`lgan. Imperiya yemirilgandan keyin asta-sekin o`lik tilga aylana borib, hozirgi davrda qoldig`i ilmiy atama sifatida uchraydi. Lotin tili o`rta va oliy tibbiyot o`quv yurtidagina o`qitiladi. Lekin bu uning muomalada ekanligini ko`rsatmaydi.

Eroniy tilning sharqiy turkumiga kirgan qadimgi xorazmiy tilida qadimgi Xorazm aholisi gaplashgan. Bu til XI asrgacha muomalada bo`lgan. So`ngra iste`moldan chiqib, o`lik tilga aylangan (qiyos. **Tirik til**).

## O`Z QATLAM

O`zbek tilidagi turkiy so`zlar o`z qatlam deyiladi: *men, sen, biz, o`qi, oq, ket, bir, besh*. O`z qatlamga oid so`zning muhim belgisi quyidagilar: 1) bu qatlamga oid so`zning o`zagi asosan, bir-ikki bo`g`inli bo`ladi: *ol, ber, qol, ota, uka, qo`y, echki* kabi; 2) bir bo`g`inli so`z ko`proq *undosh+unli+undosh* shakliga ega: *kun, kul, bo`l, qil*; 3) ikki bo`g`inli so`z ko`proq ochiq bo`g`indan tuziladi: *ikki, olma, ola, ota*; 4) so`z *r, l, v, h, ts* tovushi bilan boshlanmaydi; 5) so`z oxiri *e, u, o* unlisi bilan tugamaydi (undov, taqlid so`z, *de* fe`li bundan mustasno); 6) so`z tarkibida sirg`aluvchi *j*, bo`g`iz *h*, qorishiq *ts* tovushi uchramaydi (undov va taqlid bundan mustasno); 7) so`zda ikki unli yonma-yon kelmaydi: *saodat, baayni, mutolaa, maorif* kabi; 8) sof o`zbekcha qo`shimcha undosh bilan boshlanadi: *-chi, -li, -lik, -la* kabi. 9) *f, d* kabi yumshoq va lab-tish *v* undoshi sof o`zbekcha so`zga xos emas: *daftar, dard, dil, dunyo, falak, vagon* kabi; 10) fe`l, son, taqlid so`z faqat o`z qatlamga mansub; 11) o`z qatlamga mansub so`z o`zagi alohida talaffuz qilinganda, tovush o`zgarishi yuz bermaydi. O`zak holida tovush o`zgarishiga uchragan so`z o`zlashma qatlamga mansub: *go`sht, dard, hukm, daftar, kitob* kabi; 12) boshqa tildan o`zlashgan so`z asosida shu tilda yasalgan so`z ham o`z qatlamga mansub bo`ladi: *kitobxona, nonchi, ma`rifatli, kompyuterchi* kabi; 13) o`z qatlam so`zi tutuq belgisi bilan yozilmaydi.

## O`Z MA`NO

O`z ma`no – so`zning predmet, voqea-hodisa haqidagi dastlabgi, real, nutqdan tashqarida anglatgan ma`nosi. O`z ma`no atamasi darslikda turli sinonimiga ega: **bosh ma`no, denotativ ma`no, asosiy ma`no, to`g`ri ma`no, genetik ma`no** va hokazo. Masalan: *ko`z* – «ko`rish a`zosi», *paxta* – «oq mayin tola beruvchi o`simlik», *to`qimoq* – «gazmol yoki buyum yasamoq, tayyorlamoq» kabi. (qiyos. **Ko`chma ma`no**).

## O`ZAKLI YOKI AJRATUVCHI TILLAR

Bu tip tillar qo`shimchali tillarga zid qo`yiladi, chunki bunda grammatik munosabat ifodalovchi affikslar bo`lmaydi. Grammatik ma`nolar yordamchi so`zlar, so`z tartibi, intonatsiya, urg`u (ularning musiqaviyligi kuchli) yordamida yuzaga chiqadi. Xitoy, birma, tay, tibet va boshqa Janubi-Sharqiy Osiyo tillari kiradi. Xitoy tili o`zakli (ajratuvchi) tillarning tipik vakili hisoblanadi. Bunda analitik tarkibli so`zlarda suffiks o`rnida mustaqil so`z, morfema qo`llaniladi. Mas., (*gunjen* - ishchi) *ish* + *odam* tarkibli; *nuyjen* – ayol. Bunday polusuffikslar talaygina: *sza*, *ish*, *sin*, *xau*. *Sza* (*sze*, *za*): *fansza*-uy, *chjozsa*-stol, *itsza*-stul, *putsza*-do`kon va hokazo. Xitoy tilida so`zlarning gap bo`laklari bo`yicha guruhlanishi ham o`ziga xos. Otlar, gapda subyekt, obyekt, atribut, ot-kesim bo`lib kelishi mumkin, shuningdek, xitoy tili otlari predlog va posleloglar bilan mos: *szay chjotsza shan-stolda*, *szay Moseke-Moskvada*, *utsza li-ko`chada*. Ot turlanmaydi, rod va son shakliga ega emas. Xitoy tilidagi fe`llar esa bog`lamasiz ham kesimga aylanishi mumkin: *Ma pao* – *Ot yuguryapti*; *Ta kan bao* – *U gazeta o`qiyapti*; *Vo chi* – *Yeyapman*. Xitoy tilida so`z ko`p ma`noli va polifunksional (bir necha vazifalarda). Mas., *xao* so`zi turli so`z birikmalari va kontekstda turli xil ma`no anglatadi: *xao jen* – yaxshi odam, *si xao* – yaxshilik qilish, *dzio xao* – qadimgi do`stlik, *xao vo* – Bu kishi meni yaxshi ko`radi. Ajratuvchili – analitik tillarda ton va urg`u asosiy rol o`ynaydi: tovushning pasayishi va ko`tarilishi hatto fe`l zamonlarini ham ifodalaydi. Bu tillar *amorf* deb ham ataladi (*amorf* – yunoncha *amorphos* – «shaklsiz» demakdir). O`zakli tillarning o`ziga xos, ajratuvchi morfologiyasi bu tillarda affiksli yoki flektiv shakllarning yo`qligini yaqqol ko`rsatib turadi.

## **O`ZBEK ATAMASI**

O`zbek qavmi ham o`z nomiga ega bo`lguncha turli nom ostida yashagan. U qadimgi turkiy qavm davrida tarixan shakllangan bir guruh qabiladan tashkil topgan. Garchand o`zbek nomi bo`lmasa-da, o`zbek xalqining birinchi qatlami IX–XII asrda qoraxoniylar davrida qarluq, chigil, yag`mo qabilasi ittifoqi zaminida hosil bo`lgan. O`zbek tili mustaqil til sifatida XI asrdan shakllana boshlagan. XX asrning boshigacha *turk*, *sart*, *chig`atoy*, *o`zbek* atamasi bilan nomlanib kelgan.

O`zbek so`zi *urug`*, *qabila*, *elat*, «*saxiy*», «*odamiy*», «*dil tortuvchi*», «*sevgili*» ma`nosida Lutfiy, Atoiy va Navoiy ijodida ishlatilgan.

## **O`ZBEK TILI**

Turkiy tarmoq bir necha guruhga bo`linadi. Unda o`zbek va uyg`ur tili **o`zbek-uyg`ur** guruhini tashkil etadi.

O`zbek tili O`zbekiston, Tojikiston, Qozog`iston, Qirg`iziston, Turkmaniston, Afg`oniston hududida keng tarqalgan. O`zbeklar Afg`oniston, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Eron va boshqa davlatda ham istiqomat qiladi. Bugungi kunda butun dunyo bo`yicha 25 milliondan ortiq, ba`zi manbada ko`rsatilishicha, 40 milliondan ortiq kishi o`zbek tilida gaplashadi. O`zbek tili rivojlangan til qatoriga kiradi.

Turkiy til sirasida faqat o`zbek tili «o»lovchi til. Chunki o`zbek tilida boshqa turkiy tilning *at*, *ana*, *almaq*, *bash*, *bala*, *qazan* kabi ko`plab so`zidagi *a* tovushi o`rnida *o* tovushi ishlatiladi.

**O`zbek tilining taraqqiyot bosqichlari.** O`zbek tili hozirgi ko`rinishiga qadar uzoq tarixiy jarayonni boshidan kechirgan. Bu jarayonni davrlashtirishda har xillik mavjud, lekin ko`pgina adabiyotda o`zbek tili taraqqiyoti quyidagi bosqichlarga bo`lingan:

1. Qadimgi turkiy adabiy til (VII asrdan – XIII asrgacha).
2. Eski o`zbek adabiy tili (XIII–XIV asrdan – XIX asrning ikkinchi yarmigacha).
3. Hozirgi o`zbek adabiy tili (XIX asrning ikkinchi yarmidan hozirgacha).

O`rta maktab darsligida quyidagicha: **1. Qadimgi turkiy til; 2. Eski turkiy til; 3. Eski o`zbek adabiy tili; 4. Hozirgi o`zbek adabiy tili.**

Eski turkiy til davrida yozilgan asar barcha turkiy xalqning umumiy yodgorligi hisoblanadi. Shuning uchun ham bu davr tili **umumturkiy adabiy til** sifatida qaraladi. O`rxun-Enasoy yodgorligi haqida ham shunday deyish mumkin.

Demak, o`zbek tili XI asrdan mustaqil til sifatida boshqa turkiy tildan ajrala boshlab, XV asrda eski o`zbek adabiy tili to`la shakllangan.

## **“O`ZBEK TILI ANTONIMLARINING IZOHLI LUG`ATI»**

“O`zbek tili antonimlarining izohli lug`ati» – Bir-biriga qarama-qarshi, zid ma`no bildiradigan so`zlarni jamlaydigan filologik lug`at turi. Bu lug`at o`zbek tilshunosligida 1980- yil Sh.Rahmatullayev, N.Mamatov, R.Shukurovlar tomonidan yaratilgan.

Lug`at ikki qismdan: kirish va lug`at bo`limlaridan iborat. Kirish qismida antonim va lug`at tuzilishi haqida batafsil ma`lumot keltirilgan. Ikkinchi qismda esa qat`iy alifbo tartibida lug`at keltirilgan. Lug`atda ikki xil maqola – izoh maqolalar va havola maqolalar mavjud. Izoh maqolasi ancha murakkab tuzilishli, unda avval antonimik juftlik keltiriladi. Izoh maqolasini boshlab beruvchi bunday juftlikda antonimlar alifbo tartibida joylangan: *yomon – yaxshi, sekin-tez* kabi.

Lug`atdan hozir ham keng foydalanilmoqda.

## **«O`ZBEK TILI FRAZEOLAGIZMLARINING IZOHLI LUG`ATI»**

«O`zbek tili frazeologizmlarining izohli lug`ati» – turg`un birikmalar bo`lgan frazeologizm (ibora)larni o`z ichiga jamlagan filologik lug`at turi. Sh.Rahmatullayev tomonidan tuzilgan «O`zbek tilining izohli frazeologik lug`ati» (Toshkent, 1978) bunday lug`atning mukammal namunasi.

Lug`at ikki qismdan iborat, birinchi qismda iboralar tavsiflansa, ikkinchi qismda iboralar tarkibida qatnashuvchi har bir so`z alifbo tartibida berilib, bu so`z qatnashuvchi turli iboralar keltiriladi. Lug`atdan namuna:

**Qulog`i(i)ga chalinmoq** *nima kimning?* Biror gapni yoki tovushni noaniq tarzda eshitmoq. O` x s h a s h i : **qulog`i(i)ga kirmoq.**

*Erkaklar orasidagi gap Asalbining qulog`iga chalingan edi.* Oybek, Oltin vodiyan shabadalar. *Uzoqdan traktorning guvillagan ovozi quloqqa chalinadi.* R.Fayziy. Cho`lga bahor keldi. (294- bet)

## «O`ZBEK TILI IBORALARINING O`QUV IZOHLI LUG`ATI»

Iboralarni o`z ichiga oluvchi bu fililogik lug`at B.Mengliyev, M.Xudoyberdiyeva va O.Boymatovalar tomonidan tuzilgan, maktab o`quvchilari uchun mo`ljallangan, 2006-yil “Yangi asr avlodi” nashriyotida chop etilgan.

Lugat maqolalari alfavit tartibida tuzilgan, unda mingga yaqin iboraga qisqacha nutqiy izoh berilgan.

Iboralar birdan ortiq variantga ega bo`lsa, ular ketma-ket vergul bilan ajratilgan holda berilib, so`ngra izohlangan:

**Avra-astarini ag`dardi, avra-astarini qoqdi, avra-astari so`kildi, avra-astari qoqildi** – barcha kirdikorlarini ochib tashladi.

**Avj oldi, avjiga mindi, avjiga chiqdi** – 1) rivojlandi 2) zo`raydi, kuchaydi.

Fe`llar o`quvchilarga qulaylik maqsadida asosan yaqin o`tgan zamon shaklida berilgan.

## O`ZBEK TILI LEKSIKASI

Har qanday til o`z so`z boyligiga ega. Tilning lug`at tarkibi ma`nosida *leksika* atamasi ham qo`llanadi. Leksika muayyan tildagi barcha so`zlar yig`indisi. Hozirga qadar biror bir tilning lug`at tarkibida qancha so`z borligi to`liq aniqlangan emas. Bu borada taxmin bor, xolos. Jumladan, tilshunos Elbek Navoiy davridan to 1930-yilga qadar o`zbek tilida 40–45 ming so`z bo`lgan deb taxmin qiladi. Tilshunos G`.Abdurahmonov hozirgi kunda o`zbek tili so`z miqdori 80 mingdan ortiq deb ko`rsatadi. Akademik E.Fozilov esa o`zbek tilidagi so`zlar miqdorini yuz-ikki yuz mingdan ortiq deb taxmin qiladi. Tildagi taxminiy so`z miqdorini lug`atdan ham bilsa bo`ladi. 1981-yil nashr etilgan «O`zbek tilining izohli lug`ati»da 60 ming, 1976-yil nashr qilingan «O`zbek tilining imlo lug`ati»da 65 ming so`z qayd etilgan. Buning ham to`liq emasligi o`z-o`zidan ravshan.

Til lug`at tarkibi – juda murakkab va keng hajmli tushuncha. U tilning yashash shakliga ko`ra aniq lug`aviy qatlam (o`zbek adabiy tili leksikasi, sheva, kasb-hunar so`zi va hokazo)ni o`z ichiga oladi.

**O`zbek tili leksikasi tasnifi.** So`zni turlicha tasniflash mumkin.

So`z o`zlashgan-o`zlashmaganligiga ko`ra ikkiga bo`linadi:

- a) o`z qatlam;
- b) o`zlashma qatlam.

Qo`llanishiga ko`ra tasnifi. So`z qo`llanish miqdoriga ko`ra farqlanadi. Ko`p so`z cheklanmagan, ba`zisi kam qo`llanishga ega. Shu jihatdan so`z ikki turga bo`linadi:

- a) qo`llanishi chegaralanmagan so`z;
- b) qo`llanishi chegaralangan so`z.

Qo`llanish davri chegaralangan so`z: 1) zamonaviy leksika; 2) eskirgan leksika; 3) yangi leksika.

Qo`llanish doirasi chegaralangan so`z:

- a) shevaga xos so`z;
- b) termin (atama);
- d) argo va jargon.

## «O`ZBEK TILI MORFEM LUG`ATI»

Leksik birliklarning morfemik tarkibi – soʻzlarning oʻzak va qoʻshimcalarga qanday ajratilishini koʻrsatuvchi filologik lugʻat. Bunday lugʻat birinchi marta A.Gʻulomov, A.N.Tixonov, R.Q.Qoʻngʻurovlar tomonidan tuzilib, 1977- yilda «Oqituvchi» nashriyoti tomonidan chop etilgan.

Lugʻatning kirish qismida leksemalarning morfem tarkibi va morfemalar haqida ham maʼlumotlar keltirilgan. Lugʻatdan namuna:

*kel/ish*

*kel/ish/gan*

*kel/ish/gan/lik*

*kel/ish/il/moq*

*kel/ish/im*

kabi.

## «O`ZBEK TILI OMONIMLARINING IZOHLI LUG`ATI»

«Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati» – hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi shakldosh soʻzlarni jamlagan filologik lugʻat, 1984-yil Sh.Rahmatullayev tomonidan yaratilgan. Lugʻatda 497 omoifoda ostiga birlashuvchi 1160 dan ortiq leksema tasvirlangan. Dastlab omonimlarga tarixiy-etimologik izoh berilib, keyin maʼnosi taʼriflangan, shu omonimdan yasalgan leksemalar sanalgan, soʻngra bu omonim qatnashadigan birikma, gap berilib, oxirida matnli misol keltirilgan.

Lugʻatga omofonlar va omograflar ilova qilingan. Lugʻat filologiya fakulteti talabalariga, til va adabiyot oʻqituvchilariga moʻljallangan.

## «O`ZBEK TILI SINONIMLARINING IZOHLI LUG`ATI»

«Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati» – oʻzbek tilidagi maʼnodosh soʻzlarni oʻz ichiga jamlagan filologik lugʻat turi. Bu lugʻatning yorqin namunasi sifatida A.Hojiyevning 1974- yilda nashr etilgan lugʻatini koʻrsatish mumkin.

Lugʻat hozirgi oʻzbek adabiy tili uchun xarakterli boʻlgan sinonimik qatorlarni oʻz ichiga olgan. Unga leksik va grammatik sinonimlar kiritilgan. Lugʻat soʻzlari sinonimik qatordagi bosh soʻzga koʻra tartiblangan.

## «O`ZBEK TILINING ETIMOLOGIK LUG`ATI»

«Oʻzbek tilining etimologik lugʻati» – tildagi soʻzlarning kelib chiqish tarixini oʻz ichiga olgan filologik lugʻat.

Prof. Sh.Rahmatullayevning koʻp yillik samarali mehnatlari tufayli oʻzbek tilida ham dastlabgi etimologik lugʻati paydo boʻldi. Lugʻat 2000- yil nashr qilingan, 2400 dan ortiq turkiycha soʻzlarning etimologik tavsifini jamlagan. Lugʻat maqolalari keng jamoatchilik foydalanishi koʻzda tutilib, ixcham tarzda bayon qilingan. Bundan tashqari lugʻatning kirish qismida etimologiya haqida ham toʻxtalib oʻtilgan.

Lugʻatning arabiy soʻzlar va ular asosidagi hosilalarga bagʻishlangan 2-qismi 2005 yilda nashr etilgan.

## «OʻZBEK TILINING TOPONIMIK LUGʻATI»

«Oʻzbek tilining toponimik lugʻati» – joy nomlari va ularning kelib chiqish tarixini tavsiflovchi lugʻat turi. Oʻzbek tilida lugʻatning yorqin namunasi sifatida dastlab T.Nafasovning „Janubiy Oʻzbekiston toponimlarining izohli lugʻati“ 1988-yil nashr etilgan.

Lugʻat Janubiy Oʻzbekiston aholi joylari (shahar, qishloq, mahalla, guzar, koʻcha), suvliklari (daryo, suv ombori, jilgʻa, koʻl, ariq, hovuz), yer yuzalari (togʻ, choʻqqi, tepa, qir, dara, soy, dasht, turli balandlik va joy) nomlari kabi 5 mingdan oqtiq toponimlarni oʻz ichiga olgan. Oʻz va oʻzga tillardan kirgan toponimlarning maʼno va morfologik tuzilishini aniqlashda ular turli joylardagi turkiy va boshqa tillardagi toponimlar bilan taqqoslangan.

Lugaʼt filologiya, tarix, geografiya fakulteti talabalari va oʻqituvchilariga, umuman, Oʻzbekiston tarixi bilan qiziquvchilarga moʻljallangan.

## «OʻZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI»

Rivojlangan, oʻz yozuviga ega boʻlgan adabiy tilda soʻzni bir xilda – yagona tarzda yozishni yoʻlga qoʻyish uchun imlo toʻgʻrisida qonun qabul qilinadi. «Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalar» 1995- yil 24- avgustda qabul qilingan. U 82 paragrafdan iborat.

Oʻzbek yozuvi uchun hozirgacha 2 marta imlo qoidasi tasdiqlangan. Birinchisi 1956-yil 4-aprelda kirill yozuviga asoslangan oʻzbek tilining imlo qoidasi, 72 paragrafdan iborat boʻlgan.

Imlo toʻgʻrisidagi qonunni ishlab chiqish murakkab jarayon, bir nechta tamoyilga tayaniladi. Bu **orfografiya tamoyil** (prinsip)i deyiladi.

Orfografiyaning 5 tamoyili mavjud: **1) fonetik yozuv; 2) morfologik yozuv; 3) shakliy yozuv; 4) tarixiy-anʼanaviy yozuv; 5) farqlash yozuvi.**

## OʻZBEK TILINING BOYISH MANBAI

Oʻzbek tili leksikasi bir qancha manba asosida boyib, rivojlanib boradi. Uni, eng avvalo, ikki katta guruhga ajratish mumkin: 1) *ichki imkoniyat*; 2) *tashqi imkoniyat*.

Birinchisi ichki manba, ikkinchisi tashqi manba deyiladi: 1. Oʻzbek tili lugʻat tarkibining birinchi yoʻl bilan boyib borish imkoniyati juda keng. Masalan: a) ilgari qoʻllanib, keyin isteʼmoldan chiqib ketgan soʻzdan yangi tushunchani ifodalash uchun foydalanish: *vazir, hokim, viloyat, shirkat, noib, tuman* kabi; b) yasovchi qoʻshimcha yordamida yangi soʻz yasash: *uyali (telefon), omonatchi, pudratchi, bojxona, auditchi (auditor), dizaynchi (dizayner)* va boshqa; d) shevaga xos soʻzni faollashtirish: *mengzamoq* (Xorazm) «oʻxshatmoq», «tenglashtirmoq», «qiyoslamoq» maʼnosida. 2. Oʻzbek tili lugʻat tarkibi tashqi manba asosida ham boyib bormoqda. Dunyoda ichki imkoniyati asosidagina rivojlanadigan til yoʻq. Faqat maʼlum zarurat tufayli yangi

tushunchani tilimizning ichki imkoniyati asosida ifodalab bo'lmagandagina tashqi manbaga murojaat qilish foydali. Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy ham shunga da'vat qilgan. Keyingi davrda tilimizga Yevropa tillaridan bir qancha so'z yangi tushuncha bilan birgalikda kirib keldi. Masalan: *monitoring*, *diler*, *skaner* kabi. Buning hammasi o'zbek tili leksik imkoniyatini kengaytirib, boyitmoqda.

## «O`ZBEK TILINING ESKIRGAN SO`ZLAR O`QUV IZOHLI LUG`ATI»

«O'zbek tilining eskirgan so'zlar o'quv izohli lug'ati» – o'zbek adabiy tilining me'yoriy lug'atidan biri. Lug'at X.Norxo'jayeva tomonidan tuzilib, 2006- yilda “Yangi asr avlodi” nashriyotida ko'p nusxada chop etilgan.

Lug'atda so'zlar quyidagicha tavsiflangan:

I. Har bir so'zning ma'nosi qisqa va aniq ifoda etilgan.

II. Lug'atda so'zlarning, asosan, hozirgi o'zbek adabiy tilida iste'moldan qolgan, eskirgan ma'nolari berilgan.

III. So'zlarning ma'nolari bir-biridan arab raqamlari bilan ajratilgan, har bir ma'noga taaluqli ma'no nozikliklari esa shu ma'no ichida bir tik chiziqdan keyin berilgan. Masalan:

DODXOH (f-t) 1 Adolat talab etuvchi, adolat istovchi. 2 Buxoro xonligida adolat istovchilardan amir nomiga ariza qabul qiluvchi lavozimli kishi. 3 Farg'ona vodiysi va Toshkentda mingboshi va boshqa ba'zi amaldorlarni ulug'lash uchun ishlatiladigan so'z.

IV. Bosh so'zlarning mustaqil ko'chma ma'nolari arab raqamlari bilan ajratilgan va *ko'chma* belgisi bilan ta'minlangan.

V. Lug'atda ayrim so'zlarning leksik ma'no kasb etgan grammatik shakllari (*lek*, *ila*, *limu*, *badaliga* kabi) ham berilgan turli leksikografik usullar bilan izohlangan.

Masalan:

MURABBA (a, murabba, III sh.brl. murabbai). Tomonlari teng to'g'ri to'rtburchak, kvadrat, chorsi.

VI. Ayrim so'zlarning boshqa so'zlarga birikib qoshma so'z yasash xususiyati ham alohida- alohida izohlab berilgan.

VII. Lug'atda atash vazifali so'zlarning, ayniqsa, ot, sifat va fe'llarning ma'nolarini ochishda tavsifiy izoh usullaridan keng foydalanilgan. Bu xildagi so'z ma'nosi uning asosiy belgilari (mas., tashqi ko'rinishi, tuzilishi, qollanishi, vazifasi, ta'siri, xarakteri yuzaga kelish yo'li, sababi va sh.k.) orqali ochib beriladi.

Masalan:

ABAD (a) Oxiri, poyoni yo'q kelajak zamon, mangulik.

ABAJUR (r<fr) yorug'likni bir joyda to'plab tushurish yoki ko'zni yorug'lik nuridan pana qilish uchun lampa ustiga qalpoq o'rnatish.

VIII. Ko'makchilar, bog'lovchilar, yuklamalar, undoshlar, taqlidiy, tasviriy va modal so'zlarni izohlashda tushuntirma izoh usulidan foydalanilgan.

Bunda mazkur so'zlarning ma'nosi, vazifasi tushuntirilgan.

Masalan:

ORIY (f-t) Shundoq, rost, albatta.

IX. Ba'zi yasama soʻz maʼnolarini ochishda grammatik izoh usullaridan foydalanilgan. Bunda soʻzning maʼnosi shu soʻz havola qilingan soʻzning izohidan anglashiladi.

XI. Lugʻatda maʼnodoshlarning betaraf va faollari izohlangan, qolganlari esa ularga havola qilingan. Masalan:

JARROH (a) Xirurg.

XII. Ayrim hollarda, izohdan keyin, soʻz maʼnosini toʻlaroq ochish, izohni toʻldirish maqsadida izohlanuvchi soʻzning antonimidan ham foydalanilgan boʻlishi kerak.

Masalan:

ZEHNİYAT (a)...

ZINDON (f-t)...

DAFTARNAVIS (grek +f-t)...

XIII. Maʼnodoshlar boshqa turdagi izohdan keyin ham ishlatilgan. Bunda ular izohni toʻldirish, koʻp maʼnoli soʻzlar maʼnolarini bir- biridan yaqqolroq faqlash uchun xizmat qiladi.

Masalan:

VALLOMAT Valineʼmat. 1.Oqsoqol, boshliq, amaldor. 2. Sarboz, yigit. 3. Oz mehnati singmagan narsalarga, birovnikiga saxiylik, xoʻjayinlik qilaveradigan odam; errayim.

Lugʻat izohli lugatning bir koʻrinishi.

## **«OʻZBEK TILINING IZOHLI LUGʻATI»**

«Oʻzbek tilining izohli lugʻati» – oʻzbek tilida istemolda boʻlgan oʻz va oʻzlashma soʻzlarning maʼnosini umumiy tarzda izohlaydigan lugʻat turi. Hozirga qadar ikki marta oʻzbek tilida izohli lugʻat yaratilgan: 1. 1981-yil Moskvada nashr qilingan. 2 jildli. Unda 60 ming soʻz va birikma izohlangan. 2. 2006-2008 yil nasr etilgan. 5 jildli. 80 mingdan ortiq soʻz va soʻz birikmasi izohlangan.

## **«OʻZBEK TILINING MAʼNODOSH SOʻZLAR OʻQUV LUGʻATI»**

«Oʻzbek tilining maʼnodosh soʻzlar oʻquv lugʻati» – maktab oʻquvchilari uchun moʻljallangan. Lugʻat O.Shukurov va B.Boymatovalar tomonidan tuzilib, 2007-yilda “Yangi asr avlodi” nashriyotida chop etilgan, unda sinonimik qatordagi bosh soʻz hamda oʻzlashma soʻzlar aniqlangan.

Lugʻatda bosh soʻz qoraytirib berilgan, lekin ular sinonimik qatorning turli oʻrinlaridan joy olgan.

## **«OʻZBEK TILINING ORFOEPIK LUGʻATI»**

Oʻzbek tilshunosligida hozirga qadar M.Sodiqova, U.Usmonovalarning «Oʻzbek tilining orfoepik lugʻati» 1977- yilda va Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti tomonidan «Oʻzbek adabiy talaffuz lugʻati» 1984- yilda nashr qilingan. Birinchi lugʻatda oʻzbek tilida faol qoʻllanadigan 8000 ga yaqin soʻz,

ikkinchisida esa 20 000 dan ortiq soʻz va soʻz shaklining adabiy-meʼyoriy talaffuzi belgilab berilgan, baʼzi soʻz va grammatik shaklning talaffuzidagi notoʻgʻri koʻrinishi inkor qilinib, uning toʻgʻri aytilishi koʻrsatilgan.

## «OʻZBEK TILINING SOʻZ TARKIBI OʻQUV LUGʻATI»

«Oʻzbek tilining soʻz tarkibi oʻquv lugʻati» – maktab oʻquvchilari uchun moʻljallangan. Lugʻat B.Mengliyev va B.Bahriddinova tomonidan tuzilib, 2007-yilda “Yangi asr avlodi” nashriyotida chop etilgan, 5223 soʻzning tarkibiy qismlari ajratib tahlil qilingan.

## «OʻZBEK TILINING SOʻZ YASALISHI OʻQUV LUGʻATI»

«Oʻzbek tilining soʻz yasalihi oʻquv lugʻati» – maxsus, oʻziga xos lugʻat turi hisoblanadi, B.Mengliyev, B.Bahriddinova va Oʻ.Xoliyorovlar tomonidan yaratilib, 2007-yilda “Yangi asr avlodi” nashriyotida koʻp nusxada chop etilgan. Lugʻat yasama soʻzning qanday va nima vositasida yuzaga kelganligini bilishga yordam beradi. Mas., *amal* soʻzidan beshta yangi soʻz va bu yangi soʻzdan yana beshta boshqa yangi soʻz hosil boʻlganini koʻrishimiz mumkin:

|        |                                              |                       |
|--------|----------------------------------------------|-----------------------|
| amal → | amal- <b>dor</b> → amaldor- <b>lik</b>       |                       |
|        | amal- <b>iy</b> →                            | amaliy- <b>ot</b>     |
|        |                                              | <b>gʻayri</b> -amaliy |
|        | amal- <b>la</b>                              |                       |
|        | amal- <b>parast</b> → amalparast- <b>lik</b> |                       |
|        | <b>be</b> -amal → beamal- <b>lik</b>         |                       |

Yangi soʻz hosil boʻlishiga tayanch, asos vazifasini oʻtovchi soʻz yasovchi asos hisoblanadi. Yuqoridagi *amal* soʻzi oʻzidan kelib chiqqan beshta soʻz uchun yasovchi asos. Oʻz navbatida bu soʻzlar keyingi yasalihi uchun yasovchi asos vazifasini oʻtaydi. Yasovchi asosdan yuzaga kelgan soʻz esa yasama soʻz. *Amal* soʻzidan hosil boʻlgan beshta soʻz va keyingi yasalihi bunga misol.

Yasama soʻzni vujudga keltiruvchi turli vosita mavjud. Ular qoʻshimcha yoki soʻz koʻrinishida boʻlishi mumkin. Bunday vosita lugʻatda qoraytirilgan (jirniy) shaklda berilgan.

Yasovchi asos va yasama soʻz yigʻindisi yasalihi uyasini tashkil qiladi. Lugʻatda har bir soʻzdan yasalgan yasalihi uyasi alohida ajratib berilgan.

Oʻquv lugʻati yana quyidagi belgilari bilan xarakterlanadi:

1) feʼl anʼanaviy lugʻatlardagidek harakat nomi shaklida emas, balki buyruq (oʻzak) shaklida berilgan:

lov → lov-**illa**, moyil → moyil-**lan**, ayni → ayni-**ma** kabi;

2) soʻz yasovchi qoʻshimchadan oldin kelgan lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimchalar ajratilib, qoraytirilmagan koʻrinishda berilgan:

|         |                       |
|---------|-----------------------|
| maqta → | maqta-n-ar- <b>li</b> |
|         | maqta-n- <b>choq</b>  |
|         | maqta-r- <b>li</b>    |

bela → bela-n-**chak** kabi;

3) omonim soʻzlar rim raqami bilan belgilab berilgan va maʼnosi izohlab ketilgan:  
band I (mashgʻul) → band-**lik** (mashgʻullik)

|                   |                                     |
|-------------------|-------------------------------------|
| band II (dasta) → | band- <b>li</b>                     |
|                   | band- <b>lik</b> (dastalik/soplik); |

4) lugʻatda, asosan, affiksatsiya usuli bilan yasashlar keltirilgan;

5) tovush oʻzgarishi hodisasining asli “Oʻzbek tilining soʻz tarkibi oʻquv lugʻati”da berilgani uchun koʻrsatilmagan:

boʻya → boʻyo-**q**, ot (ism) → at-**a** → ato-**q** → atoq-**li** kabi.

Lugʻatda 3257 ta tub soʻz (soʻz yasash uyasi) berilgan, ulardan 9443 ta yasama soʻz hosil boʻlishi koʻrsatilgan. Demak, bu lugʻatda oʻrtacha 1 ta soʻzdan 3 ta soʻz yasalganini koʻrish mumkin. Albatta, lugʻat oʻzbek tilidagi hamma soʻzlarni qamrab olmagan. Faqat eng faollari – maktab oʻquvchilari uchun zarur boʻlgan soʻzlarga lugʻatda oʻz aksini topgan.

## «OʻZBEK TILINING SOʻZLAR DARAJALANISHI OʻQUV LUGʻATI»

«Oʻzbek tilining soʻzlar darajalanishi oʻquv lugʻati» – maktab oʻquvchilari uchun moʻljallangan. Lugʻat Sh.Bobojonov va I.Islomov tomonidan tuzilib, 2007- yilda “Yangi asr avlodi” nashriyotida chop etilgan, soʻzning darajalanish qatori tuzilib, maʼnolari izohlangan. Misol:

1. *Jamol-chehra-yuz-bet-aft-turq-bashara* (ijobiy boʻyoqning kamayib, salbiy boʻyoqning ortib borishiga koʻra).
2. *darcha-eshik-darvoza* (atalmish hajmining oshib borishiga koʻra).

## «OʻZBEK TILINING TALAFFUZDOSH SOʻZLAR OʻQUV IZOHLI LUGʻATI»

«Oʻzbek tilining talaffuzdosh soʻzlar oʻquv izohli lugʻati» T.Nafasov va V.Nafasovalar tomonidan yaratilgan, 2007- yilda “Yangi asr avlodi” nashriyotida koʻp nusxada chop etilgan. Lugʻatda talaffuzdosh soʻzlarning quyidagi koʻrinishlari farqlanadi:

1. Soʻz oxiridagi yasovchi qoʻshimchada: *borlik-borliq, boʻshlik-boʻshliq, otalik-otaliq, jazlik-jazliq, yoʻqlik-yoʻqliq*.
2. Soʻz oʻrtasidagi unli tovushlarda: *gulkor-gilkor, ravon-rovon, oxir-oxur, devon-divan, jayron-jiyron, may-moy*.
3. Soʻz oʻrtasidagi undosh tovushlarda: *abzal-afzal*,

4. Soʻz oxiridagi unli tovushlarda: *tanga-tango, banda-bandi, daha-daho, jodi-jodu, mavzu-mavze, murabba-murabbo*.

5. Soʻz oʻzagi oxiridagi undosh tovushda: *adip-adib, bop-bob, burch-burj, buyuk-buyuq*.

6. Soʻz boshidagi unli tovushlarda: *abroʻ-obroʻ, ariq-oriq, axir-oxir, ukki-ikki*.

7. Soʻz boshidagi undosh tovushlarda: *paqir-faqir*;

8. Soʻz oʻrtasidagi unlining choʻziq-qisqa aytilishida: *sher-sheʻr, davo-daʻvo*.

9. Soʻz oʻrtasida bir undoshning bor-yoʻqligida: *boʻyicha-boʻyicha, ziyrak-zirak*.

10. Soʻz oxirida undoshning tushib qolishida: *goʻsh-goʻsht, bolali-bolalik, uyli-uylik, sus-sust*.

11. Soʻz oʻrtasida bir unlining bor-yoʻqligida: *davur-davr, asir-asr, ahil-ahl, qasir-qasr, ilik-ilk*.

12. Soʻz oxirida bir-biriga yaqin uyadoshli soʻzlarda: *qarz-qars, darz-dars; dakki-daqqi, koʻklik-koʻhlik*.

Lugʻat 1500 dan ortiq soʻzni qamrab olgan va har bir soʻzga izoh berilgan.

## «OʻZBEK TILINING ZID MAʼNOLI SOʻZLAR OʻQUV IZOHLI LUGʻATI»

«Oʻzbek tilining zid maʼnoli soʻzlar oʻquv izohli lugʻati» maktab oʻquvchilari uchun moʻljallangan. Lugʻat U.Toʻrayeva va D.Shodmonova tomonidan tuzilib, 2007-yilda “Yangi asr avlodi” nashriyotida chop etilgan, 1300 ga yaqin antonimik juftlikni qamrab oladi. Tuzuvchilar zid maʼnoli soʻzlarni strukturasiga koʻra quyidagicha tasniflashgan:

1) har xil oʻzakli zid maʼnolilar: *katta-kichik, kirmoq-chiqmoq, muhabbat-nafrat*;

2) bir xil oʻzakli zid maʼnolilar: *madaniyatli-madaniyatsiz, aqlli-aqlsiz, ongli-ongsiz*;

Lugʻatda zid maʼnoli soʻzlar juftlashtirib berilgan:

*aniq-noaniq*

*axloqli-axloqsiz*

*bahorgi-kuzgi*

kabi. Bunda bir soʻzga bir maʼnodoshlik qatoridagi barcha soʻz zidlanishi mumkin:

*abjir – lavang, landavur, lapashang, noshud, ogʻzidagi oshini oldiradigan, uquvsiz, sustkash, tepsa-tebranmas, epashang*.

Agar soʻz koʻp maʼnoli, har bir maʼnosi bilan boshqa-boshqa soʻzga zidlansa, zidlari nuqtali vergul bilan ajratilgan:

*ajraldi – qoʻshildi; yarashdi* kabi.

## «OʻZBEK TILINING OʻQUV TOPONIMIK LUGʻATI»

«Oʻzbek tilining oʻquv toponimik lugʻati» joy nomlari boʻyicha tuzilgan va oʻqish-oʻrganish jarayoni uchun koʻproq foydali lugʻat sanaladi. Oʻquv toponimik lugʻat respublika, viloyat, shahar, tuman, vodiy yo voha, qishloq yo bir necha qishloqlar guruhi boʻyicha tuzilishi mumkin. Respublika yoki voha, bir necha viloyatlar toponimlarining izohli lugʻatini tuzish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Bu

lugʻat namunasi T.Nafasov va V.Nafasovalar tomonidan tuzilib, 2007- yilda “Yangi asr avlodi” nashriyotida chop etilgan, 1500 dan ortiq soʻzni oʻz ichiga oladi.

Oʻquv toponimik lugʻati uchun, eng avvalo, joy nomlari soʻzligi tuzilgan. Eng muhim oykonim, gidronim, oronim tanlangan. Har bir toponimning hozirgi davrda qanday joʻgʻrofiy obyektning nomi ekanligi aniqlangan. Nomning sarhadlari belgilangan. *Yangiqishloq, Yangiobod, Jar tepa, Kattaqishloq, Oʻrtaqoʻrgʻon, Uchtepa, Oqtepa, Qoratepa* kabi nomlar har bir viloyatda, tumanda boʻlishi tabiiy. Lugʻatda bu tur va koʻp uchraydigan nomlarning tarqalish hududi (viloyat, tuman)ni koʻrsatish shart qilib qoʻyilmagan, lekin qanday obyektning nomi ekanligini zikrlash lozim topilgan: *Qiziltepa* qishloq; *Amudaryo* daryo, tuman; *Oyqor* togʻ.

Oʻquv toponimik lugʻati ilmiy, amaliy, maʼnaviy, tarixiy ahamiyatga ega boʻlgan narsa nomining izohini jamlagan. Til umumxalq leksikasining izohli, maʼnodoshlik, shakldoshlik, zidmaʼnolilik, birikuvchanlik va boshqa tur lugʻatlarda soʻzning hozirgi davrdagi maʼnolari, nutqda qoʻllanilishi bilan bogʻliq lisoniy-nutqiy holatlar, maʼnoviy xususiyatlar bayon qilinadi. Toponimik izohda esa nima uchun shu obyekt shu nom bilan atalgan degan savolga javob berilishi lozim. Bu savolga yaqinda yo yaqin oʻtmishda yuzaga kelgan toponimlar misolida aniqroq, maʼqulroq, tushunarliroq, ishonchliroq javob berish, topish mumkin: *Yangiqishloq, Yangiobod, Yangiariq, Yangibozor* nomlaridagi *yangi* soʻzining maʼnosi *yangi koʻylak, yangi roʻmol* kabi birikmalar tarkibidagi *yangi* soʻzi maʼnosi bilan teng emas. *Yangiqishloq, Yangiobod, Yangiariq* nomlari XX asrning 50–60-yillarida yuzaga kelgan. *Yangibozor* nomi oʻtgan asrning oxirida yaraldi. Bu nomlarda *yangi* soʻzining maʼnosi yoʻqolgan, undan keyin yaralgan qishloq, ariq, bozorlar boshqa nomlar bilan atalganligi maʼlum. Yoki *Navkat, Novqat, Denov, Shahrinav, Yangikent* nomlari bundan bir necha yuz yillar oldin paydo boʻlgan. Bu nomlarda *yangi, nav* (tojikcha, yangi) soʻzlarining maʼnosi nisbiy, yaralgan vaqtda “yangi” maʼnosida boʻlgan, hozir bu maʼno yoʻqolgan, lekin nom tarkibida bu soʻzlar qotib qolgan.

## «OʻZBEK TILINING OʻZLASHMA SOʻZLAR OʻQUV IZOHLI LUGʻATI»

«Oʻzbek tilining oʻzlashma soʻzlar oʻquv izohli lugʻati» Y.Hamrayeva tomonidan tuzilib, 2007- yilda “Yangi asr avlodi” nashriyotida chop etilgan. Lugʻatning maqsadi oʻquvchilarning savodxonlik darajasi va soʻz boyligini oshirishga, tafakkurini kengaytirishga, til madaniyatini shakllantirishga va toʻgʻri talaffuz meʼyorlarini mustahkamlashga, shuningdek oʻquvchilarga tilimizga turli tillardan kirib kelgan muayyan soʻzlar hamda atamalar haqida genetik maʼlumot berishga yoʻnaltirilgan.

Lugʻat soʻzligi tilimizga rus va boshqa chet tillari orqali kirib kelgan qadimgi yunon va lotin tillari elementlaridan tashkil topgan va hozirgi kunda jahondagi koʻplab xalqlarning tillari uchun umumiy boʻlgan *respublika, konstitutsiya, prezident, demokratiya* kabi siyosiy atamalarni, shuningdek kimyo, sanoat, sport, falsafa, fizika, geografiya, etnografiya kabi turli ilmiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga oid soʻzlar va atamalarni, jahondagi koʻplab mamlakatlarning pul birliklari nomlarini oʻz ichiga oladi. Shuning uchun «Oʻzlashma soʻzlar oʻquv izohli lugʻati»dan nafaqat til oʻrgatish

darslarida, balki maktab, litsey va kollejlarning sinfxonalarida har qanday fan bo'yicha olib borilayotgan mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, so'nggi o'n-o'n besh yil ichida uning xalqaro aloqalari yanada kuchaydi, mamlakatimizda iqtisod va siyosat, texnika va sanoat, sport va madaniyat sohalarida tub o'zgarishlar yuz berdi. Taraqqiyot sari qilingan ildam odimlar natijasida, tilimiz ko'plab yangi tushunchalarni atovchi so'zlar bilan yanada boyidi. So'nggi yillar ichida lug'atimizga jadal kirib kelgan *kompyuter, fayl, sayt, biznes, barter, market, marketing, monitoring*, shuningdek avvaldan mavjud bo'lgan va mustaqillikdan keyin yangicha ma'no kasb etgan *vazir, tadbirkor, mahkama, devonxona* kabi so'zlar ham mazkur lug'atda o'z o'rnini topdi.

Lug'atni tuzishda «O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATI» hamda «СЛОВАРЬ ИЗОТРАЖЕНИЙ СЛОВА» kitoblaridan foydalanilgan.

Lug'at maqolalari quyidagicha tuzilgan: har bir maqolaning bosh so'zlari lug'atda alifbo tartibida joylashtirilgan. Bosh so'z va uning muayyan xususiyatiga doir barcha ma'lumotlar va belgilar, unga berilgan izohlar lug'at maqolasini tashkil etadi. Bosh so'z katta harflar bilan berilgan, undan so'ng katta qavs ichida so'zning genetikasi, ya'ni qaysi tilga mansub ekanligi haqida, keyin esa mazkur so'z yoki atamaning qaysi sohaga oidligi to'g'risida ma'lumot berilgan. Agar so'z tilimizga o'zlashtirish jarayonida turli fonetik o'zgarishlarga uchrab, uning o'zbek tilidagi hozirgi ko'rinishi o'zining asl shaklidan uzoqlashib ketgan bo'lsa, katta qavs ichida etimologik ma'lumotning yonida so'zning asl ko'rinishi ham ko'rsatilgan. Masalan:

VAJ [*a vajh*] ...

yoki

ASTOYDIL [*f-t az tahi dil*] ...

Bir tildan o'zlashgan omonimlar, ya'ni shakldosh so'zlar hamda turli tillardan o'zlashib omonimik munosabat hosil qilgan so'zlar alohida-alohida maqolalarda bosh so'z sifatida berilgan va bir-biridan farqlanishi uchun rim raqamlari bilan belgilangan. Masalan:

GAZ I [*f-t*] *esk*. Ilgari amalda bo'lgan, 0,71 metrga teng uzunlik o'lchovi; arshin.

GAZ II [*goll*] Zarralari o'zaro kuchsiz bog'langan, shu sababli o'zi ishg'ol qilgan bo'shliqni bir tekis to'ldirib turadigan yengil modda; yonilg'i.

Tilimizda o'zlashmalar mustaqil so'zlar doirasidagina emas, yordamchilar, undov, taqlid va boshqa so'zlarlar orasida ham uchraydi. Qo'llanmaning maqsadi o'zlashma so'z haqida batafsil ma'lumot berishga yo'naltirilganligi bois unga barcha turkumlarga oid so'zlar kiritilgan.

O'zlashmalarning aksariyati tilimizga rus tili orqali kirib kelganligi sababli, ularning talaffuzi ham ko'p hollarda rus tilidagi talaffuzidan farq qilmaydi va bu hozirgi o'zbek adabiy tili uchun me'yor hisoblanadi. Shuning uchun Lug'atda so'zlarning transkripsiyasi, ya'ni talaffuziga doir maxsus ko'rsatmalar keltirilmagan. Biroq o'zbek tilida urg'u turg'un, u, asosan, so'zlarning oxirgi bo'g'iniga tushadi, hind-yevropa oilasiga mansub tillarning aksariyatida esa urg'u erkin bo'lgani uchun, so'zning har qanday bo'g'iniga tusha oladi. Shuningdek, hindcha, yaponcha, portugolcha va ayrim arabcha so'zlarda ham urg'u so'zning birinchi yoki ikkinchi bo'g'iniga tushishi mumkin. Shu bois so'zlarning oxirgi bo'g'iniga tushmagan hollarda urg'u yozuvda ko'rsatildi.

Alohida maqolalarda bosh soʻz vazifasida kelgan, shaklan oʻxshash, talaffuzda farqlanuvchi soʻzlar (omograflar)ning esa har ikkala shaklida ham urgʻu belgisi qoʻyilgan. Masalan:

AKADÉMIK [r] ...

AKADEMÍK [r akademicheskiy] ...

Maʼnodosh (sinonim) soʻzlarning har biri mustaqil ravishda alifbo tartibida oʻz oʻrnida berilib, izohlangan. Ayrim hollarda soʻz izohi oʻrnida *ayn.* belgisi bilan uning faol sinonimi keltirilgan:

RIYOZIYOT [a] *esk. ayn.* Matematika.

Lugʻatda soʻzlarning asosan hozirgi oʻzbek adabiy tilida keng qoʻllanadigan maʼnolari qisqa izoh bilan bayon etilgan. Polisemantik (koʻpmaʼnoli) soʻzlarning har bir mustaqil maʼnosi tartib bilan alohida-alohida izohlangan va bir-biridan farq qilishi uchun arab raqamlari bilan ajratilgan. Koʻchma maʼnoda qoʻllanadigan soʻz oldidan *koʻch.* belgisi qoʻyilgan. Agar shakldosh soʻzlar yoki koʻpmaʼnoli soʻzning alohida maʼnolari turli turkumlarga oid boʻlsa, u holda izohlanayotgan soʻzning etimologiyasidan keyin grammatik va uslubiy maʼlumotlar ham berilgan. Masalan:

TAAJJUB [a] 1 *sft.* Kishini hayratda qoldiradigan, ajablanarli, gʻalati.

2 *ot* Ajablanish, hayronlik. 3 *kirish.s.* Ajab, qiziq.

Oʻzbek tilida boshqa soʻz bilan turgʻun birikma shaklida qoʻllanadigan oʻzlashmalar tik toʻgʻri chiziqdan keyin birikma shaklida qora harflar bilan berilib, izohlangan. Bunda izoh bosh soʻzga emas, ana shu birikmaga tegishli boʻladi. Masalan:

IJROIYA [a] | **Ijroiya qoʻmita** – xalq deputatlarining hokimiyat organlari qarorlarini bajaruvchi, amalga oshiruvchi organi.

yoki

XAYRIYA [a] | **Xayriya jamiyati** - moddiy yordam uyushtiruvchi jamiyat.

Oʻz tilida soʻz yasash qonun-qoidalari asosida hosil qilingan turli yasama soʻslar bizning tilimizga tayyor holda kirib kelganligi sababli, oʻzbek tilida ular tub soʻzlar hisoblanadi. Shuning uchun lugʻatda bunday soʻzshakllarning har biri alohida izohlangan:

DIFFERENSIAL I [lot] *ot* 1 *mat.* Erkin oʻzgaruvchan miqdorning cheksiz kichik ixtiyoriy ortmasi...

DIFFERENSIÁTSIYA [lot] Bir-biridan farqlanish, ajralish.

Lugʻat hajman kichik, ixcham va foydalanishda qulay boʻlishi uchun, unga turli iboralar, maqol hamda matallardan misollar va sitatalar kiritilmagan. Muntazam takrorlanuvchi soʻzlar esa qisqartma shaklida berilgan, ushbi qisqartmalar va boshqa belgilar toʻgʻrisida lugʻatning KIRISH qismidan batafsil maʼlumot olish mumkin.

## OʻZGANING NUTQI

Muallif oʻz nutqida boshqa kishi ifodalagan fikrdan ham foydalanishi mumkin. Bunday fikr koʻchirma gap, oʻzlashtirma gap, dialog shaklida beriladi. **Koʻchirma gap.** Oʻzganing hech oʻzgarishsiz berilgan gapi **koʻchirma gap** deyiladi. Koʻchirma gapda ikki xil gap boʻladi: koʻchirilgan gap va muallif gapi. Ikkalasi birgalikda **koʻchirma gapli qoʻshma gapni** hosil qiladi. Muallif gapining kesimi *dedi, deb soʻradi, deb javob berdi, gapirdi, soʻzladi, aytdi* kabi feʼl bilan ifodalanadi. Koʻchirma gap soʻzlashuv va

badiiy uslubda ko`p ishlatiladi. Ko`chirilgan gap muallif gapidan avval, keyin, uning ichida yoki ikki tomonida kelishi mumkin: 1. *“Mehnat ishtaha ochar”*, – deydi bobom. 2. *Cho`pondan so`radik: “Bu qo`ylar kimning qo`yi?”* 3. *“Men, - dedi u, – ertaga kelaman”*. 4. *Bosh injener bosiqlik bilan: – Bu gapga Xudoyqulovning aloqasi yo`q, – dedi.* Ko`chirma gapli qo`shma gapni sodda gapga aylantirsa, ko`chirma gap to`ldiruvchi vazifasini oladi: 1. *“Mehnat ishtaha ochar”*, – deydi bobom (qo`shma gap). *Bobom mehnat ishtaha ochishini aytdi* (sodda gap). 2. *Bosh injener bosiqlik bilan: – Bu gapga Xudoyqulovning aloqasi yo`q, – dedi* (qo`shma gap). *Bosh injener bosiqlik bilan bu gapga Xudoyqulovning aloqasi yo`qligini aytdi* (sodda gap).

Ko`chirma gapda tinish belgisi. Ko`chirilgan gap qo`shtirnoq ichiga olinadi, badiiy asarda esa tire bilan ajratib beriladi. Ko`chirma gapda, ko`chirilgan gapning o`rniga qarab, tinish belgisining ishlatilishi turlicha: 1) ko`chirilgan gap darak gap bo`lib, muallif gapidan oldin kelsa, undan keyin vergul va tire qo`yiladi: *“Yuring, men o`sha tomonga boraman”*, – dedi Komila (badiiy asarlarda birinchi qo`shtirnoq o`rnida tire ishlatiladi, yopilgan qo`shtirnoq bo`lmaydi). So`roq va undov belgisi qo`shtirnoq ichida qoladi; a) ko`chirilgan gap muallif gapidan keyin kelsa, muallif gapidan keyin ikki nuqta qo`yiladi: *Ma`ruzachi bunday dedi: “O`sib borayotgan avlodga kitob xuddi maktab kabi kerak”*; b) muallif gapi ko`chirilgan gap ichida kelsa, tinish belgisi quyidagicha qo`yiladi: - ko`chirilgan gapning uzilib qolgan qismida hech qanday tinish belgisi bo`lmasa yoki vergul yoxud ikki nuqta bo`lsa, bu belgi tushirilib, muallif gapi har ikki tomondan vergul va tire bilan ajratiladi: *“Bizning qishlog`imizda, - dedi Fazliddin, - kishi zerikmaydi “.; - ko`chirilgan gapning uzilib qolgan qismidan so`ng nuqta qo`yish lozim bo`lsa, muallif gapidan oldin vergul va tire, muallif gapidan so`ng esa nuqta qo`yiladi: “Havo bulut, paxta ochiqda qolmasin, - dedi brigadir. – Har qaysi zvenodan bittadan odam chaqiring, paxtani saroyga tashib kiritsinlar”*. Ko`chirilgan gapning uzilib qolgan qismidan so`ng so`roq yoki undov belgisi qo`yish lozim bo`lsa, muallif gapidan avval o`sha belgi va tire qo`yiladi, muallif gapidan so`ng nuqta va tire qo`yilib, ko`chirma gapning davomi bosh harf bilan boshlanadi: *“Bu qaysi jamoa xo`jaligining mashinasi? – qorachagina bir qiz so`radi. – Meni ham olib ketsangiz”*. – ko`chirilgan gap muallif gapining o`rtasida kelsa, tinish belgisi quyidagicha qo`yiladi: 1) muallif gapining uzilib qolgan qismi oxiriga ikki nuqta qo`yilib, ko`chirilgan gap qo`shtirnoq ichiga olinadi; ko`chirilgan gapdan keyin vergul va tire qo`yilib, muallif gapining davomi yoziladi: *Saodat: “Biz ham astoydil mehnat qildik”*, - dedi. 2) ko`chirilgan gap so`roq yoki his-hayajon gap bo`lsa, uning belgisi qo`shtirnoq ichida bo`ladi: *O`qituvchimiz: “Sen qaysi badiiy kitoblarni o`qib chiqqansan?” – deb so`radilar.* 3) ko`chirma gap dialog tarzida ifodalanganda, yozma nutqda har bir luqmadan avval tire qo`yiladi. Bu luqmada muallif gapi bo`lmaydi: - *Shaharda qarindoshingiz bormi? – Yo`q.*

## **O`ZLASHTIRMA GAP**

O`zganing shakli o`zgartirilib, mazmuni ifodalangan gapi o`zlashtirma gap deyiladi. O`zlashtirma gap ko`chirma gapga aylantirilishi mumkin bo`lgan gap: *Qurbon ota ertaga kelishini aytdi* (o`zlashtirma gap) – *Qurbon ota dedi: “Men ertaga kelaman*

“ (ko`chirma gap). So`roq, buyruq mazmunini ifodalagan ko`chirma gap o`zlashtirma gapga aylantirilganda, darak gap shaklida bayon qilinadi.

| Ko`chirma gap                                                           | O`zlashtirma gap                                                               |
|-------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------|
| – <i>Bu qanday bino, nimaga mo`ljallaysiz?</i><br>– <i>dedi O`ktam.</i> | <i>O`ktam bu qanday bino ekanligini, uning nimaga mo`ljallanishini so`radi</i> |

O`zlashtirma gapda ko`chirma gapdagi kirish so`z tushib qoladi, undalma vositali to`ldiruvchiga aylantiriladi, 1-, 2- shaxslarni ko`rsatuvchi so`z 3- shaxsga aylantiriladi:

| Ko`chirma gap                                                                                         | O`zlashtirma gap                                                                                            |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <i>1. – Xo`sh, Kanizakxon, qanday yangiliklar bor? – so`radi O`ktam. 2. – Men ketdim, dedi ukasi.</i> | <i>1. O`ktam Kanizakxondan qanday yangiliklar borligini so`radi. 2. Ukasi o`zining ketayotganini aytdi.</i> |

O`zlashtirma gapning kesimi *aytmoq, gapirmoq, buyurmoq, so`ramoq, undamoq* (*demoq* fe`lidan tashqari) so`zi bilan ifodalanadi.

## O`ZLASHMA QATLAM

O`zlashma qatlam – qarindosh bo`lmagan tildan kirib kelgan so`z: *kitob, daftar, non, ma`rifat, telefon, kompyuter*. O`zbek tilidagi o`zlashma so`zning asosiy qismini fors-tojik, arab tilidan o`zlashgan hamda ruscha-baynalmilal (xalqaro) so`z tashkil qiladi. O`zbek tilidagi fors-tojikcha so`zni fonetik ko`rinishiga ko`ra o`zbekcha so`zdan farqlash qiyin. Lekin ayrim muhim belgisi mavjud: 1) sirg`aluvchi *j* tovushi fors-tojikcha so`zda uchraydi: *mujda, gijda, mujgon* kabi; 2) so`z oxirida undosh qator keladi: *taxt, baxt, dard, go`sht, farzand, daraxt* kabi; 3) *o* unlisi cho`zib aytiladi: *non, darmon, bahor* kabi. Lekin buning barchasi ham asosiy belgi bo`lolmaydi.

O`zbek tilida arabcha o`zlashma ham talay. Uning muhim belgisi: 1) tutuq belgisi so`z arab tiliga mansub (ruscha-baynalmilal (xalqaro) so`z mustasno); 2) ko`plik qo`shimchasi so`z oldida bo`ladi: *xulq-axloq, she`r-ash`or, xabar-axbor* kabi. 3) *-ot, -at, illo, ullo, iy, viy* unsuri bilan tugagan so`z arab tiliga xos: *axborot, hayvonot, nabotot, shaxsiyat, tabiat, Abdullo, adabiyot, oilaviy, ilmiy* kabi; 4) arabcha so`z tarkibida *g, j, ch, p, ng* tovushi uchramaydi; 5) so`z boshida *-ik, -iq, -ak, -mu, -ma* unsuri bo`ladi: *ikrom, iqrar, akram, muallim, maktab, mahorat* kabi.

O`zbek tili leksikasi tarkibi quyidagicha bo`lgan: 1923- yilda o`zbekcha so`z 61%, arabcha-forscha so`z 37,4 %, ruscha-baynalmilal so`z 2 %, 1940- yilda o`zbekcha so`z 69 %, arabcha-forscha so`z 25 %, ruscha-baynalmilal so`z 25 %.

Turkiylar ham boshqa tilga ko`plab so`z bergan. Masalan rus tiliga: *chugun, tovar, kirpich, utyug, aliy, bumaga, topor, yarlik, bara, karakuli, arik, djugara, xirman, dengi, altin, izumrud, jemchug, bazar, kazna, chulok, karman, tulup, sarafan, kaftan, yapancha, tyubeteyka, xalat, kolbasa, kavardak, shurpa, plov, kumis, ayran, jir, arbuz, vishnya, uryuk, ayva, kumach, churek, xalva, alcha, injir, Barsunov, Baskakov,*

*Tolmachov, Turgenev, Saltikov, Polivanov, Arkacheyev, Chirikov, Saratov, Yessentuki, Berdichev, Arbatskaya kabi.*

## **O`ZLASHMA SO`Z LUG`ATI**

O`zlashma so`z lug`ati – o`zbek tiliga boshqa tildan kirib kelgan so`z izohlanadigan lug`at. Bu tipdagi lug`at – izohli lug`atning bir ko`rinishi. Ular qaysi tildan o`zlashgan so`zni izohlashiga ko`ra turlicha nomlanadi. Mas., O.Usmon va R.Doniyorov tomonidan 1965- yilda nashr etilgan «Ruscha-internatsional so`zlar izohli lug`ati»da rus va boshqa yevropa tilidan kirib kelgan so`z izohlangan. 2007- yil «Yangi asr avlodi» nashriyatida Y.Hamrayevaning maktab o`quvchisi uchun «O`zbek tilining o`zlashma so`zlar o`quv izohli lug`ati» chop etilgan (q. **“O`zbek tilining o`zlashma so`zlar o`quv izohli lug`ati”**.)

## **O`G`UZ LAHJASI**

O`g`uz lahjasi – janubiy Xorazmdagi (Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp, Qo`shko`mir, Shovot tumani) bir qancha shevani o`z ichiga oladi. Belgisi:

- unli qisqa va cho`ziq aytiladi: *at* (hayvon), *aad* (ism);
- *t* tovushi *d*, *k* tovushi esa *g* tarzida aytiladi: *tog`* – *dog`*, *keldi* – *galdi*;
- *-ning* qo`shimchasi *-ng* tarzida, *-ga* qo`shimchasi esa *-a*, *-na* tarzida aytiladi: *akamning* – *akaming*, *yoringa* – *yorima*, *qo`liga* – *alina*;
- *k* tovushi *q* tarzida talaffuz qilinadi: *dekan* – *deqan*;
- *q* tovushi *k* ga moyillashadi: *qanday* – *kanday*;

Hozirgi o`zbek adabiy tili uchun qarluq lahjasiga kiradigan Farg`ona-Toshkent shevasi (ya`ni Toshkent shevasi fonetik tomondan; Farg`ona shevasi morfologik tomondan) asos qilib olingan. Lekin bu qipchoq va o`g`uz lahjasi xususiyati adabiy tilda yo`q degani emas.

## **«O`G`UZNOMA»**

«O`g`uznoma» – turk-o`g`uz shajarasi va ularning afsonaviy hukmdori O`g`uz hoqon haqidagi epik yodgorlik; kitobiy epos. Uyg`ur yozuvida bitilgan. Asarning asl nusxasi taxminan XV asrda ko`chirilgan, Parij kutubxonasida saqlanadi. «O`g`uznoma»ning turli variantlari bor. Uning eng ko`p tarqalgan varianti Abulg`oziy Bahodirxonning «Shajarai turk» asarida saqlangan. «O`g`uznoma» ko`p tillarga, jumladan, nemis, rus tillariga o`girilgan.



**G`OZI OLIM YUNUSOV**

G`ozi Olim Yunusov 1893- yilda Toshkentda xizmatchi oilasida tug`ildi. Boshlang`ich ma`lumotni ham shu yerda olgach, 1908- yilda Qohiraga borib o`qidi, 1914- yildan esa Turkiya universitetida tahsil ola boshladi.

Tilshunos dastlab 1923- yilda chet eldan qaytgach, jamoat ishlarida ishlab, tarjima bilan ham shug`ullandi. Keyinchalik Samarqandda Til va terminologiya komitetida faoliyat ko`rsatdi va filologiya fakultetida dars berdi. 1931- yili Toshkentga qaytdi. U yerda ham filologiya fakultetida ishlab, tilshunoslik seksiyasini boshqardi.

G`.O.Yunusovga 1930- yildayoq Sharqshunoslik instituti tomonidan professorlik unvoni berilgan.

G`.O.Yunusovning ilmiy-pedagogik faoliyati ko`p qirrali va sermahsul bo`lgan. Buni olimning tilshunoslik, adabiyotshunoslik, folkloristika, etnografiya, tarix, arxeologiya, huquqshunoslik, falsafa kabi sohalarda qalam tebratganidan bilish mumkin. U juda ko`p tillarni bilgan.

Olim o`z xalqining hayoti, ayniqsa, tili, yozma va og`zaki adabiyoti bo`yicha ko`p materiallar to`plashga muvaffaq bo`lgan, shu materiallar asosida “O`zbek lahjalarini tasnifda bir tajriba” (1936), “O`zbek urug`laridan qatag`onlar va ularning tili” (1930), “O`zbek tili grammatikasi” (1936, qo`lyozma) kabi asarlar yaratgan. 1922- yilda “Alpomish” dostonini ham birinchi bo`lib G`.O.Yunusov yozib olgan.

Atoqli olim qizqa, lekin sermazmun hayot ko`rdi. Uning boy lingvistik, folklorshunoslik va etnografik merosi o`zbek milliy madaniyati, tili xazinasidan munosib o`rin olgan.

G`.O.Yunusov 1939- yilda vafot etdi.

## **G`ULOMOV ASKAR**

Askar G`ulomov 1940- yil 15-dekabrda Buxoro shahrida tavallud topgan, pedagogika fanlari doktori, Buxoro universiteti O`zbek tilshunosligi kafedراسi professori, o`zbek tilini umumiy ta`lim tizimida o`qitish bo`yicha respublikamizda birinchi fan doktori. 1978- yilda nomzodlik dissertatsiyasini mashhur tadrisci T.Salimov rahbarligida “IV sinfda ona tilini o`qitish jarayonida o`quvchilarning mustaqil ishlari” mavzusiga yoqlagandayoq olim ona tili ta`limining sovet davrida mutlaqlashtirilgan ko`rgazmali bayon (retroskopik, reproduktiv) ta`lim usuli o`quvchida ijodiylikni bo`g`ishi, unda mustaqil fikrlash malakalarining shakllanishini chegaralashini sezdi. Shuning uchun olimning navbatdagi 1991- yilda himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasi – “Ona tili mashg`ulotlarida o`quvchilarning o`quv-biluv faoliyatini oshirish” mavzusidagi tadqiqoti – mustaqil fikrlovchi ijodiy tafakkur sohibini yetishtirish uchun ona tili ta`limi maqsadi, mazmuni va usulini yangilash, buning uchun tayanch bo`g`inda ona tili ta`limi kognitiv-pragmatik (o`sha davrda zamona zayli bilan induktiv deb atalgan) ta`lim usuliga ko`chirish zaruratini ilmiy-nazariy asoslashga bag`ishlandi. “Ta`lim to`grisida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning hayotga tatbiqi jarayonida umumiy o`rta ta`lim tizimida ona tilini o`qitish mana shu yo`nalishda yangilandi. A.G`ulomov ona tili o`quv fanidan 1999- yilda qabul qilingan umumiy o`rta ta`lim davlat ta`lim standartlari talablariga muvofiq ilk dastur, shu dastur asosida tuzilgan va 1999-2004- yillarda amaliyotda bo`lgan darsliklarining yaratilishi va ommalashishida faol ishtirok etdi. Olim “Ona tilini

o`qitish jarayonida faollik tamoyilini amalga oshirishning nazariy asoslari” (-Toshkent: Fan, 1989), “Ona tili o`qitish prinsiplari va metodlari” (-Toshkent: O`qituvchi, 1992), “Maktabda til sathlarini o`zaro bog`lab o`rganish” (-Toshkent, 1992) kabi o`ndan ortiq ilmiy-metodik kitoblarning, 200 yaqin ilmiy maqollarning muallifi.

A.G`ulomov qoraqalpoq maktablarida davlat tili – o`zbek tilini o`qitishning yangi maqsadi, mazmuni va usulini belgilashga, shu yo`nalishda dastur, darsliklar yaratishga va bu sohani yetuk tadirishchilar bilan ta`linlashga ulkan hissa qo`shdi. Qoraqalpoq maktablari uchun uning rahbarligida yaratilgan “O`zbek tili” darsliklari hozir ham amalda.

A.G`ulomov 2003- yilda vafot etdi.

## G`ULOMOV AYYUB

O`zbek formal tilshunosligining asoschisi A.G`ulomov 1914- yilda Toshkentda tavallud topgan. U «O`zbek tilida aniqlovchilar» (1940), «O`zbek tilida kelishiklar» (1940), «O`zbek tilida ko`plik kategoriyasi» (1944), «O`zbek tilida urg`u» (1947), «Sodda gap sintaksisi» (1948), «Sodda gap» (1955), «O`zbek tilida tarixiy so`z yasaliish muammolari» (1955), «Fe`l» (1957) kabi qator asarlari bilan o`zbek ilmiy tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishi uchun xizmat qildi. Uning rahbarligida o`rta maktablarning V, VI, IX sinflari uchun yozilgan ona tili darsligi yigirma yilga yaqin yosh avlodga til ta`limini singdirishga xizmat qildi.

Respublikamizning barcha ona tili va adabiyot muallimlari A.G`ulomov tomonidan oliy o`quv yurtlarining o`zbek filologiyasi fakultetlari uchun yozilgan «Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis» kitobidan o`zbek tili sintaksisining sir-asrorlarini o`rgangan va hanuz o`rganib kelmoqda. Uning ilmiy xulosalari, nazariy qarashlari o`zbek tilshunosligining hozirgi taraqqiyoti uchun ham asos bo`lib xizmat qilmoqda.

A.G`ulomov 1984- yilda vafot etgan.



## SHAKLDOSHLIK

Shakldoshlik – til birliklarida tovush va yozuv tomoni bir xil, ammo bir-biriga bog`liq bo`lmaydigan ma`no ifodalash hodisasi. Bunday hodisa **omonimiya** ham deyiladi: *Dalada ot kishnadi. Chaqaloqqa ot qo`yildi. To`pni menga ot.* Har uchala gapda qo`llangan *ot* so`zi shaklan bir xil bo`lsa-da, aslida mutlaqo boshqa-boshqa so`z.

Shakldoshlik so`z, qo`shimcha, ibora, so`z birikmasi va gapda mavjud. Shu hodisaga xos birlik **shakldosh so`z, shakldosh qo`shimcha, shakldosh ibora, shakldosh so`z birikmasi, shakldosh gap** deyiladi.

Shakldoshlik o`ziga yondosh bo`lgan **ma`nodoshlik, zid ma`nolilik, talaffuzdoshlik** singari hodisalardan farq qiladi. Shakldoshlikda so`zlarning fonetik

qurilishi ham, talaffuzi ham bir xil, lekin lugʻaviy maʼnolari turlicha. Maʼnodoshlik va zid maʼnolilikda faqat soʻzning lugʻaviy maʼnolariga eʼtibor qilinadi. Talaffuzdoshlikda esa soʻzlarning talaffuzi inobatga olinadi.

Shakldoshlik bilan koʻp maʼnolilikni chalkashtirmaslik kerak. Uning farqi quyidagicha:

- shakldoshlikda nechta maʼnosi boʻlsa, u shuncha soʻz hisoblanadi, koʻp maʼnolilikda esa uning maʼnosi qanchalik koʻp boʻlmasin, baribir bir soʻz hisoblanadi;

- shakldoshlikdagi maʼno bir-biriga mutlaqo bogʻliq emas, lekin koʻp maʼnolilikda maʼno bir-biriga aloqador boʻladi;

- shakldoshlik turli xil tildan soʻz kirib kelishi, bir tildagi turli shaklning aynan toʻgʻri kelib qolishi natijasida yuzaga keladi, koʻp maʼnolilik esa uning nechta maʼnosi boʻlsa, bari bir maʼnodan oʻsib chiqadi.

Shakldoshlik ham, koʻp maʼnolilik ham qaysi maʼnoda kelayotganligi matn orqali aniqlanadi.

Shakldosh soʻz bir soʻz turkumi doirasida ham, bir necha soʻz turkumi doirasida ham boʻlishi mumkin: *Uyga oʻt ketdi. Dalada oʻt koʻkardi.* Gapda faqat ot turkumiga mansub soʻz oʻzaro shakldoshlikni hosil qilgan. Faqat bir soʻz turkumi doirasida hosil boʻlgan omonim soʻzlar grammatik shakl olsa ham omonim boʻlib qolaveradi: *Bu uningni oʻzing non qilib ye. Uningni oʻchir!* gapidagi *un* soʻziga *-ing* egalik va *-ni* tushim kelishigi qoʻshimchasi qoʻshilganda ham omonimlik bartaraf boʻlmagan. Lekin omonimlik boshqa-boshqa soʻz turkumi doirasida boʻlsa, grammatik qoʻshimcha olishi bilan u yoʻqoladi. Mas., *ot* – ism, *ot* – harakat: *Oting nima? Uzoqqa otib yubor.* Baʼzan, omonimlik har xil soʻz turkumi doirasida boʻlsa-da, qoʻshimcha qoʻshilsa ham saqlanib qolishi mumkin. Bunda qoʻshimcha (grammatik) omonimligini ham kuzatish mumkin: *Oting nima? Gʻishtni yuqoriroqqa oting.* Bunda *-ing* – egalik, *-ing* – shaxs-son qoʻshimchasi. Bunday holda shakldoshlik gapdagi boshqa soʻz yordamida bartaraf etiladi.

Oʻzbek tilshunosligida shakldoshlikni hosil qiluvchi hodisalar turlicha ekanligi qayd etiladi. Fonetik qurilishi va talaffuzi oʻxshagan soʻzlarning nutqda bir xil talaffuz etila boshlashi: *ot, oʻt*; soʻz maʼnosida yuz beradigan oʻzgarish: *musht, til, dam*, boshqa tillardan soʻz oʻzlashishi: *bogʻ, jaz, mil*; yangi soʻz yasalishi natijasida: *ruh+lan, ruh+la+n* kabilar shakldoshlik hodisasini keltirib chiqaradi.

Shakldosh soʻzlar lugʻat boyligi uchun muhim manbalardan biri. Oʻzbek tilida mavjud boʻlgan shakldosh soʻzlar izohli va maxsus lugʻatlarda oʻz aksini topgan.

**Ibora shakldoshligi.** Ibora shakldoshligi – bir xil qism (soʻz) dan tuzilgan, yaʼni shakli oʻxshash, ammo maʼnosi har xil boʻlgan iboralar munosabati: *uyni boshiga koʻtarmoq – onasini boshiga koʻtarmoq. 1.Ilgari bir qatra ogʻzimga olmas edim* (Oyb.). – *Komissiya hayron boʻlib qoldi, ammo hech kim meni ogʻziga olmas edi.* (A.Qah).

**Shakldoshlikning uslubiy xususiyati.** Nutqda shakldosh soʻzdan foydalangan holda turli soʻz oʻyini hosil qilinadi va badiiy nutqning goʻzalligiga erishiladi: *Qoʻlingdan kelgancha chiqar yaxshi ot, Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot, Nasihatim yod qilib ol, farzandim, Yolgʻiz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.* Bu oʻrinda *ot* omonimi turli maʼnoni ifodalayapti. Omonim soʻzdan foydalangan holda soʻz

o'ynini yaratish *tajnis (jinos)* san'ati deyiladi. Badiiy adabiyotda shu badiiy san'at qo'llanib yaratilgan to'rt qator she'r esa *tuyuq* deb ataladi.

**Qo'shimcha shakldoshligi.** Qo'shimcha shakldoshligi (o'monim qo'shimcha) – qo'shimchalardagi shaklning bir xil, ma'nosi har xil bo'lish hodisasi. Shakldoshlik bir tur qo'shimcha orasida ham, turli qo'shimcha orasida ham bo'lishi mumkin.

1. So'z yasovchi qo'shimcha shakldoshligi: *-ki I: turtki, tepki, ko'chki* (ot yasaydi); *-ki II: ichki, kechki, ustki* (sifat yasaydi).

2. Grammatik qo'shimcha shakldoshligi: *-(i)sh I: borish* (bormoq), *kelish* (kelmoq), *ketish* (ketmoq) (harakat nomi shakli); *-(i)sh II: (birga) yuvish*, (birga) *tarash*, (birga) *ishlash* (birgalik nisbat shakli).

3. So'z yasovchi va grammatik qo'shimcha shakldoshligi: *-(i)m I: yig'im, terim, sig'im* (ot yasovchi morfema); *-(i)m II: uyim, kitobim, soatim* (egalik morfemasi).

O'zbek tilidagi asosiy shakldosh qo'shimcha:

| Qo'shimcha | Otda                    | Sifatda                       | Fe'lda                                      | Ravishda                      | Yordamchi so'zda |
|------------|-------------------------|-------------------------------|---------------------------------------------|-------------------------------|------------------|
| -a         | <i>jizza (s/y)</i>      | <i>ko'tara (savdo, s/ya)</i>  | <i>qona (s/y), bora (sh/y), bura (sh/y)</i> | <i>shig'g'a, chippa (s/y)</i> | <i>sen-a</i>     |
| -ay        | —                       | —                             | <i>kuchay (s/y), boray (sh/y)</i>           | —                             | —                |
| -ak        | <i>g'ijjak (s/y)</i>    | <i>qirmizak (s/y)</i>         | —                                           | —                             | —                |
| -ar        | —                       | —                             | <i>ko'kar (s/y), kelar (sh/y)</i>           | —                             | —                |
| -ga        | <i>bolaga (sh/y)</i>    | —                             | <i>surgamoq (sh/y)</i>                      | —                             | —                |
| -gi        | <i>supurgi (s/y)</i>    | <i>yozgi (s/y)</i>            | —                                           | —                             | —                |
| -gina      | <i>qizgina (sh/y)</i>   | —                             | —                                           | —                             | <i>qizimgina</i> |
| -g'oq      | <i>to'lg'oq (s/y)</i>   | <i>toyg'oq (s/y)</i>          | —                                           | —                             | —                |
| -da        | <i>uyda (sh/y)</i>      | —                             | —                                           | —                             | <i>keldi-da</i>  |
| -dir       | —                       | —                             | <i>sezdir (sh/y)</i>                        | —                             | <i>kelgandir</i> |
| -don       | <i>kuldon (s/y)</i>     | <i>qadrdon (s/y)</i>          | —                                           | —                             | —                |
| -dor       | <i>chorvad or (s/y)</i> | <i>puldor, yelkador (s/y)</i> | —                                           | —                             | —                |
| -i         | <i>oti (sh/y)</i>       | <i>Jannati (s/y)</i>          | <i>tinchi (s/y), to'zi (sh/y)</i>           | —                             | —                |
| -ik        | <i>ko'rik</i>           | <i>egik (s/y)</i>             | <i>birik, ko'zik (s/y)</i>                  | —                             | —                |

|        |                                                                           |                                     |                                                                |                       |                                     |
|--------|---------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------|----------------------------------------------------------------|-----------------------|-------------------------------------|
|        | (s/y)                                                                     |                                     |                                                                |                       |                                     |
| -iq    | <i>chiziq</i><br>(s/y)                                                    | <i>ochiq</i> (s/y)                  | <i>yo`liq</i> (s/y), <i>siniqmoq</i><br>(sh/y)                 | —                     | —                                   |
| -il    | —                                                                         | —                                   | <i>egildi</i> (sh/y, o`zlik),<br><i>ichildi</i> (sh/y, majhul) | —                     | —                                   |
| -im    | <i>uyim</i><br>(sh/y),<br><i>bilim</i><br>(s/y)<br><i>chekim</i><br>(s/y) | <i>ayrim</i> (s/y)                  | —                                                              |                       | —                                   |
| -in    | <i>ekin</i> (s/y)                                                         | <i>sog`in</i> <i>sigir</i><br>(s/y) | <i>ko`rin</i> (sh/y)                                           | <i>oldin</i><br>(s/y) | —                                   |
| -ing   | <i>uying</i><br>(sh/y)                                                    | —                                   | <i>oching</i> (sh/y)                                           | —                     | —                                   |
| -ingiz | <i>uyingiz</i><br>(sh/y)                                                  | —                                   | <i>ochingiz</i> (sh/y)                                         | —                     | —                                   |
| -ir    | —                                                                         | —                                   | <i>gapir</i> (s/y), <i>o`chir</i><br>(sh/y)                    | —                     | —                                   |
| -ish   | —                                                                         | <i>ko`kish</i><br>(sh/y)            | <i>yozish</i> (sh/y), <i>olishdi</i><br>(sh/y)                 | —                     | —                                   |
| -y     | —                                                                         | —                                   | <i>qoray</i> (s/y), <i>o`qiy</i><br>(sh/y)                     | —                     | —                                   |
| -k     | <i>to`shak</i><br>(s/y)                                                   | <i>chirik</i> (s/y)                 | <i>bordik</i> (sh/y)                                           | —                     | —                                   |
| -q     | <i>taroq</i><br>(s/y)                                                     | <i>yumshoq</i><br>(s/y)             | —                                                              | —                     | —                                   |
| -ka    | <i>yo`lka</i><br>(sh/y),<br><i>etikka</i><br>(sh/y)                       | —                                   | <i>iska</i> (s/y), <i>surka</i> (sh/y)                         | —                     | —                                   |
| -qa    | <i>o`qqa</i><br>(sh/y)                                                    | <i>qisqa</i> (s/y)                  | <i>chayqa</i> (sh/y)                                           | —                     | —                                   |
| -kash  | <i>aravakas</i><br><i>h</i> (s/y)                                         | <i>janjalkash</i><br>(s/y)          | —                                                              | —                     | —                                   |
| -ki    | <i>tepki</i><br>(s/y)                                                     | <i>kechki</i> (s/y)                 | —                                                              | —                     | <i>demakki</i> ,<br><i>biladiki</i> |
| -qi    | <i>chopqi</i><br>(s/y)                                                    | <i>Sayroqi</i> (s/y)                | —                                                              | —                     | —                                   |
| -kin   |                                                                           | <i>keskin</i> (s/y)                 | <i>to`kkin</i> (sh/y)                                          | —                     | —                                   |
| -qin   | <i>to`lqin</i><br>(s/y)                                                   | <i>sotqin</i> (s/y)                 | <i>boqqin</i> (sh/y)                                           | —                     | —                                   |
| -qoq   | <i>tutqoq</i> ,<br><i>botqoq</i>                                          | <i>yopishqoq</i><br>(s/y)           | —                                                              | —                     | —                                   |

|       |                                                      |                             |                                                 |                                 |                |
|-------|------------------------------------------------------|-----------------------------|-------------------------------------------------|---------------------------------|----------------|
|       | (s/y)                                                |                             |                                                 |                                 |                |
| -kor  | <i>paxtakor</i><br>(s/y)                             | <i>Fusnkor</i><br>(s/y)     | —                                               | —                               | —              |
| -la   | —                                                    | —                           | <i>ishla</i> (s/y), <i>quvla</i><br>(sh/y)      | —                               | <i>sen-la</i>  |
| -lik  | <i>ochlik</i><br>(s/y)                               | <i>o`shlik</i> (s/y)        | —                                               | —                               | —              |
| -m    | <i>chidam</i><br>(s/y),<br><i>ukam</i><br>(sh/y)     | —                           | <i>yozdin</i> (sh/y)                            | —                               | —              |
| -ma   | <i>tugma</i><br>(s/y)                                | <i>yasama</i> (s/y)         | <i>kelma</i> (sh/y)                             | <i>yonma-<br/>yon</i><br>(sh/y) | —              |
| -miz  | <i>onamiz</i><br>(sh/y)                              | —                           | <i>olamiz</i> (sh/y)                            | —                               | —              |
| -moq  | <i>quymoq</i><br>(s/y)                               | —                           | <i>ichmoq</i> (sh/y)                            | —                               | —              |
| -n    | <i>o`zin(i)</i><br>(sh/y)                            | —                           | <i>yasamoq</i> (sh/y)                           | —                               | —              |
| -oq   | <i>o`roq</i><br>(s/y)                                | <i>qo`rqoq</i> (s/y)        | —                                               | —                               | <i>keliboq</i> |
| -on   | <i>to`zon</i><br>(s/y)                               | <i>Shodon</i> (s/y)         | —                                               | —                               | —              |
| -sa   | —                                                    | —                           | <i>suvsamoq</i> (s/y), <i>kelsa</i><br>(sh/y)   | —                               | —              |
| -si   | <i>otasi</i><br>(sh/y)                               | —                           | <i>garangsi</i> (sh/y)                          | —                               | —              |
| -siz  | —                                                    | <i>ishsiz</i> (s/y)         | <i>ichasiz</i> (sh/y)                           | <i>to`xtov<br/>siz</i> (s/y)    | —              |
| -t    | —                                                    | —                           | <i>to`latdi</i> (s/y), <i>o`qitdi</i><br>(sh/y) | —                               | —              |
| -xon  | <i>kitobxon</i><br>(s/y),<br><i>onaxon</i><br>(sh/y) | —                           | —                                               | —                               | —              |
| -ch   | <i>quvonch</i><br>(s/y)                              | <i>tinch</i> (s/y)          | —                                               | —                               | —              |
| -cha  | <i>qizilcha</i><br>(s/y)                             | <i>farg`onacha</i><br>(s/y) | —                                               | <i>o`zicha</i><br>(s/y)         | —              |
| -chak | <i>kelincha</i><br>k (sh/y)                          | <i>kuyunchak</i><br>(s/y)   | —                                               | —                               | —              |
| -chi  | <i>ishchi</i><br>(s/y)                               | —                           | —                                               | —                               | <i>kel-chi</i> |

|       |                          |                            |   |   |   |
|-------|--------------------------|----------------------------|---|---|---|
| -chiq | <i>qopchiq</i><br>(sh/y) | <i>sirpanchiq</i><br>(s/y) | — | — | — |
| -choq | <i>toychoq</i><br>(sh/y) | <i>maqtanchoq</i><br>(s/y) | — | — | — |

## SHAKLIY (ETIMOLOGIK YOKI GRAFIK) YOZUV

Shakliy (etimologik yoki grafik) yozuv – o`zlashgan so`zning qadimgi kelib chiqish holatini yoki shaklini saqlab qolib yozishga asoslangan imlo tamoyili. Boshqacha qilib aytganda, yozuvda o`zlashgan so`zning shakli saqlanadi. Mas., *maoniy*, *mutolaa*, *mushoira*, *muammo*, *va`da*, *she`r* kabi so`z ham bu yozuv asosida yozilgan. Rus tilidan o`zlashgan *spravka*, *aeroflot*, *shtamp*, *shtraf*, *zoologiya* kabi so`z shakliy yozuv asosida yozilmoqda. Shunisi muhimki, o`zbek tili talaffuzi uchun qiyin bo`lgan ba`zi baynalmilal so`z hozirgi orfografiya qoidasi bo`yicha istisno tarzida tilimizning talaffuz xususiyatiga moslab yoziladi va talaffuz qilinadi. Bunga *kiosk* – *kioska*, *propusk* – *propuska*, *otpusk* – *otpuska* kabi so`z misol bo`la oladi. Bu tip so`z ba`zan o`z holicha ham yozilmoqda: *bank*, *tank*, *disk* kabi.

Ayni vaqtda orfografiya tamoyili orasida uzviy aloqa ham mavjud. *Oilaviy*, *Navoiy* kabi so`zning oxiridagi *-viy*, *-iy* qo`shimchasi **tarixiy-an`anaviy yozuvga** ham, shakliy yozuvga ham mos keladi. (q. **Orfografik tamoyillar**).

## SHAXSIY MUNOSABAT SHAKLI

Shaxsiy munosabat shakli – otlardagi so`zlovchining turli shaxsiy munosabatlari, achinish, erkalash, ulug`lash kabilarni bildiruvchi shakl. Bunday shakllarga otning shaxsiy munosabat shakllari deyiladi. Quyidagi shakllar bilan hosil qilinadi:

-jon: *ukajon*, *oyijon*, *Po`latjon*.

-xon: *Azizxon*, *Halimaxon*, *ukaxon*, *akaxon*.

-oy: *Salimaoy*, *kelinoy*.

-loq/-aloq: *bo`taloq*, *qizaloq*.

-gina/-kina/-qina: *ukaginam*, *buviginam*.

-boy: *Haydarboy*, *Shuhratboy*.

-bek: *Salimbek*, *Muxtorbek*.

-jon, -xon, -boy, -bek birligi kishi ismining ajralmas qismiga aylanganda lug`aviy shakllikdan chiqadi: *Nurboy Jabborov*, *Muhammadxon Abdullayev*, *Mamajon Dadajonov*, *Tursunoy Oxunova*, *Nurxon*, *O`g`iloy*.

## SHAXS-SON

Shaxs-son shakli – harakat bajaruvchisini bildirib, mustaqil so`zlarni kesim vazifasiga xoslovchi, kesimni ega bilan bog`lovchi shakl. So`zlarning shaxs va sonda o`zgarishi tuslanish, shaxs-son shakli esa **zamon**, **mayl shakllari** bilan birga **tuslovchi shakllar** deyiladi. Shaxs-son shakli asosga zamon shaklidan so`ng qo`shiladi.

Hozirgi o`zbek tilida shaxs-son ko`rsatkichining 4 ta guruhi mavjud:

1) birinchi (-*man*, -*san*, *nol* shakl yoki -*di/ti*, -*miz*, -*siz(lar)* guruh -(*lar*) -*yap*, -*yotir*, -*moqda*, -*gan/kan/qan*, -*i*)*b*, -*a/y*, -*moqchi* ko`rsatkichidan keyin qo`shiladi:

|             |   |            |   |            |           |   |            |             |   |            |
|-------------|---|------------|---|------------|-----------|---|------------|-------------|---|------------|
| <i>Men</i>  | } | <i>bor</i> | } | <i>man</i> | <i>bo</i> | } | <i>man</i> | <i>bora</i> | } | <i>man</i> |
| <i>Sen</i>  |   |            |   | <i>san</i> |           |   | <i>san</i> |             |   |            |
| <i>U</i>    |   |            |   | —          |           |   | <i>ti</i>  |             |   | <i>di</i>  |
| <i>Biz</i>  |   |            |   | <i>miz</i> |           |   | <i>miz</i> |             |   | <i>miz</i> |
| <i>Siz</i>  |   |            |   | <i>siz</i> |           |   | <i>siz</i> |             |   | <i>siz</i> |
| <i>Ular</i> |   |            |   | <i>di</i>  |           |   | <i>ti</i>  |             |   | <i>di</i>  |
|             |   |            |   |            |           |   | <i>ya</i>  |             |   |            |
|             |   |            |   | <i>p</i>   |           |   |            |             |   |            |

2) ikkinchi (-*m*, -*ng*, -*k*, -*ngiz*, -(*lar*)) guruh -*di*, *edi*, -*sa* ko`rsatkichidan keyin qo`shiladi:

|             |   |              |                |                    |                |               |                |
|-------------|---|--------------|----------------|--------------------|----------------|---------------|----------------|
| <i>Men</i>  | } | <i>bordi</i> | <i>m</i>       | <i>bor gan edi</i> | <i>m</i>       | <i>bor sa</i> | <i>m</i>       |
| <i>Sen</i>  |   |              | <i>ng</i>      |                    | <i>ng</i>      |               | <i>ng</i>      |
| <i>U</i>    |   |              | —              |                    | —              |               | —              |
| <i>Biz</i>  |   |              | <i>k</i>       |                    | <i>k</i>       |               | <i>k</i>       |
| <i>Siz</i>  |   |              | <i>ngiz</i>    |                    | <i>ngiz</i>    |               | <i>ngiz</i>    |
| <i>Ular</i> |   |              | ( <i>lar</i> ) |                    | ( <i>lar</i> ) |               | ( <i>lar</i> ) |

3) uchinchi (-*im*, -*ing*, -*i*, -*imiz*, -*ingiz*, -(*lar*)*i*) guruh o`tgan va hozirgi zamon ko`rsatkichi bilan yo`q so`zi orasida bo`ladi:

|      |   |      |   |         |     |   |        |   |
|------|---|------|---|---------|-----|---|--------|---|
| Men  | } | bor- | { | im      | bor | { | im     | y |
| Sen  |   |      |   | ing     |     |   | ing    |   |
| U    |   |      |   | i       |     |   | i      |   |
| Biz  |   |      |   | imiz    |     |   | imiz   |   |
| Siz  |   |      |   | ingiz   |     |   | ingiz  |   |
| Ular |   |      |   | (lar)i  |     |   | (lar)i |   |
|      |   |      |   | ayotgan |     |   |        |   |

Shaxs-son qo`shimchasining uchinchi guruhi kelasi zamonning she'riy uslubga xos -*gu/ku/qu* va fe'l modal shaklidan biri bo`lgan -*gi/ki/qi* (kel) ko`rsatkichidan keyin ham qo`shiladi: *men borgum*, *borgim keldi*, *sen borgung*, *borging keldi* va hokazo.

4) to`rtinchi guruh buyruq-istak mayli bilan birga voqelanadi: *bor*, *boring*, *borsin*, *boray*, *boraylik* kabi.

Shaxs-son shakli kesim vazifasida kelgan fe'ldan boshqa mustaqil so`zga ham qo`shiladi: *ishchiman*, *a'lochisiz*, *birinchiman*, *menman*, *sensan* kabi.

Uslubiy belgilari. Shaxs-son shakllari nutqiy qurshov ta'sirida turli ko`chma ma'noda ham qo`llanadi.

Son ko`chishi:

1) birlik o`rnida ko`plik: *Biz ko`rganmiz* (Men ko`rganman), *Ayam keldilar* (U keldi). *Dada*, *boring* (bor);

2) ko`plik o`rnida birlik: *Senlar bilmaysan* (Siz bilmaysizlar). *Ular keldi* (Ular keldilar).

Shaxs ko`chishi:

3) II shaxs o`rnida I shaxs: *Qani, bolalar, yozamiz.*

4) II shaxs o`rnida III shaxs: *Anvar yugurib borib Ahmadjonning yoqasidan oldi: – Shunaqa narsa bilan hazil qiladimi, odam.*

5) I shaxs o`rnida III shaxs: *Bu borada kamina uzr so`raydi. Nasriddin afandi asli G`irvondan chiqmaganmikan, deb o`ylanib qoladi kishi.*

## SHEVA

Sheva – faqat muayyan hududga xos ayrim belgini o`zida namoyon qilgan til shakli. **Dialekt** so`zi gohida *sheva*, gohida *lahja* atamasi o`rnida keladi: *Toshkent dialekti* (shevasi), *qipchoq dialekti* (lahjasi) kabi. Adabiy til lahja va sheva negizida umumlashtirish, qat`iy me`yorni ishlab chiqish yo`li bilan hosil qilinadi va undan oziqlangan holda muttasil rivojlanib boradi. Shuning uchun adabiy til xalq shevasidan uzilgan emas. Adabiy til uchun sheva boyishning **ichki manbasi** hisoblanadi.

Adabiy til shevadan, shuningdek, bir lahja ikkinchi lahjadan, bir sheva boshqa shevadan **fonetik, leksik** va **grammatik** jihatdan ozmi-ko`pmi farq qiladi.

Fonetik farq deganda tovush jihatidan (*pabrika – fabrika, man – men, jila – yig`la* kabi), leksik farq deganda so`z jihatidan (*kallapo`sh – do`ppi, go`sala – buzoq* kabi), grammatik farq deganda so`z shakli yoki qo`shimchadagi (*borayapti – borvotdi – borutdi* kabi) farqlanish tushuniladi.

Shevaning faqat og`zaki shakli mavjud.

**Shevaga xos so`z.** Ma`lum bir hududda yashovchi kishilar nutqiga xos so`z shevaga xos so`z deyiladi: *kallapo`sh* (Buxoro) – *do`ppi*, *g`o`z* (Xorazm) – *yong`oq*, *mishiq* (Farg`ona) – *mushuk*, *poku* (Samarqand) – *ustara*.

Sheva so`zi fanda **dialektizm** deb ham yuritiladi.

Badiiy adabiyot va kinofilmda mahalliy ruhni aks ettirish, asar qahramoni nutqini aniq berish maqsadida shevaga xos so`zdan foydalaniladi.

Ayrim so`z adabiy tilda boshqa, shevada boshqa ma`noda ishlatiladi. Mas., *pashsha* so`zi adabiy til lug`atida «yozgi qo`sh parda qanotli hasharot» deb izohlangan. Biroq ayrim shevada u *chivin* so`zi o`rnida ishlatiladi. *Ajal yetmay o`lmas Boysunning xoni, Besabab chiqmaydi chivinning joni* («Alpomish») gapidagi *chivin* so`zi kunduzi uchadigan qo`ng`ir-qora tusli mayda hasharotni ifodalasa, *Atrofda g`uv-g`uv pashsha: oyoqlarga yopishadi, burun kataklariga suqiladi, quloqni uzadi* (Oybek) gapida *pashsha* so`zi mazkur hasharotning atamasi. Yoki *irkit* leksemasi abadiy tilda «kir, iflos» degan ma`no bilan qo`llansa, ayrim shevada «ayron xalta», boshqasida esa «beo`xshov, qo`pol ko`rinishli» ma`nosiga ega.

Sheva so`zini uning adabiy tildagi muqobiliga sinonim sanamaslik lozim.

## SHOABDURAHMONOV SHONAZAR

Filologiya fanlari doktori, professor, O`zFA akademigi Sh.Shoabdurahmonov 1924- yilda Toshkentda tavallud topgan.. O`zbek tili fonetikasi, o`zbek tilining badiiy-estetik vazifasi, leksikografiyasi, morfologiyasi, dialektologiyasi yuzasidan qator salmoqli asarlar yaratib, tilshunosligimiz rivoji uchun munosib hissasini qo`shdi.

Jumladan, «O`zbek tilida yordamchi so`zlar» (1953), «Fonetika. O`zbek tili fonetikasiga doir ba`zi masalalar» (1953), «O`zbek tilida punktuatsiya» (1955), «O`zbek adabiy tili va o`zbek xalq shevalari» (1962) kabi asarlari o`zbek tilshunosligining rivoji uchun munosib hissa bo`lib qo`shildi.

Akademik Sh.Shoabdurahmonov o`rta va oliy ta`limda o`zbek tili va tilshunosligini o`qitishni takomillashtirish borasida ham samarali mehnat qildi. Ayniqsa, uning V.Reshetov bilan hamkorlikda oliy maktablarning o`zbek filologiyasi fakulteti talabalari uchun «O`zbek dialektologiyasi» (1962, 1969, 1978) darsligi, shuningdek, o`rta maktablarning IX sinfi uchun hammualliflikda yozilgan «O`zbek tili» (1977, 1978, 1980, 1982) hamda oliy o`quv yurtlari uchun yaratilgan «Hozirgi o`zbek adabiy tili. I qism» (1980) darsliklari alohida ahamiyatga ega.

## SHOR TILI

Shor tili – turkiy tillarning uyg`ur-o`g`uz guruhidagi xakas guruhchasiga mansub tillardan; Rossiyaning Kemerovo viloyatida, qisman Oltoy va Xakas Respublikasida tarqalgan. So`zlashuvchilarning umumiy soni 10 mingga yaqin.

Shor tilida 2 ta: shimoli-g`arbiy va kondom lahjasi bor. Leksikasida ovchilik terminologiyasi rivojlangan, mo`g`ulcha va ruscha o`zlashmalar uchraydi. Mrass lahjasi yetakchi hisoblanib, adabiy til ana shu lahja asosida shakllangan. Hozirgi kunda shor adabiy til sifatida mavjud emas, u faqat qabilalar ichida so`zlashuv tili. Yozma adabiy til sifatida xakas, rus tillaridan foydalaniladi.



## CHASTOTALI LUG`AT

Chastotali lug`atda so`zning qo`llanish darajasi haqida ma`lumot beriladi. I.A.Kissen muallifligida chop etilgan «Словарь наиболее употребительных слов современного узбекского литературного языка» (Toshkent, 1970) lug`ati chastotali lug`at, unda so`zning ma`lum bir tanlangan manbada necha marta uchraganligi va qo`llanishi ko`rsatilgan.

## CHIZIQCHA BILAN YOZISH

Chiziqcha bilan yozish – 1995- yil 24- avgustda qabul qilingan “O`zbek tilining asosiy imlo qoidalarini”ning 51–56- paragraflarini o`z ichiga oluvchi imlo qoidasi to`plami.

Quyidagi holda so`z yoki uning qismlari chiziqcha bilan yoziladi: 1.Juft so`z va takror so`z qismi: *el-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-to`rt, o`n-o`n beshta (10-15ta), bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldab-suldab, o`ylab-netib,*

*so`ramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikir-chikir, duk-duk, taq-tuq, qop-qop, ming-ming (ming-minglab), bitta-bitta (bitta-bittalab), baland-baland, chopa-chopa, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, uy-uyiga, ich-ichidan* kabi.

1) juft so`zdan qo`shimcha yordamida yasalgan so`z ham chiziqcha bilan yoziladi: *baxt-saodatli, xayr-xo`shlashmoq* kabi;

2) juft so`z qismi orasida *-u (-yu)* bog`lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo`yiladi va juft so`z qismlari ajratib yoziladi: *do`st-u dushman (do`st-dushman), kecha-yu kunduz (kecha-kunduz)* kabi;

3) yetakchi va ko`makchi fe'l bir xil shaklda bo`lsa, chiziqcha bilan yoziladi: *yozdi-oldi, borasan-qo`yasan, uxlabman-qolibman* kabi.

2. Belgini kuchaytiruvchi *qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, to`ppa-to`g`ri, bab-barobar* kabi so`z shakli chiziqcha bilan yoziladi (lekin *oppoq* so`zi qo`shib yoziladi).

3. So`zning *-ma, ba-* yordamida birlashgan qismi chiziqcha bilan yoziladi: *ko`chama-ko`cha, uyma-uy, rang-barang, dam-badam* kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday so`z qo`shib yoziladi: *ro`baro`, darbadar* kabi.

4. Rus tilidan aynan yoki so`zma-so`z tarjima qilish yo`li bilan olingan so`z asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: *unter-ofitser, kilovatt-soat* kabi.

5. *-chi, -a (-ya), -ku, -u (-yu), -da, -e, -ey (-ey)* yuklamasi chiziqcha bilan yoziladi: *sen-chi, boraylik-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxshi-da, qo`y-e, yashang-e, o`g`lim-ey, keldi-ey* kabi. Ammo *-mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -gina (-kina, -qina)* yuklamasi o`zidan oldin kelgan so`zga qo`shib yoziladi: *keliboq, o`ziyoq, ko`rganov, ko`rdiyov, mengina, qo`shiqqina* kabi.

6. Tartib son arab raqami bilan yozilsa, *-nchi* qo`shimchasi o`rniga chiziqcha (-) qo`yiladi: *7- sinf, 5-, A» sinfi, 3-, 7-, 8- sinf o`quvchilari, 60- yillar, 1991- yilning 1-sentabri* kabi. Tartib sonni ko`rsatuvchi rim raqamidan keyin chiziqcha yozilmaydi: *XX asr, X sinf* kabi.

## **CHIG`ATOY TILI**

*Chig`atoy tili* atamasi mo`g`ul istilosidan keyin paydo bo`lgan. Chingizxonning o`rtancha farzandi bo`lgan Chig`atoy O`rta Osiyo va Afg`onistonda hukmronlik qilgan. Natijada *chig`atoy yurti, chig`atoy ulusi, chig`atoy adabiyoti, chig`atoy tili* degan atama iste`molga kirgan.



## QOMUSDA TAVSIFLANGAN TUSHUNCHALAR VA MUALLIFLARI KO'RSATKICHI

- ABDURAHMONOV G'ANIYON (*O'.Xoliyorov*) – 9  
ABDURAIMOVA MUHABBAT (*X.Qodirova*) – 9  
ABDURAUFI FITRAT (*Sh.Sattarov*) – 9  
ABDULLAYEV YO'LDOSH (*X.Qodirova*) – 10  
ABU HAYYON AL-ANDALUSIY (*Y.Ibatov*) – 10  
“ABUSHQA” (*U.To'rayeva*) – 11  
ADABIY TIL (*I.Xudoynazarov*) – 11  
AGGLYUTINATIV TILLAR (*I.Xudoynazarov*) – 11  
AJRATIB YOZISH (*M.Xushvaqov*) – 12  
Alfavit (q. Alifbo)  
ALIFBO (*X.Qodirova*) – 12  
ALISHER NAVOIY (*Y.Ibatov*) – 13  
Aniq nisbat (q. Nisbat)  
Antonim (q. Zid ma'noli so'z)  
Antonimiya (q. Zid ma'nolilik)  
ANTROPONIMIKA (*I.Xudoynazarov*) – 14  
Apakopa (q. Fonetik o'zgarish)  
ARAB TILI (*G.Himmatova*) – 14  
ARAB YOZUVI (*G.Himmatova*) – 14  
ARGO (*X.Qodirova*) – 15  
ARXAIK SO'Z (*X.Qodirova*) – 15  
Asos ma'no (q. O'z ma'no)  
Asos til (q. Bobo til)  
ASOS VA QO'SHIMCHA IMLOSI (*U.To'rayeva*) – 15  
ASOS VA QO'SHIMCHA TALAFFUZI (*O.O'rinova*) – 17  
ASQAROVA MAZLUMA (*T.Valiyev*) – 17  
Assimilyatsiya (q. Tovush moslashishi)  
ATAMA (*O.O'rinova*) – 18  
ATASH MA'NOSI (*O'.Xoliyorov*) – 18  
Atov gap (q. Gap)  
“AT-TUHFAT UZ-ZAKIYATU FIL-LUG'ATIT TURKIYA” (TURKIY TIL HAQIDA NOYOB TUHFA) (*D.Bozorova*) – 18  
AVSTRALIYA TILLARI OILASI (*M.Bahriddinov*) – 19  
BARQAROR BIRIKMA (*X.Qodirova*) – 19  
Berkitilgan bo'g'in (q. Bo'g'in)  
Berkitilmagan bo'g'in (q. Bo'g'in)  
Bir bosh bo'lakli gap (q. Gap)  
Bir ma'noli so'z (q. Bir ma'nolilik)  
BIR MA'NOLILIK (*O.O'rinova*) – 20  
Birgalik nisbat (q. Nisbat)  
BOBO TIL (*I.Xudoynazarov*) – 20  
BOLQAR TILI (*G.Himmatova*) – 20  
BOLQON TURKLARI TILI (*M.Bahriddinov*) – 21  
BOG'LANGAN QO'SHMA GAP (*B.Mengliyev*) – 21  
Bog'liq urg'u (q. Urg'u)  
BOG'LOVCHI (*U.To'rayeva*) – 22  
BOG'LOVCHISIZ QO'SHMA GAP (*B.Mengliyev*) – 24  
BOSH BO'LAKLAR (*B.Mengliyev*) – 24  
BOG'LAMA (*T.Valiyev*) – 26  
BOSH HARF IMLOSI (*U.To'rayeva*) – 27  
Bosh kelishik (q. Kelishik)  
Bosh ma'no (q. O'z ma'no)  
BOSHQA TILDAN O'ZLASHGAN AYRIM SO'Z TALAFFUZI (*X.Qodirova*) – 28  
Boshqa turkum so'zlarining otga ko'chishi (q. Ot)  
BOSHQIRD TILI (*M.Bahriddinov*) – 29  
BRAXMA YOZUVI (*K.Rixsiyeva*) – 30  
Bronx (Nutq a'zolari)  
Burun (Nutq a'zolari)  
Burun undoshi (q. Undosh tovush)  
Buyruq gap (q. Gap)  
Buyruq-istak mayli (q. Mayl)  
BO'LISHLI-BO'LISHSIZLIK SHAKLI (*B.Bahriddinova*) – 30  
BO'G'IN (*X.Suvonova*) – 30  
Bo'g'in ko'chirish (ayn. Ko'chirish qoidasi)  
Bo'g'iz bo'shlig'i (Nutq a'zolari)  
Bo'g'iz undoshi (q. Undosh tovush)  
DAHNOMA (*D.Bozorova*) – 31

DARAJA SHAKLI (*X.Qodirova*) – 31  
 Darak gap (q. Gap)  
 DAVLAT TILI (*I.Xudoynazarov*) – 32  
 Denotativ ma'no (q. O'z ma'no)  
 DEVONI LUG'OTI-T-TURK (*D.Bozorova*) – 32  
 Diafragma (q. Nutq a'zolari)  
 DIALEKTAL LUG'AT (*X.Qodirova*) – 33  
 Dialektizm (q. Shevaga xos so'z)  
 DIALEKTOLOGIYA (*Sh.Bobomuxamedova*) – 33  
 DISFEMIZM (*X.Qodirova*) – 34  
 DRAVID TILLAR OILASI (*Sh.Bobomuxamedova*) – 34  
 Dublet sinonim (q. To'liq sinonim)  
 Dublet so'z (q. Variantdosh so'z)  
 Dulbarchin yozuvi (q. O'rxun-Enasoy yozuvi)  
 DUNYO TILLARI (*N.Mo'minova*) – 34  
 EVFEMIZM (*X.Qodirova*) – 35  
 Ega (q. Bosh bo'laklar)  
 Egali gap (q. Gap)  
 EGALIK SHAKLI (*B.Bahriddinova*) – 36  
 Egasi ma'lum gap (q. Gap)  
 Egasi noma'lum gap (q. Gap)  
 Egasi umumlashgan gap (q. Gap)  
 Egasiz gap (q. Gap)  
 Elizuya (q. Fonetik o'zgarish)  
 Emotsional-ekspressiv ma'no (q. Hissiy ma'no)  
 Epenteza (q. Fonetik o'zgarish)  
 Epiteza (q. Fonetik o'zgarish)  
 ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP (*G.Himmatova*)  
 Ergashtiruv bog'lovchisi (q. Bog'lovchi)  
 Erkin ma'no (q. Ko'chma ma'no)  
 Erkin urg'u (q. Urg'u)  
 ESKI TURKIY TIL (*N.Mo'minova*) – 45  
 Eski turkiy tilshunoslik (q. O'zbek tilshunosligi tarixi)  
 ESKI O'ZBEK ADABIY TILI (*T.Jumayev*) – 45  
 Eski o'zbek tilshunosligi (q. O'zbek tilshunosligi tarixi)  
 Eskirgan so'z (q. Tarixiy so'z)  
 ETIMOLOGIK LUG'AT (*T.Jumayev*) – 46  
 ETIMOLOGIYA (*N.Mo'minova*) – 46  
 Faol a'zo (q. Nutq a'zosi)  
 FAOL SO'Z (*X.Qodirova*) – 47  
 FARQLASH (DIFFERENSIYALASH) YOZUVI (*U.To'rayeva*) – 47  
 FAXRI KAMOLOV (*Y.Ibatov*) – 48  
 FE'L (*O.Shukurov*) – 48  
 Fe'l kesim (q. Bosh bo'laklar)  
 Fe'l turkumi tahlili (q. Fe'l)  
 Fe'l yasalishi (q. Fe'l)  
 Fe'ning lug'aviy shakllari (q. Fe'l)  
 Fe'ning ma'noviy guruhlari (q. Fe'l)  
 Fe'ning munosabat shakllari (q. Fe'l)  
 Fe'ning noke simlik shakllari (q. Fe'l)  
 Fe'ning tuzilishiga ko'ra turlari (q. Fe'l)  
 Fe'ning vazifa shakllari (q. Fe'l)  
 FINIKIYA YOZUVI (*T.Jumayev*) – 56  
 FIN-UGOR OILASI (*M.Bahriddinov*) – 56  
 Fitrat (q. Abdurauf Fitrat)  
 FLEKTIV TILLAR (*Sh.Bobomuxamedova*) – 56  
 FONEMA (*V.Karimjonova*) – 57  
 FONETIK USLUBIYAT (*O.O'rinova*) – 58  
 FONETIK YOZUV (TAMOYIL, PRINSIP) (*E.Jabborov*) – 58  
 FONETIK O'ZGARISH (*U.To'rayeva*) – 59  
 FONETIKA (*O.O'rinova*) – 63  
 FONOGRAFIK YOZUV (*T.Jumayev*) – 64  
 FRANSUZ TILI (*M.Bahriddinov*) – 64  
 FRAZEOLOGIK ANTONIMLAR (*D.Shodmonova*) – 65  
 FRAZEOLOGIK LUG'AT (*D.Shodmonova*) – 65  
 Frazеologik ma'nodoshlik (q. Ibora ma'nodoshligi)  
 FRAZEOLOGIYA (*D.Shodmonova*) – 65  
 Frazеologizm (q. Frazеologiya)  
 GAGAUZ TILI (*T.Jumayev*) – 67  
 GAP (*G.Himmatova*) – 68

Gap bo`lagi tartibi (q. Gap bo`lagi)  
 GAP BO`LAGI (*G.Himmatova*) – 71  
 Gap tahlili (q. Gap)  
 Gapning ajratilgan izoh bo`lagi (q. Gap bo`lagi)  
 Gapning uyushiq bo`lagi (q. Gap bo`lagi)  
 Genetik tasnif (q. Tillarning tasnifi)  
 Grafika (q. Yozuv)  
 GRAMMATIK KATEGORIYA (*O.O`rinova*) – 74  
 GRAMMATIK MA`NO (*O.O`rinova*) – 75  
 Grammatik qo`shimcha (q. Grammatik ma`no)  
 GRAMMATIK SHAKL (*X.Suvonova*) – 77  
 Grammatik shaklning so`zga qo`shilish tartibi (q. Grammatik shakl)  
 Grammatik shaklning tuzilishiga ko`ra turi (q. Grammatik shakl)  
 Grammatik shakllarda ortiqchalik va tejam (q. Grammatik shakl)  
 GRAMMATIKA (*O.O`rinova*) – 80  
 Harakat nomi (q. Fe`lning vazifa shakllari)  
 Harakat tarzi shakli (q. Ko`makchi fe`lli so`z qo`shilmasi)  
 HARF (*X.Qodirova*) – 80  
 HIBATUL HAQOYIQ (*D.Bozorova*) – 81  
 HIJO (*E.Jabborov*) – 81  
 HIND-YEVROPA TILLARI OILASI (*T.Jumayev*) – 81  
 His-hayajonli gap (q. Gap)  
 His-hayajonsiz gap (q. Gap)  
 HISOB SO`ZLARI (*O.O`rinova*) – 81  
 Hissiy ma`no (q. Ma`no)  
 HOJIYEV AZIM (*E.Jabborov*) – 82  
 Hosila ma`no (q. Ko`chma ma`no)  
 Hozirgi zamon shakllari (q. Zamon shakli)  
 HOZIRGI O`ZBEK ADABIY TILI (*Sh.Bobomuxamedova*) – 83  
 Ibora (ayn. Frazologizm)  
 Ibora ma`nodoshligi (q. Ma`nodoshlik)  
 Ibora shakldoshligi (q. Shakldoshlik)  
 IDEOGRAFIK YOZUV (*T.Jumayev*) – 84  
 Ijobiy ma`no (q. Ma`no)  
 Ikki bosh bo`lakli gap (q. Gap)  
 Ikki nuqta (q. Tinish belgisi)  
 IKKINCHI DARAJALI BO`LAK (*G.Himmatova*) – 84  
 Imlo (ayn. Orfografiya)  
 IMLO LUG`ATI (*U.To`rayeva*) – 87  
 IMLO QOIDALARI (*U.To`rayeva*) – 87  
 INGLIZ TILI (*G.Himmatova*) – 87  
 ISMLARNING MUNOSABAT SHAKLLARI (*B.Bahriddinova*) – 88  
 ISPAN TILI (*M.Bahriddinov*) – 88  
 Istak gap (q. Gap)  
 Istiloh (ayn. Atama)  
 ISHOQXON IBRAT (*D.Bozorova*) – 88  
 Ichki imkoniyat (q. O`zbek tilining boyishining ichki manbasi)  
 Ichki manba (q. O`zbek tilining boyishining ichki manbasi)  
 Jahon tili (q. Xalqaro til)  
 Jarangli undosh (q. Undosh tovush)  
 Jarangsiz undosh (q. Undosh tovush)  
 JARGON (*X.Qodirova*) – 89  
 “JAVOHIR U-N-NAHV FI LUG`ATI-T-TURK” (*D.Bozorova*) – 89  
 Jag` (Nutq a`zolari)  
 Jo`nalish kelishigi (q. Kelishik)  
 KAVKAZ TILARI OILASI (*Sh.Bobomuxamedova*) – 89  
 Kelasi zamon shakllari (q. Zamon shakllari)  
 KELISHIK (*B.Bahriddinova*) – 90  
 Kelishik shakllari ma`nodoshligi (q. Kelishik)  
 Kelishiklarning belgisiz ishlatilishi (q. Kelishik)  
 Kesim (q. Bosh bo`laklar)  
 Kesimlik so`zi (ayn. Bog`lama)  
 KINOYA (*O`Xoliyorov*) – 92  
 KIRILL YOZUVI (*X.Qodirova*) – 92  
 KIRISH BIRLIKLAR (*V.Karimjonova*) – 93  
 “KITOB AL-IDROK LI LISON AL-ATROK” (*D.Bozorova*) – 92  
 “KITOBUL-LUG`AT AL-MUSHTOQ FI LUG`ATI-T-TURK VA-L-QAFCHOQ” (*X.Qodirova*) – 92  
 KICHRAYTIRISH SHAKLI (*B.Bahriddinova*) – 94  
 KOREYS TILI (*M.Bahriddinov*) – 94  
 KO`MAKCHI (*O.Shukurov*) – 95

KO`MAKCHI FE`LLI SO`Z QO`SHILMASI (HARAKAT TARZI SHAKLI) (*O.Shukurov*) – 96

Ko`p ma`noli so`z (q. Ko`p ma`nolilik)

KO`P MA`NOLILIK (*O`.Xoliyrov*) – 99

Ko`p nuqta (q. Tinish belgilari)

Ko`p ma`noli iboralar (q. Ko`p ma`nolilik)

Ko`p ma`noli qo`shimcha (q. Ko`p ma`nolilik)

KO`CHIRISH QOIDASI (*M.Xushvaqtov*) – 101

KO`CHMA MA`NO (*O`.Xoliyrov*) – 102

Ko`chma ma`no hosil bo`lish usuli (q. Ko`chma ma`no) – 102

Lab (Nutq a`zolari)

Lab undoshi (q. Undosh tovush)

Lab-lab undoshi (q. Undosh tovush)

Lablangan unli (q. Unli tovush)

Lablanmagan unli (q. Unli tovush)

Lab-tish undoshi (q. Undosh tovush)

LAHJA (*Sh.Bobomuxamedova*) – 102

“LATOFATNOMA” (*T.Valiyev*) – 103

LEKSEMA (*O`.Xoliyrov*) – 103

Leksik antonim (ayn. Zid ma`noli so`z)

Leksik ma`no (ayn. Atash ma`no)

Leksik sinonimiya (q. Lug`aviy sinonimiya)

LEKSIKA (*O`.Xoliyrov*) – 103

LEKSIKOGRAFIYA (*S.Xurramova*) – 104

LEKSIKOLOGIYA (*O`.Xoliyrov*) – 104

LOTIN YOZUVI (*T.Jumayev*) – 105

Lug`atshunoslik (q. Leksikografiya)

Lug`aviy ma`no (ayn. Atash ma`no)

Lug`aviy omonim (q. Shakldoshlik)

Lug`aviy sinonimiya (ayn. So`z ma`nodoshligi)

MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY (*U.To`rayeva*) – 105

MAHMUD KOSHG`ARIY (*T.Valiyev*) – 106

MAHMUDOV NIZOMIDDIN (*Y.Ibatov*) – 106

Majhul nisbat (q. Nisbat shakli)

MALAY-POLINEZ TILLARI OILASI (*Sh.Bobomuxamedova*) – 107

MAQOL (*D.Bozorova*) – 107

MATAL (*D.Bozorova*) – 107

MAXSUS ENSIKLOPEDIK LUG`AT (*S.Xurramova*) – 107

MAXSUS FILOLOGIK LUG`AT (*S.Xurramova*) – 107

MAYL (*B.Bahriddinova*) – 108

MA`NO (*O`.Xoliyrov*) – 108

Ma`no kengayishi (q. Ma`no)

Ma`no torayishi (q. Ma`no)

Ma`no urg`usi (q. Urg`u)

Ma`nodosh so`zlar (q. Ma`nodoshlik)

MA`NODOSHLIK (*O`.Xoliyrov*) – 111

Ma`nodoshlik qatori (q. Ma`nodoshlik)

Ma`noviy sinonim (q. Ma`nodoshlik)

METAFORA (*O`.Xoliyrov*) – 115

Metateza (q. Fonetik o`zgarishlar)

METONIMIYA (*O`.Xoliyrov*) – 115

MIRZO MAHDIXON (*U.To`rayeva*) – 115

MODAL SO`Z (*O.O`rinova*) – 116

Monosemantik so`z (Bir ma`noli so`z)

Monosemiya (ayn. Bir ma`nolilik)

Morfema (q. Qo`shimcha)

MORFEM LUG`AT (*N.Yo`ldosheva*) – 117

MORFEMIKA (*B.Bahriddinova*) – 117

MORFOLOGIK TAHLIL (*V.Karimjonova*) – 118

MORFOLOGIK YOZUV (*M.Xushvaqtov*) – 118

MORFOLOGIYA (*N.Yo`ldosheva*) – 118

«MUHABBATNOMA» (*T.Valiyev*) – 118

«Muqaddimatul-adab» (q. Zamaxshariy)

Murakkab kesim (q. Bosh bo`laklar)

MURAKKAB QO`SHMA GAP (*G.Himmatova*) – 119

MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIK (*G.Himmatova*) – 120

Murakkablashgan gap (q. Gap)

Murakkablashmagan gap (q. Gap)

Mustaqil kesim (q. Bosh bo`laklar)

MUSTAQIL LUG`AVIY MA`NOLI SO`Z (*Z.Azimboyeva*) – 120

Nafas apparati (q. Nutq a`zolari)

Nafas yo`li (q. Nutq a`zolari)  
 NE`MATOV HAMID (*Y.Ibatov*) –120  
 NISBAT (*O.Shukurov*) –120  
 Nofaol a`zo (q. Nutq a`zolari)  
 Nomustaqil fe`l (q. Fe`l)  
 Nomustaqil kesim (q. Bosh bo`laklar)  
 NOMUSTAQIL LUG`AVIY MA`NOLI SO`Z (*Z.Azimboyeva*) –123  
 Numerativ so`z (q. Hisob so`zi)  
 Nuqta (q. Tinish telgisi)  
 Nuqtali vergul (q. Tinish telgisi)  
 NURMONOV ABDUHAMID (*Y.Ibatov*) –123  
 NUTQ A`ZOLARI (*X.Qodirova*) –123  
 NUTQ USLUBI (*D.Shodmonova*) –124  
 Nutq tovushi (q. Tovush)  
 NO`G`AY TILI (*G.Himmatova*) –125  
 Ohang (q. Grammatik ma`no ifodalovchi vositalar)  
 OLMOSH (*O.O`rinova*) –126  
 Olmoshning ma`noviy guruhlari (q. Olmosh)  
 Olmoshning tuzilishiga ko`ra turlari (q. Olmosh)  
 «OLTIN YORUG`» (*T.Jumayev*) –129  
 OLTOY TILLARI OILASI (*Sh.Bobomuxamedova*) –129  
 OLTOY TILI (*T.Jumayev*) –130  
 Omonim (q. Shakldoshlik)  
 Omonimiya (ayn. Shakldoshlik)  
 Onomastik lug`atlar (q. Onomastika)  
 ONOMASTIKA (*Sh.Rahmatullayeva*) –130  
 Orfoepik lug`at (q. Orfoepiya)  
 ORFOEPIYA (*X.Qodirova*) –131  
 ORFOGRAFIYA (*M.Xushvaqtov*) –132  
 Orfografiya tamoyili (q. Orfografiya)  
 Ortirma nisbat (q. Nisbat shakli)  
 OT (*K.Rixsiyeva*) –132  
 Ot kesim (q. Bosh bo`laklar)  
 Ot turkumi tahlili (q. Ot)  
 Ot yasalishi (q. Ot)  
 Otlashish (q. Ot)  
 Otning lug`aviy shakllari (q. Ot)  
 Otning ma`noviy guruhlari (q. Ot)  
 Otning tuzilishiga ko`ra turlari (q. Ot)  
 OVOZ (*X.Suvonova*) –142  
 OZAR TILI (*G.Himmatova*) –143  
 Og`iz bo`shlig`i (Nutq a`zolari)  
 Ochiq bo`g`in (q. Bo`g`in)  
 PAPUAS TILLARI (*G.Himmatova*) –143  
 PARONIM (*Z.Azimboyeva*) –144  
 PIKTOGRAFIK YOZUV (*T.Valiyev*) –144  
 POLINEZ TILLARI (*G.Himmatova*) –145  
 Polisemantik so`z (q. Ko`p ma`nolilik)  
 Polisemiya (q. Ko`p ma`nolilik)  
 POLISINTETIK TILLAR (*Sh.Bobomuxamedova*) –145  
 POLIVANOV YEVGENIY (*D.Bozorova*) –145  
 Portlovchi-sirg`aluvchi undosh (q. Undosh tovush)  
 Portlovchi undosh (q. Undosh tovush)  
 Prokopa (q. Fonetik o`zgarish)  
 Proteza (q. Fonetik o`zgarish)  
 PUNKTUATSIYA (*M.Xushvaqtov*) –146  
 QADIMGI TURKIY TIL (*T.Valiyev*) –146  
 Qaratqich kelishigi (q. Kelishik shakli)  
 QARLUQ LAHJASI (*I.Xudoynazarov*) –147  
 Qavs (q. Tinish belgilari)  
 Qipchoq guruhi (q. Turkiy tillar tarmog`ining qipchoq guruhi)  
 QIPCHOQ LAHJASI (*I.Xudoynazarov*) –147  
 QIRG`IZ TILI (*G.Himmatova*) –147  
 Qirg`iz-qipchoq guruhi (q. Turkiy tillar tarmog`ining qirg`iz-qipchoq guruhi)  
 QODIROV MUHAMMADJON (*K.Rixsiyeva*) –148  
 QORAQALPOQ TILI (*I.Islomov*) –148  
 Qorishiq undosh tovush (q. Undosh tovush)  
 Qorluq-uyg`ur guruhi (q. Turkiy tillar tarmog`ining qorluq-uyg`ur guruhi)  
 QOSIMOVA KARIMA (*X.Qodirova*) –149  
 QOZOQ TILI (*I.Islomov*) –149

QIRM-TATAR TILI (*I.Islomov*) –150  
 «QUTADG`U BILIG» (*Sh.Sattarov*) –150  
 Quyi keng unli (q. Unli tovush)  
 QO`LLANILISHI CHEGARALANMAGAN SO`Z (*Z.Azimboyeva*) –151  
 QO`LLANISH DAVRI CHEGARALANGAN SO`Z (*Z.Azimboyeva*) –151  
 QO`LLANISH DOIRASI CHEGARALANGAN SO`Z (*Z.Azimboyeva*) –152  
 QO`MIQ TILI (*T.Jumayev*) –152  
 QO`SHIB YOZISH (*M.Xushvaqto*) –152  
 QO`SHIMCHA (MORFEMA) (*X.Qodirova*) –153  
 Qo`shimcha (affiks) ma`nodoshligi (q.Ma`nodoshlik)  
 Qo`shimcha ma`no (q.Ma`no)  
 Qo`shimcha shakldoshligi (q.Shakldoshlik)  
 Qo`shimcha qo`shib so`z yasash (q.Qo`shimcha)  
 Qo`shimchalarning tuzilishiga ko`ra turlari (q.Qo`shimcha)  
 Qo`shimchalarning vazifasiga ko`ra turlari (q.Qo`shimcha)  
 Qo`shimchalarning shakl va ma`no munosabatiga ko`ra turlari (q.Qo`shimcha)  
 QO`SHMA GAP (*G.Himmatova*) –155  
 Qo`shirnoq (q.Tinish belgilari)  
 RAVISH (*N.Musulmonova*) –156  
 Ravish turkumi tahlili (Q.Ravish)  
 Ravish yasalishi (Q.Ravish)  
 Ravishdosh (q.Fe`lning vazifa shakllari)  
 Ravishning ma`noviy guruhlari (Q.Ravish)  
 Ravishning tuzilishiga ko`ra turlari (Q.Ravish)  
 Reduksiya (q. Fonetik o`zgarish)  
 RAFIYEV ABDUROZIQ (*K.Rixsiyeva*) –160  
 RUN (IY) YOZUVI (*T.Jumayev*) –160  
 RUS TILI (*I.Islomov*) –161  
 RUSTAMOV ALIBEK (*Y.Ibatov*) – 162  
 Salbiy ma`no (q. Qo`shimcha ma`no)  
 SARIQ UYG`UR TILI (*I.Islomov*) – 163  
 SART TILI (*I.Islomov*) – 163  
 SAYFULLAYEV RAUF (*X.Qodirova*) – 163  
 SAYFULLAYEVA RA`NO (*X.Qodirova*) – 163  
 Semantika (q. Semasiologiya)  
 SEMASIOLOGIYA (*O`Xoliyorov*) – 164  
 SIFAT (*M.Niyozmetova*)  
 Sifat turkumi tahlili (Q.Sifat)  
 Sifat yasalishi (Q.Sifat)  
 Sifatdosh (q. Fe`lning vazifa shakllari)  
 Sifatning grammatik ma`no turlari (Q.Sifat)  
 Sifatning ma`noviy guruhlari (Q.Sifat)  
 Sifatning tuzilishiga ko`ra turlari (Q.Sifat)  
 SINEKDOXA (*O`Xoliyorov*) – 171  
 Sinerezis (q. Fonetik o`zgarish)  
 Singarmonizm (q. Fonetik o`zgarish)  
 Sinkopa (q. Fonetik o`zgarish)  
 Sinonim (ayn. Ma`nodosh so`zlar)  
 Sinonimik qator (ayn. Ma`nodoshlik qatori)  
 Sinonimiya (ayn. Ma`nodoshlik)  
 SINTAKSIS (*B.Mengliyev*) – 171  
 SINXRONIYA VA DIAXRONIYA (*O.O`rinova*) – 172  
 Sirg`aluvchi undosh (q. Undosh tovush)  
 Sodda kesim (q. Bosh bo`laklar)  
 Sof bog`lovchi (q. Bog`lovchi)  
 Sof fe`l (q. Fe`lning vazifa shakllari)  
 Sof ko`makchi (q. Ko`makchi)  
 SOBIROV ABDULHAY (*X.Qodirova*) – 173  
 SON (*N.Musulmonova*) – 173  
 Son turkumi tahlili (Q.Son)  
 Son shakli (Q.Son)  
 Sonning ma`no turi (Q.Son)  
 Sonning tuzilishiga ko`ra turlari (Q.Son)  
 Sonor tovushi (q. Undosh tovush)  
 SOTSIOLINGVISTIKA (*D.Shodmonova*) – 176  
 Stilistik ma`no (ayn. Uslubiy ma`no)  
 SUN`IY TIL (*B.Mengliyev*) – 176  
 SURYONIY YOZUVI (*D.Shodmonova*) – 176  
 SO`G`D YOZUVI (*D.Shodmonova*) – 177  
 S O`G`D TILI (*T.Jumayev*) – 177

So`roq belgisi (q. Tinish belgilari)  
 So`roq gap (q. Gap)  
 SO`Z (*O`Xoliyov*) – 178  
 SO`Z BIRIKMASI (*B.Mengliyev*) – 179  
 So`z-gap (q. Gap)  
 SO`Z TARKIBI TAHLILI (*B.Bahriddinova*) – 182  
 SO`Z TURKUMLARI (*B.Mengliyev*) – 183  
 SO`Z TURKUMLARI ORASIDA KO`CHISH HODISASI (TRANSPOZITSIYA) (*B.Mengliyev*) – 185  
 So`z urg`usi (q. Urg`u)  
 SO`Z YASALISHI (*N.Yo`ldosheva*) – 187  
 So`z yasalishi tahlili (q. So`z yasalishi)  
 So`z yasash usuli (q. So`z yasalishi)  
 So`zlarning ma`noviy tasnifi (q. So`z)  
 So`zlarning morfologik tasnifi (q. So`z)  
 So`zlarning sintaktik tasnifi (q. So`z)  
 So`zlarning yasalishga ko`ra tasnifi (q. So`z)  
 So`zni qo`shib so`z yasash (q. So`z yasalishi)  
 SO`ZNING SHAKL VA MA`NO MUNOSABATIGA KO`RA TURI (*Sh.Sattorov*) – 187  
 Tabu (q. Evfemizm)  
 Tanglay (Nutq a`zolari)  
 TAQLID SO`Z (*O.Shukurov*) – 189  
 Taqlid so`z turkumi tahlili (q. Taqlid so`z)  
 Taqlid so`zlarning ma`no turlari (q. Taqlid so`z)  
 Taqlid so`zlarning tuzilishiga ko`ra turlari (q. Taqlid so`z)  
 TARIXIY SO`Z (*O`Xoliyov*) – 190  
 TARIXIY-AN`ANAVIY YOZUV (*M.Xushvaqtov*) – 190  
 TASDIQ-INKOR (*B.Bahriddinova*) – 191  
 TASVIRIY IFODA (*Sh.Sattorov*) – 191  
 TATAR TILI (*I.Islomov*) – 192  
 Tashqi imkoniyat (q. O`zbek tili boyishining tashqi manbasi)  
 Tashqi manba (q. O`zbek tili boyishining tashqi manbasi)  
 Teng bog`lovchi (q. Bog`lovchi)  
 Termin (q. Atama)  
 TERMINOLOGIK LUG`AT (*S.Xurramova*) – 192  
 TERS LUG`AT (*S.Xurramova*) – 193  
 TIL (*B.Mengliyev*) – 193  
 Til – yaxlit bir butunlik (q. Til)  
 Til (Nutq a`zolari)  
 Til me`yori (q. Til)  
 TIL OILASI (*I.Xudoynazarov*) – 198  
 TILLARNING TASNIFI (*I.Xudoynazarov*) – 199  
 Til oldi undoshi (q. Undosh tovush)  
 Til oldi unlisi (q. Unli tovush)  
 Til orqa undoshi (q. Undosh tovush)  
 Til orqa unlisi (q. Unli tovush)  
 Til tarixi (q. Til)  
 Til undoshi (q. Undosh tovush)  
 Til o`rta undoshi (q. Undosh tovush)  
 Tildagi o`zgarish (q. Til)  
 Til-milk undoshi (q. Undosh tovush)  
 Tilning paydo bo`lishi (q. Til)  
 Tillarning genetik tasnifi (q. Tillarning tasnifi)  
 Tillarning morfologik tasnifi (q. Tillarning tasnifi)  
 Tilning taraqqiy etishi (q. Til)  
 Til-tish undoshi (q. Undosh tovush)  
 TILSHUNOSLIK (*B.Mengliyev*) – 201  
 Tilshunoslik fani bo`limlari (q. Tilshunoslik)  
 TINISH BELGISI (*M.Xushvaqtov*) – 204  
 Tire (q. Tinish belgisi)  
 Tirik til (q. O`lik til)  
 Titroq tovush (q. Undosh tovush)  
 Tish (q. Nutq a`zolari)  
 TOVUSH (*X.Suvonova*) – 207  
 Toponimika (q. Toponimlar)  
 Toponimik lug`at (q. Toponimlar)  
 TOPONIMLAR (*I.Xudoynazarov*) – 207  
 Tovush moslashishi (q. Fonetik o`zgarish)  
 Tovush noo`xshashligi (q. Fonetik o`zgarish)  
 Tovush paychasi (q. Nutq a`zosi)  
 Tovush o`zgarishi (ayn. Fonetik o`zgarish)

TURK TILI (*T.Jumayev*) – 209  
 Turkiy yozuv (ayn. Uygʻur yozuvi)  
 TURKIY TIL (*T.Jumayev*) – 209  
 Turkiy til tarmogʻi (q. Turkiy tillar oilasi)  
 TURKIY TILLAR OILASI (*Sh.Rahmatullayeva*) – 210  
 TURKMAN TILI (*I.Islomov*) – 210  
 TURSUNOV ULUGʻ (*Y.Ibatov*) – 210  
 TUTUQ BELGISI (*M.Xushvaqtoʻv*) – **211**  
 TUV TILI (*I.Islomov*) – 211  
 Tushum kelishigi (q. Kelishik shakli)  
 TUSHUNCHI (*Oʻ.Xoliyorov*) – 211  
 Toʻliq sinonim (q. maʼnodoshlik)  
 Toʻliq gap (q. Gap)  
 Toʻliqsiz gap (q. Gap)  
 TOʻLIQSIZ FEʼL (*N.Musulmonova*) – 212  
 Toʻgʻri maʼno (q. Oʻz maʼno)  
 Toʻgʻri talaffuz meʼyori (q. Orfoepiya)  
 UMUMISTEʼMOL SOʻZ (*X.Qodirova*) – 212  
 UMUMIY ENSIKLOPEDIK LUGʻAT (*S.Xurramova*) – 212  
 UMUMIY FILOLOGIK LUGʻAT (*S.Xurramova*) – 212  
 UMUMIY IZOHLI LUGʻAT (*S.Xurramova*) – 213  
 Umumiy tilshunoslik (q. Tilshunoslik)  
 UMUMXALQ TILI (*I.Xudoynazarov*) – 213  
 UNDALMA (*B.Mengliyev*) – 213  
 Undov belgisi (q. Tinish belgisi)  
 UNDOV SOʻZ (*N.Musulmonova*) – 214  
 Undovlarning maʼno turlari (q. Undov soʻz)  
 Undovlarning tuzilishiga koʻra turlari (q. Undov soʻz)  
 UNDOSH TOVUSH (*X.Suvonova*) – 215  
 Undosh tovush talaffuzi (q. Undosh tovush)  
 UNLI TOVUSH (*X.Suvonova*) – 217  
 Unli tovush talaffuzi (q. Unli tovush)  
 URGʻU (*X.Suvonova*) – 218  
 Uslubiy maʼno (q. Maʼno)  
 Uslubiy sinonimlar (q. Maʼnodoshlik)  
 USLUBIYAT (*Z.Azimboyeva*) – 219  
 Uya birikma (q. Uyadosh soʻz)  
 Uya soʻz (q. Uyadosh soʻz)  
 UYADOSH SOʻZ (q. Uyadosh soʻz) – 219  
 Uyacha (q. Uyadosh soʻz)  
 UYGʻUR TILI (*M.Bahriddinov*) – 219  
 UYGʻUR YOZUVI (*T.Jumayev*) – 220  
 VARIANTDOSH SOʻZ (*Z.Azimboyeva*) – 220  
 Vazifadosh bogʻlovchi (q. Bogʻlovchi)  
 Vazifadosh koʻmakchi (q. Koʻmakchi)  
 VAZIFADOSHLIK (*Oʻ.Xoliyorov*) – 221  
 Vergul (q. Tinish belgisi)  
 Xabar mayli (q. Mayli)  
 XAKAS TILI (*I.Islomov*) – 221  
 XALQARO TIL (*I.Xudoynazarov*) – 222  
 XITOY TILI (*M.Bahriddinov*) – 222  
 XITOY-TIBET OILASI (*I.Xudoynazarov*) – 223  
 XOM-SOM OILASI (*I.Xudoynazarov*) – 223  
 “XUASTUANIFT” (*T.Jumayev*) – 223  
 Xususiy tilshunoslik (q. Tilshunoslik)  
 YANGI SOʻZ (*X.Qodirova*) – 223  
 YAPON TILI (*I.Islomov*) – 223  
 Yaqin (sayoz) til orqa undoshi (q. Undosh tovush)  
 Yasama maʼno (q. Koʻchma maʼno)  
 Yigʻiq gap (q. Gap)  
 Yon undosh tovush (q. Undosh tovush)  
 Yopiq boʻgʻin (q. Boʻgʻin)  
 Yordamchi soʻz turkumi tahlili (q. Yordamchi soʻzlar)  
 YORDAMCHI SOʻZLAR (*O.Shukurov*) – 224  
 Yoyiq gap (q. Gap)  
 YOZUV (*T.Jumayev*) – 225  
 YUKLAMA (*O.Shukurov*) – 227  
 Yumshoq tanglay (q. Tanglay)  
 YUNON YOZUVI (*T.Jumayev*) – 228  
 Yuqori tor unli (q. Unli tovush)

ZAHIRIDDIN BOBUR (*V.Karimjonova*) – 228  
 ZAMON (*B.Bahriddinova*) – 228  
 ZAMONAVIY SOʻZ (*Oʻ.Xoliyorov*) – 230  
 Zamonaviy oʻzbek tilshunosligi (q.Tilshunoslik)  
 Zid maʼnoli soʻz (q. Zid maʼnolilik)  
 ZID MAʼNOLILIK (*Oʻ.Xoliyorov*) – 230  
 OʻLIK TIL (*I.Xudoynazarov*) – 231  
 Oʻpka (Nutq aʼzolari)  
 Oʻrin-payt kelishigi (q. Kelishik shakli)  
 Oʻrta keng unli (q. Unli tovush)  
 Oʻrxun-Enasoy yozuvi (q. Runiy yozuvi)  
 Oʻtgan zamon shakllari (q. Zamon shakli)  
 OʻZ QATLAM (*Oʻ.Xoliyorov*) – 231  
 OʻZ MAʼNO (*Oʻ.Xoliyorov*) – 232  
 OʻZAKLI YOKI AJRATUVCHI TILLAR (*I.Xudoynazarov*) – 232  
 OʻZBEK ATAMASI (*M.Bahriddinov*) – 232  
 OʻZBEK TILI (*I.Islomov*) – 233  
 «OʻZBEK TILI ANTONIMLARINING IZOHLI LUGʻATI» (*R.Mirzayeva*) – 233  
 «OʻZBEK TILI FRAZEOLAGIZMLARINING IZOHLI LUGʻATI» (*R.Mirzayeva*) – 233  
 «OʻZBEK TILI IBORALARINING OʻQUV IZOHLI LUGʻATI» (*S.Xurramova*) – 234  
 OʻZBEK TILI LEKSIKASI (*Oʻ.Xoliyorov*) – 234  
 Oʻzbek tili leksikasi tasnifi (q. Oʻzbek tili leksikasi)  
 OʻZBEK TILI MORFEM LUGʻATI (*R.Mirzayeva*) – 235  
 «OʻZBEK TILI OMONIMLARINING IZOHLI LUGʻATI» (*R.Mirzayeva*) – 235  
 «OʻZBEK TILI SINONIMLARINING IZOHLI LUGʻATI» (*R.Mirzayeva*) – 235  
 «OʻZBEK TILINING ETIMOLOGIK LUGʻATI» (*T.Jumayev*) – 235  
 «OʻZBEK TILINING TOPONIMIK LUGʻATI» (*R.Mirzayeva*) – 236  
 «OʻZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI» (*M.Niyozmetova*) – 236  
 OʻZBEK TILINING BOYISH MANBAI (*Oʻ.Xoliyorov*) – 236  
 Oʻzbek tilining boyishining ichki manbasi (q. Oʻzbek tilining boyish manbai)  
 Oʻzbek tilining boyishining tashqi imkoniyat (q. Oʻzbek tilining boyishining tashqi manbasi)  
 «OʻZBEK TILINING ESKIRGAN SOʻZLAR OʻQUV IZOHLI LUGʻATI» (*S.Xurramova*) – 237  
 «OʻZBEK TILINING IZOHLI LUGʻATI» (*Z.Azimboyeva*) – 238  
 «OʻZBEK TILINING MAʼNODOSH SOʻZLAR OʻQUV LUGʻATI» (*S.Xurramova*) – 238  
 «OʻZBEK TILINING ORFOEPIK LUGʻATI» (*Z.Azimboyeva*) – 238  
 «OʻZBEK TILINING SOʻZ TARKIBI OʻQUV LUGʻATI» (*S.Xurramova*) – 239  
 «OʻZBEK TILINING SOʻZ YASALISHI OʻQUV LUGʻATI» (*S.Xurramova*) – 239  
 «OʻZBEK TILINING SOʻZLAR DARAJALANISHI OʻQUV LUGʻATI» (*S.Xurramova*) – 240  
 «OʻZBEK TILINING TALAFFUZDOSH SOʻZLAR OʻQUV IZOHLI LUGʻATI» (*S.Xurramova*) – 240  
 Oʻzbek tilining taraqqiyot bosqichi (q. Oʻzbek tili)  
 «OʻZBEK TILINING ZID MAʼNOLI SOʻZLAR OʻQUV IZOHLI LUGʻATI» (*S.Xurramova*) – 241  
 «OʻZBEK TILINING OʻQUV TOPONIMIK LUGʻATI» (*R.Mirzayeva*) – 241  
 «OʻZBEK TILINING OʻZLASHMA SOʻZLAR OʻQUV IZOHLI LUGʻATI» (*S.Xurramova*) – 242  
 Oʻzbek tilshunosligi (q.Tilshunoslik)  
 Oʻzbek tilshunosligi tarixi (q.Tilshunoslik)  
 OʻZGANING NUTQI (*B.Mengliyev*) – 244  
 OʻZLASHTIRMA GAP (*B.Mengliyev*) – 245  
 OʻZLASHMA QATLAM (*Oʻ.Xoliyorov*) – 246  
 OʻZLASHMA SOʻZ LUGʻATI (*Z.Azimboyeva*) – 247  
 Oʻzlik nisbati (q. Nisbat shakli)  
 OʻGʻIZ LAHJASI (*I.Xudoynazarov*) – 247  
 «OʻGʻUZNOMA» (*V.Karimjonova*) – 247  
 GʻOZI OLIM YUNUSOV (*Y.Ibatov*) – 247  
 GʻULOMOV ASKAR (*X.Qodirova*) – 248  
 GʻULOMOV AYUB (*Y.Ibatov*) – 249  
 SHAKLDOSHLIK (*Oʻ.Xoliyorov*) – 249  
 Shakldosh soʻz (q. Shakldoshlik)  
 SHAKLIY (ETIMOLOGIK YOKI GRAFIK) YOZUV (*M.Niyozmetova*) – 253  
 Shart mayli (q. Mayli)  
 Shaxsi topilmas gap (q. Gap)  
 SHAXSIY MUNOSABAT SHAKLI (*B.Bahriddinova*) – 253  
 SHAXS-SON (*B.Bahriddinova*) – 254  
 SHEVA (*I.Xudoynazarov*) – 255  
 Shevaga xos soʻz (q. Sheva)  
 SHOABDURAHMONOV SHONAZAR (*Y.Ibatov*) – 256  
 SHOR TILI (*M.Bahriddinov*) – 256  
 Shovqinli (undosh) (q. Undosh tovush)  
 CHASTOTALI LUGʻAT (*S.Xurramova*) – 256  
 Chiqish kelishigi (q. Kelishik shakli)

CHIZIQCHA BILAN YOZISH (*M.Xushvaqtoʻv*) – 257

CHIGʻ ATOY TILI (*M.Bahriddinov*) – 257

Chuqur til orqa undoshi (q. Undosh tovush)